



ONATILI

Akademik litsey I bosqich
o'quvchilari uchun

*Til xalq, millat ruhining betakror va
hech bir zamon xira tortmas ko'zguvidir.*

N. Mahmudov



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**N. S. Sulaymonova, O. S. Usmanova,
T. X. Xoljurayev, F. X. Namozova, M. Yu. Karimova,
S. R. Botirova, S. Y. Gazibekova**

ONA TILI

**Akademik litseylarning ona tili chuqurlashtirib
o‘qitiladigan ta’lim yo‘nalishlari 1- bosqich o‘quvchilari
uchun darslik**

TOSHKENT – 2023

Mas'ul muharrir:

U.Y. Qo'ziyev – NamDU “O‘zbek tilshunosligi” kafedrası mudiri, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa (PhD)doktori, dotsent.

Muharrir: O.Usmanova – NamDU AL ona tili va adabiyot fani bosh o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

1. Murodova N. K. – filologiya fanlari doktori, NDPI “O‘zbek tilshunosligi” kafedrası professori.

2. Sulaymonov M. – NamDU “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrası mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

3. Sultanova S.- TATU Urganch filialı akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, “O‘zbekiston Respublikası xalq o‘qituvchisi” sohibasi.

4. Mansurova Z.- NDPI akademik litseyi ona tili va adabiyot fani Bosh o‘qituvchisi.

ONA TILI

N.S.Sulaymonova, O.S. Usmanova, T.X. Xoljo‘rayev, F. X. Namozova , M.Yu. Karimova,
S.R. Botirova, S.Y. Gazibekova

Shartli belgilar:

Topshiriq

– topshiriq.



– mashq.



– uyga vazifa.



– mantiqiy savol



– So‘z boyligingizni oshiring

Annotatsiya

Maskur ona tili fani uchun mo‘ljallangan darslik o‘zbek (o‘z ona tili) tilida so‘zlashuvchi guruhlar uchun tuzilgan bo‘lib, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tavsiya qilgan namunaviy dastur va namunaviy o‘quv reja asosida tuzilgan. Darslik o‘quv yili davomida rejaga binoan olib boriladigan mavzularni o‘z ichiga qamrab olgan. Unda barcha fanlarga aloqador ilmiy va didaktik matnlar orqali o‘quvchining nutqiy kompetensiyalarni rivojlantiradigan mashq va topshiriqlardan foydalanish ko‘zda tutilgan. So‘z boyligini oshirish va mantiqiy savodxonlikka alohida urg‘u berilgan. Mumtoz va zamonaviy adabiyot, jahon adabiyoti durdonalari hamda bugungi kundagi dolzarb mavzular bilan bevosita bog‘liq matnlar o‘rin olgan.

Аннотация

Данный учебник родного языка предназначен для групп с узбекским языком обучения и составлен в соответствии со стандартной программой и стандартным учебным планом, рекомендованным Министерством высшего и среднего специального образования. Учебник охватывает темы, которые будут изучаться в течение учебного года. Он включает в себя упражнения и задания, которые развивают речевые навыки учащихся с помощью научных и дидактических текстов, относящихся ко всем дисциплинам. Особое внимание уделяется развитию словарного запаса и логической грамотности. Есть тексты, имеющие прямое отношение к классической и современной литературе, шедеврам мировой литературы и актуальным вопросам современности.

Annotation

The textbook for the native language is designed for groups speaking Uzbek (native language) on the basis of the standard program and the standard curriculum recommended by the Ministry of Higher and Secondary Special Education. The textbook covers topics that will be covered throughout the school year. It involves the use of exercises and assignments that develop students' speaking skills through scientific and didactic texts related to all disciplines. Emphasis is placed on vocabulary development and logical literacy. There are texts directly related to classical and modern literature, masterpieces of world literature, as well as current issues.

1-§. MILLIY TIL TARAQQIYOTI



1-mashq. Matni o‘qing. Tilning taraqqiyot bosqichlarini matndagi dalillar asosida tadrijiylikda sharhlang.

Vatanimning yangroq ovozi

Men go‘zal o‘zbek tilini oshiq Majnundek sevaman. Onasiga talpingan jujuqdek unga intilaman. Bu muhabbat borlig‘imga onamning oq suti bilan kirgan, azon va alla yanglig‘ qulog‘imga quyilgan, jismimga ruhdek yo‘g‘rilgan. Tilim u bilan chiqqan, yuragimni uning so‘zlari bilan sharhlayman. U qadim va qutlug‘ Vatanimning muborak ovozi, Odam Ato zamonidan qolgan nido. Bu musiqiy nafas necha-necha alp botirlarni ruhlantirgan, qanchadan qancha shoirlar qalbini o‘tlarga yoqmagan.

«Afrosiyobi turk» ta‘rifi bilan dunyoga dong taratgan Alp Er To‘nganing «Erga ot andoqki ko‘kka oy», O‘g‘uzxonning «Men senlarga bo‘ldim xoqon» degan tabarruk gaplari ming yillardan beri hali ham barchaga tushunarli bo‘lib keladi. O‘rxun va Enasoy bo‘ylaridagi balbal toshlarga dulbarchin yozuvi bitilgan til – qadimgi turkiy til, bugungi yangi turkiy til – o‘zbekchanning otasi emasmi, axir?

«Qoraxoniylar podshohlar uni «xoqoniya tili» deyishgan. Buyuk tilshunos Mahmud Koshg‘ariy bu tilni uchqur tulporga o‘xshatgan. U arab tilida turkiy so‘zlar devonini tuzib, butun dunyoni turkiy tilni o‘rganishga da‘vat etgan. Yusuf Xos Hojib bu tilni tog‘ ohusiga qiyos qilgandi. Faxriddin Muborakshoh esa: «Arabchadan so‘ng turkiy tildan boshqa yaxshiroq va salobatliroq til yo‘qdir» , – deydi. Nosiriddin Burhonuddin Rabg‘uziy va Alouddin G‘aybiy uning nihoyatda qadimiyligi, hattoki Odam Ato ham bu tilda so‘zlaganini rivoyat qilganlar.

Sohibqiron Temur turkiy til obro‘cini osmon qadar ko‘taradi, milliy shoirlarga homiylik qildi. O‘sha davr shoiri Haydar Xorazmiy bundan faxrlanib shunday degandi:

Turk zuhuridur ochunda bu kun,
Boshla ulug‘ yir ila turkona un!


Amir Nizomiddin Alisher Navoiy turkiy tilni o‘n sakkiz ming olamdan ham oliy olamga o‘xshatganlar. «Bu olamning ziynatli osmoni to‘qqiz qavat ko‘kdan ham yuksakroqdir. U yerda fazilatlar xazinasiga duch keldim. Xazinaning injulari yulduz gavharlaridan ham nurliroq edi. Turkiy til osmonida xayolot qushini qanotlantirdim».

Navoiy g‘azallari turkiy tilning benazir saroyidir, uning ichidan aruz ohangiga o‘ynayotgan raqqosa chiqib keladi. Turkiyda arabiy va forsiy so‘zlar ham talay. Bu hol jonajon Turkiston tuprog‘ida arab cho‘llarining xurmolari va Eron bog‘larining gul-u lolasi kabidir.

Ona tilimning har bir so‘zi Turkiston qizlari og‘zidan chiqqanda bulbul sayrog‘idek shirin eshitiladi: sanduvoch, boychechak, qizg‘aldoq, qaldirg‘och, xonqizi va hokazo. Bu til boyliklari dunyoning ko‘plab adabli xazinalarida saqlanmoqda. Men dunyoning eng go‘zal, eng qadim va eng ulug‘ tili jonim Turkistonim, ona Vatanimning yangroq ovozi – turkiy o‘zbek tilining asiriman.

(Tolib Nosir)

Nazariy ma’lumot. Umumxalq tili ma’lum bir xalqning so‘zlashuv tili bo‘lib, uzoq vaqt davomida shakllanadi. Bir tilga mansub barcha sheva va lahja umumxalq tilini tashkil qiladi. Umumxalq tili **milliy til** ham deyiladi.





2-mashq. «Vatanimning yangroq ovozi» matnini o‘qib, adabiy merosimiz xususida bahs yuriting. Matn asosida tuzilgan fikrlarni to‘g‘ri moslashtiring.

1. Turkiy til obro‘cini osmon qadar ko‘taradi, milliy shoirlarga homiylik qildi.

2. Bu tilni uchqur tulporga o‘xshatgan.

3. «Arabchadan so‘ng turkiy tildan boshqa yaxshiroq va salobatliroq til yo‘qdir».

4. Bu tilni tog‘ ohusiga qiyos qilgandi.

1. Yusuf Xos Hojib

2. Faxriddin Muborakshoh

3. Amir Temur

4. Mahmud Koshg‘ariy



3-mashq. Adabiy til, atama, shevaga xos so‘zlar xususida fikr almashing. Berilgan gaplardagi so‘zlarni namunadagidek joylashtiring.

1. Temirtosh o‘trorlik bir **uzangisoz** hunarmandning bitta-yu bitta o‘g‘li edi. (M. O.) 2. Ko‘p gapirgandan ko‘ra, qo‘lingga belni ol-da, **gazaga** chiq. («Yoshlik») 3. Mergan otar **dayrabotning** g‘ozini, Xonim, angla Huroyimning so‘zini. («Murodxon») 4. Dorilarning xillarini, **dozalarini**, ya‘ni qaysi dorida qanday **aralashmalar** borligi va bu **aralashmalar** miqdori qancha ekanligini aytdi. (N.Hakimova «Vrach bo‘lmasa»). 5. Battol qiz hovlidamiki, **giraklab** olib kiritib qo‘ysam! – dedi Ashurmirzo (M. Ismoiliiy, «Farg‘ona tong otguncha») 6. Do‘sting kelsa, **dolonda** kut, Dushman kelsa – ayvonda. 7. Menda ixtiyor yo‘q, faqat **general-gubernatordan** ruxsat bo‘lsa bas. (M. Ismoiliiy).

Namuna:

Adabiy tilga oid so‘z	Atama	Shevaga oid so‘z
o‘trorlik	general-gubernatordan	dolonda

Nazariy ma'lumot. Sheva va lahja. O'zbek umumxalq tili uch lahjadan tashkil topgan. Faqat muayyan hududga xos ayrim belgini o'zida namoyon qilgan til shakli **shevaga xos so'zlar** deyiladi. Shevalarni o'rganuvchi bo'lim **dialektologiyadir**. Adabiy til uchun **sheva ichki manba** sanaladi. **Lahja** – bir-biriga yaqin bo'lgan shevalar yig'indisi. Shevalarning faqat **og'zaki shakli** mavjud. Adabiy til shevadani **3 jihati bilan farq qiladi**:

1.	Fonetik farq – tovush jihatidan	Adabiy tilda	Shevada
		yomg'ir	jomg'ir – qipchoq lahjasida
2.	Leksik farq – so'z jihatidan	chumoli	Samarqand, Buxoroda – mo'rcha, Xorazmda – qarinja
3.	Grammatik farq – qo'shimchadagi tafovut	keldik kelyapti	Keldimiz Kelopti

Nazariy ma'lumot. O'zbek umumxalq tili tarkibida 3 ta lahja bor:

- 1) qarluq lahjasi (janubiy – sharqiy guruh);
- 2) qipchoq lahjasi (janubiy – g'arbiy guruh);
- 3) o'g'uz lahjasi (shimoliy – g'arbiy guruh).



Quyidagi so'zlarni daftaringizga yozib yodlang. So'z boyligingizni oshiring.

Chaqir I sifat. Uchli, qirrali, keskir.¹

Chaqir I fe'l. Biror yerga borishga, kelishga, biror faoliyatda qatnashishga taklif qilmoq².

^{1,2} Rahmatullayev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. –T.: "O'qituvchi". 1984. 216 b. 152-b



4- mashq. Uyga vazifa. Berilgan jadvalda 1-ustunda adabiy tilga mansub soʻz, 2-ustunda shu soʻzning Samarqand viloyati Paxtachi tumani Qarnab ota qishloq shevasida qoʻllanishi koʻrsatilgan. 3- ustunda oʻz hududingiz shevasida joylashtiring.

Adabiy til	Qarnab ota shevasi	Sizning shevangiz
Kelyapman	Kelvottim	
Boramiz	Borovuz	
Kaltakesak	Isiydi	
Yostiq	Takiya	
Sigir	Inak	

2-§. ADABIY TILNING OGʻZAKI VA YOZMA KOʻRINISHLARI



Topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi matnni oʻqib, oʻzingiz yashayotgan hudud ekologiyasi haqida fikr yuriting. Matndagi ogʻzaki va yozma shaklda turlicha boʻladigan soʻzlarni ajrating.

Ekologiya – hayot

Bundan roppa-rosa 10 yildan soʻng dunyo manzarasi qanday boʻlishi haqida hech oʻylab koʻrganmisiz? Insoniyatning hayot kechirish tarzi qay tarzda oʻzgarishi mumkinligi haqida-chi? Hozirgi anʼanalarimiz qay darajada oʻzgarishi mumkin deb hisoblaysiz? Shunisi maʼlumki, yer sharining ekologik vaziyati oʻtgan asrga nisbatan misli koʻrilmagan darajada oʻzgarishga ulgurishi bilan bir qatorda avlodlarning chinakamiga qargʻishiga sabab boʻluvchi muammolarni ham vujudga keltirdi. Garchi ushbu hodisalar dunyo hamjamiyatini global ekologik muammolar toʻgʻrisida koʻproq maʼlumotlarga ega boʻlish, tadqiqotlar olib borish va bu

muammolarni bartaraf etish borasida amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirishga undab kelayotgan bo'lsa hamki, ko'pchilik mamlakatlar va millatlar bu muammolarning ko'lami shabadasini seza olishmayapti yoxud ular o'zlarini mutlaqo xabarsizdek tutishmoqda. Ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholining qulay tabiiy muhitda hayot kechirishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, yuzaga kelayotgan va yuz berib bo'lgan muammolarga yechim topish, ularni oqilona hal qilish kabi masalalarga qay darajada ahamiyat berib kelinmoqda? Bu mavzuda shunchaki reja va konsepsiyalar ishlab chiqilib, konferensiya mavzusi sifatida qarab kelinmoqdami? Afsuski, shunday!

Global ekologik o'zgarishlarning salbiy oqibatlarini nimalarda aks etadi? Muammolarning ildizi qayerda?

Mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy hukmronlikka intilib, ulkan obro' qozonish maqsadida mamlakat ishlab chiqarishiga alohida urg'u berib kelayotganligi global ekologik inqirozni keltirib chiqarmayaptimikan? Yoki bu muammolarga biz insonlarning yashash tarzimiz sabab bo'la oladimi?

O'tgan asrga nisbatan insoniyat yashash tarzi shunchalik darajada o'zgardiki, insoniyat sivilizatsiyasida hali mutlaqo kuzatilmagan global isish, dengiz va yer ekotizimlarining misli ko'rilmagan darajada kamayib borishi-yu, yer yuzining turli mintaqalarida qurg'oqchilik, suv toshqinlari kabi bir qator salbiy holatlar ham yuz berayotganligi barchamizga birdek ayondir. Bir so'z bilan aytganda, insonning tabiatga aralashuvi aqlga sig'maydigan darajaga yetishga ulgurdi.

Xo'sh, bizda muammolar bor, lekin ularga yechimlar-chi? Nahotki hozirgi dunyoning global ekologik holati hech kimni zarrachalik qiziqtirmasa? Biz o'zimizdan keyingi avlodga qanday kelajakni meros qilib qoldirmoqdamiz? Har safar bunday og'riqli savollar bizni qachongacha qiynab keladi? Nahotki, dunyoning hozirgi qiyofasi kundan kunga bundan-da yomonlashib boraveradi-yu, biz insonlar shunchaki bir oddiy hodisadek qarab turaveramiz? Ha, albatta, biz bunga ko'nikib, yashab kelmoqdamiz!



Topshiriq

2-topshiriq. Quyidagi rasm asosida ijodiy-tavsifiy matn yarating. Undagi talaffuzi va imlosida farq qiluvchi soʻzlarning ogʻzaki va yozma shakllarini daftaringizga yozing.



Nazariy maʼlumot. 1. Tarixan tarkib topgan, qatʼiy meʼyorlarga boʻysunuvchi, soʻzlashuvchilarning qaysi hududda yashashidan qatʼi nazar barchasi uchun umumiy boʻlgan til **adabiy til** sanaladi. Adabiy til **yozma va ogʻzaki** shakllarga ega boʻladi. Harflar vositasida yozma ravishda bayon qilinuvchi adabiy til shakliga **yozma adabiy til** deyiladi. Tovushlar vositasida ogʻzaki ravishda bayon qilinuvchi adabiy til shakliga **ogʻzaki adabiy til** deyiladi.

2. Qayerda yashashidan qatʼi nazar oʻzbek millatiga mansub barcha odamlar tomonidan ishlatiladigan til milliy **oʻzbek tili** deb yuritiladi. Milliy til oʻz tarkibiga **sheva, soʻzlashuv nutqi, jargonlar, vulgarizm** (soʻkish, qargʻish soʻzlari), **varvarizm** (tilda oʻrinsiz ishlatilgan chet soʻzlar) kabi guruh soʻzlarni qamrab oladi. Milliy tilning maʼlum qoidalarga boʻysundirilgan, muayyan qolipga solingan, olimlar, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim mukammallashtirilib boriladigan shakli **adabiy til** hisoblanadi.

3. Oʻzbek tili turkiy tillar turkumiga kiruvchi tillardan biridir. Oʻzbek (turkiy) tilda yozilgan **dastlabki yozma yodgorliklar VI-VII** asrlarga tegishli boʻlib, umumturk adabiy tili sifatida shakllandi. **Oʻrxun-Enasoy yodgorliklari** (VI-VII asrlar), Mahmud Koshgʻariyning «Devonu-lugʻotit-turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig» asarlari shu tilda yaratilgan.

4. Oʻzbek tili hozirgi koʻrinishga kelguncha juda katta tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib oʻtgan. Adabiy til – muayyan umumxalq tilining qayta

ishlangan va me'yorlashtirilgan, mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. «Qayta ishlangan» tushunchasi nisbiy (tarixan turli davrlarda, turli xalqlarda adabiy til o'zgarib turgan). Hatto ayrim bir xalqqa ham adabiy til turli davrda turlicha bo'lgan. Ba'zi davrlarda bir xalq uchun boshqa bir xalq tili adabiy til vazifasini o'tagan. Masalan, fors va turkiylar uchun mumtoz arab tili, yaponlar uchun mumtoz xitoy tili; ba'zi Yevropa xalqlari uchun lotin tili adabiy til bo'lgan. Adabiy tilning ikki – **og'zaki ham yozma ko'rinishi** mavjud. Har qanday adabiy til xalq og'zaki nutqi asosida shakllanib, shu xalq tiliga xos shevalarni umumlashtiradi va barcha sheva vakillari uchun tushunarli shakl oladi. Rivojlangan adabiy tilsiz boy madaniyatga ega xalq bo'lishi mumkin emas. Shu ma'noda adabiy til jamiyatning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Adabiy til deganda ba'zan uni turli ko'rinishlari bilan qorishtirib yuboradilar. Xususan, yozma adabiy til va og'zaki adabiy til hamda badiiy adabiyot tili bilan adabiy tilni ayni bir deb bo'lmaydi. Adabiy til o'z mezonlarini egallagan shu tilda so'zlashuvchilar barchasi uchun birdek. U ham yozma, ham og'zaki shakllarda amalda qo'llanadi. Badiiy asar (yozuvchi) tili ham adabiy til me'yorlariga bo'ysunsa-da, ko'plab xususiylik hamda umume'tirof etmagan jihatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Turli xalqlarda hamma davrlarda ham adabiy til bilan badiiy asar tili bir taxlitda bo'lmagan. Adabiy til bilan milliy til o'rtasida ham farq bor. Milliy til shu tilning egasi bo'lgan xalq millat bo'lib shakllanganda yuzaga keladi. Milliy til adabiy til vazifasini o'taydi, lekin har qanday adabiy til darhol milliy tilga aylana olmaydi. Adabiy til bilan shevalar o'rtasidagi munosabat alohida muammoni tashkil etadi. Shevalar tarixan qanchalik barqaror bo'lsa, adabiy til uchun shevalarning vakillarini lingvistik nuqtayi nazardan umumlashtirish shunchalik murakkablashadi. Hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlar (Italiya, Indoneziya va boshqalar)da shevalar adabiy til bilan teng suratda qo'llanmoqda. Adabiy til tushunchasi odatda til uslublari tushunchasi bilan bog'lanadi. Ammo bu bog'lanish bir tomonlama. Chunki til uslubiyatlarining o'zi adabiy til ko'rinishlari hisoblanadi. Ular tarixan shakllangan, muayyan belgilar majmuidan iborat bo'ladi. Mazkur belgilarning bir qismi boshqa uslublarda takrorlanishi mumkin. Lekin bu

takroriy belgilarning ma'lum shaklda birikishi va vazifasining o'ziga xosligi bir uslubning ikkinchi uslubdan farqini belgilaydi. O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi (1989) o'zbek adabiy til rivojini ta'minlovchi muhim voqea bo'ldi. O'zbek adabiy tili turli xalqlar adabiy tili rivojlanish tajribasi asosida yanada takomillashib bormoqda.



Topshiriq

1-topshiriq. Alisher Navoiy hikmatlarini o'qing. Uning mazmunini izohlashga harakat qiling. Matn tarkibidagi sizga notanish so'zlarni daftaringizga ko'chiring va ularning ma'nosini topib, eslab qolishga harakat qiling.

ALISHER NAVOIY HIKMATLARI

Aysh, Navoiy, necha dilkashdurur,

Lek adab birla hayo xushdurur

(Ey Navoiy, o'yin-kulgi naqadar diltortar bo'lmasin,
odob va hayo yanada yaxshi, xushdir)³.

Befoyda so'zni ko'p aytma va foydalig' so'zni
eshiturdin qaytma.

(Befoyda so'zni ko'p gapirma va foydali so'zni
eshitishdan tortinma).

Bu gulshan ichra yo'qdur baqo guliga sabot,

Ajab saodat erur chiqsa yaxshiliq bila ot.

(Bu dunyoda abadiy qolmoq mumkin emas, biroq yaxshi nom qoldirmoq katta saodatdir).


Kular yuz ila ato-saxo ustig'a saxo.

(Ochiq chehra bilan, minnatsiz qilingan yaxshilik saxovat ustiga saxovatdir).

Gulda vafo yo'qin qayu bir qushki angladi,

Hargiz vafo guli tilamas dahr bog'idin.

(Gulda vafo yo'qligini bilgan qush dunyo bog'idin vafo gulini aslo istamaydi).



Naf'ing agar xalqqa beshakdurur
 Bilki, bu naf' o'zunga ko'prakdurur.
 Ilmni kim vositayi joh etar,
 O'zini-yu xalqni gumroh etar.
 O'z vujudingga tafakkur aylagil,
 Har ne istarsen, o'zungdin istagil.
 Xaloyiqqa ko'rma qilib benavo,
 O'zingga ravo ko'rmaganni ravo.
 Odami ersang demagil odami,
 Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.
 IIm, Navoiy, sanga maqsud bil,
 Emdiki ilm o'ldi, amal aylagil.



1-mashq. Rasmni diqqat bilan kuzating. Siz oilada yaqinlaringiz bilan ko'proq qaysi til shaklida muloqot qilasiz? Adabiy tilmi yoki shevaga xos so'zlardan foydalanasizmi? Shu haqidagi fikrlaringizni «Oilamiz davrasida» nomli matnda bayon qilishga harakat qiling.



2-mashq. Ikki guruhga bo'lining. «Do'stim bilan suhbat» jarayonini yoritib bering. Birinchi guruh adabiy tilning og'zaki shaklida ikki do'st suhbatini dialog shaklida og'zaki ko'rsatib bering. Ikkinchi guruh do'stlar suhbatini maktub yozish orqali yozma shaklini ko'rsatishga harakat qiling.



Quyidagi so'zlarni daftaringizga yozib yodlang. So'z boyligingizni oshiring.

Olmos I ot. Tovlanuvchi qattiq qimmatbaho mineral tosh.

Olmos II ot. Zaharli sariq gulli yovvoyi o't.



Mantiqiy savolga javob bering.

Zehningizni oshiring, xotirangizni mustahkamlang, aqliy faoliyatingizni rivojlantiring.

№ 1. O‘zbekiston, Rossiya, Fransiya, Italiya kabi davlatlarda – 3 ta, Efiopiya, Surinam, Quvayt, Suriyada – 4 ta.

Savol: Ukraina, Xitoy, Turkiya, Kanada kabi davlatlarda u nechta?

№ 2. Bir boyvachcha xonim xizmatkoriga: «Men o‘lsam, boyligimni senga xatlab beraman», – deb aytadi. Xonim xizmatkoriga yana bir gap aytadiki, xizmatkor uning uzoq vaqt yashashini xohlaydi.

Savol: mantiqiy fikrlab ko‘ring, xizmatkor nega xonimning uzoq yashashini istagan?




4- mashq. Uyga vazifa. Nutq jarayonida keng iste‘molda bo‘lgan so‘zlar haqida o‘ylab ko‘ring. O‘zbek tilini o‘rganmoqchi bo‘lgan xorijlik tanishingiz uchun adabiy tilning eng ko‘p qo‘llanadigan qaysi so‘zlarni taqdim qilgan bo‘lar edingiz. Faol so‘zlarning top yigirmatalik lug‘atini tuzishga harakat qiling.

Masalan: 1. Assalomu alaykum!

2...

3...



3-§. O‘ZBEK ADABIY TILINING TARAQQIYOTI



1-mashq. O‘zbek adabiy tilining ilk tarixiy tarqiyot bosqichida yaratilgan «To‘nyuquq» bitiktoshidan olingan parchani o‘qing. Har bir bandning bugungi adabiy tilga mos tadbilini jadvalga to‘g‘ri joylashtiring.

Qadimgi turkiy til

1. Ani subug‘ baralim. O‘l sub qo‘di bardimiz, sanag‘ali tushurtimiz, atig‘ iqa bayur artimiz... kun yama, tun yama yalu bardimiz. Qirqizig‘ uqa basdimiz. 2. Su angagin achdimiz. Qani susi tarilmish, sungushdimiz, sanchdimiz, qanin o‘lurtumiz. Qag‘anqa qirg‘iz bo‘duni ichikdi, yukunti, yantimiz. Ko‘gman yishig‘ abiru kaltimiz. 3. Qirqizda yantimiz. Turgas qag‘anta ko‘rug‘ kalti, sabi antag: O‘ngdan qag‘ang‘aru su yo‘rilim, tamis, yo‘rimasar, bizni. 4. Bizni o‘lurtachi kuk, tamis. Turgis qag‘ani tashiqmish, tadi. O‘n o‘q bo‘duni qalisiz tashiqmish. Tabg‘ach susi bar armish. O‘l sabig‘ asidip, qag‘anim: Ban abgaru tushayin, tadi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili

1. Bizni o‘ldiradigan ko‘rinadi, – debdi. – Turgash xoqoni maydonga chiqibdi,– debdi. O‘n o‘q xalqning hammasi bekam-u ko‘st chiqibdi, – debdi. Tabg‘ach lashkari (ham) bor ekan». O‘sha gapni eshitib, xoqonim men uyga tushayin, – dedi. 2. Ani suvidan boraylik». O‘sha suvning quyi tomoniga bordik, (qo‘shinni) sanagani tushirdik, ot(lar)ni butalarga boylar edik. Kun-u tun yelib bordik. Qirg‘izni (uyquda) qo‘qqisdan bosdik. 3. Lashkar engag (jag‘)ini ochdik (hayyo-hayt soldik). Xoni, lashkari yig‘ildi, jang qildik, sanchdik, xonini o‘ldirdik. Xoqonga qirg‘iz xalqi taslim bo‘ldi, ta‘zim qildi. Qaytdik. Ko‘gman yishni aylanib keldik. 4. Qirg‘izdan qaytdik. Turgash xoqondan (sir bilish uchun jo‘natilgan) kuzatuvchi (qaytib) keldi. Keltirgan xabari shunday: «Sharqdan xoqonga qo‘shin yo‘llaylik, – debdi. – Yo‘llanmasa, u bizni (yengadi)

Qadimgi turkiy til	Hozirgi o‘zbek adabiy tili.
--------------------	-----------------------------

1.	
2.	
3.	
4.	

Nazariy ma'lumot. Har bir til o'z tarixiy taraqqiyot bosqichiga ega. O'zbek tili hozirgi ko'rinishiga qadar uzoq tarixiy jarayonni bosib o'tgan. N. Mahmudov o'zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichini quyidagicha tasnif qiladi:

I. Qadimgi turkiy til. Miloddan avvalgi davrdan X asrgacha bo'lib, bu tilda O'rxun- Enasoy yodgorliklari, «Irq bitigi» yaratilgan.

II. Eski turkiy til. XI- XIV asrlarni o'z ichiga olib, «Qutadg'u bilig», «Hibat ul- haqoyiq», «Devonu lug'ot at-turk», «O'g'uznoma», «Muhabbatnoma», «Qissasi Rabg'uziy» kabi asarlar yaratilgan.

III. Eski o'zbek adabiy tili. XV- XIX asrlarda amalda bo'lib, Lutfiy, Sakkokiy, Durbek, Atoiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Feruz, Muqimiy, Furqat kabi ijodkorlar qalam tebratgan.

IV. Hozirgi o'zbek adabiy tili. XX asrdan boshlab shakllanadi. Fitrat, Cho'lpon, A. Qodiriy, G'. G'ulom, H. Olimjon kabi adiblar asarlarini yaratdi.



2-mashq. Eski turkiy tilga mansub quyidagi matnni o'qing. Davr tilining o'ziga xos xususiyatlari, matn mazmuni haqida fikr yuriting. Nuqtalar o'rniga mos so'zni tanlang.

1. Iqilachim erig bo'ldi, Erig bo'lg'u yeri ko'rdi. Bulit o'rub ko'k o'rtuldi, Tuman turub to'li yag'di. (Sho'x, o'ynoqi ... sur'at bilan chopdi, ... o'zdi. Bulut ko'tarilib, tuman tushib do'l yog'gani uchun u shunday sho'xlikni munosib topdi). 2. Qaqlar qamug' ko'lardi, Tag'lar bashi ilardi. Ajun tini yilirdi, Tutu chechak cherkashur. (Yomg'ir va ... qoq yerlar ko'l bo'ldi, Tog' boshlari (ko'zga arang) ilashdi. Dunyo ... ilidi. Turli chechaklar saf tortdi). 3. Bulnar meni ulas

ko‘z, Qara mengiz, qizil yuz. Andin tamar tugal tuz, Bulnab yana ul qachar. (Xumor ko‘zli, ko‘rkam yuzli, qora xolli (seviklim), yonoqlaridan yoqimlilik tomayotgandek meni ... qiladi. Asir qiladi-da, so‘ng ...). («Devonu lug‘ot at-turk»)

1	A)	Tulporim	B)	Qushim	C)	Otim	D)	Lochinim
2	A)	Yugurishda	B)	Yugurishda	C)	Chopishda	D)	Yelishda
3	A)	Do‘ldan	B)	Suvdan	C)	Qordan	D)	Seldan
4	A)	Nafasi	B)	Ifori	C)	Hidi	D)	Sasi
5	A)	Qul	B)	Tutqun	C)	Yor	D)	Asir
6	A)	Kuladi	B)	Qochadi	C)	Azoblaydi	D)	Yig‘laydi

Nazariy ma‘lumot. Dunyo tillari kelib chiqishi, bir-biriga yaqin xususiyatlariga ko‘ra til oilalariga bo‘linadi. Hozirgi kunda 20 dan ortiq til oilasi bor. Ular Hind-Yevropa oilasi, Oltoy oilasi, Fin-ugor oilasi, Xom-som oilasi, Kavkaz oilasi, Xitoy-Tibet oilasi kabi.

Turkiy tillar oilasida 30 ga yaqin til bor. Ular: o‘zbek, uyg‘ur, qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq, turk, yoqut, ozarbayjon, turkman, gagauz, qirim-tatar, qorachoy-bolqar, qo‘miq, no‘g‘ay, tatar, boshqird, oltoy, shor, xakas, tuva, chuvash kabi.



3- mashq. Eski o‘zbek adabiy tiliga mansub quyidagi matnni diqqat bilan o‘qing. Mazmuni xususida fikr yuriting. Matn asosida tuzilgan test savollariga javob bering.

Badiuzzamon mirzo, Muzaffar mirzo, Muhammad Burundiq barlos, Zunnun Arg‘un o‘g‘li Shohbek Balxda Sulton Qulichoqni qamal qilgan Shayboniyxonning ustiga yurish maqsadida Sulton Husayn mirzoning barcha o‘g‘illariga kishilar yuborib chaqirtirdilar. Ushbu harakat bilan Hirotdan ham chiqdilar. Ular Bodg‘isga yetganlarida, Childuxtaronida Abulmuhsin mirzo Marvdan kelib qo‘shildi. Undan so‘ng Ibn Husayn mirzo ham To‘n va Qoyindan keldi. Kepak Mirzo Mashhadda

edi. Bir necha marta kishilar yuborsalar-da, noma'qul so'zlar aytib, nomardlik qilib kelmadi. Uning gina-kudurati Muzaffar mirzodan edi, ya'ni: «U podshoh bo'lganda, men qanday qilib uning qoshiga boraman?!» – derdi. Shunday bir paytda barcha og'a-ini bir yerda yig'ilib, ittifoq bo'lib, Shayboniyxondek g'anim ustiga azm-u jazm qilib yurayotganida ana shunday bemaza ginaxonligini qilib kelmadi. Uning bu kelmaganini hozircha ginaxonlikka yo'yarlar, holbuki, barcha buni nomardlik deb o'yladi. Bundan maqsad shuki, bu dunyoda kishidan ana shunday narsalar esda qoladi. Aql egasi bo'lgan har qanday odam ortidan yomon so'z bilan eslanadigan ishlarga nega qo'l urarkin, es-hushi joyida bo'lgan har bir kishi dunyodan o'tgach tahsinlar bilan eslanadigan ishlarni qilishga nega urinmas ekan? Ismning yodga olinishini hakimlar ikkinchi umr deganlar. (Bobur «Boburnoma»)

1. Shayboniyxonning ustiga yurish maqsadida Sulton Husayn mirzoning barcha o'g'illariga kishilar yuborib chaqirtirdilar. Nega Kepak mirzo kelmaydi?

- A. Mashhadda bo'lgani uchun
- B. O'zaro birlashishni xohlamagani uchun
- C. Muzaffar mirzodan gina-kudurati tufayli
- D. Nomard inson edi, jangdan qochadi.

2. «Boburnoma» dan olingan matndan olingan xulosani to'g'ri ko'rsating.

- A. Es-hushi joyida bo'lgan har bir kishi dunyodan o'tgach tahsinlar bilan eslanadigan ishlarni qilishga
- B. Shayboniyxondek g'anim ustiga azm-u jazm qilib jang qilish
- C. Badiuzzamon mirzo lashkari ostida birlashish
- D. Mu/zaffar mirzo lashkari ostida birlashish



Quyidagi so'zlarni daftaringizga yozib yodlang. So'z boyligingizni oshiring.

Istak I ot. Xohish

Istak II ot. Ishkom, sori bagazlariga tok novdalarini bog'lash uchun ishlatiladigan tol chiviriqlari.



4- mashq. Uyga vazifa. O‘zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi. O‘zbek tilining o‘tmishi, buguni, ertangi kuni haqida matn yarating. «Davlat tili to‘g‘risida»gi Qonun moddalarini o‘qib o‘rganing. «Davlat tili to‘g‘risida»gi qonun bandlarining bajarilishi» mavzusida 200 – 250 so‘zli esse yozing. Unda quyida berilgan bandlardan foydalaning.

O‘zbekiston Respublikasining davlat tili – o‘zbek tili. Barcha davrlarda bo‘lgani kabi bugungi kunda ham o‘zbek tili boshqa tillardan so‘z olib rivojlanib, boyib bormoqda. Bu milliy tilimizning kelajagiga qanday ta’sir ko‘rsatadi? O‘zbek tilini xalqaro til darajasiga ko‘tarishi uchun qanday ishlar amalga oshirilishi kerak va siz nima qila olasiz? Axir, tilni xalq yaratadi, siz ham shu xalq orasidasiz-ku!

6- modda. O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

17- modda. Noshirlik faoliyati davlat tilida , ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

22- modda. Respublikaning ma’muriy- hududiy birliklari, ko‘chalar va geografik obyektlarning nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

“O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili o‘zbek tilidir”

“Davlat tili haqida”gi qonun, 1-modda.

■ *Til — umumbashariy qadriyat, insoniyatga ato etilgan ulug‘ ne’matdir. Muhtaram Yurtboshimiz «Ona tili bu — millatning ruhidir. O‘z tilini yo‘qotgan har qanday millat o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrar», deya ta’kidlaydi. Til — shaxsni shakllantirgan, millatni vujudga keltirgan, uni taraqqiyot bosqichiga olib chiqqan mo‘tabar xilqat.*

4-§. O‘ZBEK TILIGA DAVLAT TILI MAQOMINING BERILISHI. O‘ZBEK TILINING O‘TMISHI, BUGUNI, ERTANGI KUNI



1-mashq. O‘zbek tilining qadimiyligini aks ettirgan ushbu she’rni o‘qing. Unda nomlari tilga olingan allomalar haqida fikr yuriting. Bu zotlarning tilimiz rivojiga qo‘shgan hissalar haqida nimalarni bilasiz? Shu haqidagi fikrlaringizni o‘rtoqlaringiz bilan baham ko‘ring.

ONA TILI

Kelib ketdi necha dunyolar,
Kuldi hayot yig‘ladi o‘lim.
Sen deb qurbon bo‘ldi bobolar,
Ular ketdi sen qolding tilim.

Ammo dushman o‘ldirgan botir,
Tirilgandek yana qasosga,
Mangu borsan va mangu qodir,
To‘ldirmoqqa yerni ovozga.

Belanchaging uzra Koshg‘ariy,
Kuylab o‘tdi qadim navoni.
Va navqiron yaproqlaringga ,
Dil qonini berdi Navoiy.

Vatan uchun baxsh etib jonni,
Kechib olov, kirib daryoga,
Farzandlaring to‘kkan har qonni,
Shimdirding sen o‘xshab giyohga.

Samarqanddan Bobur ketarkan,
Dilga bog‘lab hasrat sasini,
Olib ketdi ona yurtidan
Turkiy tilim, birgina seni

Ona tilim, omon bo‘l mangu,
Sen borsanki, men ham o‘lmayman,
Tildan qolsam men ham Oybekday,
Men ko‘zlarim bilan so‘ylayman.

(Xurshid Davron)

Mashrabmas, sen osilding dorga,
Nodiramas, sensan so‘yilgan.
Hoziqningmas, sening, ey tilim,
Boshing ayru ko‘zing o‘yilgan.



2-mashq. «O'zlik tilim – o'zbek tilim» nomli matn yarating. Unda ona tilingizning o'ziga xos xususiyatlarini bayon qiling. «Davlat tili haqidagi» Qonunning ahamiyati, uning vazifasini yoritib berishga harakat qiling.



3-mashq. Ikki guruhga bo'ling. Har bir guruhga 12 tadan teng raqamlangan kartochkalarni bering. 1-guruh 24gacha toq raqamlarni 2- guruh 24 gacha juft raqamlarni olsin va qonun bandlarining qaysi raqamga mosligini ko'rsatib bering.

1-guruh	«Davlat tili to'g'risida»gi Qonun	«Davlat tili to'g'risida»gi Qonun	2-guruh
	Lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi.	Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlarining matnlari davlat tilida bo'ladi.	
	O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini	Pochta-telegraf jo'natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko'ra boshqa tilda amalga oshiriladi.	

	qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.		
	O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta‘lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.	Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi.	
	Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi.	Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o‘sha joydagi ko‘pchilik aholi tilida olib boriladi.	
	O‘zbekistonda o‘tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek , qatnashchilarning o‘zlari tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.	O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e‘lon etiladi.	
	Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.	O‘zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o‘rta-maxsus va oliy ma‘lumot olishni ta‘minlaydi.	
	O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta‘lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.	O‘zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi.	



Quyidagi soʻzlarni daftaringizga yozib yodlang. Soʻz boyligingizni oshiring.

AXIR I rvsh. Oxiri, pirovardida, nihoyat. Axir boʻlmadi. Axir koʻndi. Qazisan, qartasan, axir zotingga tortasan! – dedi kampir omborni qulflayotib. A. Qahhor. Qoʻshchinor chiroqlari.

AXIR II yukl. Maʼnoni kuchaytiradi, taʼkidlaydi. – Nizomiddinov, – dedi rais oʻrnidan turib, – siz odamlarning vaqtini olayotirsiz axir. A. Qahhor, Munofiq.



4- mashq. Uyga vazifa. «Davlat tili toʻgʻrisida»gi Qonuning har bir bandi bilan yaqindan tanishib chiqing. Qonunning taʼlim olish sohasiga oid bandlarini ajratib oling va chuqur oʻrganishga harakat qiling. Siz oʻz ona tilingiz kelgusidagi taraqqiyoti uchun qanday hissa qoʻshishingiz mumkinligi haqidagi fikrlaringizni bayon qilishga urinib koʻring.

5-§. OʻZBEK TILINING TOVUSH TIZIMI. UNLI TOVUSHLARNING TALAFFUZI VA IMLOSI



Topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi matnni oʻqib, tovush va harfning farqini tushuntirib bering.

Tovush bilan harfni farqlash lozim, ular bir narsa emas. Harf, birinchidan, tovushning yozuvdagi shartli belgisidir. Ikkinchidan, tovushning xizmat qilish doirasi harfning xizmat doirasiga nisbatan juda kengdir. Tovush harfga nisbatan boʻyoqdor boʻladi. Harf tovushdagi bu boʻyoqlarning hammasini emas, bir qismini shartli ravishda aks ettiradi. Masalan: bordi, keldi, qish, toʻqqiz, bilak, biroq, singari soʻzlarining hammasida **i** tovushi ishtirok etadi. Lekin bulardagi **i** tovushi aynan bir xilda emas, maʼlum darajada farqli eshitiladi. Biroq **i** yozuvda faqat bitta harf (belgi) bilan ifoda etiladi. Uchinchidan, harf yozuv birligi, tovush esa til birligidir. Unli va undosh tovush quyidagi xususiyati bilan farqlanadi:

1. Unli bo'g'izda, undosh og'iz bo'shlig'ida paydo bo'ladi.
2. Unli sof ovozdanda, undosh ovoz va shovqindanda iborat.
3. Unli og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramaydi. Undosh og'iz bo'shlig'ida qarshilikka uchraydi.
4. Unli uzoq cho'zilish va musiqiy xususiyatga ega. Undosh bunday xususiyatga ega emas.
5. Unli yakka holda bo'g'in hosil qila oladi. Yakka undosh bo'g'in hosil qila olmaydi.
6. Unliga urg'u tushadi. Undosh esa urg'u olmaydi.

Nazariy ma'lumot. Tildagi unlilar sistemasi *vokalizm* deyiladi (vokalizm so'zi lotincha «vokalis» so'zidan olingan bo'lib, unli(ovozli) demakdir). Undoshlar sistemasi *konsonantizm* deyiladi (konsonantizm so'zi inglizcha «konsonantism» so'zidan olingan bo'lib, undoshlar sistemasi demakdir). Hozirgi o'zbek adabiy tilida 30ta nutq tovushi bor. Bu tovushlar to'siqqa uchrash-uchramasligiga, shovqin ishtirok etish-etmasligiga va bo'g'in hosil qilish-qilmasligiga ko'ra ikkiga bo'linadi: *unli tovush* va *undosh tovush*.

UNLI TOVUSHLAR TASNIFI

Unli tovushlar uch tomonlama tasnif qilinadi:

1. Tilning tik harakati (og'izning ochilish darajasi)ga ko'ra 3 ga ajratiladi:
 - a) yuqori tor unli: **i, u;**
 - b) o'rta keng unli: **e, o';**
 - c) quyi keng unli: **a, o.**
2. Labning ishtirokiga ko'ra unli ikkiga bo'linadi:
 - a) lablanmagan unli: **i, e, a;**
 - b) lablangan unli: **u, o', o.**
3. Tilning yotiq holatiga ko'ra ikki guruhga ajratishadi:
 - a) til oldi: **i, e, a;**
 - b) til orqa: **u, o', o.**



1-mashq. Matnni o‘qing. Unlilar talaffuzi va imlosi haqidagi ma’lumotlarga tayanib berilgan so‘zlar qanday talaffuz qilinishi haqida fikr yuriting.

I, u, e, o‘, o, a unlilarining o‘ziga xos xususiyati

1. Bir bo‘g‘inli so‘zda qisqa va ingichka talaffuz qilinadi: *sir* kabi.
2. **Q, g‘, x** undoshlari bilan yonma-yon qo‘llanganda yo‘g‘on talaffuz etiladi: *xil* kabi.
3. **Q, ng** undoshidan oldin ingichka va biroz cho‘ziq talaffuz etiladi: *ming* kabi.
4. **L, r** undoshidan oldin kelgan i unlisi bilinar-bilinmas talaffuz etiladi: *gilos* kabi.

U unlisi:

1. **K, g, y** undoshidan keyin ingichka *yuk* kabi.
2. **Q, g‘, x** undoshidan so‘ng esa yo‘g‘on talaffuz etiladi: *xulq* kabi.
3. **-uvchi, -uv** qo‘shimchasi tarkibida cho‘ziqroq aytiladi: *qo‘shuv* kabi.

O‘ unlisi:

1. Bir bo‘ginli so‘zda, shuningdek, ko‘p bo‘g‘inli so‘zning urg‘usiz bo‘g‘inida qisqa talaffuz etiladi: *so‘roq* kabi.
2. Takroriy so‘zning birinchi qismida (urg‘uli bo‘g‘inda) cho‘ziq talaffuz etiladi: *mo‘l-mo‘l* kabi.
3. Sayoz til orqa **k, g** til o‘rta **y** va bo‘g‘iz undoshi (**h**) dan so‘ng torroq unli tarzida: *yo‘l* kabi.
4. Chuqur til orqa **q, g‘, x** undoshlaridan so‘ng kengroq unli tarzida talaffuz etiladi: *qo‘r* kabi.

E unlisi:

1. So‘z va bo‘g‘in boshida kengroq (*erkin*, kabi).
2. Bo‘g‘in ichida biroz torroq (*kecha*, kabi).
3. *Feruz* so‘zlarida i tovushiga yaqin aytiladi.

A unlisi:

1. Sayoz til orqa **k, g** undoshi bilan yonma-yon kelganda yumshoq va ingichka unli tarzda: *kayfiyat* kabi.

2. Chuqur til orqa **q, g', x** undoshi bilan yondosh qo'llanganda esa yo'g'on unli tarzida: *xat* kabi talaffuz etiladi.

O unlisi:

1. Quyi keng, kuchsiz lablangan unli tarzida talaffuz qilinadi: *tosh, shamol* kabi. Shevada va jonli tilda bu unlining urg'usiz bo'g'inda «a»ga yaqin talaffuz qilinishi ham uchraydi: *samon, davon* kabi, ammo bu hol adabiy talaffuz(orfoepik me'yor) hisoblanmaydi;

2. Sayoz til orqa **k, g** undoshlaridan so'ng yumshoq: *kosib, govmish* kabi; chuqur til orqa **q, g', x** undoshidan so'ng esa yo'g'on unli tarzida talaffuz qilinadi: *qoshiq, g'ovlamoq* kabi;

3. **Y** va **h** undoshi bilan yondosh qo'llanganda ham o unlisi biroz yumshoq, ingichka unli holida talaffuz etiladi: *yor, hokim* kabi.

Ayrim so'zlar tarkibida unli **ua, oa, ao, ai, ia, aa** ko'rinishida qator kelishi mumkin. Bunda ular yo bir unli tarzida talaffuz qilinishi, yo orasiga undosh tovush qo'shib talaffuz qilinishi mumkin: *muallim – malim*.



3-mashq. Parchada ilgari surilgan g'oya haqida fikr yuriting. Tushirilib qoldirilgan harflarni qo'yib ko'chiring.

Donishmand

Sengayam, ukanggayam salomatli... tilayman. Bundan keyin kasal bo'lmanglar. Oying meni eslabdilar. Rahmat. Juda xursan... bo'ldim. Atamanning tug'ilgan kuni qanday o'tganini juda chiroyli qilib ta'ri...labsan. Bilasanmi, men shu vaqtga qadar biror marta ham tug'ilgan kunimni nishonlagan emasman. Bizning uyimizda bu...aqa odat yo'q, qolaversa, men ham boshqa...arning tug'ilgan kuniga bormayman. Rostini aytsam, umrimda bir marta shu...aqa marosimda bo'lganman. ...shanda oyim bilan qarindoshimiznikiga mehmonga borgan edik. Qarindoshimizning qizi meni bir dugonasining tug'ilgan kuniga olib bordi. Mehmonga borganimizda ikkita qizi... voqea ro'y berdi. Hali-hali buni eslab yuraman. Kelganlarning orasida bir shum bola bor ekan, o'sha ko'p ma...mashalarga sababchi bo'ldi. Bu bola shunaqayam bezori ekanki, uyni

birpa...da ag‘dar- to‘ntar qilib tashladi. Shumligining cheki yo‘q ekan. Hamma o‘tirgan edi, bir payt hojatxonaning eshi...i ichkaridan gumburlab qoldi. O‘tirganlar yugurib borishdi. Eshikni birov qulflab qo‘yibdi. Qamalib qolgan ayol bir tomondan jonholatda eshikni gumbirlatib ursa, ikkinchi tomondan:

– Kimdir ustimdan qulflab ketibdi! Oching tezroq, – deb dod solardi.

Uy egalari gir aylanib kalitni qi...irishdi.

– Mening o‘g‘lim qilgan bu ishni...o‘g‘ilchani topinglar,o‘g‘ilchani, – deydi zo‘r berib baq-baqaloq pakana bir odam.

Hamma qidirish bilan ovora-yu, u bo‘lsa og‘zini ko‘pirtirib arza...dasini maqtaydi:

– Zang‘ar juda o‘tkir bola chiqdi-da, turgan-bitgani o‘t-a,o‘t. Meni aytdi deysiz, ...onim afandimni ustidan qul...lab ketgan ham o‘sha.



Mantiqiy savolga javob bering. Zehningizni oshirib, xotirangizni mustahkamlang, aqliy faoliyatingizni rivojlantiring.

№ 1. Matematik masala. Bir mamlakat sultoni xazinasiga o‘z hukmdorligi ostidagi 12 viloyat noiblari keltirgan tilla tanga bilan to‘ldirilgan qoplarni yig‘ibdi. Kutilmaganda bir chopar halloslab kelib qolibdi va sultonga shunday debdi:

– Ey buyuk sulton, noiblaringizdan biri sizni sotdi. U yuborgan qop qalbaki tangalar bilan to‘ldirilgan. Ular tashqi ko‘rinishidan haqiqiysidan farq qilmaydi, faqat ularning og‘irligi haqiqiy tilla tanga kabi 10 gramm emas, 9 gramm.

Savol: Sulton qaysi noib yuborgan qopni bir tortishda aniqlashga ahd qilibdi. Siz unga 1 marta tortishda qaysi qop qalbaki tangalar bilan to‘ldirilganligini aniqlashda yordam bera olasizmi?

№ 2. Eng xotirasi past bo‘lgan kulrang olmaxonlar o‘rmondagi daraxtlar ko‘payishiga Hissa qo‘shar ekan.

Savol: Ular qanday qilib daraxtlar ko‘payishiga yordam beradi.



4-mashq. Uyga vazifa. So‘zlarni talaffuz qiling. Berilgan so‘zlardagi unlilar qanday talaffuz qilinishini ayting.

G'alvir, ko'l, go'r, ko'p-ko'p, zo'r-zo'r, bo'r, to'r, yozuvchi, o'quvchi, to'quvchi, oluv, til, tish, bil, qish, qolip, qobil, kotib, bahor, qalam, qarg'a, kam, katta, gap, gal, gazlama, dehqon, biroq, sira, tilak, gilam, kul, atirgul, gul, norg'ul, ro'mol, ho'l, xo'r, eslamoq, ekin, qo'l.

6 – §. UNDOSH TOVUSHLARNING TALAFFUZI VA IMLOSI



1-mashq. «Ilm olish sirlari» matnini o'qing. Unda ilgari surilgan g'oya haqida fikr yuring. Matndagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning talaffuziga e'tibor bering. Bu so'zlarda ishtirok etgan undosh tovushlarga diqqat qiling.

Ilm olish sirlari

Bitta **parhezkor**, taqvoli olim mingta ibodat qiladigan bandadan afzaldir. Yana shuni qayd etish mumkinki, olimning bir o'zi mingta shaytonning dushmanlarini ashaddiyrog'i va dahshatlirog'idir. Bir kuni Janob Rasululloh (s.a.v.) masjidga borsalar, masjidning eshigi oldida tashvishli va **noumid** holdagi Shayton alayhilla'nani ko'rdilar. Rasululloh (s.a.v.) kelishining sababini so'raganlarida, u:

–Yo Rasululloh! Masjidning ichida bir omiy (uquvsiz, ilmsiz) kishi zo'r berib namoz o'qimoqda. Men uni chalg'itishni xohladim, lekin uning yonida «Ilm shahrining darvozasi» hazrat Ali (karimallohu vajhah) **uxlab** yotibdi. Agar men shu omiyни adashtirsam, u Alini uyg'otib, undan so'rab, bu to'g'rida ilm hosil qiladi. Bu menga ko'proq zarar va yoqimsizdir. Chunki bir zararim o'zimga bir necha barobar qaytadi. Shundan bu yerda noumid bo'lib turibman, – deb aytdi.

Rasululloh (s.a.v.) shundan so'ng: «Bir olim ming obiddan afzalroqdir!» – dedilar.

Ilm va **fiqh** insonlarga dunyo va **oxiratda** eng to'g'ri yo'l ko'rsatuvchidir. Uning sohibi esa barcha axloqi hamidalarga erishadi. U saxiy, juvonmard, kamtarin, jur'atli, shikastadil, iffatli har ma'noda pokiza va boshqa xislatlarning

fayz-u barakotlaridan bahramand bo‘lish baxtiga erishadi. Baxillik – qizg‘anchiq, qo‘rqqoq va jur‘atsizlik, manmanlik, isrofgarlik va o‘ta iqtisodchi ziqna bo‘lish kabi axloqi zamimalardan o‘zini saqlab, kishilar ko‘rganlarida suhbatiga oshiqadigan go‘zal xulq egasi bo‘lib kamol topadi. Ilm insonga nima foyda-yu, nima zarar ekanini bildiradi. Inson orzu-maqсадlariga ilm orqali yetishadi.

Insonning kibr-havoga berilishi, manmanlik qilishi, baxillik va mol-dunyoga hirs qo‘yishi, qanoatsiz yoki **isrofgar** bo‘lishi islomda harom qilingani ma’lumdir. Bulardan saqlanish esa ilm cho‘qqilarini zabt etish orqali bo‘ladi. Aksincha, bunga zid bo‘lsa, inson asta-sekin tubanlashib boradi. Shuning uchun ham insonning ilm o‘rganishi farzdir.

Nazariy ma’lumot. Undosh tovushlarning hosil bo‘lishida bo‘g‘iz bo‘shlig‘i, og‘iz bo‘shlig‘i va til muhim ahamiyatga ega. Undosh tovushlar 4 yo‘nalish bo‘yicha tasnif qilinadi:

I. Qaysi nutq a’zosi ishtirok etishiga ko‘ra: (5- sinfda to‘liq ochib berilgan)

II. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra:

1) jarangli: b, v, g, d, j(dj), j, z, g‘, l, m, n, ng, r, y - -

2) jarangsiz: p, f, k, t, ch, sh, s, x, - - - - - q, h

III. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra:

1) portlovchilar: b, p, d, t, g, k, dj, q, m, n, ng;

2) sirg‘aluvchilar: v, f, z, s, j, y, r, l, sh, g‘, x, h;

3) qorishiqlar: ch.

IV. Ovozдорligiga ko‘ra:

1) sonorlar(ovozdor): m, n, ng, l, r;

2) shovqinlilar: b, v, g, d, j(dj), j, z, g‘, y, p, f, k, t, ch, sh, s, x, q, h.

Bundan tashqari:

1) burun tovushi: m, n, ng;

2) titroq tovushi: r;

3) til yon tovushi: l.



2-mashq. Berilgan soʻzlar ustunida qaysi undosh tovushlarni qoʻllay olish mumkin. Kerakli tovushlar bilan soʻzlarni birlashtiring. Tovushlarni portlovchi va sirgʻaluvchiligiga ahamiyat bering.

B	K	T	s
---	---	---	---

...avdo ...axt ...utmoq ...ovush

..avob ...otir ...amina ...avakkal

...olih ...ukik ...oʻlanka ...ushmollamoq

...omon ...oks ...oshona ...oʻr



3-mashq. «Menda havas uygʻotgan kasb» mavzusida matn yarating. Unda kelajakda qaysi kasbni egallashga harakat qilayotganligingiz haqida toʻxtaling. Matnda qoʻllagan soʻzlaringizdan 3-4 tasini yozib ularda qanday undosh tovushlar ishtirok etganligi va xususiyatlari haqida yozib qoʻying.



Mantiqiy savolga javob bering. Zehningizni oshirib, xotirangizni mustahkamlang, aqliy faoliyatingizni rivojlantiring.

№ 1. Tarixdan savol: Aholini roʻyxatga olish qadimgi Misrdan boshlangan. Ular eramizdan avvalgi 3,5 ming yil avval bu ishni amalga oshirganlar.

Savol: aholini roʻyxatga olishdan maqsad nima boʻlgan?

№ 2. Bir gap borki, uni xursand odamga aytsangiz, xafa bo‘ladi, xafa bo‘lgan insonga aytsangiz, xursand bo‘ladi.

Savol: Bu qaysi gap?



Quyidagi so‘zlarni daftaringizga yozib yodlang. So‘z boyligingizni oshiring.

Zarang I. Ot. Tanasi o‘ta darajada qattiq daraxt. Klyonning bir turi

Zarang II. Sifat. Juda qotib ketgan.



4- mashq. Uyga vazifa. Jaloliddin Rumiyning hikmatlaridagi undosh tovushlarning qo‘llanishiga diqqat qiling. Ajratib ko‘rsatilgan sozlardagi undoshlarni tovushlarning jarangli-jarangsiz turlariga mos holda tasniflashga harakat qiling.

1. Sabr – insonning maqsadiga olib boradigan eng tez yo‘l **ko‘rsatuvchidir.**
2. Donoga **yondashgil**, qoch nodondan san. 3. Hatto u xavflidir dono **dushman.**
4. Hayotda **muvaffaqiyatga** erishish uchun uch narsa muhimdir.

7–§. UNDOSH TOVUSHLARNING TALAFFUZI VA IMLOSI



1-mashq. Matnni o‘qing. Anor mevasining yana qanday foydali xususiyatlarini bilasiz? Bu haqida o‘rtoqlaringizga gapirib bering. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni o‘qing. Ularni aytilishi va yozilishidagi qanday farqlarning borligiga ahamiyat bering.

Anor – shifobaxsh meva

Mavsumiy mevalardan biri hisoblangan anorni 101 dardga davo deyishadi. U haqida juda ko‘p va xo‘p gapirish mumkin. Quyida anorning inson organizmi uchun foydali **jihatlari** hamda qay bir kasalliklarda asqatishi bilan tanishtiramiz.

Anorni iste'mol qilganingizda qon bosimi darrov **me'yoriga** tushadi, jigar tozalanadi, ortiqcha suyuqlik chiqib ketadi.



Ish yoki uydagi **muammolar** tufayli anchadan beri **halovatsizlik**, yurak siqilishi, asabiylik, qo'l titrashi, kayfiyatning o'zgarib turishidan madorsizlanib borayotgan bo'lsangiz, bir dona

anor po'stini yarim litr suvda 10 daqiqa qaynatib, asal qo'shib iching. Bu qaynatma **nevroz**, yurak o'ynog'i, surunkali charchoq, vasvasaga tushish **holatlarida** yordam beradi.

Kuz mavsumida bir donadan anor yeyishga odatlansangiz, gripp va shamollashdan cho'chimasangiz ham bo'ladi. Negaki anor S vitaminiga nihoyatda boy. Keksalar anorni kunora yeb turishlari shart. Negaki tarkibidagi **kalsiy** kattalarda uchraydigan **osteartroz** kasali bilan kurashadi. Nahorga 2 osh qoshiqdan anor sharbatidan ichilganida esa insult va **infarkt** xavfi kamayadi. Keksalarda uchraydigan **alsgeymer** kasalida ham anor yordam beradi. U xotirani **mustahkamlab**, bosh miyadagi qon aylanishini yaxshilaydi.

Nazariy ma'lumot. Undosh tovushlarning talaffuzi, qattiq va yumshoq aytilishi, jarangsizlanishi kabilar so'zning qayerida va qanday tovush bilan yondosh kelishiga bog'liq. Undosh tovush orfoepiyasi ko'proq fonetik hodisaga bog'liq bo'ladi. Xususan,

1) **b** , **d** jarangli undoshi so'z oxirida jarangsiz **p**, **t** tarzida talaffuz etiladi, bu hol o'zbek adabiy talaffuzi uchun me'yor hisoblanadi: kitob>kitop, borib>borip, yozib>yozip, savod>savot, obod>obot kabi;

2) **b**, **d** jarangsiz undosh bilan yonma-yon qo'llanganda assimillatsiyaga uchrab, **p**, **t** hoida talaffuz etiladi, bu hol ham adabiy talaffuz me'yori hisoblanadi: ibtidoiy>iptidoiy, ketdi>ketti kabi;

3) **j, z** undoshining jarangsiz undoshlar ta'sirida **sh, s** deb talaffuz etilishi ham adabiy til uchun me'yor: ijtimoiy>ishtimoiy, mazkur>maskur kabi⁴.



2-mashq. Topishmoqlarni o'qing, ularda qo'llangan undosh tovushlarga diqqat qiling. Topishmoq javoblari tarkibidagi undosh tovushni daftaringizga yozib tasniflashga harakat qiling.

1. G'ishim yo'lda yo'rg'alar,
Yurgan yo'li oqarar. (Sovun)
2. Boradi, boradi,
Tangaday joyni oladi. (Hassa)
3. O'zi turar jimgina,
Qulog'i bor birgina. (Choynak)



3- mashq. Quyidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling. Ma'nodagi farqqa e'tibor bering. So'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

dars – darz, qars – qarz, jim – chim, barcha – parcha, tars – tarz, ta'sir – tasir



1-topshiriq. Sinf bo'ylab aylana shaklida turib oling. Yumshoq koptokdan foydalangan holda so'z o'yini uyushtiring. Bunda sinfdoshlaringiz bilan biror bir so'zni aytib koptokni o'rtog'ing'izga uloqtiring. Koptokni ushlagan o'quvchi siz aytgan so'zning oxirgi tovushiga so'z aytadi va so'z boshidagi birinchi harfni biror bir xususiyatini izohlab keyin yana boshqa o'quvchiga uloqtiradi. To'xtab qolgan va koptokni tushirib yuborgan o'quvchilar o'yinni tark etadilar. Eng so'ngida qolgan o'quvchilar g'olib bo'ladilar.

Namuna: dutor r – jarangli, rubob ; bank k – portlovchi, kurash.



Mantiqiy savolga javob bering. Zehningizni oshirib, xotirangizni mustahkamlang, aqliy faoliyatingizni rivojlantiring.

⁴ Mengliyev B. , Xoliyorov O' . , Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma. 6-nashr. –T.: “Akademnashr”.2018. 512 b. 46-b

№ 1. Qiziq savol: XIX asrlarda Yevropada velosiped minish juda ommalashib ketadi. Velosiped bahona ayollarning azaliy orzularining ushalishi tezlashib ketadi. Savol: Velosiped bahona ayollar qanday orzularini amalga oshirib olishdi?

№ 2. Geografiyadan savol: Bu poytaxt ikki shaharning birlashishidan tashkil topgan. Uning nomi ham ikki shahar nomining qo‘shilishidan paydo bo‘lgan. Bu qaysi shahar?



Quyidagi so‘zlarni daftaringizga yozib yodlang. So‘z boyligingizni oshiring.

Davlat I . Ot. Mamlakatning mavjud tizimini muhokama qiluvchi mavjud tashkilot.

Davlat II. Ot. Boylik, mol-mulk, dunyo.



4-mashq. Uyga vazifa. She’rni o‘qing. Unda ifodalangan mazmun haqida o‘ylab ko‘ring. Tallafuzi va imlosida farqlanuvchi so‘zlarni aniqlab dafratingizga ko‘chib oling.

Dunyo ko‘zgusi

Dunyo asli dunyoday keng ko‘zgu erur,
Akslantirib turar fikr-u o‘yimizni.
Bellashganga mudom jangdan sado berur,
Katta-kichik ko‘rsatadi bo‘yimizni.
Xayollari samolarga talpinganning,
Derazasin koinotga ochib qo‘yar.
Kibr bilan yerga qarab yelpinganning,
Yuzlariga qumdan upa sochib qo‘yar,
Hayotiga irillagan jahllarni
It kunini boshga solib qiynar dunyo.
O‘zga baxtin ko‘rolmagan baxillarni,
Baxtin yarim qilib qo‘yib sinar dunyo.
Jon talvasa yurgan joni shirin bilan

O‘ynashganda zavqlanadi ajal o‘zi.
Hayotini bezab olgan irim bilan,
Har qadamda irim aksin ko‘rar ko‘zi.
Burch qo‘lidan tutganlarga tiriklik – farz,
Umrin o‘lchab olar sakson-to‘qson bilan.
Bekam dunyo izlaganning qalbida darz,
Fano ko‘zgu mudom nadir nuqson bilan.
Dunyo bir kun dunyolikdan tonar bo‘lsa,
Bu ko‘zguga asirlikdan qutulamiz.
Unga qadar ong mayog‘i yonar bo‘lsa –
Kutilamiz, tutilamiz, yutilamiz...

(Farida Afruz)

8-§. TOVUSH O‘ZGARISHLARI



1-mashq. Matnni o‘qing. Unda fonetik tovush o‘zgarishiga uchragan so‘zlarni aniqlashga harakat qiling. Ularning talaffuzida qanday farqlar kuzatilayotganligiga ahamiyat bering.

Ona tarbiyasi



O‘n yashar bola edim. Istanbulning Sulaymoniya mahallasida, ikki qavatli eski uyning bir xonasida oilamiz bilan ijaraga turardik. Targ‘il bir mushugimiz bo‘lardik. O‘sha kezlari u bolalagan bo‘lib, faqat bittasi tirik qolgan edi. Targ‘il nechog‘lik och qolmasin, uydagi narsalarga hecham ko‘z olaytirmasdi. Aslida esa o‘zi uchiga chiqqan o‘g‘ri edi. Allaqayerlardan go‘sho‘marib, uyga tashigani tashigan edi. Bir kuni og‘zida katta bir bo‘lak go‘sho‘ bilan zo‘rg‘a zinadan chiqib, uni dahlizga qo‘ydi-da, miyovlab bolasini chaqirdi. Bolasi kelgach, go‘sho‘tni yerdan olib, o‘zi doim ovqat yeydigan tog‘orachaga soldi.

Mushukcha go'shtga tashlanib, apil-tapil yeya boshladi. Targ'il yerga cho'zilib, tamshanib qo'ydi. U paytlarda biz yerga ko'rpacha to'shab, pastakkina xontaxta atrofida ovqatlanardik.

Kunlardan birida dasturxon atrofida o'tirgan edik. Targ'il oyim bilan mening o'rtanga kelib yotib oldi. Birozdan keyin yoniga bolasi keldi. Lekin u onasiga o'xshab jimgina yotish o'rniga boshini dasturxoniga cho'zib, ustidagi narsalarni iskay boshladi. Bu ham yetmagandek, keyin oldingi oyog'ini dasturxoniga qo'ydi. Bolasi beso'roq bir nima olmoqchi bo'lganini sezgan targ'il darhol oyoqqa turdi. Xuddi quloqsiz bolasining ta'zirini berib qo'ymoqchi bo'lgan onalarga o'xshab, bir oyog'i bilan mushukchaning boshiga tushirdi, uni urib-urib xontaxtaning tagiga kiritib yubordi. O'sha voqeadan keyin mushukcha dasturxoniga oyoq uzatganini qayta ko'rmadik.

Nazariy ma'lumot. Ona tilida tovush o'zgarishlari 2 xil bo'ladi:

1. Imloda bo'ladigan o'zgarishlar. 2. Talaffuzda bo'ladigan o'zgarishlar.

tovush o'zgarishlari: tovush o'zgarishlari:

-tovush tushishi; -tovush tushishi;

-tovush almashinishi; -tovush almashinishi;

-tovush ortishi. -tovush ortishi.

Imloda tovush tushishi

yig'i + la → yig'la i ↓

Imloda tovush almashinishi

o'ta + q → o'toq a → o

Imloda tovush ortishi

bu + aqa → bunaqa n ↑

dedi + il → deyildi y ↑

Talaffuzda tovush tushishi

saodat → sodat a ↓

Talaffuzda tovush almashinishi

faner → paner f → p

Talaffuzda tovush ortishi

kel + yapti → kelayapti a ↑

ilm → ilim i ↑



2-mashq. Quyidagi so'zlardan sodir bo'lgan fonetik o'zgarishlarni aniqlab daftaringizga yozing. Bu fonetik o'zgarishlar qaysi qo'shimchalar ta'sirida yuzaga kelayotganini bilishga urunib ko'ring.

Singlisi, mushugi, savlov, yettinchi, bog‘lovchi, issig‘i, sanog‘i, achchiq, suyanchig‘i, yig‘isi



3-mashq. Berilgan so‘zlarni quyidagi 6 guruhga ajrating. Qanday fonetik hodisa sodir bo‘lganini asoslab bering.

Buyruq, g‘isht, uvvos, meni, muallim, shahri, baland, qizar, kelsa, susay, ata, oqshom, chuchuk, mavj, bilak, egalla, bilagim, ijtimoiy, qudug‘im, somon, terakka, qiynoqqa, shu yerda, tavsiya, tanbur, dard, chiroq, qorni, oshni, izziz, uch so‘m, uchta, tibbiy, hisob, achchiq, hukm, hissiy, rais, jizza.

Imloda tovush orttirilishi	Talaffuzda tovush orttirilishi	Imloda tovush almashinishi	Talaffuzda tovush almashinishi	Imloda tovush tushishi	Talaffuzda tovush tushishi



Mantiqiy savolga javob bering. Zehningizni oshirib, xotirangizni mustahkamlang, aqliy faoliyatingizni rivojlantiring.

№1. Sherlok Xolms va Doktor Vatson Londonning bir chekkasidagi qahvaxonaga kirishadi, chekkadagi stulga borib o‘tirishadi. Xolms qahvaxona xo‘jayiniga «Ilgari qahvaxonangizda to‘s-to‘polonlar bo‘lib turarmidi?» – deb so‘raydi. Xo‘jayin og‘zi ochilib: «Buni qayerdan bildingiz?» – deb so‘raydi.

Savol : Xolms buni qayerdan bilgan edi?



Topshiriq

1-topshiriq. Fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar yozilgan qog‘ozchalar tayyorlang. Ularni ushbu jadval bo‘yicha joylashtiring.

Tovush tushishi	Tovush ortishi	Tovush almashishi



Quyidagi soʻzlarni daftaringizga yozib yodlang. Soʻz boʻyligingizni oshiring.

Dastala I. Feʼl. ketmon, tesha, bolta kabilarga sop solmoq

Dastala II. Feʼl. dasta-dasta qilmoq.



4-mashq. Uyga vazifa. «Baxtiyor bolalaigim» mavzusida matn yarating, unda fonetik oʻzgarishga uchragan soʻzlarni ajrating. Soʻzlarda qanday fonetik oʻzgarishlar sodir boʻlganligini daftaringizga yozing.



9-§. BOʻGʻIN VA UNING TURLARI



1-mashq. Matni oʻqing. Uning mazmuni haqida fikr yuriting. Ajratilgan soʻzlarni boʻgʻin koʻchirish qoidasiga mos koʻchiring.

Ikki suiqasd

– Nahotki **yodingizda** boʻlmasa, **hazratim**? – dedi Abulfazl va boʻlgan voqealarni bir-bir aytib berdi.

Qilgan ishlari Akbarming esida yo‘q. Faqat qilichni qinidan **sug‘urgani** g‘ira-shira yodiga tushdi.

– Rostdan shunday bo‘ldimi? – deb Birbaldan so‘radi.

Birbal «Gita» degan muqaddas kitobni qo‘liga olib, qasam ichdi-da:

– Bir **o‘limdan** qolganingiz chin! – dedi.

Akbar bo‘lgan hodisadan endi **dahshatda** keldi. Shuncha qonli janglardan omon chiqqan **odam** arzimagan bir qilich o‘yinida o‘lib ketsa... Qanchalik **sharmandali** ish bo‘lar edi! Boshqalar uning mastlikdagi g‘azabidan qo‘rqib churq **etolmaganda**, sherday dadil ish qilgan Man Sinx haqiqiy jasorat ko‘rsatibdi.

Yana uni bu yaxshiligi uchun yerga **ag‘anatib** urganidan Akbar juda o‘sal bo‘ldi.

– Kechagi bazmda bor bek-u mulozimlarni devoniomga chorlang! – deb buyurdi **amir** Jamilga. Ko‘pchilik qatori devoniomga kelgan Man Sinx Akbar tomonga qaray olmay, xijolat bilan boshini solintirib o‘ltirar edi. Akbarning rangi o‘chgan, qovog‘i shishgan, ovozi shamollagan odamnikiday **do‘rillab** chiqdi:

– Janobi **davlatxohlar**, g‘alaba sharafiga qilgan bazmimizning oxiri qanday dilsiyohlik bilan tugaganidan xabarlaringiz bor. Biz ham osiy banda ekanmizki, shu darajada mast bo‘libmiz. Meni «qilich kesmaydigan botir» deb maqtaganlari yolg‘on ekaniga, mana dalil! – Akbar bog‘lab qo‘yilgan bosh barmog‘ini ko‘rsatdi.

– Xudo rahmatli ustozim Salim ota: «Suv **balosidan**, o‘t balosidan, shuhrat balosidan asrasin!» – degan edilar. Kechasi biz shuhrat balosining qurboni bo‘lishimizga sal qolibdir. Dehlida tashqi dushman bizga qanday suiqaqd qilgan bo‘lsa, kecha shuhratdan hovliqib mast bo‘lishim o‘z ichimdan chiqib, ana shunday **suiqasd** qilmishdir. Xayriyatki, roja Man Sinx meni bu ikkinchi suiqaqddan qutqarib qolibdir. Maharoja, – deb Akbar Man Sinxga yuzlandi, – eng sodiq do‘st qanday bo‘lishini siz kecha amalda ko‘rsatibsiz. Mendan o‘tgan bo‘lsa, ma‘zur tuting! Man Sinx o‘rnidan turib qo‘l **qovushtirdi**:

– Uzingiz menga sari toj bo‘lsin, hazratim!

Akbar unga oltin bezakli sarupo kiydirdi, **sehazoralik** mansabidan **panj hazoralik** martabasiga ko‘tardi, o‘ziga maxsus bayroq va naqora taqdim qildi.

So‘ng u o‘zining ikki yonida qo‘r tortib o‘ltirgan ko‘kaldoshlari Aziz bilan Zayniddinga, musohiblari roja Birbal va Abulfazlga, **qaynog‘asi** Bhagvan Dasga bir-bir qarab oldi-da, so‘zini yakunladi:

– Hali bizning tashqi g‘animlarimiz ham, ichki dushmanlarimiz ham ko‘p. Qiladigan mushkul ishlarimiz behisob. Dilim sezib turibdir: bizga qarshi har xil suiqasdlar yana ko‘p bo‘lgay. Agar biz bir-birimizga roja Man Sinh kabi fidoyilik qilmasak, maqsadga **yetolmagaymiz!** Abulfazl Man Sinxning kechagi ahvolini esladi-yu, Akbarga **fidoyilik qilish** qanchalik qiyin ekanini xayolidan o‘tkazdi. «Podsho bilan sherga yaqin bo‘lish hamisha xatarlidir», degan hikmatli gap bejiz **aytilmaganini** u endi astoydil sezmoqda edi.



2-mashq. Berilgan «Ikki suiqasd» matnini o‘qing. Tovush o‘zgarishga uchragan so‘zlarni topib qaysi so‘z turkumiga mansubligini namunadagidek ko‘rsating.

Namuna: Ho‘ngra (i tushgan) fe‘l yasalgan, ...



3-mashq. Berilgan matnni o‘qing. Tovush o‘zgarishlariga uchragan so‘zlar haqida berilgan savollarga javob bering.

1. Shunchalar bilimdon siyoqingiz bor, Ming o‘ylab, bir so‘ylar o‘qituvchi ham (G‘.G‘ulom). 2. O‘zi tengi keladigan bir o‘spirinning shunday katta kitobni tutilmasdan sharros o‘qiyotganiga hayron bo‘lib og‘zi ochilib qoldi. (M. Osim) 3. Bir lahzadan so‘ng, xuddi shu buyruq bilan adyutant keldi. 4. Aziz farzandim, sen o‘zing va kelajaging uchun eng yuksak marralarni egalla.

1. 1- gapda 3 o‘rinda tovush o‘zgarish hodisasi kuzatilgan.

A) to‘g‘ri B) noto‘g‘ri

2. 2- gapda 2 o‘rinda tovush o‘zgarish hodisasi kuzatilgan.

A) to‘g‘ri B) noto‘g‘ri

3. 3- gapda tovush almashinish hodisasi kuzatilgan.

A) to‘g‘ri B) noto‘g‘ri

4. 4- gapda tovush o‘zgarish hodisasi kuzatilmagan.

A) to‘g‘ri B) noto‘g‘ri



4-mashq. Berilgan matnni o‘qing. Talaffuzda tovush o‘zgarishi yuz bergan so‘zlarni aniqlang. «Zakovat» kitobidan olingan mantiqiy savolning javobini to‘g‘ri ko‘rsating.



1. U daraxt Markaziy Osiyoda hosiyatli daraxt hisoblangan. Ocharchilik yillarida ham uning pishig‘iga yetganlar tirik qolishgan. U daraxtni kesish baxtsizlik sanalgan.

Savol: U qanday daraxt?

2. O‘tkir Hoshimovning «Daftar hoshiyasidagi bitiklar»ida shunday yozilgan: «Ikkita eng xolis hakam sinovidan o‘tgan asar haqiqiy asardir. Birinchisi tabiiyki, kitobxon. **Savol:** Ikkinchisi nima?»

3. Tabiblar uni qanday ichish kerakligini yozishgan: «Bu ajoyib ichimlikni osoyishta ich, shundagina sen tanangga ozor beruvchi tashvishlarni yenga oladigan darajada o‘zingni tetik his etasan». **Savol:** Bu qaysi ichimlik?»



5-mashq. Bo‘g‘inga ajratilishi va bo‘g‘in ko‘chirilishi mos kelmaydigan so‘zlarni aniqlang.

1. U **o‘zini oilasiz** yashashga ko‘niktirmoqchi bo‘lardi, kunini xayol surish bilan o‘tkazardi. (S. Zunnunova) 2. Chol dukning uchini **ingichkalar** ekan, kulib qo‘ydi. (Oybek) 3. **Ko‘ndalang to‘lqinlarda** muhitning zarralari to‘lqin tarqalayotgan yo‘nalishga perpendikuljar yo‘nalishda tebranadi. 4. Tongda yangi kun boshlanadi. Odamlar bir-biriga: «Xayrli tong», – deb aytishadi.



Mantiqiy savolga javob bering. Zehningizni oshirib, xotirangizni mustahkamlab, aqliy faoliyatingizni rivojlantiring.

№ 1 U dunyoda 3096 ta. Har yili ularning 14 tasi yo‘qolib ketmoqda.

Savol: U nima?

№ 2. Shunday bir narsa borki, u dastlab qo‘shiq kuylab, so‘ngra ko‘zyosh to‘kadi. **Savol:** Bu nima?

Ularning nomini varaqchalarga yozing va o‘zaro almashing. Mavzuga moslab yozilgan so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajrating.



Quyidagi so‘zlarni daftaringizga yozib yodlang. So‘z boyligingizni oshiring.

Nozik I. Sifat. Nafis, bejirim, yupqa, sinuvchan.

Nozik II. Ot. Kashtachilikda ishlatiladigan rang-barang, mayda nafis munchoq.



4-mashq. Uyga vazifa. Matnni o‘qing. Unda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni bo‘g‘inlarga to‘g‘ri ajrating. Ochiq va yopiq bo‘g‘inlarni aniqlang.

Olimlarning aniqlashicha, agar bola **organizmida** suv yetishmasa, uning aqliy va jismoniy ko‘rsatkichlari 20% ga tushib ketar ekan.

Birinchidan, miyaning 80% i suvdan tashkil topgan bo‘lib, suvning **yetishmasligi** unga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, suv qon harakatlanishiga ham yordam beradi, agar qon oqimi sekinlashsa, miyaga **kislorod** bormay qoladi. Shuning uchun bolaning suv **balansini** saqlash bilan siz uning xotirasini va **diqqatini** yaxshilagan bo‘lasiz.

10–§. URG‘U VA UNING TURLARI



Topshiriq

1- topshiriq. Berilgan matnni orfoepik me‘yorlarga mos talaffuz qiling.

Ajratilgan so‘zlarga so‘z urg‘usini qo‘ying.

Ma‘naviy zilzila

Muhammad Hakim ham Akbarning «Subhi kulliga» qarshi ekanini aytib, **isyonchilarga** yon bosgach, Muhammad Yazdiy Jaunpurning jome masjidida oqilgan xutbadan Akbarning nomini oldirib tashladi. Uning o‘rniga Muhammad

Hakimni Hindiston podshosi deb e'lon qilib, nomini xutbaga qo'shib o'qitdi. Bixar va Bangolada **markaziy** davlatdan ajralib chiqishga va yana mustaqil hokimiyat tuzishga tashna bo'lgan afg'on amirlari bor edi. Ular darhol Muhammad Yazdiy boshlagan isyonga qo'shildilar. Muhammad Yazdiy bu xabarlarni o'z tarafdorlari yordamida Gujaratga, Malvaga, Panjob va Kobulga tarqatdi. Bu viloyatlarda ham Akbarning dahriyligiga **ishonuvchilar** ko'p edi. Endi ularning orasida ham Akbarni taxtdan ag'darish haqidagi va'zlar, musulmonlarni g'azotga undovchi xitoblar yangray boshladi.

Gujaratda haligacha Akbarga qarshi kurashib yurgan Muzaffarshoh ham Akbarning o'rniga ukasini taxtga chiqarish harakatiga tushib, Kobulga maxsus vakillar yubordi. Turondagi Abdullaxondan Kobulga kelgan elchilar ham endi faqat Muhammad Hakim Hindiston podshosi bo'lishi kerakligini uning qulog'iga quydilar. Ko'pdan beri shuni istab yurgan Muhammad Hakim katta qo'shin **to'pladi-yu**, dindan qaytgan akasiga **qarshi** g'azot e'lon qilib, Hindiston **tomonga** yurish boshladi.

Akbarning o'zi qo'zg'atgan ma'naviy **zilzila** uning toj-u taxtini ham silkita boshlagach, oyoqda mustahkam turish qiyin bo'lib qoldi, saroyda vahima boshlandi. Akbar eng sodiq odamlarini atrofiga to'plab:

– Kim haqiqiy **do'st ekani** endi bilingay! – dedi. Tadar Mal bir qism **qo'shin bilan** Bixarga, Aziz Ko'ka – Gujaratga, Man Sinx – Panjobga jo'nadi, Akbarning o'zi esa eng katta xavfga aylangan Muhammad Hakimga qarshi **qo'shin tortdi**.



2-topshiriq. P. Qodirovning «Avlodlar dovoni» romanini o'qib Akbarning o'zi qo'zg'atgan ma'naviy zilzila nima ekanini ayting.

Nazariy ma'lumot. So'z bo'g'inidan yoki gapda ishtirok etayotgan so'zdan birining boshqasiga nisbatan kuchliroq aytilishiga, shuningdek, ayrim so'zlarning ma'no va talaffuzini belgilab beruvchi fonetik hodisaga **urg'u** deyiladi.

Urg'u 2 xil bo'ladi: a) so'z urg'usi; b) ma'no urg'usi.

Soʻz urgʻusi maʼno farqlash uchun xizmat qiladi.

1-mashq. Berilgan soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qiling. Soʻz urgʻusini qoʻyib maʼnosini izohlashni mashq qiling.

Bolada` (ot, - da kelishik) – **bola`-da** (ot, -da yuklama)

Bosma` (sifat, bosma harf) – **bo`sma** (feʼl, nonni bosma)

Boti`n (ot, ichki) – **bo`tin** (feʼl, shu ishni qilishga botin)

Geoxi`mik (ot, mutaxassis) – **geoximi`k** (sifat, geoximiyaga asoslangan)

Gulla`r (ot, gulning koʻpligi) – **gu`llar** (feʼl)

Ishchi` (ot, -chi soʻz yasovchi) – **i`sh-chi** (ot, -chi yuklama)

Kre`dit (ot, kredit operatsiyasi) – **kredi`t** (ot, qarz)

Moda` (sifat, makiyon) – **mo`da** (ot, did, kiyinish)

Oti`ng (ot, -ing egalik) – **o`ting** (feʼl, olmani menga oting)

Sizsi`z (sifat, Sizsiz toʻy oʻtmaydi) – **si`zsiz** (olmosh + shaxs-son, sevganim sizsiz)

Surma` (ot, bezak) – **su`rma** (feʼl)



2-mashq. Xalq shoiri M. Yusufning sheʼriy misralariga mantiqiy urgʻuni toʻgʻri qoʻying. Ajratilgan misralarda tinish belgining oʻrmini oʻzgartirib koʻring. Gap mazmuniga qanday taʼsir qilishini aytib bering.

Hazil

Mening haqimdagi gʻiybatlar yolgʻon,

Ixtiyor oʻzimda boʻlsa qaniydi.

Sharob ichish menga Xayyomdan qolgan,

Ichmasam, ul zotning koʻngli ranjiydi.

Oʻzim boshladimmi, oʻzim qilgum bas,

Doʻstlarim behuda zavolim izlar,

Agar qirqqa kirmay oʻlsam, may emas,

Meni xarob etgan bevafo qizlar!..

Sodda Muhammadman

Sodda Muhammadman,
Sodda Muhammad.
Turkman qizni maqtab baloga qoldim.
Ko‘ylagiga havas qilgandim faqat,
Toabad tuganmas g‘avg‘oga qoldim...
Nedan ranjidingiz, jon singillarim,
Qaboqlar uyuldi, chimrildi qoshlar.
Turkman tushunmay tosh o'tsa, chidadim,
Ammo yomon botdi siz otgan toshlar.
Yorug‘ dunyoda-ku bari qiz go‘zal,
Millat tanlamas-ku husn degani,
Nigohim Jayhundan sakrab o‘tsa sal,
Qaydan bilay sizga malol kelganin.
Yurtim suluvlari, sizga yo‘q ta‘rif,
Qoshingizda o‘sma yursa sirg‘alib,
Uzun sochingizni o‘rsangiz tarab,
Boqsa degan edim oy ham suqlanib.
Asli turkman qiz bir bahona, xolos,
Izlaganim edi sizlar kabilar,
Qo‘msaganim hayo – momomlarga xos,
Sog‘inganim edi Kumushbibilar...
Yonsam, hajringizda mening yonishim,
Kuysam, siz tufayli ko‘nglimdagi cho‘g‘,
Turkman qizlarda yo‘q mening tanishim,
Qalinga tuyam ham tushib qolgan yo‘q!

(M. Yusuf)



Quyidagi so‘zlarni daftaringizga yozib yodlang. So‘z
boyligingizni oshiring.

Sol I. Ot. Daryodan kechish, daryoda suzish uchun xodalarni bog‘lab tayyorlanadigan buyum.

Sol II. Fe‘l. Biror narsani idish ichiga joylamoq, qo‘ymoq.



Mantiqiy savolga javob bering. Zehningizni oshirib, xotirangizni mustahkamlang. Aqliy faoliyatingizni rivojlantiring.

№ 1. Bir yigit bor ekan. U kambag‘al bo‘lib, farzandi yo‘q ekan. Bu ham yetmagandek otasining ko‘zlari ojiz ekan. Kunlarning birida unga farishta uchrabdi va bittagina tilagingni amalga oshiraman debdi. Yigit bitta tilak bilan uchala orzusiga ham yetibdi. **Savol:** u qanday tilak so‘ragan?

№ 2. Dunyoda o‘qitiladigan fanlar ko‘p. Har bir fan o‘z ma‘nosiga ega.

Savol: Qaysi fan «Donolikni sevaman» ma‘nosini bildiradi?



3- mashq. Uyga vazifa. Quyidagi rasmlardan foydalanib «Ijtimoiy tarmoqlarning mening hayot tarzimga ta‘siri» mavzusida esse yozing. Unda 4 ta salbiy, 4 ta ijobiy dalil keltiring, har bir dalildan avval tezisni qo‘llang.



11–§. O‘ZBEK YOZUVLARI TARIXI



1-mashq. Ilmiy matnni orfoepik talablarga mos o‘qing. «Bilar edim, bildim, bilishni xohlayman» usulidan foydalanib ma‘lumotlarni daftaringizga ko‘chirib oling. Yozuv haqidagi bilimlaringizga tayanib o‘z fikringizni og‘zaki bayon etishni mashq qiling.

Yozuv haqida

Yozuv – fikrning tashqi ifodasi. U orqali kishi fikrini bir-biriga bildiradi, avlodlarga qoldiradi, yozuv orqali oldin o‘tgan voqea, shaxs, ilm va urf-odatlar to‘g‘risida ma’lumot olib, madaniyat, fan, ijtimoiy hayotda yuz bergan voqeadan voqif bo‘linadi. Qadimgi yozuv tosh, suyak, yog‘och, qamish kabi qattiq jismlarga, so‘ngra pergament, keyinchalik qog‘ozga yozilgan. Yozuv o‘ngdan chapga, chapdan o‘ngga yoki yuqoridan pastga qarab o‘qiladi.

Avesto yozuvi – bundan 2700 yil muqaddam qo‘llangan.

So‘g‘d yozuvi – miloddan avvalgi III asrdan milodiy VII asrgacha qo‘llangan. Bu yozuvda 18 ta belgi bo‘lgan.

O‘rxun-enasoy yozuvi – V-VIII asrlarda qo‘llangan. Bu yozuvda yozilgan matnlar o‘ngdan chapga qarab o‘qilgan. Ushbu yozuvda jami 35 ta belgi bo‘lgan. Shundan 4 tasi 8 ta unli tovushni, qolganlari (31) undosh tovushni ifodalagan.

Uyg‘ur yozuvi – VI-XV asrlarda qo‘llangan. Matn chapdan o‘ngga qarab yoziladi. Bu yozuvda 18 ta belgi bo‘lib, shulardan uch tasi unli tovushlarni ifodalagan.

Arab alifbosi asosidagi eski o‘zbek yozuvi tarixi – 720-yildan

(VIII asrdan) 1929-yilgacha qo‘llangan. Matn chapdan o‘ngga qarab o‘qilgan. Bu alifbodagi 32 harf 109 shaklga (o‘rniga ko‘ra 4 xil) ega.

Lotin alifbosi asosidagi o‘zbek yozuvi tarixi – 1930-yildan 1940-yilgacha (1929-yildan qo‘llangan degan ma’lumot ham uchraydi) qo‘llangan. Matn o‘ngdan chapga qarab o‘qilgan. Bu yozuvda jami 30 ta belgi bo‘lgan. Shundan 6 tasi unli, 24 tasi undosh tovushlarni ifodalagan.

Kirill alifbosi asosidagi o‘zbek yozuvi – 1940-yil 8- maydan bugungi kunga qadar qo‘llanib kelmoqda. Bu yozuvda jami 35 ta harf bor, shundan, 10 tasi

unli tovush, 23 tasi undosh tovushdan iborat (yumshatish belgisi «Ъ»), ayirish belgisi «Ъ» ishlatilgan.

Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi – 1993-yil 2- sentyabrdan amalga kiritilgan. 1995-yil 6-mayda o‘zgartirish kiritilgan. 1993-yil 2- sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan «Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilindi. 31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof)dan iborat. 1995-yil 6-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan «Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi Qonunga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi Qonun e‘lon qilindi. Yangi alifboda 26 ta harf, 3 ta harflar birikmasi va bitta tutuq belgisi mavjud.

Nazariy ma’lumot. **Yozma nutqning harflar tizimini (yozuvni) o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi grafika deyiladi. Mutaxassislarning aniqlashlaricha, jahon xalqlari (ular besh milliard ikki yuz milliondan ziyod) 220 xil yozuvdan foydalanadi.**

O‘zbekiston Respublikasida lotin yozuvi asosidagi yangi alifboga o‘tish fikri 1921-yildan paydo bo‘lgan. Bunda Mahmud Hodiyev – Botu, Yevgeniy Dmitriyevich Polivanov kabi ziyolilar tashabbuskor bo‘lganlar. Ular lotin va lotin-rus yozuvlari asosidagi o‘zbek alifbosini tuzganlar va ilmiy jamoatchilik muhokamasiga qo‘yganlar.

1921-yilgi til va imlo qurultoyi. Turkiston xalq Maorif Komissarligining tashabbusi bilan 1921-yilning yanvar oyi boshida Toshkentda o‘zbek tili va imlosi yuzasidan Turkiston Muxtor Jumhuriyati qurultoyi o‘tkaziladi. Bu anjumanda harf va imlo masalasi yuzasidan ma’ruza qilgan Fitrat o‘z so‘zini: «Maorifimizni eski imlo va yozuv bilan kengaytmak mumkin emas», – degan chaqiriq bilan yakunlangan.

Mazkur masala yuzasidan qo‘shimcha ma’ruza qilgan Botu – Mahmud Hodiyeu arab alifbosini isloh qilish bilan kifoyalanmay, uni lotin grafikasi asosidagi yangi alifbo bilan almashtirish masalasini o‘rtaga qo‘yadi.

Botuning ma’ruzasi yuzasidan so‘zga chiqqan Maorif Komissarligi xodimi S. Usmonxo‘jayev mazkur fikrni ma‘qullagan. Qurultoy raisi Shohid Ahmadiyev o‘rtaga qo‘yilgan masalani hal qilish uchun ovozga qo‘yishga majbur bo‘ldi. Bunda ko‘pchilik ovoz bilan «hozircha harflarni tuzatuv haqidagina so‘z bo‘lsin» degan fikrga kelinadi.

Shuni qayd qilib o‘tmoqchimizki, 1921-yil yanvarigacha «Yangi imlochilar» bilan («Chig‘atoy gurungi» qatnashchilari), «Eski imlochilar» (M.Abdurashidxonov boshchiligida), «O‘rta imlochilar‘ o‘rtasida ilmiy bahs – kurash bo‘lgan edi. 1921-yilgi qurultoydan so‘ng «Lotinchilar», ya‘ni lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosini yaratuvchilar (Mahmud Hodiyeu – Botu rahbarligida) paydo bo‘ldilar, bular ham kurashga qo‘shildilar.

1926-yilning 26-fevralidan Bokuda sobiq ittifoqdagi turkshunoslarning birinchi qurultoyi ish boshlagan. Bu qurultoyda 150 mutaxassis ishtirok etgan. O‘zbekistondagi Rahim In‘omov (Maorif komissari), Nazir To‘raqulov (ma’ruza qilgan), Ashurali Zohiriy, Shokirjon Rahimiy Bekjon Rahmon rasmiy vakil sifatida qatnashganlar. Markazdan prof. L.V. Shcherba va Yakovlev ishtirok etganlar. Turkiyadan mehmon tarzida Kuprulizoda Mehmed Fuod hamda Alibek Husaynzoda qatnashgan.

Turkiyadagi Istanbul dorilfununi mudarrisi Kuprulizoda Mehmed Fuod arab yozuvidan voz kechib, lotin yozuviga o‘tishga jiddiy e‘tiroz bildirgan.

Markaziy Ijroqo‘m huzurida «Yangi o‘zbek alifbo qo‘mitasi» tuziladi va bu qo‘mita quyidagi o‘rtoqlar belgilanadilar: Oxunboboyev o‘g‘li, a‘zo qilib 43 nafar kishi, chunonchi: Rahim In‘omov (o‘rinbosar), Mo‘min Xo‘jayev (o‘rinbosar), Akmal Ikromov, Fayzulla Xo‘jayev, Abdulla Qodiriy, Fitrat (Abdurauf

Abdurahimov), Elbek (Mashriq Yunusov), Ashurali Zohiriy, Bekjon Rahmon, Orif Olimjon (kotib) va boshqalar. Muhokama qatnashchilari yangi alifboda unililar soni 12 ta bo'lishi to'g'risida qaror qiladilar. Bu loyihani Xalq Maorif Komissarligi ma'qullaydi.



Topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi matnni o'qib, savollarga javob bering. 4 ta kichik guruhga bo'linib yozuv tarixi haqidagi bilimingizga tayanib, «Bugungi kundagi eng qulay va umrboqiy yozuv» mavzusida debat uyushtiring.

Savollar

1. Kim arab yozuvidan voz kechib, lotin yozuviga o'tishga jiddiy e'tiroz bildirgan?
2. Harf va imlo masalasi yuzasidan ma'ruza qilib: «Maorifimizni eski imlo va yozuv bilan kengaytmak mumkin emas», – degan chaqiriq bilan chiqqan kim?
3. Kim arab alifbosini isloh qilish bilan kifoyalanmay, uni lotin grafikasi asosidagi yangi alifbo bilan almashtirish masalasini o'rtaga qo'yadi?
4. «Chig'atoy gurungi» qatnashchilari imlo nuqtayi nazaridan qaysi guruh a'zolari edi?
5. M. Abdurashidxonov boshchiligidagi guruh a'zolari qaysi imlo tarafdorlari edi?
6. Lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosini yaratuvchilar kimlar edi?
5. 1926-yilning 26-fevralidan Bokuda sobiq ittifoqdagi turkshunoslarning birinchi qurultoyi ish boshlagan. Bu qurultoyda qancha mutaxassis ishtirok etgan?
8. Bokudagi turkshunoslarning birinchi qurultoyida kim ma'ruza qilgan?



1-mashq. Matnni ifodali o'qing. Yozilishi va talffuzi turlicha bo'lgan so'zlarni topib jadvalga joylashtiring.

QOR ODAM

– Hamma yog'im qisir-qisir qilyapti. Juda ajoyib sovuq bo'ldi-da, – debdi qordan yasalgan odam. – Shamolni qarang-a, chimchilab olyapti! Jonning huzuri! Anavi qurbaqako'z nega mo'ralab turibdi? – Qor odam endigina ko'tarilgan

quyosh haqida shunday debdi. – Hechqisi yo‘q. Aslo ko‘zimni qismayman. Bardosh beraman. Qor odamni yasaganlar uning ko‘zi o‘rniga cherepitsaning sinig‘ini, og‘iz o‘rniga esa siniq xaskashni qo‘yishibdi, tishi ham bo‘lsin deyishgandir-da. Qor odam bolalarning xushchaqchaq «uranlari, shiqildoqlarining shiqiri, qo‘shqaroqlarning g‘ijiri, faytonchilar qamchisining tasirlashi sadolari» ostida bunyodga kelibdi. Quyosh botibdi, moviy osmonda o‘n to‘rt kunlik oy paydo bo‘libdi.

– Buni qara-ya, endi boshqa tomondan suzyapti! - debdi qor odam yana quyosh chiqdi deb o‘ylab. – Nima qilib bo‘lsa-da, uning menga ko‘z olaytirishini yo‘qotdim!

Osmonda osilib, asta nurini sochaversin, o‘zini ko‘rib tursam bo‘lgani. Eh, joyimdan sal nariroqqa jilishning iloji bo‘lganda edi! Yaqinda bolalar sirg‘anganday men ham yaxmalak otardim! Afsus, joyimdan qimirlolmayman-da!

Yozilishi	Talaffuzi
Mo‘ralab turibdi	Mo‘ralap turipti



Mantiqiy savolga javob bering. Zehningizni oshirib, xotirangizni mustahkamlab, aqliy faoliyatingizni rivojlantiring.

№ 1. Kuril orollarida yashovchi tub aholi juda qadimdan beri eulaxon balig‘ini tutib olishsa juda xursand bo‘lar ekan. Bu baliq ingichka va juda yog‘li baliq bo‘lib uni quritib olib qo‘yishar ekan. Savol: ular bu baliqdan nima maqsadda foydalanishlari mumkin?

№ 2. Osiyoda juda taraqqiy etgan bu davlatning qadimiy poytaxti shohlar shahri edi. Bu poytaxtning hozirgi nomi shaharlar shohiga o‘zgargan.

Savol: Qaysi davlat va shaharlar so‘ralmoqda?



Quyidagi so‘zlarni daftaringizga yozib yodlang. So‘z boyligingizni oshiring.

Sog‘ I ot. Eskirgan so‘z. O‘ng tomon.

Sogʻ II sifat. Sogʻlom, salomat.

Sogʻ III feʼl. Yelindan siqib chiqarmoq.



2- mashq. Uyga vazifa. Quyidagi sheʼrni oʻqing. Uning 1- bandini kirill, lotin yozuvlarida yozishga harakat qiling.

Koʻnglimdan armonlar ketsinlar,
Umrimdan yolgʻonlar ketsinlar.
Yoʻlimdan yomonlar ketsinlar,
Faqat sen ketmagin, yolgʻizim.
Bir gulman bogʻidan adashgan,
Taqdir chiziqlari chalkashgan.
Koʻngling yarim mendek seni ham
Birlashib toshaylik, dengizim.
Ishon yasholmayman men sensiz.
Sen ham azobdasan yor mensiz.
Hayot yoʻllaridan ikkimiz
Kel birga yuraylik, sevgilim!
Ayriliq ayamas hech afsus,
Biz ikki tomonga uchgan qush.
Koʻzlarim charchadi koʻrib tush
Baxtni ham koʻraylik, baxtsizim. (R. Xotamova)

12 – §. OʻZBEK ALIFBOSI



1-mashq. Sheʼrni ifodali oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni alifbo tartibida daftaringizga koʻchiring.

Yurak bilan suhbat

– Sohib dilim, nega kunda yigʻlayverasan,

Nega yigʻlab hiq-hiq, yuragingni tigʻlayverasan?

– Kunda shu hol, doʻsti halol, hayronman men ham,

Oʻpkam toʻlib ketar bir kun yigʻlamay qoʻysam.

– Xavotirdamisan, onayizingdanmi,

Yo do‘stingdan **kuyganmisan**, yo yoringdanmi?

– Onam o‘lgan.. . Bu ikkisi jumboq men uchun,

Ikkovi ham menga **ko‘rsatar** kuchin.

Shunday damlar yig‘lamasdan yozolmayman she‘r,

Senga nima, to‘xtab yurib, urib turaver.

– Sohib dilim, mayliga-yu, ko‘p yig‘laysan-da,

Qarab tursam, hech bir yayrab sen **kulmaysan-da?!**

– Men shunaqa yig‘loqroqman, hamma biladi,

Faqat...o‘lsam yig‘lamayman, uyat bo‘ladi.

(M. Yusuf)



Topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi savollarga yozma javob bering. Harflarning harfiy birikmalardan farqini ayting.

1. Insoniyat qo‘lga kiritgan tajribalar va bilimlarni saqlash va avlodlarga yetkazish zarurati nima?

2. Nima yordamida kishilik jamiyati yaratgan kashfiyotlar, so‘z san‘ati durdonalari ajdodlardan avlodlarga yetib keladi?

3. Yozuvning jamiyat tarixi bilan bog‘liqligi nimada ko‘rinadi?

Nazariy ma’lumot. Nutq tovushi til uchun moddiy baza sanaladi. Yozma nutqni shakllantiruvchi, tovushni ifodalovchi, boshqa bo‘lakka bo‘linmaydigan eng kichik grafik belgi *harf* hisoblanadi.

Muayyan tartibda joylashtirilgan harflar tizimi *alifbodir*.

Lotin grafikasiga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi quyidagi harflarni o‘z ichiga oladi: a, b, d, e, f, g, h, i, j, k, l, m, n, o, p, q, r, s, t, u, v, x, y, z, o‘, g‘, sh, ch, ng

Har bir unli tovush alohida – alohida harf orqali ifodalanadi. Undoshda bir tovushni ikki harf orqali ifodalash ham uchraydi: sh, ch, ng kabi.



2-mashq. Matnni o‘qing. ShHT haqidagi bilimingizni kengaytiring. Ajratilgan so‘zlarni lotin va kirill alifbosida yozishni mashq qiling.

O‘zbekistonning Shanxay Hamkorlik Tashkiloti bilan aloqalari



Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) - sub-mintaqaviy xalqaro tashkilot bo‘lib, Yevroosiyo hududining 61 foizini egallaydi. ShHTning rasmiy tili rus va xitoy tillari, ramzi esa oq bayroq bo‘lib, uning markazida tashkilotning gerbi joylashgan. Tashkilotning shtab-kvartirasi

Pekinda joylashgan. **1996-yil** Shanxayda Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston davlat rahbarlarining sammitida chegara hududlari bo‘yicha harbiy sohada o‘zaro **ishonchni** mustahkamlash bilan bog‘liq shartnoma (1996-yil 26-aprel) imzolanishi natijasida «Shanxay beshligi» vujudga kelgan edi. 1997-1999-yillarda Moskva, Almati, Bishkekda bo‘lib o‘tgan sammitlarda «Shanxay beshligi»ning holati yanada mustahkamlanib, o‘zaro ishonch va hamkorlik munosabatlari yangi bosqichga ko‘tarildi. 2000-yil Dushanbeda O‘zbekiston Respublikasi birinchi marta **kuzatuvchi** sifatida ishtirok etdi. 2001-yilda Xitoyda navbatdagi Shanxay sammiti bo‘ldi. Unda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ishtirok etib, O‘zbekistonning «Shanxay forumi»ga to‘la huquqli a‘zo bo‘lishi to‘g‘risida»gi Bayonotni imzoladi. O‘zbekistonning «Shanxay forumi»ga kirishi munosabati bilan uning nomi «Shanxay Hamkorlik Tashkiloti – ShHT» deb o‘zgartirildi. Sammit yakunida «ShHTni tuzish to‘g‘risida»gi deklaratsiya hamda «**Terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida Shanxay konvensiyasi**» imzolandi.

2002-yil ShHTga a'zo mamlakatlar rahbarlarining navbatdagi Sankt-Peterburg sammitida uchta hujjat: ShHTga a'zo davlatlar rahbarlarining deklaratsiyasi, ShHT xartiyasi, ShHTga a'zo davlatlar o'rtasida Mintaqaviy antiterror tuzilmasi (MATT) haqidagi Bitim imzolangan.



Quyidagi so'zlarni daftaringizga yozib yodlang. So'z boyligingizni oshiring.

Toq I. Ot. Eskirgan. Darvoza binoning ustki qismida baland qilib yarim doira shaklida ishlangan joy, gumbaz.

Toq II. Sifat. Yakka.

Toq III. Sabr- chidami tugamoq. Toqati toq bo'lmoq.



Mantiqiy savolga javob bering. Zehningizni oshirib, xotirangizni mustahkamlab, aqliy faoliyatingizni rivojlantiring.

№ 1. Kembridj universiteti matematika o'qituvchisi eng a'lochi talabaga bir ishi uchun yog'och qoshiq berar edi.

Savol: aying-chi, qaysi ishi uchun o'qituvchi shunday qilar edi?

№ 2. Geografiya fanidan savol: Uganda, Ekvador, Kolumbiya, Indoneziya, Somali, Kenya, Braziliya, Kongo. Bu davlatlarni bir narsa birlashtirib turadi.

Savol: U nima?



4- mashq. Uyga vazifa. Rasm asosida matn yarating. Unda a, i unlilarini so'z boshida, o'rtasida, oxirida qo'llang.



13–§. IV BO‘LIM. ORFOEPIYA. TALAFFUZ ME‘YORLARI. OG‘ZAKI NUTQQA XOS TOVUSH O‘ZGARISHLARI



Topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi matnni o‘qib, mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashib, ularni yenggan hunarmand haqida bilib oling. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning yozilishi va talaffuzi haqida fikr yuriting.

Mahmud Torobiy qo‘zg‘oloni



Buxoroning Torob qishlog‘ida bosqinchilar va mahalliy mulkdor zulmiga qarshi qo‘zg‘olon boshlanadi. Unda Buxoro shahri va uning atrofidagi qishloqlarning **hunarmandlari** va dehqonlari qatnashadi. Qo‘zg‘olonga toroblik g‘alvir yasovchi hunarmand Mahmud boshchilik qiladi.

Tarixda u Mahmud Torobiy nomi bila shuhrat topadi. Mahmud Torobiyning atrofiga juda ko‘p hunarmand va dehqonlardan iborat katta kuch to‘planadi. Mahmud boshliq **qo‘zg‘olonchilar** Torobdan chiqib Buxoroga yo‘l oladilar. Bu yerda Torobiyning yakka safdoshlaridan Shamsiddin Mahbubiy va shahar aholisi qo‘zg‘olonchilarga qo‘shilib qo‘liga qurol oladi. O‘zlarining qadr don shahar va qishloqlarini mo‘g‘ullardan va ularning hamtovoq xizmatchilari – mahalliy ma’murlardan ozod qilishga otlangan kishilardan kattagina lashkar to‘planadi. Mahmud Torobiy o‘z tarafdorlari bilan Buxoroga kirib olgach, shahar ichidagi Robiya saroyini qarorgoh qilib oladi. Bu yerda Buxoroning sadrlari, badavlat **a‘yonlari**, yirik yer egalarini chaqirtiradi. U o‘zini Buxoro va atrof viloyatlarining xalifasi, ya’ni hukmdori deb rasmiy ravishda e’lon qilishga ularni majbur etadi. Shundan so‘ng Shamsiddin Mahbubiy sadr deb e’lon qilinadi. Mahmud Torobiy Buxoroda o‘z hukmronligini o‘rnatgach, mo‘g‘ul tarafdorlari bo‘lgan mahalliy amaldorlar Buxorodan **qochib** ketadi. Qochib ketgan amaldorlar va mo‘g‘ullar noib Mahmud Yalavoch yordamida Karmana yaqinida kuch **to‘plab**, Buxoro ustiga yuradilar. Bundan xabar topgan Mahmud Torobiy o‘z tarafdorlari bilan

shahardan tashqariga dushman harbiy kuchlariga qarshi chiqadi. O'rtada jang boshlanadi. Mo'g'ullar yengilib, Karmanaga tomon qocha boshlaydilar. Shiddatli janglar qilib, dushman Karmanagacha quvib boriladi. Mo'g'ullardan 10 mingga yaqin kishi halok bo'ladi. Bu jangda qo'zg'olon boshliqlari Mahmud Torobiy va Shamsiddin Mahbubiy ham shahid bo'ladilar. Qo'zg'olonchilar ularning o'rniga Torobiyning ukalari Muhammad va Alini boshliq qilib saylaydilar.

Nazariy ma'lumot. Adabiy til og'zaki shaklining me'yori talaffuz va nutqiy ohangda namoyon bo'ladi. Uni tilshunoslikning *orfoepiya* bo'limi o'rganadi. Orfoepiya grekcha orphos – to'g'ri, epos – nutq degan ma'noni bildiradi. To'g'ri talaffuz, avvalo, shaxsning madaniy yetukligidan dalolat beradi. Og'zaki nutqda har xil talaffuz qilinadigan tovush, qo'shimcha va so'zlardan adabiy til uchun qabul qilingan bittasi to'g'ri talaffuz me'yori hisoblanadi. Orfoepiyaning yuzaga kelishida orfografiya va xalq og'zaki nutqining talaffuzi asos qilib olinadi.



2-topshiriq. Quyidagi matni o'qib, o'zingiz yashayotgan hudud ekologiyasi haqida fikr yuriting. Matndagi og'zaki va yozma shaklda turlicha bo'ladigan so'zlarni ajrating.

Hozirgi paytda hududiy ekologik muammolar O'rta, Qora, Azov, Boltiq, Shimoliy, Karib dengizlari havzasi, Fors qo'ltig'i, Kaspiy va Orol dengizlari, Baykal, Balxash, Ladoga, Onega, Chad, Buyuk ko'llar va boshqa hududlarda mavjud.

O'rta Osiyo va O'zbekistonda vujudga kelgan hududiy ekologik muammo – bu Orol dengizi muammosidir. 1911-1960-yillar davomida Orol dengiziga har yili o'rtacha 52 kub m mutlaq balandlikda, akvatoriyasi 66 ming kv.km, suvning o'rtacha sho'rlanganlik darajasi 9,5-10 foiz (9,5-10 g/l) bo'lib, o'rtacha chuqurligi 16 mni tashkil qilgan.

O'rta Osiyo va Janubiy Qozog'istondagi qo'riq yerlaming o'zlashtirilishi, qator yirik suv omborlarining bunyod etilishi, kanallar, kollektor-zovurlar

tizimlarini qurib, ishga tushirilishi natijasida 1961-yildan boshlab Amudaryo va Sirdaryodan Orol dengiziga tushadigan suvlar miqdori kamaya boshladi. Buning oqibatida Orol dengizining sathi pasayib, maydoni qisqara boshladi, suvning shoʻrlanganlik darajasi esa orta boshladi.



Hozirgi paytda Orol dengizining qurib qolgan qismi maydoni 3 mln gani tashkil qiladi. Dengizning qurigan qismi yalang tekislikdan iborat boʻlganligi uchun yerosti suvlarining gorizontol harakati qiyin, shuning uchun ularning

asosiy qismi bugʻlanib, tuproqda tuz miqdorining ortib ketishiga olib keldi.

Amudaryo va Sirdaryo quyi qismiga oqib kelayotgan suvning kamayishi oqibatida bu yerlardagi botqoq va toʻqaylar maydoni qisqarib, choʻllashish jarayoni rivojlandi.

Hozirgi vaqtda Orol dengizi muammosi yechimi ikki narsaga – dengiz sathini maʼlum darajada ushlab turishga va Orolboʻyi ekologik sharoitini yaxshilashga qaratilgan.

Orol dengizi sathini maʼlum bir balandlikda, yaʼni 33 m mutlaq balandlikda ushlab turish uchun Orolga har yili Amudaryo va Sirdaryodan 20 kub km suv tushib turishi lozim.

Orolboʻyi hududida ekologik sharoitni yaxshilashning asosiy yoʻli aholini toza ichimlik suvi bilan taʼminlash, qurib qolgan oʻzanlar, koʻllarga muntazam ravishda suv yuborish, dengizning qurigan qismida shamol harakatini toʻsish uchun qumlarni oʻsimliklar bilan mustahkamlash, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, yaylovlar, pichanzorlar maydonini kengaytirishdan iborat. («Amaliy geografiya» darsligi)



1-mashq. Matndan yozilishi va talaffuzi turlicha bo‘lgan so‘zlarni topishni mashq qiling. Bunday so‘zlarga 10 ta misol yozing.

Katta bobom

Katta bobom dono va muruvvatli odam edi, hammamiz uni sevar va hurmatlar edik. Elas-elas esimda: ilgari uni bobo deyishardi, to‘ng‘ich akam Fredrik degan o‘g‘il ko‘rgandan keyin uni katta bobo deb ataydigan bo‘ldik. U bundan ham yuqori martabaga erisha olmasdi. Hammamizni jonidan yaxshi ko‘rardi-yu, biroq zamonamiz uning qadriga yetmadi.

– Eski zamon yaxshi edi! – derdi bobom. – U zamonlar binoyidek edi. Hozir hamma oyog‘ini qo‘ltiqlab yugurgani yugurgan, hammayoq alg‘ov-dalg‘ov. Yoshlar mahmadonalik qilishadi. Qirollarni tengqurlarday bilib, ko‘chadan kelgan har qanday janob lattasini iflos suvga botirib, muhtaram arbobning boshida suvini siqishi mumkin! Bobom shu gaplarni aytar ekan, qizarib ketar, birozdan keyin o‘ziga kelib, odatdagiday kulardi-da, gap boshlardi:

– Xo‘sh, ehtimol, gaplarim uncha to‘g‘rimasdir! Lekin men eski zamon kishisiman, yangilikni uncha yoqtirmayman. Zamonani Olloning o‘ziga havola qilib qo‘ya qolganimiz ma’qul.

Katta bobomning eski zamonlar haqidagi hikoyalarini eshitarkanman, o‘zimni go‘yo o‘sha zamonlarda yashaganday his etardim, xayolan gayduklar bilan oltin karetalarda yurardim, sex viveskasini musiqa chalib, bayroqlar ko‘tarib ko‘chirish tantanalarini tomosha qilardim, diniy bayram va o‘yinlarda ishtirok etardim.

To‘g‘ri, u zamonlarda talay dahshat va noma’qulchiliklar yuz berardi: iskanjaga olish, charxpalakka tortib o‘ldirish, qon to‘kish hollari uchrardi, lekin ana shu dahshatli voqealar ham qandaydir jozibali narsani yashirib turar edi. Katta bobomning hikoyalaridan yaxshi-yomon hodisalarni: masalan, dehqonlarni ozod qilgan daniya dvoryanlari, qul sotishga chek qo‘ygan shahzoda haqida ham ko‘p narsalarni bilib oldim. Ha, katta bobomning yoshlik paytlarida ko‘rgan-kechirganlarini eshitish mazza edi, lekin bobom zamonidan oldingi davrlar undan ham yaxshi va qudratli ekan!

Nazariy ma'lumot. O'zbek tilshunosligida M. Sodiqova, U. Usmonova - ning «O'zbek tilining orfoepik lug'ati» 1977-yili va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti tomonidan «O'zbek adabiy talaffuz lug'ati» 1984-yilda nashr qilingan.



Quyidagi so'zlarni daftaringizga yozib yodlang. So'z boyligingizni oshiring.

To'p I. Ot. Koptok, futbol koptogi.

To'p II. Ot. Harbiy qurol.

To'p III. Ot. So'zlash. To'pdan keyin Luqmonchanning onasi yetib keldi.

To'p IV. Ot. O'ram, bog'lam, guruh.

To'p V. Taqlid so'z. Yumshoq jismning yerga urilishidan chiqadigan tovush.



Mantiqiy savolga javob bering. Zehningizni oshirib, xotirangizni mustahkamlab, aqliy faoliyatingizni rivojlantiring.

№ 1. Yuliy Sezar g'animlar o'qiy olmasligi uchun maxfiy maktublarini maxsus shrift bilan yozar edi. Mana maxsus shriftda yozilgan so'zga namuna: nblubd. Shriftni tushunganlar bu so'zni maktab deb o'qishgan. **Savol:** Namunaga diqqat bilan qarab ayting-chi, maxfiy shriftning qoidasi qanday edi?

№ 2. Shunday bir tuyg'u borki, u oyoqlarga qanot berishi ham, oyoqlarni yerga kishanlashi ham mumkin. **Savol:** bu qaysi tuyg'u?



4-mashq. Uyga vazifa. Talaffuzda yuz beradigan fonetik hodisalarga mos 10 tadan misol topib jadvalni to'ldiring.

So'zning imlosi	Talaffuzdagi fonetik hodisa	
-----------------	-----------------------------	--

Kelsa	Tovush tushishi	Kelsa – kesa – l ...
Hukm	Tovush ortishi	Hukm – hokum – l ...
Chiroq	Tovush almashinishi	Chiroq-chirog‘ – l ...

14 – §. OHANG VA UNING NUTQDAGI AHAMIYATI



Topshiriq

1-topshiriq. Dilnoza Akbarova va Ozodbek Nazarbekov ijrosidagi «Dutor bilan men» qo‘shig‘ini tinglang. Matndagi so‘zlarning ohangiga diqqat qiling. Talaffuzda farqlanadigan so‘zlarni ko‘rsating.

Dutor bilan men...

zlanib turgandik dator bilan men.

Sollanib turgandik dator bilan men.

Yonimizga xushro‘y yigit kelgandi,

Birdan to‘xtab qoldik, dator bilan men.

Sayratib kuy chaldim shaydo bo‘lsin deb,

Noz-u karashmanga ado bo‘lsin deb.

Har kuni yonimda paydo bo‘lsin deb,

Makkoralik qildik, dator bilan men.

Endi gullar bilan har kun yonimda,

Hol so‘rab qo‘ymaydi hol-u jonimga.

Kuy chalib ber deya, kelsa yonimga

Shodlanib ketamiz, dator bilan men.

Nogoh yor xayr deb, ketdi yo‘liga.

Sevgi joylashgandi ko‘ngil to‘riga.

Bir unga atalgan ishq tuzog‘iga
Ilinib qolibmiz, dutor bilan men.

Endi yig‘loq kuylar chaladi torim.
Layli ahvolidan yomon ahvolim.
Yodga tushganida yolg‘onchi yorim,
To‘yib yig‘lashamiz, dutor bilan men



1-mashq. Matnni mustaqil o‘qing. Ohangning gap mazmuniga ta‘sirini tushuntirib bering. . Undagi topilmalarni (yangi so‘zlar, birikmalar) aniqlang.

Abu Abdullo Rudakiy

Rudakiy Abu Abdullo Ja‘far – fors-tojik shoiri. Fors-tojik she‘riyati asoschilaridan biri. Yoshligidan she‘riyat va musiqaga ixlos qo‘ygan, adabiyotni, arab tilini o‘rgangan. Zamonasining mashhur cholg‘uchisi Abul Abbas Baxtiyordan musiqa bo‘yicha ta‘lim olgan; barbat, chang, ud, rud kabi cholg‘u asboblarni chalishni o‘rgangan. Rudakiyning she‘riyat va musiqadagi mahoratini eshitgan Buxoro hukmdori Nasr II ibn Ahmad Somoniyni saroyga taklif etgan. Rudakiy Buxoroda vazir Abul Fazl Bal‘amiy homiyligida ijod qilib, san’atda katta obro‘ qozongan. Rudakiy 40 yil saroyda shoirlarga boshchilik qilgan. Uning tug‘ma ko‘r bo‘lganligi haqida naqlar bor. Aslida saroydagi ig‘vo va fitnalar tufayli dushmanlari Rudakiyning ko‘zlariga mil tortib ko‘r qilgan, mol-mulkini talab, o‘zini Buxorodan badarg‘a qilishga erishganlar. Qarigan chog‘ida Rudakiy o‘z qishlog‘iga qaytib, faqirlikda umr kechirgan.

Manbalarda Rudakiy she‘riyati 100 000 baytdan iboratligi qayd etilgan. Ammo hozirga qadar uning 1000 bayt asari (2 qasida, 50 ruboiy, she‘r va dostonlari) yetib kelgan. Rudakiy Movarounnahrda o‘z she‘rlaridan devon tuzgan ilk shoir hisblanadi. «Bo‘i jo‘i Mo‘liyon oyad hame» («Mo‘liyon arig‘ining isi kelmoqdadir») misrasi bilan boshlanadigan g‘azali unga favqulodda shuhrat

keltirgan. Rudakiyning «Modari may» («Mayning onasi»), «Dar vasfi Buxoro va «Shikoyai az piri» («Qarilikdan shikoyat») qasidalari, hamda «Kalila va Dimna», «Davroni falak» va boshqa bir necha masnaviylaridan parchalar bizgacha yetib kelgan. Rudakiy fors-tojik she'riyatining deyarli barcha shakllarini ishlab bergan. Sharq xalqlari she'riyatida keng tarqalgan dastlabki poetik janr – ruboiy (arab. - to'rtlik)larni Rudakiy va Shahidi Balxiy yaratgan.



2-mashq. Matnni o'qing. Bo'sh o'rinlarga kerakli harflarni qo'ying va ifodali o'qishni mashq qiling.

YAPROQLAR QARSAK CHALADI

Shunday qilib desangiz, ishlarim yana yurishgandan yurishib ketdi. Buvijonim meni boplab tarbiyalayman deb, o'rtoqlarimdan ajratib olib, uyga qamab, eshon pochchamga shogirdlikka berib jonginamni qiynayotgan edi. Endi u bu fikridan butunlay qaytganga o'xshaydi, nega desangiz, bugun ertalab n...mozga meni uyg'otmadi.

Ko'zimni ochib:

– Buvijon, men ham turaymi? - deb so'radim.

– Uxlay...er, bolam, -dedi buvijonim qo'l siltab, – mening aldanganim ham yetar. Buning ustiga ...uddi o'sha kuni ertalab ucha...kavoy amakim va'dasining ustidan chiqib yuk tashiydigan mashinaga eskiroq bo'lsa ham bitta kitob soladigan javon yuklab kelib qoldi. Mashinaning orqasini to'ppa-to'g'ri Oriflarning ko'cha eshigiga to'g'riladik.



Mantiqiy savolga javob bering. Zehningizni oshirib, xotirangizni mustahkamlab, aqliy faoliyatingizni rivojlantiring.

№ 1. Futbol fanatlari uchun savol. Italiyada shunday futbol maktablari borki, hujumchilar alohida, yarim himoyachilar alohida, himoyachilar alohida o'qitiladi. Himoyachilar maktabida 1 yil faqat shunday narsa o'rgatiladiki, bu narsani qilolmagan himoyachi boshqa mashg'ulotlarga qo'yilmaydi.

Savol: Nima ularga 1 yil o‘rgatiladi?

№ 2. Adabiyot ixlosmandlari uchun mantiqiy savol. Alisher Navoiy shunday falsafiy fikrlar bitganlar:

«Halol va pok yashab komillikka erishmoq uchun yigitlik chog‘ida harakat qilish zarur. Zero payti kelib o‘zing qo‘ygan nuqtalarga xomush termulib xotiralarga berilishingga to‘g‘ri keladi».

Savol: o‘zing qo‘ygan nuqtalar deb nimaga shama qilingan?



3- mashq. Uyga vazifa. Berilgan so‘zlarni talaffuz qilib ko‘ring. Ulardan qaysilari adabiy talaffuz va imlo qoidalariga to‘g‘ri kelmasligini aniqlang.

Kitop, yog‘mir, qant, istol, shikop, qor, dala, moshina, shakalat, bozor, maktab, yigitcha, tuzsiz.

15–§. V BO‘LIM. IMLO. O‘ZBEK TILINING IMLO QOIDALARI. YOZUV TAMOYILLARI



1-topshiriq. Quyidagi matnni o‘qib, undagi so‘zlarni yozilishiga ko‘ra namunadagidek 5 ta ustundan biriga ajratib yozing. Yozgan so‘zingizni asoslab bering.

QOP YO‘QOTDING‘IZMI?

Sultonali mirzo «Qushbegi» mahallasiga kelib, bir darbozaga kirdi. Qorong‘i yo‘lakdan yurib borib, ichki eshikni taqirlatdi. Ichkaridan: «Hozir!» –degan tovush eshitilgandan keyin bir necha qadam orqag‘a qaytib keldi. Bir ozdan so‘ng ichkaridan beqasam choponini yelkasiga xom tashlag‘an, mahsisiz oyog‘ig‘a sag‘ri kafsh kiyib ko‘ylakchan badanini choponi bilan o‘rag‘an qirq yoshlar chamaliq bir yigit chiqdi va Sultonali mirzoga salom bergandan so‘ng, shoshib choponining yengini kiydi, kelib ko‘rishdi.

– Marhamat, taqsir. Bu kishi molto-par xotinni olib, suyagi tinchib qolg‘an Xolboy – Gulshanning eri edi. Uyida erta-kech bekor yotib, Gulshanning topib kelganiga qanoat qilar, faqat osh pishirib havli supurar edi. Boshqa oilalarda

xotinlar uy ishi bilan bo‘lib, erkaklar ko‘cha ishini qilsalar, Xolboy akaning oilasi tamoman shuning ziddiga qurilgan edi.

Sultonali mirzo Gulshanning o‘rdag‘a ketganganligini eshitib, sillasi qurudi, bir necha vaqt fikrga tolib qoldi.

– O‘rdag‘a ketkanligini aniq bilasizmi?

– Bundan chiqib bir joyga bormoqchi edi, – dedi Xolboy, – agar ishi bitsa – to‘g‘ri o‘rdag‘a ketmakchi, bitmasa, uyga qaytib kelmakchi edi. Shu choqqacha qaytib kelmagani uchun, o‘rdag‘a bordimi, deb o‘ylab turippan.

– Siz o‘sha boradiring‘an joyini bilarsiz?

– Payqolmadim, taqsir. Sultonali mirzo tinkasi qurug‘andek orqasig‘a tisanib, yo‘lakning tokchasig‘a o‘lturdi va manglayini qashidi:

– Kecha yangamni hech kim yo‘qlab keldimi?.

Xolboy bir oz o‘ylanib soqoli ostini chimchildi.

– Yo‘qlab kelgan ekan, men uyda yo‘q edim. Sultonalining tusi o‘zgarib, boshini qimirlatib qo‘ydi, shipka, ko‘chaga qarandi.

Yozuv tamoyili	So‘z
O‘zlashgan so‘zning qadimgi kelib chiqish holatini yoki so‘zni saqlab qolish asosida yozish	kafsh
Talaffuzda bir-biridan aniq farqlanmaydigan yoki o‘zaro farqi deyarli sezilmaydigan darajaga kelib qolgan so‘z yoki qo‘shimchalar yozuvda maxsus qoida bilan ajratib yozilishi	da‘vo
So‘zning hozirgi talaffuz me‘yoriga mos kelmaydigan, qadimdan o‘zlashib qolgan shaklida yozilishi	o‘rdag‘a
O‘zakka qo‘shimcha qo‘shilganda yuz beradigan tovush o‘zgarishlarini inobatga olmaslik	ko‘rishdi

O‘zakka qo‘shimcha qo‘shilganda yuz beradigan
tovush o‘zgarishlarini yozuvda aynan aks ettirish

suyagi

Nazariy ma’lumot. *Orfografiya* grekcha «to‘g‘ri yozmoq» demakdir. So‘z o‘zak-negizi va qo‘shimchasini yagona tarzda yozish haqidagi qoidalar yig‘indisi *orfografiya* deyiladi. Imlo to‘g‘risidagi qonunni ishlab chiqish murakkab jarayon bo‘lib, bir necha tamoyillarga tayaniladi. Bu *orfografiya* tamoyil (prinsip)i deyiladi.

Orfografiyaning 5 tamoyili mavjud: 1) fonetik yozuv tamoyili; 2) morfologik yozuv tamoyili; 3) shakliy yozuv tamoyili; 4) tarixiy – an’anaviy yozuv tamoyili; 5) farqlash yozuv tamoyili.



1-mashq. Berilgan matndan fonetik, morfologik, shakliy yozuv tamoyilida yoziladigan so‘zlarni aniqlang. Daftaringizga ko‘chiring.

Qusam ibn Abbas maqbarasi



Shohizinda ansamblining shimoliy-sharqiy qismida joylashgan eng qadimgi yodgorlik. Qusam ibn Abbas qabri atrofida keyinchalik turli masjid, maqbara va chillaxona bunyod etilgan. Qusam ibn Abbas islom dinining asoschisi, payg‘ambarimiz Muhammad sallolohu alayhissalomning amakivachchasi bo‘lgan Abbosning zurriyoti edi. Qusam ibn Abbas islomni targ‘ib va tashviq qilishda ishtirok etgan buyuk shaxslardan bo‘lgan. U shu maqsadda 676-yilda arab istilochilari bilan birgalikda Samarqandga kelgan. Shu yerda, afsonalarda aytilishicha, namoz o‘qib turgan paytlarida kofirlar hujum qilib uni o‘ldirgan ekanlar. Raboti Malik, Shoh

raboti (hoz. Navoiy shahri yaqinida, Karmana, taxm.1069-1079) Oʻrta Osiyodagi monumental meʼmoriy yodgorlik Qadimgi Buxoro - Samarqand yoʻlining Choʻli Malikdagi yirik chegara va savdo bekatida bunyod etilgan. Katta karvonsaroy, hozirgi Navoiy shahri yaqinida. Bizgacha uning faqat peshtoq qismi (diametri – 12,6 m.) saqlangan. Janubiy minorasi (balandligi – 5,5 m) 1930-yilgacha mavjud boʻlgan. Raboti Malik karvonsaroy vazifasidan tashqari, istehkom, qoʻrgʻon sifatida ham muhim rol oʻynagan. Rabot katta keng hovli (22,5x22,5 m) va atrofi oʻralgan 2 qavatli xona – hujralardan iborat boʻlib, ularga sopol quvurlar orqali suv oʻtkazilgan. Markaziy qismi toʻridagi muhtasham saroy oldi bir qatorli ravoqli ayvon (7,5x13 m) 2 qanotiga joylashgan.

Nazariy maʼlumot. Fonetik yozuv. Oʻzakka qoʻshimcha qoʻshilganda yuz beradigan tovush oʻzgarishlarini yozuvda aynan aks ettirish, yaʼni qanday aytilsa, shunday yozish *fonetik yozuv* deyiladi. Masalan: *ogʻiz + im – ogʻzim*.

Morfologik yozuv. Oʻzakka qoʻshimcha qoʻshilganda yuz beradigan tovush oʻzgarishlarini inobatga olmaslik qoidasi *morfologik yozuv* deyiladi. Masalan: Ketti emas ketdi.

Tarixiy anʼanaviy yozuv. Soʻzning hozirgi talaffuz meʼyoriga mos kelmaydigan, qadimdan oʻzlashib qolgan shaklida yozilishi *tarixiy anʼanaviy yozuv* deyiladi. Boshqacha aytganda, soʻz hozirgi holatiga koʻra emas, balki anʼana tusiga kirib qolgan qoidaga koʻra yoziladi. Masalan: **Chor Rossiyasi** (asli **uap**).

Farqlash yozuvi. Talaffuzda bir-biridan aniq farqlanmaydigan yoki oʻzaro farqi deyarli sezilmaydigan darajaga kelib qolgan soʻz yoki qoʻshimchalar yozuvda maxsus qoida bilan ajratib yozilishi *farqlash yozuvi* deyiladi. Bu yozuv kam qoʻllanadi. Masalan: *daʼvo – davo, aʼtlas – atlaʼs, otalik – otaliq, bolali k–bolali*.

Shakliy (etimologik yoki grafik) yozuv. Oʻzlashgan soʻzning qadimgi kelib chiqish holatini yoki saqlab qolish asosida yozish *shakliy yozuv* deyiladi.

Boshqacha aytganda, yozuvda o‘zlashgan so‘zning shakli saqlanadi. Masalan: *maoniy, bank, fikr, menedjer* shu yozuv asosida yozilgan.



Quyidagi so‘zlarni daftaringizga yozib yodlang. So‘z boyligingizni oshiring.

Uloq I. Ot. Echki, uy hayvoni.

Uloq II. Sifat. Ulangan.

Uloq III. Ot . Yamoq.

Uloq IV. Fe‘l. Uzoqlashib ketmoq.



Mantiqiy savolga javob bering. Zehningizni oshirib, xotirangizni mustahkamlab, aqliy faoliyatingizni rivojlantiring.

№ 1. XIII asrda bu narsaga ehtiyoj sezila boshlagan. XII-XIII asrlarda universitetlarning ko‘payganligini bunga sabab sifatida keltirish mumkin. O‘sha vaqtgacha uni hech kim bilmagan. **Savol:** U nima?

№ 2. Oson savol: Qaysi qushning ko‘zlari miyasidan kattaroq bo‘ladi?



2- mashq. Uyga vazifa. Berilgan so‘zlar ishtirokida matn yarating. Bu so‘zlar qaysi yozuv tamoyiliga ko‘ra yozilishini aytib bering.

Burnim, aytibdi, atlas, mutolaa, mushoira, muammo, otalik, otaliq.

16–§. YOZUV TAMOYILLARI



Topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi matnni sinchiklab o‘qing. Unda birinchi xatboshidagi so‘zlar qaysi tamoyil asosida yozilganini ayting.

Mahmud az-Zamaxshariy

Zamaxshariy – tilshunos, adib, tafsir va hadis olimi. Buyuk mutafakkir arab grammatikasi, lug‘atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, jug‘rofiya, tafsir, hadis va fiqh (qonunshunoslik)ga oid 50 dan ziyod noyob asarlarning muallifidir. Ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan. Zamaxshariy ko‘p asarlarini Makkada yozadi. Shu boisdan u Jorulloh («Allohning qo‘shnisi») degan sharafla laqabga muvassar bo‘lgan. Zamaxshariyning ilmiy merosi boy. «Al-Mufassal» («Grammatika bo‘yicha mufassal kitob», 1121) asari arab tili nahv-u sarfini o‘rganishda yirik qo‘llanma sifatida azaldan Sharqda ham, G‘arbda ham shuhrat topgan. «Al-Mufassal»ning ixchamlashtirilib, muxtasar holatga keltirilgan nusxasi «Al-Unmuzaj» («Namuna») nomi bilan ataladi.

«Sharh abyat kitob Sibavayh» («Sibavayh kitobining sharhi») – grammatikaga oid asarlaridan biri bo‘lib, arab tilshunosi Sibavayh (796-yil vafot etgan)ning kitobiga yozilgan mukammal sharhdir.

«Muqaddimat ul-adab» («Adab ilmiga muqaddima», 1137). Bu asar Otsiz Xorazmshohga bag‘ishlab yozilgan. Asaridagi arabcha so‘zlar ostida forsiy va turkiy tarjimalarning berilishi o‘zbek tarixiy leksikologiyasi uchun qimmatlidir. Asar 5 katta qismga bo‘lingan bo‘lib – otlar, fe‘llar, bog‘lovchilar, ot o‘zgarishlari va fe‘l o‘zgarishlari haqida bahs yuritadi.

«Al-Mustaqso fil-amsol» («Kamolga yetgan maqollar») asarida 3500 ga yaqin arab maqollarini to‘plab, ularni izohlagan.



Topshiriq

2-topshiriq. 1- topshiriqdan foydalanib savollarga javob bering.

Bilimingizni mustaqil sinab ko‘ring.

1. Zamaxshariy ko‘p asarlarini qayerda yozadi?
2. Zamaxshariyga berilgan sharafla laqab qaysi?
3. Azaldan Zamaxshariyning arab tili nahv-u sarfini o‘rganishda yirik qo‘llanma sifatida Sharqda ham, G‘arbda ham shuhrat topgan asari qaysi?
4. Zamaxshariyning grammatikaga oid qaysi asari arab tilshunosi Sibavayh (796-yil vafot etgan)ning kitobiga mukammal sharh sifatida yozilgan?

5. Zamaxshariyning Otsiz Xorazmshohga bag‘ishlab yozilgan asari qaysi?

6. Zamaxshariy «Al-Mustaqso fil-amsol» («Kamolga yetgan maqollar») asarida qancha arab maqollarini to‘plab, ularni izohlagan?



1-mashq. Olgan bilimingizni mustahkamlang. Guruhda «Savat» usulidan foydalanib quyidagi g‘azalning qaysi yozuv tamoyilida yozilganini aniqlang. «Savat» usulidan foydalanish uchun guruhni 3 ta kichik guruhchaga ajrating. 5 tadan savat olib barcha kichik guruhchalarning 1-sini Fonetik tamoyil, 2-sini Morfologik tamoyil, 3-sini Shakliy tamoyil 4-sini Tarixiy – an’anaviy tamoyil, 5-sini esa Farqlash tamoyili deb nomlang. Guruh bilan birgalikda har bir so‘zning qaysi yozuv tamoyilida ekanligiga qarab savatlarga joylashtiring.

Sa’diy Sheroziy g‘azallari

Senmusan, yo bog‘ima sarvi ravonim keldimu,
 Yo malak, odamsifat bo‘lgan zamonim keldimu?!
 Ud tutatmoq bo‘ldimu, bo‘ston aro do‘stlar ishi,
 Yoki yorim keldi, yo mushk karvonim keldimu?!
 Sorbon, solgil nazar zebo nigorim husniga,
 Gar xaridor bo‘lsa tutdim qo‘lda jonim, keldimu?!
 Endi hech dard-u alam birla o‘tirmam uyda men,
 Keldimu bozorga gul, javlonli onim keldimu?!
 Garchi sen oning sanam tarzini inkor aylasang,
 Men hamon ko‘zim nigoron jonajonim keldimu?!
 Ko‘zlarim gar qayta ko‘rmoqda nigorim chehrasin,
 Vah magarkim, murda tanga qayta jonim keldimu?!
 Har nakim mendan ketishga hozir erdi, bog‘ladi,
 Barcha hayrat etdi yo oromijonim keldimu?!
 Nay agar ozodalar majlisi ichra nolavash,
 Zahmidindur nolasi, ul jon fig‘oning keldimu?!
 Uyqudek xummor ko‘zingdan ajragach bir lahza, ayt,

Uyqusiz ko‘zlarga xobi nogahonim keldimu?!

Nola qilma, Sa‘diyo, jabr etsa yoring, himmat et,

Yor jabri yorga o‘tgay, soyabonim keldimu?!

(S. Sheroziy)



Mantiqiy savolga javob bering. Zehningizni oshirib, xotirangizni mustahkamlab, aqliy faoliyatingizni rivojlantiring.

№ 1. Sevimli shoir Erkin Vohidov ularni shunday ta‘riflagan:

Ularda reja bor, ish bor, g‘ayrat bor,

Ular hordiq kun qilmaslar talab.

Dushanba boshlari og‘rimas nahot?

Kechikib kelmaslar ishga ertalab!

Savol: O‘zbekiston qahramoni Erkin Vohidov ular deganda nimani ta‘riflagan?

№ 2. Nurotada bu narsa juda ham ko‘p. Bu narsaga quyidagicha nomlar ham qo‘yilgan: Mastak, Zuli, Zulfiqor, Mozor, Begli, Tayla, Maston.

Savol: Nurotadagi bu nomlar nima nisbatan qo‘llanilgan?



4- mashq. Uyga vazifa. «Kasbimni to‘g‘ri anladimmi?» mavzusida matn yarating. Unda shakliy, morfologik, fonetik, differensiallash, tarixiy tamoyilga kiruvchi so‘zlardan qo‘llang.



17-§. LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN YANGI IMLO QOIDARI . UNLI VA UNDOSHLAR IMLOSI



1-mashq. Matnni o‘qing. Tushirib qoldirilgan harflarni qo‘yib adabiy me‘yorga mos ravishda matnni o‘qing. Yozilish va o‘qilishi turlicha bo‘lgan so‘zlarni namunadagidek topishni mashq qiling.

Fazliy Namangoniy

Fazliy Namangoniy – shoir, adabiyotshunos. XIX asr boshlarida To‘raqo‘rg‘on va Namanganda turli **...ansablarda** ishlagan. Umarxon **...ukmronligi** yillari (1810-1822) Qo‘qonga kelgan. She‘riy iste‘dodi tufayli xonning marhamatiga sazovor bo‘lib, tez orada saroy shoirlarining boshlig‘i – «**malik ush-sh..aro**» nomini olgan. Umarxonning hayoti, faoliyati, harbiy **yur...shlari**, hukmronligi davridagi voqealarni «Umarnoma» dostonida tasvirlagan. Xon topshirig‘iga ko‘ra, Fazliy «Majmuayi shoiron» («Shoirlar majmuasi», 1821) **ta...kirasini** tuzgan. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixida ilk marta she‘riy yo‘l bilan yaratilgan mazkur tazkirada XIX asr boshlari Qo‘qon adabiy **mu...itining** 100 dan ortiq vakillari haqidagi qimmatli ma‘lumotlar va asarlaridan namunalari mavjud. Shu jumladan, unda Fazliyning qasida va g‘azallari, shoira **Ma...zuna** bilan mushoirasi ham bor. Fazliyning «Devon» tuzgani ma‘lum, ammo u topilmagan. Uning o‘zbek va tojik tillarida yozilgan g‘azal, masnaviy, muxammas, ruboiy va tuyuqlari turli **majm...a** va bayozlarda uchraydi. Qo‘qon adabiy muhitining yana bir **mu...im** xarakterli jihati shundaki, bu davrda o‘zbek va fors-tojik tilida bab-baravar qalam tebratgan bir qator taniqli va mashhur o‘zbek shoirlari iste‘dodi keng rivoj topdi.

Namuna:

Harflar imlosi	Tovushlar talaffuzi	So‘z
Unlilar: Yurishlari ...– i	Yurushlari i – u	Yurishlari
Undosh: Muhim ...– h	Muxim h –x	Muhim

Nazariy ma'lumot. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yilning 24-avgustida 339-sonli «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida» qaror qildi. U 82 banddan iborat bo'lib, quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi: 1. Harflar imlosi:

- a) unlilar imlosi (1-7-bandlar);
- b) undoshlar imlosi (8-32-bandlar);
- 1. Asos va qo'shimchalar imlosi (33-37-bandlar);
- 2. Qo'shib yozish (38-50-bandlar);
- 3. Chiziqcha bilan yozish (51-56-bandlar);
- 4. Ajratib yozish (57-65-bandlar);
- 5. Bosh harflar imlosi (66-74-bandlar);
- 6. Ko'chirish qoidalari (75-82-bandlar).



2-mashq. Berilgan so'zlarni talaffuz qiling. Belgilangan unlilar qanday talaffuz qilinishi va yozilishini mashq qiling. Talaffuzdagi va yozuvdagi ko'rinishini daftaringizga qayd qilib boring.

Material, biologiya, mozaika, ukrain, maishat, million, aeroport, poema, radio, teatr, alkaloid, milliard, radiator, stadion.



3-mashq. Berilgan so'zlarni talaffuz qiling. Belgilangan undoshlar qanday talaffuz qilinishi va yozilishini mashq qiling. Talaffuzdagi va yozuvdagi ko'rinishini daftaringizga qayd qilib boring.

Jon, tiraj, jahon, baland, poyezd, projektor, artist, jiyda, g'isht, tijorat, ajdar, do'st, rivoj, Samarqand, jurnal, vaj, gijda.



4-mashq. Dostondan olingan parchani o'qing. Belgilangan so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va yozishni mashq qiling.

Ko'hna quduq

(Doston)

Meni tongda shirin uyqudan uyg'otishdi.

Qarasam – uyqudan ham shirin odamlar.

Borolmayman, dedim g'udranib.

O'zlaring **ketaveringlar** endi...

Meni uyg'otgan odam buyuk hofiz edi.

Mening borar joyim esa Buyuk Buxoro edi.

Buxoro mendan **xafa** edi...

Hofiz **shunday** shaharga bir marta bormagan kishi odam emas, deb **aytgandi.**

Odam bo'lsa bordir, ammo shoir emas, degandi...

Tushimda yig'lagan edi Buxoro.

Ulug' shaharni faqat ulug' zotlar ovutishi **mumkin.**

Mening borganimdan esa foyda yo'q.

Ammo qani o'sha ulug'lar endi?..

Biz hammamiz uyqu bilan **ovora,**

Buxoro bo'lsa cho'kib, nurab, tugab borardi.

Kun sayin kamayib borardi uning dunyoga **mashhur** obidalari...

Qanday go'zal eding, Buxoro,

Osmono'par gumbazlar aro.

Men ziyorat qilib ovvora,

Topolmadim bir sog' minora.

Sen **cho'kibsana,** kim o'sdi, aziz,

Tomiringni kim **kesdi,** aziz?..

Qaydan topay qabringiz endi,

Buyuk bobolarim, qaydasiz?.

Siz qaydasiz, ulug' me'morlar,

Buxoroyi sharif bemorlar.

Bugun uning kuygan ko'ksiga

Qular mingga kirgan devorlar.

Qular ne-ne muqaddas joylar,

Jannatlarda topilmas joylar...

Qular, bir payt kirsa **gadoylar**

Quchoq **ochgan** karvonsaroylar...

(M. Yusuf)

Nazariy ma'lumot. Tutuq belgisi:

1) *a'lo, ba'zan, ma'yus, ta'zim, ra'y, e'lon, e'tibor, e'tiqod, me'mor, ne'mat, she'r, fe'l, Nu'mon, shu'la* kabi o'zlashma so'zlarda unli dan keyin shu unli tovushning cho'ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi; mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar kabi so'zlarda o' unlisi cho'ziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qo'yilmaydi;

2) *in'om, san'at, qat'iy, mas'ul* kabi o'zlashma so'zlarda unli dan oldin shu unli tovushni, oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi.



Quyidagi so'zlarni daftaringizga yozib yodlang. So'z boyligingizni oshiring.

Chaqir I sifat. Uchli qirrali, keskir.

Chaqir II fe'l. Biror yerga borishga, kelishga biror faoliyatda qatnashishga taklif qilmoq.



Mantiqiy savolga javob bering. Zehningizni oshirib, xotirangizni mustahkamlab, aqliy faoliyatingizni rivojlantiring.

№1. Bu poytaxt shaharga o'sha davlatning Birinchi Prezidentining nomi berilgan. **Savol:** Bu qaysi shahar?

№2. O'zbekiston, Urugvay, BAA, AQSh, Ukraina, Uganda. Ingliz tilini ishlatgan holda bu davlatlarning bog'liqligini aniqlang.



4- mashq. Uyga vazifa. «Olisdagi yaqinim» mavzusida matn yarating. Unda qoʻllangan unli va undoshlarning talaffuzi va imlosini alohida koʻrsatib oʻting.

Namuna:

Olisdagi yaqinim

Qalb. Sen shunchalar nozik, shunchalar **mehrli**, shunchalar **sabrli**, shunchalar samimiysanki, sen bilan suhbatlashganda goʻyoki kitob **mutolaa** qilayotgandek, qonib-qonib zilol chashma suvidan ichayotgandek, oftob haroratidan isinayotgandek boʻlaman. Kel, bugun sen bilan olisdagi yaqinlarim haqida dildan suhbat quraylik... (Oʻzingiz mustaqil davom ettirasiz).

18-§. ASOS VA QOʻSHIMCHALAR IMLOSI



1-mashq. Tariximizning sahifalariga bir nigoh tashlang. Mavzu yuzasidan tengdoshlaringiz bilan fikr almashing. Ajratib yozilgan soʻzlarning imlosiga eʼtibor qiling. Bilimingizga tayanib soʻzlar nima uchun shunday yozilganini tushuntirib bering. Soʻzlarning yozilishini mashq qiling.

Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi

Otsizning siyosatini uning vorislari (**oʻgʻli**) Elarlon, Sulton shoh Mahmud va Takash davom ettiradilar. XII asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda siyosiy vaziyat yanada **keskinlashadi**. 1153-yilda Sulton Sanjarga qarshi koʻchmanchi oʻgʻuzlar isyon koʻtaradilar. Buning oqibatida Saljuqiylar davlati keskin zarbaga uchrab, parchalanib ketadi. Dastavval undan Kichik Osiyo va Kermon ajralib ketadi. Soʻngra Fors, Ozarbayjon va Xuroson viloyatlari mustaqil boʻlib oladi. Bunday siyosiy vaziyatda, shubhasiz, Xorazmning hukmronlik doirasi **kengaytirilib**, uning **mustaqilligi** yanada **mustahkamlanadi**.

Xorazm davlati, ayniqsa, Otsizning nabirasi Takash davrida juda kengayadi. 1187-1193-yillarda u Nishopur, Ray va Marv shaharlarini zabt etadi. 1194-yilda esa saljuqiylar sultoni To'g'ulga **qaqshatqich** zarba berib, Eronni Xorazmga **bo'ysundiradi**.

Takashdan so'ng uning **o'g'li** Muhammad (1200-1220) ham Xorazm davlatini kengaytirish siyosatini davom ettiradi. 1206-yildan **boshlab** Movarounnahrni qoraxitoylarga **qaramlikdan** ozod etishga kirishildi. 1210-yilda Talos vodiysida qoraxitoylar mag'lubiyatga **uchratiladi**. Bu katta **yutuq** edi. Yettisuvga qadarli yerlar Xorazmshohlar davlati tasarrufiga olindi. XIII asr boshida Xorazm juda keng maydonni **egallagan** buyuk davlatga aylangan edi. Uning shimoliy-g'arbiy va g'arbiy chegarasi Orol va Kaspiy dengizi sohillaridan janubiy-g'arbda Iroqqa qadar borar edi, janubiy-sharqiy hududlari G'azna viloyatidan, shimoli-sharqiy chegarasi esa Yettisuv **kechuvi** va Dashti Qipchoqdan o'tar edi⁵.



2-mashq. Berilgan so'zlarni talaffuz qiling. Nima uchun shunday yozilishini tushuntirib bering. Xato yozilgan so'zlarni to'g'rilab qayta yozishni mashq qiling.

Yaxshirog'i, oluv, beki, tayog'i, uyushuq, ishtiroki, qoshig'i, uzuq, tilaging, yo'g'i, burushuq, ravnaqi, erki, yozuv, huquqi, uchuriq, ocherki, yuqi ⁶, yutuqi , yuragim, kubogi, bulduriq⁷.



3-mashq. Matnni o'qing. Asos va qo'shimchalarning yozilishini tushuntirib berishni mashq qiling.

SAID AHMAD

O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq **yozuvchisi**:

⁵ M. Rahimov , A. Zamonovo'zbekiston tarixi. - T:."Fan". 2019.544b. 87- b

^{6,7} O'zbek tilining imlo lug'ati. -T:.. "O'qituvchi". 2013.240b 13-b

Muhammad Yusuf pokiza inson edi. U odamlarning esini **og'dirgan, o'ylatgan, kuldirgan, yig'latgan**, topgan - tutganini odamlar ustidan sochgan saxiylik timsoli edi...

Muhammad hammani o'ziga do'st deb **bilardi**. Hech kimni begona qilmasdi. Qo'lida borini do'stlariga **tarqatmaguncha**, cho'ntagi **bo'shab** qolmaguncha ko'ngli to'lmasdi. Muhammad Yusuf tez og'izga tushdi. Birorta shoir uningdek tez nom chiqarmagan, nomdor bo'lmagan. **Ochig'ini** aytsam, Muhammadga ko'z tegdi. Aslini olganda asl shoirlar uzoq **yashamaydilar**. Ammo ortidan abadiy **yashaydigan** meros qoldirib ketadilar. U mana **shunday** o'lmas meros qoldirdi.

Muhammad she'r muxlislarining **yuragini** o'rtab ketdi. Endi shoirning o'zi yo'q. Ammo Muhammad Yusuf deb **atalmish** she'riyat bor. Bu she'riyat aslo zavol bilmaydi⁸.

ABDULLA ORIPOV:

Ajal Yakka ov qiladi, deyishadi. U hech kim bilan maslahatlashmas ekan, boshqalarning irodasini nazar-pisand qilmas ekan. Bevaqt **o'lim** adabiyotimiz gulshanida barq urib ochilib, **yashnab** turgan bir chechakni uzdi-yu ketdi. Muhammadjonni marhum deyishga hech tilimiz bormaydi. Ammo nachoraki, bu bor gap. Chinakam shoirning qalbida sohir qush doimo sayrab turadi, degan gapni ko'p bora **eshitgandik**. O'sha qush aynan Muhammadjonning **yuragida** oshiyon qurganiga men astoydil ishonganman⁹. (A.Oripov)

Nazariy ma'lumot. Quyidagi qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'zning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi:

a) *o'rin, qorin, burun, o'gil, bo'yin, ko'ngil* kabi ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, *qayir, ayir* kabi fe'llarga nisbat shaklini yasovchi **-il** qo'shimchasi qo'shilganda, *ikki, olti, yetti* so'zlariga **-ov, -ala, -ovlon** qo'shimchalari qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi:

^{8,9,10,11} M. Yusuf Saylanma. -T.: Sharq. 2014.288b. 274- b.

*o‘rin – o‘rnim, yarim –yarmi, qayir –qayril, ulug‘ – ulg‘ay, ikki –ikkov, ikki –ikkala, yeti – yettov kabi*¹⁰.

b) **u, bu, shu, o‘sha** olmoshlariga **–da, –dan, –day, dagi, –ga, –gacha, –cha** qo‘shimchalari qo‘shilganda **n** tovushi qo‘shib aytiladi va shunday yoziladi: *unda, bunday, shunda, o‘shancha* kabi; bu olmoshlarga egalik qo‘shimchasi quyidagicha qo‘shiladi: *buningiz, o‘shanisi* kabi¹¹.

d) **men, sen** olmoshlariga **–ni, –ning, –niki** qo‘shimchalari qo‘shilganda qo‘shimchadagi **n** tovushi aytilmaydi va yozilmaydi: *meni, mening, meniki* kabi¹².

1) quyidagi qo‘shimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

a) taqlid so‘zlardan fe‘l yasovchi **–illa** (*chirilla, taqilla*) qo‘shimchasi so‘z tarkibida **v** yoki **u** tovushi bo‘lganda **–ulla** aytiladi va shunday yoziladi: *shovulla, lovulla, gurulla* kabi.

b) nisbat shaklini yasovchi **–dir** qo‘shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo‘g‘inli so‘zlarga (*kel* so‘zidan boshqa), shuningdek, **z** undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qo‘shiladi: *quvdir, egdir, kuldur, yondur; o‘tkazdir, tomizdir* kabi. Qolgan barcha hollarda bu qo‘shimcha **–tir** aytiladi va shunday yoziladi: *tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir* kabi.

c) jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi **–ga** chegara bildiruvchi **–gacha**, ravishdosh shaklini yasovchi **–gach, –guncha, –gani, –gudek**, sifatdosh shaklini yasovchi **–gan**, buyruq maylining II shaxs ko‘rsatgichi **–gin**, shuningdek, **–gina** qo‘shimchasi **uch xil aytiladi va shunday** yoziladi.



Quyidagi so‘zlarni daftaringizga yozib yodlang. So‘z boyligingizni oshiring.

Yuz I ot. Boshning burun, og‘iz joylashgan old tomoni, aft.

Yuz II son. O‘nta o‘nlik miqdorga teng.

Yuz I fe‘l. Suvda harakatlanmoq. Hovuzda oltin baliqlar yuzib yuradi.

¹² O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 2013.240b 15-b



Mantiqiy savolga javob bering. Zehningizni oshirib, xotirangizni mustahkamlang, aqliy faoliyatingizni rivojlantiring.

1 Boshlang'ich sinf o'quvchisi bu vazifani besh daqiqada, yuqori sinf o'quvchisi o'n besh daqiqada, oliygoh talabasi oltmish daqiqada yechadi, olim esa yecholmaydi. **Mana o'sha vazifa:** «BIUTBOYESTO'» nimani bildiradi?

2. Qayerda ot ustidan ot sakrab o'tishini ko'rish mumkin?



4- mashq. Uyga vazifa. Berilgan she'rdagi ijodkor topilmasini ko'rsating. Asos va qo'shimchalarning imlosini tushuntirib berishni mashq qiling.

Yaxshi-da, qaydadir yugurib yursa

Yaxshi-da, qaydadir yugurib yursa
Sochingni bir silab, qochgan shamollar.
Yaxshi-da, doimo javobin olsa
Sog'ingdingmi, degan issiq savollar.
Meni o'ylaganing, bilganing yaxshi.
Chehrang yorishgani, kulganing yaxshi.
Mensiz tomog'ingdan nimadir o'tmay,
Yemayman deb, chetga surganing yaxshi.
Ko'rsatmay g'iybatning axlatlarini,
Hasadning sho'rtumshuq kalxatlarini.
Menga oshno qilib, shudringni, nurni
Ishq bog'ida olib yurganing yaxshi.

Osmonga boqaman, oq bulut yoqar.
Oftobga boqaman hamma yog'im zar.
Ichi zahar to'la sog'lom yurakdan
Ishqdan xasta bo'lgan yuraklar afzal.

Senga rahmat dedim, ey, issiq mehr.
Sehr-la avragin qayta-qaytadan.
Yolg'izlik, tushkunlik ko'chasidamas
Sevgi masjidida o'tsin janozam.

(Rislig'oy Xotamova)

19-§. CHIZIQCHA BILAN YOZISH



1-mashq. Matnni o'qib chiziqcha bilan yozilgan so'zlarni daftaringizga ko'chiring. Yozilish sababini tushuntirib berishni mashq qiling.

IBN SINO

Ibn Sino Afshana (hozirgi Buxoro viloyati Romiton tumani hududida) qishlog'ida 370-yili safar (980-yili avgust) oyida tug'ildi. Ibn Sinoning otasi Abdulloh Balx shahridan bo'lib, Somoniylar amiri Nuh ibn Mansur (967-997) davrida Buxoro tomoniga ko'chib, Xurmaysan qishlog'iga moliya amaldori etib tayinlanadi. U Afshona qishlog'ida Sitora («Yulduz») ismli qizga uylanib ikki o'g'il farzand ko'radi. O'g'illarining kattasi Husayn (Ibn Sino), kenjasi Mahmud edi. Husayn 5 yoshga kirgach, 985- yili ibn Sinolar oilasi poytaxt – Buxoroga ko'chib keladi va uni o'qishga beradilar. 10 yoshga yetar-yetmas Ibn Sino Qur'on va adab darslarini to'la o'zlashtiradi. Ayni vaqtda u hisob va aljabr bilan ham shug'ullanadi, arab tili va adabiyotini mukammal egallaydi.

Ibn Sinoning ilm sohasidagi dastlabki ustozlari Abu Abdulloh Notiliy edi. Uning tib ilmida yuksak mahoratga erishishida buxorolik boshqa bir tabib Hasan ibn Nuh al-Qumriy (to'liq nomi Abu Mansur al-Hasan ibn Nuh al-Qumriy)ning xizmati katta bo'ldi. Ibn Sino 17 yoshdayoq, Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida tanildi. O'sha kezlarda hukmdor Nuh ibn Mansur betob bo'lib, yosh tabibni amirni davolash uchun saroyga taklif qiladilar. Uning muolajasidan bemor tezda sog'ayib, oyoqqa turadi. Evaziga Ibn Sino saroy kutubxonasidan foydalanish

imkoniyatiga ega bo‘ladi-qoladi. Buxoroda ibn Sino zaruriy bilimlarning barchasini kecha-yu kunduz tinmasdan o‘rganadi. Olimning ilmiy ijodi 18 yoshidan boshlandi. U Nuh ibn Mansurga atab nafsoniy quvvatlar haqida risola, «Urjuza» tibbiy she‘riy asari, o‘z qo‘shnisi va do‘sti Abul Husayn al-Aruziyning iltimosiga binoan, ko‘p fanlarni o‘z ichiga olgan «Al-Hikmat al-Aruziy» («Aruziy hikmati») asarini ta‘lif etdi. Undan tashqari, boshqa bir do‘sti faqih Abu Bakr al-Barqiy (yoki Baraqiy)ning iltimosiga ko‘ra, 20 jildli «Al-Hosil va-l-mahsul» («Yakun va natija») qomusiy asari hamda 2 jildli «Kitob al-bir va-l-ism» ni yozdi.

Shuni ta‘kidlash lozimki, ibn Sino faoliyat ko‘rsatgan davrda ikki sulola (Qoraxoniylar va Somoniylar) tarix sahnasida hukmronlik uchun kurash olib bormoqda edi¹³.

Nazariy ma‘lumot. Quyidagi so‘zlar chiziqcha bilan yoziladi:

1. Juft so‘zdan qo‘shimcha yordamida yasalgan so‘zlar chiziqcha bilan yoziladi: *baxt – saodatli* .

2. Juft so‘z qismlari orasida **-u, (-yu)** bog‘lovchilari kelsa, undan oldin chiziqcha qo‘yiladi va juft so‘z qismlari ajratib yoziladi: *do‘st-u dushman* kabi¹⁴.

3. Yetakchi va ko‘makchi fe‘l bir xil shaklda bo‘lsa, chiziqcha bilan yoziladi: *uxlabman – qolibman* kabi.

4. Rus tilidan aynan yoki so‘zma-so‘z tarjima qilish yo‘li bilan olingan so‘zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: *unter – ofitser*, kabi¹⁵.



2-mashq. «Mehrobdan chayon» romanidan olingan parcha bilan tanishib

chiqing. Qaysi o‘rindagi so‘zlarning o‘rniga chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlarni qo‘yish mumkinligini toping va yozishni mashq qiling.

Mirzo Anvarning keyingi hayoti to‘g‘risida

¹³ M. Rahimov, A. Zamonovo‘zbekiston tarixi. - T.: "Fan". 2019.544b. 87- b

^{14,15} O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 2013.240b 18-b

Men mirzo Anvar hikoyasini marhum otamdan eshitkan edim. Mirzo Anvar Qo‘qondan qochib kelib, uch-to‘rt yil chamasi Toshkandning mashhur Eski Jo‘va mahallasida turg‘an. Ul vaqtlarda bizning havlimiz shu Eski Jo‘va da bo‘lib, mirzo Anvar otamg‘a qo‘shni emish.

«Qo‘qondan bir mirzo ko‘chib kelib, falonchining havlisini ijaraga olg‘an emish», degan gap chiqib qoldi, – deb hikoya qilar edi chol. – Men mirzo xabarini eshitsam ham, bir haftagacha o‘zini ko‘rilmadim. Ro‘za kunlarining birida masjididan shom namozini o‘qub chiqar edikim, so‘fi: «Hammangizni Xudoyorxonning mirzosi iftorga taklif qilg‘an», – dedi. Biz yigirma chog‘liq kishi yangi qo‘shnining uyiga bordiq. Bir uy va bir ayvonga yaxshi poloslar soling‘an, ko‘rpachalar yozilg‘an, o‘rtada anvo‘i dasturxonlar... Biz uyga kirib o‘lturgandan keyin eshik yonida xushsurat bir yigit ko‘rindi. Bizga tavozi‘lanib xush omadi aytdi. Mirzo Anvar, degani shu emish. Biz iftorga qaradiq, mirzodan ahvol so‘radiq, toshkandlik bo‘lg‘umiz keldi, deb kuldi. Biz - toshkandliklar xo‘sh ko‘radigan norin qildiribdir, xo‘b yedik... Domla bilan bir nechalar fotihaga yaqin tashqarig‘a chiqib ketdilar. Biz nima voqi‘ bo‘lg‘anig‘a tushunmadik. Oradan bir oz o‘tkandan keyin yana qaytib kirdilar. Dasturxonlar yig‘ilib ish fo‘tihaga to‘xtalg‘an edikim, domlaning oldig‘a bir kosa suv keltirib qo‘ydilar. Domla nikoh xutbasini boshladi... Biz hayron bo‘ldiq. Xutba oxirig‘a yetib, mirzo Anvarga bir qizni nikohladilar; biz, mirzo bilan qizning haqqig‘a duo qilib, tarqalishdiq. Lekin xilofi odat bu nikoh har birimizni taajjubga soldi¹⁶.



Quyidagi so‘zlarni daftaringizga yozib yodlang. So‘z boyligingizni oshiring.

O‘lan I ot. Sernam o‘t, maysa

O‘lan II ot. Qozoqcha qo‘shiq¹⁷.

¹⁶ A. Qodiriy "Mehrobdan chayon".- T.: "Sharq" 2004. 288b. 284- b

¹⁷ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 1984. 216 b 170-b

 **Mantiqiy savolga javob bering.** Zehningizni oshiring, xotirangizni mustahkamlang, aqliy faoliyatingizni rivojlantiring.

1. L.N.Tolstoy maishiy turmushga bag'ishlangan barcha asarlar, roman bo'ladimi, film bo'ladimi, qissa, afsona bo'ladimi voqealar rivojlanib borib u bilan tugaydi, hayotda esa, aksincha, hamma voqealar undan keyin boshlanadi degan.

Savol: Mantiqiy o'ylab ayting-chi, L.N.Tolstoy nimani nazarda tutgan?

2. Ingliz fermerlari sigirlarga ko'proq tuz berish samarali ekan deyishmoqda.

Savol: Tuzning qanday foydasi bo'lishi mumkin deb o'ylaysiz?



4- mashq. Uyga vazifa. Berilgan so'zlarning yozilishiga e'tibor bering. Rasmlardan foydalanib quyidagi so'zlar ishtirokida matn tuzing.

Yozdi - oldi, do'st-dushman, kecha-yu kunduz, xayr – xo'shlashmoq, kilovatt –soat , borasan – qo'yasan, kecha-kunduz.



20-§. AJRATIB YOZISH



1-mashq. YUNESKO tashkiloti haqida suhbat uyushtiring. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning yozilishini tushuntirib bering. Qo'shib yoziladigan so'zlar bilan ajratib yoziladigan so'zlarni farqlang.

YUNESKO

YUNESKO tomonidan yuritiladigan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatidan Shashmaqom (2008), Boysun madaniy muhiti (2008), Navro'z (2009), Katta ashula (2009), Askiya (2014)o'rin oldi. 2017-yilda Prezident qarori bilan o'zbek milliy maqom san'ati markazi **tashkil etildi**. 2018-yildan boshlab Shahrisabz shahrida har ikki yilda bir marta Xalqaro maqom san'ati festivalini

o'tkazish belgilandi. 1998-yili mamlakatimizda birinchi marta simfonik musiqa festivali o'tkazildi. Mazkur festivalda dunyoning 20 ga yaqin mamlakatlaridan ijrochilar **ishtirok etishdi**. Mustaqillik yillari musiqa san'atini akademik, an'anaviy va zamonaviy yo'nalishlarida rivojlanishiga zarur shart-sharoitlar yaratish qatorida uning ta'limiga ham e'tibor berildi. 2002-yilda **Toshkent davlat konservatoriyasi** O'zbekiston davlat konservatoriyasiga aylantirildi. Konservatoriyaning yangi binosi qurildi. Prezidentning qarori bilan qabul qilingan. Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha davlat dasturi ham muhim o'rin tutib, uning doirasida 2009-2014-yillarda hududlarda 278 ta musiqa va san'at maktabi foydalanishga topshirildi. «Nihol», «Zulfiya» nomidagi davlat mukofotlari **ta'xis etilishi**, «Kamalak yulduzlari» respublika **bolalar ijodiyoti** festivali, «Sozlar navosi» yosh musiqa ijrochilari va boshqa ko'rik-tanlovlar o'tkazib kelinayotgani yangi iste'dodlarni ro'yobga chiqarish va qo'llab-quvvatlash maqsadlariga **xizmat qiladi**¹⁸.

Nazariy ma'lumot. Quyidagi so'zlar ajratib yoziladi:

1. Qo'shma fe'lning qismlari ajratib yoziladi: *olib bordi, miq etma* kabi.
2. Ko'makchi fe'l va to'liqsiz fe'l mustaqil fe'ldan ajratib yoziladi: *yiqila yozdi* kabi. Lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush o'zgarishi bo'lsa, bunday qismlar qo'shib yoziladi: *boroladi (bora oladi)* kabi¹⁹.
3. Izofali birikmalar ajratib yoziladi: *tarjimayi hol* kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so'zlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so'zlar qo'shib yoziladi: *gulbeor(guli beor), dardisar* kabi.²⁰

¹⁸ M. Rahimov, A. Zamonov. O'zbekiston tarixi. - T.: "Fan". 2019.544b. 508- b

^{19,20} O'zbek tilining imlo lug'ati. -T.: "O'qituvchi". 2013.240b . 19-b.,20-b



2-mashq. Rasm asosida esse yozing. Unda «Agar men shifokor yoki sportchi bo‘lganimda kimga yordam qilgan bo‘lardim?» mavzusida 5-6 ta dalil, asos keltiring. Fikringizni xulosalang. Ajratib yozilgan so‘zlarni asoslab berishni mashq qiling.



3-mashq. Quyida berilgan so‘zlardan nechtasi imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilganini ayting. Daftaringizga xato yozilgan so‘zlarni to‘g‘rilab yozing.

Sarfqil, ta’sir et, tamom bo‘l, aytib ber, olib ko‘r, , aytaber, so‘rabqo‘y, ko‘ra qol, beraboshla, dardi bedavo, sotib ol, nuqtayi nazar, olib kel, aytaver, olib chiq²¹.



Topshiriq

1-topshiriq. J. Rodari tahsiniga sazovor bo‘lgan romandan olingan parcha bilan tanishib chiqing. Undagi qo‘shma so‘zlarni, ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarining yozilish sababini tushuntirib bering.

SARIQ DEVNI MINIB OLDIM

- Shunday qilib, Donoxonga hamla qilgan sariq Dev bilan olishsam maylimi? – so‘rayman qalpoqchamdan.
- Olish, albatta, olish.
- Yordam berasanmi?
- Berganda qandoq.
- Xo‘sh, seningcha ishni nimadan boshlasam ekan?
- Ko‘zlaring yumilib ketyapti, hozircha to‘yib uxlab ol, – maslahat berdi dono qalpoqcham, – ertaga bir gap bo‘lar.

²¹ O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 2013.240b.20-b

Chindan ham uyqum kelib qolgan ekan, boshimni yostiqa qo'yishim bilan pishillab uxlab qolibman. Tong saharda, hali hammayoqda xo'rozlar basma-basga qichqirishayotgan bir paytda buvijonim turtkilab uyg'ota boshladi.

- Tursang-chi, ko'zing ochig'-u, o'zingni uxlaganga solasan-a.
- Hali erta-ku, buvijon, – deyman ko'zimni ochgim kelmay.
- Namoz o'qiymiz, tur, bolam.
- Kecha o'qidik-ku, tag'in o'qiymizmi?
- Har kuni o'qiladi. Tur deyapman.
- Buvijon, –dedim sekin ko'rpanni ustimga tortib, – bugundan boshlab namoz o'qimayman.

- Nega endi o'qimas ekansan?
- Namoz o'qiganlar... do'zaxda kuyar emish...
- Bu gap qaysi payg'ambardan chiqdi? – achchig'i chiqib so'radi buvijonim.
- Hoshim degan payg'ambardan chiqdi.
- Nima, nima! Yana bir gapir!

Yo'q, buvijonim bilan hazillashib bo'lmaydi. Oyim bo'lsa boshqa gap, jahli chiqqani bilan urmoqchidek bir hamla qiladi-yu, baribir urmaydi. Ammo buvijonim... bu kishi kelganlaridan buyon quloqlarim cho'zilaverib har bittasi naq supraday bo'lib» ketdi-ya. Sakrab o'rnimdan turib yuvindim, namoz o'qidik. Keyin qaymoq bilan choy ichdik. Nonushta tugagach, dadam o'z ishiga, buvijonim bilan oyim Donoxonning holidan xabar olgani Yaypanga jo'nab ketishdi. Men bo'lsam oyoqni qo'lga olib, Zokirvoynikiga yugurdim.. Lekin borganim ham ko'p yaxshi bo'lgan ekan-da, nega desangiz, bechora do'stim bir o'zi beda o'rgisi kelmay, ertalabki salqinda jindak mizg'ib olsammi, deb o'ylanib turgan ekan. Menga ko'zi tushishi bilan o'zida yo'q, sevinib ketdi²².



Quyidagi so'zlarni daftaringizga yozib yodlang. So'z boyligingizni oshiring.

Qadoq I ot. 409,5 grammga teng og'irlik o'lchovi

²² X. To'xtaboyev. Sariq devni minib.- T: "Yangi asr avlodi". 2013.234b. 108-109-b

Qadoq II ot. Chinni yoki shisha bo‘laklarini ulashda ishlatiladigan metall skobalar, chega.

Qadoq III ot. Qo‘l-oyoqda surkalaverib qotib qolgan teri parchasi²³.



Mantiqiy savolga javob bering. Zehningizni oshiring, xotirangizni mustahkamlang, aqliy faoliyatingizni rivojlantiring.

1. **Antiq savol:** 1-b, 2-i, 3-u, 4-t, 5-b. Siz qolgan beshta raqam va harfni yozib bering.

2. **Matematik masala:** Qo‘lingizda bir xil kattalikdagi, bir xil rangli 9 ta shar bor. Sharlardan 1 tasi boshqalariga qaraganda biroz yengilroq. Ikki pallali tarozidan 2 marta foydalanib yengilroq sharni toping.



4- mashq. Uyga vazifa. Ajratib yoziladigan , chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlarga 10 tadan misol yozing.

Ajratib yoziladigan so‘zlar	Chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar

21-§. QO‘SHIB YOZISH



Topshiriq

1-topshiriq. Adolatparvar, otboqar, kamchiqim, Shimoliy Amerika so‘zlarining yozilishini izohlang.



Topshiriq

2-topshiriq. Har, hech, bir, alla so‘zlari ishtirokida qo‘shma so‘zlar hosil qiling va ularning yozilishini izohlang.

Nazariy ma’lumot. 1. *Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, unum, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so‘zlar yordamida yasalgan qo‘shma ot va qo‘shma sifatlar qo‘shib yoziladi: *qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya,*

²³ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 1984. 216 b.176-b

ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug‘doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsiyat, suvtalab kabi.

2. - **(a)r** (inkori **-mas**) qo‘shimchasi bilan tugaydigan qo‘shma ot va qo‘shma sifatlar qo‘shib yoziladi: *o‘rinbosar, otboqar, cho‘lquvar, ishyoqmas, qushqo‘nmas* kabi.

3. Takror taqlid so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shish bilan yasalgan ot va fe‘llar qo‘shib yoziladi: *pipirak (pir-pir+ak), hayhayla (hay-hay+la), gijgijla (gij-gij+la)* kabi.



Topshiriq

1-topshiriq. O‘qing, qaysi so‘zlar qo‘shib, qaysi so‘zlar ajratib yozilayotganiga diqqat qiling.

Otquloq, Yurtboshi, tinchliksevar, xushxat, oshko‘k, qo‘shirnoq, oshpichoq, qo‘lqop, sadarayhon, Yangiyer. Har bir, qirq uch, hech kim, hech nima, har vaqt, olib chiq, ta’sir et, borib kelmoq.

Nazariy ma’lumot. 1. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o‘xshatish yo‘li bilan bildiruvchi qo‘shma ot va qo‘shma sifatlar qo‘shib yoziladi: *karnaygul, qo‘ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg‘iyko‘z* kabi.

2. Narsani uning rangi, mazasi, o‘zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *olaqarg‘a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi.

3. Narsaning biror maqsad, ish uchun mo‘ljallanganligini bildiruvchi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqo‘ra, nosqovoq, ko‘zoynak* kabi.



Topshiriq

2-topshiriq. «Ikkinchi qismini toping!» deb nomlangan ushbu usul orqali qo‘shma so‘zlarning ikkinchi qismini topib, ularning qo‘shib yoki ajratib yozilishini aytib bering. Ular ishtirokida gaplar tuzing va daftaringizga yozing.

Tinchlik...

Jigar...

Muz...

Qo‘l...

Xush...

Uch...

Qirq...

G‘arbiy...

Bug‘doy..

Nazariy ma’lumot. 1. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *tog‘olcha, cho‘lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

2. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *kiryuvdi, kelintushdi, qoryog‘di, Urto‘qmoq, Ochildasturxon* kabi.

3. Qaratuvchili birikmaning bir so‘zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi: *mingboshi, so‘zboshi, olmaqoqi* kabi.

Qisqartma so‘zlar har doim qo‘shib yoziladi: O‘zMU, ToshDPU.



1-mashq. Qavslarini ochib, so‘zlarni qo‘shib yoki ajratib yozish qoidalari asosida ikki guruhga bo‘lib ko‘chirib yozing.

Qimmat (baho), Besh (ariq), hech (nima), erk (sevar), ming(oyoq), xom (tok), sof (dil), kul (rang), ish (yoqmas), laylak (qor), mosh (rang), hech (qachon), har (doim), ko‘z (oynak), shirin (so‘z), baland (parvoz).



2-mashq. Soʻzlarni qoʻshib yoki ajratib yozish qoidalari asosida ikki guruhga boʻlib koʻchirib yozing.

Koʻz//oyinak, sotib//olmoq, alla//qachon, shu//yerga, baland//parvoz, xom//semiz, tinchlik//sevar, umum//davlat, shaharlar//aro, shirin//soʻz, jigar//rang, besh//kokil, otash//qalb, gʻayrat//qilmoq, bilag//uzuk, Yakka//saroy, Olti//ariq, Qum//qoʻrgʻon, Sot//voldi, kino//yulduz, radio//markaz, tele//tanlov.



3-mashq. Quyidagi gaplarni koʻchiring, qoʻshib yozish qoidalariga muvofiq yozilgan soʻzlarning tagiga chizing.

1. Shiyponning oʻng tomoni katta gulzor. Atrofiga jambil, rayhon oʻrtasiga anvoyi xil rangdagi atirgullar ekilgan. 2. Orif ota gullar taʼrifini hikoya qilguday boʻlsa, hamsuhbatining ogʻzini ochirib qoʻyadi. 3. Mana shu jarayonda bola ilk qadamlaridanoq hayotbaxsh musiqadan bahramand boʻladi. 4. Rahmatlik bobom aytgan edilar: Forobiy Toshkentga kelganida Beshyogʻochdagi madrasada tahsil olgan ekan. 5. Yaqinda Ukraina Fanlar akademiyasining radiofizika va elektronika institutida samoviy «radiokoʻz» yaratildi. 6. Sahifaning keng havorang hoshiyalari zarhal kumush rasmlar bilan bezalgan. 7. Qishlogʻimni eslaganimda yuzidan nur yogʻilib turuvchi, oppoq roʻmolli momolar, nuroniy bobolar, qoshlariga oʻsma tortgan dilbar kelinchaklar, togʻni ursa talqon qiladigan, Alpomishdek xushsurat yigitlar koʻz oldimda gavdalanadi. 8. Oʻzbekiston poytaxti Toshkentdagi katta Milliy bogʻ har kuni dam oluvchilar va bolalar bilan gavjum. Bogʻning kiraverishidagi yangi oshxona mijozlar xizmatiga shay.



4-mashq. Uyga vazifa. Quyidagi vaziyat asosida esse yozing. Koʻplab insonlar hozirda Internet kitoblarning oʻrnini egallayotganini aytmoqda. Bu holatni yaxshi deb oylaysizmi? Kelajakda kitoblarning ahamiyati qanday boʻladi deb oʻylaysiz?

22– §. BOSH HARFLAR IMLOSI. KO‘CHIRIB YOZISH



1-topshiriq. Ko‘chirma gaplarda bosh va kichik harflarning qo‘llanishini eslang va gapirib bering.



2-topshiriq. O‘zingiz yashab turgan hudud: viloyat, tuman, qishloq nomlarining yozilishini izohlang.

Nazariy ma’lumot. 1. Kishilarning ismi, otasining ismi, familiyasi, taxallusi bosh harf bilan yoziladi: *Soliyev Naimjon Sobirjon o‘g‘li, Muso Toshmuhammad o‘gli – Oybek, Abdurauf Fitrat* kabi.

2. Mamlakatlar, shaharlar, qishloqlar, shaharchalar, daryo, dengiz, tog‘, tepa, adir nomlari ham bosh harf bilan yoziladi: *Hindiston, Fayzobod, Urgut, Chortoqsoy, Qo‘ng‘irtog‘, Qashqadaryo, Qora dengiz* va hokazo.



3-topshiriq. Ushbu gaplardagi ostiga chizilgan so‘zlarning imlosidagi farq haqida fikr yuriting. Shunga o‘xshash misollarni topib tengdoshlaringiz bilan fikr almashing.

1. Biz shaharga quyosh botganda yetib keldik.
2. Yer Quyosh atrofida aylanadi.

Nazariy ma’lumot. 1. Korxonalar, tashkilotlar, muassasa nomlari, adabiyot va san’at asarlari, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari, transport vositalarining nomlari bosh harf bilan yoziladi: «Zilolsuv» firmasi, «Sharq» nashriyot-matbaa konserni, «O‘zqishloqxo‘jmarsholding» kompaniyasi, «Kobalt» avtomobili, «Yoshlik» jurnali, «Ikki eshik orasi» asari va hokazo.

2. Muhim tarixiy sanalar va bayramlar nomi bosh harf bilan yoziladi: *Mustaqillik kuni, Navro‘z bayrami, Xotira kuni.*

3. Oliy darajadagi davlat tashkilotlari, xalqaro tashkilot nomining har bir soʻzi bosh harf bilan yoziladi: *Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Sudi, Yevropa Ittifoqi Kengashi, Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi* kabi.



1- mashq. Bosh harflarning ishlatilish sabablarini tushuntirib bering.

Inomjon, Muhiddin, Turob Toʻla, Umarali Normatov, Chust, Konibodom, Angren, Amudaryo, Chortoqsoy, Hisor, Markaziy Osiyo, Amerika Qoʻshma Shtatlari, Saturn, Merkuriy, «Umid» jamgʻarmasi, Mustaqillik kuni, Oʻzbekiston Respublikasi Taʼlim vazirligi, BMT tashkiloti.

Nazariy maʼlumot. 1. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Hulkar, Qavs, Mirrix* (yulduz va sayyoralar nomi), *Tinchlik dengizi* (Oydagi relyef nomi) kabi. *Yer, quyosh, oy* turdosh otlari sayyora nomi boʻlib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: *Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi.*

2. Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *Sogʻliqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qoʻmitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti* kabi.

3. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir soʻz bosh harf bilan boshlanadi: «*Oʻzbekiston Qahramoni*» (unvon), «*Oltin Yulduz*» (medal). Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi soʻz bosh harf bilan boshlanadi: «*Sogʻlom avlod uchun*» (orden), «*Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi*» (faxriy unvon), «*Matbaa aʼlochisi*» (nishon) kabi.

4. Gapning birinchi soʻzi bosh harf bilan boshlanadi: *Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim* (O. Yoqubov).



2- mashq. Matnni oʻqing va undagi bosh harflarning ishlatilish sababini tushuntiring.

Abu Rayhon Beruniy

Oʻrta asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy 973- yili Xorazmda tugʻildi. U boshlangʻich maʼlumotni shu yerda oldi. Oʻsha vaqtda Xorazmda fanning turli sohalarida shuhrat qozongan koʻplab olimlar yashagan. Abu Rayhon Beruniy ulardan taʼlim olgan. U sharqning boy fan va madaniyatini yaxshi oʻrgangan, qadimgi yunon klassik ilmi bilan tanishib, yirik olim boʻlib yetishgan. U Xorazmdan ketgandan keyin Hindistondagi Nandna qalʼasida yashaydi. Hindistonda sanskrit tilini oʻrganadi. Bu uning hind madaniyati, adabiyotini oʻrganishiga va Hindistonning oʻsha davr olimlari bilan tanishishiga, bu mamlakat haqida oʻlmas asarlar yaratishga imkon beradi. Olimning «Hindiston» asarida hind adabiyoti, falsafasi, geometriya, etnografiya, din, hind yozuvchilarining tillari kabi masalalar yoritiladi. «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asari esa xalqimizning madaniyati va sanʼati haqida maʼlumot berib, ulardan namunalar ham keltiradi.

Buyuk olim 1035-36-yillarda oʻz ilmiy ishlarning roʻyxatini tuzadi. Bunda oʻsha vaqtgacha yozgan asari 113 taga yetganini koʻrsatadi. Keyingi asarlarini ham qoʻshsa, u qoldirgan meros 152 kitobdan iborat boʻladi.

Abu Rayhon Beruniyning nomini abadiylashtirish maqsadida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Oʻzbekiston Davlat mukofoti taʼsis etilgan.



3- mashq. Soʻzlarni boʻgʻinlarga ajratib daftaringizga koʻchirib yozing.

Maʼlumot, maxsus, taʼkidlamoq, koʻngilchan, singil, taassurot, taajjub, saodat, taxt, kelingiz, ingliz, gramm, metall, matn, trolleybus, kitobxon, jurnalist, daftar, OʻzMU, XXI asr, Covid – 19, 10- «A» sinf.

Nazariy maʼlumot. 1. Satrga sigʻmay qolgan soʻzlar keyingi qatorga boʻgʻin asosida koʻchiriladi: *mak- tabdosh, kom-pyuter, kol-lej, talʼ-at, isteʼ-dod* kabi (tutuq belgisi birinchi boʻgʻinda qoldiriladi).

2. Soʻz boshida kelgan yolgʻiz unli hech vaqt yakka oʻzi qoldirilmaydi: *aʼ-lo* emas *aʼlo*, *u-ka* emas *uka*, *mudofa-a* emas *mudo-faa* singari.

3. Soʻz tarkibida ikki undosh yonma-yon kelsa, ular keyingi satrga birgalikda koʻchiriladi: *dia-gramma, mono-grafi-ya, foto-grafiya* kabi.

Sh, ch, ng harflar birikmasi doim birgalikda yoziladi: *pe-shona, pu-chuq, dengiz* kabi.

Eslatma: Agar *sh, ng* ikki tovushni ifodalasa, ajratib yoziladi: *Asʻ-hob, Isʻ-hoq, tun-gi* kabi

Nazariy maʼlumot. 1. Qisqartma soʻzlar, yil, oy, raqam bilan yozilgan sonlar keyingi qatorga koʻchirilmaydi: *OʻzMU, ToshDPU, 2021, 19, XX* kabi.

2. *10-» A» sinf 37-uy, 100 gr, 25 sm, 10 mm* kabi koʻrinishdagi birikmalar ham bir-biridan ajratilmaydi.



4- mashq. Quyidagi soʻz birikmalaridagi soʻzlarni zarur oʻrinlarda bosh va kichik hatflar bilan yozib chiqing.

Toshkent sharqshunoslik instituti, oʻzbekiston maorif vazirligi, oʻzbekiston qahramoni, oʻzbekiston oliy sudi raisi, navroʻz xayriya jamgʻarmasi, chigʻatoy mahallasi.



5-mashq. Uyga vazifa. Koʻchirish qoidalariga zid ravishda qismlarga ajratilgan soʻzlarni belgilang va ularni toʻgʻrilab daftaringizga koʻchirib oling.

Den-giz, ta-a-lluq-li, ke-tin-giz, o-ta-la-ri, Nam-DU, koʻn-gil, tran-sport, sa-o-dat, ma-ʼlumot, B- MT, Er-on, a-ka-xon, u-kam, ton-ggi, sanoq-li.



Savol va topshiriqlar

1. Suv havzalarining nomi qanday yoziladi? Misollar bilan izohlang.
2. Oliy va xalqaro tashkilotlarning nomlari qanday yoziladi?
3. *Dangasa, yanga, shtanga, tanga*(pul birligi),*singlim,yengil* kabi soʻzlari qay tartibda boʻgʻinga ajratiladi?
4. *Sharpa qilmaydi, gapirmaydi, lekin uyqu bermaydi.* U nima?

23– §. O‘ZBEK TILINING IMLO QOIDALARI YUZASIDAN AMALIY ISH



Topshiriq

1-topshiriq. So‘zlarning talaffuzi va yozilishidagi farqni aniqlang va shunga o‘xshash so‘zlarni davom ettiring.

Obod, adab, fabrika, maqsad, to‘qson, burun, xayol, xalq, tadbir, ruxsat, ijtimoiy, iztirob...



Topshiriq

2-topshiriq. 10-15 ta so‘zdan iborat lug‘at diktant oling. Unda x va h, o‘ va u, g va g‘, b va p, d va t, a va o tovushlari ma‘noni farqlash uchun xizmat qilsin.



1- mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli harflarni qo‘yib ko‘chirib yozing.

Mas...id, i...tido, g‘i...jak, sara...jom, k...itansiya , oli...anob, ta...suf, istibdo..., muto...aa, me...yor, ta...jub , min...s, krep...eshin, parf...meriya, simpoz...um, vol...ybol, sup...rgi, majmu..., a...ditorya, suver...nitet.



Topshiriq

3-topshiriq. «Kimning tabrigi eng chiroyli?» rukni ostida tabrik yozish musobaqasi tashkil qiling. Yozilgan matnni tahlil qiling.



2-mashq. Matnni o‘qing. Undagi so‘zlarni bosh harflar bilan, chiziqcha bilan, qo‘shib yozilishiga qarab guruhlarga ajrating. Yozilish sababini tushuntiring.

Tilni bilgan elni biladi

Nutq eng katta boylikdir. Inson nutqi, gapira olishi bilan ulug‘dir. Barcha asrlarda xalqlarni bir-biriga bog‘laydigan, yaqinlashtiradigan asosiy vosita til

bo'lgan. Ayrim tillar hatto xalqlar o'rtasida ko'prik vazifasini o'tagan. Shuning uchun «Til bilgan – el biladi» deydilar.

Hikoya qilishlaricha, kunlardan bir kun ulug' vazir va shoir Alisher Navoiy Samarqand shahrida bir-biri bilan tortishib savdo qilayotgan ikki insonga duch kelib qolibdi. Ular bir-biriga baqirar, biri «se» desa, ikkinchisi «uch» derdi. Atrofdagi odamlar esa «Narxini tushirma» deb, ularni yanada urushtirar edi. Navoiy ularning oldiga yaqin keldi va har ikkoviga o'z tilida gapirib tushuntirdi. «Ey, odamlar! Axir ikkovingiz ham bir xil narxni aytyapsiz-ku. Tojik tilidagi «se» o'zbek tilidagi «uch» degani-ku!». Barcha odamlar xaxolab kulib yuborishibdi. Shuning uchun odamlar hamisha bir-birini tushunishi, ahil va inoq yashashi uchun bir-birlarining tillarini o'rganishga harakat qilib keladilar. Boshqa tillarni bilish har bir bilimli kishining ko'rkidir.

(«Oz-oz o'rganib dono bo'lur» kitobidan)



1-mashq. Uyga vazifa . Quyidagi vaziyat asosida esse yozing. Ko'plab davlatlarda asrlar davomida shakllangan an'analar va qadriyatlar yo'qolib bormoqda. Bunga nimalar sabab bo'lmoqda va qanday qilib milliy qadriyatlarni asrab qolish mumkin?



Savol va topshiriqlar

1. Tilshunoslik fanining grafika bo'limi numani o'rgatadi?
2. O'zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonun qachon qabul qilingan?
3. Imlo qoidalari deganda nimani tushunasiz?
4. Qo'shma otlar imlosi haqida nima deya olasiz? Misollar bilan izohlab bering.
5. Izofali birikmalar imlosi haqida misollar bilan tushuntiring.
6. Xalqaro va oliy davlat tashkilotlarining nomlari, oliy darajadagi unvon va mukofotlar qanday yoziladi?
7. Chiziqcha bilan yozish qoidalarini tushuntiring.

**24–§. VI BO‘LIM. LEKSIKOLOGIYA. LEKSIK BIRLIKLAR.
O‘ZBEK TILI LEKSIKASINING RIVOJLANISHI VA BOYISH
MANBALARI**



1-topshiriq. Hind eposidan olingan parchani o‘qing. Zohid va mehmon fikriga munosabat bildiring. Xulosangizni daftaringizga qayd eting.

Zohid va mehmon bob

(Hikoyat)

Zohid o‘tkir notiq edi. Aramiy tilini yaxshi bilardi. Uning bu tilda juda chiroyli so‘zlashi **mehmonga** yoqdi. Mehmon bu tilni bilmasa ham, ko‘pincha shu tilda so‘zlang, deb zohiddan iltimos qilar edi. Zohid **fasohat** va balog‘at bilan mehmonga shu tilda gapirar edi. **Oxiri** mehmon uni o‘rganishni orzu qilibdi.

Bir kuni u zohidga dedi: – Yomon ko‘zdan asrasin, juda chiroyli gapirasiz. Men shu **vaqtgacha** bunday fasohatli bir so‘z, bunday **balog‘atli** bir **jumla** eshitmagan edim... Sizdan iltimos qilaman: menga shu tilni o‘rgatsangiz.

Zohid dedi: Jonim bilan. Bizning tilimizni o‘rganishni **xohlaganingiz** uchun faxrlanaman, agar **jazmingiz** qat‘iy bo‘lsa, men **mehnatimni** ayamayman.

Mehmon uzoq muddat bu tilni o‘rganish bilan mashg‘ul bo‘ldi. Lekin hech narsa chiqmadi.

Zohid: – Bu juda qiyin ish... Kuchi yetmagan ishga yopishgan va o‘ziga yarashmagan kiyim kiygan odam **kulgi** bo‘ladi. Kimki ona tilini unutib, otabobolarining odat va an‘analarini tark etsa, shunday bo‘ladi.

Mehmon: **Ajdodlarning** zararli odatlariga taqlid etmoq ham nodonlikdir. Fazilat egalarning bilim va hunarlarini o‘rganmoqqa intilish esa yetuklikdan dalolat beradi. Zohid: Men o‘z **burchimni** bajardim. Aytish mumkin bo‘lgan gaplarning hammasini gapirib **o‘tdim**. Siz tag‘in yana kaklik yurishini o‘rganmoqchi bo‘lgan **zog‘ga** o‘xshab qolmang.²⁴

(«Kalila va Dimna»)

²⁴ Kalila va Dimna., Hind eposi., T.: G‘. G‘ ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiyot uyi . 2005-y. 204- bet, 254 b.



2-topshiriq. «Zohid va mehmon bobi» hikoyat matnini adabiy til me'yoriga mos o'qing. O'zbek tilining unutilib ketmasligi, taraqqiy etishi, rivojlanishi va boyishi xususida fikr yuriting.



1-mashq. «Zohid va mehmon bobi» hikoyatidagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni mashq qiling. Yozilishi va talaffuzini namunadagidek daftaringizga qayd eting.

Namuna:

T/r	Yozilishi	Talaffuzi
1.	Zohid	Zoxit



3-topshiriq. Maktabda o'tilgan bilimlaringizga tayanib quyidagi blits savollarga javob bering.

1. Tildagi barcha so'zlar yig'indisi qanday nomlanadi?²⁵
2. Tilshunoslikning leksikologiya bo'limida nima o'rganiladi?²⁶
3. Leksikologiya atamasi qaysi tildan olingan?²⁷
4. Leksikologiya atamasi qanday ma'noni anglatadi?²⁸
5. Til doimiy ravishda boyib boradi. Uning boyishi qaysi usul orqali amalga oshiriladi?²⁹
6. Tilning boyishida shevalardan so'z olish qaysi imkoniyat asosida yuzaga keladi?¹
7. Tilning boyishida raqamlashtirish so'zi qaysi imkoniyat asosida yuzaga kelgan?¹

²⁵ Mahmudov N., Sobirov A., Sattorov Sh., Toshmirzayeva Sh., Mannopova D Ona tili (5-sinf uchun darslik). –T.: 2020-y. 110-b. 194b

²⁶³⁶ Mahmudov N., Sobirov A., Sattorov Sh., Toshmirzayeva Sh., Mannopova D Ona tili (5-sinf uchun darslik). –T.: 2020-y. 110-b,122-betlar. 194b

8. Soʻz maʼnosining oʻzgarishi tilning boyishida qaysi imkoniyat asosida yuzaga kelgan?¹

9. Tilning boyishida fayl soʻzi qaysi imkoniyat asosida yuzaga kelgan?¹

10. Yangi soʻzlar yasalishi tilning boyishida qaysi imkoniyat asosida yuzaga kelgan?¹

11. Olinma soʻzlar tilning boyishida qaysi imkoniyat asosida hosil boʻlgan?¹

12. *Dasturchi, sichqoncha* soʻzlari qaysi imkoniyat asosida tilda paydo boʻlgan?¹

13. Quyidagi soʻzlardan nechtasi oʻz qatlamga mansub? *Ish, bahor, bosh, telefon, biz, yigirma, parta, qalam.*¹

Nazariy maʼlumot. Har qanday til oʻz soʻz boyligiga ega. Tilning lugʼat tarkibi maʼnosida **leksika** atamasi qoʻllanadi. Leksika muayyan tildagi harakatda boʻlgan barcha soʻzlar yigʻindisidir.³⁰ Dunyoda faqat ichki imkoniyat asosidagina rivojlanadigan til yoʻq. Faqat maʼlum zarurat tufayli yangi tushunchani ifodalovchi oʻz tilimizning ichki imkoniyati asosida ifodalab boʻlmagandagina tashqi manbaga murojaat qilish foydali. Mahmud Koshgʻariy, Alisher Navoiy ham shunga daʼvat etganlar. Keyingi davrda tilimizga Yevropa tillaridan bir qancha soʻzlar yangi tushunchalar bilan birgalikda kirib keldi. Masalan, **monitoring, diler, skaner** kabi. Bularning hammasi oʻzbek tili leksik imkoniyatini kengaytirib, boyitmoqda.

Oʻzbek tiliga boshqa tillardan kirgan quyidagi soʻzlarni misol qilib keltirish mumkin:

1) arabcha: *kitob, muomala, doim, aʼlo, sanʼat, ommaviy* (oʻzbek tilidagi arabcha soʻzlar koʻproq ot va sifat turkumiga tegishli boʻlib, ularning belgilari quyidagilar:

a) ikkita unli yonma-yon keladi: *doim, shoir, shijoat, shuur, inshoot;*

b) tutuq belgisi (ʼ)ishtirok etadi: *maʼno, qalʼa;*

c) koʻpincha boʻgiz undoshi **h** (yumshoq talaffuz qilinganda) tovushi qatnashadi;

d) *-iy, -viy* qoʻshimchalarini olib yasalgan boʻladi;

e) *-ot, -at* qoʻshimchalari orqali yasalgan soʻzlar mavjud boʻladi: hayvonot, sheʼriyat

³⁰ Mengliyev B., Xoliyorov Oʻ., Abdurahmonova N. Oʻzbek tilidan universal qoʻllanma. 6-nashr. –T.: “Akadem-nashr”.2018. 107-b.

2) **fors-tojikcha:** *oftob, dasta, olov, chopon, chorpoya, boshpana, barg, anor, xursand, farzand, go'sht, sust;*

3) **mo'g'ulcha:** *tuman, navkar, yasovul, yasoq;*

4) **uyg'urcha:** *manti, lag'mon, manpar;*

5) **xitoycha:** *choy(xitoy tilida tsay deyilar ekan);*

6) **ruscha:** *stol, stul, ruchka, samolyot, parovoz, paroxod, pulemyot, pero, cho't(schyot).* Rus tilidan olingan so'zlar orasida asli kelib chiqishi boshqa tillarga xos so'zlar ham bor: *buxgalter, soldat, tank, shtab(nemischa), palto, triko(fransuzcha), klub, futbol(inglizcha), tomat, limon (ispancha).*³¹



Mantiqiy fikr yuritib, ortiqcha javobni toping³².

Arslon, Tulki, Jirafa, It.



2-mashq. Dars jarayonida olgan bilimlaringizni «Qaytar aloqa»usuli orqali takrorlang va berilgan shakllarga mos so'zlarni topib yozing.

O'zbek tili leksikasining boyish va rivojlanish manbalari

I. Ichki manba



1.	Yangi so'zlar yasalishi
2.	So'z ma'nosining o'zgarishi
3.	Shevalardan so'z olish

II. Tashqi manba



1.	Arabcha
2.	Fors-tojikcha
3.	Ruscha
4.	Xitoycha
5.	Mo'g'ulcha
6.	Uyg'urcha
7.	Inglizcha

³¹ Hamrayev M. Ona tili. –T.: “Sharq”.2013. 42-b.

³² Коэффициент интеллектаю – Навоийю 2016 г. 36ст.



Topshiriq

4-topshiriq. Sh.Rahmatullayevning «O‘zbek tili omonimlarining izohli

lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi shakldosh so‘zlarning ma‘nolarini o‘qib o‘rganing. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalaning.

Bo‘sh. I. Sifat. 1. Ichiga hech narsa solinmagan. Bo‘shliq, bo‘m- bo‘sh. Bo‘sh qop.

2. Band qilinmagan. Bo‘sh yer. Bo‘sh o‘rin. Chorbog‘ uncha katta emas. Lekin bir parcha ham bo‘sh yer ko‘rinmaydi. (Hamid G‘ulom)

3. Hujayra to‘qimalari zich joylashmagan, yumshoq. Daraxtning bo‘shini qurt yeydi. (Maqol)

Bo‘sh. II. Sifat. 1. Tarang tortilmagan, solqi. Arqonni bo‘sh tortib bog‘lamoq.

2. Yetarli asoslanmagan. Bo‘sh so‘zlar. Endi uning xayolida hamma narsa bo‘sh va ma‘nosiz edi. (Oybek)³³



Topshiriq

5-topshiriq. A. Hojiyevning «O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha

lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi ma‘nodosh so‘zlarning ma‘nolari o‘qib o‘rganing. O‘z nutqingizdan ulardan unumli foydalaning.

Hech, aslo, asti, sira, mutlaqo, tamoman, zinhor, butunlay. Bu so‘zlar gapning biror bo‘lagidagi inkor ma‘nosini ta‘kidlashi, kuchaytirishi bilan birlashadi. **Aslo**– ko‘proq poetik uslubga xos. **Asti** – so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lib, fe’lning inkorini ta‘kidlash, kuchaytirish uchun qo‘llanadi va bunda ta‘kidlash, kuchaytirish bo‘yog‘i hech so‘zidagiga nisbatan kuchliroq bo‘ladi. **Sira** – ma‘noni kuchaytirish jihatdan **asti** so‘ziga yaqin. Lekin faqat fe’llardagi inkorni emas, balki boshqa so‘zlardagi inkorni kuchaytirish uchun ham qo‘llanaveradi. **Mutlaqo, tamoman** – so‘zlari ma‘noni yana ham kuchaytiradi. **Zinhor** – ko‘proq badiiy uslubga xos. **Butunlay**– shu ma‘noda juda kam qo‘llanadi ³⁴

³³ Rahmatullayev Sh., O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. –T.:”O‘qituvchi”. 1984-y. 43-b. 216b.

³⁴ Hojiyev A. “O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati”. –T “O‘zbekiston SSR FA”. 1963-y. 264b. 221-b.



4-mashq. Uyga vazifa. «Ona tilimni asrash uchun men nima qila olaman?»

mavzusida esse yozing. Essening kirish qismida shaxsiy nuqtayi nazariningizni ifodalab, asosiy qismda isbotlanadigan fikrning nazariy asosi va savolning mazmunini bayon etuvchi ma'lumotlardan foydalanib, mavzuni yoritib. Ko'tarilgan muammoning kelib chiqish sabablarini mavzu bo'yicha chiqariladigan yakuniy xulosa va dalillarga suyangan holda muammoning yechish yo'llarini ko'rsating.

25 –§. LEKSIKOLOGIYA. O‘ZBEK TILI LEKSIKASINING RIVOJLANISHI VA BOYISH MANBALARI



Topshiriq

1-topshiriq. «Ona tilimni asrash uchun men nima qila olaman?»

mavzusidagi esseni tahlil qiling. Yakuniy xulosa chiqaring.



Topshiriq

2- topshiriq. «Adabiy tilda gaplashaylik!» mashqi uchun telekanallarda

efirga uzatiladigan ko'rsatuvlarda boshlovchilari shevada gaplashadigan ko'rsatuvlarning beshligi ro'yxatini shakllantiring. Munosabat bildiring. Shevalarning o'zbek tili boyligiga qo'shgan hissasi, adabiy tilni sof saqlash shartligi haqida xulosa chiqarish.



Topshiriq

3- topshiriq. Nutq ifodasida imo-ishoralarning o'ni, his-hayajon ifodasi,

munosabat ifodasi, ijtimoiy tarmoqlarda munosabat bildiruvchi «qiyofalar» (stikerlar) haqida fikr yuriting. Ularni so'zga almashtiring . Jadvalga mos «qiyofa» (stiker) larni qo'ying.

So'z	«Qiyofa» (stiker)
Quvonch	
Qayg'u	
Masxaralash	



Topshiriq

4- topshiriq. A. Hojiyevning «O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi ma‘nodosh so‘zlarning ma‘nolari o‘qib o‘rganing. O‘z nutqingizdan ulardan umumli foydalaning.

Hech, asti, sira, mutlaqo, zinhor, butunlay. Bu so‘zlar gapning biror bo‘lagidagi inkor ma‘nosini ta‘kidlashi, kuchaytirishi bilan birlashadi.³⁵



Topshiriq

5- topshiriq. A. Hojiyevning «O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi ma‘nodosh so‘zlarning ma‘nolari o‘qib o‘rganing. O‘z nutqingizdan ulardan umumli foydalaning.

Yurak, qalb, ko‘ngil, dil, siyna. Bu so‘zlar kishining his-sezgisi, kayfiyati, ruhiy, kechinmalarining markazi, simvoli ma‘nosi bilan birlashadi. **Qalb**–kitobiy. **Siyna**–poetik uslubga xos. Siyna – shu ma‘noda juda kam qo‘llanadi.³⁶



Topshiriq

6- topshiriq. Muloqot uchun vaziyat.

Quyidagi holatda siz so‘zlovchiga qanday javob qaytargan bo‘lardingiz? Bunga o‘xshash vaziyatga duch kelganda qanday yo‘l tutish kerak? Qaysi javobni nutqingizda qo‘llagan bo‘lardingiz? Siz qaysi nutq elementidan foydalanasiz va muloqotning natijasi yaxshi bo‘ladi? O‘qituvchingiz bilan birgalikda muhokama qiling. O‘z javobingizni asoslab bering.

Siz ko‘chada do‘stingiz bilan birga darsdan keyin uyingizga ketyapsiz. Sizga notanish, yoshi 30-40 lar atrofida, uy kiyimidagi bir kishi sizni to‘xtatib: «Itimos, menga yordam berib yuboring. Meni urib , pullarimni tortib olib qo‘yishdi. Mana, oyog‘imni doka bilan o‘rab oldim. Buni ham dorixonadan iltimos qilib tekinga olishimga to‘g‘ri keldi. Uyimga borib olishim uchun ko‘p emas 30 ming so‘m

^{35, 44} Hojiyev A. «O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati». –T “O‘zbekiston SSR FA”. 1963-y. 264b. 221-b.192-b

kerak, xolos. Bir yordam qilib yuboring. Iltimos» , – desa, qanday yo‘l tutasiz. Quyidagi variantlardan o‘zingizga mosini tanlang. Agar boshqa variantingiz bo‘lsa, uni asoslab bering. Fikringizni qisqa jumlada tushunarli ifodalang.

A) –Yo‘q, siz tilanchisiz, bundan ko‘ra ishlab mehnat qiling.

B) – Siz yolg‘on gapiryapsiz. Siz tilanchlik qilayotganingiz uchun qonunchilikda jazo belgilab qo‘yilgan.

C) –Bunaqa yolg‘on gaplarni aytmang, hammasi tashqi ko‘rinishingizdan bilinib turibdi.

D) –Betayin, axmoqsiz. Bu ishingiz millatimiz uchun haqorat.

E) –Xo‘p aka, menda bori shu. Hozir tushlik qilishim kerak edi. Buni ola qoling.

F) –Uzr, akajon. Hamma gapingizga ishonдим, lekin menda ham pul yo‘qligi uchun piyoda ketayotgan edim.

G) – Yo‘lto‘sar ekansiz, uyaling. Olloh iymon va insof bersin.

H) Hech narsa demasdan indamay yo‘limizda davom etamiz.

I) –Mashinaga mindirib yo‘lkira haqqini berib yuboraman.

J) ...



7- topshiriq. Berilgan gaplardagi so‘zlarning qanday tushuncha anglatayotganini aniqlang.

1. So‘z – inson qudratining qo‘mondoni. (V.V.Mayakovskiy).

2. So‘zdurki, nishon berur o‘likka jondin,

So‘zdurki, berur jonga xabar jonondin.

Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,

Bilkim, guhari sharifroq yo‘q ondin. (A. Navoiy).

3. Odam tili bilan hayvondan ustun, ammo tildan nojoiz foydalansa, hayvondan battar (Sa‘diy She‘roziy)

4. Og‘ziga kelganni demak – nodonning ishi,

Oldiga kelganni yemak– hayvonning ishi. (Alisher Navoiy)



Topshiriq

8- topshiriq. Sh.Rahmatullayevning «O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi shakldosh so‘zlarning ma’nolarini o‘qib o‘rganing. O‘z nutqingizdan ulardan to‘g‘ri foydalaning.

Qo‘sh. I fe‘l. Bir narsaga ikkinchi bir narsani birlashtirmoq. Qo‘shar, qo‘shimcha, qo‘shilma, qo‘shin, qo‘shiq, qo‘shma, qo‘shoq. Otni aravaga qo‘shmoq.

Qo‘sh. II sifat. Birgalikda yonma-yon joylashuvchi ikkita. Qo‘sha, qo‘sh-qo‘sh, qo‘shmozor, qo‘shnay, qo‘shog‘iz, qo‘shtirnoq, qo‘shstig‘, qo‘shquloq, qo‘shhokimiyatchilik. Qo‘sh otli, qo‘sh ordenli, qo‘sh qo‘llab.

Qo‘sh. III ot; eskirgan. Ikki ish hayvoni (odatda ho‘kiz) va omochdan iborat yer haydash kompleksi. Qo‘sh haydamoq.³⁷



9- topshiriq. Uyga vazifa. «Dahshat» hikoyasidan olingan parchani tinglang. Asarda tasvirlangan imo-ishoralarning o‘rni haqida tushuncha hosil qiling. Hayotiy misollar bilan fikrlarni dalillang, ijtimoiy tarmoqdagi munosabat bildiruvchi «qiyofalar» haqida bahslashing.

26–§. O‘Z VA KO‘CHMA MA‘NO. BIR MA‘NOLI VA KO‘P MA‘NOLI SO‘ZLAR



Topshiriq

1- topshiriq. Kaykovusning «Qobusnoma»sidan olingan parchani o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolarini aniqlab, ko‘chiring.

Juvonmardlik zikrida

Ey farzand, agar sen juvonmardlardek harakat qilmoq tilasang, dastlab juvonmardlik nima ekanligi va uning qandog‘ paydo bo‘lurin aniq bilg‘il. Bilg‘ilki, odam uch xil sifatga egadur. Barcha shaxs, u xoh dono, xoh nodon bo‘lsin, shu uch

³⁷ Rahmatullayev Sh., O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. –T.:”O‘qituvchi”. 1984-y. 194-b. 216b

narsa bila xushnuddir. Bu uch narsaning biri aql, biri rostlik va juvonmardlikdur. Xalqning da'vosiga haqiqat bila qarasang, hech kishi aql, rostlik va juvonmardlik bila yolg'on da'vo qilmag'usidir. Nedinkim, bu uch sifatga ega bo'lmagan hech kishi yo'qdur. Inson asli barcha ilmni o'rgana oladi. Yer tuproq, o't va suvning orasida vositachi bo'lib, ularning orasini ulug' band qilib bog'laydur. Shu tariqa yerdagi qurg'oqchilikning olov bila, sovuqlikning suv bila bog'lanishi orasida band **paydo bo'ldi**, lekin quvvat moddasi bila mazkur band **uzildi**. Nedinkim, juvonmardlik, donishlik, kamolot, sharif – bularning hammasi aqlning sarmoyasidir va oliy aql tashabbusi bila badanda paydo bo'ldilar. Demak, tan jon bila, jon nafas bila va nafas aql bila tirikdur. Har bir odamning nafasi bila aqli orasida jahl **xiralik pardasi** bo'lsa, aqldin jonga fikr, tadbir, juvonmardlik va rostlik yetishmas. Juvonmardlik asli uch narsadur: biri ulkim, aytg'on so'zingni o'zing qilsang, ikkinchisi ulki, rostlikka xilof qilmasang, uchinchisi ulki, xayr ishini ilgari tutsang. Odamdag'i qolg'on barcha sifatlar bu uch **narsaning ostidadir**.³⁸ (Kaykovus «Qobusnoma»)

Nazariy ma'lumot. Odatda, leksik va grammatik ma'nolarning muayyan tovush yoki tovushlar birikmasi bilan barqaror munosabatidan tashkil topgan butunlikka nisbatan **so'z** atamasi qo'llanadi. Grammatik ma'nosiz, faqat leksik ma'no bildiruvchi til birligi uchun **leksema** atamasi qo'llanadi.³⁹

So'zlarning nutq jarayoniga bog'liq bo'lmagan atash (leksik) ma'nosi **o'z ma'no** sanaladi. So'zning nutqda boshqa so'zlarga bog'lanib, hosil qiladigan yondosh ma'nosi **ko'chma ma'no** hisoblanadi. Masalan, *odamning qulog'i- o'z ma'noda, qozonning qulog'i- ko'chma ma'noda*.⁴⁰

So'zning o'z ma'nosidan tashqari o'xshatish, mubolag'a, kinoya kabi usul bilan boshqa ma'noda qo'llanishi natijasida ko'chma ma'no hosil bo'ladi: **ko'z** - 1) «yog'ochning qavariq joyi», 2) «uzukning yaltiroq dumaloq qismi»; **to'qimoq** – «yo'q yerdan o'ylab chiqarmoq» kabi. Ko'chma ma'no gap tarkibidagi boshqa so'z yordamida anglashiladi. Masalan, **U bu gaplarni o'zi to'qigan** jumlasidagi

³⁸ Kaykovus. Qobusnoma. Ogahiy tarjimasi. 4- nashr. –T.: “O'qituvchi”. 2015. 183-185-b. 208 b

³⁹ Rasulova N. , Supiyeva B. , Ona tilidan ma'ruzalar. I-II qism. –T.: “Navro'z”.2016. 125-b.

⁴⁰ Anorbekova A. , Mirzayeva Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: “Noshir”.2011. 60-b.

to‘qimoq so‘zining «yo‘q yerdan o‘ylab chiqarmoq» ma‘nosi undagi **gaplarni** so‘zi yordamida anglashiladi.⁴¹

Nazariy ma‘lumot. Bir ma‘noli va ko‘p ma‘noli so‘zlar. Ayrim so‘zlar gapdan tashqarida ham, gap ichida ham bir ma‘noni bildiradi. Bunday so‘zlar **bir ma‘noli (monosemantik) so‘zlar** deyiladi. Bir ma‘noli so‘zlar tilimizda kam sonli tashkil etadi va ilmiy, kasb-hunarga doir atamalarni, shuningdek, yangi paydo bo‘lgan so‘zlarni o‘z ichiga oladi⁴². Gapdan tashqarida bir ma‘noni, gap tarkibida boshqa ma‘noni ifodalaydigan so‘zlar **ko‘p ma‘noli (polisemantik) so‘zlar** deyiladi. O‘z va ko‘chma ma‘no birikib, ko‘p ma‘noli so‘zni hosil qiladi. Yangi so‘zlar (neologizmlar) ham vaqt o‘tishi bilan qo‘shimcha ma‘nolarni anglatadi.⁴³ Ko‘p ma‘noli so‘zlar til taraqqiyoti natijasida paydo bo‘ladi. So‘z biror tushunchani bildirishi uning **lug‘aviy(leksik)** ma‘nosi sanaladi. Ana shu lug‘aviy ma‘no asosida boshqa ma‘nolar ham ifodalansa, u **yasama(ko‘chma)** hisoblanadi, ya‘ni ko‘p ma‘noli so‘zlar vujudga keladi. Badiiy nutqda so‘zning yasama ma‘nolaridan keng foydalaniladi. **Tilimizdagi so‘zlarning juda katta qismi ko‘p ma‘nolidir.**⁴⁴ **Tutmoq** so‘zi ko‘p ma‘noli so‘z bo‘lib: **o‘z ma‘nosi:** qochoqni tutmoq (ushlamoq); **ko‘chma ma‘nolari:** 1) parda tutmoq(ilmog); 2) sir tutmoq (biror holat, vaziyatda saqlamoq); 3) suv tutmoq(uzatmoq); 4) o‘zini tutmoq(o‘zini biror tarzda ushlamoq); 5) ro‘zg‘or tutmoq(boshqarmoq); 6) bolani bo‘sh tutmoq, xotinini qattiq tutmoq – (qandaydir munosabatda bo‘lmoq); 7) idishni toza tutmoq – (ishlatmoq, foydalanmoq, qo‘llamoq); 8) qurt tutmoq – (parvarish qilmoq, boqmoq); 9) zalni qarsak tutmoq- (ovoz tarqalmoq); 10) jazavasi tutmoq – (huruj qilmoq); 11) ko‘chat tutmoq – (o‘smoq, rivojlanmoq). Yuqoridagi tutmoq so‘zi barcha ma‘nolari bilan bir so‘z hisoblanadi (ko‘p ma‘noli so‘z), ya‘ni bir so‘zning turli ma‘nolaridir.⁴⁵

⁴¹ Mengliyev B., Xoliyorov O., Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. 6-nashr. –T.: “Akademnashr”.2018. 79-b. 512 b.

⁴² Hamrayev M. Ona tili. –T.: “Sharq”.2013. 37-b. 192 b

⁴³ Anorbekova A., Mirzayeva Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: “Noshir”.2011. 60-b. 336 b

^{44,53} Rasulova N., Supiyeva B., Ona tilidan ma‘ruzalar. I-II qism. –T.: “Navro‘z”.2016. 126-b,127-b. 480b.



Topshiriq

2-topshiriq. Rasm asosida matn yarating. Unda bir ma'noli so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar, yangi paydo bo'lgan so'zlardan foydalaning.



Matnda **gullagan dunyo, samo lochini, gulning ifori, hayot ifori, tabiatni qo'lga olmoq, kitobni qo'lga olmoq, o'zini qo'lga olmoq, azot qatlami, hayot qatlami, ravon yo'l, istiqloq yo'li, iflos tabiat, iflos odam, qattiq sovuq, qattiq jism, chang'ida uchmoq, orzular osmonida uchmoq, kumush choyshab, kumush qoshiq** kabi til birliklaridan foydalanib, ularni o'z va ko'chma ma'noda qo'llang. Rasmga aloqador yangi paydo bo'lgan so'zlarni toping.



Topshiriq

3-topshiriq. Mantiqiy fikr yuriting. Orfografiyaga oid bilimingizga tayanib tushirib qoldirilgan harfni bo'sh o'ringa qo'ying.

R N V J O' F ⁴⁶ _



Topshiriq

4- topshiriq. A. Hojiyevning «O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati» kitobidan olingan quyidagi ma'nodosh so'zlarning ma'nolari o'qib o'rganing. O'z nutqingizdan ulardan unumli foydalaning.

G'am, tashvish, qayg'u, kulfat, musibat, anduh, mung. Bu so'zlar ruhiy azob ma'nosi bilan birlashadi. **G'am, tashvish**— juda ko'p qo'llanadi. **Qayg'u**— nisbatan kamroq qo'llanadi. **Kulfat, musibat**— ma'noni kuchliroq darajada ifodalaydi. **Anduh**— eskirgan, kitobiy. Ko'pincha g'am so'zi bilan birga juft so'z holida qo'llanadi. **Mung**—eskirgan, kitobiy.⁴⁷

⁴⁶ To'g'ri javob ng. Bunda 1- harfdan alifboda 3 ta harf oldinga , 3 ta har keyinga qarab harflar yozilgan va natijada ng harfiy birikmasi yuzaga kelgan. Bu yerda so'z o'yiniga amal qilingan.

⁴⁷ Hojiyev A. «O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati». –T «O'zbekiston SSR FA». 1963-y. 264b. 217-b.



5-topshiriq. Uyga vazifa. Quyidagi soʻzlar asosida gaplar tuzing. Unda soʻzni oʻz va koʻchma maʼnoda qoʻllang. *Yedim, ichdim, oʻqidim, oʻtirdi, sovuq, qaynoq, «Samarqand», «Zarafshon», tushdi, gulladi, gapirdi, «Zakovat», oy.*

27–§. KOʻCHMA MAʼNOLAR VA ULARNING TURLARI. METAFORA VA UNING USLUBIYATI



1-topshiriq. Qanoat – harom bilan halolning chegarasini belgilaydigan vijdon qozisi.⁴⁸ Ushbu gapdagi koʻchma maʼnoda qoʻllangan soʻzlarni aniqlang va izohlang.



2-topshiriq. Sharm-hayo – eʼtiqod chamanining boʻstoni, or-nomus bulogʻining zilol suvi, ibo xiyobonining shohbekati, axloq-u odobning oyinasi.⁴⁹ Berilgan gapdagi koʻchma maʼnoda qoʻllangan soʻzlarni aniqlang va oʻz maʼnosi bilan solishtiring. Ularning farqlarini tushuntiring.

Nazariy maʼlumot. Tildagi koʻpgina soʻzlar oʻz maʼnosidan boshqa maʼnolarni, hatto, baʼzan oʻz maʼnosiga qarama-qarshi maʼnolarni ifodalash uchun ham qoʻllanadi. Bir narsa-buyum belgisi boshqasiga koʻchiriladi, oʻxshatiladi, qayta nomlanadi yoki qism orqali butun yoxud butun orqali qism maʼnosi anglashiladi.⁵⁰

Maʼno koʻchishining nima asosda yuzaga kelishiga koʻra 5 turi bor:

- 1) Metafora; 2) Metonimiya; 3) Sinekdoxa; 4) Vazifadoshlik;
- 5) Kinoya.⁵¹

^{48,49} Farzandnoma: adabiy-badiiy nashr. Qayta ishlangan va toʻldirilgan nashr /O.A.Mahmudov. – Toshkent: “Oʻqituvchi” nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2018. – 352 b.

⁵⁰ R.Qoʻngʻuruv. “Oʻzbek tilining tasviriy vositalari”. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1977.

⁵¹ Mengliyev B., Xoliyorov Oʻ., Abdurahmonova N. Oʻzbek tilidan universal qoʻllanma. 6-nashr. –T.: “Akadernashr”.2018. 80-b. 512 b.



Topshiriq

3-topshiriq. Berilgan soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing. Undagi shu soʻzning oʻz va koʻchma maʼnoda qoʻllanganini aniqlab, izohlang va shakldoshi bilan solishtiring.

Bel, boʻl, davlat, ogʻiz, qalin, qil, qirq, qovoq, quloq, sirli, suz, tuz, yut.⁵²

Namuna: 1. Onamning qulogʻini tekshirtirish uchun shifokor huzuriga bordik. 2. Radioning qulogʻini burab yubor, boshim ogʻrib ketdi juda.⁵³



Topshiriq

4-topshiriq. Berilgan gaplardagi koʻchma maʼnoda qoʻllangan soʻzlarni aniqlab, ularni izohlang.

1. Kimki hayo libosini kiygan boʻlsa, odamlar uning aybini koʻrishdan ozod boʻladilar. 2. Qoʻrquv – sabr va irodani susaytiradi. 3. Oʻgʻilginam, totmagʻil baxil nonidan, uzoq boʻl baxilning dasturxonidan. 4. Haq gap achchiq boʻlsa-da, foydali. 5. Odobli farzand ilm chirogʻini mahkam tutadi. Mehr uchqunlari boshlangan joyda qahr qoldiqlari nihoya topadi.

Nazariy maʼlumot. Metafora – grekcha *metaphora* soʻzidan olingan boʻlib, koʻchim, istiora degan maʼnoni anglatadi. Nutqqa obrazlilik, his-hayajon berish niyatida narsa, belgi va harakatlar oʻrtasidagi oʻxshashlikka asoslanib, soʻzlar va iboralarning koʻchma maʼnoda ishlatilishi **metafora** deyiladi. Masalan: Qalb – odamzod tomonidan hali-hanuz oʻrganilayotgan sirlar **oʻrmoni**.

Metafora koʻchma maʼno hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri boʻlib, mumtoz adabiyotshunosligimizda *«istiora»* deb yuritilgan.⁵⁴ Masalan:

Furqatingdin zaʼfaron uzra toʻkarmen lolalar,

⁵²...⁵⁴...⁶⁸ X.Suvonova, G.Turdiyeva. “Oʻzbek tilining shakldosh soʻzlar oʻquv lugʻati”. – Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2009.

⁵³ Ona tili va adabiyot. 2019-yil. Test topshiriqlari toʻplami. Amaliy qoʻllanma / Davlat test markazi. – Toshkent: Davr Press, 2019. – 128 bet.

⁵⁴ Badiiy matnning lisoniy tahlili: Metodik qoʻllanma / M.Yoʻldoshev, Z.Isaqov, Sh.Haydarov. – T. : Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 112 b.

Lolalar ermashi, bag‘rimdin erur pargolalar.⁵⁵ (Alisher Navoiy)

Mazkur baytda «za‘faron» so‘zi «sariq yuz» ma’nosini, «to‘karmen lolalar» birikmasi «qonli yosh» ma’nosini bildiradi.

Narsa va hodisa orasidagi o‘xshashlik quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1) **shakliy o‘xshashlik:** *odamning qulog‘i-qozonning qulog‘i, qush uchdi-odam uchdi;*

2) **joylashish o‘xshashligi:** *itning dumi-samolyotning dumi, qo‘shni odam-qo‘shni dala;*

3) **mazmunan o‘xshashlik:** *tomdan tushmoq- mansabdan tushmoq.*⁵⁶



Topshiriq

5-topshiriq. Quyidagi gaplardan metafora usulida ko‘chgan so‘zlarni aniqlab, ularni izohlang.

1. Emas oson bu maydon ichra turmoq,

Nizomiy panjasig‘a panja urmoq.

Kerak sher ollida ham sheri jangi,

Agar sher o‘lmasa, bore palangi. (*«Farhod va Shirin»*)

2. Shabistonida tug‘di bir yangi oy,

Yangi oy yo‘qki, mehri olamoroy. (*«Farhod va Shirin»*)

3. Ochildi bog‘ida bir otashin vard,

Demaykim vard, balkim shu‘layi dard. (*«Farhod va Shirin»*)

4. Ey gul, meni zor etmaki husnung chamanida,

Ko‘zni yumub ochquncha, bu gulzor topilmas. (*Z.M.Bobur*)

⁵⁵ Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1998. – 240 b.

⁵⁶ Mengliyev B., Xoliyorov O., Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. 6-nashr. –T.: “Akademnashr”.2018.82-83-b. 512b.

5. Subhidam tushib shabnam, bo‘ldi sabzalar xurram,
Gul uza tomib kam-kam, yog‘di abri naysonlar. (*Furqat*)



6-topshiriq. «To‘rtinchisi ortiqcha» usuli asosida quyidagi topshiriqni bajaring.

Sen o‘tkir zehni bola ekansan-ku. ⁵⁷	Shamol kucha-yib olovning tili yana ham uzunlashdi.	Bu g‘arib bosh nimalarni ko‘rma-gan, jigarim.	Yoqimli hid dimog‘imni qitiqladi.
Negadir ishtaham qochib ketdi.	Och nazarim tushar suratga.	Olti oykim do‘stlarim ham pana-panada, Iste‘dodim so‘nganidan qilar karomat.	Olti oykim do‘stlarim ham pana-panada, Iste‘dodim so‘nganidan qilar karomat.
Mustaqillik tufayli millatning g‘ururi, obro‘-e‘tibori o‘sdi.	Qozon osilgan kulsiz o‘choqqa ko‘zi tushdi.	Xatni o‘qib, Abdurahmonovning kulcha yuziga qon yugurdi.	Maktabda «O‘tkir zehnlilar» musobaqasi bo‘lib o‘tdi.



7- topshiriq. A. Hojiyevning «O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi ma‘nodosh so‘zlarning ma‘nolari o‘qib o‘rganing. O‘z nutqingizdan ulardan unumli foydalaning.

Salomlashmoq , so‘rashmoq, ko‘rishmoq, omonlashmoq. Bu so‘zlar salom-alik qilishmoq ma‘nosi bilan birlashadi. **Salomlashmoq, so‘rashmoq** – so‘zlari so‘z orqali salom-alik qilishni ifodalaydi. Bunda boshqa harakat ham bo‘lishi mumkin.

⁵⁷^{80,81,82} Ona tili va adabiyot. 2019-yil. Test topshiriqlari to‘plami. Amaliy qo‘llanma / Davlat test markazi. – Toshkent: Davr Press, 2019. – 128 bet.



Topshiriq

8- topshiriq. Sh.Rahmatullayevning «O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi shakldosh so‘zlarning ma‘nolarini o‘qib o‘rganing. O‘z nutqingizdan ulardan to‘g‘ri foydalaning.

To‘p. I ot. Koptok, futbol koptogi. To‘pni zarb bilan darvoza tomon tepmoq.

To‘p. II ot. Snaryad otuvchi uchun stvolli harbiy qurol, zambarak. Tong saharda tepalikni to‘plar va katta kalibrli pulemyotlardan o‘qqa tutdilar. (Sharof Rashidov)

To‘p. III [< to‘potar; peshin bo‘lganini bildirish uchun soat 12 da krepostda to‘p otilar edi] ot; so‘zlash. To‘pdan keyin Luqmonchanning onasi yetib keldi. (Asqad Muxtor)

To‘p. IV ot.O‘ram, bog‘lam, guruh. Bir to‘p chit.

To‘p. V: taqlidiy so‘z. Yumshoq jismning yerga urilishidan chiqadigan tovushni bildiradi. Bog‘g‘a kirdim, olmalar qip- qizarib pishibdi,Silkitibdi shamollar, Yerga to‘p-to‘p tushibdi.(Zafar Diyor)⁵⁸



9-topshiriq . Uyga vazifa. O‘zbekiston Xalq shoiri Abdulla Oripovning «Qo‘riqxon» she‘rini o‘qing va ko‘chma ma‘nodagi so‘zlarni aniqlab izohlang.

QO‘RIQXONA

Asraymiz o‘simlik xillarini tayin
Asraymiz hayvonlar kamyob zotini.
Hatto atroflarini o‘rab atayin
Qo‘riqxon deyimiz so‘ngra otini.

Sayoq ovchilarga u yon yo‘l bo‘lsin,
Jarima solamiz, qamaymiz hatto.
To u jonzotlarni tinchiga qo‘ysin,
Qirilib bitmasin tirik dunyo to.



⁵⁸ Rahmatullayev Sh., O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. –T.:”O‘qituvchi”. 1984-y. 141-b. 216b

Munis mavjudotga mehr-u shafqat bu,
Bu inson qalbida balqqan hamiyat.
To yashar qaydadir bu yanglig' tuyg'u,
Har nechuk qirilib ketmas tabiat.

Olamda ko'p narsa kamyob bir qadar,
Ne-ne tuyg'ular ham kamyobdir, alhol.
Men derdim sof qalbni uchratgan safar,
Darhol o'rab oling atrofin, darhol.

Insof yo'qolmasin, o'rang mustahkam,
To uni yuzsizlik etmasin xarob.
Ezgulikni asrang, olamda u ham
Tojdor turna kabi bo'lmasin kamyob.

Oqibatni asrang, oqibat go'yo
Ayiqday qaydadir topmasin zavol.
Hayoni asrangiz, kuymasin hayo
Otashga duch kelgan polapon misol.

Imonni asrangiz, u doim tanho,
Undadir mujassam inson matlabi.
Avlodlar axtarib yurmasinlar to,
Uni allaqanday Qor odam kabi.

Vijdonni asrangiz har nedan ortiq,
Yagona zaminni asragansimon.
Bobolardan qolgan noyob bu tortiq
Toki avlodlarga yetolsin omon.



Ezgu, latif hislar bo‘lmasin tahqir,
 Bulbulni boyqushga topshirmang zinhor.
 Xudbin va dilozor kimsaning, axir,
 Og‘zi qon yirtqichdan qanday farqi bor?!

To‘qayga o‘t ketsa yongay bus-butun,
 Adolat borliqqa yolg‘iz onadir.
 Dunyo ham, insonlar qalbi ham bugun
 Yovuzlikdan zada Qo‘riqxonadir

28–§. METONIMIYA VA UNING USLUBIYATI (amaliy)



1-topshiriq. O‘quvchilar 4 kichik guruhga bo‘linib, metonimiya asosida ko‘chgan so‘zlarni biror narsa ichidagi predmetning ma‘nosi o‘sha narsaga o‘tkazilishi asosida, muallifning nomini uning asari o‘rnida qo‘llanishiga, biror predmetni u yasalgan material bilan almashtirilishiga, harakatni unga bog‘liq bo‘lgan boshqa harakat bilan atalishiga beshtadan misol yozadi.



2-topshiriq. Quyida berilgan gaplarda metonimiya usuli asosida ko‘chgan so‘zlarni aniqlab, ularni izohlang.

1. O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa, Oltin boshning kalla bo‘lgani shudir (E.Vohidov). 2. «Nasaf» Toshkentdan g‘alaba bilan qaytdi.⁵⁹ 3. Kurash bo‘yicha o‘tkazilgan musobaqada Qashqadaryo birinchi o‘rinni egalladi.⁶⁰ 4. Har shanba «Muqimiy»da «Advokatlik osonmi?» dramasi qo‘yilayotgan ekan.⁶¹ 5. Qo‘zivoy chol anchadan beri samovarga chiqmay qo‘ygan edi. 6. Tez orada «Sohibqiron»

^{59, 85, 86, 97, 88, 89, 90} Ona tili va adabiyot. 2021-yil. Test topshiriqlari to‘plami. Amaliy qo‘llanma / Davlat test markazi. – Toshkent: Davr Press, 2021. – 128 bet.

sahna yuzini ko‘radi. 7. Yanvarning o‘n beshlarida butun qishloq to‘g‘on qurishga otlandi. 8. Qozon osilgan kulsiz o‘choqqa ko‘zi tushdi. 9. Bozor oyoqqa turdi, shovqin-suron yer-u ko‘kni tutdi.⁶²



3-topshiriq. Test topshiriqlarini bajaring.

1. Qaysi gapdagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zda metonimiya usulida ma’no ko‘chishi yuz bergan?

- A) Quyosh etaklarini qishloq ustidan yig‘ishtirib oldi.
- B) Bu ishimizni ko‘rgan ko‘zlar xursand bo‘ladi, rahmatlar aytadi.
- C) Ular torlarining quloqlarini burab, sozini to‘g‘rilashardi.
- D) Oybekni o‘qishni yaxshi ko‘raman.

2. Qaysi gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘zda metonimiya usulida ma’no ko‘chishi yuz bergan?

- 1. Buni eshitgan har bir og‘iz nimadir degisi keladi.
- 2. Olimpiadadan Samarqand g‘alaba bilan qaytdi.
- 3. Hamma ishni o‘rinbosarimga yuklab qo‘ydim.
- 4. Bu vaziyat O‘zbekistonni yana-da jiplashtirdi.

A) 1,2,3,4 B) 1,2,3 C) 2,4 D) 3,4

3. Qaysi gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘zda metonimiya usulida ma’no ko‘chishi yuz bergan?

- 1. Do‘stim, dasturxonga qarang, tortinmang, noz-ne‘matlardan oling.
- 2. Bu bosh nimalarni ko‘rmadi, kimlar bilan kurashmadi, do‘stim.
- 3. Baxt degani kelmaydi oddiy tugunda,
Uni keltiradi yurtning shunqori.
- 4. Balki, tush ko‘rganday hayron,
Eshitgin Toshkentning sabr-u toqatin.⁶³

A) 1,2,4 B) 1,4 C) 2,4 D) 2,3,4

⁶³ Ona tili va adabiyot. 2021-yil. Test topshiriqlari to‘plami. Amaliy qo‘llanma / Davlat test markazi. – Toshkent: Davr Press, 2021. – 128 bet.

Nazariy ma'lumot. Metonimiya so'zi yunoncha **metonimiya** – «yangi nom qo'yish», «nomni o'zgartirish», «qayta nomlash» demakdir. Makon va zamondagi o'zaro bog'liqligi asosida bir narsa hodisaning nomini ikkinchiga ko'chirish – **metonimiyadir**. Metonimiyada biror predmet xususiyati yoki voqea-hodisaning nomini aytganda shunga o'zaro bog'liq bo'lgan ikkinchisi anglashiladi. Bunda o'xshashlik nazarda tutilmaydi. Masalan, Fuzuliyni oldim qo'limga, Majnun bo'lib yig'lab qichqirdi (H.Olimjon). Metonimiya turli ko'rinishlarda bo'ladi:

1) o'rniga munosabatiga ko'ra: *bir stakan (suv) ichdim, bir tarelka (ovqat) yedim, qishloq uyquda;*

2) vaqtiga ko'ra: *o'nga (yosh) kirdim, yarim yillik (imtihoni) topshirildi;*

3) muallif va asar orasidagi mukofotiga ko'ra: *Pushkinni o'qidim.*⁶⁴



Topshiriq

4-topshiriq. Berilgan surat egalarining kimligini aniqlang va ular bilan bog'liq gap tuzing. Unda metonimiya usulida ma'no ko'chishi yuz bersin.



⁶⁴ Mengliyev B., Xoliyorov O', Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma. 6-nashr. –T.: "Akademnashr".2018. 83-84-b. 512b.



Topshiriq

5- topshiriq. A. Hojiyevning «O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi ma‘nodosh so‘zlarning ma‘nolari o‘qib o‘rganing. O‘z nutqingizdan ulardan unumli foydalaning.

Eslamoq, xotirlamoq, yodlamoq, yo‘qlamoq. Bu so‘zlar esga olmoq, esga keltirmoq, xotirada qayta tiklamoq ma‘nosi bilan birlashadi. **Yodlamoq**– bu ma‘noda kam qo‘llanadi. **Xotirlamoq**– jonli so‘zlashuvga nisbatan yozuv tilida ko‘p qo‘llanadi. **Eslamoq**– yozuv tilida ham, so‘zlashuv tilida ham keng qo‘llanadi.⁶⁵



8-mashq. Uyga vazifa. Quyidagi she‘riy parchalardan metonimiya usulida ko‘chgan so‘zlarni aniqlang va izohlang.

⁶⁵ Hojiyev A. «O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati». –T “O‘zbekiston SSR FA”. 1963-y. 264b. 187-b.

1. Tishlarini irjaytirib bo'kirgan yo'lbars
To'rt tarafga tashlanadi, talpinib lars-lars.
Och ko'zlari qonga to'lgan, sakrab o'ynaydi...
O, bechora, qoch! U seni tirik qo'ymaydi!
Ana! Ana, tirnog'ini nishlab kelar u,
Changal soldi! Xalq o'rnidan birdan turdi duv...
Chapak chaldi. «Ey, ahmoq Rim, sevinma qonga!
Bundan boshqa xo'rlik bormi, axir, insonga?»

(«Nil va Rim» she'ridan)

2. Sevgi! Sening shirin tilingdan
Kim o'pmagan, kim tishlamagan?
Darding yoyday tilib ko'ksidan,
Kim qalbidan qonlar to'kmagan?
Seni yaxshi bilaman, go'zal,
Petrarkani o'qiganim bor.
Buyuk Rimning Sapfosi azal
Xayolimni oshiqday tortar...

(«Monolog» she'ridan)

3. «Monolog» she'ridan ismlari keltirilgan quyidagi shaxslar bilan bog'liq satrlarni o'qing va ularning o'z ma'nosidan metonimiya usulida ko'chganligini izohlang. **Petrarka, Sapfo, Tasso, Leonora, Biatriche, Hamlet, Ofeliya, Otello, Dezdemon**a

4. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostonidan olingan quyidagi parchalarda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning o'z ma'nosidan metonimiya usulida ko'chganligini izohlang va she'r matni ustida ishlang.

Tili yolg'on erning jafa qilqi ul,
Jafa kimda ersa asha yilqi ul.
Kishi yalg'anindin tilama vafa,
Bu bir so'z sinamish o'gush yilqi ul.
Tili yolg'on erning jafu xulqidir,

Jafo kimda bo'lsa o'sha yilqidur.

Kishi yolg'onidan vafo kutmagin,

Bu so'z sinalgan talay yilgidir.

29–§. SINEKDOXA, VAZIFADOSHLIK VA ULARNING USLUBIYATI



1- topshiriq. Berilgan matnni o'qing. Unda ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarni aniqlang.

Sevgi – eng qudratli hissiyot

Haqiqatan ham, o'tmishning ba'zi buyuk mutafakkirlari Tortishish qonuniga «Sevgi qonuni» deb ta'rif berishgan. Agar bu haqda o'ylab ko'rsangiz, nega shundayligini darrov tushunib olasiz. Agar biror kishi haqida yomon fikrga boraversangiz, o'z fikrlaringizning isbotini topasiz. Bu fikrlaringiz bilan siz boshqa odamga emas, faqat o'zingizga ziyon keltirasiz. Agar siz mehr - muhabbat haqida o'ylasangiz, toping-chi, kim bundan foyda ko'radi – albatta, sizning o'zingiz! Shuning uchun ham siz eng ko'p mehr haqida o'ylasangiz, mehr ko'rsatsangiz, Tortishish kuchi o'zining eng qudratli ko'rinishida namoyon bo'ladi, chunki siz eng kuchli chastotada turgan bo'lasiz. Sevgini qanchalik ko'p his qilsangiz, shuncha ko'p qudratga ega bo'lasiz⁶⁶.

(Ronda Bern)

Shunday insonlar borki, butun umr **tirnoqqa zor** o'tadi, shunday insonlar borki, o'z **jigarlaridan** jabr ko'rishadi, shunday insonlar borki, ularning qilgan ishlari **eshitgan quloqqa** og'ir botadi. Vaqt o'tishi bilan ularning Tortishish qonuni yaxshi ishlab farzandli bo'lishi, yoki qarindoshlari bilan mehr - oqibatli bo'lishi, yoinki maqtov yog'ilib, el og'ziga tushishi mumkin. Bunda Tortishish qonuni o'z vazifasini bajaradi.

Shunday insonlar borki, **samolyotning qanotiga** arqon bog'lab uni torta olishi mumkin, yana kimdir bir zarbda **daraxtning tomiri** bilan yerdan qo'porib

⁶⁶ R. Bern. Buyuk sir. – T.: "Davriy press". 2015. 38- bet.144b.

olishi mumkin. Bularning hammasi o'z oldiga qo'yilgan maqsad va shu maqsad yo'lidagi tinimsiz mehnatning, eng asosiysi, Tortishish qonunining ishlaganidandir.



Topshiriq

2- topshiriq. «Sevgi – eng qudratli hissiyot» matnidagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarda qaysi ma'no ko'chish turi sodir bo'layotganini aniqlang. Shu ma'no ko'chish turiga oid misollarni o'zingiz mustaqil namunadagidek yozishni mashq qiling.

T/r	Ma'no ko'chish turi	Ajratilgan so'z	Mustaqil aniqlangan so'z
1	Sinekdoxa	Tirnoqqa zor	Ko'zimning oq-u qorasi



9-mashq. Quyidagi «Sevgi – eng qudratli hissiyot» matni ustida ishlashni mashq qiling, shu asosida tuzilgan quyidagi savollarga javob bering.

1. R. Bern qaysi qonunga nisbatan «Sevgi qonuni» atamasini qo'llaydi?
2. Siz o'z fikrlaringizni qanday boshqarasiz?
3. Insoniyat qanday fikr yuritsa, uning dunyosini go'zallik, ezgulik, yuksaklik chulg'ab oladi?
4. Qanday holatda Tortishish kuchi eng qudratli ko'rinishda namoyon bo'ladi?

Nazariy ma'lumot. **Sinekdoxa** yunoncha so'z bo'lib, «birgalikda anglash» ma'nosini anglatadi, bo'lak orqali butunni yoki butun orqali bo'lakni ifodalashni bildiradi. Sinekdoxa usuli butun va qism munosabatiga asoslanadi, biror predmetning bir qismini atash orqali uni butunicha tushunish mumkin yoki aksincha:

1. Butunning nomi qismga ko'chiriladi: Besh qo'l barobar emas (qo'l – butun, barmoq – qism).

2. Qismning nomi butunga ko‘chadi: Tirnoqqa zor (tirnoq – qism, farzandga muhtoj ma’nosida).⁶⁷

Qism va butun munosabati asosida ma’no ko‘chirish *sinekdoxa* usuli sanaladi. Sinekdoxa metonimiyaning bir ko‘rinishi deb ham yuritiladi. Ammo undan farqli ravishda, sinekdoxada miqdoriy tavsifga asoslanadi. Masalan: **bosh, tuyoq** so‘zi (ya’ni qism) orqali hayvon (ya’ni butun) tushuniladi. **Yurak, tirnoq** so‘zi (ya’ni qism) orqali odam (ya’ni butun) anglashiladi.⁶⁸

VAZIFADOSHLIK

Narsa va hodisa orasidagi vazifaviy o‘xshashlik asosida birining nomini ikkinchisiga ko‘chirish **vazifadoshlik** asosida ma’no ko‘chirish deyiladi. Vazifaviy ko‘chirish ham o‘xshashlikka asoslanadi. Bu jihatdan u metaforaga yaqin turadi. Farqi shundaki, vazifaviy ko‘chirishda tashqi ko‘rinish o‘xshashligi emas, balki vazifa o‘xshashligi hisobga olinadi. Masalan: qush tanasining uchish uchun xizmat qiladigan a’zosi **qanot** deb ataladi. O‘xshash harakatni bajaruvchi samolyot qismi ham shunday nomlanadi. **Tugma** yaktakning oldini tugib yopuvchi bog‘ich nomi bo‘lgan. Hozir shu vazifa bajaradigan, odatda, aylana tutqich ham **tugma** deyiladi. *Vazifadoshlik asosida ma’no ko‘chishi faqat ot turkumida uchraydi.*⁶⁹



Topshiriq

3-topshiriq. A. Qodiriyning she’rini o‘qing. Unda ilgari surilgan g‘oya haqida o‘z fikringizni ifodalang, ko‘chma ma’noda qo‘llangan o‘rinlarni topib, ma’no ko‘chish turini aniqlang.

Ahvolimiz!

Ko‘r bizning ahvolimiz, g‘aflatda qanday yotamiz,

Joyi kelgan chog‘ida vijdonni pulga sotamiz.

O‘g‘limizga na adab, na fan, na yaxshi so‘ylamak,

Na xudoni buyrug‘i bolg‘on ulum o‘rgotamiz.

Qorimiz shundan iborat bo‘ldi ushbu vaqtda

⁶⁷ Rasulova N., Supiyeva B., Ona tilidan ma’ruzalar. I-II qism. –T.: “Navro‘z”.2016. 134-b. 480-b.

⁶⁸ Mengliyev B., Xoliyorov O‘., Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. 6-nashr. –T.: “Akademnashr”.2018. 84-b. 512-b.

⁶⁹ Mengliyev B., Xoliyorov O‘., Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. 6-nashr. –T.: “Akademnashr”.2018. 83-b. 512-b.

O‘ntadan bedona boqib, yoz-u qish sayrotamiz...

O‘rtadan chiqsa agar millatni yaxshi suyg‘uvchi,

Biz ani dahriy sanab, to‘fangcha birla otamiz.


Kelingiz, yoshlar, ziyolilar, bu kun g‘ayrat qiling,

Uxlaganlarni agar Qodir esak uyg‘otamiz.⁷⁰

(A. Qodiriy)



10-mashq. Mantiqiy savolga javob toping. Bo‘sh kvadratga 6 ta raqamlangan shakllardan qaysi biri to‘g‘ri kelishini mashq qiling.



Nazariy ma‘lumot. **Kinoya** – so‘zning aks ma‘noda qo‘llanishidir.

Masalan: Janoblari kelibdilar-da. Shu «matematik»ka ishonib, imtihondan o‘ta olmadim. Bu holatda ko‘pincha ko‘chma ma‘nodagi so‘zlar qo‘shirnoq ichiga olinadi.⁷¹

Butun boshli gapning, hatto kichik matnning ko‘chma ma‘noda qo‘llanishi **tag ma‘no** hisoblanadi. Masalan:

Xotin: «Sizga tegguncha, alvastiga tegsam bo‘lmasmidi?!»

Er: «Afsuski, yaqin qarindoshlar orasida nikoh man qilingan».⁷²



11-mashq. Uyga vazifa. Milliy test sinoviga tayyorlanishni mashq qiling. «Men anglagan haqiqat» mavzusida esse yozing. Mantiqiy qonuniyatni saqlagan holda atamalarni o‘z o‘rnida qo‘llab, taqqoslash va xulosalash usullaridan

⁷⁰ Qodiriy A. To‘la asarlar to‘plami. I- jild. –T.: “Fan”. 1995. 11- b.296-b

^{71, 112} Rasulova N., Supiyeva B., Ona tilidan ma‘ruzalar. I-II qism. –T.: “Navro‘z”.2016. 136-b. 480-b.

foydalaning. Esse matnida ma'no ko'chishining metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik usulidan foydalaning.

30–§. OMONIM, SINONIMLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI



Topshiriq

1-topshiriq. «Men anglagan haqiqat» mavzusida yozgan esseni tahlil qiling. Tengdoshlaringizning esseda yozgan haqiqatiga munosabat bildiring.

Nazariy ma'lumot. Quyi sinflarda so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, jumladan, omonim so'zlar, ularning ko'p ma'noli so'zlardan farqi xususida bilimga ega bo'lgansiz. Omonimlik so'z, qo'shimcha, ibora, so'z birikmasi va gapga xos.⁷³ Omonimlar **lug'aviy(leksik) omonim, affiks omonim, frazeologik omonimlarga** bo'linadi. Iboralardagi omonimlik **frazeologik omonim** hisoblanadi. Masalan: *Ko'z yummoq – o'lmoq, ko'z yummoq – e'tibor bermaslik*⁷⁴.



Topshiriq

3 - topshiriq. So'zning lug'aviy ma'nolari ustida ishlashni mashq qiling. Berilgan gaplardagi ajratib ko'rsatilgan so'zning qanday shakldoshlari borligini namunadagidek qilib daftaringizga yozing.

Mochalov

Otingdan aylanay, Mochalov... Ismi - sharifingni eshitsam, butun **borlig'**imga sirqiroq **kiradir**, Mochalov!.. O'tib **ketdi** o'shal **davrlaring**: Eski shahar ko'chalarida muborak vujuding ko'rinib qolsa, homilalik xotinlar bola tashlar; yig'loq bolalar yig'idan to'xtar; dag'dag'i zolim onangni tatigan benavolar dir-dir qaltirar edilar. Qo'lingda qamchin, **belingda oshpichoq**, shopdek murtingning

⁷³ Mengliyev B. , Xoliyorov O' . , Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma. 6-nashr. –T.: “Akademnashr”. 2018.92-b. 512-b.

⁷⁴ Rasulova N. , Supiyeva B. , Ona tilidan ma'ruzalar. I-II qism. –T.: “Navro'z”.2016. 141-142-b. 480-b.

ostidagi sassiq **og‘zingdan** qizingni... onangni... diningni... ota-bobongni... degan zikri oliylar doim favvora urar edi.

Eski shaharning yetti **yasharidan** to yetmish yasharigacha saning so‘kug‘ingda, **teppingda** edilar. Balki qo‘msarsan o‘shal kunlaringni?

Albatta, qo‘msaysan. Boshqalarini qo‘msamasang-da, iftravoy gildi ko‘paslar mehmonxonasida yegan palovlaringni, norinlaringni qo‘msaysan. Pudratchilar, zavo‘dchilar uylarida **ichgan** araqlaringni hafta sayin qozilardan kelib tura turg‘an paketlarni, ayniqsa, 1916 - yil rabochiy voqeasida **davlatxonangga** arzi dod uchun **borg‘anlarni otib**, gunohsiz **qonlarni** suv o‘rniga **ichishlaringni** qo‘msaysan!

Falakning gardishi qurib, **uyi** kuysunki, saning mash‘um kunlaringni qaytub kelmaslik etub tuzatdi. Buning bilangina qolmay, tinchkina ishlab turg‘an issiq o‘rningni sovutdi-da, **turmaga** keltirub **tiqdi...**⁷⁵(A. Qodiriy)

Namuna: So‘z – tiqdi.

I. Tiq - harakat fe‘li.

II. Tiq - tovushga taqlid so‘z.

Nazariy ma‘lumot. Lug‘aviy (leksik) omonimlar nutq jarayonida so‘z o‘yini uchun qulay imkoniyat yaratadi⁷⁶. O‘zbek tilida leksik omonimlar ko‘p ishlatilganligi sababli, u maxsus she‘riy janr – **tuyuqqa ham asos bo‘lib xizmat qiladi**. Tuyuq janriga misol:

Tig‘i ishqing yorasidur **butmagan**,(tuzalmagan)

Dardini har kimga aytib **butmagan**.(tugatmagan)

Hajr sahrosidur ohim o‘tidin,

Anda gul yoxud giyohe **butmagan**.(unmagan, o‘smagan)⁷⁷

(Navoiy)

Barcha tuyuqlar tajnis san‘ati asosida yoziladi. **Tajnis** – shakldosh so‘z yoki birikmalardan foydalanib, badiiy san‘at yaratish.

Chin so‘yla, Xitoy xo‘blarig‘a (go‘zallariga) ne bo‘lursan? (Lutfiy)

Chin so‘zi shakldosh so‘z. *Chin so‘yla* – 1) rost gapir; 2) Xitoydan so‘yla.⁷⁸

⁷⁵ Qodiriy A. To‘la asarlar to‘plami.1- jild. –T.: “Fan”. 1995. 100- b.296b

^{76,117,118} Rasulova N., Supiyeva B. ; Ona tilidan ma‘ruzalar. I-II qism. –T.: “Navro‘z”.2016. 26-143-b. 480b.

Shakli bir xil, mazmun - mohiyati, bajaradigan vazifasi har xil bo'lishi **qo'shimchalarning omonimligi** hisoblanadi. *Otaxon* – *onaxon* so'zlaridagi –xon qo'shimchasi **omonim qo'shimcha hisoblanmaydi**. Chunki ikki so'zda ham –*xon* qo'shimchasi otlardagi hurmat ma'nosini bildiruvchi lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha.

Otaxon – *kitobxon* so'zlaridagi **-xon** qo'shimchasi **omonim qo'shimcha hisoblanadi**. *Otaxon* so'zidagi **-xon** qo'shimchasi – lug'aviy shakl yasovchi. *Kitobxon* so'zidagi **-xon** qo'shimchasi – so'z yasovchi. Demak, omonim qo'shimcha bo'lishi uchun shakli (ko'rinishi) bir xil, bajaradigan vazifasi har xil bo'lishi kerak.⁷⁹

Til birliklari orasida shaklan teng kelish hodisasi – omonimlik frazeologik birliklarda ham mavjud. Shakli bir xil, ma'nosi har xil iboralar **shakldosh iboralar**(frazeologik omonimlar) deyiladi. Masalan: *boshga ko'tarmoq I. e'zozlamoq; boshga ko'tarmoq II. shovqin solmoq* kabi.⁸⁰



Topshiriq

4-topshiriq. Tavsiya etilgan so'zlar A. Qodiriyning «Mochalov» hajviyasidagi qaysi so'zga ma'nodosh bo'la olishini aniqlang.

Tavsiya etilgan so'zlar: bo'lak, o'zga; aybsiz; badbo'y, qo'lansa; hamisha, har dam, nuqul, mudom; nom.

Nazariy ma'lumot. Tilda bir so'z ko'p ma'noni anglatishi bilan birga bir necha so'z bir tushunchani ham bildirishi mumkin. Shakli har xil, bir xil tushunchani bildiruvchi til birligi **sinonim** deyiladi. Sinonimiya quyidagilarga bo'linadi:

a) lug'aviy (leksik) sinonimiya, ya'ni so'z ma'nodoshligi: **ish, yumush; gapirmoq, so'zlamoq;**

b) iboralar (frazeologik) ma'nodoshligi: **boshi osmonga yetdi, terisiga sig'madi;**

⁷⁹ Rasulova N. , Supiyeva B. , Ona tilidan ma'ruzalar. I-II qism. –T.: “Navro'z”.2016. 143-b. 480-b.

⁸⁰ Erkaboyeva N. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. –T.: “Lesson press”.2017. 106-b. 543-b

c) qo‘shimchalar (affiksalar) ma‘nodoshligi. Bu o‘z o‘rnida ikkiga bo‘linadi:

1) so‘z yasovchi qo‘shimchalar ma‘nodoshligi: **ser-, -dor, -siz, be-;**

2) grammatik shakllar ma‘nodoshligi: **-yap, -yotir, -moqda** kabi;

d) sintaktik ma‘nodoshlik: **Bahor keldi, shuning uchun ko‘nglim shod –**

Bahor kelganligidan ko‘nglim shod.⁸¹

Shartli sinonimlar: «*Nega kerak edi shu chiroy, shu o‘t?*» (H.Olimjon).

Ushbu misralarda keltirilgan *chiroy, o‘t* so‘zlari shartli sinonimlardir⁸².

Sinonimlarning qo‘llanishiga ko‘ra ayrim ko‘rinishlari bor:

Uslubiy sinonimlar ma‘lum bir uslubda qo‘llanib, boshqa uslubda qo‘llanmasligi bilan bir-biridan farq qiladi, masalan, *keldi, tashrif buyurdi* uslubiy sinonimlaridan *tashrif buyurdi* so‘zi kitobiy uslubdagina ishlatiladi; *ko‘klam, bahor; o‘ftob, quyosh* sinonimlaridan *ko‘klam, o‘ftob* so‘zlari o‘rnida ilmiy uslubda ko‘proq *bahor, quyosh* so‘zlari ishlatiladi. Uslublarni yaratishda, belgilashda o‘rinli qo‘llangan uslubiy sinonimlarning ma‘lum ahamiyati bor.⁸³



Topshiriq

5 - topshiriq. «Ruhlar isyoni» dostonidan olingan audiomatni tinglang.

Hakimning ayanchli taqdiriga sababchi bo‘lgan asos haqida mustaqil fikringizni bildiring. Audiomatndan shakldosh va ma‘nodosh so‘zlarni aniqlab, ularning vazifasini aniqlang.




Mantiqiy savol. Bo‘sh kvadratga oltita raqamlangan shakllardan qaysi

biri to‘g‘ri keladi?

⁸¹ Mengliyev B., Xoliyorov O., Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. 6-nashr. –T.: “Akademnashr”.2018.85-86-b. 512 b

⁸² Rasulova N., Supiyeva B., Ona tilidan ma‘ruzalar. I-II qism. –T.: “Navro‘z”.2016. 146-b. 480-b

⁸³ Erkaboyeva N. O‘zbek tilidan ma‘ruzalar to‘plami. –T.: “Lesson press”.2017. 106-b. 543-b



1-mashq. Quyidagi mantiqiy mashqni bajaring. O‘rni o‘zgargan harflarni to‘g‘ri joylashtirib so‘z hosil qiling. Hosil bo‘lgan so‘zlardan qaysi qatordagi test javoblaridan birining shakldoshi mavjud emas.

- A) Iqsho Oshiq →
 B) Ovqoq⁸⁴ →
 C) Kakach⁸⁵ →
 D) Amno →



Topshiriq

6 - topshiriq. Sh.Rahmatullayevning «O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi shakldosh so‘zlarning ma‘nolarini o‘qib o‘rganing. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalaning.

Sol I ot. Daryodan kechish, daryoda suzish uchun xodalarni bog‘lab tayyorlanadigan buyum.

Sol II fe‘l. 1. Nimanidir biror narsa ichiga joylamoq, qo‘ymoq. Qopga kartoshka solmoq. 2. To‘shamoq. Ko‘rpacha solmoq. O‘rin solmoq.⁸⁶



14-mashq. Uyga vazifa. «Men qayta-qayta o‘qiydigan kitob» mavzusida esse yozing. Unda omonim, sinonim so‘zlardan foydalaning. Mantiqiy qonuniyatni saqlagan holda atamalarni o‘z o‘rnida qo‘llab taqqoslang va xulosa chiqaring.

⁸⁴ Mahmudov N., Sobirov A., Sattorov Sh., Toshmirzayeva Sh., Mannopova D Ona tili (5-sinf uchun darslik). –T.: 2020-y. 115-b. 194b

⁸⁵ Mahmudov N., Sobirov A., Sattorov Sh., Toshmirzayeva Sh., Mannopova D Ona tili (5-sinf uchun darslik). –T.: 2020-y. 115-b. 194b

⁸⁶ Rahmatullayev Sh., O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. –T.:”O‘qituvchi”. 1984-y. 116-b. 216b

Foydalanish uchun soʻzlar: *qaynar mehr bulogʻi, quyosh dunyoni isitadi..., hidoyatning nurli yoʻli, asrning eng mashhur asari, yolgʻiz otning changi chiqmas.*

31- §. OMONIMLAR, SINONIMLAR, ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI



Topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi masalni oʻqing va tegishli xulosa chiqaring. Matndagi ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning shakldoshlarini toping va izohlang.

Ota va qizlari

Otaning ikki qizi boʻlib, birini dehqonga, ikkinchisini kulolga uzatgan edi. Bir muddat **oʻtib**, ota dehqonga bergan qizini yoʻqlab bordi, **hol** soʻradi. Qizi aytdiki: «Shukur, hamma narsamiz **bor**, xudodan birgina tilagimiz: yogʻin-sochin moʻlroq boʻlsa-yu, ekinlarimiz **qonib** ichsa». Ota bu yerdan chiqib, kulolga **tushgan** qizirikiga bordi, hol soʻradi. Qizi aytdiki: «Shukur, hamma narsamiz bor, xudodan birgina tilagimiz: **havo** ochiq boʻlsa-yu, quyosh qizdirib **tursa** – kuyovingiz yasagan idishlar qurisa». Otasi qiziga dedi: «Sen havo ochiq kelishini tilasang, opang yomgʻir tilasa – men nima tilayin?!»

Alqissa, birdaniga ikki ishga urinmoqchi boʻlgan kishi, albatta, muvaffaqiyatsizlikka uchraydi⁸⁷.

⁸⁷ Ezop. Masallar / Tarj. : D. Quronov. – T. : Choʻpon, 2000. – 64 b.



1-mashq. Quyidagi «Ota va qizlari» hikoyasidan olingan soʻzlarning leksik maʼnodoshlarini topishni mashq qiling. Gaplarni daftaringizga yozing.

Ota, muddat, aytdi, bor, tilak, moʻl, ichsa, bordi, quyosh.



Topshiriq

2-topshiriq. Oʻzbekiston xalq shoiri Mahmud Toirning «Bekor» sheʼrini oʻqing. Sheʼr haqidagi fikr-mulohazalaringizni bildiring. Unda qaysi soʻzlar yoki soʻzlarning asosi shakldosh boʻlishini izohlang. Birinchi banddagi 8 ta shakldosh soʻzni daftaringizga izohi bilan yozing.

BEKOR

Oyga ergashsang-u yerni koʻrmasang,
Manglaydan oqquvchi terni koʻrmasang,
Eldan olib tursang, elga bermasang,
Yurtning bolasiman deganing bekor.

Otang **obroʻ**sigga koʻksingni kerib,
Yursang har yulduzni benarvon urib,
Nogoh qoqilsang-u, ketmasang turib,
Mardning bolasiman deganing bekor.

Bir chimdim **alamga qad**dingni buksang,
Nomard poyin oʻpib, unga tiz choʻksang,
Qizgʻaldoq misoli bargingni toʻksang,

Tog‘ning lolasiman deganing **bekor**

Bolang **bo‘zlab tursa**, ko‘zga ilmasang,
Onang motamida yig‘lay bilmasang,
Daryolar to‘lsa-yu, sen bir to‘lmasang,
Qalbning nolasiman deganing bekor.

Ko‘kdagi har bulut **jola** to‘kolmas,
Mardning bolasini nomard **bukolmas**,
Mahmud, agar seni eling tan olmas,
Elning bolasiman deganing bekor⁸⁸.



2-mashq. Quyidagi «Bekor» she‘rida ajratilgan ma’nodosh so‘zlarning sinonimik qatorlarni hosil qilishni mashq qiling va daftaringizga yozing.



Topshiriq

3-topshiriq. Berilgan shakldosh so‘zlarning qaysi so‘z turkumlari doirasida shakldoshligini izohlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.
Afg‘on, boks, bo‘yin, dovul, erish, farq, gul, huzur, jo‘ra, kasr, laqqa, ma‘mur, nota, oyoq, pashmak, qayish, soliq, sumalak, tom, tuymoq.⁸⁹

(A. Qodiriy)



3-mashq. Berilgan matnни o‘qing va xulosa chiqaring. Undan qaysi so‘zlar shakldosh so‘zlar bo‘la olishini aniqlang hamda ular ishtirokida gap tuzing.

Bilim

Bilim – ta‘lim-tarbiyaning boshi, insoniyatni boshqa maxluqotlardan farqlovchi omil, baxtli, saodatli yashash asosi.

U – odamiylikni ulug‘lovchi qadriyat!

⁸⁸ Saylanma: 2 jildlik, 1-jild (Mahmud Toir; So‘zboshi muallifniki). - T. „O‘qituvchi“ NMIU, 2008. – 304 b.

⁸⁹ X.Suvonova, G.Turdiyeva. “O‘zbek tilining shakldosh so‘zlar o‘quv lug‘ati”. – Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2009.

U – sirlar ummonidagi ilmlar nilufari!

U – dunyo mohiyatidan voqif etuvchi bebaho xazina!

U – zulmatli olamni nurafshonlikka olib chiquvchi yagona ziyo chashmasi!

U – qalbi «tosh», ko‘zi «ko‘r», qulog‘i «kar» johil sifat jonzotni dili mehrga to‘la, nigohi mohiyatni ko‘ra oladigan, ma‘rifat bulog‘idan bahramand fozil mavjudotga aylantiruvchi ishonchli vosita!

Ilm olishda kamida besh xislat mavjud: insonni fazilatli qiladi; hurmatini yuksaltiradi; g‘animni xayrixohga aylantiradi; qalbiga halovat bag‘ishlaydi; tafakkur etishga muyassar aylaydi.

Umuman, bilim – odamzodning munosib yashashida sobit yo‘lboshchidir⁹⁰.



Topshiriq

4-topshiriq. Berilgan ma‘nodosh qo‘shimchalar ishtirokida so‘zlar hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

T/r	Qo‘shimcha	Misollar	T/r	Qo‘shimcha	Misollar
1.	-chi// -shunos	adabiyotchi- adabiyotshunos	12.	-siz//-be	xabarsiz-bexabar
2.	-chi//-kor	paxtachi-paxtakor	13.	-ki//-lik	qishki-qishlik
3.	-chi//-gar	nag‘machi- nag‘magar	14.	-mand//-li	hunarmand- hunarli
4.	-li//-dor	vafoli-vafodor	15.	-simon// -namo	majnunsimon- majnunnamo
5.	-li//-kor	gunohli-gunohkor	16.	-ham//-dosh	hamohang- ohangdosh
6.	-li//-ba	odobli-baodob	17.	-li//-don	bilimli-bilimdon
7.	-li//-ser	shirali-sershira	18.	-cha// chasiga	erkakcha- erkakchasiga
8.	ser//-dor	serunum-unumdor	19.	-layin//-	tiriklay-

⁹⁰ Farzandnoma: adabiy-badiiy nashr. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashr /O.A.Mahmudov. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2018. – 352 b.

				ligicha	tirikligicha
9.	bar-//-li	barvaqt-vaqtli	20.	-siz//no-	o‘rinsiz-noo‘rin
10.	bo-//-dor	boxabar-xabardor	21.	-illa/-/ira	yarqilla-yarqira
11.	bo-//-li	boobro‘-obro‘li	22.	sa-//-sira	suvsa-suvsira



Topshiriq

5-topshiriq. «To‘rtinchisi ortiqcha» usuli orqali quyidagi ma’nodosh so‘zlardan ortiqchasini aniqlang.

Dastlab, avval, oldingi, boshda; nuqul, har mahal, birday, doimgi; yorug‘, yorqin, oydin, munavvar; iljaymoq, tirshaymoq, tirjaymoq, irjaymoq; inoq, ahl, qadrdon, apoq-chapoq; lavozim, mansab, mansabdor, amal; mard, tanti, er, hotamtoy; novcha, baland, naynov, daroz; obro‘, nufuz, e‘tibor, nufus; oson, qulay, yengil, o‘ng‘ay.⁹¹



Topshiriq

6-topshiriq. Berilgan ma’nodosh so‘zlarni hissiy-ta’siriy bo‘yoq, nutqning biror turi, uslubi, ko‘p yoki oz qo‘llanishi va hozirgi o‘zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan bir-biridan farqlang.

Boshliq, rahbar, yo‘lboshchi, ishboshi, boshchi, katta, kattakon, ulug‘, rahnamo, sardor, peshvo, sarvar, sarkarda, xo‘jayin, kallampo.⁹²



Topshiriq

7-topshiriq. O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov qalamiga mansub ushbu she’rni o‘qing va yod oling. Unda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini aniqlang.

Yaxshilik

Bu yorug‘ **dunyoda** davrini surib,
 Birovga yaxshilik qilmaganlar bor.
 Va lekin bir umr yaxshilik ko‘rib,
 Uning nimaligin bilmaganlar bor.

^{91,132} A.Hojjiyev. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – T.: “O‘qituvchi” nashriyoti. 307 bet.

Og‘ir **dard** chekkandim **men** ham bir zamon,
Begona ellarda, **do‘st**lardan yiroq.
Madad bergan edi **ulug‘** bir **inson**,
Men uning siymosin unutay qandoq.

Yarqirab turibdi ko‘ksingda yulduz,
Osmondan tushmagan u ham, hoynahoy.
Kimdir sen haqingda **aytdi** yaxshi so‘z,
Shundan ko‘kragingda yulduz topdi joy.

Deydilar, dunyoning **doim** biri kam,
Yaxshilik qilish ham osonmas biroq.
Mening nazarimda, yaxshilikdan ham,
Uning qadrin bilmoq ming bor yaxshiroq⁹³.



Topshiriq

8- topshiriq. A. Hojiyevning «O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi ma‘nodosh so‘zlarning ma‘nolari o‘qib o‘rganing. O‘z nutqingizda ulardan unumli foydalaning.

Ko‘rishmoq– asosan, qo‘l harakati – qo‘l ushlashish , quchoqlashish yo‘li bilan salomlashishni bildiradi. **Omonlashmoq** – kam qo‘llanadi. ⁹⁴



4-mashq. Uyga vazifa. Berilgan she‘rni o‘qing, unda ilgari surilgan g‘oyani aniqlang va ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning omonim, sinonimlarini daftaringizga yozing.

Laganbardorlar

⁹³ Adolat ko‘zgusi: She‘rlar, Maqollar, Suhbatlar, Tarjimalar / Abdulla Oripov; Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi Doniyor Begimqulov. – T.: Adolat, 2005. – 400 b.

⁹⁴ Hojiyev A. «O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati». –T “O‘zbekiston SSR FA”. 1963-y. 264b. 129-b.

Stalin **kazzob** deb, zorlanmang hadeb,
 U ham **farzandidir** bitta **insonning**..
 Bilmoqchi bo‘lsangiz, **qabri** qayda deb,
 Laganbardorlardan so‘rang Cho‘lponni...
 Otabek Kumushin ko‘zlarin yopib,
 O‘zi ham **ortidan qilgach safarlar**,
 Qodiriy boboning qo‘llarin o‘pib,
Chohga itargan ham – laganbardorlar.
 Ular iblis bilan **tili** bir **o‘rtoq**,
 Ular Azroilga sodiq choparlar.
 Avval Usmonlarin sotib, keyinroq
 Faryod ko‘targan **ham** – laganbardorlar.
Yov nadir? Zo‘r kelsa o‘ldiradi yov,
 Bular **qon** so‘rguvchi iskaptoparlar.
 Qahhorni qandkasal,
 Oybekni soqov
 Qilib qo‘yganlar ham – laganbardorlar.
 Ular ustoziga quldayin **kimsa**,
 Mehribon homiysi shogirdlarining.
O‘zi o‘ldirib, so‘ng **mozorigacha**
 Ko‘tarib borishar tobutlarini...
 Stalin kazzob deb, zorlanmang hadeb,
 U ham farzandidir bitta insonning..
 Bilmoqchi bo‘lsangiz, qabri qayda deb,
 Laganbardorlardan so‘rang Cho‘lponni⁹⁵
 Cho‘lponni⁹⁶

32-DARS. ANTONIM, PARONIMLAR VA ULARNING USLUBIY

^{95, 136} Quyoshga qarab oqqan suv / M.Yusuf. – Toshkent: “Nurafshon business”, 2019. 232 bet.

XUSUSIYATI



Topshiriq

1-topshiriq. A. Navoiyning qalamiga mansub quyidagi ibratli hikoyatdan qarama-qarshi ma'noli so'zlarni aniqlang.

«Odamiylik ziynati»

«Yonida qo'shnisi och bo'lgan o'rinda, mo'mini komil to'q bo'lolmaydi»,

Kimki mo'mindirur, qachon chidag'ay.

Kim o'zi to'q-u qo'shnisi bo'lgay och.

Anga dog'i kerak yetursa nasib,

Xonida gar qulochi gar umoch.

Qo'shnichilik – odamiylik ziynatining bir ko'rinishi. Qo'shninging hol-havolidan xabar olish, «issiq-sovuq» kunlarida labbay deya chiqish yoki unga hurmat-izzat ko'rsatish buyuk insoniy burchdir. Qo'shni bilan yaxshi muomalada bo'lish, bir-birini tushunish, unga ozor yetkazmaslik, izza bermaslik musulmonchilikda juda qadrlanib kelingan. Ushbu «Qo'shningizga yaxshilik qiling, tinch bo'lasiz» hadisi sharif musulmonlar orasida keng targ'ib qilingan. Kitoblarda qo'shnichilikka katta e'tibor berilib, hattoki qo'shninging haqqi Allohning haqqiga tenglashtirilgan.

Rivoyatlarga ko'ra, Muhammad alayhissalomning yaqinlaridan biri qo'y so'yib qurbonlik qilgan. Ul zot: «qo'shnim yahudiyini aytib chiqdingmi?» - deya bir necha marta so'ragan ekanlar. Umuman, Sharq xalqlari rasm-rusumiga ko'ra qo'shni hamsoya eng qadrli do'st, yaqin hamsuhbat kishidir. Xalqimizda mavjud: «hovli olma, qo'shni ol» iborasi ham hadis mohiyatiga hamohangdir. Qo'shnichilikda uch asosiy narsa hisobga olinmaydi: Avvalo, qo'shninging millati; ikkinchidan, qo'shninging dini va uchinchidan, qo'shninging kasbi-kori. Darhaqiqat, qo'shnichilik haqqi unga (qo'shniga) ozor yetmaslikka emas, balki qo'shnidan kelgan ozorga ham sabr-toqat qilishga asoslanadi. Hadis mazmuniga asosan mo'min kishi qo'shnisi och bo'lgan o'rinda o'zini to'q hisoblamaydi, uning

ahvolidan xabar topadi. Muhtoj bo‘lib qolsa, unga yordam qo‘lini cho‘zadi, bu - qo‘shning eng oliy burchi⁹⁷.

Nazariy ma‘lumot.

Jaloliddin Rumiyning ta‘kidlashlaricha, har qanday «ashyo»ning qimmatini ziddi bilan ayon bo‘ladi, ziddi bo‘lmagan narsani ta‘rif etish imkoniyatdan tashqaridadir.

O‘zaro zid ma‘noli so‘z va qo‘shimchalarga **antonimlar** deyiladi. So‘z maqomidagi antonimlar **lug‘aviy (leksik) antonimlar**: *katta – kichik*, qo‘shimcha maqomidagi antonimlar esa **affiks antonimlar**: *odobli- odobsiz*, **frazeologik antonimlar** ibora shaklidagi antonimlar: *do‘ppisini osmonga otdi – tepa sochi tikka bo‘ldi* sanaladi. Antonimlar ko‘pincha sifat turkumi bilan ifodalanadi, lekin ravishlarda antonimlarni ko‘proq kuzatish mumkin. Ot va fe‘llarda kamroq uchraydi. Son, olmosh, yordamchi so‘zlarda antonimlik yo‘q: *mehnatsevar – dangasa, yolg‘onchi – rostgo‘y, toza – iflos, qisqa – uzun, yo‘g‘on – ingichka*,⁹⁸

Eslatma: *Antonim yordamida badiiy adabiyotda tazod, antiteza san‘ati hosil qilinadi. Biroq antonimlikni tazod va antitezaga tenglashtirib, bir xillashtirib qo‘ymaslik kerak. Antonim bo‘lmagan so‘z ham bu san‘atni hosil qilaveradi.*

Antonimning uslubiy xususiyati. Antonimdan to‘g‘ri foydalana olmaslik ham uslubiy xatoni keltirib chiqaradi: *...choyxona mudiri Yusufjon Nozimov turmushning issiq-chuchugini tatigan kishiga o‘xshaydi. Bu gapdagi issiq-chuchugini* juftligi o‘rnida *achchiq-chuchuk* juftligi ishlatilishi kerak edi.⁹⁹



Topshiriq

2- topshiriq. Ostiga chizilgan so‘zlarni qayta talaffuz qiling. Shu so‘zning talaffuzdoshini toping, topgan juftliklarning ma‘nosini daftaringizgga yozing va yodda saqlang.

⁹⁷ Navoiy. A Ibratli hikoyatlar va ibratli xislatlar. – T.: “Sano-standart”. 2016-y. 88-b. 520b.

⁹⁸ Rasulova N. , Supiyeva B. , Ona tilidan ma‘ruzalar. I-II qism. –T.: “Navro‘z”.2016. 147-148-b.480 b

⁹⁹ Mengliyev B. , Xoliyorov O‘. , Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. 6-nashr. –T.: “Akademnashr”.2018. 91-b. 512b.

Rivoyat qilishlaricha, Buxoro hukmdori **Amir(amr)**¹⁰⁰ Doniyol (1758-1885) ning o'g'illaridan biri qurbon hayiti bayramida kiyishga oyoq kiyimi bo'lmagani uchun otasidan yordam so'raydi. Bir **mahal(mahol)** Amir Doniyol o'z oylik maoshini oldinroq olish va o'g'liga **kovush(kavsh)** olib berish uchun xazinachiga maktub yozadi. Ammo xazinabon amirga «oy oxirigacha sabr qiling» mazmunida **xat(had)** yozishadi. Bu javobni o'qib qayg'uga botgan amir o'ziga umid bilan tikilib turgan o'g'liga qarab: «Hayit bayramini oyoq kiyimsiz **o'tkaz(o'tqaz-o'tqiz)** ishga sening kuching yetadi, ammo senga oyoq kiyim olib berishga mening kuchim yetmaydi», - deya javob bergan ekan.

Nazariy ma'lumot.

Paronim talaffuzi bir biriga yaqin, ammo yozilishi va ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar. Masalan, **asr** va **asir**, **afzal** va **abzal**, **sher** va **she'r**, **adib** va **adip** kabi so'zlar talaffuzda bir xil aytilsa-da, yozilishda farq qiladi. Paronimni ikki xil yozilishga ega bo'lgan, ammo ma'nosi bir xil bo'lgan dubletdan farqlash kerak: **arava – aroba**, **bekik – berkik**, **benihoya – benihoyat** kabilar **paronim emas**, balki **dublet, variantdosh so'zlardir**.

Paronimning uslubiy xususiyati. Paronimni to'g'ri qo'llamaslik oqibatida ham xatolik yuz beradi: *Chanoqdagi lo'ppi ochilgan paxta quyoshda yarqirab kumushdek toblanadi.* Bu gapdagi **toblanadi** so'zi o'rnida **tovlanadi** so'zi ishlatilishi kerak edi.¹⁰¹



Topshiriq

3-topshiriq. «Ulug'bek xazinasi» romanidan Ali Qushchi va Temur Samarqandiy munosabatlari haqidagi o'rinlarni tinglang. Ulug'bek xazinasi bugungi kungacha qanday yetib kelganligi haqida fikringizni bildiring.



17- mashq. Quyida berilgan ikki va undan ortiq yozilishga ega bo'lgan so'zlarning variantdoshini toping. Namunadagidek nuqtalar o'rniga yozing.

¹⁰⁰, ¹⁴¹, ¹⁴², ¹⁴³, ¹⁴⁴ Ma'rufov A. Paronimlar lug'ati. –T.: “O'qituvchi”. 1974. 52 b.

¹⁰¹, ¹⁴⁶ Mengliyev B. , Xoliyorov O' , Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma. 6-nashr. –T.: “Akademnashr”. 2018. 94-95-b. 512 b

Rasulova N. , Supiyeva B. , Ona tilidan ma'ruzalar. I-II qism. –T.: “Navro'z”. 2016. 149-b

Shohtut, o'ltirish, yung, yumaloq, xayolat, valangor, to'yana, qittay, salovatli, odob-axloq, nabira, masjid, jinday, isirg'a, hiylagar, emikdosh, dumaloq, karta, asta, berkilish.¹⁰²


Namuna: Shohtut – shotut...

Nazariy ma'lumot.

Variantdosh so'zlar ikki yoki bir necha xil yozilishga ega. Hammasi ham imlo qoidasiga binoan to'g'ri yozilgan hisoblanadi. Bu so'zni paronim va sinonimdan farqlash kerak. Paronimda yozilishi va aytilishi bir-biriga yaqin ikki so'zning ma'nosi butunlay boshqa-boshqa bo'ladi. Sinonimda esa shakli butunlay o'zgacha, ma'no qirrasida ham farq sezilib turadi. Variantdosh so'z ma'noda farq qilmaydi. Quyidagi variantdosh so'zlar turli xil yozilishi bilan farq qilib turadi: *adab* va *odob*; *bekitiqcha* va *berkitiqcha*; *dirham* va *diram*; *hamona* va *hamono*; *hiylagar* va *hiylakor*.¹⁰³



18-mashq. Bo'sh kvadratga 6 ta raqamlangan shakllardan qaysi biri to'g'ri kelishini mashq qiling.



Topshiriq

4- topshiriq. A. Hojiyevning «O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati» kitobidan olingan quyidagi ma'nodosh so'zlarning ma'nolari o'qib o'rganing. O'z nutqingizdan ulardan unumli foydalaning.

Aloqador, daxldor, tegishli, oid, taalluqli. Bu so'zlar aloqasi bor, daxli bor ma'nosi bilan birlashadi. **Aloqador, daxldor** – so'zlarida bu ma'no shu so'zlarning

¹⁰³ Rasulova N. , Supiyeva B. , Ona tilidan ma'ruzalar. I-II qism. –T.: “Navro'z”.2016. 149-b

o‘zagidan anglashilib turadi. **Tegishli**–bu ma’noda kam qo‘llanadi. **Oid, taalluqli** – ko‘proq kitobiy uslubga xos.¹⁰⁴



19- mashq. Anogrammani bajaring. Harflar o‘rmini o‘zgartirib, qizlar ismi bo‘lmagan so‘zni toping.

- A) NAMUTAF B) JARNOMA C) ALISMUX D) NILUKNMAM

Nazariy ma’lumot.

Bir mazmuniy uyaga (guruhga) mansub bo‘lgan so‘zlar **uyadosh so‘zlar** deyiladi. Tilimizdagi barcha so‘zlar ongimizda ma’lum mazmuniy uyalarga birlashgan holda saqlanadi. Bu esa so‘zlarning xotirada oson saqlanish va nutqiy jarayonda ulardan oson foydalanish imkonini beradi. Uyadosh so‘zlarni, ya’ni bir-biriga mutanosib so‘zlarni qo‘llash orqali adabiyotda **tanosub san’ati** hosil qilinadi. Sen husn ila boysan, senga chun *farz* durur *haj*, Qil *tengri* uchun *Ka’bai* ko‘nglumni *ziyarat*.¹⁰⁵ (Lutfiy)



Topshiriq

5-topshiriq. Umumta’lim fanlaridan olgan bilimlaringizga tayanib ta’rifi keltirilgan narsani aniqlang. Variantlarda shu so‘zning uyadoshi berilgan uni toping.

U juda yaxshi erituvchi. Unda oila, do‘stlik, ish joyi, obro‘, jigar, miya kabilar juda yaxshi erib ketadi. U faqat muammonigina erita olmaydi. U nima?¹⁰⁶

- A) Aldegid, efir B) Kaliy oksid, ohak C) Oy, yulduz D) Gulxan, uchqun



20-mashq. Uyga vazifa. «O‘zbekistonning porloq kelajagi uchun men nima qila olaman?» mavzusida esse yozing. Essening kirish qismida shaxsiy nuqtayi nazariningizni ifodalab, asosiy qismda isbotlanadigan fikrning nazariy asosi va savolning mazmunini bayon etuvchi ma’lumotlardan foydalanib, mavzuni yoriting. Ko‘tarilgan muammoning kelib chiqish sabablarini mavzu bo‘yicha

¹⁰⁴ Hojiyev A. «O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati» –T “O‘zbekiston SSR FA”. 1963-y. 264b. 26-b.

¹⁰⁵ Rasulova N. , Supiyeva B. , Ona tilidan ma’ruzalar. I-II qism. –T.: “Navro‘z”.2016. 149-b. 480 b

¹⁰⁶ To‘g‘ri javob spirt, uning uyadoshi A variantda

chiqariladigan yakuniy xulosa va dalillarga suyangan holda muammoning yechish yo‘llarini ko‘rsating.

33-DARS. ANTONIMLAR VA PARONIMLAR, ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI (AMALIY)



Topshiriq

1-topshiriq. Berilgan maqollarni o‘qing va ulardagi zid ma’noli so‘zlarni aniqlang. Maqollarda ilgari surilgan g‘oya haqida suhbat tashkil qiling.

Qiz bersang, otasiga qarab ber, qiz olsang, onasiga qarab ol. Kattaning uyalgisi kelsa, kichikka tegar. So‘zlovchi ahmoq bo‘lsa, tinglovchi dono kerak. Dushman siringni o‘g‘irlar, do‘st xatongni to‘g‘rilar. Kamtar bo‘lsang, osh ko‘p, manman bo‘lsang, tosh ko‘p. Oz ekib, ko‘p olganni dehqon derlar, Ko‘p ekib, oz olganni hammol derlar.¹⁰⁷



Topshiriq

2-topshiriq. Antonim so‘zlar ishtirokida tuzilgan quyidagi maqollarni davom ettiring va ular ishtirokida matn yarating.

Yaxshi – el g‘amida, yomon - ..., Yaxshining nasihatiga kirmagan, yomonning..., Dushman o‘lar, do‘st qolar, O‘sma ketar, ..., Urush ayirar, Tinchlik..., Botir o‘lsa, nomi qolar, Nomard o‘lsa, .., Aqlli ishiga ishonar, aqlsiz - ..., Zolim ishi jafodir, Mardning ishi ..., Yaxshi bola – to‘rga tortar, Yomon bola - ...





Topshiriq

3-topshiriq. Berilgan rasm asosida «Ikki do‘st» mavzusida matn yarating, unda zid ma’noli so‘zlardan foydalaning.

¹⁰⁷ O‘zbek xalq maqollari: (to‘plam) Q.Imomov va boshq. – T.: Adabiyot va san‘at nashr. 1989. 512 bet.



 **21-mashq.Uyga vazifa.** O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning «Yaxshidir achchiq haqiqat...» she‘rini yod oling, unda qo‘llangan zid ma‘noli so‘zlarning ahamiyati haqida fikr yuriting.

 **4-topshiriq.** Nuqtalar o‘rniga paronim¹⁰⁸ so‘zlardan mosini qo‘ying.

1. Xona ... , biroq kitob o‘qib bo‘lmaydi. (*yoriq / yorug‘*)
2. ... mollardan sotib oling, aka, zarar qilmaysiz. (*asl / asil*)
3. Benzin, kerosin kabi ... larning narxi tobora qimmatlashib bormoqda. (*yonilg‘i / yoqilg‘i*)
4. Kecha kechasi Olimni ... ketishibdi. (*tunab / to‘nab*)
5. Sutga ... qo‘shishni unutma, yo‘qsa ertalab ishingga qatiq ichmay ketasan. (*oqlik / oqliq*)
6. ... im, bir qoshiq qonimdan keching. (*Shoh / Shox*)
7. Avval piyozni ... , keyin to‘grab, qozonga sol. (*art / arch*)
8. Men Egizaklar ... i ostida tavallud topganman. (*burj / burch*)
9. Akam bu yerlardan ketishga ... qildi. (*azm / azim*)

¹⁰⁸ Internet manbalari asosida.

10. Bunday ... - nayranglar endi o'tmaydi. (*xiyla / hiyla*)
11. Bir so'm berib, ikki so'm oladigan ... emasman. (*sutxo'r / sudxo'r*)
12. ... ikki qo'ldan chiqadi. (*qars / qarz*)
13. Bu juda ham ... daryo. (*azm / azim*)
14. Shoir ... i o'zi shunaqa bo'ladi. (*ahl / ahil*)
15. Bundan ... nazar, o'z vazifangni to'kis ado et. (*qat'i / qat'iy*)
16. Saylov ... lari o'z ishini boshladi. (*kompaniya / kampaniya*)
17. Aholi ... i ortib bormoqda. (*nufuz / nufus*)
18. Sho'rttakkina ... ni og'ziga soldi. (*qurt / qurut*)



Topshiriq

5-topshiriq. Quyidagi so'zlarning paronim juftini aniqlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Alam, asl, amr, asr, ravon, surat, davo, qala, tambur, kompaniya, sutxo'r, sanat, jodi, qism, mart, o'tkaz, yondash, abzal, hol, shox, ham.¹⁰⁹



Topshiriq

6-topshiriq. Quyidagi test topshiriqlarini bajaring.

1. Qaysi qatorda o'z paronimiga ega bo'lgan leksik omonimlar berilgan?

- A) band, bod, alam
 B) bod, burch, bo'shlik
 C) karam, oqibat, burj
 D) band, amr, adash

2. Ham sinonimi, ham antonimi, ham omonimi, ham paronimi mavjud so'zni aniqlang

- A) dars B) yot C) urush D) unim

3. Paronim so'zlarning qo'llanilishi bilan bog'liq xatoni toping.

A) Bunda kunlik ta'rif stavkalari juda aniq va katta hatto, bir tiyinning yuzdan bir ulushigacha hisoblanadi.

- B) Shtorm ko'tarildi, paraxodlar chayqala boshladi.
 C) Mingboshi Matyoqubning qovug'iga bir tepdi

¹⁰⁹ Ahror Ma'rufov. Paronimlar lug'ati. "O'qituvchi» nashriyoti. – T.: 1974.

D) To‘zimli o‘zar.

4. Paronimlarni qo‘llash bilan bog‘liq xatolik mavjud bo‘lgan gapni aniqlang.

A) Kechalar uyqusiz she‘r yod olganim

Tonggi ufqdagi yolqinlar aytsin

B) O‘zga yurtda shox bo‘lguncha, o‘z yurtida gado bo‘l.

C) Yillar o‘tar, o‘tar asrlar qator,

Dunyoga keladi yangi avlodlar.

D) O‘qiyotgan kitobimning uch bobini tugatdim.

5. Asosi paronim juftiga ega bo‘lgan so‘z ko‘chma ma’noda qo‘llangan gapni toping.

A) Mungli kuy yurakni azoblar edi.

B) Salima tilla uzugini tortmaga soldi

C) Xamir qattiq qorilgan ekan, ko‘pchishi qiyin bo‘ldi.

D) Soatim kechga borib yotib qolibdi.



Topshiriq

7- topshiriq. A. Hojiyevning «O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi ma’nodosh so‘zlarning ma’nolari o‘qib o‘rganing. O‘z nutqingizdan ulardan unumli foydalaning.

Noaniq, dudmol, notayin, mujmal, muhmal, mubham. Bu so‘zlar aniqlikka ega emas, nimaligi aniq ifodalanmagan ma’nosi bilan birlashadi. **Dudmol** – **noaniq** so‘ziga nisbatan kam qo‘llanadi. **Notayin**–so‘zi ko‘p hollarda salbiy ottenka bilan qo‘llanadi. **Mujmal**– kam so‘zlar doirasida qo‘llanadi va bunda salbiy bo‘yoq yana ham kuchliroq bo‘ladi. Mujmal gap, mujmal javob kabi. **Muhmal** – juda kam qo‘llanadi. **Mubham**– kitobiy, kam qo‘llanadi.¹¹⁰



22- mashq. Uyga vazifa. Paronim sozlar ishtirokida tuzilgan tuyuq janriga namunalar toping va ularni yod oling.

34–§. EVFEMIZM VA DISFEMIZMLAR



Topshiriq

1- topshiriq. Matnni diqqat bilan o‘qing, avval undagi salbiy yondashuvni anglatadigan, masxaraomuz, istehzoli, iltifotsiz qarashlarni ifodalagan so‘zlarni,

¹¹⁰ Hojiyev A. «O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati». –T «O‘zbekiston SSR FA». 1963-y. 264b. 108-b.

keyin ancha yumshoq shakldagi ifodaga ijobiy yondashilgan o‘rinlarni aniqlab ko‘chiring.

Bir tomchi yosh

To‘satdan... Zarb bilan tepilgan eshikning taraqlab ochilishidan Ma‘suma sapchib o‘midan turib ketdi. Uy burchagidagi bufet ichida chinni idishlar bir-biriga urilib, jarangladi. Eshik yonida turgan choynak ag‘darildi. Rajabboy ko‘zlari olaygan, g‘azabdan titragan holda ostonada turardi.

– Padaringga la‘nat sendaqa xotinning! Sigir ochidan o‘lay deb qopti! Na o‘t yulibsan, na uydan biron nima topib solibsan! Do‘mpayib yotishingni qara!

U xuddi ovoz qaytargichi olingan motosiklday vag‘illab ketdi. Qani endi to‘xtatib bo‘lsa... Ma‘suma to‘xtatishga harakat ham qilmadi. U karaxt edi. Eshitmas, sezmas, faqat labi-labiga tegmay ochilib-yopilayotgan og‘izni ko‘rardi, xolos. Birdan ko‘zi yostiq ustidagi qog‘ozga tushdi-yu, ko‘ngli yumshab ketdi. Asta egilib uni oldi-da, ohista parcha-parcha qilib yirtdi. So‘ng she‘r daftarini derazadan ko‘chaga, bo‘tana suvlar limillab oqayotgan ariqqa otdi. Daftar qanoti yozilgan kaptardek «shig‘g‘» etib uchib, ariqqa quladi. Mayda to‘lqinlar bag‘rida bir-ikki oqarib ko‘rindi-da... Oqib ketdi!

Ma‘sumaning ko‘zlari tubida ham allaqachonlardan beri payt poylab yotgan bir tomchi yosh sizib chiqib kipriklariga ilashdi, so‘ng oftobda qoraygan yuzida iz qoldirib, atlas ko‘ylagiga yumaladi, unga ham sing‘may, pastga oqib tushdi.¹¹¹

(A. Ibodinov)

Nazariy ma‘lumot. Evfemizm hodisasi. Turli xalqlarning ruhiyati ularning tilida evfemizm va disfemizm yuzaga kelishi orqali namoyon bo‘ladi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur hodisalarni tatqiq etishda ana shu til egasi bo‘lgan xalqning ruhiyati, dunyoqarashi, urf-odatlari, udumlari, irim-sirimlari, ishonchlari diqqatga olinishi lozim.

Evfemizm termini yunoncha «euphemism» «eu» – «yaxshi» va «phemism» – «nutq», «so‘zlashuv»dan kelib chiqqan bo‘lib, so‘zma-so‘z tarjima qilganda, «yaxshi alomatli so‘z» ma‘nosini ifodalaydi.

¹¹¹ XX asr o‘zbek hikoya antologiyasi. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 2016.385-b. 624 b

«Routledge Dictionary of Language and Linguistics» da «evfimizm-kishilar uchun ishlatilishi yoqimsiz va beadab bo‘lgan ayrim so‘zlar o‘rniga noaniq, ko‘p ma’noli so‘zlarni qo‘llash va bu orqali o‘zlarini noqulay holatlardan chiqarishga urinishlarini ifodalaydigan o‘ziga xos bir usuldir», deb izohlangan.

Professor A. Hojiyev evfemizmi hodisasini shunday izohlaydi: «Evfemizmi – narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi – qo‘pol beadab so‘z, ibora va tabu o‘rnida qo‘pol botmaydigan so‘z(ibora)ni qo‘llash»¹¹². Evfemizmi ifodaga ijobiy yondashuvni yuzaga keltirish maqsadi bilan amalga oshiriladi.

O‘zbek xalqida supurgini, o‘qlovni tik qo‘ymaslik, birovning orqasidan supurmaslik, axlatdan hatlamaslik, otashkurakni oyoq ostida qoldirmaslik, suprani egasiz yig‘ishtirmaslik, nonning ushug‘ini yerga tushirmaslik, qaychini ochib qo‘ymaslik, qalampirni qo‘lga bermaslik va h.k. irimlar **etnografik tabular** hisoblanadi¹¹³.

Nazariy ma’lumot. Disfemizmi hodisasi. Disfemizmi tilning yashovchan qatlami, u ifodaga salbiy yondashuvni anglatadi. Disfemizmi so‘zlovchining tinglovchiga yoki biror predmetga nisbatan masxara, istehzoli, iltifotsiz qarashini bildiradi. Disfemizmlar so‘zning deyarli hosila ma’nosi sifatida yuzaga keladi. U hosila ma’noni yuzaga keltiruvchi hodisalar natijasi bo‘ladi¹¹⁴.



2 - topshiriq. A. Hojiyevning «O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi ma’nodosh so‘zlarning ma’nolarini o‘qib o‘rganing. O‘z nutqingizda ulardan unumli foydalaning.

Chanqamoq, suvsamoq, cho‘llamoq. Bu so‘zlar suv talab bo‘lmoq, suvga tashna bo‘lmoq ma’nosini bildiradi. **Suvsamoq, cho‘llamoq**– ayrim shevalarga xos bo‘lib, yozuvda juda kam qo‘llanadi.¹¹⁵

¹¹² Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘zME. 2002. –V. 131.

^{113,158} Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik.. – T.: 2019-y. 118-12-b.245b

¹¹⁵ Hojiyev A. «O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati». –T “O‘zbekiston SSR FA”. 1963-y. 264b. 175-b.



1- mashq. A. Fitrat qalamiga mansub matnni o‘qing. Ko‘k rangda ajratilgan so‘zlarning ma’no ko‘chish turlarini aniqlang. Unda o‘xshashlik va aloqadorlik asosida ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlarni topishni va so‘z ma’nosining ko‘chish yo‘llarini farqlashni mashq qiling.

Turkistonda ruslar

Mana shul chog‘larda edikim: **Russiya** bizning o‘lkalarimizni kelib **bosdi**. Ortuq biz Turkiston turklari Ovro‘pa madaniyati tashiguchi bo‘lgan rus millatig‘a yo‘liqq‘an bo‘ldik. Madaniy ruslar bilan qorishib ularning dalolati Ovro‘paning madaniy va ijtimoiy usullaridan ta’sir olmog‘imiz kerak edi. Shuni ham aytib o‘taylukkim, munday bir ta’sirni rus millatining avom tabaqasidan olmog‘imiz mumkin emas edi, chunki bizning avomimiz ulardan yuz marotaba madaniyroq edilar (hozir ham shunday). Qoldi: rus millatchilari, rus boylari va rus po‘plari bilan shunlarning qorovuli bo‘lg‘an imperator hukumati. Biz turkistonlilar yolg‘iz shunlarning **qo‘linda qoldik**. Ne ko‘rgan bo‘lsak, shunlarni ko‘rdik. Endi ko‘raylik qani: shunlar bizning taraqqiyimiz va Ovro‘pa madaniyatidan ta’sir olmog‘imiz yo‘linda biror ish qildilar yoxud qilmoqchi bo‘ldilarmi?!

Shuning ila barobar «Turkistonda aqliyat tashkil qilg‘an millatlar huquqlarining har jihatdan saqlamog‘ini ham tantanali sur‘atda» e’lon etilib, **adolat bayrog‘ini ko‘tardi**. Elli(k) yildan beri shuncha **zulm orasinda qolg‘an Turkiston** bu kun o‘z muxtoriyatini shuncha adolat va sadoqat bilan e’lon qilibdir. Bilmadik nechundurkim, hozirdan ish boshinda adolatchi bolsheviklar muni qabul qilmay turarlar...!¹¹⁶ (A. Fitrat)

Matndagi ostiga chizilgan so‘zlarni evfemizm, disfemizmga mansubligini izohlang.



Topshiriq

1-topshiriq. A. Navoiy hikmatlarini o‘qib so‘z boyligingizni oshiring. Shu mavzu asosida evfemizm va disfemizm hodisasiga namunalar keltiring.

¹¹⁶ Fitrat A., Tanlangan asarlar. –T.: “Ma’naviyat” 2003. 202-203- betlar.256b.

1. Kishining odobi uning boyligidan yaxshidir. 2. Til zarbasi tish og‘rig‘idan kuchliroq. 3. Aqlli dushman axmoq do‘stdan yaxshi. 4. Til sukuti – inson salomatligi. 5. Seni yomonlikka boshlagan sening dushmaningdir. 6. Yomon do‘st shaytondir. 7. Muloyim so‘z vahshiylarni ulfatga aylantiradi; sehrGAR ohang bilan afsun o‘qib, ilonni inidan chiqaradi.



24- mashq. Uyga vazifa. DTM to‘plamlaridan olingan testlarini bajaring.¹¹⁷

1. Qaysi javobda ot turkumiga oid o‘zaro ma’nodosh so‘zlar juftligi berilgan?

A) tantiqlik – saxiylik) sovg‘a – tuhfa C) husn – go‘zal D) tabassum – yig‘i

2. Qaysi javobda metafora usulida ma’nosi ko‘chgan so‘z ajratib ko‘rsatilgan?

A) Gunohi ne edi bu tilla boshning? Gunohi ne edi porloq quyoshning?

B) G‘amgin qoyalar yigitning yosh umriga zomin bo‘lgan kabi boshini quyi solgan edi.

C) Tog‘lardan shovullab oqib tushayotgan suvlar birlashib daryo hosil qilgan edi.

D) Fuzuliyning oldim qo‘limga. Majnun bo‘lib yig‘lab qichqirdi.

3. Qaysi javobda ma’nosi sinekdoxa usulida ko‘chgan so‘z ajratib ko‘rsatilgan?

A) Oshiqlar uxlaydi saharga tomon Fuzuliy devonin boshiga qo‘yib.

B) Gunohi ne edi bu tilla boshning? Gunohi ne edi porloq quyoshning?

C) Zumrad gilam to‘shab dalalar yo‘llaringa chiqdilar peshvoz.

D) «Nozimjonning o‘ng qo‘li o‘n hunar, hamma ishni eplaydi», - dedi usta ularga qarab.

4. Qaysi gapda hid so‘zi bilan ma’nodoshlik hosil qiluvchi so‘z mavjud emas?

A) Go‘yoki oldinda qish emas, bahor, Bog‘larda azaliy nafis bir ifor.

B) Yel keltirar mayin bir ohang, yana olib ketar nariga.

C) Lolalar yashil maysazor uzra bo‘y taratib, bosh egadi.

D) Yozning shabbodasi qovun polizdan. Xush islarni sochib yelib turadi.

5. Qaysi gapda o‘zaro ma’nodosh so‘zlar ishtirok etgan?

A) Bolangga ham, uyingga ham qara, ham ishla, ham dam ol.

¹¹⁷ DTM . Ona tili va adabiyot test topshiriqlar to‘plami. – T.: 2021. “DAVR PRESS NMU”27-B. 128B

B) Qon yugurdi ol yonboshda,
Bargi g‘ubor - changdan aridi.

C) Gunafshalar qulog‘imga madhingni
So‘zlab-so‘zlab charchadilar, bitmadi.

D) Quyosh chiqdi, gul yaprog‘iga
Tunda qo‘ngan shabnam aridi.

6. Qaysi gapda chidam so‘zi bilan ma‘nodoshlik hosil qiluvchi so‘z mavjud emas?

A) Har qanday mushkul ishni hal qilish mumkin, ammo sabr kerak, zero sabr inson irodasining toji.

B) Tashnalikda to lablarim qaqruguncha, Seni izlab talpindim, tog‘ ekan bardosh.

C) Jo‘raxonning qahramonligi, jasorati, yorqin xotirasi, ishlari qablarda abadiy qoladi.

D) Sen bo‘lmasang, menda toqat qaydadir, Tog‘ chidamas otangning faryodiga!

35-36-§. YAKUNIY NAZORAT



Topshiriq

1- topshiriq. O‘qib tushunish uchun matn. Ushbu matnni o‘qib savollarga to‘g‘ri javob bering.

Uzum uchun nizolashgan to‘rt odam.

Bir odam yo‘ida ketayotgan to‘rt kishiga bir **dirxam** pul berdi. Biri fors, biri arab, biri turk va yana biri yunonlik bo‘lgan bu to‘rt kishi bir-birining tilini tushunmas edilar. Ular o‘zaro janjal qilardilar, chunki fors bu pulga (bir dirxamga) «angur» (uzum) olamiz, desa, arab: «yo‘q, angur kerakmas, inab (uzum) olamiz», derdi. Turk bo‘lsa: «Ey do‘stlar, men inab yemayman, men «uzum» yemoq istayman», deb turib oldi. Yunonistonlik bo‘lsa: «Uzum ham, inab ham, angur ham yemayman, men «istofil» (uzum) **hoxlayman**», deb **darg‘azap**

bo'ldi.

Bu to'rt odam nomlar ma'nosini tushunmaganlari uchun bir-birlari bilan janjal qilardilar. Ular bilimsizlik va til bilmaslik oqibatida mushtlashib ketdilar. Agar ular orasida yuz tilni biladigan, sirdan **vo'qif** bir aziz bo'lganda edi, ularni yarashtirgan bo'lardi va ularga qarab: «Men bir dirxam bilan barchalaringizning istaklaringizni qondiraman, chunki sizlar ko'pchiliksiz, dirxam esa bitta, ammo shu bir dirxam ko'p hunar ko'rsata oladi: u ajratadi va birlashtiradi ham. U sizlar uchun urish va ajralishga sabab bo'lgan bo'lsa, mening aytganlarim tufayli sizlarga nifoq emas, **itifoq** keltiradi.

Bas, sizlar jim bo'linglar, sizlarning tillaringiz men bo'layin», degan bo'lardi va bozordan uzum sotib olib berib, ularni tinchitardi. Ular uzumni ko'rganda, fikrlarining bir ekanligini anglab tinchirdilar va yarashardilar.

Birinchi savol:	Matndan olingan birinchi ustundagi so'zlarni ikkinchi ustundagi so'zlar bilan moslashtiring.
1) turk	A) anjur
2) arab	B) anjir
3) yunonistonlik	C) inab
4) fors	D) uzum
	E) istofil

Moslashtirgan javoblaringizni nuqtalar o'rniga joylashtiring.

1 – ...

2 – ...

3 – ...

4 – ...

Ikkinchi savol:

U sizlar uchun urish va ajralishga sabab bo'lgan bo'lsa, mening aytganlarim tufayli sizlarga nifoq emas, ittifoq keltiradi.

Qaysi javobda matndagi so'zlardan biriga paronimlik munosabatida bo'la

oladigan leksema bor?

- A) «Nega akang bilan mening oramizda nizo qo‘zg‘amoqchisan?»– dedi oqsoqol.
 B) Ha, biz hali ham mudofaa tashkil qilishimiz, ittifoq tuzishimiz mumkin.
 C) Shone‘mat Rossiyadan ko‘chirib keltirilgan zavod qurilishida ishlay boshlaganida uni urushga olishmaganidan Shoikrom suyungan edi.
 D) Bashirjon birpasda shuncha rejani xayolan tuzib chiqqach, sangtarosh bilan kelishib, qo‘l tashlashdi.

Uchinchi savol. Berilgan fikrlarni matn asosida to‘g‘ri (✓) yoki noto‘g‘ri (✗) ekanligini tegishli belgilar bilan ustunda ko‘rsating.

Ma‘lumotlar.	To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
1. «Bir kun janjal bolgan uydan qirq kun baraka ketadi» maqoli matnning g‘oyasini ochib beruvchi asosiy fikrdir.		
2. Ular bilimsizlik va bir-birlarini tushunmaslik oqibatida kelisholmadilar.		
3. Yunonistonlik bo‘lsa: «Uzum ham, istofil ham, angur ham yemayman, men « inab « xohlayman», deb darg‘azab bo‘ldi.		
4. Ular uzumni ko‘rganda, fikrlarining bir ekanligini anglab tinchirdilar va yarashardilar.		
5. Agar ular orasida tilni biladigan kishi bo‘lganda edi, ularni yarashtirgan bo‘lardir .		

To‘rtinchi savol.	Birinchi ustundagi so‘zlarga xos fonetik tahlillarni ikkinchi ustundagi javoblar bilan moslashtiring.
1. to‘rt	A) tarkibida tovush o‘zgarishi sodir bo‘lgan.
2. yuz	B) jarangli, sirg‘aluvchi; jarangsiz, sirg‘aluvchi undoshlar qator kelishi kuzatiladi
3. fors	C) jufti yo‘q, sirg‘aluvchi undosh yopiq bo‘g‘inni hosil qilgan.
4. mening	D) tarkibida o‘rta keng lablanmagan unli ishtirok

5. til	etgan. E) barcha undoshlari jarangli, sirg'aluvchi.
--------	--

Moslashtirgan javoblaringizni nuqtalar o'rniga joylashtiring.

1 – ...

2 – ...

3 – ...

4 – ...

Beshinchi savol. Matnda qaysi so'zlar imlosida xatolik bor? (Avval so'zning matnda xato yozilgan variantini, so'ng shu so'zning to'g'ri yozilishini ko'rsating. Matnda 5 ta imloviy jihatdan xato yozilgan so'zlar berilgan)

So'zning matndagi xato yozilgan shakli	Shu so'zning imloviy to'g'ri yozilishi

37-§. ESKIRGAN SO'ZLAR VA YANGI PAYDO BO'LGAN SO'ZLAR



Topshiriq

1- topshiriq. Berilgan gaplardagi tushirilgan so'zlarni nuqtalar o'rniga to'g'ri joylashtiring. Ularning ma'nosini namunadagidek yozing.

1. ... ni chiqarib mehmonxonani tozalat. Anovi yangi qoplagan ko'rpalarini ber, tanchaga o'shani yopsin. 2. Silkinish orqasida uning yuzini to'zg'ig'an soch tolalari o'rab olib ... bir suratga kirgizdi. 3. Nozik oyoqlar toldilar, shekillik ... kabi oq tishlarini bir-ikki qaytalab chaydi, ariq bo'yini va uning suvlarini tashlab ketdi. 4. Ammo bundog' eng jo'n bo'hton bilan qoralanishimg'a vijdonim qarshisida so'ng daraja ... taqsir!. 5. Oftob oyim uchun kuyavgina emas, hatto erining ham bu ...ga tushmog'i chiday olarliq bir hol emas edi. 6. Maktubni isitma orasida yozg'aningizg'a tamoman qanoat qildim. Shuning uchun sizni ayblashga

haqqim yo‘q, ham siz ...siz. 7. Ma’lumki, ..lar oldig‘a ko‘pincha xotin qizlar kelib, yangi nusxa qildirib yuriydilar. 8. Otabek esa hanuz ruku‘da, ..edi.

Gap raqami	So‘z	Ma‘nosi	Til
1.	Rupox	Sochiq, ro‘molcha	Forscha
2.			

Tavsiya etilgan so‘zlar: muazzab, sadaf, varta, sujut , jonso‘z, ma‘zur, rupox, bofanda, cho‘ri,

Tavsiya etilgan til: forscha, arabcha

Tavsiya etilgan izohlar: jonni kuydiruvchi, azobkash; marvarid chig‘anog‘i; sochiq, ro‘molcha; sajda ibodat; og‘ir, juda yomon qiyin ahvol; uzrli, uzr etilgan kechirilgan; tikuvchi, to‘quvchi.

Nazariy ma‘lumot. O‘zbek tili leksikasini tarixiylik nuqtayi nazaridan uchta asosiy qatlamga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Zamonaviy leksika. 2. Eskirgan leksika. 3. Yangi leksika.

Zamonaviy so‘zlar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasining asosini zamonaviy leksika tashkil etadi. Bu leksika *umumiste‘mol so‘zlar, qo‘llanishi chegaralanmagan so‘zlar, faol so‘zlar* kabi atamalar bilan ham yuritiladi.

Eskirgan so‘zlar. Eski qatlamlarga oid so‘zlar o‘ziga xos xususiyatiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: 1) tarixiy so‘zlar; 2) arxaik so‘zlar.

Tarixiy so‘zlar. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanuvchi o‘tmishga oid, iste‘moldan chiqib ketgan narsa-hodisalarni bildiradi:

a) ijtimoiy-siyosiy nom: *podsho, xon, qul, quloq, batrak, qarol, chorikor;*

b) mansab, amal, unvon nomi: *qozi, amin, bek, amir, arbob, hudaychi, g‘unchachi, shotir, zakotchi.*

Arxaik so‘zlar. O‘z o‘rnini boshqasiga bo‘shatib bergan so‘zlar. Ijtimoiy taraqqiyot natijasida ayrim narsa-hodisalar boshqa leksema bilan atalib, avvalgisi

iste'moldan chiqib ketadi: ulus(xalq), afandi(o'qituvchi), lang(cho'loq), tilmoch(tarjimon).

Tarixiy va arxaik birliklarning muhim belgisi:

- a) arxaik so'zlar hozir mavjud narsa, tarixiy so'zlar o'tmish narsa-hodisasi atamasidir;
- b) arxaizmning hozirgi tilda sinonimi mavjud, tarixiy so'zlarning sinonimi yo'q;
- c) tarixiy so'z – yakka nom, arxaik so'z – birdan ortiq nomning biri.

Yangi so'z – tilda endi paydo bo'lgan va yangilik bo'yog'i sezilib turgan so'z: lizing, audit, market, test, internet kabi. Ular fanda **neologizm** deb ham yuritiladi. Neologizm quyidagi turlarga ega:

- a) yangi yasalgan: *serverxona, oraliq nazorat*;
- b) yangi ma'no kasb etgan: *tadbirkor, halqa(yo'l)*;
- c) yangi kirib kelgan: *reyting*.




A. Hojiyevning «O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati» kitobidan olingan quyidagi sinonim so'zlarning ma'nolarini o'qib o'rganing. O'z nutqingizda ulardan unumli foydalaning.

Noaniq, dudmol, notayin, mujmal, muhmal, mubham. Bu so'zlar aniqlikka ega emas, nimaligi aniq ifodalanmagan ma'nosi bilan birlashadi. **Dudmol** – **noaniq** so'ziga nisbatan kam qo'llanadi. **Notayin** – so'zi ko'p hollarda salbiy ottenka bilan qo'llanadi. **Mujmal** – kam so'zlar doirasida qo'llanadi va bunda salbiy bo'yoq yana ham kuchliroq bo'ladi. Mujmal gap, mujmal javob kabi. **Muhmal** – juda kam qo'llanadi. **Mubham** – kitobiy, kam qo'llanadi.



Mantiqiy topshiriq. Bo'sh joyga 6 ta raqamlangan shakllardan qaysi biri to'g'ri kelishini aniqlab joylashtiring.



1-mashq. Mantiqiy fikr yuriting. Alifbodagi harflar ketma-ketligiga e'tibor bering. Bo'sh o'rinlarga tushirib qoldirilgan harfni qo'ying.

S V P Z N



2-mashq. Uyga vazifa. Mirkarim Osimning «Zulmat ichra nur» qissasidan eskirgan so'zlar qo'llangan o'rinlarni topib daftaringizga ko'chiring.

38-§. TERMINOLOGIYA (ATAMA VA ATAMASHUNOSLIK)



1-topshiriq. A.Fildning «Og Mandino saboqlari»dan olingan hikoyani o'qing. Sizda qo'rquv paydo bo'lganda qanday yo'l tutasiz? Hikoyadan olgan xulosangiz haqida fikr yuriting.

Qo'rquvni kuchsizlanishga majbur qiling

Qo'rquvlaringizni yozib qo'ying va bu qo'rquvlar yuzaga chiqishi bilan bog'liq barcha ehtimolda tutilgan vaziyatlarni tasavvur qiling. Endi har bir vaziyatni olingda, agar bu rostdan ham ro'y berganida siz nima qilar edingiz, shuni o'ylang. Misol uchun, siz sportchisiz, jahon rekordi o'rnatmoqchisiz. Ammo jarohat olishdan qattiq qo'rqasiz va shu qo'rquv mashqlarda 100% o'zingizni bag'ishlashga imkon bermaydi. **Faraz qilingki**, shuncha ehtiyotkorligingizga qaramay, baribir jarohat oldingiz. **Muolajaning** zaruriy ulushidan o'tdingiz, ortiq narsaga erishishni

unutishga majbursiz. Jahon rekordi haqidagi orzu yo‘qqa chiqqandek... Rostdanam shundaymikan? Buni kim ham bilib o‘tiribdi? Ammo shifokorlarning gapiga qaramay orzu cho‘g‘i hali batamom o‘chgani yo‘q. Bunday holda siz nima qilgan bo‘lardingiz? Siz uchun jilla qursa, uchta yo‘li bor.

Birinchisi – usta murabbiy bo‘lish va chempion yetkazish. Shogirdning rekordi – bu murabbiyning rekordi, demak. Sizda bir nechta rekordchi shogirdlar bo‘lishi mumkin. **Rekordchi** tarbiyalaydigan **murabbiy** «oltin» yutib olgan sportchiga qaragandan kattaroq shuhrat qozondi. Chempionlik sharafi o‘tkinchi, bir necha yil o‘tadi-da, **champion**larning nomlari odamlar xotirasidan o‘chib ketadi. Murabbiylarni esa hamma biladi, hurmat qiladi va yaxshi ko‘radi, ularni tez-tez taqdirlab ham turishadi. Bu esa mutlaqo to‘g‘ri yo‘l.

Ikkinchisi – sportchi sog‘lig‘i bilan jiddiy shug‘ullanish. Shunday hollar bo‘ladiki, hatto eng og‘ir jarohlardan keyin ham odamlar butunlay sog‘ayib ketadi. Bu og‘irroq yo‘l, chunki natijasini oldindan bilish mumkin emas. Ammo xohish va intilish bo‘lsa, hamma narsaga erishish mumkin.

Uchinchi yo‘lga kelsak, u sportchi jarohat natijasida nogiron bo‘lib qolganda qo‘llanadi. Bizning kunlarda nogironlik sportdagi yutuqlarga nuqta qo‘yishni anglatmaydi. **Parolimpiya** o‘yinlari bor, ularda kishilar cheklangan imkoniyatlari bilan bellashadilar. Ammo bu ancha qimmatga tushadi, chunki epchillik, chidamlilik va jismoniy kuchdan tashqari sportchilar g‘alabaga o‘z ruh (jon)larini tikadilar.

Demak, siz qo‘rqqan har bir holatga amallarning kamida uchta yo‘rig‘ini o‘ylang. Mana ko‘rasiz: mana shu mashqdan keyin barcha qo‘rquvlaringiz zaiflashadi. Mabodo, qachon bo‘lmasin, yana qo‘rqa boshlasangiz, mana bu qaydnomani takror o‘qing.



Topshiriq

2-topshiriq. A. Fildning «Og Mandino saboqlari»da qo‘llanagan kasbiy va ilmiy atamalarni aniqlang.



1- mashq. Maktabda olgan bilimlaringizni takrorlang. Hozirda siz o'qiyotgan umumta'lim fanlariga oid kasbiy va ilmiy atamalarga 10 tadan termin yozing.

Nazariy ma'lumot. Atamalar qo'llanishiga ko'ra ilmiy atamalar va kasbiy atamalarga bo'linadi. Ma'lum fan doirasida qo'llaniladigan atamalar ilmiy atamalar hisoblanadi. Atamalarni tartibga solish har bir tilda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun atamalarni yaratish tamoyillari va ularni tartibga solish muammolari bilan shug'ullanuvchi tilshunoslikning maxsus bo'limi borki, bunday bo'lim **atamashunoslik (terminologiya)** deb yuritiladi. Atamashunoslikning o'rganish birligi atamalar(terminlardir). Istagan o'zbek tilida so'zlovchilardan *ildiz* nima deb so'rasangiz, o'simlikning ozuqa bilan ta'minlab turadigan qismi deb javob beradi. Lekin matematikaga daxldor kishilar bu savolga ildiz ishorasi, matematik amallardan biri ekanligini aytadi. Ko'rinadiki, bir so'z umumxalq tilida bir ma'noni, ma'lum ixtisoslik sohasida esa boshqa ma'noni ifodalaydi.



2-mashq. Berilgan matnni o'qib unga sarlavha toping. Ajratilgan so'zlarni o'qib to'g'ri talaffuz qilishni mashq qiling. Ularning paronimini topib ko'chiring.

Ehtimol, oltin – odamzot to'qnash kelgan **ilk** metall bo'lsa kerak. Chunki oltin tabiatda odatda, asosan, **asl** holda, sof shaklda uchraydi. **Sof** holda topilgan tabiiy oltin bo'laklari ichida eng kattasi 1872-yilda Avstraliyadan topilgan bo'lib, u «Xolterman plitasi» deyiladi. Bu orasiga 83,2 kg sof oltin tiqilib qolgan katta kvars palaxsasi bo'lib, uning umumiy vazni 235 kg ni tashkil qilgan.

Oltinning nomi ko'plab turkiy tillarda o'zaro o'xshash: o'zbek, turk, qozoq, tatar va boshqird tillarida u oltin, (yoki talaffuzga qarab, «altin») deb yuritiladi. Turkiy tillarda mavjud element nomlarining aksariyati, ushbu elementning tabiiy holda uchraydigan holatining rangiga qarab berilgan. Qizig'i shundaki, saxa tili, ya'ni Yoqutistonning mahalliy xalqi tilida oltinni «qixil kumis», ya'ni «qizil kumush» deb yuritilar ekan. Ozar qardoshlarimiz esa oltinni shunchaki «qizil» deb

nomlashadi. Bir qarashda o‘zaro **bog‘liqligi** yo‘qdek ko‘rinadigan bunday turkiy so‘zlarning (ya’ni «oltin» va «qizil» so‘zlarining) aslida juda qiziq o‘zaro yaqin aloqasi mavjud. Ya’ni aslida o‘zbek tilida va yana qator boshqa turkiy tillarda «oltin» tarzida aytiladigan ushbu element nomi **ozar** va yoqut tilida «qizil» deyilishi bejiz emas. Oltin – tunda qizg‘ish yarqiroq rangda namoyon bo‘ladi. Shu sababli ham ayrim turkiy tillarda ushbu elementni hali hanuz «qizil» deb yuritishadi. O‘zbekcha – «oltin» so‘zi **ham** qizil so‘ziga to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqadorlikka ega. Shoirlar tomonidan qizil rangni badiiy tasvirlash uchun «ol» so‘zini keng ishlatilishini yaxshi bilamiz. Qizlarning qip-qizil labini shoirlar «labing ol» deb **ta’rif**laydilar. Xullas, o‘zbek tilida qizil rangga sinonim sifatida ol so‘zining qo‘llanishi avvaldan mavjud amaliyot sanaladi. Oltin so‘zi ham qizil rang ma’nosidagi o‘sha «ol» so‘zi ishtirokida yasalgan bo‘lib, qadimgi turkiy tilda u «Ol» va «tun» so‘zlarining qo‘shib aytilishidan vujudga kelgan. Ya’ni, oltin so‘zining o‘zbekcha ma’nosi «**tundagi qizillik**», «**tundagi qirmizi**» bo‘lib chiqmoqda.



Mantiqiy fikr yuriting. Tasvirga diqqat bilan qarang. O‘z tasavvuringizga tayanib ortiqchasini ko‘rsating.



1



2



4



5



6



A.Hojiyevning «**O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati**» kitobidan olingan quyidagi ma’nodosh so‘zlarning ma’nolari o‘qib o‘rganing. O‘z nutqingizda ulardan unumli foydalaning.

Chanqamoq, suvsamoq, cho‘llamoq. Bu so‘zlar suv talab bo‘lmoq, suvga tashna bo‘lmoq ma’nosini bildiradi. **Suvsamoq, cho‘llamoq**– ayrim shevalarga xos bo‘lib, yozuvda juda kam qo‘llanadi.



3-mashq. Uyga vazifa. «Men qaysi kasb egasi bo‘lmoqchiman» mavzusida insho yozing, tanlagan kasbingizga oid terminlarni qo‘llang.

39–§. FRAZELOGIYA (IBORALAR) USLUBIYATI



Topshiriq

1-topshiriq. She’rni ifodali o‘qing va o‘zingizga tegishli xulosa chiqaring. O‘z va ko‘chma ma’noli so‘zlarni aniqlang.

Yosh avlod ahdi

Istiqloli butun, iqboli porloq,
Shu aziz Vatanning farzandlarimiz.
Boshimiz silagan, oq yo‘l tilagan,
Shu mehribon elning dilbandlarimiz.
Biz ham yaxshilikni odat qilamiz,
Shu ozod Vatanni obod qilamiz.

Bobolar, momolar o‘ksingani rost,
O‘zligi toptalgan xalq edik qanday?
Parvoz uchun qanot berdi istiqlol,
Aziz u non kabi, shirindir jonday.
Bizlar o‘zligimiz endi bilamiz,
Shu ozod Vatanni obod qilamiz.

O‘tmishga mahliyo bo‘lmaymiz aslo,

Bo‘lamiz, albatta, bilimli, kuchli.
Ajdodga munosib avlod bo‘lishga,
Hammamiz mas’ulmiz, hammamiz burchli.
Qurib-yaratamiz, ijod qilamiz,
Shu ozod Vatanni obod qilamiz.

Bizga bildirilgan umid-ishonchni,
Oqlaymiz, hech qachon tek turmagaymiz.
Har sohada ilg‘or, yetakchi bo‘lib,
Dunyo savdosida boy bermagaymiz.
Ahdimizda mudom sobit qolamiz,
Shu ozod Vatanni obod qilamiz.

Birimiz tadbirkor, birimiz me‘mor,
Birimiz shifokor, birimiz dehqon.
Birimiz kuy-qo‘shiq yaratsak agar,
Birimiz sarhadda bo‘lamiz qalqon.
Yurt rivoji uchun mehnat qilamiz,
Shu ozod Vatanni obod qilamiz.

Ey zamondosh do‘stim, aziz yurtdoshim,
O‘z ustingda ishlab, charchama, tolma.
Akamsan yo ukam, balki tengdoshim,
Oldinga o‘t mayli, lek ortda qolma.
Navqiron, barkamol avlod bo‘laylik,
Shu ozod Vatanni obod qilaylik.

(Lazizjon Baxranov)

Nazariy ma’lumot. O‘zbek tilida barqaror birikmalar sifatida maqol, matal, ibora e’tirof etiladi. Tilshunoslikning barqaror birikmalarni o‘rganuvchi bo‘lim

paremiologiya (*lotincha* **parema**-»barqaror», **logos**-»ta'limot»), uning lug'atini tuzish bilan mashg'ul bo'luvchi soha **paremiografiya** (*lotincha* **parema** «barqaror», **grapho** «yozmoq») deyiladi.

Ibora. Barqaror birikmaning bir guruhi tarkibidagi so'zlar ma'no jihatidan uyg'unlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi. Ko'pincha ma'nosi bir so'zga teng va ko'chma bo'ladi. So'zning bunday barqaror bog'lanmasi ibora (frazeologik birlik)dir. Tilshunoslikning iborani o'rganuvchi maxsus bo'limi **frazeologiya** deyiladi.

Iboraning ham shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari mavjud:

1. Omonim ibora. Bir xil qism(so'z)dan tuzilgan, ya'ni shakli o'xshash, ammo ma'nosi har xil bo'lgan ibora **omonim ibora** deyiladi: *uyni boshiga ko'tarmoq – onasini boshiga ko'tarmoq.*

2. Sinonim ibora. Shakli har xil ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan ibora **sinonim ibora** (frazeologik ibora) deyiladi: *toqati toq bo'lmoq – sabr kosasi to'lmoq.*

3. Antonim ibora. Qarama-qarshi ma'no ifodalovchi ibora **antonim ibora** (frazeologik antonim) deyiladi: *ko'kka ko'tarmoq – yerga urmoq, qo'li uzun – qo'li kalta.*

Iboraning so'z, gap va so'z birikmasiga munosabati. Ibora so'z, gap va so'z birikmasiga o'xshash va farqli belgilarga ega.

Ibora va so'z. So'z ham ibora ham tushuncha ifodalaydi va gapda bir bo'lak vazifasida keladi. So'z tovushdan, ibora esa so'zdan tashkil topadi. So'z to'g'ri va ko'chma ma'noni, ibora faqat ko'chma ma'noni ifodalaydi. So'zning ma'no tarkibida qo'shimcha ma'no bo'lmasligi mumkin, iborada esa har doim qo'shimcha ma'no mavjud bo'ladi.

Ibora va so'z birikmasi, gap. Iborani tashkil etuvchi so'z barqaror aloqaga ega. So'z birikmasi va gapning tashkil etuvchisi erkin bog'lanadi. Ibora nutqqacha tayyor holda bo'ladi. So'z birikmasi va gapni o'zgartirish mumkin. Iborani «buzish» mumkin emas.

Tasviriy ifoda – predmet, voqea va hodisani o‘z nomi bilan emas, balki muhim xususiyatini tasvirlash orqali ifodalovchi birikma: *oq oltin – paxta, oq oltin ijodkori – paxtakor, kumush tola – pilla, zangori kema kapitani – mexanizator va h.k.*



2-topshiriq. Quyida berilgan tasviriy ifodalarning ma’nosini toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Yerning yopinchiği, futbol qiroli, ko‘kning fonusi, xazon fasli, ekinning qoni, Jahon bankining vatani, mangu muzliklar diyori, kunchiqar mamlakat, Alloh oshigiği, hayot ko‘zgusi, dengiz hokimi, tangri so‘zi, barcha hunarning toji, tayga xo‘jayini, osmonning ko‘z yoshi.



3-topshiriq. Quyidagi matn mazmuni bilan tanishing va unda qo‘llangan kishiga nisbatan ishlatilgan tasviriy ifodani aniqlang. Siz ham kelajakda Nobel mukofoti olishni xohlaysizmi? Unday bo‘lsa, harakatni boshlang.

Mukofot tarixiga bir nazar

Nobel mukofoti ilg‘or ilmiy tadqiqotlar, inqilobiy kashfiyotlar yoki madaniyat yoxud jamiyat taraqqiyotiga qo‘shilgan ulkan xizmatlar uchun taqdim etiladigan eng nufuzli mukofotlardan biridir. Nobel mukofotlari Alfred Nobel vasiyatnomasiga binoan ta‘sis etilgan. Nobel o‘zi kim edi? Alfred Bernxard Nobel 1833-yilning 21-oktyabr Shvetsiya poytaxti Stokgolmda tavallud topgan. Alfred Emmanuel va Andriyetta Nobellarning uchinchi o‘g‘li edi. 1842-yilning kuz oylarida Nobellar oilasi Sankt-Peterburgga ko‘chib kelishgan. Vaqt o‘tib otasi bilan Shvetsiyaga qaytishga majbur bo‘lgan Alfred portlovchi moddalarni o‘rganishga kirishadi, ayniqsa, nitroglitserinni xavfsiz ishlab chiqarish va undan foydalanish Nobelni ko‘proq qiziqtirardi. 1868-yilda Nobel dinamitga patent oladi. Alfred dinamit va boshqa portlovchi moddalar ishlab chiqarish, shuningdek, Bokudagi neft maydonlarini ochish ishlaridan katta mol-mulkka ega bo‘lgan. 1988-yilda muxbirlar xatosi bilan Alfred Nobelning o‘limi haqida xabar berilgan.

Bu olim uchun juda og'ir taassurot qoldiradi. Uni jurnalistlar «qonga botgan millioner», «dinamit qirol» deya ta'riflashgan edi. Bundan ta'sirlangan olim tarixda «dunyoviy miqyosdagi jinoyatchi» sifatida qolmaslik uchun jiddiy o'ylab qoladi.

Nobel 1889-yilda Butunjahon Tinchlik Kongressida qatnashadi. U 1896-yilning 10-dekabr kuni stenokardiya xurujidan vafot etgan. Nobel vasiyatiga ko'ra, ushbu mukofot faqatgina, besh yo'nalishda ta'sis etilgan. Bular:

Adabiyot (1901-yildan e'tiboran, Shvetsiyada beriladi);

Fizika (1901-yildan Shvetsiyada taqdim etiladi);

Kimyo (1901-yildan Shvetsiyada beriladi);



Fiziologiya va tibbiyot (1901-yildan e'tiboran, Shvetsiyada beriladi);

Tinchlik (1901-yildan e'tiboran, Norvegiyada topshiriladi) bo'yicha Nobel mukofotlaridir.

Bundan tashqari, Shvetsiya banki tashabbusi bilan 1969-yilda Iqtisodiyot yo'nalishidagi Nobel mukofoti ham ta'sis etildi.



Mantiqiy fikr yuriting. Bo'sh joyga 6 ta raqamlangan shakllardan qaysi biri to'g'ri keladi?





31-mashq. Uyga vazifa. DTM test savollarini bajaring. Javoblardan faqat bittasini tanlang.

1. Qaysi javobda imloviy xato yozilgan soʻzlar soni ikkita?

- A) Oʻrtadagi xontaxtada sovub qolgan kabob va meva-cheva bor edi.
- B) Yaxshilik qilsang, oxirigacha yaxshilik qilgin, zinhor minnat qilma.
- C) Qor urib turgan bir qish edi. Birdan koʻchada dod-faryod koʻtarilib qoldi.
- D) Zebi yuragida tugulib yotgan zoʻr tugunni yechib yuborgan edi.

2. Qaysi javobdagi soʻzlar qatorida tutuq belgisi qoʻyilmaydi?

- A) taqiqlamoq, madaniyat, istehzo
- B) dafatan, inom, etiroz
- C) masud, memor, mezon
- D) vada, madan, bemor

3. Berilgan soʻzlardan nechtasida tutuq belgisi qoʻyilishi kerak?

- 1) ma...shuqa; 2) ma...ruza; 3) ma...raka; 4) ta...ssurot; 5) iste...hzo; 6) iste...mol.
- A) 2tasida B) 3tasida C) 5tasida D) 4tasida

4. Qaysi gapdagi soʻzlar imlosida faqat tovush ortish hodisasi kuzatiladi?

- A) Men undan soʻradim: «Mehringni qoʻyib, bunchalar saralab gul terding kimga?»
- B) Och qornim – tinch qulogʻim.
- C) Yigitning chirogʻi – qizi bilan oʻgʻli, bolam, tezroq farzandli boʻlinglar.
- D) Bundan kuniga burningizga uch-toʻrt tomchi tomizib tursangiz, darddan xalos boʻlasiz.

5. Qaysi gapdagi soʻzlar imlosida roʻy bergan tovush oʻzgarishlari lugʻaviy va sintaktik shakl yasovchi qoʻshimchalar taʼsirida yuzaga kelgan?

- A) Oltovlon ola boʻlsa, ogʻzidagini oldirar, toʻrtovlon tugal boʻlsa, koʻkdagini undirar.
- B) Qaytar boʻlsam quruq qoʻl ovdan, Ham ayrilib oʻlja ulovdan, Qarzga botar boʻlsam birovdan, Bir mushtipar onam yigʻlaydir...

C) Qalb qiynog‘i og‘ir bo‘ladi, ko‘nglingizni ezib qo‘yadi, shuning uchun pushaymon bo‘ladigan ishlarga yo‘l qo‘ymang.

D) Odam degan hadeb bitta gapni qaytaraverar ekan-da, buncha ezma bo‘lmasang.

6. Qaysi javobda tinish belgisi bilan bog‘liq xatolik mavjud emas?

A) Sh.Rustaveli shunday degan edi: «Ulug‘ yo‘l kutayotgan bo‘lsa, sustkashlik jinoyatdir».

B) «Baxtli bo‘lmoq uchun baxtli bo‘lish mumkinligiga ishonmoq kerak» – deb yozgan edi L.N.Tolstoy.

C) Abu Rayhon Beruniy shunday yozadi: «Inson hayvondan aql bilan farq qiladi».

D) «Vaqt aqliy mehnat kishisining sarmoyasi», – degan edi fransuz yozuvchisi O. Balzak.

40–§. O‘ZBEK LEKSIKOGRAFIYASI. QOMUSIY VA FILOLOGIK LUG‘ATLAR



Topshiriq

1-topshiriq. Jadvalda nomlari berilgan lug‘atlarning o‘rganish obyektini yozing.

T\r	Lug‘at turlari	O‘rganish obyekti
1.	Qomusiy lug‘at	
2.	Izohli lug‘at	
3.	Morfem lug‘at	
4.	Tarjima lug‘at	
5.	Paronimlar lug‘ati	
6.	Imlo lug‘ati	

Nazariy ma'lumot. Leksikografiya lot. *Lexikos* – soʻz, *grapho* – chizmoq, yozmoq soʻzlaridan olingan boʻlib, lugʻat tuzish amaliyoti va nazariyasi bilan shugʻullanuvchi tilshunoslikning boʻlimidir¹¹⁸.

Leksikografiya nazariyasining predmeti lugʻat tuzish tamoyillari va usullaridir. Leksikografiya amaliyoti esa lugʻat tuzuvchilarning ishini tashkil etish, soʻzlarni kartochkalarga tushirish, sistemaga solish va saqlash singarilarni oʻz ichiga oladi. Leksikografiya nazariyasida lugʻat turlari, soʻzlik tarkibi va soʻz maqolasining tuzilishi asosiy oʻrinni egallaydi¹¹⁹.

Avvalo, lugʻatlar ikki turli boʻladi:

1. Ensiklopedik (qomusiy) lugʻatlar. 2. Filologik (lingvistik) lugʻatlar. Bu ikki turdagi lugʻatlar lugʻat birliklarining nimaga qaratilgani bilan farqlanadi. Lugʻatga kiritilayotgan birliklar barcha tushunchalarni oʻz ichiga olsa, ensiklopedik (qomusiy) lugʻat hisoblanadi¹²⁰.

Ensiklopedik (qomusiy) lugʻatda turli xil tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar, ilmiy tushunchalar va boshqalar oʻz ifodasini topadi. Umuman, ensiklopedik lugʻatlar maʼlum bir xalqning madaniy-maʼnaviy, ilmiy-amaliy, siyosiy-iqtisodiy hayotiga doir barcha tushunchalarni qamrab oladi va bu tushunchalar unda oʻz izohini topadi¹²¹.

Filologik lugʻatlar maʼlum bir tildagi soʻzlarni oʻz ichiga oladi. Soʻzlar muayyan bir tartibda (yo alifbo asosida, yo mazmuniy guruhlar asosida) joylashtiriladi¹²². Filologik lugʻatlarning oʻzi, eng avvalo, izohli va tarjima lugʻatlariga boʻlinadi. Tildagi soʻzlarni izohlashga qaratilgan lugʻatlar izohli lugʻat, muayyan tildagi soʻzlarning ikkinchi tilga tarjimasini berishga qaratilgan lugʻatlar esa tarjima lugʻat sanaladi¹²³.

^{118,155} NURMONOV, A. SOBIROV, N. QOSIMOVA. HOZIRGI OʻZBEK ADABIY TILI. *Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 1-bosqich talabalari uchun darslik* TOSHKENT — «ILM ZIYO» — 2010

^{120,165,166,167} NURMONOV, A. SOBIROV, N. QOSIMOVA. HOZIRGI OʻZBEK ADABIY TILI. *Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 1-bosqich talabalari uchun darslik* TOSHKENT — «ILM ZIYO» — 2010



2-topshiriq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning «O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi»dan foydalanib ma’nosini izohlang.

Atoqli tilshunos olim Mahmud Koshg‘ariyning «Devon-u lug‘otit turk» asari turkiy xalqlarning ilk lug‘ati sanaladi. Muallif uni 1072-yilda yoza boshlagan va 1074-yilda yozib tugatgan. Bunga qadar u bir necha o‘n yillar davomida Chin (Xitoy)dan tortib to Rum (Vizantiya)ga qadar bo‘lgan ulkan hududda yashovchi turkiy qabilalarni birma-bir o‘rganib chiqqan. Bu haqda uning o‘zi shunday deb yozadi:

– Men turklar, turkmanlar, o‘g‘izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim. Men bu kitobni maxsus alifbe tartibidagi hikmatli so‘zlar, sa’jlar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim.

Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo‘llanib kelgan she’rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo‘llaniladigan hikmatli so‘zlaridan, maqollaridan keltirdim.

Devon ikki qismdan iborat: «Muqaddima» va «Lug‘at». Undan mehnat va marosim qo‘shiqlari, o‘gitnomalar, munozara shaklidagi to‘rtliklar, Alp Er To‘nga (Afrosiyob) marsiyasi kabi ajoyib adabiy yodgorliklar o‘rin olgan. «Devon-u lug‘otit turk» bitmas-tuganmas ilm manbayidir.



3-topshiriq. So‘zlarning ensiklopedik (qomusiy) va izohli lug‘atda qanday sharhlanganligiga e‘tibor bering.

ANTOLOGIYA – (yun. anthos – gul va lego – teraman) bir guruh mualliflarning tanlangan asarlari (musiqiy, falsafiy, adabiy) to‘plami. A. qadim zamonlarda Sharq va Yunonistonda ma’lum bo‘lgan. A.ga kiritilgan asarlar biror shoir yoki xalqning badiiy ijodi haqida ma’lumot beradi, uning g‘oyaviy – badiiy qimmatini ko‘rsatadi. (**Qomusiy lug‘atdan**)

ANTOLOGIYA – (yun.anthologia< anthos-gul+lego-terish; gullar dastasi) ad.Turli mualliflarning tanlangan asarlari (ko‘pincha she‘rlari) to‘plami. (Izohli lug‘atdan)



1-mashq. B. Mengliyev, B. Bahriddinova, O‘. Xoliyorovning «O‘zbek tilining so‘z yasash o‘quv lug‘ati» dan foydalanib, quyidagi so‘zlarni asos va qo‘shimchalarga ajratishni mashq qilib daftaringizga yozing.

Badaslik, avroqchi, bid‘atchilik, chorbozorchilik, bulg‘anchiq, shiravorchilik, buyurtmachi, o‘tkazuvchanlik, o‘likxona, zaharxandalik, yoqimlilik, xunobgarchilik, vizildoq, uydirmachi.



2-mashq. Talaffuzi va yozilishi farq qiladigan quyidagi so‘zlarning xatolarini tuzatib, daftaringizga yozishni mashq qiling.

Astronomiya, asqotmoq, betaxlika, bolaxonador, buzurukvor, vertual, volfiram, gallaktika, galeriya, dovriq, yomboshlamoq, yog‘richoq, jangavor, junbush, zaharzaqum, kaleydaskop, kvitansia, kinosenariy, mas‘um¹²⁴.



3-mashq. Topishmoqlarni o‘qing, javobini toping. Ostiga chizilgan shevaga xos so‘zlarning ma‘nosini dialektlar lug‘atidan foydalanib mazmunini izohlashni mashq qiling.

1. Bir arqonim bor,
Uchi-quyrug‘i yoq. (Yo‘l)
2. Og‘izginasi o‘ymoqday,
Baqirgani toyloqday. (Miltiq, o‘qi)
3. Hil-hil tuya,
Hil tuya,
Jugi ortuvli tuya–
Beli tortuvli tuya. (Ko‘prik)

¹²⁴ T.Tog‘ayev,G.Tavaldiyeva,M Akromova.”O‘zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug‘ari”. “Sharq”.T.2004

4. Bir tovoq qizil olma,
Ulashmoqqa hadding borma. (Cho‘g‘)
5. Egri xo‘jam, xo‘jam,
Taqiyasi temirdan xo‘jam¹²⁵. (Omoch)



Mantiqiy fikr yuriting.

Jorj Vashington, Sherlok Xolms, Vilyam Shekspir, Lyudvig Van Betxoven, Napoleon Bonapart, Aleksandr Pushkin. Ushbu ro‘yxatda kim «ortiqcha?»

(To‘g‘ri javob: Sherlok Xolms. Chunki, qolganlaridan farqli ravishda u to‘qima shaxsdir).



4-mashq. Uyga vazifa. Mavzuga oid bilimingizga tayanib, qomusiy va filologik lug‘atga mansub bo‘lgan lug‘at turlarni ustunlarga yozing.

Qomusiy lug‘atlar	Filologik lug‘atlar

41–§. IZOHLI LUG‘AT, TARJIMA LUG‘AT VA ULARDAN FOYDALANISH



Topshiriq

1-topshiriq. M. Behbudiyning «Ikki emas, to‘rt til kerak» maqolasining audio matnini tinglang. Bugungi kunda chet tillarga bo‘lgan ehtiyoj haqida fikr bildiring. Chet tillarni o‘rganishda sizga zarur bo‘lgan lug‘atlar ro‘yxatini tuzing.



¹²⁵ www.ziyouz.com kutubxonasi

Nazariy ma'lumot. Tildagi soʻzlarni izohlashga qaratilgan lugʻatlar **izohli lugʻat** deyiladi. Unda lugʻaviv birlik (soʻz va ibora)larning maʼnolari, grammatik, uslubiy va boshqa belgilari qayd etiladi¹²⁶.

Izohli lugʻatlarda soʻzlarning qaysi tilga mansubligi, oʻz va koʻchma maʼnolari, sinonim va antonimlari ham beriladi.

Lugʻatlar maʼlum soʻzlikdan iborat boʻladi. Soʻzlik – lugʻat uchun tanlab olingan soʻzlar majmuyi. Masalan: «Oʻzbek tilining izohli lugʻati» (Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008, 5 jildlik) da 80 000 soʻz va birikma izohlangan¹²⁷.



1-mashq. Oybekning «Navoiy» romanidan olingan parchani oʻqing. Ostiga chizilgan soʻzlarni «Oʻzbek tilining izohli lugʻati»dan foydalanib, sharhlang va daftaringizga yozishni mashq qiling.

Uchinchi talaba ikki yil burun Shahrisabzdan **tahsil** uchun kelgan doʻng peshonali, **miqti** gavdali, oʻtkir, yirik koʻzli oʻn sakkiz yashar Sultonmurod edi. Bu yigit Shahrisabzda mashhur **sangtarosh** ustaning oʻgʻli edi. Usta Samarqandda ish vaqtida katta bir bino tepasidan yiqilib oʻlganda, Sultonmurod uch yashar bola edi. Oʻqimishli, **jonkash-jafokash** onaning tarbiyasida ulgʻayib, dastlab oʻz shahrida, soʻngra Samarqandda tahsil koʻrib, nihoyat, qarindoshlarining yordami bilan Hirotga kelib, bu madrasaga joylashgan edi. Uning isteʼdodi **madrasa** ahligagina emas, balki Hirotning aksar olimlariga maʼlum. U barcha mavjud ilmlarni egallab, zamona olimlarining peshvosi, «saromadi» boʻlishga tirishadi. Diniy ilmlardan tashqari, **riyoziyot**, **ilmi nujum**, **mantiq**, adabiyot va hokazolarda keng, pishiq maʼlumot kasb etgan edi. U oʻn toʻrt yashar vaqtida Samarqandda bir domlasi unga shunday degan edi: «Qadim zamonda bir olim oʻtgan ekan. U agar rubʼi maskundagi barcha olimlarning xotirlaridan barcha ulum va funun banogoh koʻtarilsa, u ilmlarning hammasini asliday tirgizishga qodirman, der ekan. Oʻgʻlim, sizda oʻshanday **zako** va **isteʼdod** koʻraman, **saʼy-gʻayratni** aslo qoʻldan

^{126,171} Nosirjon Uluqov. "Tilshunoslik nazariyasi". Toshkent.2016.124-b.

bermangiz!» Imlarda ana shu afsonaviy olimning darajasiga ko‘tarilish Sultonmurodning g‘oyasi edi.

Nazariy ma‘lumot. Muayyan tildagi so‘zlarning ikkinchi tilga tarjimasini berishga qaratilgan lug‘atlar tarjima lug‘at sanaladi¹²⁸. Ular quyidagi turlarga bo‘linadi:

- 1) ikki tilli lug‘atlar;
- 2) uch tilli va ko‘p tilli lug‘atlar .

Masalan: o‘zbekcha- ruscha lug‘at, o‘zbekcha- inglizcha lug‘at. Ruscha- o‘zbekcha lug‘at (A. K. Borovkov tahriri, besh tomli, M., 1950-1955), o‘zbekcha- ruscha lug‘at (S. F. Akobirov, Z. M. Ma‘rufov, A. T. Xo‘jaxonov. M., 1959) va boshqalar.

Har qanday lug‘at shu lug‘atning egasi bo‘lgan xalqning katta madaniy va ma‘naviy boyligi sanaladi.



3-mashq. Tarjima lug‘atlar haqidagi bilimlaringizga tayanib quyidagi so‘zlarni jadvalga joylashtiring. O‘zingiz mustaqil o‘rgangan boshqa tillarga ham tarjima qilib ko‘rishni mashq qiling.

O‘zbek tili	Rus tili	Ingliz tili
Vatan		
Kitob		
Do‘st		
Oila		
Bilim		
Tabiat		
Salomatlik		

Matnli test

Taxtga o‘xshash o‘rindiqa yigirma yoshlardagi, bug‘doyrang **chehrali**, chiroyli qosh-ko‘zli, **nigohi** jiddiy va sinovchan boquvchi, burnida qora xoli bor yigit o‘tirardi. Uning vazmin qarashlari, qat‘iy qimtilgan labi kuchli **iroda**, og‘ir tabiatli va **havoyi hirslarga** tamom begona kishi ekanidan guvohlik berib turardi. Kalta tarashlangan soqol-mo‘ylovi ham istarasi issiq yuziga yarashib , yigitlik

¹²⁸NURMONOV, A. SOBIROV, N. QOSIMOVA. HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 1-bosqich talabarlari uchun darslik TOSHKENT — «ILM ZIYO» — 2010

husni va salobatini oshirgan. Bu – sulton Alovuddin Muhammadning o‘g‘li, to‘ng‘ich shahzoda Jaloliddin edi.

Matn yuzasidan savollar

1. Ushbu matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning izohi qaysi qatorda noto‘g‘ri berilgan?

- A) Ko‘z qarashi, nazar, boqish, qarash.
- B) Maqsadni yuzaga chiqarish uchun kishida bo‘lgan matonat va qat’iyat.
- C) Biror narsaga qattiq berilish, intilish, ochko‘zlik.
- D) Eng oxirgi farzand , eng keyin tug‘ilgan o‘g‘il yoki qiz.

2. Shahzoda Jaloliddinning sifatlariga mos kelmaydigan javobni toping.


- A) kuchli qat’iyat , og‘ir tabiatli
- B) yengil tabiatlilikdan xoli
- C) Alovuddin Muhammadning inisi, to‘ng‘ich shahzoda
- D) yulduzi issiq

3. Havoyi so‘zining izohi to‘g‘ri berilgan javobni toping.

- A) ochko‘z B) kamtar C) beqaror D) boobro‘



4-mashq. Uyga vazifa. Lug‘atshunoslik asosida olgan bilimlaringizni mustahkamlab quyidagi rasmlar asosida reklama matnini yarating.



42–§. IMLO VA ETIMOLOGIK LUG‘ATDAN FOYDALANISH



1-mashq. Berilgan maqollar tarkibidagi imlo xatoliklarni aniqlang. Imlo lug‘atidan foydalanib, ularni to‘g‘rilab daftaringizga yozing.

Haqni nohaq etma,

Noxaqni haq etma.

Gapi gapga o‘hshamas,

Og‘zi gapdan bo‘shamas.

Duo olgan omondir,

Qarg‘ish olgan yamondir.

Suydurgan ham til,

Kuydirgan ham til.

So‘zdan so‘zning farqi bor,

O‘ttiz ikki narhi bor.

O‘z aqling aqildir, Elning aqli naqildir.

O‘tarchining nashtari yeng ichida,

Zaxar xotin nashtari til uchida¹²⁹

¹²⁹ O‘zbek xalq maqollari.”Sharq”NASHRIYOTI-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI.T.2005



2-mashq. Turmushimizda uchrab turadigan rasmdagi kabi holatlar haqida nima deysiz? Siz ham duch kelganmisiz? Xatolar ustida ishleng.



Nazariy ma'lumot. Har bir tilda shu tildagi soʻzlarni toʻgʻri yozishga qaratilgan maxsus qonun-qoidalar majmuasi boʻladi. Bunga **imlo** yoki **orfografiya qoidalari** deyiladi. Imlo qoidalari amaldagi yozuvga mos ravishda yaratiladi. Kirill yozuviga asoslangan hozirgi oʻzbek yozuvi uchun 1995-yilga qadar 1956-yilda yaratilgan imlo qoidalari asos vazifasini oʻtab kelmoqda. Lotin yozuviga asoslangan yangi oʻzbek yozuviga oʻtilishi munosabati bilan imlo qoidalariga ham sezilarli darajada oʻzgartirishlar kiritildi. Shu munosabat bilan 1995-yil A. Hojiyev muharrirligida yangi «Oʻzbek tilining imlo lugʻati» nashr qilindi. Imlo lugʻatlarida soʻzlar orfografiya qoidalari asosida alifbo tartibi bilan

beriladi¹³⁰.

Hozirgi kunda Madvaliyev tahriri ostidagi (2013- yil) imlo lugʻati asos qilib olingan.



3-mashq. Berilgan maʼlumotlarni oʻqing. Lugʻatning qaysi turidan foydalanilganini aniqlang.

Qishloq – aholisi, asosan, qishloq xoʻjaligi bilan shugʻullanadigan yashash joyi. Hozir qishloqlarning koʻpi shahar tusiga kirib bormoqda. Qadimgi turkiy tilda bu

¹³⁰ A. NURMONOV, A. SOBIROV, N. QOSIMOVA. HOZIRGI OʻZBEK ADABIY TILL. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 1-bosqich talabarlari uchun darslik TOSHKENT — «ILM ZIYO» — 2010

ot qish otidan –la qo‘shimchasi bilan yasalgan qishla – fe’liga -g‘ qo‘shimchasini qo‘shib yasalgan. «Aholisi yozda dalalarga ketib, qishda qaytib kelib yashaydigan joy» ma’nosini anglatgan; hozirgi ma’nosi ana shu ma’no asosida yuzaga kelgan; keyichalik o‘zbek tiliga bu so‘z oxiridagi **g‘** undoshi **q** undoshiga, **a** unlisi **o** unlisiga almashgan. Unlining qattqlik belgisi yo‘qolgan (qish+la=qishla)+g‘=qishlag‘>qishlaq>qishloq. So‘zlashuv nutqida bu so‘z *qishlog‘* tarzida ham talaffuz qilinadi¹³¹. Bu so‘z bugungi kunda yasama hisoblanmaydi.

Nazariy ma’lumot. Tildagi har bir so‘z o‘zining kelib chiqish tarixiga, etimologiyasiga ega. Masalan, *ichkari* so‘zi *ich* o‘zagida tomon ma’nosini beruvchi *gari* qo‘shimchasidan iborat. Tildagi so‘zlarning kelib chiqish tarixini o‘z ichiga olgan lug‘atlar **etimologik lug‘atlar** sanaladi.

Prof. Sh. Rahmatullayevning ko‘p yillik samarali mehnatlari tufayli o‘zbek tilida ham dastlabki etimologik lug‘at yaratilgan¹³².



1- topshiriq. Berilgan matn bilan tanishib chiqing. Topshiriqlarga javob bering.

Matnli test

Bir guruh ulfatlar tijorat maqsadida chetga borishdi. Ular gavjum shahardagi sakson qavatlining yetmish beshinchi qavatiga joylashishdi, chunki bundan pastda joy yo‘q edi. Yuqoridan shaharni tomosha qilish qulayligini o‘ylab, shu qavatda qolishga.....bo‘lishdi.

«Ammo shuni eslatib qo‘yishim lozimki, – deya ularni ogohlantirdi mehmon-xona xodimi, – ichki tartibimizga ko‘ra, kech soat o‘n birdan ertalabki yettigacha lift ishlamaydi. Shuning uchun soat o‘n birgacha xonangizga chiqishni unutmang».

¹³¹ Shavkat Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. Universitet. T. 2000

¹³² A. NURMONOV, A. SOBIROV, N. QOSIMOVA. HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TIL. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejarining 1 bosqich talabalari uchun darslik TOSHKENT — «ILM ZIYO» — 2010

43-§. LUG‘ATLAR USTIDA ISHLASH



1-topshiriq. Matnni o‘qing. Siz uchun baxt nima? Fikringizni bayon qiling.

Baxt bu qalb va aql holati. Agar siz o‘zingizni qalban baxsiz his etayotgan bo‘lsangiz, buni aql kuchi bilan o‘zgartiring. Baxtni ataylab his etib ko‘rishga harakat qilib ko‘ring. Baxtli ekanligingizni tasavvur eting. Harakatlaringiz nafis tus oladi, qaddingiz tiklanib, ko‘zlaringiz nurga to‘ladi. Siz istaklaringizning barchasini amalga oshira olasiz. Zo‘r-a?



Boshlanishiga bu haqiqiy bo‘lmasa ham, mayli, biroq vaqt o‘tishi bilan siz natijani his etasiz. Bu holat tana yegulikka muhtoj bo‘lgani kabi qo‘llab-quvvatlab turishga muhtoj: uni o‘qish, fikrlash, o‘zingizga yoqimli bo‘lgan odamlar bilan muloqot qilish, ijod va qiziqarli fikrlar bilan rivojlantirish kerak. Balki, quyida keltirilayotgan fikrlar o‘zingizni xotirjam va baxtli his etish uchun yordamga kelar. Kuchsizlar o‘ch oladi, kuchlilar kechiradi, baxtlilar unutadi. Insonning qalbi qanchalik past bo‘lsa, shunchalik burni osmonga ko‘tariladi. U qalbi yetmagan joyga burni bilan intiladi. (Umar Xayyom)

Borliq senga nima yaxshi ekanligini biladi. Ertami, kechmi u seni kerakli odamlar bilan uchrashtirib, keraksizlaridan ajratadi. Hayotda tanaffus, albatta, bo‘lishi kerak. Bu shunday tanaffuslarki, siz bilan hech nima sodir bo‘lmaydi, siz oddiygina o‘tirib Olamga, Olam esa sizga qaraydi. (Karl Rens)

Baxt har bir odamga keladi. Bu, albatta, seshanbadan chorshanbaga o'tadigan kundamas. Yanvar yoki iyunda, yoki yaxshi ob-havoda bo'lishi shart emas. Biroq, albatta, kutilmaganda...¹³³.



Topshiriq

2- topshiriq. Matndagi imloviy xato yozilgan so'zlarni toping. To'g'rilab daftaringizga yozing.



1-mashq. Tuyuqlarni o'qing. Omonimlar lug'atidan foydalanib, so'zlarining ma'nosini topib ko'chiring.

Sham yanglig' yonadur boshimda **o't**,

Ko'z yoshimdin yer yuzinda undi **o't**.

Qon yoshim qildi yo'lungni lolazor,

Muncha taqsir ayladim, qonimdan **o't**. (Yusuf Amiriy)

Chekkkan azoblar-ey qalblardan **o'chmas**,

G'amdan kuygan yurak, suv sepsang **o'chmas**.

Fe'lingni keng qilgil, kechirguvchi bo'l,

Chin mardning odati ezgulik, **o'chmas**. (Omonulloh Mutal)



2-mashq. Jadvalda berilgan paronim so'zlarning ma'nosini topib yozing.

Yonilg'i	Yoqilg'i
Ilik	Ilk
Indamoq	Undamoq
Palak	Falak
Tariff	Ta'rif
Urish	Urush
Undash	Undosh
Xalos	Xolos
Yaroqsiz	Yarog'siz

¹³³ www.ziyonet.uz.

Nazariy ma'lumot. Variantdosh soʻzlar ikki yoki bir necha xil yozilishga ega. Hammasi ham imlo qoidalariga binoan toʻgʻri yozilgan hisoblanadi. Bu soʻzlarni paronim va sinonimlardan farqlash kerak. Paronimlarda yozilishi va aytilishi bir-biriga yaqin boʻlgan ikki soʻzning maʼnolari butunlay boshqa-boshqa boʻladi. Sinonimlarda esa shakli butunlay oʻzgacha, maʼno qirralarida ham farq sezilib turadi. Variantdosh soʻzlar maʼnoda zarracha farq qilmaydi. U bir soʻz. Faqat yozilishida farq bor, xolos. Buning sababi bir varianti fonetik yozuv asosida boʻlsa, ikkinchi varianti morfologik yoki boshqa yozuv qoidasi asosida yozilganidir. Demak, bir soʻz turli yozuv (tamoyili) qoidasi asosida ham yozilishi mumkin ekan¹³⁴.



3-mashq. Variantdosh soʻzlarga yana misol keltiring. Ular ishtirokida gap tuzing.

Mahtal – maʼtal, nevara – nabira, odob – adab, ajdarho – ajdaho, shohsupa – shosupa, yastanmoq – yaslanmoq.



4 - mashq. Toponimlar (joy nomlari) lugʻatidan olingan maʼlumotni oʻqing. Lugʻatdan foydalanib, oʻzingiz yashab turgan viloyat, shahar, qishloq nomlarining maʼnosini bilib oling.

Chilonzor – Beshogʻoch dahasi mavzalaridan biri. N.G. Mallitskiy fikricha, Chinorzor keyinchalik Chilonzor boʻlib ketgan. Baʼzilar bu joy chilon (jiyda) oʻsimligidan nom olgan deydi. Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida ham Chilonzor degan qishloqlar bor¹³⁵.

Ohangaron – sh., Ohangaron tumani markazi, daryo, vodi. Forscha-tojikcha ohangar «temirchi» degani, -on - koʻplik qoʻshimchasi (Ohangaron «temirchilar»); q. Angren¹³⁶.

¹³⁴ Oʻzbek tilining variantdosh soʻzlari qisqacha luhʼati.

^{135,172} Qorayev S. Toponimika. Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2006



1- topshiriq. Berilgan matn bilan tanishib chiqing. Topshiriqlarga javob bering.

Matnli test

E'tibor berganmisiz – yo'qmi, bilmadim-ku, sizning sadoqatda tengsiz do'stingiz bor. Qachon xohlasangiz, siz bilan hamsuhbat bo'ladi. Shod paytingizda quvonchingizga quvonch qo'shadi. G'amgin pallada dardingizni oladi. Bilmaganingizni o'rgatadi. Adashsangiz, to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Yaqin kishilaringiz burilib ketganda sizni tark etmaydi. Xizmati uchun hech nima(2). Yillab unutib, tashlab qo'ysangiz indamaydi. Hatto uloqtirib yuborsangiz ham arazlamaydi. Tag'in chorlasangiz, yetib kelib, xizmatingizni kelaveradi.

(O'.Hoshimov)

1. Matnga mos nom qo'ying.

- A) Do'stlik – ulug' ne'mat. B) Kitobning lug'aviy ma'nosi.
C) Barcha azizlik kitobdandir. D) Beminnat do'st.

2. Nuqtalar o'rniga mos so'zni qo'ying.

- A) sotib olmaydi B) tama qilmaydi
C) talab qilavermaydi D) olib qolmaydi

3. Matnni to'g'ri xulosalang.

- A) Bu do'stning nomi – ota-ona. B) Bu do'stning nomi – kitob.
C) Bu do'stning nomi – aql. D) Bu do'stning nomi – farosat.

44-45-§. SO‘Z TARKIBI. QO‘SHIMCHALARNING VAZIFASIGA KO‘RA TURLARI



Topshiriq

1-topshiriq. Vatandosh, oilaviy, yigitchilik, baxtlimiz, o‘ynoqi so‘zlarini ma’noli qism (asos va qo‘shimcha)larga ajratib, ularni izohlang.

Muhtaram o‘quvchi! Nutqingizdagi so‘zlarga hech diqqat qilganmisiz? Ular bir xil shaklda qotib qolgan emas. Nutq talabi bilan ular turli xil qo‘shimchalarni qabul qiladi, o‘zgaradi, turfa ma’nolarni ifodalash uchun xoslanadi. Misol uchun birgina «o‘z» so‘ziga e‘tibor bering:

Ko‘rinib turibdiki, shakl o‘zgarishi bilan so‘zning ma’nosida ham jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Shu vajdan har bir so‘zni tarkibiy qismga ajratish hamda mazkur qismlarning qanday ma’no anglatayotganligini anglab yetish mumkin. Bu esa tilni bilishdagi eng muhim bosqich sanaladi.¹³⁷ Masalan, «Yigitlik chog‘idanoq mehnat va toatga bo‘ysungan kishining yulduzi naqadar qutlug‘!»¹³⁸ o‘g‘itidagi yigitlik so‘zini yigitcha, yigitchilik, yigitning so‘zlari bilan almashtirib ko‘ring-chi – sira mumkin emas, mantiq buziladi.

Vatanim, tinch, ezgulik, zargar, ovoragarchilik, sinfdosh, kuyla so‘zlaridagi birinchi qism: **vatan, tin, zar, ovora, sinf, kuy** – asos hisoblansa, **-im, -ch, -lik, -gar, -garchilik, -dosh, -la** qismlari qo‘shimchalardir.

Nazariy ma’lumot. Tildagi so‘zlar ma’lum qonun-qoidalarga ko‘ra asos va qo‘shimchalarga ajratiladi. Ya’ni asos va unga qo‘shilgan qo‘shimcha orasida ma’no bog‘liqligi bo‘lishi kerak. Aks holda mantiq buziladi. Masalan, **bolalarcha** so‘zini bola – asos, **-lar, -cha** qo‘shimcha deb ajratish noto‘g‘ri, chunki bu so‘zda ko‘plik ma’nosi yo‘q, balki ish-harakatning qay holda bajarilish belgisi ma’nosi bor.

¹³⁷ A. NURMONOV, A. SOBIROV, N. QOSIMOVA. HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILL. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 1-bosqich talabalari uchun darslik TOSHKENT — «ILM ZIYO» — 2010

¹³⁸To‘xliyev, B Adabiyot 11-sinf: darslik-majmua/Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, Davlat ilmiy nashriyoti, 2018



2-topshiriq. Matnni o'qing, so'zlarni asos va qo'shimchalarga ajrating.

Undagi fikr yuzasidan o'z mulohazangizni bildiring.

Odamda, harchand uringani bilan o'zgartira olmaydigan g'alati fe'l-atvorlar bo'ladi. Mening ham qiziq odatim bor: birovni ranjitib qo'ysam (adolatli xafa qilgan bo'lsam ham) o'sha odamdan ko'proq o'zimning dilim vayron bo'lib yuradi. Bu odat onamdan yuqqan shekilli. Oyim bizlarga hech qattiq gapirmas, mabodo xafa qilib qo'ysa birpasdan keyin o'zi yalinar edi. Faqat bir marta meni qarg'agan, yomon qarg'agan. O'shanda ayb kimda bo'lganini hali ham bilmayman.¹³⁹

Nazariy ma'lumot. Qo'shimchalar ma'no va vazifasiga ko'ra ikki xil bo'ladi: **so'z yasovchi qo'shimchalar, shakl yasovchi qo'shimchalar. So'z yasovchi qo'shimchalar.** Bu qo'shimchalar turli so'zlarga qo'shilib, uning ma'nosi bilan bogiangan yangi so'z hosil qiladi. Masalan, **-m (-im, -um)** qo'shimchasi harakat va holat anglatgan ***bilmoq, termoq, to'plamoq, kechirmoq, tuzmoq*** kabi fe'llardan narsalik ma'nosini, ish-harakat natijasini ifodalovchi ot yasashga xizmat qiladi: ***bilim, terim, to'plam, kechirim, tuzum*** kabi.¹⁴⁰

Shakl yasovchi qo'shimchalar. Bu qo'shimchalar so'zning leksik ma'nosini o'zgartirmaydi, yangi so'z yasamaydi, balki shu so'zning grammatik shaklini yasaydi, unga yangi grammatik ma'no qo'shadi, kichraytirish, erkalash, takror, davomlilik kabi har xil qo'shimcha ma'no anglatuvchi yoki so'zning gapda biror vazifani bajarishga moslashgan shakllarini yasaydi. Masalan: *paxta-ning, paxta-dan, paxta-ni, paxta-ga; vatan-im, vatan-ing, vatan-i; kelgan-man, kelgan-san; o'qi-di-m, o'qi-di-ng; ikki-nchi, kel-ar, kel-ib; uy-cha, qush-cha, qo'zi-choq, kattagina* kabi.¹⁴¹

^{140,177} Qalandar Sapayev. HOZIRGI O ZBEK TILI(morfemika, so'z yasalishi va morfologiya) www.ziyouz.com kutubxonasi



3-topshiriq. Matni o‘qing. So‘z yasovchi va shakl yasovchi o‘shimchalarni aniqlang va ularni quyidagi chizmalarga joylashtiring. Matnda nima haqida gap boryapti, uni tengdoshlaringiz bilan fikr almashing.



Afg‘onistonning Sind daryosi bo‘yida Jaloliddinning 600–750 kishilik qo‘shini bilan 30000 kishilik mo‘g‘il qo‘shini yovlashdi. Aytishlaricha, o‘sha jangda odamlarning qoni shu darajada ko‘p to‘kildiki, Sind daryosida suv o‘rnida qon oqdi. Sulton Jaloliddinning

navkarlari dushman bilan sherdek olishib, faqatgina Jaloliddinning o‘zi daryoning narigi qirg‘og‘iga tirik suzib o‘tib ketdi: omon qoldi.

Bu jangni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib turgan Chingizxon hayratdan shunday deb yuborganini bilmay qoldi:

– Otadan dunyoda hali bunday o‘g‘il tug‘ilmagan. U sahroda sher kabi g‘olib jangchi, daryoda esa nahang kabi botirdir... Otaga shunday o‘g‘il zarurki, u ikki girdob: olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqa olsin...

Biz ana shunday arslon haybatli, botir va qo‘rqmas, dushman oldida aslo tiz cho‘kmas bobolarimizga farzand ekanligimizdan hamisha faxrlanamiz. Bir umr ulardan o‘rnak olish orzusi bilan yashab o‘tamiz.

So‘z yasovchi qo‘shimchalar	Shakl yasovchi qo‘shimchalar

Nazariy ma’lumot. Shakl yasovchi qo‘shimchalarlar sintaktik munosabat (so‘zlarni bog‘lash-bog‘lamaslik)ni bildirish-bildirmasligiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi¹⁴²:

¹⁴² A. NURMONOV, A. SOBIROV, N. QOSIMOVA. HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejarining 1-bosqich talabalari uchun darslik TOSHKENT — «ILM ZIYO» — 2010

1. **Sintaktik munosabat bildirmaydigan qo‘shimchalarlar.** Bunday qo‘shimchalarlar lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar sanaladi.

2. **Sintaktik munosabat bildiradigan qo‘shimchalar.** Bunday qo‘shimchalar sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar hisoblanadi. Sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalarga fe’llardagi zamon, shaxs-son, mayl; otlardagi egalik, kelishik qo‘shimchalari va ismlarni kesimga xoslovchi shakllar (-man, -sam, -miz, -siz, -dir) kiradi. Fe’llardagi zamon, shaxs-son va mayl qo‘shimchalari tuslovchi qo‘shimchalar deyiladi, otlardagi **egalik va kelishik** qo‘shimchalari **turlovchi qo‘shimchalar** hisoblanadi.



4-topshiriq. Shakl yasovchi qo‘shimchalarni 6-sinfda olgan bilimlaringiz asosida quyidagi jadvalga joylashtiring. Qo‘shimchalarning qanday grammatik ma’no ifodalashi va qanday grammatik vazifa bajarishini izohlang.

Fe’l	Ot	Sifat	Son	Olmosh	Ravish



5-topshiriq. Matnni o‘qing. So‘zlarni bir-biriga bog‘lashga xizmat qilayotgan qo‘shimchalarni aniqlab, ularni so‘z birikmasi va sodda yig‘iq gap shaklida ko‘chiring. Istiqloq, mustaqillik, muxtoriyat tushunchalari xususida fikr yuriting.

U butun nutqini Istiqloqlga muhabbat uyg‘otishga qaratdi:

– Istiqloq! Mustaqillik. «Ollohga ming qatla shukurlarkim, bu kunlarga ham yetishdik. Ko‘chalarda jar solib: «Suyunchi!», «Suyunchi!» deb uyma-uy yuradigan zamon keldi!

Muxtoriyat!..Oh-ho!.. Bunga yetmoq niyatida ne-ne kurashlar bo‘lmadi? Ne-ne asl farzandlarimiz jonlarini fido qilib, qurbon bo‘lib ketmadilar. Istiqloqning bu qadar jon fido qilgulik ne sehri, ne mo‘jizasi borki, asrlardan buyon insoniyat Istiqloq uchun, hatto bir quloq yeri bor xalqlar ham jon olib, jon berib kurashgan. Axir, bizning Turon yurtimiz go‘zallikda ham, boylikda ham Xudoning marhamati

yozilgan bir zamin emasmi? Yillar bo‘yi talanmadimi? O‘zimiz qaytadan ega bo‘lganimizga shukurlar! Muborak bo‘lsin!

Alisher Navoiy «Oltin qafas» deb karomat qilganlaridek, qafasda parvoz qilib bo‘lmaydi! Qafasdagi qushning sudraluvchi jonivordan ne farqi bor, axir!

Yurt bosqinlari bizning qanotimizni qayirdi. Vaholanki, xalqimizning jahonga parvoz qilarli qanoti bor emasmi? Endi qayrilish bilmasin bu qanot? Iloho, omin!¹⁴³

(Shukrullo. «Tirik ruhlar»)

Nazariy ma’lumot. O‘zbek tili asrlar davomida arab, fors-tojik hamda rus tillari bilan o‘zaro aloqada yashab keldi. Buning natijasida tilimizga o‘sha tillarga xos bo‘lgan yasalmalar va so‘z yasaliş qolipi ham o‘zlashdi. Shulardan biri old qo‘shimchali so‘zlar va old qo‘shimchalar sanaladi. Bular quyidagilar¹⁴⁴:

ba-: batafsil, badavlat, bahaybat; **be-:** bexavotir, beg‘ubor, befarosat; **no-:** noumid, noqulay, norozi; **ser-:** serzavq, sergap, serhosil. **ba-**, **ser-** qo‘shimchalari, asosan, otga qo‘shilib, asosdan anglashilgan belgi-xususiyatning me’yordan ortiq, ko‘p ekanligini bildirsa, **be-;** **no-** qo‘shimchalari xuddi shu narsalarga ega emaslikni anglatadi. Solishtiring: baquvvat, serma’no, behayo, noo‘rin. Mazkur qo‘shimchalar **-li**, **-siz**, **-dor** qo‘shimchalari bilan sinonimik munosabatida bo‘la oladi.

Masalan: badavlat – davlatli, beqiyos – qiyossiz, noo‘rin – o‘rinsiz, sertashvish – tashvishli.¹⁴⁵



6-topshiriq. Quyidagi old qo‘shimchalar ishtirokida so‘zlar yasang, ularni ma’nodoshlari bilan almashtiring. Ma’nolardagi farqlarni tushuntirib bering. Ular ishtirokida «Hashardamiz» mavzusida kichik matn yarating.

Be-, ser-, -ba-, bo-, no- .

¹⁴³ M.Abuzalova, G.Toirova. Hozirgi o‘zbek tili (Morfologiya) Toshkent-2019.8-bet.

¹⁴⁴ A. NURMONOV, A. SOBIROV, N. QOSIMOVA. HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejarining 1-bosqich talabalari uchun darslik TOSHKENT — «ILM ZIYO» — 2010

¹⁴⁵ A. NURMONOV, A. SOBIROV, N. QOSIMOVA. HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejarining 1-bosqich talabalari uchun darslik TOSHKENT — «ILM ZIYO» — 2010



1-mashq. Uyga vazifa. Berilgan matndagi soʻzlarni asos va qoʻshimchalarga ajrating, ularni soʻz yasovchi, sintaktik shakl yasovchi va lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimchalarga ajratib, quyidagi jadvalga koʻchiring.

VAZIR TUTISH TUZUGI

Amr qildimki, vazirlar ushbu toʻrt sifatga ega boʻlgan kishilardan boʻlishi lozim: birinchisi – asillik, toza nasllilik; ikkinchisi – aql-farosatlilik, uchinchisi – sipoh-u raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalada boʻlishlik; toʻrtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

Kamolotga erishgan vazir ulkim, davlat muomalalarini tartibga keltirib, mulkiy va moliyaviy ishlarni toʻgʻrilik bilan, asli-nasli tozaligini koʻrsatib, ajoyib tarzda bajaradi. Olgulik joyidan olib, bergulik yerga beradi. Dushmanlik va jabr-zulm qilmaydi. Birovdan yomonlik axtarmaydi, aytsalar eshitmaydi...

Qaysi vazir gʻiybat gaplarni aytsa, uydirma gaplarga quloq solsa, jabr-zulm qilsa, oʻziga yoqmagan kishilarni yoʻqotish payiga tushsa, uni vazirlikdan tushirish lozim. Nasli-yu zoti yomon, hasadchi, gina, kek saqlovchi, qora koʻngillik kishilarga zinhor vazirlik lavozimi berilmasin.

Aqli, bilimdon va hushyor vazir shunday boʻlurki, bir toʻgʻri tadbir qoʻllab gʻanim dushmanini parokanda qilib yubora oladi, murosalyu madora, xushmuomalalik bilan sipohni birlashtirib, dushman lashkarlarini oʻziga rom qiladi¹⁴⁶.

(«Temur tuzuklari» dan)

Namuna:

Soʻz yasovchi	Lugʻaviy shakl yasovchi	Sintaktik shakl yasovchi

¹⁴⁶ M.Abuzalova, G.Toirova. Hozirgi oʻzbek tili (Morfoloqiya) Toshkent-2019.13-bet.

46–§. LUG‘AVIY SHAKL YASOVCHI QO‘SHIMCHALAR



Topshiriq

1-topshiriq. Berilgan matnda *-lar* qo‘shimchasi qanday uslubiy vazifa bajargan? Bu qo‘shimcha ko‘plik ma’nosidan tashqari qanday ma’nolar ifodalaydi? Fikringizni misollar yordamida izohlang.

Oyog‘imga
 botmon toshlarni
 bolalikdan bog‘lab qo‘ydi, kim?
 Endi xalos bo‘lmoqqa yetmas
 yovuzlardan asragan umrim.
 Xudo bergan soniyalarni
 xarob qildi qaysi g‘alamis?¹⁴⁷

(Shavkat Rahmon)



Topshiriq

2-topshiriq. Berilgan matnda dona son hosil qiluvchi qo‘shimcha qanday uslubiy vazifa bajargan?

Magar bir lagandan osh yegan bilan,
 Yoki bitta tilda so‘z degan bilan,
 Ular hali butkul yelkadosh emas.
 To‘g‘ri kelsa agar dili diliga,
 Sadoqati bo‘lsa tuqqan eliga,
 Ular vatandoshdir har zum, har nafas¹⁴⁸.

Nazariy ma’lumot. Otlardagi erkalash-kichraytirsh, ko‘plik shakli, o‘rin shakli, chegara shakli, o‘sxshatish va qarashlilik shakllari; sifatlardagi daraja shakllari, sonning ma’no turlarini hosil qiluvchi shakllar, gumon olmoshini hosil qiluvchi qo‘shimchalar, fe’llardagi bo‘lishsizlik shakli, fe’lning vazifa shakllari (

¹⁴⁷ Rahmon, Shavkat. Saylanma.-T.: 1997.

¹⁴⁸ Oripov Abdulla. Adolat ko‘zgusi: She’rlar, maqolalarSuhbatlar, Tarjimalar-T.: Adolat, 2005

sof fe'l shakllaridan tashqari), nisbat shakllari va fe'ning modal ma'no hosil qiluvchi shakllari **lug'aviy shakl yasovchi** qo'shimchalardir.

Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar so'zga, gapga turli xil qo'shimcha ma'nolar yuklaydi. Masalan, ko'plik, kichraytirish, erkalash, o'xshatish kabi. Lekun bunday qo'shimchalar turli uslubiy vazifalar bajarishga ham xizmat qiladi. Masalan, Hayot nafas olish miqdori bilan o'lchanmaydi. U nafasni tutib turishga bizni majbur etgan onlar miqdori bilan o'lchanadi.

Vaqt bizdan har bir soniyada o'tib ketaveradi. Uni hozirning o'zidayoq sarflash kerak. Ushbu matnda onlar so'zi tarkibidagi *-lar* qo'shimchasi ma'noni kuchaytirishga xizmat qilgan¹⁴⁹.



Topshiriq

3-topshiriq. Quyidagi gaplardagi lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalarning qanday uslubiy ma'no ifodalayotganini izohlang. Ostiga chizilgan so'zlarni ma'noli qismlarga ajrating.

1. Qanday baxtiyorsan Vatanim endi,
Yop-yorug' kelajak bari **seniki**.
Sen **minglab** azamat botirga doya,
Arslon **yigitlarning** bari seniki. (G 'afur G 'ulom)¹⁵⁰
2. Agar jangda ish **bermasang**,
Olmasang botir deb nom.
Dushmanni yengib **qaytmasang**,
Bergan sutlarim harom. (Hamid Olimjon)
3. Deydilarki, seni **ko'rganda**
Ko'zlarimda yonar jonli o't,
O'sha o'tning **yolqinlarida**
Sendan o'zga bor narsa unut. (Zulfiya)

¹⁴⁹ Har kungi hikmatlar/To'plovchi A.Bedilova. –T.:”DAVR PRESS” HMU, 2014.

¹⁵⁰ Saodat SULTONSAIDOVA, O'limas SHARIPOVA O'ZBEK TILI STILISTIKASI TOSHKENT - 2009



4-topshiriq. Berilgan matndagi shakl yasovchi qo‘shimchalarni aniqlang va ularning vazifasini tushuntiring. Ushbu hikoyatdan olgan xulosangizni tengdoshlaringiz bilan o‘rtoqlashing.

Chumoli

Bir o‘rmonga o‘t ketib yong‘in bo‘libdi. Jonivorlarning bir qismi kuchlari yetgan narsa bilan suv tashib, o‘tni o‘chirmoqchi bo‘lishibdi. Ikkinchi qismi esa bundan hech narsa chiqmaydi deb, chetroqqa chiqib tomosha qilib turibdi. Bir chumoli o‘tni o‘chirish uchun hovuchida suv olib ketayotgan ekan. Buni ko‘rgan qarg‘a uning ustidan kulib debdi: «Mana shu suving bilan olovni o‘chiraman, deb o‘ylayapsanmi?» Chumoli unga javob beribdi: «Bilaman, bu suv bilan o‘tni o‘chirib bo‘lmaydi. Lekin men bu harakatim bilan kim tomonda turganimni bilaman».

Bilingki, to‘qilgan matoda har bir ipning o‘z o‘rni bor. Matoning qaysi yeridan ip chirigan bo‘lsa, mato shu yerdan boshlab yirtiladi. Hayot zanjirida ham xuddi shunday: har bir odamning o‘z o‘rni va vazifasi bor. Muhimi – zanjirning uzilishiga sen sababchi bo‘lib qolmasligingdir¹⁵¹.



5-topshiriq. Quyidagi rasmlarning qaysi davrga oidligini, nomini aniqlang. Ularni bir-biriga solishtirib matn yarating. Unda lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar ishtirok etsin.



¹⁵¹ “Liderlar” klubi kanalidan.



Uyga vazifa. Berilgan matnni eʼtibor bilan oʻqib chiqing va oʻz fikr-mulohazalaringizni esse tarzida yozma bayon eting. Matndagi lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimchalarni aniqlab, ularning vazifasini izohlang.

Oppoq qogʻoz va qora dogʻ

Professor darsxonaga kirib kelishi bilan oq talabalaridan ajoyib bir testga tayyorgarlik koʻrishlarini soʻradi. Talabalar biroz tashvishga tushgan holda test boshlanishini kutishar edi. Muallim har doimgidek test qogʻozini orqa oʻgirib tarqatib chiqdi. Talabalar test savollarini oʻqish maqsadida qogʻozni oʻgirishdi. Qogʻoz oʻrtasida bitta qora nuqtadan boshqa hech qanday topshiriq yoʻq edi. Bundan ajablangan talabalar bir-birlariga hayron qarab qolishdi.

Professor talabalarning yuzida ajablanishni koʻrishi bilan ularga: «Men qogʻozda nimani koʻrayotgan boʻlsangiz, shu haqda yozishingizni soʻrayman»,— dedi. Talabalar ikkilanish bilan tushunarsiz shartni bajarishni boshladilar. Darsning oxiriga kelib, professor barchadan qogʻozlarni yigʻib olib, har bir talabaning yozgan javobini ular oldida ovoz chiqarib oʻqiy boshladi. Talabalarning barchasi faqatgina qora nuqta haqida, uning qogʻozning oʻrtasida joylashgani haqida yozgan, oʻz fikrini bayon qilgan edilar.

Javoblar oʻqib boʻlingach, oraga sukunat choʻmdi va biroz oʻtib professor talabalarga: «Men bu javoblarga baho qoʻymoqchi emasman. Sizlarni mulohazaga chorlamoqchiman, xolos. Hech kim oʻz javobida qogʻozning oq qismi haqida hech narsa yozmabdi. Barcha diqqat-eʼtiborni qora nuqtaga qaratibdi. Afsuski, xuddi shu holat bizning hayotimizda ham mavjud. Biz har doim insonlarning yomon odatlariga eʼtibor beramiz, xuddi qogʻozdagi qora nuqta kabi. Aslida qogʻozning oq joyi qora nuqtaga qaraganda ancha darajada koʻp edi. Toʻgʻri, oʻsha qora nuqtaga ham eʼtibor qaratishimiz, uni toʻgʻrilashga yordam berishimiz kerak. Lekin bu oq joylarni unutmagan holda boʻlishi lozim. Qora nuqta esa oq joylarga nisbatan juda ham kichkina, koʻrinmasdir», — dedi¹⁵².

(Mirnosir Hasanov tarjimasi)

¹⁵², ¹⁵² «Liderlar» klubi kanalidan.

47–§. LUG‘AVIY SHAKL YASOVCHI QO‘SHIMCHALAR YUZASIDAN AMALIY ISH



Topshiriq

1-topshiriq. Hikoyani o‘qib chiqing. Siz uni qanday nomlagan bo‘lar edingiz? Unda noo‘rin qo‘llangan qo‘shimchani aniqlang.



TARBIYA

Qadimda uch mergan ustoz oralarida kim ta’lim bermoqda ilg‘orligini aniqlamoqchi bo‘lishibdi. Uchovlon ham bittadan shogirdlarini chaqirishibdi. Har bir shogird o‘z ustoziga tosh otib, bu san’atni qanchalar o‘zlashtirishini namoyish etishi kerak ekan. Birinchi ustoz shogirdi otgan toshlarga epchillik bilan chap beribdi. Ikkinchi ustoz otilgan toshlarni ustalik bilan shogirdiga qaytaribdi. Uchinchi ustozning shogirdi qancha majburlashmasin ustoziga tosh otishdan bosh tortibdi. Shunda xolis hakamlar shu uchinchi ustoz-shogirdni g‘olib deb topishibdi. Qolgan ikkov ustoz norozi bo‘lib:

– Axir, ular tosh otish san’atini ko‘rsatib berishmadi-ku!-debdi.

–To‘g‘ri, – debdi hakam, – lekin u shogirdini ustoziga tosh otmaydigan qilib tarbiyalabdi¹⁵³...

Unutmang, ma’naviy tarbiya jismoniy tarbiyadan ustundir.

Ota-onasi va ustozini e‘zozlagan inson yuksalmog‘i muqarrar!



Topshiriq

2-topshiriq. Matn mazmuniga mos xalq maqollaridan yozing.



3-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi mos qo‘shimcha-lardan birini qo‘ying.

Imom G‘azzoliy nasihatlari



1. Yo‘l va ko‘chalarda to‘planish...(-ib, -gach) turmang. 2. Suhbatlash...(-moq, -ish) uchun do‘konlarni tanlamang. 3. Fikr bildir...(-ayotgan, -ganda): «Bu – mening qarashim», deb ayting.

4. Xushbo‘y hidli narsalardan foydalan...(-ish, -gan)da, me‘yorni biling. 5. Sizga nisbatan muomala me‘yorini buz...(-moqchi, -gan) larga ham vazmin bo‘ling. 6. Har yerda maqbul so‘z ayting, chiroyli gapir... (-mak, -ish)ga harakat qiling. 7. Tinglov-chingiz bo‘l...(-sa, -gan)dagina gapiring. 8. Sot...(-ayotgan,-gan) narsangizni yoqtirmay, qaytarib olib kelishsa, qabul qiling. 9. Chanqaganda, suv ich...(-moq,-ish)dan oldin og‘zingizni chayqang. 10. Egasining ruxsatini ol ...(-ar, -mas)dan, birovning narsasiga tegmang. 11. Gapir...(-ayotgan, -gan)da qo‘l, barmoqlar bilan ortiqcha ishorat qilmang.¹⁵⁴



4-topshiriq. «To‘rtinchisi ortiqcha» usulidan foydalanib, quyida berilgan lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar qatoridan ortiqchasini belgilang va izohlang.

1. -moq, -sh, -ish, -moqchi, -mak, -maslik.
2. -gan, (-kan, -qan), -r, -ar, -b(-ib), -di, -yotgan(-ayotgan).
3. -ta, -tadan, -larcha, -da, -inchi, -ovlon.
4. -ar, -may, maslik, -masdan, -ganча(-kancha, -qancha).
5. -la, -a, -i, -imsira, -ish, -qa, -vchi(-uvchi).

¹⁵⁴ «Liderlar» klubi kanalidan.



Topshiriq

5-topshiriq. Test topshiriqlarini bajaring.

1. Quyida keltirilgan gapda vazifasiga ko‘ra qanday qo‘shimchalar qo‘llanmagan? Hind elida bir ajib daraxt borki, kimki uning mevasidan yesa, hech qachon qarimaydi va o‘lmaydi.

- A) sintaktik shakl yasovchi B) lug‘aviy shakl yasovchi
C) fe‘lning bo‘lishsizlik shakli D) so‘z yasovchi

2. Lipillab yonayotgan shamning qizg‘ish shu‘lasida Olimxonning iztirob qalqigan kulcha yuzi qorayib ko‘rinmoqda edi. Ushbu gapda qo‘llangan lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar miqdorini aniqlang.

- A) 6 ta B) 5 ta C) 4 ta D) 7 ta

3. Vahobjon boyagi qiz ko‘rsatgan uy eshigining tugmasini bosdi. Gapdagi so‘zning ma‘nosiga qo‘shimcha ma‘no yuklaydigan, so‘zning ma‘nosini biroz o‘zgartiradigan qo‘shimchalar miqdorini toping.

- A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 5 ta

4. Sonning ma‘no turlarini hosil qiluvchi qo‘shimchalar vazifasiga ko‘ra qanday qo‘shimchalar sirasiga mansub?

- A) so‘z yasovchi qo‘shimchalar B) shakl yasovchi qo‘shimchalar
C) old qo‘shimchalar D) sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar

5. Quyidagi matnda lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida necha o‘rinda fonetik o‘zgarish ro‘y bergan? Keyin boshqa bir ta’birchini chaqiradi va ko‘rgan tushining ma‘nosini undan ham so‘raydi. U: «Sening umring hamma qarindoshlaring umridan uzun bo‘ladi», -debdi. Shunda Xorun ar-Rashid: «Hamma aqlning yo‘li bittadir va ikkala iboraning negizi bir yerga boradi, ammo bu ibora bilan u iboraning orasida farq bag‘oyat ko‘pdir», – deydi va unga yuz tillo berishni buyuradi.

- A) 1 ta B) 4 ta C) 2 ta D) 3 ta



Uyga vazifa. Berilgan matnni o‘qing va unda ilgari surayotgan g‘oyani aniqlang. Matndagi so‘zlar tarkibidagi lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalarni aniqlab, izohlang. Ularning qanday uslubiy vazifa bajarayotganligini daftaringizga yozing.

ICHINGDAGI BO‘RILAR



Bir bolaning buvasi unga hayot saboqlaridan gapirib shunday dedi:

– Bolaginam, har bir insonning ichida go‘yo ikkita bo‘ri yashaydi. Ular doimo bir-biri bilan kurashadi. Bo‘rilarning biri ochko‘z, badjahl, yolg‘onchi bo‘lsa, ikkinchisi rostgo‘y,

mehribon, ochiqko‘ngil va saxiydir.

Buvasining gaplaridan ta’sirlangan nabira so‘radi:

- Buvajon, oxirida qaysi bo‘ri yutib chiqadi?
- Sen qaysi birini ko‘proq boqsang, o‘shanisi yutib chiqadi, – dedi buvasi¹⁵⁵.

48–§. QO‘SHIMCHALARDA SHAKLDOSHLIK



Topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi shakli bir xil bo‘lgan (omonim) qo‘shimchalarni so‘zlarga qo‘shing. Hosil bo‘lgan so‘zlar tarkibida qanday vazifa bajarayotganini aniqlang, namunadagidek yozing.

-la, -la; -lab, -lab; -larcha, -larcha; -moq, -moq; -in, -in, -ch, -ch, -ay, -ay, -a, -a.

Namuna: ishla (fe‘l yasovchi); sen-la (bilan ko‘makchisining qisqargan shakli); savala (fe‘lning lug‘aviy shakli)



Topshiriq

2-topshiriq. Quyidagi so‘zlar tarkibidagi shakli bir xil bo‘lgan (omonim) qo‘shimchalarning qanday vazifa bajarayotganligini izohlang.

Gulsiz, onamsiz, o‘qiyapsiz; kitobim, bilim, o‘qiganim yo‘q; guldon, qadrdon; suratkash, zahmatkash; saylov, o‘quv; o‘quvchi, sehrlovchi.

¹⁵⁵ “Liderlar” klubi kanalidan

Nazariy ma'lumot. Tilimizda shunday qo'shimchalar borki, ularning shakli bir xil, ammo bajargan vazifasi har xil bo'ladi. Masalan, Onam, to'plam, qaram, o'qidim so'zlarida shakli bir xil bo'lgan *-m* qo'shimchasi bor, lekin bu qo'shimchalar turli xil vazifalar bajargan:

1. Onam so'zida sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha bo'lib, ona so'zini qaratqich kelishigi shaklidagi so'zga bog'laydi. Mening onam.
2. To'plam so'zida esa fe'ldan ot yasashga xizmat qilgan.
3. Qaram so'zida sifat yasashga xizmat qilgan.
4. O'qidim so'zida tobe so'zni hokim so'zga bog'lashga xizmat qilgan: Men o'qidim.

Qo'shimchalarning shakldoshligi faqat so'z yasovchi qo'shimchalar, faqat sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar yoki faqat lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar doirasida yoxud aralash holda kuzatilishi mumkin. **Masalan:**

1. Faqat so'z yasovchi qo'shimchalar shakldoshligi: **-lik: bolalik, qishlik.**
2. Faqat sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar shakldoshligi: **-man: o'quvchiman, o'qiyapman.**
3. Faqat lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar shakldoshligi: **-n: o'ylandi, to'plandi.**
4. Har xil vazifa bajaruvchi: **Qahqaha, ko'tara (savdo), sana, bora-bora, aytaman.**



Topshiriq

3-topshiriq. Berilgan matnda ajratib ko'rsatilgan qo'shimchalarning shakldosh qo'shimcha ekanligini izohlang.



Ilmning qudrati

Mirzo Ulug'bekdan so'radilar:

– Siz nega siyosatni qo'yib, ilm bilan mashg'ul bo'ldingiz?

Mirzo javob berdilarki:

– Men ilmning qudratini bobomdan

bildim. Bir safar men bobomning tizzasida o'tirar edim, shu payt huzuriga bir kishi kirdi, bobom shoshib uning istiqboliga o'rnidan turdi – men tizzasidan tushib ketdim. Keyin bilsam, u zot olim ekan, bobomning piri komili ekan. Ilmning obro'-nufuzini men ana o'shanda ko'rdim.

(«Sharq hikoyat va rivoyatlari» kitobidan)



4-topshiriq. Quyidagi so'zlar ishtirokida gap tuzing. Qo'shimchalarning vazifasini aniqlab, shakldoshligini asoslab bering.

Sinfdosh – ohangdosh, o'nlab – saharlab, kiyin – qishin-yozin, bolam – keldim, kimdir – yozdir, ko'pay – aytay, ko'rgin – g'amgin, tinimsiz – ishlayapsiz.



Uyga vazifa. Berilgan suratdan foydalanib matn yarating, unda shakldosh qo'shimchali so'zlar ishtirok etsin. Yaratgan matningizga sarlavha qo'ying.



49–§. QO'SHIMCHALARDA MA'NODOSHLIK



1-topshiriq. Quyidagi so'zlarni ma'noli qismlarga ajrating. Qo'shimchalarning ma'nodoshlarini topib, namunadagidek yozing.

Itoatli, tilshunos, guldor, aravakash, qizaloq, itoatkor, qizcha, gulli, tilchi, aravachi, beruxsat, minglab, kimdir, mingtacha, allakim, ruxsatsiz, kelyapti, serunum, kelmoqda, unumdor.

Namuna: Itoatli – itoatkor, ...



Topshiriq

2-topshiriq. *-chi, -li, -don, -zor, -siz, -cha, -sira, bo-, ba-, ser-* qo‘shimchalari yordamida so‘zlar yasang, so‘ngra ularni ma‘nodoshlari bilan almashtirib qo‘llang.

Nazariy ma‘lumot. Shakli har xil, lekin vazifasi bir xil bo‘lgan qo‘shimchalar ma‘nodosh qo‘shimchalardir. Qo‘shimchalardagi ma‘nodoshlik so‘z yasovchi qo‘shimchalarda ham, lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalarda ham, sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalarda ham kuzatiladi. Masalan, serhosil –hosildor, suvni ichmoq – suvdan ichmoq, minglab – mingtacha



Topshiriq

3-topshiriq. Quyidagi matn mazmuniga mos sarlavha qo‘ying. Matndagi qaysi qo‘shimchalar va ko‘makchilarni bir-birining o‘rniga ma‘nodosh sifatida qo‘llash mumkinligini aniqlang.



Keniyalik yuguruvchi Abel Mutay marra chizig‘iga atigi bir necha metr qolganida belgilarda adashib, manzilga yetib keldim, deb o‘ylab, yugurishdan to‘xtadi. Undan keyinda kelayotgan ispaniyalik Ivan Fernandez raqibining xatosini tushunib, keniyalik yengil atletikachiga yugurishni davom ettirishi zarurligini aytib, baqira boshladi. Mutay ispan tilini tushunmagani bois hayron edi.

Fernandez Mutayning oldiga kelib, uni g‘alaba chizig‘i tomon itarib keldi. Bu holatni qiziqish bilan kuzatayotgan muxbirlardan biri Ivandan marraga birinchi bo‘lib yetib kelish o‘rniga, nega raqibiga yo‘l berganini so‘radi.

«Men doim bir-birimizning qo‘limizdan tutib, g‘alaba sari borishga yordam beradigan odamlar yashaydigan jamiyatni orzu qilaman», – javob berdi Ivan Fernandez.

«Lekin naq bo‘lib turgan g‘alabani raqibiga tortiq qilish sportchilarga xos emas», – bo‘sh kelmadi muxbir ham.

«Unga g‘oliblikni men tortiq qilganim yo‘q, zotan u g‘olib bo‘lib bo‘lgan edi».

«Qoidaga ko‘ra, sizda ham g‘olib bo‘lish imkoniyati bor edi», – dedi boshqa muxbir.

«Unda mening g‘olibligim nimaga loyiq bo‘lar edi? Unda g‘oliblik medalining qadri qanchalik bo‘lardir? Meni kuzatayotgan onam bu ishimdan qanday holga tushar edi? G‘olib bo‘lish – yoqimli, ammo xato qilgan odamga ko‘maklashish – undan sharafliroq».

Ivan Fernandez bizga hayotning muhim saboqlaridan birini o‘rgatdi: – hech qaysi g‘alaba halollikdan ustun bo‘la olmaydi. Boshqalarning ojiz tomonlaridan foydalanadiganlar ko‘payib borayotgan bu zamonda, bunday hayotiy hikoyalarning ahamiyati yanada oshadi¹⁵⁶.

So‘z yasovchi sinonim qo‘shimchalar

1.	-chi// -shunos	Adabiyotchi- adabiyotshunos	13.	-siz// -be	Xabarsiz-bexabar
2.	-chi// -kor	Paxtachi-pxtakor	14.	-gi// -lik	Qishgi-qishlik
3.	-chi// -gar	Nag‘machi- nag‘magar	15.	-mand// -li	Hunarmand-hunarli
4.	-ham// -dosh	Hamqishloq- qishloqdosh	16.	-simon// -namo	Majnunsimon- majnunnamo
5.	-li//	Vafoli-vafodor	17.	-ham//	Hamohang-

¹⁵⁶«Liderlar» kanalidan

	-dor			-dosh	ohangdosh
6.	-li//-kor	Gunohli-gunohkor	18.	-li// -don	Bilimli-bilimdon
7.	-li//-ba	Odobli-baodob	19.	-cha// -chasiga	Erkakcha- erkakchasiga
8.	-li//-ser	Shirali-sershira	20.	-layin// -ligicha	Tiriklay-tirikligicha
9.	-ser// -dor	Serunum-unumdor	21.	-siz// - no	O‘rinsiz-noo‘rin
10.	-bar// -li	Barvaqt-vaqtli	22.	-illa// -ira	Yarqilla-yarqira
11.	-bo// -dor	Boxabar-xabardor	23.	-sa// -sira	Suvsa-suvsira



Topshiriq

4-topshiriq. Berilgan matnda ajratib ko‘rsatilgan qo‘shimchalar o‘rniga uning ma’nodoshlarini qo‘ying, ular shu ma’noni bera oladimi? Matn haqida o‘z fikringizni 2-3 gap bilan ifodalang.

Qadim zamonda boyligi bilan maqtanuvchi hukmdor bo‘lgan edi. U qayerga bormasin, xazinasidan bir qisim olib, uni boshqalarga ko‘z-ko‘z qilar edi. Bir kuni u eng ishongan olim do‘stiga shunday savol berdi:

– Sen olimlar ichra mashhur va donosan. Men sening fikringni bilmoqchiman. Mening hukmdorligim va davlatim haqida nima deya olasan?

Olim javob berishning yo‘lini topdi va hukmdorga shunday dedi:

– Faraz qilaylik, siz bepoyon va jazirama cho‘lning qoq o‘rtasida turibsiz. Shu payt tomog‘ingiz qaqrab, nihoyatda chanqadingiz. Ammo yashab qolish uchun yarim davlatingiz evaziga sizga bir piyola suv uzatildi. Siz bunga rozi bo‘larmidingiz?

– Albatta, rozi bo‘lardim.

– Ancha vaqt o‘tdi. Chanqoq kuchaydi. Qolgan davlatingiz evaziga sizga yana bir piyola suv taklif qilindi. Siz bunga ham rozi bo‘larmidingiz?

Hukmdor bir oz o‘ylandi va **noiloj**:

– O‘lmay qolish uchun men davlatimning qolganini ham berishga majburman, – dedi.

Shunda olim miyig‘ida kulib:

– Demak, g‘ururlanishga hojat yo‘q, hukmdor. Sizdagi boylkning bahosi bor- yo‘g‘i ikki payola suv ekan..., – dedi.

Sintaktik shakl yasovchi sinonim qo‘shimchalar

1.	-ning//-dan	Mehmonlarninig ulug‘i - mehmonlardan ulug‘i
2.	-ni//-ga	Gapingizni tushunmadim -Gapingizga tushunmadim.
3.	-ni//-dan	Uzumni oling - Uzumdan oling.
4.	-ni//-da	Dashtni kezdi - Dashtda kezdi.
5.	-ga//-ni	Voqeaga tushundi - Voqeani tushundi.
6.	-ga//-da	Ishingizga omad - Ishingizda omad.
7.	-ga//-dan	Mehrga to‘ydi - Mehrdan to‘ydi.
8.	-da//-ni	Bu masalada tushundi - Bu masalani tushundi.

Lug‘aviy shakl yasovchi sinonim qo‘shimchalar

1.	-cha// - aloq	Qizcha – qizaloq
2.	-ish// - imtir	Ko‘kish – ko‘kimtir
3.	-lab//- tacha	Minglab – mintacha
4.	-lab//- larcha	O‘nlab – o‘nlarcha
5.	alla//- dir	Allakim – kimdir
6.	-vchi//– adigan, -ydigan	Sehrllovchi – sehrlaydigan
7.	-may//- masdan	Shoshmay – shoshmasdan
8.	-cha//– kay	Bolacha – bolakay



Topshiriq

5-topshiriq. Sinonim qo‘shimchalardan foydalanib quyidagi rasm asosida matn yarating va unga sarlavha qo‘ying.



Uyga vazifa. Quyidagi vaziyatga mos esse yozing. Mashinalardan haddan tashqari ko‘p foydalanish ko‘plab muammolarga sabab bo‘lmoqda. Ushbu muammolar qaysilar va ushbu muammolarni qanday yechish mumkin? Fikringizni misollar orqali dalillang. Unda sinonim qo‘shimchali so‘zlarning qo‘llanilishiga e‘tibor bering.

50–§. QO‘SHIMCHALARDA ZID MA’NOLILIK



Topshiriq

1-topshiriq. Berilgan maqollarni o‘qing, unda zid ma’noli qo‘shimchalardan yasalgan so‘zlarning qo‘llanilishiga e‘tibor bering.

Ilmlining so‘zi – o‘q, ilmsizning so‘zi yo‘q. Mevali daraxt yerga engashar, mevasiz daraxt ko‘kka tirmashar. Hunarli moy oshar, hunarsiz loy oshar. Aqlli o‘zini ayblar, aqlsiz – do‘stini¹⁵⁷.

Nazariy ma’lumot. Nutqning ravon, ta’sirchan, emotsional-ekspressiv jihatdan bo‘yoqdor bo‘lib chiqishida zid ma’noli qo‘shimchalardan foydalanishning ahamiyati katta. Masalan, *-li* qo‘shimchasi *-siz*, *be-* *no-* qo‘shimchalariga nisbatan qarama-qarshi qo‘yiladi: aqlli – aqlsiz, iboli – beibo,

¹⁵⁷ O‘zbek xalq maqollari: Q.Imomov va boshqalar.-T.: Adabiyot va san’at nashriyoti. 1989.


o‘rinli – noo‘rin kabi. Bunday qo‘shimchalar, asosan, sifat so‘z turkumida ishlatiladi. *Ser-* qo‘shimchasi *be-* qo‘shimchasiga, *ba-* qo‘shimchasi *-siz* qo‘shimchasiga, *bo-* qo‘shimchasi *-siz* va *be-* qo‘shimchalariga, *-dor* qo‘shimchasi *-siz* va *be-* qo‘shimchalariga nisbatan zid ma‘nolidir.

Bunday qo‘shimchalarni ikki guruhga bo‘lish mumkin: biror belgi-xususiyatga, shakl-shamoyilga yoki rang-tusga egalikni bildiruvchi qo‘shimchalar (*-li*, *bo-*, *ser-*, *ba-*, *-dor*); shunday belgiga ega emaslikni ifodalovchi qo‘shimchalar (*-siz*, *be-*, *no-*).¹⁵⁸

Masalan: badavlat – davlatsiz, shirador – beshira, shirasiz, sero‘t – o‘tsiz.



2-topshiriq. Baobro‘ – beobro‘, obro‘siz, ko‘ngilli – ko‘ngilsiz, beg‘araz – g‘arazli, begunoh– gunohkor, beayb – aybdor, bilimsiz – bilimli, gunohkor – begunoh, insofli – insofsiz, noinsof, obro‘siz – boobro‘ berilgan zid ma‘noli qo‘shimchalardan yasalgan so‘zlar ishtirokida «Dalada bir kun» mavzusi asosida hikoyat yarating.



3-topshiriq. *-li*, *-siz*; *bo-*, *-siz*: *ser-*, *-siz*; *ba-*, *be*; *no-*, *-vor*; *be-*, *-siz*; *ser-*, *-li* zid ma‘noli qo‘shimchalar yordamida so‘zlar hosil qiling va ular ishtirokida

¹⁵⁸ A.Nurmonov va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. “Ilm ziyo”. 2010

quyidagi rasm asosida «**Atrof-muhitning tozaligi kim uchun kerak?**» mavzusida esse yarating.



1-mashq. Uyga vazifa. O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidovning «Yoshlik» devoniga kiruvchi she’rlardan birini tanlang. Unda zid ma’noli so‘zlar va zid ma’noli qo‘shimchalardan yasalgan so‘zlarning qo‘llanilishiga e’tibor bering.

51–§. SO‘Z YASALISHI. SO‘Z YASALISH TUZILISHI. SO‘Z YASASH USULLARI



1-topshiriq. O‘ynoqi, sermazmun, bilimdonlik, suvsizlik, qadrdon, bolalarcha so‘zlarining yasalish usulini ayting va izohlang.



2-topshiriq. Hozirjavob, kaltafahm, achchiqtosh, sotib olmoq, diltortar, kinoyulduz so‘zlarining yasalishini izohlang.



Topshiriq

3-topshiriq. Kecha-kunduz, oldi-berdi, bilinar-bilinmas, tun-u kun soʻzlarining yasalishini izohlang.



Topshiriq

4-topshiriq. Oʻzidan oʻzi, oʻz-oʻzidan, bir-bir, yoʻl-yoʻl, manman soʻzlari yasama soʻzlar hisoblanadimi? Fikringizni misollar yordamida asoslab bering.

Nazariy maʼlumot. Qanday usul bilan boʻlsa-da, yangi soʻz hosil qilish **soʻz yasalishi** deyiladi. Masalan: tilshunos, qaynoq, hozirjavob, olib bermoq, qator-qator, tanish-bilish, uzil-kesil.

1. Bil, bilim, bilimdonlik. 2. Son, sana, sanoq soʻzlariga eʼtibor bersangiz, shuni sezasizki, birinchi guruhdagi soʻzlarning hammasida **bil** soʻzi takrorlanadi, ikkinchi guruhdagilarida esa **son** qismi hammasi uchun umumiy sanaladi.

Koʻrinadiki, soʻz yasalishi hodisasi oʻzining ichki tuzilishiga ega boʻladi va ikkita tarkibiy qismni oʻz ichiga oladi: a) yasashga asos qism; b) yasovchi vosita. Yasashga asos qism bilan yasovchi vosita birgalikda **yasalmani** tashkil qiladi. Masalan, yuqorida keltirilgan bilim soʻzida bil qismi yasashga asos, -im qismi **yasovchi vosita**, ikkala qismning qoʻshilishidan hosil boʻlgan hosila bilim **yasalma** hisoblanadi. Sanoq soʻzida esa sana yasashga asos qism, -q yasovchi vosita, sanoq esa yasalma sanaladi¹⁵⁹.

Soʻzning yasalish tuzilishi bilan morfemik tuzilishi bir-biridan farqlanadi. Soʻzning maʼnoli qismlarga boʻlinishi uning morfemik tuzilishi sanaladi. Soʻzda nechta maʼnoli qism boʻlsa, uning morfemik tuzilishi shuncha qismga ajraladi¹⁶⁰. Masalan, bilimdonlik soʻzi toʻrtta maʼnoli qismdan iborat: bil – asos, -im, -don, -lik – qoʻshimchalardir. Bu soʻzga shakl yasovchi qismlar qoʻshilsa, qoʻshimchalar soni koʻpayadi. Demak, soʻzning tarkibiy tuzilishida soʻz

^{159, 204, 205} Nurmonov v.b. Hozirgi oʻzbek adabiy tili Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 1-bosqich talabalari uchun darslik. Toshkent.: “ILM ZIYO” 2010.

yasovchi vositlar ham, shakl yasovchi qo'shimchalar ham qatnashadi. Masalan, bil –asos, - im, -don, -lik so'z yasovchi, - ni esa shakl yasovchi qism hisoblanadi.

So'zning yasaliş tuzilishi esa faqat yasovchilarni o'z ichiga oladi. Shakl yasovchi qo'shimchalar so'z yasaliş tuzilishiga kirmaydi. So'z yasaliş tuzilishi doimo ikkita tarkibiy qismni: yasashga asos va yasovchi vositani o'z ichiga oladi. Agar so'zda birdan ortiq yasovchi qo'shimchalar ishtirok etsa, eng oxirgisi yasovchi vosita sanaladi, oldingilari esa yasashga asos qism tarkibiga kiradi¹⁶¹. Masalan, bilimdonlik so'zida -lik yasovchi vosita, bilim yasashga asos, bilimdonlik yasalma, bilimdon so'zida esa -don yasovchi vosita, bilim yasashga asos, bilimdon yasalma hisoblanadi.



Topshiriq

5-topshiriq. Quyidagi matnni o'qing. Undan yasama so'zlarni aniqlang.

Yasama so'zlarning tilimizda qanday boyish manbasi ekanligini asoslab bering.

Ibrat

Bruno Serato bolaligidan oshpazlikni orzu qilgan. U 14 yoshidan boshlab, oilaviy yemakxonada ish boshlagan. 20 yoshida AQShga ko'chib o'tib, restoranda ishlagan. 2005-yildan mamlakatdagi eng qimmat restoranlardan biriga egalik qilgan.

U shunday omadli kunlarining birida chipsning qog'ozini yeb turgan yo'qsil bolakayni ko'rib qoldi va uni restoraniga olib kirib, qornini to'yg'azdi. U bu ishida bardavom bo'lib, bir yildan so'ng minglab shunday muhtoj bolalarni har kuni ovqatlantira boshladi. Bruno ular uchun tanho madad manbayi edi. Bir yil oldin qisqa elektor tutashuvi sababli uning restorani yonib ketdi. Nima qilishini bilmay qolganida doimiy mijozlari unga kutilmagan sovg'a qilishdi. Ular Brunoga restoranini tiklab olishi uchun pul yig'ib berishdi. Bir necha oydan keyin yemakxona yana ish boshladi. Oshpaz esa nochor bolalarni tekin taomlantirishni yana davom ettirdi.

Ojiz ko‘ringan muhtojlar ham birlashsa, ko‘mak bo‘lishga qodir! Ular duosiga arzisangiz bas...¹⁶²



Topshiriq

6-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni so‘z yasalishi va so‘zning tarkibiy tuzilishi bo‘yicha qismlarga ajrating.

O‘ynoqi, qaynoqqina, sovuqlik, ko‘rgazma, qaynatma, pishiqchilik, o‘rtoqlarcha, sevgi, gulzorlarni, O‘zbekiston, iliqroq, sanoqsiz, suvchilik, tinimsiz, qadrliroq.



1-mashq. Uyga vazifa. Yuqoridagi so‘zlarni qatnashtirib, «Sevimli o‘lka» mavzusida matn yarating.

52–§. OT, SIFAT SO‘Z TURKUMLARINING YASALISHI



Topshiriq

1-topshiriq. Gulchi, soatsoz, o‘qituvchi, zargar, oshpaz, suzgich, keskich, bolalik, shofyorlik, belbog‘, tuyaqush, achchiqtosh, qizilishton, uchburchak otlarining yasalishini izohlang.



Topshiriq

2-topshiriq. Hidsiz, qaynoq, sovuq, qishlik, kuzgi, ilmiy, issiqmijoz, tinchliksevar, bodomqovoq, kaltafahm sifatlarining yasalishini izohlang.

Nazariy ma’lumot. O‘zbek tilida ot va sifatlar, asosan, ikki xil usul bilan yasaladi:

1. Qo‘shimchalar qo‘shish (Morfologik usul).
2. So‘zlarni qo‘shish (Sintaktik usul).

¹⁶² “Liderlar” kanalidan.

Soʻz yasovchi qoʻshimchalar yordamida otlarning shaxs otlari, narsa-buyum otlari, oʻrin-joy otlari, faoliyat-jarayon otlari va mavhum otlar yasaladi. Bular **sodda yasama otlar** hisoblanadi. Masalan: kursdosh, bogʻbon, kitobxon; oʻroq, keskich, chizgʻich; gulzor, toshloq, oromgoh; zargarlik, tirikchilik, terim; quvonch, sevinch, shodlik.

Ikki va undan ortiq soʻzlarning qoʻshilishidan **qoʻshma otlar** yasaladi. Masalan: dunyoqarash, kungaboqar, otboqar, iskabtopar, bilaguzuk, achchiqtosh, oshqozon, toshkoʻmir.



Topshiriq

3-topshiriq. Quyida berilgan matndan yasama otlarni aniqlang va yasalish usulini izohlang.

Bu bola faqat sinf emas, butun maktab boʻyicha eng kambagʻal oiladan edi. Oʻqituvchining jahlini chiqargan narsa ham shu: oʻzi nima ahvolda-yu, «Kim boʻlsam ekan?» mavzusida yetti betli insho yozibdi. Yonida ilova-chizmasi ham bor – yilqichilikka moʻljallangan kattakon ferma. Insho «0» baho bilan egasiga qaytdi. Bola hayron boʻldi. Dars tugagach, oʻqituvchining oldiga rangi oqarib kirib, nega bunday baho qoʻyganini soʻradi. «Yozganlaring yoshingga toʻgʻri kelmaydi. Holingga qarab, orzu qilsang, boʻlmaydimi? Sen oʻylayotgan ferma uchun katta mablagʻ kerak. Oldin yer sotib olish zarur, keyin otlar, yem-xashak... Xullas, xomxayollaringni qoʻyib, inshoni boshqatdan yoz».

Bola xafa boʻlib uyiga qaytdi. Uzoq oʻylanib oʻtirdi. Ertasiga esa yozganlarini eski holatda oʻqituvchisiga olib bordi: «Siz bahongizni oʻzgartirmang, men esa orzularimni...»

Yillar oʻtdi. Endi nafaqaga chiqqan oʻqituvchi kattakon yilqichilik fermasiga hayratlangancha qarab turar, ichkarida bir paytlar orzulari uchun «0» baho olgan sobiq oʻquvchisi hashamatli uyda oʻtirardi. Roʻparasidagi devorda, kamin ustida esa inshoga ilova qilingan yilqichilik fermasining ramkaga solingan chizmasi bor edi...

Xulosa: Hech qachon bironing orzusi ustidan kulmang, sababi Ollohdan boshqa hech kim ertaga nima bo‘lishini bilmaydi.¹⁶³



1- mashq. Orzularingiz xaritasini chizing. Unda yasama ot va sifatlarni qo‘llashni mashq qiling.



2-mashq. 1) ot+ot; 2) ot+sifat; 3) sifat+ot; 4) son+ot; 5) ravish+ot; 6) fe‘l+ot; 7) ot+fe‘l ko‘rinishidagi qo‘shma otlar yasashni mashq qiling.



3-mashq. Uyga vazifa. Quyidagi rasm asosida «Dunyo bo‘ylab sayohat» mavzusida matn yarating. Kema sayohatiga asoslangan matnda morfologik va sintaktik usul bilan yasalgan otlardan o‘rinli foydalaning.



¹⁶³ Otabek Hasanovning “Liderlar kitobi” dan.

53–§. MATNDAN YASAMA SO‘ZLARNI ANIQLASH. SO‘Z YASASH JARAYONIDA RO‘Y BERADIGAN O‘ZGARISHLAR



Topshiriq

1-topshiriq. Quyida berilgan maqollardan yasama so‘zlarni aniqlang. Xalq maqollarining nutqimizdagi ahamiyati xususida to‘xtaling.

1. O‘g‘lim odam bo‘lmadi, deb qayg‘urma, bir kun kelib qirol bo‘lsa, ne ajab. (Fin maqoli) 2. Har kuni to‘ldirib borilmaydigan bilim har kuni o‘lib boradi. (Fransuz maqoli) 3. Yomon xabarning qanoti bor, xushxabarning oyog‘i – oqsoq. (Qrim-tatar maqoli) 4. Tanish joyda insonni, notanish joyda kiyimini hurmat qiladilar. (Qozoq maqoli) 5. Yetti boshli ajdardan qo‘rqma, ikki tilli odamdan qo‘rq. (Fors maqoli) 6. Nohaq gapni gapirgandan jim turgan afzal. (Dog‘iston maqoli) 7. Pichoq ham, bolta ham inson tilidan ko‘ra o‘tkir emas. (Indoneziya maqoli)¹⁶⁴



Topshiriq

2-topshiriq. Quyida berilgan matnni o‘qing. Undagi yasama so‘zlarni aniqlab, yasaliş usullarini izohlang.

Donishmandlardan biri bo‘lmish Husayn Koshifiy «Kim bilan do‘stlashish kerak?» degan savolga quyidagicha munosabat bildirgan:

1. Do‘st aqlli bo‘lishi kerak, zero, aqlsizlik yaxshilik belgisi emas .
2. Do‘st xushfe‘l bo‘lishi kerak, chunki badxohlar bilan til topishish qiyin .
3. Do‘st badfe‘l bo‘lmasligi lozim.
4. U beg‘araz bo‘lmog‘i lozim.
5. Do‘st aldoqchi, riyokor, qallob bo‘lmasligi kerak. Shuningdek, agar do‘st topsang, u holda ushbularga amal qilgin:
 1. Do‘stingdan hech narsani ayama.
 2. Uning sirlarini qalbingda saqla, hech kimga oshkor qilma.

¹⁶⁴ «Liderlar» kanalidan

3. Odamlardan uning nuqsonlarini yashir, kamchiliklarini faqat o'ziga ayt, toki ularni tuzatsin.
4. Undan achchiqlanma, uning gaplaridan nuqson izlama.
5. Uning xushfe'lligiga minnatdorchilik bildir.
6. Do'stingni o'zi yo'qligida doim yaxshi so'zlar bilan esla.
7. Agar do'stinga biror narsani o'rgatmoqchi bo'lsang, buni ehtiyotkorlik va samimiylilik bilan amalga oshir.
8. Do'sting quvonsa – quvon, qayg'ursa – qayg'urgin.
9. Do'stingga aytadigan birinchi so'zing uning uchun sog'liq tilamoq bo'lsin.
10. Do'stingning gapirayotgan gapini bo'lma.
11. O'zingga nimani ravo ko'rsang, do'stingga ham shuni ravo ko'r.
12. Kerak bo'lgan paytda do'stingni himoya qil.

Shu ko'rsatilgan amallarni bajarsang, sening do'sting ishonchli va sadoqatli bo'ladi.¹⁶⁵



Topshiriq

3-topshiriq. Guruh uch kichik guruhga bo'linib, quyidagi rasm asosida matn yarating va unga sarlavha qo'ying. Unda fonetik o'zgarishlar asosida yasalgan so'zlarni qo'llang.



¹⁶⁵ "Liderlar" kanalidan



4-topshiriq. Quyidagi matnni o‘qing va yasama so‘zlarni aniqlang.

Yasalish usulini izohlang.

Qiz farzand...

Angliyada mexanik bo‘lib ishlaydigan Tomas ismli kishi bor edi. U taomini zo‘rg‘a topib yerdi. Alloh Taolo unga bir qiz farzand ato qilgandi. Qizi besh yoshga kirganida oyoq paylariga tuzalmas dard tegib, bo‘yi o‘smay qoldi. Keyin bilishsa, u endi yurolmas ham ekan. Tomas qachon uyga qaytib, qizining xonasiga kirsam, uni yig‘lab o‘tirgan holda ko‘rardi. Buni ko‘rib qizining oldidan chiqib jahl qilib devorlarni tepar, baqirar va turli ichimliklar ichar edi. U har doim «Nima uchun, Xudo, meni kambag‘al qilding, uning ustiga qizimni ham shu ahvolga solding?» – deb nolib yurardi.

Bir kun u ishga bordi, u yerda bir do‘stiga shikoyat qildi. Do‘sti: «Ey birodar, qizlar bu Allohning Jamol degan sifatining sirlaridan biridir, ya’ni Alloh taolo qizlarga O‘zining Jamol sifatidan ba’zi sirlarni yashirib qo‘ygan. Uni qidirib topish kerak, harakat qilish kerak, qizingga yaqin bo‘lib, sirlardan foydalanib qol. Alloh taolo bu dunyoda senga bergan qiz farzandingdagi sirini bir kun senga oshkor qiladi»,– deydi.

Bu gapdan keyin Tomas ishdan chiqib uyga qaytdi. Har doimgidek qizi yig‘lab o‘tirar edi, odatda ota bu holatdan keyin chiqib jahl qilib hamma narsani urib asabiylashar edi. Lekin bugun unday qilmadi va qizini orqasiga mindirgancha xona bo‘ylab yurishni boshladi. Qiz yig‘lashdan to‘xtadi, bu holatdan Tomas yana ham tezroq yura ketdi, qiz asta kula boshladi. Birozdan keyin qizcha qo‘llarini qushning qanoti kabi ko‘tarib qiqir-qiqir kula boshladi. Buni ko‘rib Tomasning shavqi oshib, ancha yildan beri mahzun qalbida baxt degan narsani his qildi. Bundan mast bo‘lib qizini kiyintirib ko‘chaga olib chiqdi. Kunlar o‘tib bu odat tusiga kirdi.

Bir kuni uning qo‘shnisi ko‘rib «Tomas, anchadan buyon har kuni yugurib yurganingni kuzataman. Yilda bir marta bo‘ladigan Britaniya Qirolichasining hayriya marafonida qatnashib ko‘rmaysanmi?» – deb taklif bildirib qoldi. Tomas

o‘ylab ko‘rishini aytdi va marafon boshlanadigan kuni ishtirokchilar bilan safga turdi. Tomas o‘shanda marraga uchinchi bo‘lib kelgan, lekin hammaning nazari unda edi. Chunki u yelkasida opichib olgan nogiron qizi bilan boshqalardan ajralib turardi.

Shundan keyin ota va qiz har kuni mashq qilishga tushishdi, harakat qilishdi va keyingi yilgi marafonda marraga birinchi bo‘lib kelishdi. Unga «Marafon g‘olibi va farzandiga eng yaxshi e’tibor beruvchi mehribon ota» sifatida qirolicha tomonidan to‘qqiz million dollar mukofot berildi.

Shu kundan boshlab Tomas Buyuk Britaniyaning milionerlaridan biriga aylandi. U pulining bir qismiga shirkat ochib, peshtoqiga: «Qizlar – bu Allohning Jamol degan sifatining sirlaridan biridir», – deb yozib qo‘ydi¹⁶⁶.



Topshiriq

5-topshiriq. Quyidagi yasama so‘zlarda qanday fonetik o‘zgarishlar bo‘lganligini aniqlab, ularni quyidagi uch ustunga ajrating.

Anglamoq, pasaymoq, issiq, ulg‘aymoq, o‘rnashmoq, yig‘lamoq, tibbiy, jizza, sovuqqina, yumshoqqina, og‘zaki, saylov, o‘quvchi, bilaguzuk, so‘roq, ayrim, hissiy, buyruq, shovulla, dukulla, yarqiroq, yasha, so‘roqsiz, yangroq.

Tovush tushishi	Tovush almashishi	Tovush orttirilishi



1-mashq. Uyga vazifa. Yuqoridagi yasama so‘zlarni qatnashtirib «Bosma shakldagi kitob o‘qigan yaxshimi, elektron kitobnimi?» mavzusida esse yozing



KITOB XAYOT CHIROG'I

O
B
U
N
A

B
O'
L
I
N
G



¹⁶⁶ «Liderlar» kanalidan

54–§. FE'L, RAVISH SO'Z TURKUMLARINING YASALISHI



1-topshiriq. *Qo'rquv – sabr va irodani susaytiradi; jur'atsizlik va qarorida qat'iy bo'lmaslikka sabab bo'ladi; sirni saqlay olmaslik, va'daga vafo qilmaslik kasaliga muhtalo qiladi; umidsizlik va esankirash holatini kuchaytiradi – gapidagi yasama fe'llarni aniqlang va izohlang.*



2-topshiriq. *-lab, -larcha, -ligicha, -an, -cha, -siz qo'shimcha-lari yordamida ravish yasang va qaysi so'z turkumidan yasalganligini izohlang.*

Nazariy ma'lumot. O'zbek tilida fe'llar so'z yaslash xususiyatiga ega. Fe'llar ikki xil usul bilan yasaladi: morfologik (affiksatsiya) usul va sintaktik (kompozitsiya) usul. *-la, -a, -r(-ar), -y(-ay), -sira, -lan, -lash, -i, -ik, -ira, -illa, -ir* qo'shimchalari yordamida morfologik usullar bilan fe'llar yasaladi.

Ikki mustaqil so'zning qo'shilishidan qo'shma fe'llar yasaladi. Qo'shma fe'llarning qismlari qaysi so'z turkumidan yasalishiga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1) ot+fe'l qolipidagi qo'shma fe'llar. Bunday fe'llarda birinchi qism fe'ldan boshqa so'z turkumlari (ot, sifat, undov, taqlid)dan tuzilib, ikkinchi qismi fe'l bo'ladi: javob bermoq, qo'l qo'ymoq, nazar tashlamoq, xursand bo'lmoq, xafa qilmoq, oh urmoq, yalt etmoq kabi. 2) fe'l+fe'l qolipidagi qo'shma fe'llar. Ularning har ikkala qismi fe'llardan tuziladi: olib chiqmoq, sotib olmoq, yutib olmoq, ola kelmoq kabi.



3-topshiriq. «Ruhlar isyoni» dostonidan olingan quyidagi parchadan yasama fe'llarni topib, izohlang.

Ertak aytdi

Yulduzlar.

Ulg'aydi u,

O'smir bo'ldi,
 Yetdi yigit yoshiga.
 Ishq otli qush kelib qo'ndi,
 Nazrulning ham boshiga.
 U ham yondi bagri kabob,
 Ham ochildi chun bahor.
 Hijron berdi totli azob,
 Visol etdi baxtiyor.
 Goh shodlik,
 Goh alamidan
 Dil chashmasi ochildi.
 Uning hassos qalamidan
 Ishqiy baytlar sochildi.
 Bu dunyoga
 Nazrul Islom
 Shoir bo'lib tug'ildi.

Nazariy ma'lumot. O'zbek tilida ravishlar, asosan, 2 xil usul – morfologik va sintaktik usuli bilan yasaladi. Morfologik usul bilan ravish yasashda so'z asosiga maxsus ravish yasovchi qo'shimchalarni qo'shish bilan yasaladi. Ravishning bu usul bilan yasalishida ko'pincha ot, ba'zan sifat, son, olmosh, fe'lning sifatdash va harakat nomi shakllari, shuningdek, ravishning o'zi asos bo'ladi. Masalan: *taxminan, o'zicha, ko'pincha, aybdorlarcha, xomligicha, do'stona, saharlab, eskichasiga, tinimsiz, beruxsat.*

Ikki so'zni qo'shish, juftlash va takrorlash bilan ravishlar yasaladi. Masalan: *har kuni, shu yerda, bir zumda, hamma vaqt, omon-eson, tun-kun, birma-bir, o'z-o'zidan.*



Topshiriq

4-topshiriq. «Dahshat» hikoyasidan olingan quyidagi parchani o'qing. Undagi yasama fe'l va ravishlarni aniqlab, yasalish usulini izohlang.

Yaqin ikki haftadan beri ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g‘uvillaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi. Bunday kechalarda odamzod qo‘ymijoz g‘uj bo‘lib va nimanidir kutib jimgina o‘tirishni xohlab qoladi.

Olimbek dodxoning sakkiz xotini katta kundosh Nodirmohbegimning uyiga yig‘ilib, sandal atrofida o‘tirishar edi. Dodxo har kecha taroveh namozidan keyin halqaga qolar edi, bu kecha erta qaytdi. Hamma to‘zidi: xotinlardan biri uning sallasini oldi, biri chakmoniga qo‘l uzatdi, biri mahsisini tortgani chog‘landi... Kundoshlarning eng kichigi – bu dargohga tushganiga besh oygina bo‘lgan kelinchak – ganjiravonlik Unsinoy chilim solib tutdi.

Dodxo chilimni bir marta, lekin juda qattiq tortdi-yu, yasov tortib turgan xotinlariga e‘tibor qilmay, to‘rga o‘tdi va darchani jindakkina qiya qilib, bir ko‘zi bilan tashqariga qaradi. Shamol goh och bo‘riday uvillar, goh o‘lim changaliga tushgan mushukday pixillar, vag‘illar, hech narsa-hech narsa ko‘rinmas edi. Dodxo darchani zichlab yopib, joyiga o‘tirib tasbeh o‘girishga kirishdi. Uning barmoqlari tasbeh donalarini tez-tez o‘tkazayotgan bo‘lsa ham, qulog‘i g‘uvillayotgan shamolda, xayoli go‘ristonda edi: «Hozir go‘riston qanaqa vahimali bo‘lsa ekan...»¹⁶⁷



Uyga vazifa. Quyidagi rasm asosida «**Salomatligimiz posbonlari**» mavzusida matn yarating, unda yasama ravishlarning qo‘llanilishiga e‘tibor bering.



¹⁶⁷ www.ziyouz.com kutubxonasi. A.Qahhor hikoyalar to‘plami.2008.

55–§. MATNDA YASAMA SO‘ZLARNI ANIQLASH



1-topshiriq. Quyidagi matnni o‘qing va yasama so‘zlarni aniqlab, yasalish usulini izohlang. **Tabiatning o‘zi tabib** degan qarashga o‘z munosabatini bildir.



Sholg‘om yeng, kasallik nimaligini bilmaysiz!

Qadimdan ko‘pgina xastaliklarga davo sifatida iste‘mol qilinadigan sholg‘omning og‘riq qoldiruvchi, yaralarni bitiruvchi, shamollashlarga qarshi kurashuvchi, peshob haydovchi va antiseptik xususiyatlari bor.

Sholg‘om vitamin S, B1, B2 ga, kletchatka, karotinga juda boy.

Xalq tabobatida keng qo‘llaniladi.

Xalq tabobatida sholg‘om va uning sharbatidan yo‘tal, ovoz bo‘g‘ilishi, astma kasalliklarini davolashda foydalanilgan. Sholg‘om iste‘mol qilinganda asablarni tinchlantiradi, yurak ishini me‘yorga soladi.

Ibn Sinoning «Tibbiy o‘g‘itlar» asarida sholg‘om haqida shunday deyiladi: «Semiz go‘sht bilan pishirilgan sholg‘om ko‘krakni va tomoqni yumshatadi. Sholg‘omning qaynatmasini podagra kasaliga qo‘yilsa, ko‘p manfaat yetadi, go‘sht bilan qaynatilgani esa belni qizdiradi, siydikni haydaydi. Uning yaprog‘i yeyilsa, siydikni yurishtiradi».

Sholg‘om ichaklarga salomatlik bag‘ishlovchi ajoyib vosita.

Eslatma! Biroq ichaklarda yallig‘lanish kuchayganda, o‘tkir va surunkali gepatit hamda xolesistitda, markaziy asab tizimi kasalliklarida sholg‘om iste‘mol qilish tavsiya etilmaydi.



2-topshiriq. Quyidagi matnni o‘qing va uning tarkibidagi yasama so‘zlarni aniqlab, izohlang. Siz oilada otangizdan nimalarni ibrat qilib olyapsiz? Ularni guruhdoshlaringiz bilan o‘rtoqlashing. Yasama ravishlarga alohida e‘tibor qaring.

O‘shanda hali bola edim

Onam ishdan horib qaytsa-da, har kech biz uchun non pishirardi. Bir kuni vaqt allamahal bo‘lgan, onaizorim shosha-pisha biz uchun kechki



ovqat tayyorlardi. Birozdan keyin u otamning oldiga ovqat va non qo‘ydi. Mening ikki ko‘zim nonda edi. «Kimdir nonning kuyganiga e‘tibor berarmikan», – deb kutib turdim. Lekin otam nonni indamasdan chaynadi va mendan maktabdagi kunim qanday o‘tganini so‘radi.

O‘sha kun unga qaytargan javobimni eslay olmasam ham, ovqatdan keyin volidamning otamga non biroz o‘tib ketganini ming xijolat bilan aytgani kechagidek qulog‘im ostida. Otam o‘sha kuni jilmayib turib, onamga: «Azizam, kuygan non menga yoqadi-ku», – dedi. Uxlashdan oldin otamga xayrli tun tilash uchun uning oldiga kirdim va undan kuygan nonni rostdan ham yaxshi ko‘rish-ko‘rmasligini so‘radim.

Otam meni bag‘riga bosib, qattiq quchoqladi. «O‘g‘lim, onang kun bo‘yi ishlab, juda charchagan. Bir marta kuygan non yesam, menga biror nima bo‘lmaydi. Lekin yomon so‘z onangni qattiq jarohatlagan bo‘lar edi», – dedi.

Biz barchamiz xom sut emgan bandalarmiz. Kezi kelganda muhim sanalarni, zarur narsalarni, burchlarimizni esdan chiqarib qo‘yamiz. Shuncha yillar mobaynida o‘rgangan narsam shuki, bir-birimizni kamchiliklarimiz bilan qabul qilishimiz kerak. Chunki hayot afsuslar bilan uyg‘onish uchun juda ham qisqalik qiladi.

(Shuhrat Sattorov tarjimasini)



3-topshiriq. Quyidagi test topshiriqlarini bajaring va tahlil qiling.

1. Qaysi gapdagi barcha yasama soʻzlarning yasalish asoslari bir xil soʻz turkumiga oid?

- A) Tuproq qatlami qalin, sersuv yerlarda koʻkargan archalar yoʻgʻon va boʻydor boʻladi.
- B) Yunonistonlik ovchilarning gaplariga qaraganda, hozirgi qushlar oʻz ajdodlaridan koʻra ancha aqlli va sezgirroq ekan.
- C) Bolaligimni uchqur xayollar, osmoniy orzular, sirdosh dugonalar bilan oʻtkazganman.
- D) Inson gʻalabalardan shodlansa, omadsizlik va qiyinchiliklardan tushkunlikka beriladi.

2. Berilgan soʻzlar orasida yasama soʻzlarni ajrating.

1) *ixtirochi*; 2) *guldon*; 3) *suhbatlashmoq*; 4) *ixtiro*; 5) *tinim*; 6) *qisqich*; 7) *toʻgʻri*; 8) *tinmoq*; 9) *qilinmoq*; 10) *tindirmoq*.

- A) 1,2,3,5,6 B) 1,2,5,7 C) 1,3,4,7,9 D) 1,3,5,9

3. Quyida berilgan matndagi yasama soʻzlarning sonini toping.

Oʻz tilingizda fikrlashga, toza gapirishga, nutqingizni har xil yot unsurlardan saqlashga harakat qiling. Til mavsumiy libos emaski, ob-havoning oʻzgarishiga qarab almashtirilsa.

- A) 4 ta B) 5ta C) 6 ta D) 7ta

4. Shifokorlarimiz uning shifobaxsh xususiyati haqida ilmiy asarlar yozdilar.

Ushbu gapdagi yasama soʻzlar haqida bildirilgan toʻgʻri hukmni aniqlang.

- A) Yasama shaxs oti aniqlovchi vazifasida kelgan.
- B) Uch oʻrinda yasama sifat qoʻllangan.
- D) Sodda yasama sifat vositasiz toʻldiruvchiga tobelangan.
- D) Qoʻshma sifat vositasiz toʻldiruvchiga tobelangan.

5. Insoniyat tarixi hammamizga bogʻliq boʻlgan, oʻzligimizni koʻrsatadigan, bizning olis shajaramizni, nasl-u nasabimizni, insoniy qadr-u qimmatimizni

belgilaydigan muqaddas va mo‘tabar voqelikdir. Ushbu gapda ishtirok etgan yasama so‘zlar haqidagi qaysi hukm noto‘g‘ri?

- A) Yasama so‘zlar sifat, ot va fe‘l turkumiga mansub.
- B) Bir o‘rinda tarkibida tovush o‘zgarishi yuz bergan yasama so‘z ishtirok etgan.
- C) Barcha yasama so‘zlarning yasalish asosi ot turkumiga mansub.
- D) Yasama so‘zning yasama so‘zga tobelanishi kuzatiladi.



Uyga vazifa. Ushbu surat asosida «**Bu – mening onam**» mavzusida uy inshosi yozing, unda yasama so‘zlardan foydalaning.



X BO‘LIM. USLUBIYAT. TIL VA USLUB

56–57–§. USLUBIYAT. NUTQ USLUBLARI. SO‘ZLASHUV USLUBI



Topshiriq

1-topshiriq. Quyida berilgan parchani o‘qing. Quyi sinflardagi mavzu yuzasidan olgan bilimlaringizga tayanib matndagi so‘zlashuv uslubiga xos so‘zlarni aniqlang hamda daftaringizga yozing.

Egamberdilarning ko‘cha eshigini oyog‘i bilan tepib ochib ichkariga shiddat bilan kirib bordi. Qosimali suvchi sigiriga xashak solish, tagini tozalash bilan mashg‘ul. Shakarxon aya qozon ostiga o‘t qalab hozirgina sog‘ib olgan sutini qaynatib qo‘yish bilan ovora.

– Egam qani? – leytenatning birinchi savoli shu bo‘ldi. Qosimali suvchi asta boshini ko‘tarib, leytenatga yaqinroq kelib, biroz angrayibroq qarab turdi-da:

– Vaalaykum assalom! – dedi xuddi yosh bolaga tanbeh bergandek ohangda.

Leytenant o‘sal bo‘ldi-yu, sezdirgisi kelmay:

– O‘g‘lingiz qani deyapman? – deb so‘radi yana.

– Uni siz bilasiz, kecha qamab qo‘yibsiz-ku, kamandir.

– Kechasi o‘g‘lingiz qochgan deyapman.

– Qochganmi, qochmaganmi, uni siz bilasiz... keyin kamandir, bo‘lar-bo‘lmasga yosh bolani qamayverish ham yaxshi emas. Shu bilan mening o‘g‘limni uchunchi bor xibsga olayapsiz.

– O‘g‘lingiz bir kunning o‘zida to‘rt marta mushtlashgan.

– Demak, kecha mening o‘g‘limni to‘rt marta xafa qilishgan, kim seni xafa qilsa, kechirma, jag‘iga tushur, deb aytganman.

– Demak, bezorilikni siz o‘rgatyapsiz ekan-da.

– Ha, men o‘rgatganman. Seni kim haqorat qilsa, sen undan

baland kel, deb o‘rgatganman. Birov seni ursa, mening oldimga yig‘lab

kelma, – deb o‘rgatganman. Xoy, kamandir, biz ham kichkina odamasmiz,

bilib qo‘ying, fermermiz. Bechora o‘g‘lim uy ishlariga qarashsa, sigir boqsa, sut-qatiqni pullab kelsa, kechasi uxlamay kitob o‘qisa, yana tag‘in nima qilsin? O‘g‘limni tezroq topib bering, bo‘lmasa, men sizning generalingizni taniyman, borib o‘shanga arz qilaman¹⁶⁸.(X. To‘xtaboyev)

Nazariy ma‘lumot. Uyda, ko‘cha-ko‘yda, ish joylarida va kundalik hayotning turli joylarida kishilarning erkin muloqotga kirishuvi so‘zlashuv uslubi deyiladi. So‘zlashuv uslubi bu uslubning adabiy til me‘yorlariga har doim ham amal qilavermaydigan ko‘rinishi bo‘lib, dialogik nutq deyiladi. So‘zlashuv uslubida, ko‘pincha, turli uslubiy bo‘yoqli so‘zlar, grammatik

¹⁶⁸ X. To‘xtaboyev “Quyvonlar saltanati”.

vositalar, tovushlar tushib qolishi, orttirilishi mumkin: *Kep qoling! Obbo, hamma ishni do'ndiribsiz-da. Mazza qildik. Keta qo-o-ol!*



Topshiriq

2-topshiriq. «Imtihonga qanday tayyor-garlik ko'ryapsiz?» mavzusida do'stingiz bilan suhbatlashing. Dialogik matnni daftaringizga yozing. So'zlashuv uslubidagi til xususiyatlarini tahlil qiling.



Nazariy ma'lumot. So'zlashuv uslubi ikki turga bo'linadi:

1. Adabiy so'zlashuv uslubi

2. Oddiy so'zlashuv uslubi

Adabiy so'zlashuv uslubi tilning adabiy me'yorlariga mos, tartibga solingan va ishlangan bo'lishi bilan xarakterlanadi. Oddiy so'zlashuv uslubida esa betakalluflik bilan erkin muomala aloqa qilish xarakterli xususiyatdir. So'zlashuv uslubning quyidagi xususiyatlari bor:

1. Fonetik xususiyatlar.
2. Leksik-frazeologik xususiyatlar .
3. Grammatik xususiyatlar.

Ma'lum adabiy til me'yorlariga bo'ysungan, tartibga solingan so'zlashuv uslubiga **adabiy so'zlashuv uslubi** deyiladi.

Radioeshittirishlari, televideniye ko'rsatuvlari adabiy tilning og'zaki uslubda olib boriladi.

Adabiy til me'yorlariga doimo amal qilavermaydigan erkin muloqot shakli **oddiy so'zlashuv uslubi** sanaladi. Kundalik hayotda, uyda, ko'cha-ko'yda, ish joylarida kishilarning bir-biri bilan erkin muloqotga kirishuvi oddiy so'zlashuv uslubi orqali yuzaga chiqadi.



Topshiriq

3-topshiriq. So‘zlashuv uslubiga oid bilimlaringizni mustahkamlang. Ikki guruhga bo‘linib birinchi guruh adabiy so‘zlashuv uslubida ta’lim muassasangiz xususidagi haftalik axborotning radio va televideniye uchun matnini yarating. @-guruh oddiy so‘zlashuv uslubidagi «Baliq ovida» va «Qadimiy tarixiy qadamjolariga tashrif» mavzusida matn yarating. Undagi so‘zlashuv uslubiga xos xususiyatlarni ko‘rsating.



1-mashq. Berilgan nutq parchasidan oddiy so‘zlashuv uslubiga xos o‘rinlarni aniqlang hamda daftaringizga ko‘chirib oling. Oddiy so‘zlashuv uslubining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling.

– Bahay? Tinchlikmi? – so‘radi bozor ishchisi.

– O‘, akajon... Otamni berib qo‘ydik. Bilasiz-ku, qandoq odam edi! — kelinchak o‘tib ketdi.

«E, miskar olamdan o‘tibdi-da... Chakki ish bo‘pti. O‘zi rahmat qilsin», — dedi qariya va bu kelinchak haqiqatan ham miskarning kelinimi-yo‘qmi ekanini bilmoqchidek, uning ketidan tushdi. Kelinchak chorrahadan o‘tib, past ko‘chaga enib ketdi.

Qo‘ziboy chol choyxonaga kirdi. Kimsasiz, zax xo-naga o‘tib, bitta ko‘kchoy buyurdi-da, chorpoyaga chiqib chordana qurdi. Do‘ppisi ustidan qiyiqcha o‘ragan G‘oziboy choy olib kelgan edi, uni ro‘parasiga o‘tqazib:

– Attang-a... miskar o‘tipti! – dedi. – Dunyo shu ekan-da, birodar!

Choyxonachi shoshib qoldi, surishtira ketdi.

– E, qizishmang, inim, – dedi Qo‘ziboy chol beparvolik bilan. – Ajal vaqtiki kelib, har birimizning ham eshigimizni taqillatadi. Musulmon odam o‘limni bo‘yniga olib qo‘ygani ma’qul... Meni boshqa bir nima o‘ylatadi, inim! Qodirboy ko‘p mo‘min-musulmon odam edi. Balli... Uning izzat-hurmatini joyiga qo‘yib chiqararmikan bu kelinchak? Shu yog‘i meni o‘ylatadi... Chakki ish bo‘pti-da! Balkim tayyorgarligi yo‘kdir? A?.. Unda qiyin! Inim, o‘lim degani to‘y emas, men sizga aytsam. To‘y degani bamaslahat bo‘ladi, o‘lim tuyqusdan keladi! Buning

farqi katta!.. Attang! Bo'shshib qolgan choyxonachi Qo'ziboy qariyaning uzun, oq oralagan echki soqoli, cho'kik yonoqlariga o'ychan tikildi.

(Sh. Xolmirzayev «Qariya» hikoyasidan)

Nazariy ma'lumot.

So'zlashuv uslubida gapdagi so'zlar tartibi ancha erkin bo'ladi.

Ko'proq sodda gaplar, to'liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi.

Masalan: Anvar ko'ksini to'ldirgan nidoni yalinchoq, ingroq ohangda aytdi:

– Muqaddam ... Ayting... Rostmi?

U Muqaddamning yo'q deyishini kutib turar, shu bir og'iz so'z uchun butun borlig'ini berishga tayyor edi.

Vahimali sukunatga to'liq bir necha daqiqa o'tdi. Muqaddam to'satdan kafti bilan yuzini to'sib yig'lab yubordi.

– Rost!

Og'zaki so'zlashuv uslubiga xos xususiyatlar :

- a) grammatik qurilishining sodda ,qisqaligi;
- b) mazmunan ta'sirchanligi;
- c) so'z o'yinlarining qo'llanilishi;
- d) piching, hazil –mutoyiba, «xom» ibora va gaplarning qo'llanilishi;
- e) behayo, qo'pol, dag'al so'zlarning ishlatilishi;
- f) umumiste'moldagi so'zlar, iborlar, to'liqsiz gaplardan foydalanish.

So'zlar uslubiy xoslanish – xoslanmasligiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1. Uslubiy betaraf so'zlar (kelmoq, yugurmoq, bola, non, tuz va boshqalar)
2. Uslubiy xoslangan so'zlar (qalb, fonedoskop, istiqomat qilmoq, tashrif buyurmoq, e'tiroz xati va boshqalar).

Aynan bir uslubga xoslanib qolmay, hamma uslubda hamda har bir kishi tomonidan bemalol qo'llanila oladigan so'zlar **uslubiy betaraf** so'zlar deyiladi.

Bir uslubga xoslanib, boshqa uslublarda deyarli qoʻllanilmaydigan soʻzlar **uslubiy xoslangan** soʻzlar deyiladi.



2-mashq. Berilgan matnning qaysi uslubga xosligini aniqlang va uning oʻziga xos belgilarini izohlang. Matndan uslubiy boʻyoqdor soʻzlarni koʻchirib oling.

Qaysi bir yili olis bir qishloqdan oʻgay akasi kelib, uch-toʻrt kun qoʻnib ketgan edi. U ham oʻziga oʻxshagan moʻmin-musulmongina chol boʻlganidan juda topishdilar. Har kun xonaqohga birga borardilar.

– Soʻfi, biror kasb peshasini tutmay oʻtib ketayotibsiz-a? – dedi akasi xonaqohga keta turib.

– E-e, – dedi soʻfi choʻzib va oʻzidan xursand kulimsirash bilan bir kulimsiradi, – mening davlatim hech kimda yoʻq, aka! Eshon bobo Xudoyimning sevgan quli, noz-u neʼmat toʻrt tarafdin suvday oqib turadi. Daryo boʻyidamiz-u, chanqaymizmi? Gʻalati ekansiz.

Shu kulimsirash bilan biroz borgandan keyin bu safar jiddiyroq qilib dedi:

– Ahliyimiz ham uchiga chiqqan chevar, Xudoga shukur. Ojizimiz ham doʻppi tikishga «farang» boʻlib chiqdi! Roʻzgʻorning koʻp-kamlarini oʻzlari bitirishadi. Men bohuzur tasbehimni aylantirib yotsam boʻla beradi.

(Abdulhamid Choʻlpon)



3-mashq. Quyidagi matnning qaysi uslubga oidligini aniqlang. Uslubining oʻziga xos xususiyatini koʻrsating. Uslubiy betaraf, uslubiy xoslangan, uslubiy boʻyoqdor soʻzlarni yozisni mashq qiling.

1. Bu gʻurbat dashtidan nechuk oʻtdim men,

Kimlarga ishonib jadal etdim men?!

Izinga qaragam jilmayib turgan

Ishq bilan Imonni idrok etdim men. (O. Matchon)

2. Suv ham odamlardek yashab, o‘ladi,

Ruhi bulut bo‘lib ko‘kda yeladi.

Yelkasidan oxir joy bergach tog‘lar,

Oqlanib-poklanib qaytib keladi. (O. Matchon)

3. Bu dunyo ustma-ust bir do‘kon chiqar,

Usti — zar, ostidan ustixon chiqar.

Bunda oppoq jildli kitob olsang ham,

Yo osti, yoinki usti kon chiqar. (O. Matchon)

4. Bisyor bo‘lsa agar, bol ham beqadr,

Takror aytilganda rangsizdir kalom.

Bu yorug‘ olamda Vatan bittadir,

Bittadir dunyoda Ona degan nom! (Abdulla Oripov)

5. Qulluq qil demasman,

Yurt tuprog‘in o‘p.

Unga Qullar emas,

Fidolar kerak.

Uning sen-u mendek shoirlari ko‘p,

Buyuk elga endi daholar kerak.

Qaddingni baland tut!

Bo‘lma sarta'zim!

Cho‘qqi bo‘lolmasang,

Mahkam qoya bo‘l!

Pillapoya bo‘ldim,

Senga azizim,

Sen ham gal kelganda

Pillapoya bo‘l... (Erkin Vohidov)



4-mashq. Quyidagi rasm asosida «Men sevgan asar» matn tuzing. Matndagi uslubiy betaraf va bo‘yoqdor so‘zlarni aniqlang.



5-mashq. Quyidagi matnni o‘qing. Matndagi uslubiy betaraf va bo‘yoqdor so‘zlarni aniqlang.



Qaysidir zamonda ikki do‘st yashagan ekan. Nima bo‘lidi-yu, biri ikkinchisining yuziga shapaloq tortib yuboribdi. Xafa bo‘lgan do‘sti hech narsa demasdan, sohildagi qumga «Bugun eng yaqin do‘stim meni urdi», – deb

yozibdi.

Ular qaygadir safarga chiqishibdi. Bir vodiya ular daryodan suzib o'tishayotgan ekan, suv oqizib ketibdi. Shapaloq urgan yigit do'stini qutqaribdi. Do'st o'ziga kelib, toshga: «Bugun mening eng yaqin do'stim mening jonimni saqlab qoldi», – deb yozibdi.

Shapaloq urgan va keyinchalik qutqargan do'st unga:

– Nega men seni hafa qilgan kunim qumga yozgan eding, bugun esa toshga o'yib yozding?

Do'st javob berdi:

– Kimdir bizni hafa qilsa, biz uni qumga yozaylikki, to suv va shamol uni o'chirsin. Lekin birov bizga yaxshilik qilsa, toshga o'yib yozaylikki, hech qanday shamol ham uni o'chira olmasin.

O'z dard-alamlaringni qumga va shodliklaringni toshga yozishni o'rgangin!.

Savollar

1. Nutq uslublari nima va ular tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganiladi?
 2. Nutqning qanday uslublari bor?
 3. Uslubiy betaraf va uslubiy xoslangan so'zlarga misollar keltiring.
 4. Nutq uslublari bilishda bilimning qanday ahamiyati bor?
 5. Uslubiyatda nimalar o'rganiladi?
 6. Nutq uslublari o'rtasidagi farqni ayting?
 7. So'zlashuv uslubining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
 8. So'zlashuv uslubining oddiy va adabiy so'zlashuv uslublarini farqlang.
- Fikringizni misollar yordamida ifodalab bering.



14-mashq. Uyga vazifa. «Men tanlagan kasb» mavzusida diologik matn tuzing. Unda uslubiy bo'yoqdor so'zlardan unumli foydalanishni mashq qiling.

58–§. RASMIY USLUB



Topshiriq

1-topshiriq. Quyida berilgan matn va gaplar qaysi uslubga tegishli ekanligini aniqlang.

1. –Bizga yuborgan kitoblaringizni oldik, – dedi Navoiyga Badiuzzamon. – Ittifotingiz uchun tashakkur. Sizing ash‘oringiz va Jomiy hazratlarining asarlari mutolaasidan ko‘nglimiz safoga to‘ldi.

– Inson ruhi uchun haqiqiy zavq mutolaadir, – dedi Navoiy qiziqib. – Ammo yolg‘iz ash‘or o‘qimoq kifoya qilmas. Tarix! Tarixni ko‘zdan kechirmadingizmi?

–Ko‘ngil ash‘orga ko‘proq moyil bo‘ldi. Fursat bo‘lsa, tarixni ham boshlagumdur,– javob berdi Badiuzzamon.

(Oybek «Navoiy» romanidan)

2. Ma‘lumotnoma tuman ijtimoiy ta‘minot bo‘limiga ko‘rsatish uchun berildi.

3. Orfografiya-to‘g‘ri yozish qoidalarini o‘rganuvchi tilshunoslikning bo‘limidir.

4. Sizing ko‘rsatmangizga binoan, men o‘quv bo‘limi uslubiyotchisi S.Olimov bilan II bosqich talabalarining mart oyidagi davomatini tahlil qildim.

5. Onajon

Necha kunki yo‘q oromim,

Kelolmayman hushimga.

Onajonim kechalari

Kirib chiqar tushimga.

Qo‘llarida oq yelpig‘ich

Oy nurida yaltirar.

Onajonim imlab meni

Qoshlariga chaqirar.

(Abdulla Oripov)

Adabiy tilning ijtimoiy hayotning ma‘lum sohasi doirasida qo‘llaniladigan ko‘rinishi **nutq uslublari** deyiladi.

O‘zbek tilining nutq uslublarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limiga esa **o‘zbek tili uslubi** deyiladi.

O‘zbek tilining ichki tuzilishinigina o‘rganish bizga bu til haqida to‘la axborotni bera olmaydi, chunki til birliklaridan qachon, qayerda, qanday vaziyatda foydalana bilish ham katta ahamiyatga ega. Masalan, *muhtaram*, *qimmatli*, *aziz* singari so‘zlarni ma’lum shaxs bildiruvchi so‘zlarga faqat rasmiy, publitsistik uslublarda qo‘shib ishlatishingiz mumkin: *Muhtaram Solijon Soqiyevich! Qimmatli aka, aziz opajon* kabi. Bunday birikmalarni yoningizda siz bilan oddiy holatda jonli muloqot qilib turgan kishilarga qo‘llay olmaysiz. Agar shunday birikmalarni qo‘llasangiz, noqulay ahvolga tushasiz.

O‘zbek adabiy tili quyidagi uslublar orqali namoyon bo‘ladi:

- 1) rasmiy uslub;
- 2) ilmiy uslub.
- 3) publitsistik uslub;
- 4) badiiy uslub;
- 5) so‘zlashuv uslubi;

Bulardan so‘zlashuv uslubi og‘zaki nutqqa xos bo‘lsa, qolgan uslublar esa ham og‘zaki, ham yozma shakllarga ega. Masalan, ilmiy asar yoki ilmiy ma‘ruza matni yozma nutqqa, ilmiy ma‘ruzaning o‘zi esa og‘zaki nutqqa xosdir. Shuningdek, badiiy uslubning ham yozma va og‘zaki (xalq og‘zaki ijodi) ko‘rinishi borligini bilasiz.

Tilimizda barcha uslublarda teng qo‘llaniladigan so‘zlar bo‘lishi bilan birga, faqat ayrim nutq uslublari uchun xoslangan so‘zlar ham mavjud. Shuning uchun so‘zlar ana shu belgiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

- 1) uslubiy betaraf so‘zlar: (masalan, so‘zlamoq, gapirmoq, uy, daftar, ovqat va boshqalar);

Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, demakki, nutqiy uslublar ning hammasida erkin qo‘llanadigan til birhklari mavjud. Ular uslub nuqtayi nazaridan betaraf, ya‘ni biron-bir uslubga xoslanmagan vositalar hisoblanadi va ular tilda juda katta qismni tashkil etadi. Masalan, ishlamoq, o‘qimoq, yurmoq, kitob, uy,

suv, katta, kichik, kun kabi leksik birliklar va boshqalar. Ular barcha uslublarning umumiy unsurlari sanaladi.

2) uslubiy xoslangan soʻzlar (mazkur, binobarin, dudoq, irin, qaroq, nigoh, tashlamoq, bayonnoma, nota va boshqalar).

Ayni paytda tilda bir qancha vositalar borki, ular koʻproq muayyan bir uslubga xoslangan boʻladi, asosan, shu uslubda qoʻllanadi, hatto tegislili uslubning oʻziga xos belgisi sifatida xizmat qiladi. Masalan, ilmiy matnda terminlar va bosliqa vositalar.

Soʻzlovchi (yozuvchi) matn tuzar ekan, ana shu uslubiy vositalarni, ularning qaysi uslubga daxldor ekanligini yaxshi bilishi lozim.

Nutqning ogʻzaki va yozma shakllari ham ana shunday xoslangan til vositalariga ega. Masalan, muayyan tasvirda yuqorida, quyida kabi soʻz shakllari koʻproq yozma nutqqa xos, shuning uchun ogʻzaki nutqda, aytaylik, majlisda yuqorida aytilgan fikrlarga qoʻshilaman tarzidagi ifoda juda gʻaliz.

Huquqiy qonunchilik va ish yuritish munosabatlari doirasida qoʻllaniluvchi nutq uslubi rasmiy uslub hisoblanadi.

Rasmiy uslub quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. Sof qonunchilik uslubi (qonun, farmon, fuqarolik va jinoiy aktlar, nizomlar uslubi).

2. Idoraviy — devonxona uslubi (buyruq, ariza, talabnoma, bildirgi, tavsifnoma, tarjimayi hol, ishonchnoma, dalolatnoma); diplomatik uslub (nota, bayonotnoma, bitim, konvensiya va boshqalar).

Rasmiy uslub deyarli yozma shaklda roʻyobga chiqadi. U har qanday tasviriy vositalardan, obrazlilikdan xoli boʻladi. Bunday uslubda tilning ikki vazifasi — axborot uzatish va daʼvat etish, buyurish vazifasi amalga oshadi. Masalan, maʼlumotnomada axborot berilsa, buyruqda daʼvat etish, axborot oʻz aksini topgan boʻladi.

Rasmiy uslubga mansub har qaysi turning oʻziga xos leksik, grammatik xususiyatlari mavjud. Masalan, qaror, farmonlarning oʻziga xos tomoni shundaki, bunday matnlardagi gaplarning kesimi III shaxs majhul nisbatidagi feʼllar orqali

ifodalanadi (*ogohlantirilsin, topshirilsin* kabi). Ma'lumotnomada esa birinchi gapning kesimi gap boshida keladi.

Rasmiy ish qog'ozlarining sintaktik tuzilishi qat'iy qoliplarga bo'ysunadi. Masalan, «Ushbu ma'lumotnomani ko'rsatuvchi G'. Mo'minov haqiqatan ham O'zbekiston Milliy universitetining matematika fakultetida dekan o'rinbosari lavozimida ishlaydi...»



1- mashq. Berilgan so'z birikmalari asosida shunday gaplar tuzinki, ularning kesimi majhul nisbatdagi fe'llardan iborat bo'lsin.

O'z roziligi bilan, yetakchi mutaxassis lavozimiga, mehnat shartnomasidagi muddat tugashi munosabati bilan, moliyaviy yo'qlama o'tkazish uchun, shtat jadvali bo'yicha, malaka oshirish kursida bo'lishi davrida, mashg'ulotlarda qatnashmaganligi sababli, oylik maoshi 30000 so'm miqdorida, sinash muddati bilan, taftish o'tkazish uchun.

Rasmiy-idoraviy nutq uslubi jamiyatdagi ijtimoiy huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi uslubdir. Bu uslub hujjjatchilik xarakteri bilan ajralib turadi.

Shunga ko'ra, yozma nutqning xizmatga doir bu turi davlat qonunlari, farmonlar, bayonotlar, shartnomalar, idora hujjatlari, e'lonlar va boshqa rasmiy yozishmalar uslubi hisoblanadi. Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlikdir, unda muayyan nutqiy qoliplar, kasb-hunar so'zlari, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qo'llanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta'minlaydi. Tayyor nutq qurilmalari (shu asosda: shunga ko'ra; ma'lum qilamizki; ...ni e'tiborga olib; ...ga ko'ra; ...biz, quyida imzo chekuvchilar, ...ga asosan (muvofiq); ...uchun, ...dan kelib chiqib; ...sharti bilan; ...berilsin, ...taqdirlansin kabi) hujjat matnining darak-hikoya xarakterida bo'lishini, so'zlarning bir ma'noda ishlatilishini, badiiy-tasviriy vositalarning bo'lmasligini, fe'lning majhullik va buyruq-istak shakllarining, qo'shma gap turlarining keng

qo‘llanishini talab qiladi. Til materiali hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi.



2- mashq. Berilgan matn tarkibidan huquqshunoslikka oid atamalarni ko‘chirib izohlang.

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ – HUQUQNING YETAKCHI TARMOG‘I

Konstitutsiyaviy huquq milliy huquq tizimida huquqning yetakchi tarmog‘idir, negaki eng oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan konstitutsiya uning asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Asosiy qonun sifatida konstitutsiya amalda o‘zida jamoat bitimini, yani o‘ziga xavf-xatarsiz va erkin rivojlanish shartlarini ta‘minlashi va kafolatlashi uchun xalq o‘z davlati bilan tuzadigan shartnomani mujassamlashtiradi. Shu boisdan uning g‘oyalari davlatda amal qiluvchi qolgan barcha qonunlardan ham o‘rin oladi.

Tamal umumiy prinsiplarni o‘zida mujassam etgan konstitutsiya qoidalari shu-ningdek davlatda mavjud barcha huquq tarmoqlarida ham rivoshlanadi.



3- mashq. Tayyor nutq qurilmalari asosida gaplar tuzing.

Shunga ko‘ra; ma‘lum qilamizki; ...ni e‘tiborga olib; ...ga ko‘ra; ...biz, quyida imzo chekuvchilar, ...ga asosan (muvofig); ...uchun, ...dan kelib chiqib; ...sharti bilan; ...berilsin, ...taqdirlansin

Savol va topshiriqlar:

1. Nutq uslublari deb nimaga aytiladi?
2. Qanday nutq uslublari bor?
3. Uslubiy betaraf va uslubiy xoslangan so‘zlarning farqli xususiyatlarini izohlang.
4. Huquqiy atamalarga misollar keltiring.
5. Huquqiy atamalarning o‘ziga xos belgilari nimada?

6. Insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomi haqida suhbat.
7. «O‘z huquqingizni bilasizmi?» mavzusida taqdimot tayyorlang.

59–§. ILMIY USLUB.



1-topshiriq. Quyida berilgan matnni ilmiy uslubga tegishli ekanligini asoslashga harakat qiling.

Dunyo okeanining materiklar oralig‘idagi qismlari *okean* deyiladi. Dunyo okeani to‘rt qismga bo‘linadi: Tinch okean (180 mln kv km), Atlantika okeani (91 mln kv km), Hind okeani (76 mln kv km) va Shimoliy Muz okeani (14 mln kv km). Olimlar beshinchi Janubiy okeanni ham ajratadilar.

Dengiz, qo‘ltiq, bo‘g‘izlar okeanlarning kichik qismlaridir¹⁶⁹.



2-topshiriq. Quyidagi so‘zlarning qaysi fanga oidligini aniqlang.

Durbin, atlas, gerbariy, gipoteza, materiklar;

Kodeks, mehnat huquqi, modda, konvensiya, sud, hukm;

Kvadrat, tenglama, ko‘payuvchi, perimetr, qo‘shish;

Hol, kelishik, sifat, fe‘l, modal so‘zlar

Ilm-fan sohasida qo‘llaniluvchi nutq uslubi ilmiy uslub hisoblanadi.

Ilmiy uslub daliliy ma‘lumotnomalar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga (ta‘rif-qoidalarga) ega bo‘lish, atamalarining keng qo‘llanilishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi.

Ilmiy uslub ham o‘z ichida ikki guruhga bo‘linadi:

1) sof ilmiy uslub;

2) ilmiy-ommabop uslub.

¹⁶⁹ Geografiya. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 6- sinf o‘quvchilari uchun darslik. „O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI T. — 2017 6-bet.

Sof ilmiy uslub muayyan fan sohasidagi kishilarga nisbatangina qoʻllaniladi. Shuning uchun bu uslubda fanning maʼlum sohasiga doir atamalar keng qoʻllaniladi.

Ilmiy-ommabop uslubda esa fan yutuqlarini keng ommaga yetkazish maqsad qilinadi. Shuning uchun bunday uslub publitsistik uslubga yaqinroq boʻladi. Maʼlum fan sohasiga doir atamalar qoʻllanilsa ham, lekin bu atamalar xalqqa tushunarli boʻlishi uchun izohlanadi.

Sof ilmiy uslubning oʻzi ham fan tarmoqlari boʻyicha bir-biridan farqlanadi. Masalan, matematika uslubi bilan tarix yoki adabiyotshunoslik uslubi bir xil emas. Tarix va adabiyotshunoslik uslubi publitsistik uslubga yaqinroq tursa, matematika fanining bayon qilish uslubida eng yuqori darajadagi mavhumlashtirish, turli xil formulalar, shakliy ifodalar orqali ilmiy xulosalarni bayon qilish kuchli boʻladi.



1-mashq. Quyidagi matnni oʻqing va nuqtalar oʻrniga mos soʻzni tanlang. Har bir savol uchun A, B, C, D javoblardan faqat bitta toʻgʻri javobni tanlang.

Insoniyatning 1. tarixini turli ixtisosdagi 2.oʻrganadilar.
3. qadim zamonlarda odamlar yashagan *manzilgohlarda* qazishma ishlarini amalga oshiradilar.

4. ... qadimgi odamlarning suyak qoldiqlarini tekshirib, ularning tashqi qiyofasini tiklaydilar va rivojlanishini oʻrganadilar.

5.qadimgi odamlarning koʻpgina udumlari, hozirda mavjud qabilalar va elatlarning qadimdan saqlab qolgan xoʻjalik va madaniy anʼanalarini oʻrganadilar¹⁷⁰.

1.	A) qadimgi	B) koʻhna	C) eski	D) avvalgi
2.	A) kishilar	B) olimlar	C) avliyolar	D) yozuvchilar

¹⁷⁰ Qadimgi dunyo tarixi. «Yangiyoʻl Poligraf Servis» Toshkent – 2017 6-sif darslik, 8-bet

1-bosqich ona tili

3.	A) Arxeologlar	B) Etnograflar	C) Antropologla	D) Zoologlar
4.	A) Etnograflar	B) Zoologlar	C)Antropologlar	D) Arxeologlar
5.	A) Zoologlar	B) Arxeologlar	C) Antropologla	D)Etnograflar



2-mashq. Uyga vazifa Darslik kitoblaringizdan foydalanib ilmiy uslubda matn tayyorlang.

Matematika	Adabiyot	Informatika

Savol va topshiriqlar

1. Nutq uslublari nima va ular tilshunoslikning qaysi bo‘limida o‘rganiladi?
2. Nutqning qanday uslublari bor?
3. Uslubiy betaraf va uslubiy xoslangan so‘zlarga misollar keltiring.
4. Nutq uslublarini bilishda bilimning qanday ahamiyati bor?
5. Rasmiy uslub nima?
6. Rasmiy uslubning qanday turlarini bilasiz?
7. Rasmiy uslubning o‘ziga xos tomonlari haqida gapiring.
8. Ilmiy uslub deganda qanday uslubni tushunasiz?
9. Ilmiy uslubning o‘ziga xos belgilari qanday?



1-mashq. Berilgan matnlar qaysi fanga oid?

Jadval asosida ishlang.

1. O‘zbekiston katta yerosti boyliklariga ega bo‘lgan mamlakatdir. Ammo mamlakat iqtisodiyotining xomashyoga va yoqilg‘iga bo‘lgan ehtiyoji to‘xtovsiz ortib bormoqda. Hozirda tabiiy boyliklarning yarmiga yaqinidan foydalanilmoqda. Shunday bo‘lsa-da, tabiiy boyliklar zaxirasidan tejab foydalanishimiz zarur. Chunki yerosti boyliklari tugaydigan va tiklanmaydigan boylikdir.

2. Internet tarmog‘ining rivojlanishi hamda uning jamiyat hayotida muhim o‘rin egallashi bugungi kunda jahon miqyosida keng ommalashgan ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Dunyo aholisining aksariyat qismi, shu jumladan, yoshlar o‘z media mahsulotlari hamda biznes loyihalarini ijtimoiy media marketing orqali reklama qilib, daromad manbayiga ega bo‘lishmoqda.

Ijtimoiy media ko‘plab interfaol foydalanuvchilarga ega internet platforma bo‘lib, u internet tarmog‘i ishtirokchilari tomonidan to‘ldirib boriladi. Bunday platformalar umumiy qiziqishi bir xil bo‘lgan foydalanuvchilarning bitta guruh ichida o‘zaro muloqot qilishiga imkon yaratadi. Ijtimoiy mediaga hamkorlikdagi blog, ijtimoiy tarmoq va boshqalar kiradi.

3. Darak, so‘roq va buyruq kabi gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari nutqiy uslublarda turli qo‘shimcha uslubiy ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu turlarning barchasi kuchli his-hayajon, emotsionallikka ham ega bo‘lishi mumkin, bunday holatlarda ular undov gaplar ham deyiladi. Nutq uslublarining deyarli barchasida gaplarning bunday turlari matn maqsadiga muvofiq ravishda qo‘llanadi.

4. Barcha tirik orgainzmlar uchun xos bo‘lgan umumiy xususiyatlar moddalar almashinuvi, qo‘zg‘aluvchanlik, ko‘payish, rivojlanish, o‘sish, nafas olish, oziqlanish va ayirishdan iborat. Moddalar almashinuvida tashqi muhitdan hujayraga moddalar kiradi. Bu moddalardan hujayraning o‘sishi va ko‘payishi

uchun zarur bo'lgan moddalar sintezlanadi. Hujayradagi bunday biosintez reaksiyalar majmuasi assimilatsiya deyiladi.

5. Ushbu g'azal – to'qqiz baytdan iborat. Vazni – mumtoz she'riyatimizda ko'proq ruboiy bitiladigan an'anaviy hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf, ya'ni maf'ulu mafoilun faulun. Taqte'si: – – V/V – V-/V – –. G'azalda «etib ket» so'zlari radifga olingan. Har bir bayt mazmuni ana shu ikki so'z orqali boshqarilgan.

1-matn	2-matn	3-matn	4-matn	5-matn
Fan:	Fan:	Fan:	Fan:	Fan:
Atamalar	Atamalar	Atamalar	Atamalar	Atamalar



2-mashq. Berilgan tarix faniga doir ilmiy matnda fonetik me'yorning buzilish o'rinlarini topib to'g'rilang va ko'chiring.

XII asrdan boshlab Xiva xonlari davlat xayotiga oyid har bir masalani qabila boshliqlarisiz mustaqil hal eta olmaydigon bo'lib qoldilar. Ayni paytda, ular xon tag'dirini hal etardilar. Binobarin, bu holat Xiva xonligida davlat parokandaligi yuz berganligini anglatar edi. Parokandalik Arab Muhammadxon dovrida (1602-1623) yuqori nuqtasiga yetdi. Amudaryo o'zanining o'zgarishi bu davrda ham dovom etdi. Natijada, Arab Muhammadxon xonlik poytaxtini Urganchdan Xivaga ko'chirishga majbur bo'ldi. Xorazm davlati endilikda Xiva xonligi deb atala boshlandi. Yuz bergan ixtisodiy tanglik davlatning siyosiy ahvoliga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatti. Bundan tashqi, kuchlar foydalanib qolishga urundilar. Chunonchi, Arab Muhammad davrida Rossiya chegarasini qo'riqlab turgan ataman Neehay va ataman Shamay boshchiligidagi Yoyiq kazaklari birin-ketin Urganchga hujum qildilar. Garchand bu hujumlar muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo'lsa-da, xonlik ixtisodini xonavayron qildi.



3-mashq. Og'zaki nutqni o'stirish.

Ilmiy uslub va rasmiy uslubning o'xshash va farqli tomonlarini izohlang.



4-mashq. Uyga vazifa. Ilmiy va badiiy uslubda matn tayyorlang. Ushbu uslublarning farqli xususiyatlarini izohlang.

Ilmiy	Badiiy
Quyosh chiqishi. (Geografiya)	Quyosh chiqishi
Urush boshlanishi (Tarix)	Urush boshlanishi
O‘simlikning unib chiqishi (Botanika)	O‘simlikning unib chiqishi

61–§. PUBLITSISTIK USLUB



Topshiriq

1-topshiriq. Qaror qilindi, belgilansin, shaxs-son qo‘shimchalari, to‘g‘ri burchakli uchburchak, bamisli, oraz, jilvalanmoq, siyosiy vaziyat, iqtisodiy taraqqiyot kabi so‘z va iboralar ishtirokida gaplar tuzing va ularning uslubiy belgilarini tushuntiring.



Topshiriq

2-topshiriq. 1. Ommaviy axborot vositalaridan qaysi biriga qiziqasiz? Nima sababdan?

2. Quyida berilgan ommaviy axborot vositalarining afzalliklari va tezkorligi, hayotimizdagi o‘rni haqida fikr bildiring:

T/r	Ommaviy axborot vositasi	Afzalliklari va tezkorligi, hayotimizdagi o‘rni
1	Elektron tarmoqlar	
2	Televideniye	
3	Jurnallar	
4	Gazeta	
5	Radio	

Nazariy ma'lumot. Publitsistika (lot. *publika* — xalq, omma) davrning eng muhim, dolzarb masalalarini o'quvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, televideniye orqali yetkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo'layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Ommaviy axborot vositalarida (gazeta-jurnal, radio, televideniye), Oliy Majlis yig'inlarida, turli xil anjumanlarda qo'llaniladigan nutq uslubi **publitsistik uslub** sanaladi.

Publitsistik uslub ikki xil shaklda namoyon bo'ladi:

1) yozma shakl; 2) og'zaki shakl.

Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan bosh maqolalar, felyeton va pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar publitsistik uslubning yozma shakliga mansubdir. Radio va televideniya chiqayotgan siyosiy sharhlovchilar, notiqning nutqlari esa publitsistik uslubning og'zaki shaklidir.

Publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, u muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lishlik, hozirjavoblik, ta'sirchanlik belgilariga ega. Bunday nutq uslubi ijtimoiy masalalarga harakatchanligi tufayli unda ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ko'proq qo'llaniladi. Masalan, *isyon, irqchilik, qo'poruvchilar, siyosiy tanglik, bitim* va boshqalar.

Publitsistika bir qancha janrlarga ega. Har qaysi janrning o'zi, masalan, gazeta, radio, televideniya beriladigan reportajlar uslub va uslubiy vositalari hamda o'zida berilayotgan reportaj, pamflet, felyeton kabi nutqiy vositalari jihatidan farqlanadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan ularning hammasi bir umumiy belgi asosida publitsistik nutqning turli ko'rinishlari sanaladi. U ham bo'lsa, nutqning jamiyatga qaratilganidir. Publitsistik uslubda asosiy maqsad ommaga axborot yetkazish hisoblanadi.



1-mashq. «Ma'rifat» gazetasidan olingan ma'lumot parchasini o'qing, publitsistik uslubni yuzga chiqaruvchi leksik birliklar ustida ishleng.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 13-aprel kuni yoshlar bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Bu haqda Prezident axborot xizmati xabar berdi.

Ma'lumki, 2021-yil mamlakatimizda «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili», deb nomlanib, bu borada davlat dasturi qabul qilindi. 27-yanvar hamda 10-fevral kunlari bo'lib o'tgan yig'ilishlarda joriy yilgi muhim vazifalar yana bir bor qayd etilib, mas'ullar belgilangan edi¹⁷¹.



2-mashq. Quyida berilgan matndan tushirib qoldirilgan qo'shimchalarning mosini qo'yib ko'chiring.

Ayrim kasalliklar... moyillik qon guruhi ... bog'liq bo'lishi mumkin. Xuddi shunday xulosa... shved olimlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqot yakuni... kelindi. Tadqiqot natijalari haqida batafsil «eLife» ilmiy jurnali... material chop etilgan. Tadqiqotchilar besh million bemor... tibbiy ma'lumotlari... o'rganib chiqishgan. Natija... ular ma'lum qon guruhlaridagi odamlar... ko'p uchraydigan 49 ta kasallik... aniqlashgan.

Olimlar ikkinchi qon guruhi bo'lgan odamlar ko'pincha qon quyushishi – tromboz..., birinchisi esa qon... ivishi kasalligi... azob chekishi... aniqlaganlar. Shu bilan birga, birinchi qon guruhi va ijobiy rezus-omili... ega bo'lgan ayollar homiladorlik paytida ko'pincha gipertoniya bilan og'rikanligi ma'lum bo'lgan. Tadqiqotchilar... xulosalariga ko'ra, uchinchi qon guruhi uning egasida buyrak toshlari paydo bo'lish xavfi... kamaytiradi.

Mualliflar olingan natijalar... ilmiy asoslash uchun qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish kerakligi... ta'kidlashgan.¹⁷²

Nazariy ma'lumot. So'z shakllari, qo'shimchalar, so'z birikmalarining yozilishi, gapda so'zlarning tartiblanishi, moslashuvi grammatik me'yorga

¹⁷¹ Ma'rifat" gazetasi 13.04.21 <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/yoshlar/5579.htm>

¹⁷² "Xalq so'zi" 03 May 2021 **Dunyo**

asoslanadi. Nutqning grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishi adabiy tilning asosiy talabidir. Gapda so'z va qo'shimchalarning to'g'ri bog'lanishi, ega-kesim mosligi, gap bo'laklarining tartibi grammatika qoidalari asosida shakllanadi.

Shuning uchun gap tuzishda, jumla qurishda quyidagilarga amal qilish lozim:

– kelishik qo'shimchalarining ma'no va vazifalarini farqlash hamda o'rinli qo'llash. Masalan, **-ning** qo'shimchasi ot bilan otni, **-ni** esa ot bilan fe'lni o'zaro bog'laydi: ukamning kitobi, kitobni olmoq kabi;

–ot va sifat yasovchi qo'shimchalarni farqlash. Masalan:

–tuzdon (ot) gapdon (sifat), kiyimlik (ot), qishlik kiyim (sifat), tenglama (ot) ko'chma (sifat) kabi;

– ega va kesimning shaxs-sonda mosligini ta'minlash: Tiniq ko'kda bulutlar suzib yuribdi. –Tiniq ko'kda bulutlar suzib yuribdilar emas;

–gapda so'z tartibiga amal qilish:

Uyga shoshib kirdi. (Kirdi shoshib uyga emas).

Gap tartibining o'zgarishi og'zaki va badiiy uslubda uchraydi.

Izoh: She'riy janrlar tilida nutq maqsadiga ko'ra misralarda so'zlar tartibining o'zgarishiga yo'l qo'yiladi.



3-mashq. Ta'lim olayotgan maskaningizda o'tkazgan tadbir, dars, ko'rik-tanlov, tashabbus, ixtirolardan birini ommaviy axborot vositasida yoritish maqsadida publitsistik maqola yoki xabar matni tayyorlang.



4-mashq. Uyga vazifa. «Ma'rifat» gazetasi yoki «Saodat» jumalidan publitsistik uslubda yozilgan maqolani daftaringizga ko'chiring va uni izohlashni mashq qiling.

Savol va topshiriqlar:

1. Publitsistik uslub deb nimaga aytiladi?

2. Publitsistik uslub rasmiy va ilmiy uslubdan qaysi xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi?
3. Publitsistik matn tayyorlashda qanday leksik birliklardan foydalanish mumkin?
4. Mustaqil ravishda o‘zingizni qiziqtirgan mavzuda publitsistik matn tayyorlang.

62-63-§. BADIY USLUB. BADIY USLUB MATNI USTIDA ISHLASH



Topshiriq

1-topshiriq. «Kamtarga – kamol, manmanga – zavol» mavzusida matn yozing. Matnda badiiy uslub vositalaridan foydalanib, ularning uslubiy xususiyatlarini tahlil qiling.

Nazariy ma’lumot. Badiiy asarlarning bayon qilish uslubi **badiiy uslub** hisoblanadi. Badiiy uslubning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda adabiy tilning barcha imkoniyatlarini o‘z ichiga olish bilan birga, o‘zbek shevalariga, kasb-hunarga doir leksik birliklar, bugungi kundalik iste‘moldan chiqib ketgan tarixiy so‘zlar ham personajlar nutqi orqali ishlatila beradi.¹

Masalan: Bir necha fursat shu yo‘sun jimgina o‘lturishkandan keyin yana Ziyoshohichining o‘ziga gapirishka to‘g‘ri keldi:

– Biz o‘zimizning bu kelishimizda sizning uchun dunyoga orzug‘uliy bir o‘g‘ul hadiya etkanimizdek, inshoolloh, qaytishimizda ham Otabek uchun mujassamai iffat (hayo, ibo mujassam) bo‘lg‘an bir rafiqa tuhfa qilarmiz. (Abdulla Qodiriy)



Topshiriq

2- topshiriq. Badiiy va ilmiy uslubni farqlab, misollar orqali izohlang. Berilgan matn qaysi nutq uslubiga xos? Boshqa nutq uslublaridan farqli yoki o‘xshash jihatlarini og‘zaki bayon eting.

Tollarning ko‘m-ko‘k sochpopuklari qizlarning mayda o‘rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g‘amli

yuzlari kuldi, o‘zlari horg‘in-horg‘in oqsalarda, bo‘shalgan qul singari erkinlik nash‘asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog‘ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko‘rina boshladi.

Birinchi ko‘ringan ko‘klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash‘asini beradi. Bultur ekilib, ko‘p qoshlarni qoraytirgan o‘sma ildizidan yana bosh ko‘tarib chiqdi...

Nazariy ma’lumot. Badiiy nutq uslubi inson amaliy faoliyati va hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi, umumga taalluqligi, barchaga barobarligi bilan xarakterlanadi. Badiiy nutq uslubi juda xilma-xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Bu uslub muallifga asarning estetik ta‘sirini kuchaytirish uchun tilning barcha leksik va grammatik vositalaridan ustalik bilan foydalanish, tanlash, shuningdek, yangidan yangi ifoda vositalari yaratish imkonini beradi.

Badiiy nutq uslubida til obraz, xarakter va manzaralar yaratish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu uslub o‘zining obrazlilik bilan boshqa uslublaridan ajralib turadi.



Topshiriq

3- topshiriq. Matni o‘qib, qaysi nutq uslubiga oidligini aniqlang hamda fukringizni dalillang.

Bu voqea Samarqandda Registon ansambli yonida bo‘lgan edi. Oldinda G‘afur aka Hamid G‘ulom bilan, orqada S. Ahmad quloq solib borardi. G‘afur aka Samarqand tarixi, ayniqsa, Alisher Navoiy hayoti bilan bog‘liq tomonlarini gaprib berardi, ba‘zan to‘xtab ko‘zoynagini qo‘liga olib peshtoqlaridagi arab va fors tillarida yozilgan xatlarni titkilab qolardi. Registon maydoniga kirganda G‘afur aka go‘yo ulug‘ bobolar bosgan tuproqni oyoq osti qilishni istamagandek avaylab yurayotganga o‘xshardi, u endi shivirlab gapirardi:

– Mana shu yerdan necha marta Navoiy yurgan. Mana shu peshtoqlarga tikilib ne-ne xayollarga borgan ekan. Manavu to‘g‘ridagi eshikdan Ulug‘bek necha bor kirib chiqqan. Ajab! G‘afur akaning bola tabiati bo‘lib, sal narsaga quvonib, sal

narsaga mo‘lt-mo‘lt ko‘z yoshi to‘kardi. O‘ylaganimiz to‘g‘ri chiqdi, G‘afur akaning ikki ko‘zi jiqqa yosh edi. Shunday paytlarda uni chalg‘itish kerak.

– G‘afur aka, bunaqa qiladigan bo‘lsangiz, ertaga saylovchilar bilan bo‘ladigan uchrashuvda yig‘loqi deputat olib keldik, deb aytamiz. G‘afur aka darrov hushini yig‘di.

– Ha, shayton sezib qolding-a. Shu topda xayol o‘lgur olib qochgan ekan. Navoiy bilan gaplashayotgan edim. Suhbat juda shirin joyiga kelganda xayolni bo‘lib qo‘yding. She‘r tug‘ilayotgan edi-ya! Daraxshon yulduzlar sari o‘kirgan.

Bo‘ynida zanjir-u, qalbi ozod sher.

Insoniy muhabbat mehri-la vafo, Erk-u baxt timsoli ulug‘ Alisher.

Albatta, bitta zo‘r she‘r yozaman. Yozib qo‘y, keyin esimdan chiqib qolmasin. Oradan bir yil o‘tib, Navoiyning besh yuz yillik yubileyi kunlarida G‘afur aka Navoiyga bag‘ishlangan she‘rini yozdi. (Said Ahmad).

Nazariy ma‘lumot. Badiiy uslub badiiy asarlar tilidir. Adabiy tur va janrlar badiiy uslubda yoziladi. Badiiy asarlarning ilmiy asarlardan farqi shundaki, ularda turli badiiy san‘at turlaridan (tashbeh, tazod, tajnis, tashxis, intoq, mubolag‘a kabi) keng foydalaniladi. Badiiy uslub barcha nutq uslublariga xos xususiyatlarni ham o‘zida aks ettiradi, shuning uchun u aralash uslub deyiladi.



Topshiriq

4-topshiriq. Yozib olingan audiomatnlarni tinglang. Har bir eshittirilgan matni qaysi nutq uslubiga xos ekanligini aniqlang.



1-mashq. Quyidagi lavha qaysi badiiy asarga tegishli? Lavha matnini (dialogik nutq) yodga oling va daftaringizga yozing. Badiiy asarning til



xususiyatlarini tahlil qiling.



2-mashq. Quyidagi she'rni o'qing. Unda ishtirok etgan badiiy uslubga oid unsurlari haqida fikr yuriting.

*Barcha shodlik senga bo'lsin,
Bor sitam, zorlik menga.
Barcha dildorlik senga-yu,
Barcha xushtorlik menga...
Bu jahonning rohatin ol,
Bor azobin menga ber.
Senga bo'lsin barcha orom,
Barcha bedorlik menga. («Barcha shodlik senga bo'lsin «)*



3-mashq. Quyidagi rasm asosida badiiy hamda ilmiy uslubga xos matn yarating.



4-mashq. Quyida berilgan matnlarning qaysi nutq uslubiga xos ekanligini aniqlang.

1. Suv insonning kisloroddan keyin ikkinchi ehtiyoji hisoblanadi. Odamzod ovqatsiz



olti hafta yashashi mumkin, ammo suvsiz bir haftadan ortiq umr ko'ra olmaydi. Dunyoda eng ko'p foydali moddalarni o'zida jamlagan suv bu quduq suvi hisoblanadi. Inson o'z qo'li bilan bunday aralashmani tayyorlay olmaydi. Dunyodagi eng qimmat suv

Los-Anjelesda sotiladi. Bu suvning 1 litri 90 dollar turadi. Suvni kristallar bilan bezatilgan maxsus idishlarda sotishadi. Yoshlar bu suvni, asosan, idishiga qiziqib sotib oladi. Odam hayoti davomida taxminan 35 tonna suv ichadi.

2. Bibi Hilolda ayollarga xos go'zallik, nafosat va aql- idroklik, mehr-vafo, vatanparvarlik tuyg'ulari yoshligidanoq shakllana bordi. U «O'n to'rt kunlik oyday to'lgan, husni o'ziga yarashgan, ko'rganlarning aqli shoshgan, qoshi qalamday, qiyilgan yoyday, lablari moyday, muhrlab qo'ygan qog'ozday, qop-qorong'u uyda yotsa, uy yop-yorug' bo'lib ketadi «gan husni jamolda tengi yo'q bir qiz bo'lib voyaga yetadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Nutq uslublari nima va ular tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganiladi?
2. Nutqning qanday uslublari bor?
3. Uslubiy betaraf va uslubiy xoslangan so'zlarga misollar keltiring.
4. Nutq uslublarni bilishda bilimning qanday ahamiyati bor?
5. Nutqning uslubiy turlarining shakllanishiga qanday asoslar sabab bo'lgan?
6. Badiiy uslubning qanday jihatlarini bilasiz?



5-mashq. Uyga vazifa. «Men tanlagan kasb» mavzusida badiiy hamda ilmiy matn tuzing.

XI BO'LIM.

64-65-§. ISH QOG'OZLARI. HUJJAT TURLARI.
TUSHUNTIRISH XATI, TARJIMAYI HOL



1-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Siz hujjat deganda nimani tushunasiz?
2. Siz qanday hujjat turlarini bilasiz?
3. Hayotingiz davomida qanday hujjat turlaridan foydalangansiz?
4. Har qanday baxtsiz hodisa tufayli biror davlat mulkini sindirib qo'ysangiz yoki unga shikast yetkazsangiz, muassasa rahbariga qaysi hujjat orqali murojaat qilasiz?
5. Uzrli sabab bilan darsga kech qolsangiz, qaysi hujjat turidan foydalanib, guruh rahbaringizdan uzr so'raysiz?
6. O'zingiz va oila a'zolaringiz haqida berilgan ma'lumotlar bo'lsa, ularni qanday hujjat sifatida ta'lim muassasangizga taqdim etgan bo'lardingiz ?
7. Hujjatlarning qo'llashdagi ijobiy va salbiy xususiyatlar nimalarda ko'rinadi?
8. Rasmiy, qonuniy hujjatlarga to'laqonli amal qilinganda va, aksincha, amal qilinmaganda qanday vaziyatlar yuzaga keladi?
9. Bizning hayotimizda hujjatlarning o'rni va ahamiyati qanday?

Nazariy ma'lumot. Ish yuritishda hujjatlar ichki va tashqi bo'ladi.

Ichki hujjat muayyan muassasaning o'zida tuzilib, undan shu muassasaning o'zida foydalaniladi.

Tashqi hujjat ayni muassasaga boshqa tashkilot yoki ayrim shaxslardan keladigan hujjatlar.

Tegishlilik jihatiga qarab hujjatlar 2 xil bo'ladi:

1. Xizmat yoki rasmiy hujjatlar. Biror muassasa yoki mansabdor shaxs tomonidan tayyorlanadigan hujjatlar (buyruq, ko'rsatma, bayonnoma), xizmat xatlari ikki nusxada yoziladi, imzolanadi. Lavozimi aniq ko'rsatilgan rahbar

tomonidan imzolangan xatning birinchi nusxasi jo‘natilib, ikkinchisi muassasada qoladi.

2. Shaxsiy hujjatlar. Alohida shaxslar tomonidan yozilib, ularning xizmat faoliyatlaridan tashqaridagi yoki jamoat ishlarini bajarish bilan bog‘liq hujjatlar (shaxsiy ariza, shikoyat, tavsiyanoma)¹⁷³.



1-mashq. Berilgan rasmdan foydalanib 3 xil mazmundagi Tushuntirish xatini yozing. 1-sida darsga kechikishingizga sabab, 2-sida kitobni yo‘qotib qo‘yganingizga sabab, 3-sida ta‘lim muassasasidagi tadbirlarda qatnasha olmasligingizga sabab ifodalansin.



TUSHUNTIRISH XATI

1. Tushuntirish xati xizmat sohasida, ish joyida yuz bergan kamchiliklar yoki o‘qish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim vazifa va topshiriqlarning bajarilmay qolish sabablarini bayon etish, izohlash maqsadida yoziladigan rasmiy hujjatdir.

2. Tushuntirish xati korxonalar, muassasa, tashkilot rahbari yoki boshqa mutasaddi kishilar nomiga yo‘llanadi. Bu hujjat korxonalararo yozishma tarzida bo‘lishi ham mumkin. Bunday holatlarda tushuntirish xati buyurtmachi va ijrochi tashkilotlar, quyi va yuqori idoralar faoliyatiga doir masala, hisobot, reja, loyiha, jadval va boshqa asosiy hujjatlarga ilova qilinadi.

¹⁷³ N. Mahmudov, A. Rafiyev, I. Yo‘ldoshev. Davlat tilida ish yuritish.- T:”Cho‘lpon” .2007. 128b. 66-bet

3. Tushuntirish xati ham ko‘proq shaxsiy mazmunga ega bo‘lib, odatda, rahbar yoki mutasaddi shaxs nomiga yoziladi va unda sodir etilgan xatti-harakatlar, yo‘l qo‘yilgan qoidabuzarlik holatlari, bajarilmay qolgan ish, topshiriq yoki vazifalar, ularni keltirib chiqargan sabablar izohlanadi.

Shaxsiy mazmundagi tushuntirish xatining zaruriy qismlari:

- a) hujjat yo‘llanayotgan tashkilot nomi, rahbarning lavozimi, familiyasi, ismi;
- b) tushuntirish xatini yozayotgan kishining ish joyi, lavozimi, familiyasi, ismi;
- c) hujjat nomi - tushuntirish xati;
- d) matn (unda yuz bergan voqea-hodisa, yo‘l qo‘yilgan qoidabuzarlik, kamchilik, nuqson, uni keltirib chiqargan sabablar hamda unga munosabat bayon etiladi);
- e) tushuntirish xatini yozgan shaxsning imzosi, familiyasi, ismi va yozilgan sana.

NAMUNA

Navoiy davlat pedagogika instituti
akademik litseyi ijrochi direktori
F. B. Maxammatqulovga aniq fanlar
(texnika) yo‘nalishi 7-19 guruhi
o‘quvchisi Muhammedov Umidjon
Olimjon o‘g‘lining

Tushuntirish xati

2021-yil 22-23-kunlari fizika fanidan IV bosqich Respublika fan olimpiadasida qatnashganim, faxrli 1-o‘rinni egallaganim sababli Toshkent shahrida bo‘ldim. Taqdirlash marosimidan so‘ng 23.05.21-kuni tunda yo‘lga chiqib, Navoiy shahriga 24.05.21 da tong soat 9-00 da yetib keldik. Shu sababli 24.05.21-kuni soat 8-00 da bo‘ladigan Yakuniy Davlat attestatsiyasiga kechikib keldik. Asos sifatida temir yo‘l chiptamni, hujjatlarimni ko‘rsatib o‘taman.

2021.24.05.

imzo

Muhammedov U.



Taqdirlash marosimidan surat



Topshiriq

2-topshiriq. O‘zingizning tarjimai holingizni yozishga harakat qiling. Yozgan matningizni quyida berilgan rasmiy hujjatning ilmiy talabiga mosligini tekshirib ko‘ring.

Tarjimai hol

Tarjimai hol ko‘pchilikka rezyume nomi bilan ham tanish. Tarjimai hol yozish uchun bir qator tavsiyalarga amal qiling. Bunda kasbiy biografiyaning asosiy dalillariga urg‘u berilishi kerak, xususan:

Lavozim – agar tarjimai hol qanday tuzilishini bilmasangiz, qaysi lavozimga da’vo qilayotgangingizni ko‘rsating. Masalan: «buxgalter» yoki «PHP dasturchi».

Bog‘lanish uchun ma’lumotlar – yashash manzilini ko‘rsatish shart emas, lekin elektron pochta va telefon raqamni, albatta, ko‘rsatish kerak. Yashaydigan shahar va qancha maoshga da’vo qilayotganningizni ham ko‘rsatishingiz mumkin.

Ish tajribasi – dastavval so‘nggi ish joyingiz bilan boshlab, birinchi ish joyingiz bilan yakunlash kerak. Ish joylarda qanday lavozimda ish yuritganningiz ham muhim sanaladi. Yutuqlaringizni ham kiritishingiz mumkin.

Ma’lumoti – oliy, o‘rta yoki o‘rta maxsus kabi.

Kasbiy mahorat va ko‘nikmalar – nimalar qo‘lingizdan keladi, qaysi dasturlar bilan ishlashni bilasiz, shular haqida yozish kerak. Qo‘shimcha tillarni



2- mashq. Uyga vazifa . Quyidagi vaziyatga moslab Tushuntirish xati yozing. Unda nega guruh majlisiga kelmaganingizni ifodalang.

Siz dam olish uchun ota-onangiz bilan Zomin sanatoriysiga ketdingiz.

66 –§. TABRIKNOMA, E’LON, TAKLIFNOMA



Topshiriq

1-topshiriq. Maktabda o‘qigan davringizda bayram yoki unutilmas sanalarni nishonlash jarayonida qanday e’lon va tabriknoma tayyorlaganingiz haqida ma’lumot yozing.



Topshiriq

2-topshiriq. «Onamga – yagonamga» mavzusida Tabriknoma tayyorlang.

Tabrik – yaxshi tilak, xayrixohlik hislarini ifodalovchi murojaat, qutlov. Hayotda yuz bergan biror muhim voqea munosabati bilan izhor etilgan qutlov, muborakbod.

(«O‘zbek tilining izohli lug‘ati» dan)

O‘zbekiston xalqiga Yangi yil tabrigi

Muhtaram vatandoshlar!

Betakror diyorimizga yangi – 2021-yil kirib kelmoqda. Siz, azizlarni, mo‘tabar nuroniylarimiz, mehribon opa-singillarimiz, navqiron yoshlarimizni – ko‘p millatli butun xalqimizni ushbu go‘zal ayyom bilan chin qalbimdan tabriklayman! Barchangizga sihat-salomatlik, tinchlik-xotirjamlik, baxt-u saodat va farovonlik tilayman.

Aziz do‘stlar!

Hammamiz guvohmiz: 2020-yil butun dunyo qatori yurtimiz uchun ham og‘ir va murakkab keldi. Koronavirus pandemiyasi, global inqiroz insoniyatni

jiddiy sinovdan o'tkazmoqda. Mana shunday murakkab vaziyatga qaramasdan, mard va olijanob xalqimizning matonati, fidokorona mehnati bilan barcha sohalarda katta o'zgarishlarni amalga oshirdik.

Iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirishga erishdik. Yuqori texnologiyalarga asoslangan o'nlab yangi korxonalar, transport tizimlari ishga tushirildi. Zamonaviy uy-joylar, yo'l va ko'priklar, bog'cha va maktablar, shifoxonalar, madaniyat va san'at, sport maskanlarini barpo etdik.

Mirishkor dehqon va fermerlarimiz barcha qiyinchiliklarni mardona yengib, mo'l hosil yetishtirdilar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun yanada keng imkoniyatlar ochildi. Yil davomida aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar uchun minglab yangi ish o'rinlari yaratildi. O'tib borayotgan yil jamiyatimizning ma'naviy-ma'rifiy hayotida ham muhim voqealarga boy bo'ldi. Xorijiy davlatlar, avvalo, yaqin qo'shnilarimiz bilan do'stlik va hamkorlikni yanada kuchaytirdik. O'zbekistonning xalqaro nufuzini yuksaltirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Qadrli yurtdoshlar!

Biz kirib kelayotgan 2021-yilga yaxshi niyat va katta rejalar bilan «**Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili**» deb nom berdik. Yangi yilda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda boshlagan keng ko'lamli islohotlarimizni izchil davom ettiramiz. Yurtimizda tinchlik va barqarorlik, millatlar va elatlar o'rtasidagi totuvlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibatni mustahkamlash asosiy vazifamiz bo'lib qoladi. Xalqimizning turmush farovonligini oshirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga alohida ahamiyat beramiz.

Aziz yoshlarimiz, mehnatkash va oqila opa-singillarimiz, muhtaram keksalarimizning hayotiy manfaatlarini ta'minlash e'tiborimiz markazida bo'ladi. Sog'liqni saqlash, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish masalalari yangi bosqichga ko'tariladi.

2021-yilda davlatimiz mustaqilligiga 30 yil to‘ladi. Ushbu shonli sanani, inshoolloh, barchamiz birgalikda munosib nishonlaymiz. Yangi O‘zbekistonni barpo etish, milliy yuksalish poydevorini yaratishga qaratilgan ulkan ishlarimizni qat’iy davom ettiramiz.

Aziz vatandoshlarim, qadrdonlarim!

Shu go‘zal oqshomda barchamizning niyatimiz, tilagimiz bitta: yurtimizda yashayotgan har bir oila, har bir inson murod-maqsadiga yetsin! Jonajon O‘zbekistonimiz gullab-yashnasin, dunyomiz tinch bo‘lsin! Kirib kelayotgan 2021-yil ona diyorumizga fayz-u baraka, yangi yutuq va zafarlar olib kelsin!

Yangi yil barchamizga muborak bo‘lsin!

**Shavkat Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

E’lon – ko‘pchilikka ma’lum qilish, bildirish, xabarnoma. Yangilik, buyruq, farmon; shunday xabar yozilgan qog‘oz, hujjat, bildirish.

(«O‘zbek tilining izohli lug‘ati» 5-jild,66-bet)

E’LON

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Urganch filiali akademik litseyining xorijiy filologiya yo‘nalishi 109-guruhida 10-may kuni adabiyot fanidan Ochiq dars o‘tkaziladi.

Dars mavzusi: **Jahon adabiyoti. Jek Londonning «Hayotga muhabbat» hikoyasi.**

(2-juftlik. 220-xona. O‘qituvchi: M. Karimova «O‘zbek filologiyasi» kafedrası)

TAKLIFNOMA

O‘tkazilayotgan biron-bir tadbir haqida axborot beruvchi va unga taklif etuvchi xat. U «Taklifnoma» degan so‘z, taklif qilinayotgan kishining ismi, familiyasi, taklif qiluvchi tashkilot yoki muassasaning nomi, tadbirning mazmuni, ya’ni qanday tadbirga taklif etilayotgani, uning o‘tkazilish sanasi va joyi ko‘rsatiladi hamda tadbirni tashkil etgan tashkilot yoki muassasaning nomi qayd etiladi. Ba’zan «Tashkiliy qo‘mita» deb yozib qo‘yilishi ham mumkin.

Masalan:

TAKLIFNOMA

Muhtaram (a)_____

Sizni 2020-yil 25-yanvar kuni Samarqand davlat universitetida o‘tkaziladigan **«Mahmud Koshg‘ariyning «Devon-u lug‘otit turk» asari va uning turkiy xalqlar madaniyati hamda jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni»** mavzusida o‘tkaziladigan xalqaro konferensiyaga taklif etamiz.

Manzilimiz: Samarqand shahri, Universitet xiyoboni 15. SamDU bosh binosi.

Konferensiya kun tartibi:

1. Konferensiya ishtirokchilarini

kutib olish va ro‘yxatdan o‘tkazish:	8.00-9.00
2. Universitet bilan tanishtirish:	9.00-10.00
3. Konferensiya yalpi yig‘ilishining ochilishi va davom etishi:	10.00-12.00
4. Tushlik:	12.00-13.00
5. Sho‘balar yig‘ilishi:	13.00-18.00



1-topshiriq. Kichik guruhlarga bo‘linib, «Bizning akademiya» ruknida «Badiiy adabiyot – sakkizinchi mo‘jiza» mavzusida konferensiya uchun e‘lon va taklifnoma matnlari tayyorlang. Konferensiya uchun tezis ma‘lumotlar asosida mavzuni yoritib bering. Zarur hayotiy xulosalar va fikrlar bildiring.

Savol va topshiriqlar ustida ishlash

1. E‘lon so‘zi qaysi tildan olingan va qanday ma‘noni bildiradi?
2. Tabriknoma yozishda hissiy-ta‘siriy bo‘yoqdor so‘zlardan foydalanish mumkinmi?
3. Taklifnoma yozishda qanday talab va shartlar bor?



1-mashq. Uyga vazifa. Taniqli ijodkorlar she‘rlaridan foydalangan holda ustozlar uchun she‘riy tabrik tayyorlang va uni daftaringizga yozing.

67–§. ARIZA, TAVSIFNOMA, TAVSIYANOMA



1- topshiriq. Ish qog‘ozlari bo‘yicha quyi sinflarda o‘zlashtirilgan bilimlarni qisqa savol-javob asosida takrorlang.

Savollar

1. Ish qog‘ozlari qaysi nutq uslubiga xos?
2. Qanday ish qog‘ozlarini bilasiz?
3. Ish qog‘ozlarining shakli va tili xususida nimalarni ayta olasiz?

Nazariy ma‘lumot. Hujjat va uning turlari haqida ma‘lumot. Ijtimoiy munosabatlar doirasida odamlar, idoralar va tashkilotlar, korxonalar va muassasalar o‘rtasida o‘zaro ish yuritishning ma‘lum huquqiy asoslari mavjud bo‘lib, ular tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish tarzida amalga oshiriladi. Hujjatlarning mukammallik darajasi ular bilan ish ko‘radigan kishilarning

savodxonlik darajasi, davlatchilik tarixi va davlat ishlarini yuritishdagi mahoratlari bilan bog‘liq. Vohalar, ma’lum darajada kishilar o‘rtasida shakllangan nutqiy madaniyat, ayni paytda, bu hujjatlarga bo‘ladigan zaruriyat bilan bog‘liq bo‘ladi. Hujjatlarni yuritish, asosan, davlat ishlarini huquqiy asoslarga qo‘yish tarzida amalga oshiriladi. Demak, u davlat yoki davlatlararo bo‘ladigan ma’lum talablar darajasida amalga oshiriladi va dunyoviy sohalarni ham o‘zlashtiradi.

Hujjatlarning mukammalligi davlat ishlarini yuritish takomilidan dalolat beradi. Shunday qilib, ish yuritishning tarkibiy qismi bo‘lgan hujjatlarni ikki qismga bo‘lib o‘rganish to‘g‘ri bo‘ladi:

1. Rasmiy hujjatlar.

2. Shaxsiy hujjatlar.

Alohida shaxs, jamoa tashkilotlari o‘rtasidagi aloqaning huquqiy jihatlarini qamrab oluvchi tashkiliy hujjatlarga guvohnoma, yo‘riqnoma, nizom, qoida, ustav, shartnoma singari hujjatlar; tashkilot yoki muassasa rahbarining ish faoliyati doirasida amal qiladigan farmoyish hujjatlariga buyruq, ko‘rsatma, farmoyish kabi hujjatlar; ma’lumot-axborot hujjatlariga ariza, bayonnoma, bildirishnoma, vasiyatnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, ma’lumotnoma, tavsifnoma, tavsiyanoma, taklifnoma, tarjimayi hol, tushuntirish xati, e’lon, hisobot tarzidagi hujjatlardir.

Alohida shaxs yoki tashkilotning faoliyatini qamrab oladigan xizmat yozishmalariga taklifnoma, telegramma, telefonogramma, modemogramma va turli mazmundagi xatlar kiradi. Ma’lum bo‘lyaptiki, ma’muriy-boshqaruv faoliyati doirasida amal qiladigan bu hujjatlarning aksariyat qismi rasmiy mazmunga ega. Demak, kim tomonidan yozilganlik, ya’ni tegishlilik nuqtayi nazaridagina ariza, vasiyatnoma, tarjimayi hol, tushuntirish xati, tilxat, ishonchnoma singarilarni shaxsiy hujjatlar deyishimiz mumkin. Aslida ular ham rasmiy mazmunga ega. Hujjat deyildimi, uni rasmiy tushunish va qabul qilish to‘g‘ri bo‘ladi.

Ariza insonlar hayotida eng ko‘p foydalaniladigan hujjat hisoblanadi. Ariza bir kishi tomonidan tashkilot, korxonalar yoki muassasa rahbari nomiga yoziladi.

ARIZA

Arizaning tarkibiy qismida quyidagilar bo‘ladi:

1. Ariza yo‘llangan tashkilot, korxonaga, muassasa va uning rahbarining nomi.
2. Arizachining turar joyi yoki ish joyi, vazifasi, ismi va otasining ismi.
3. Hujjatning nomi – Ariza.
4. Arizaning mazmuni: taklif, iltimos, shikoyat.
5. Arizaga ilova qilinishi mumkin bo‘lgan hujjatlar ro‘yxati.
6. Arizachining imzosi.
7. Ismi-familiyasi.
8. Ariza yozilgan sana (yil, kun, oy).

Namuna:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Urganch filiali akade-
mik litseyi ijrochi direktori
Z.Y.Sa’dullayevga shu akademik
litseyning ona tili va adabiyot fani
o‘qituvchisi M. Karimova tomonidan

A R I Z A

Mening 2021-yil 23-avgustda mehnat ta’tilim tugaganligi sababli ish faoliyatimni davom ettirishim (ishga tushishimga)ga ruxsat berishingizni so‘rayman.

_____ M. Karimova. 2021-yil. 23.08.

Ilova : arizalar mazmuni turlicha bo‘lishi mumkin. Ammo rasmiylashtirish shakli yuqoridagi tartibda bir xil, ayni paytda, aniq va qisqa yozilgan bo‘ladi.



1-mashq. Ariza namunasidagi bo'sh o'rinlarni zarur so'zlar bilan to'ldirib, daftaringizga ko'chiring. Ajratilgan so'zlar ma'nosini izohlang. Nuqtalar o'rniga zarur qo'shimchalarni qo'ying va ularni izohlang.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Urganch filiali akade-
mik litseyi ijrochi direktori
Z. Y. Sa'dullayevga shu akademik
litseyning xorijiy filologiya yo'-
nalishi 209- guruh talaba...
Qodirova Lobar tomon...

A R I Z A

Men,.... tanlovda natijalarga erish..... imtiyozli o'rinni qo'lga kirit.....
Shuning uchun meni Amerika Qo'shma o'qish uchun yo'llanma
qilindi.

O'qishimni Amerik.. ... Shtatlari... ... ettirish uchun ruxsat ...ni so'ray....
Quyidagi hujjatimni ilova qilaman.

L. Qodirova (imzo) 20.08.2021-yil

Ilova: L. Qodirovaning AQSHdagi ta'lim grantini yutganligi haqidaberilgan.

Nazariy ma'lumot. Tavsifiy matn so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan bayon etilgan voqea-hodisa va shaxs tasviri, tavsifi yoxud xabar, ma'lumot bayonidir. Ma'lum voqea-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni badiiy hodisalar yoki dalillar bilan ta'riflash, izohlash, isbotlash, asoslash tavsifiy matnga xos xususiyat. Tavsifiy matn yaratishda uyushiq bo'laklar, ajratilgan gap bo'laklari, atov gaplardan ham keng foydalaniladi. Tavsifiy matn ilmiy, publitsistik, rasmiy-idoraviy, shuningdek, badiiy uslubga xosdir. Tavsifiy matnlarda shaxs, narsa, voqea-hodisaning muhim belgilari va aniq ma'lumotlar

sifatlovchi orqali bayon qilinadi. Tavsiflashda shaxs yoki narsa-voqeani xolisona baholash bilan munosabat bildirish ham muhim hisoblanadi.

Tavsifnoma¹⁷⁴

Tavsifnoma ham xodimning mehnat va boshqa ijtimoiy faoliyatidan xabardor etuvchi ma'lumotnomaga o'xshash hujjat. Uning ma'lumotnomaga yana o'xshash tomoni shundaki, tavsifnoma xodimga zarur holatlarda, masalan, xodim o'qishga kirayotganda, yuqori lavozimga ko'tarilayotganda beriladi. U ham dastlab kinga (ismi, familiyasi va otasining ismi) berilayotgani, uning millati, ma'lumoti, lavozimi, agar bor bo'lsa, darajasi va unvonini aks ettirgan ma'lumot bilan boshlanadi va yangi qatorda o'rtadan «Tavsifnoma» deb yoziladi. Shundan so'ng yangi qatordan asosiy matn beriladi, imzo chekiladi, sana qo'yiladi va muhr bosiladi. Tavsifnomaning ma'lumotnomadan yana farqi shundaki, unga ba'zan tashkilot yoki muassasa rahbari bilan birga jamoat tashkilotlari rahbarlari imzo chekishlari ham mumkin. Tavsifnomaning zaruriy qismlari quyidagilar:

1. Tavsifnoma yuborayaotgan idora yoki shaxs nomi.
2. Hujjat nomi (tavsifnoma).
3. Matn (shaxs haqida asosiy ma'lumotlar: tug'ilgan yili, millati, ismi, otasining ismi, familiyasi).
4. Ma'lumoti, fanlarga bo'lgan munosabati, intizomi, ijtimoiy faoliyati.

Tavsif qilishdan maqsad.

5. Imzosi.
6. Sana.
7. Muhr.

¹⁷⁴ Tavsifnoma va shu turdagi boshqa rasmiy hujjat nomlaridagi faqat 1-harf bosh harf bilan yozilib, qolgan harflar kichik harf bilan berilishi hamda har bir harf qo'shib yozilishi lozim. Harflarni bosh harf bilan, ajratib yozish (T A V S I F N O M A) imlo me'yoriga zid sanaladi.

Namuna:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Urganch filiali akademik litseyi xorijiy filologiya yo‘nalishi 209-guruh talabasi
Ozodov Sarvarbek Otabek o‘g‘liga

Tavsifnoma

2004-yilda tug‘ilgan, millati – o‘zbek, 2020-yildan mazkur akademik litseyda o‘qiydi. Akademik litseyda barcha fanlardan a‘lo baholarga o‘qiydi. Ona tili, ingliz tilini va adabiyotni qunt bilan o‘rganib kelmoqda. 2020-2021- o‘quv yilida ona tili fanidan viloyat olimpiadasi g‘olibi, «Kitobxon oila» tanlovining viloyat bosqichi g‘olibi, «Bir million dasturchi» tanlovi sovrindori bo‘ldi. Yoshlar agentligi tomonidan tashkil qilingan «Iqtidor oromgohi» loyihasida ishtirok etdi. Kelajakda yurt ravnaqi uchun yaratuvchan shaxs sifatida faol bo‘lish – maqsadi. Guruhdoshlarini ham barcha sohalarida faollikka undab kelmoqda.

Ozodov Sarvarbek Otabek o‘g‘li izlanuvchan, talabchan, akademik litseyda o‘tkaziladigan ma’naviy- ma’rifiy tadbirlarda tashkilotchiligi bilan tengdoshlaridan ajralib turadi.

209-guruh rahbari: (imzo) M. Karimova – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali
akademik litseyi ona tili va adabiyot fani bosh o‘qituvchisi.

09.09.2021- yil.

Muhr o‘rni

Tavsiyanoma

Tavsiyanoma ham bir shaxs yoki xodim haqida ma’lumot beradigan, uni biron lavozim yoki ijtimoiy-siyosiy tashkilotga a’zo bo‘lishga tavsiya etadigan rasmiy hujjat. Unda xodimning shaxsiy fazilatlari va xususiyatlari, ishga munosabati va faollik darajasi, siyosiy savodxonligi va axloqi singari jihatlar aks etgan bo‘ladi. Eng muhimi, xodimni ma’lum lavozimga tavsiya etish bilan birga, ma’lum

ma'noda uni kafillikka ham oladi. Uning mas'uliyatli tomoni ham shunda. Tavsiyanoma matn oxirida uni bergan kishi tomonidan imzolanadi. Tavsiyanomaning zaruriy qismlari quyidagilar:

1. Hujjat nomi (Tavsiyanoma).
2. Matn.
3. Tavsiyanoma beruvchi shaxsning lavozimi, ismi, otasining ismi, familiyasi.
4. Imzo.
5. Sana.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Shaxsiy hujjat turlari haqida gapiring.
2. Shaxsiy hujjatlarning boshqa rasmiy hujjatlardan farqi nimada?
3. Ariza haqida ma'lumot bering.
4. Ariza namunasini tuzing.



2-mashq. Mavzu bo'yicha olgan bilimlaringizni «Qaytar aloqa» usuli orqali mustahkamlashni mashq qiling. 3ta kichik guruhga bo'linib har bir guruh quyidagi vaziyatlar asosida ish qog'ozlari matni yarating. Unda 1-guruh ariza, 2-guruh tavsifnoma, 3-guruh tavsiyanoma matni tayyorlab guruh bilan muhokama qiling.

Ariza	Tavsifnoma	Tavsiyanoma
1-bosqich o'quvchisining Navoiyxonlik tadbiri uchun madaniyat saroyidan ansambl liboslarini olishga ruxsat berishi xususida madaniyat saroyi direktoriga ariza yozish	Litseyingizdagi shaxmat musobaqalari, kitobxonlik tanlovlari, fan olimpiadasi g'olibiga berilgan tavsifnoma yozish	OTMning harbiy yo'nalishga hujjat topshiradigan litseyning 2-bosqich o'quvchisiga tavsiyanoma yozish



1-mashq. Uyga vazifa: «Bu talablarni unutmang» mavzusida eslatma matni tayyorlang.

68 –§. RASMIY HUJJAT MATNI USTIDA ISHLASH



Topshiriq

1-topshiriq. Tezkor savollar bilan ishlash.

1 Xizmat sohasida ish joyida yuz bergan kamchiliklar yoki o`qish jarayoni bilan bog`liq bo`lgan ayrim vazifa va topshiriqlarning bajarilmay qolish sabablarini bayon etish, izohlash maqsadida yoziladigan rasmiy hujjat nomini ayting. (Tushuntirish xati)

2. Qaysi rasmiy hujjat rezyume nomi bilan ham yuritiladi? (Tarjimai hol)

3. Ko`pchilikka ma`lum qilish, bildirish ,xabarnoma nima deyiladi ? (E`lon)

4. O`tkazilayotgan biron bir tadbir haqida axborot beruvchi va unga taklif etuvchi xat qanday nomlanadi ? (Taklifnoma)

5. Kim tomonidan yozilganlik, ya`ni tegishlilik nuqtayi nazaridan ariza, vasiyatnoma, tilxat kabilar qanday xujjatlar hisoblanadi? (Shaxsiy hujjatlar)



Topshiriq

2-topshiriq. Egallagan bilimlaringiz asosida quyidagi test savollarini

bajaring.

1. Mahmud Koshg`ariyning guvohlik berishicha, o`sha davrda davlat tilida ish yuritish nima deb aytilgan?

A) mirzo B) kotib C) munshaot

2. «Munshaot» so`zi qaysi tildan o`zlashgan ?

A) asl turkiy so`z B) arab tilidan o`zlashgan C) forsiy so`z

3. «Munshaot» so`zining lug`aviy ma`nosi to`g`ri berilgan javobni toping .

A) ish yuritish B) xat C) hujjat

4. Hujjatlar tegishlilik jihatiga ko‘ra qaysi turlarga bo‘linadi?

- A) ichki va tashqi B) sodda va murakkab hujjatlar
C) rasmiy va shaxsiy hujjatlar

5. Qaysi hujjat asl nusxa bilan bir xil huquqqa ega ?

- A) ko‘chirma nusxa B) qoralama C) ikkinchi nusxa (dublikati)

6. Ariza, tushuntirish xati qaysi hujjat turiga kiradi?

- A) ma’lumotsimon –axborot hujjatlariga
B) farmoyish hujjatlariga C) xizmat yozishmalariga

7. Tashkiliy hujjatlarni ko‘rsating.

- A) nizom, yo‘riqnoma, majlis bayoni, shartnomalar
B) hisobot, ariza, tavsifnoma C) talab, iltimos, ishonchnoma

8. Hujjatlar matniga qo‘yiladigan eng muhim talab nima?

- A) xolislik, aniqlik, ixchamlilik, lo‘ndalik .
B) so‘z tartibi
C) bir ma’noli so‘zlarni qo‘llash.



Topshiriq

3-topshiriq. Kichik guruhlariga bo‘linib, 1-guruh taklifnomalar, 2-guruh sodda va kengaytirilgan tarjimaiy hol, 3-guruh majlis bayonnomasi matnlari tayyorlang Unda hujjat turining tarkibiy qismi va qo‘llanadigan o‘zgarmas qolip so‘zlariga qat’iy amal qilinishi lozim.



Topshiriq

4- topshiriq. Har bir o‘quvchi belgilangan muddatda jadvalda berilgan nutq uslublariga xos so‘z va so‘z birikmalarini yozing.

So‘zlashuv	Ilmiy	Publitsistik	Rasmiy	Badiiy
yeb tashlamoq	tajriba asosida	ijodkor yoshlar	quyida imzo chekuvchilar	yillar armoni



1 –mashq. Guruh kichik guruhlarga bo'ling. 1-guruh ilmiy uslub, 2-guruh rasmiy uslub, 3-guruh badiiy uslubga xos bo'lgan so'zlarni aniqlab, tegishli uslublarga xos matn yarating.

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar

1. Ma'lumotnoma haqida tushunchalaringizni ayting.
2. Ma'lumotnoma turlarini sanang.
3. Rasmiy ma'lumotnoma qanday tuziladi?
4. Shaxsiy ma'lumotnoma qanday tuziladi?
5. Matn namunasini tuzing.

1. Ish qog'ozlarining o'ziga xos uslubiy xususiyatlari:ni sanab ko'rsating.
Ish qog'ozlari ma'lum qoliplarda tuzilib, ulardagi ma'lumotlar aniq va xolis bo'lishi kerak. Hujjatlarning o'ziga xos atama va so'z birikmalari bo'lib, ular barcha uchun tushunarlidir. Ish qog'ozlarida badiiy uslubdagi obrazlilik, o'xshatish kabi unsurlar, ko'chma ma'nodagi so'zlar, undovlar qo'llanmaydi.

2. Nima uchun hujjatlar dastlab qoralama nusxada tayyorlanadi?

Hujjatning ma'lum qolip va qonun-qoidalarga amal qilgan holda yozilishini nazorat qilish maqsadida qoralama nusxada yoziladi va oqqa ko'chiriladi.

3. Yurtimizda qanday elektron hujjat bazalari yaratilgan? Ularning ro'yxatini tuzing.

Axborotlarni izlash, olish va foydalanish bo'yicha, shuningdek, elektron hujjatlarni yaratish, foydalanish va saqlash bo'yicha yurtimizda zarur huquqiy baza yaratilgan.

Masalan: Lex.uz My.gov.uz

4. So'zlarning asosiy ma'nolari izohli lug'atdan aniqlanadi:

Notarius – yuridik aktlar, hujjatlarni rasmiylashtiruvchi shaxs



Uyga vazifa. *Lex.uzdan* foydalanib ta'limga oid so'nggi qaror matni bilan tanishing va bandlarini muhokama qiling.

69–§. ISH QOG'OZLARI: TILXAT, DALOLATNOMA, ISHONCHNOMA



1-topshiriq. Har bir o'quvchi litseyda o'tkazilayotgan tadbirlar uchun litsey muzeyidan foydalanishda zarur bo'lgan eksponatlarni olish uchun qanday hujjat turini rasmiylashtirasiz? Vaziyatga mos hujjat matni yarating.



2-topshiriq. Siz tadbirda sahna ko'inishi uchun oshxonadan turli anjomlarni olganingiz haqida tilxat matni tayyorlang va uni boshqa ish qog'ozlaridan farqini izohlang.

Nazariy ma'lumot.

Tilxat. Ma'lum bir shaxsdan yoki muassasadan pul, hujjat, qimmatbaho buyumlar yoxud boshqa biror narsa olinganligini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjat.

Tilxat birgina nusxada tayyorlanadi hamda pulli va qimmatbaho hujjat sifatida saqlanadi.

Tilxatning asosiy zaruriy qismlari :

1. Hujjatning nomi (Tilxat).

2. Matn:

a) tilxat beruvchi shaxsning lavozimi, ismi va otasining ismi, familiyasi;

b) pul, hujjat, buyum yoki boshqa biror narsani beruvchi shaxsning lavozimi, ismi va otasining ismi, familiyasi (zaruriyat bo'lganda muassasa nomi);

d) pul, hujjat, buyum yoki boshqa biror narsaning nomi va ularning miqdori (zaruriyat bo'lganda bahosi);

e) olinayotgan buyumning texnik holati (agar u mashina, apparatlar va sh. k. bo'lsa).

3. Tilxat berilgan sana.

4. Tilxat muallifining imzosi.



1-mashq. Nuqtalar o'rniga tegishli qo'shimchalarni qo'ying. So'ngra bu gaplarni tilxatning tarkibiy qismlari ketma- ketligida joylashtirib, matn yarating.

Erkin Vohidov tavalludi... 85 yilligi munosabati bilan o'tkazil... anjuman oldi... litsey kutubxonasi... G. Xolmatova. Erkin Vohidovning hayoti va ijodiy merosi... yorituvchi burchak tashkil et... maqsadida 20 (yigirma) ta kitob ol... (ro'yxat ilova qil...). Tilxat. Men, o'zbek tili o'qituvchisi O.Soliyeva . 2021.24.12. Kitoblarni 2021-yil 25-dekabrda qaytarib topshirish majburiyat... zimmam... olaman.

NamDU akademik litseyi ijrochi direktori: D. Hakimov.

Nazariy ma'lumot. Dalolatnoma muassa yoki alohida shaxslar faoliyatiga tegishli harakat-holat, voqea, vaziyatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida ikkitadan ortiq kishilar tomonidan tuziladi.

Mavjud holat, voqeani haqoniy aks ettirish maqsadida dalolatnomalar bir necha shaxsdan iborat komissiya, ayrim hollarda maxsus vakolatli yakka shaxs nomidan imzolanadi.

Dalolatnomalar, asosan, moliya-xo'jalik ishlarini hisobga olish, taftish o'tkazish, baxtsiz hodisalarni baholash, turli tekshiruvlar o'tkazilganda tuziladi.

Dalolatnoma matnining sarlavhasi «...**haqida**» shaklida yoki bosh kelishikda («...-ish ahvoli») yoziladi. Asosiy matn esa kirish va tasdiq (qayd) qismlaridan iborat bo'lishi lozim.

Kirish qismida hujjat tuzilishiga asos bo'lgan holat ko'rsatiladi, komissiya tarkibi to'liq yoziladi.

Tasdiq qismida komissiya tomonidan amalga oshirilgan ishlar qayd etiladi, aniqlangan holatlar yuzasidan taklif va xulosalar beriladi. Matn so'ngida dalolatnomaning necha nusxada (odatda uch nusxa) tayyorlangani ko'rsatilishi lozim.



3-topshiriq. Oquv xonasidagi darslik, qo'llanma kabi adabiyotlar hamda o'qitishning texnik vositalari ahvolini tekshirish bo'yicha guruh tuzing va buning natijalarini yozgan dalolatnomangizda aks ettiring.

Nazariy ma'lumot. Ishonchnoma muayyan muassa yoki ayrim shaxs nomidan ikkinchi bir shaxsga uning nomidan ish ko'rish uchun yozma ravishda ishonch bildirgan vakolatli hujjat sanaladi.

Mazmuni va vakolat egasiga ko'ra xizmat ishonchnomasi va shaxsiy ishonchnomalar farqlanadi.

Xizmat ishonchnomalari davlat idoralari, jamoat tashkilotlari tomonidan mazkur idoraning mansabdor shaxsiga uning shu idora tomonidan ish yuritishga vakil etilganligini tasdiqlash uchun beriladi. Bunday ishonchnoma idora rahbari tomonidan imzolanadi va tasdiqlanadi, shuningdek, amal qilish muddati ko'rsatiladi.

Shaxsiy ishonchnomalar ayrim shaxslar tomonidan o'ziga tegishli pul yoki qimmatbaho narsalarni borib olish uchun ishongan kishisiga bildirib yozgan hujjatidir.

Bunday ishonchnoma vakolat beruvchining ish joyi (ishlamagan taqdirda mahalla qo'mitasi) tomonidan muhr bilan tasdiqlanishi lozim.



2-mashq. Matnda tushirib qoldirilgan qo‘shimchalardan mosini qo‘ying. Shaxsiy ishonchnoma namunasini daftaringizga ko‘chirib yozing.

ISHONCHNOMA

Men, Umid Usmonov, guruhdosh... Jasur Yusufjanovga Uychi tumanidagi 27-aloqa bo‘lim... men... nom... kelgan 70000 (yetmish ming) so‘m miqdoridagi pul jo‘natma... ol... uchun ishonch bildir....

(imzo) U.Usmonov.

2021-yil. 22-dekabr.

Nazariy ma’lumot. Ish yuritish jarayonida eng ko‘p ishlatiladigan ariza, bayonnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, ma’lumotnoma, tavsifnoma, tavsiyanoma, taklifnoma, tarjimayi hol, tushuntirish xati, e’lon, hisobot kabi ish qog‘ozlari ma’lumot-axborot hujjatlari sifatida umumlashtiriladi.

Yo‘riqnoma qonun yoki boshqa me’yoriy hujjatlarni tushuntirish maqsadida chiqariladigan huquqiy hujjat. Muassasa, korxonalar, tashkilot, yuridik shaxslar va boshqalar (ularning bo‘linmalari, xizmatlari), mansabdor shaxs va fuqarolarning tashkiliy, ilmiy-texnikaviy, moliyaviy va boshqa www.ziyouz.com kutubxonasi faoliyat tomonlari xususida tartib-qoida o‘rnatish maqsadida davlat yoki jamoat boshqaruv organlari tomonidan chiqariladi (yoki ularning rahbarlari tasdiqlaydi).

Yo‘riqnomaning asosiy zaruriy qismlari:

1. Eng yuqorida tasdiqlash ustxati.
2. Hujjatning sarlavhasi, nomi (yo‘riqnoma).
3. Matn (kirish qismi, bo‘limlari, kichik bo‘limlari va h.k.).
4. Yo‘riqnoma tuzuvchining lavozimi, ismi, otasining ismi va familiyasi, uning imzosi.
5. Yo‘riqnoma tuzilgan vaqt (sanasi) va tartib raqami, shartli raqami (indeksi).

Zaruriy qismning 1-raqamida tasdiqlovchi soʻz («Tasdiqlayman»), boshqaruv organi rahbari lavozimi koʻrsatilgan yozuv, uning imzosi, sanasi boʻladi?

Savol va topshiriqlar

1. Dalolatnoma nima va u qanday holatlarda taqdim qilinadi?
2. Ishonchnomani taʼriflang.
3. U yoki bu narsani olganligi yoxud qabul qilganligi, berganligi borasida javobgarlikni oʻz zimmasiga olish uchun berilgan hujjat qanday nomlanadi?
4. Ish qogʻozlarini yozishda soʻzlarni qisqartirib yozish mumkinmi? Nima uchun?
5. Hujjatlar tilining qanday uslubiy xususiyatlari bor?
6. Tilxat qanday vaziyatlarda yoziladi?



3-mashq. Uyga vazifa. Tilxat, dalolatnoma, ishonchnoma matni yarating. Unda litseydagi faoliyatingizni asos qilib oling.

70–§. ISH QOGʻOZLARI: SHARTNOMA VA BUYRUQ



Topshiriq

1- topshiriq. Berilgan savollarga javob bering.

1. Nutq uslublari haqida maʼlumot bering?
2. Rasmiy-idoraviy uslub deganda nimani tushunasiz?
3. Rasmiy-idoraviy uslub boshqa uslublardan nimasi bilan farq qiladi?
4. Tayyor nutq qurilmalari deganda nimani tushunasiz?
5. Rasmiy-idoraviy uslubning sintaktik qurilishi haqida gapiring.
6. Rasmiy-idoraviy uslub asosida biror hujjat namunasini tuzing.

Nazariy maʼlumot. Shartnoma. Shartnoma ikki yoki undan ortiq tomonning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, oʻzgartirish yoki toʻxtatish yoʻlidagi kelishuvidir. Boshqacha qilib aytganda, shartnoma

tomonlarning biron-bir munosabatlar o'rnatish haqidagi kelishuvi (bitimi)ni qayd etuvchi va bu munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatdir.

Shartnoma davlat, kooperativ yoki jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, shuningdek, fuqarolar o'rtasida tuzilishi mumkin. Shartnoma munosabatlari muassasa bilan ayrim shaxs yoki shaxslar o'rtasida o'rnatilayotgan bo'lsa, bunda tuzilajak hujjat aksar hollarda mehnat bitimi deb ataladi.

Shartnomalar o'z mazmuniga ko'ra juda xilma-xil ko'rinishga ega: mahsulot yetkazib berish haqida, qishloq xo'jalik mahsulotlarini davlat yo'li bilan xarid qilish haqida, mulkiy (moddiy) javobgarlik haqida, bino va inshootlar qurilishi haqida, turar joy ijarasi haqida, uy-joy yoki transport vositalarini oldi-sotdi, hadya qilish, almashtirish, mol-mulkni ijaraga olish, qarz berish haqida va boshqalar. Muassasalar o'rtasida keng tarqalgan shartnoma turlariga mol (tovar) etkazib berish, pudrat, imoratlar ijarasi, asbob-uskunalarni o'rnatish haqidagi shartnomalarni ko'rsatish mumkin. Har qanday shartnoma o'z mazmuni va shakliga ko'ra qonunga muvofiq bo'lishi kerak. Bu qoidaning buzilishi shartnomaning qonuniy kuchini yo'qqa chiqaradi va uni shu ahvolda tuzgan yoki tuzishga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslarni javobgarlikka olib keladi.

Shartnomalar og'zaki, yozma usulda tuzilishi hamda notarial idoralar tomonidan tasdiqlangan tarzda ham bo'lishi mumkin. Oddiy xo'jalik shartnomalarining zaruriy qismlari quyidagilar:

1. Shartnomaning nomi (yetkazib berish shartnomasi, imoratni ijaraga olish shartnomasi kabi).
2. Shartnoma tuzilgan sana.
3. Shartnoma tuzilgan joy.
4. Shartnoma tuzayotgan tomonlarning aniq va to'liq nomi (matnning keyingi o'rinlarida ularni qisqartirib shartli nomlash mumkin: «buyurtmachi», «institut», «muassasa», «uy-joy boshqarmasi», «bajaruvchi», «ijrochi» kabi); tomonlar vakillarining ismi va ota ismlari, familiyalari, ularning vakolat doirasi (ularga shartnoma tuzish huquqini beruvchi vakolatlar haqida).

5. Shartnoma matni (bu qism ba'zan boblarga bo'linadi, har bir bob rim raqamlari bilan belgilanadi. Boblar bandlarga bo'linib, ularning tartib raqamlari arab raqamlari bilan ko'rsatiladi. Xuddi shu yerda nizolarni ko'rib chiqish tartibi, shartnomaning umumiy summasi, uning umumiy amal qilish muddati ham bayon qilinadi).

6. Tomonlarning huquqiy manzillari.

7. Tomonlarning imzolari va muhrlari.

Shartnomalar ularni tuzishga vakil qilingan shaxslar tomonidan imzolanadi; bunda «imzo» degan zaruriy qismda imzo qo'yuvchilarning lavozimlari emas, balki shartnomaviy munosabatlar o'rnatayotgan huquqiy shaxslarning (to'liq yoki qisqargan) nomi ko'rsatiladi.

Shartnomalar ikki nusxadan kam tuzilmasligi kerak, chunki har bir huquqiy shaxs hujjatlar yig'masida kamida bir nusxasi bo'lishi kerak. Shartnomaning barcha nusxalari bir xil huquqiy kuchga ega bo'ladi.

Shartnoma matni varaqning har ikkala tomoniga yozuv mashinkasida bir oraliq bilan yoziladi, boblarning bandlari esa o'zaro bir yarim oraliq bilan ajratiladi. «Shartnoma» so'zini katta harflar bilan orasini ochiq qilib yozish tavsiya etiladi.

Muayyan muassasa, tashkilot oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida buyruq, farmoyish, ko'rsatma kabi hujjatlar tayyorlanadi.

Buyruq loyihasi bosh mutaxassislar, huquq maslahatchisi, bosh hisobchi bilan kelishilgan holda tuziladi. Buyruq matni muassasa blankasida yozilib, asoslovchi(kirish) va farmoyish qismlardan tashkil topadi. Asoslovchi qismda buyruqdan maqsad, shart-sharoit ko'rsatiladi, asos qilingan buyruqqa (hujjatga) havola qilinadi. Asoslashga ehtiyoj bo'lmagan hollarda to'g'ridan to'g'ri buyruqning farmoyish qismi beriladi.

Buyruqning farmoyish qismi yangi satrdan «BUYURAMAN:» so'zini bosh harflar bilan ikki nuqta qo'yib yozishdan boshlanadi. Shundan so'ng farmoyish bir nechta bo'lsa, bandlarga ajratilib, arabcha raqamlar bilan belgilanadi.

Farmoyishda biror vazifani kim, qanday va qachon bajarishi majhul nisbatdagi fe'lning buyruq (III shaxs birlik) shakli bilan ifodalanadi (tayinlansin,

belgilansin, o'tkazilsin, qabul qilinsin kabi). Farmoyish oxirida buyruqni nazorat qilish kimga yuklatilgani, ba'zan esa ilgari joriy yoki boshqa hujjat bekor qilinganligi qayd etiladi.

Nisbiy ma'noda mustaqil sanaladigan, o'z muhri va shtampiga ega bo'lgan tashkilot yoki muassasa doirasida yuritiladigan asosiy hujjatlardan biri bo'lib, shu tashkilot yoki muassasa uchun muhim hisoblanadigan vazifalar uning yordamida hal etiladi.

Buyruqlar ikki yo'nalishda chiqariladi: asosiy faoliyatga va kadrlarga tegishli buyruqlar.

Tashkilot yoki muassasaning asosiy faoliyati birinchi turdagi buyruqlar asosida ish olib boriladi. Ular asosida xodimlarning kunlik va haftalik ish vaqti, o'quv yurtlarida o'qituvchining o'quv soatlari hajmi, amalga oshirishi lozim bo'lgan vazifalar, ma'naviy va moddiy rag'batlantirish, maosh belgilash va lozim bo'lganda ma'muriy choralar ko'rish, ma'lum sanalarda amalga oshiriladigan tadbirlar singari holatlar rasmiy tarzda belgilab qo'yiladi. Bunday buyruqlar tashkilot yoki muassasaning o'z tashabbusi, ba'zan yuqori tashkilotlardan kelgan buyruq, farmoyish va ko'rsatmalarni bajarish maqsadida yuzaga keladi. Ularning ijrosi har bir mahkamada o'zlari belgilagan tartibda nazorat qilib boriladi.

Buyruqning asl nusxasi O'zbekiston Respublikasi gerbi tushirilgan maxsus blankada – qog'ozda rasmiylashtiriladi. Dastlab yuqori tashkilot yoki vazirlikning nomi, shundan so'ng buyruq chiqaruvchi tashkilot yoki muassasaning nomi va o'rtada «Buyruq» degan so'z yoziladi. Uning pastidan chap tomonda hujjat sanasi, o'ng tomonda tartib raqami, biroz pastdan o'rtada buyruq chiqqan joy nomi ko'rsatiladi. Yangi qatordan chap tomonda buyruqning nima haqida ekanligi, ya'ni sarlavhasi yozilgach, asosiy matn beriladi va oxirida tashkilot va muassasa rahbari tomonidan imzo chekiladi.

BUYRUQ matni namunasi

B U Y R U Q № 06

12.03.2021-yil.

Psixologik ekspertizalarni o'tkazishni vaqtincha to'xtatish haqida.

Pedagogika fakulteti ish faoliyatiga oid masalalarni bir tizimga va tartibga keltirish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Psixologiya kafedrası xodimlari tomonidan tegishli hujjatlar rasmiylashtirilgunga qadar psixologik ekspertizalarni o'tkazishni vaqtinchalik to'xtatish pedagogika fakulteti dekani X. Ibrohimovga yuklatilsin.

2. Ushbu buyruqni tegishli idoralarga yetkazish, ularni xarbardor qilish va uning bajarilishini nazorat etish o'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.Mahmatmurodovga yuklatilsin.

Asos: huquqshunos F.B.Valixo'jayeva kiritgan. Loyiha kasaba uyushmasi raisi U.Z.Zohidov, prorektorlar : M.Muhiddinov, A.S.Soliyev, I.R.Pardayevlar roziligi va rektor R.I.Xolmurodovning munosabat belgisi.

Rektor : I.R.Xolmurotov.

Kadrlar to'g'risidagi buyruqlar bu hujjatning ikkinchi bir turini tashkil etadi. Ular xodimlar ishga qabul qilinganda yoki bo'shatilganda, shu tashkilot yoki muassasa ichida boshqa vazifaga o'tkazilganda, mehnat ta'tiliga chiqqanda yoki ma'naviy-moddiy rag'batlantirilganda, boshliq ta'tilga ketib, uning o'rniga vaqtinchalik o'rinbosari yoki boshqa bir xodim tayinlanganda, xodim malaka oshirishga yoki xizmat safariga jo'natilganda chiqariladi. Bunday buyruqlarga, odatda, quyida ishlaydigan rahbar va boshliqlarning bildirishnornasi yoki tavsiyanomasi, xodimning arizasi yoki boshqa omillar asos va sabab bo'lishi mumkin.

Zarur bo'lgan holatda ijro etuvchilarga, xodimga yoki taqdim etilishi lozim bo'lgan idoraga buyruqdan ko'chirma beriladi. Unga kadrlar bo'limining boshlig'i «Asliga to'g'ri» deb yozadi, imzo chekadi va muhr bosadi. Bu mazmundagi

buyruqlar ham, albatta, yuqorida aytilgan tartibda huquqshunos ko'rigidan o'tkaziladi.



1-mashq. Quyidagi so'z va so'z birikmalarining ma'nolarini izohlang va ular ishtirokida hujjat matni yaratishni mashq qiling.

Axborot bermoq, bayonnoma, so'zga chiqmoq, so'z olmoq, so'z bermoq, ovoz bermoq, muhokama qilmoq, tavsiya etmoq, tayinlamoq, tasdiqlamoq, muhokamaga chiqmoq, faol qatnashmoq, hay'at saylamoq, zimmasiga yuklamoq, topshirmoq, ta'sis etmoq, qaror qilmoq, ma'ruza qilmoq, fikr-mulohaza bildirmoq.



2-mashq. Nuqtalar o'rniga tegishli so'z va qo'shimchalarni qo'yib, bayonnoma matniga xos tartibda ko'chirib yozishni mashq qiling.

Hay'at..., yig'ilish... Bayonnoma..., eshit..., ozod qil..., mas'uliyat..., o'z... olmoq, ogohlan..., ma'lumot uchun..., ahvoli..., axborot, zimma... yukla..., maqsad... muvofiq, bayonnoma... ko'chirma, kun... e'tiboran, belgila... qo'y..., uzrli sabab....., e'tiboran kuch... kirit..., tavsiya... .

Savol va topshiriqlar

1. Hujjatning qanday turlari mavjud?
2. Bayonnoma tuzishda nimalarga amal qilinadi?
3. Yozgan hujjatingizning zaruriy qismlarini aytib bering.
4. Barcha harflari bosh harflar bilan yoziladigan so'zlar qaysi hujjatlarda qo'llanadi?



3-mashq. Uyga vazifa. «Ishonch» do'konidan oladigan kompyuteringiz uchun bir yillik to'lov shatrnomasi matni tayyorlang.



71-72-§. ORALIQ NAZORAT . YAKUNIY NAZORAT



Topshiriq

O'quv yili davomida o'tilgan mavzular asosida namunadek test tayyorlang va shu asosda bilimlaringizni sinab ko'ring.

1. Noto'g'ri yozilgan so'zlar qatorini toping.

- A) Xalqaro olimpiya qo'mitasi, Madaniyat va Sport ishiari vazirligi, Nuroniy jamg'armasi
- B) Buxoro viloyati hokimligi, Temuriylar tarixi davlat muzeyl, Quvasoy sement zavodi
- C) Oliy xo'jalik sudi, Toshkent agrar universiteti, «Lazzat» oshxonasi
- D) Vazirlar Mahkamasi, «Sharq gullari» firmasi

2. Lotin alifbosiga asoslangan imlo qoldasiga ko'ra, is'hoq so'zida ishlatiladigan tutuq belgisi qanday vazifa bajaradi?

- A) unli tovushning cho'ziqroq aytilishini ifodalaydi
- B) unlining undoshdan ajratib talaffuz etilishini ifodalaydi
- C) oldin va keyin kelgan tovushlar alohida tovushlar ekanligini ifodalaydi
- D) so'z urg'usini ifodalaydi

3. Quyida keltirilgan qaysi so'zlarda nuqtalar o'rniga «d» yoziladi?

1)ta...biq; 2) ta...bir; 3)ta...qiq.

- A) 1,2,3 B) 2, 3 . C) 1,2 D)1,3

4. Pastda esa odamni oqizadigan katta suv xarsanglarga urilib, shovillab oqayapti. Berilgan gapda qaysi turkumga oid so'zni yozishda imloviy xatoga yol qo'yiigan?

- A) ravish B) fe'l C) ravishdosh D) ot

5. Bo'g'in ko'chirish haqidagi noto'g'ri hukmni toping.

- A) bir tovushni ko'rsatuvchi harf birikmasi birgalikda ko'chiriladi
- B) bosh harflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko'p xonali raqamlar satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi
- C) atoqli ot tarkibiga kiradigan ramqam nomdan ajratilgan holda ajratib ko'chirilmaydi
- D) harfdan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chiriladi

XI BO'LIM. MORFOLOGIYA

73-80-§. SO'Z TURKUMLARI. OT VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI. MATNDA OTLARDAN FOYDALANISH



Topshiriq

1-topshiriq. Berilgan matnni o'qing. Xato yozilgan so'zlarni aniqlang. So'zlarning talaffuzi va imlosidagi farqni ko'rsating.

Chumchuqlar bilan jang



1958-yil **Mao Szedun** «xonaki o'g'rilar» sichqon, chumchuq, pashsha va chivinga qarshi urush e'lon qildi. Chumchuqlar don o'g'irlashda ayblanib, ularni qirib tashlash **jarayoni** boshlandi. Bir qancha **ilmiy** ishlar yoqlandi. Hosil oshishi, turmush tarzi yaxshilanishiga umid qilgan butun xitoy xalqi bu kurashga safarbar qilindi. Chumchuqlarni **qanday** yo'qotishlari, kurashish uslublari ishlab chiqildi. Ko'chalarda shovqin ko'tarilib qushlarni qo'ndirmasdan uchirib holdan toydirish, inlarini buzib tashlash, ularni zaharlashga qaraganda katta samara berishi aniqlandi. **Lekin** sichqon, chivin **va** pashshaga qarshi bunchalik samarali kurashish yo'li topilmadi. **Tez orada** chumchuqlar butunlay yo'qotildi. Kutilganidek 1959-yil juda yaxshi hosil olindi. Butun xalq bundan **behad** xursan edi. Lekin **keyingi** yillarda chigirtka va boshqa hashoratlar haddan ziyod ko'payib ketishi **tufayli** hosil **butunlay** nobud bo'ldi. Chumchuq jangi endi chigirtka va boshqa hashoratlar bilan kurashga aylandi. Maktab o'quvchilarigacha hamma yana kurashga otlandi. Lekin bu endi **hech qanday** samara bermadi. Mao Szedun, **shubhasiz**, o'zi o'sgan qishloq dehqonlari quvib yurgan chumchuqlar haqiqatda u o'ylaganchalik dehqonlar dushmani emasligini, ularning dehqonlar himoyachisi ekanini tushunib yetdi. Har xil manbalarda ko'rsatilishicha «chumchuq jangida» **30 millionga** yaqin aholi ocharchilikdan



halok bo'lgan. Xitoy davlati vaziyatni **to'g'rilash** uchun Kanada va SSSRdan chumchuq yetkazib berishga shartnomalashdi va vagonlab chumchuqlar Xitoyga olib kelib qo'yib yuborilib, ahvolni to'g'rilashga to'g'ri keldi. **Faqatgina** bu voqea tarixda odamzodning yovvoyi tabiat bilan kurashishi qanchalik achinarli oqibatlariga olib kelishi mumkinligining yaqqol misoli bo'lib qoldi.

Nazariy ma'lumot. So'zlarning leksik, grammatik ma'nosi, morfologik va sintaktik belgilariga qarab guruhlarga bo'linishi **so'z turkumlari** deyiladi¹⁷⁵.

So'zlar turkumlarga ajratishda quyidagi belgilar asosida tasnif qilinadi:

1) so'zning ma'noviy xususiyati; 2) so'zning morfologik xususiyati (grammatik shakllari); 3) so'zning yasalish xususiyati.

O'zbek tilida 12 ta so'z turkumi bo'lib, u uch guruhga bo'linadi:

1. Mustaqil so'z turkumlari: ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish.
2. Yordamchi so'z turkumlari: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama¹⁷⁶.
3. Alohida so'z turkumlari: undov so'zlar, taqlid so'zlar, modal so'zlar.



1-mashq. «Chumchuqlar bilan jang» matnida ajratib ko'rsatilgan so'zlarni so'z turkumlari bo'yicha quyidagi jadvalga joylashtiring. So'z turkumlarini aniqlashni mashq qiling.

Ot	Sifat	Son	Olmosh	Fe'l	Ravish	Ko'makchi	Bog'lovchi	Yuklama	Undov	Taqlid	Modal

So'zlarning ma'noviy tasnifida so'zlar quyidagi guruhlarga ajraladi:

- a) mustaqil lug'aviy ma'noli so'zlar (fe'l, ot, sifat, son, ravish);
- b) nomustaqil lug'aviy ma'noli so'zlar (olmosh va undov, modal, taqlid);
- c) lug'aviy ma'nosiz so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama)¹⁷⁷.



2-mashq. 6 - sinfdan olgan bilimingizga tayanib berilgan gaplardagi sodda yasama soʻzlarni aniqlang. Otlarni 1) narsa oti, 2) shaxs oti, 3) oʻrin- joy otiga ajarting.

Muzqaymoq



1904-yilda oziq-ovqat koʻrgazmasida muzqaymoq sotuvchisi bilan vafli ishlab chiqaruvchisi yonma-yon turib qolgan edi. Doʻkon rastasida birinchisining ishlari juda yaxshi, 2-siniki uncha yaxshi emas edi. Biroz vaqtdan soʻng, muzqaymoq sotuvchisida qogʻozli qopchalari tugab qoldi, shunda vafli ishlab chiqaruvchisi unga likopcha sifatida vafllaridan foydalanishni taklif qildi. Bu yangilik xaridorlarga juda maʼqul kelib qoldi va savdo muzqaymoqchi bilan vaflichining quvonchiga yanada chaqqonroq surʼatda ketdi. Koʻchada, xiyobonda, istirohat bogʻida koʻp sotilib ketdi. Vaflichining ismi Xamvi edi. U darhol oʻz kashfiyoti – vaflisini patentlash uchun shoshilib qoldi va vafli shoxchasini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan dunyodagi birinchi fabrikani ochgan edi¹⁷⁸.

Yasama ot	Shaxs oti	Narsa oti	Oʻrin-joy oti



3-mashq. Oʻzingiz mustaqil qoʻshma yasama otlarga 10 ta soʻz topib daftaringizga yozing va yasaliş usulini namunadagidek qilib koʻrsating.

Namuna: Mingoyoq – ming(son), oyoq(ot),..



4-mashq. Otlardagi koʻplik qoʻshimchasi uslubiyati xususida fikr yuriting. -lar koʻplik shaklining quyidagi xususiyatlariga mustaqil gap tuzing.

1. Atoqli ot turdosh otga aylanib, «oʻxshashlik» yoki «yaqin shaxs toʻdasi» bildiradigan¹⁷⁹;
2. Yakka narsa nomi koʻchma yoki kuchaytirilgan maʼno ifodalaydigan¹⁸⁰;

3. Sanalmaydigan narsa nomiga qo‘shilib tur, xil, nav ma’nosini ifodalagan¹⁸¹;
4. Juft narsa nomiga qo‘shilib kuchaytirish ma’nosini ifodalaydigan¹⁸²;
5. Mavhum ot kuchaytirilgan ma’no beradigan¹⁸³;
6. Hurmat ma’nosini ifodalaydigan¹⁸⁴;
7. Taxmin ma’nosini ifodalaydigan¹⁸⁵;
8. Kesatiq, piching, kinoya ma’nosini ifodalaydigan¹⁸⁶.



Topshiriq

2- topshiriq. «Mening o‘g‘rigina bolam» hikoyasidan olingan audiomatni to‘liq tinglang, undagi subyektiv munosabat ifodalovchi shakllarni aniqlang. Asar timsollarining nutqi orqali ularning fe’l-atvorini tahlil qiling.

MENING O‘G‘RIGINA BOLAM

Otamizning o‘lganiga anchagina yil o‘tib ketdi. Bu yil o‘n yettinchi yilning ko‘klamida onamizdan ham ajralib, shum yetim bo‘lib qoldik...

...– O‘g‘rigina bolam, hoy o‘g‘rigina bolam, hoynahoy biror tiriklikning ko‘yida tomga chiqqan ko‘rinasan, axir kasbing nozik, tumov-pumovingni yozib chiqsang bo‘lmaydimi, – debdilar.

O‘g‘ri tomdan turib:

– Axir, buvijon, siz ham birorgina kecha tinchingizni olib uxlasangiz bo‘lmaydimi, bizning tirikchiligimizning yo‘lini to‘saverasizmi? – debdi...

(G‘. G‘ulom)



Topshiriqni hikoyaning to‘liq matni asosida bajaring.

5-mashq. Berilgan «Chumchuqlar bilan jang», «Muzqaymoq» matnlaridagi otlarning egalik va kelishik shakllarini aniqlang. Ularning uslubiy xususiyati haqida fikr yuriting. Namunadagidek qilib daftaringizga yozing.

«Chumchuqlar bilan jang»

Kelishik	Egalik
Chivinga- joʻnalish kelishigi	yoʻli- 3- shaxs, birlik

«Muzqaymoq»

Kelishik	Egalik
koʻrgazmasida- oʻrin – payt kelishigi	koʻrgazmasida- 3- shaxs, birlik



6-mashq. Rasmlardan foydalanib «Sarbon sayohati», «Paxtazorga adashib kirib qolgan bolakay», «Hayvon va parrandalar bilan doʻst tutingan bolajon» matnini yarating.

Matnda **-cha, -choq// -chak, -kay, -ak, -jon, -xon, -oy, -loq// -aloq, -gina // -kina // -qina, -boy, -bek, -niki, -dagi, -gacha // -kacha// -qacha, -dek // -day**¹⁸⁷ kabi lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimchalardan foydalaning.



Topshiriq 3-topshiriq. Egalik qoʻshimchasining 1) qarashlilikni ifodalashi; 2) umundan ajralganlik, xoslikni ifodalashi; 3) yaxlitlanib, oʻz vazifasini yoʻqotishi kabi uslubiy xususiyatlarini ifodalovchi misollar orqali maktabdagi bilimlaringizni takrorlang. Jadvaldagi misollarni davom ettiring.

Egalik shaklining uslubiy xususiyati	Misollar
Qarashlilikni ifodalashi	
Umundan ajralganlikni ifodalashi	
Yaxlitlanib, oʻz vazifasini yoʻqotishi	

Nazariy ma'lumot . Egalik qo'shimchasining uslubiy xususiyati quyidagilardan iborat:

1. Ot tarkibidagi egalik shakli (agar yaxlitlanib qolmagan bo'lsa) qaratqich kelishigining mavjudligini ko'rsatib turadi: yurak amri.
2. Egalik shakli qarashlilikni bildiruvchi –niki qo'shimchasi bilan ma'nodoshlik hosil qilishi mumkin: bizning bog' - bog' bizniki.
3. Sizlash va senlash ma'nosi: kitobingiz (II sh. birlik) , senlarning kitobing (II sh. ko'plik).



Topshiriq

4- topshiriq. Fizik olim kashfiyoti haqidagi bilimlaringizni boyiting. Unda qo'llangan otlar takibidagi munosabat shakllarining uslubiyati xususida fikr yuriting.



Rentgen nurlari – zaryadlangan zarralar yoki fotonlarning muhitni tashkil etuvchi atomlari bilan o'zaro ta'sirlashishlari natijasida vujudga keluvchi elektromagnit nurlanish. Rentgen nurlarini 1895-yilda V. K. Rentgen kashf qilgan. Rentgen bu nurlarni X nurlar deb atagan (hozirgi vaqtgacha ham ayrim mamlakatlarda X nurlar deyiladi). Ular katta tezlikdagi elektronlarning moddada tormozlanishi natijasida paydo bo'ladi. Rentgen nurlari amalda rentgen trubkasi yordamida hosil qilinadi. Rentgen nurlari kashf qilingach, ularning tabiatini uzoq, vaqtgacha aniqlash qiyin bo'lgan. Rentgen nurlari ko'zga ko'rinmaydi, ularni qayd qilish uchun maxsus usullar (fotografiya, ionlash) ishlab chiqarilgan. Fotografiya usulida Rentgen nurlari faqatgina qayd qilinib qolmasdan, ularning intensivligi ham aniqlanadi. Rentgen nurlari yoki X-Rays vakuum quvuridan katod nurlari o'ta olishi yoki olmasligini tushunish maqsadida tajriba o'tkazgan paytda kashf etilgan¹⁸⁸ .

¹⁸⁸ Odam.uz saytidan olindi.



Soʻz boyligingizni oshiring. «Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati»

kitobidan olingan quyidagi shakldosh soʻzlarning maʼnolarini oʻqib oʻrganing. Oʻz nutqingizda ulardan toʻgʻri foydalaning.

Burun I. Ot. Hidlash organi. *Burundor, burunaki.*

Burun II. Ot. Dengizga turtib chiqqan quruqlik. (geografik atama). *Chilyuskin burni.*

Burun III. Ravish. Burungi. *Burungi zamonlar*¹⁸⁹



Mantiqiy savolga javob bering.

Bir oilada 5 ta qiz bor ekan. Birinchisi kitob oʻqiyapti, ikkinchisi shaxmat oʻynayapti. Uchinchisi ovqatlanyapti. Toʻrtinchisi yigʻishtiryapti.

Savol: Beshinchisi nima qilyapti?



7-mashq. Uyga vazifa. Kelishik qoʻshimchalarning uslubiy xususiyati haqidagi bilimlaringizni mustahkamlang. Quyidagi shakllarning oʻzaro maʼnodoshligiga namunadagidek misollar keltiring.

-ni//ga; -ni//da; -ning//dan; -ga// uchun; -da// bilan; -dan // orqali; -ni// haqida

Namuna: *-ni//dan.* Oshni oling, oshdan oling.

¹⁸⁹ Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati. –T.: “Oʻqituvchi”. 1984. 216 b. 37-b.

81-88-§. SIFAT VA UNING USLUBIYATI



Topshiriq

1-topshiriq. Berilgan matndagi shaxs va narsalarning belgisini bildiruvchi soʻzlarni aniqlang. Ularning maʼnoviy guruhlarini koʻrsating.

Kardiostimulyator



Yurak xastaligiga chalingan millionlab insonlarning hayotini saqlab qolishga yordam berib kelayotgan bu uskuna ham tasodifan kashf qilingan. 1941-yilda muhandis Jon Xopps harbiy dengiz floti buyurtmasi bilan gipotermiya (tananing haroratini tibbiy yoʻl bilan oʻzgartirish) sohasida tadqiqotlar oʻtkazadi. Uning oldiga uzoq vaqt ayozda qolgan yoki sovuqroq havoda jang qilgan inson tanasini zudlik bilan isitish yoʻlini topish vazifasi qoʻyilgan edi. Xopps buning uchun yuqori chastotali radiotoʻlqinlardan foydalangan va oʻta kuchli sovuq tufayli toʻxtab qolgan yurak elektr impulslari yordamida yana «ishga tushib ketishi» mumkinligini tasodifan sezib qolgan. 1950-yilda Xopps ixtirosi asosida birinchi kardiostimulyator yaratildi. U juda katta va ishlatishga noqulay boʻlgan va baʼzan bemor tanasining kuyish hollari ham sodir boʻlgan¹⁹⁰. Tibbiyotchi Uilson Greybetch esa bu sohadagi ikkinchi ixtironi amalga oshirdi. Eng qizigʻi, u ham tasodifan roʻy bergan. Greybetch yurak urish tezligini yozib boruvchi moslama yaratish ustida ish olib borayotgan edi. Bir kuni u sinovdagi uskunaga tasodifan boshqa rezistorni joylab qoʻyadi va elektr zanjirda yurak urishini eslatuvchi tebranishlar boʻlayotganini sezib qoladi. Ikki yildan soʻng Greybetch yurak ishlashi uchun sunʼiy impulslarni muntazam bera oladigan ilk elektr kardiostimulyatorni yaratdi¹⁹¹.

¹⁹⁰ Odam.uz saytidan olindi

¹⁹¹ Odam.uz saytidan olindi.

Nazariy ma'lumot. Sifat, asosan, predmet-hodisaning, qisman harakatning belgisini bildiradi va qanday?, qanaqa?, qaysi? so'roqlariga javob bo'ladi. Masalan: qizg'in bahs.

Sifatning morfologik xususiyati – daraja shakllariga egaligi hisoblanadi.

1. Oddiy daraja: shinam, sergul. 2. Qiyosiy daraja (-roq): qaysarroq.
3. Orttirma daraja: juda shirin, bus-butun. 4. Ozaytirma daraja: ko'kish, sal egri¹⁹².



1-mashq. «Kardiostimulyator» matnidagi sifatlarning sinonimini va antonimini toping.

Namuna. Ayoq: sinonimi – sovuq; antonimi – issiq, ...



2-mashq. «Kardiostimulyator» matnidagi sifatlarning darajalarini aniqlang, ularning uslubiy xususiyatlari haqida fikr yuriting.

Namuna: sovuqroq – qiyosiy daraja, o'ta kuchli – orttirma daraja, ...

Nazariy ma'lumot. Sifatning otlashishi. Ot bilan ifodalangan bo'lakka sifatlovchi-aniiqlovchi bo'la oladigan har qanday so'z otlashadi. Sifat otlashganda birikkan ot tushib qolib, vazifasi va grammatik shaklini sifat egallaydi. Masalan: Yomondan yaxshilik kutma gapidagi **yomon** sifati otlashgan, ya'ni tushirilgan otning chiqish kelishigi, birlik son shakli va to'ldiruvchi vazifasini olgan¹⁹³. Otlashish uchun so'z bog'langan ot tushirilishi ham lozim. Buni aniqlash uchun tushirilgan otni tiklab ko'rish kerak: Bilimli o'zadi – Bilimli kishi o'zadi.



Topshiriq

2- topshiriq. «Yevropa nomining qo'yilishi haqida» matnini o'qing. Qomusiy bilimlaringizni boyiting. Undagi sifatlarni aniqlang.

^{192, 21} Mengliyev B. , Xoliyorov O' , Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma. 6-nashr. –T.: "Akademnashr".2018. 512 b.226-227.

Yevropa nomining qo'yilishi haqida



Yevropa tarixi mifologiyasi haqida nimalarni bilasiz? Yevropa – bu Finikiya shohining suluv qizi. Uning ismi finikiya tilida «kun



botishi» yoki «katta ko'zli» degan ma'noni anglatadi.

Mifologiyaga ko'ra, bir kuni Yevropa o'z dugonalari bilan sayr qilib yurganda to'satdan Zevs buqa qiyofasida paydo bo'ladi va uni olib qochib ketadi. So'ngra Zevs o'zi o'g'irlagan go'zal Yevropaga uylanadi. Ulardan Minos, Radamant, Sarpedon degan farzandlar tug'iladi. Bir kuni Zevs qushga aylanib Yevropani qoyaga yashirib qo'yadi. Keyinchalik Yevropa Kritning farzandsiz o'tgan shohi Asterionga turmushga chiqadi va podshoh o'z podsholigini Yevropaning farzandlariga meros qilib qoldiradi.



3-mashq. Matni o'qing. Dunyoviy bilimingizni oshiring. Undagi sifatlarning ma'noviy turini aniqlang, sifatlarning ma'nodoshi va zid ma'nolarini ko'rsating.

Hayvonlar qabristoni



Inglizlarning urf-odatlaridan biri bu hayvonlarga bo'lgan mehridir. Uy hayvonlari ingliz oilalarining a'zolari va qonun bilan himoya qilinadi. Buyuk Britaniyada hatto hayvonlar uchun maxsus qabristonlar mavjud. Muhtasham qabristonlarga ulkan marmartoshlar qo'yishgan. Ular bog'larini boqish va chiroyli gullar hamda o'simliklar bilan bezashni yaxshi ko'radilar.

Choy haqida afsona

Qadimgi hind choʻponlari qoʻy va echkilarini oʻtlatib yurib, choy barglarini yegan qoʻy va echkilar boshqalariga nisbatan ancha tetik boʻlib yurishini sezib qolishadi va oʻzlari ham undan isteʼmol qilib koʻrishga qaror qilishadi. Keyinchalik choʻponlar uni qaynagan suvga solib ichib koʻrishgach, rostdan oʻzlarida tetiklikni his qilishadi va shundan keyin boshqalarga ham uni tavsiya qilib, choy keng tarqalib ketgan ekan¹⁹⁴.




4-mashq. «Hayvonlar qabristoni», «Choy haqida afsona» matnlaridagi sifatlar ishtirokida gap tuzing. Unda sifat bogʻlangan otni tushrib qoldiring. Sifatning otlashishi qanday sodir boʻlganini tushuntirib bering.

Masalan: Ulardan **chiroylilarini** saralab oldim (chiroyli gullarni). ...



3-topshiriq. Ali Sogʻuniyning til haqidagi fikrlarini oʻqing. Ona tilimizning gullab yashnashi, rivojlanishi xususida guruhdoshlaringiz bilan fikr almashing. Matndagi sifatlarni toping.

Turkiston qaygʻusi



Men Ali Sogʻuniy yoshlik-yigitlik kunlarimdan boshlaboq arabiy, forsiy tillarini **toʻliq** ravishda oʻzlashtirdim. Zamonning menga koʻrsatgan toʻsqinliklariga qaramay Tangri yordami bilan **keng** koʻlamda diniy, tibbiy, ayniqsa, tarixiy maʼlumotlarga ega boʻldim. Arabcha, forschalarni yozish, soʻzlashgina emas, balki bu ikki tilda kitob yozish, sheʼr aytish qobiliyati menda boʻlsa ham, oʻz ona tilim turkchani **boshqa** tillardan ortiqroq koʻrdim. Chunki qaysi bir millatning ona tili oʻz hojatini oʻtay olmay, boshqa **yot** tillar oldida

¹⁹⁴ T. U. Salimov, F. I. Sultonov Jahon tarixi . darslik. 7- sinf. –T: “Davlat milliy nashriyoti”. 2017. 154b. 117-b

magʻlubiyatga uchrab, tiz bukar ekan, unday millat koʻp uzoqlamayoq insoniy huquqlaridan ajraydi va uning hayot daftarlari ustiga inqiroz qalami chekilishi **shubhasizdir**. Bunday millatlar **yolgʻizgina** vatanlaridan emas, balki butun borligʻi bilan tarix yuzidan yoʻqolishga majbur boʻladilar¹⁹⁵.



5-mashq. Yuqorida berilgan matndagi sifatlarni asliy va nisbiy sifatlarga ajrating. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning sinonimi va antonimini toping.



6-mashq. Berilgan soʻzlardan sifat soʻz turkumiga mansublarini ajrating. Sifatning qaysi lugʻaviy maʼno turiga mansubligini daftaringizga yozing. Unda 1) xarakter-xususiyat sifati, 2) holat sifati, 3) rang-tus sifati, 4) shakl koʻrinish sifati, 5) hajm-oʻlchov sifati, 6) maza-taʼm sifati, 7) hid sifati, 8) oʻrin va payt bilan bogʻliq belgi bildiruvchi sifatlarga ajratib yozing.

Vositali, avvalgi, teng, aldoqchi, ulkan, botiq, paxmoq, qishki, yozgi, zangori, sobiq, mushtoq, muhtoj, noqulay, navqiron, ochiq, olazarak, obod, kechki, keyingi, xushboʻy, muattar, qoʻlansa, mayda, mitti, azim, sassiq, qishki, ertangi, loʻnda, loʻppi, dastlabki, ilk, sobiq, osoyishta, osuda, jingalak, jikkak, pachoq, pinhon, pokiza, qora, qizil, sariq, aldamchi, aloqador, koʻk, alvon, semiz, sovuq, hozir-u nozir, keng, tor, uzun, chuqur, toza, tarang, moviy, nafarmon, tashna, toʻq, farovon, xom, xarob, xasta, xafa, abgor, aybdor, alagʻda, alamzada, ertangi, bugungi, dadil, daydi, muqaddas, nodir, nodon, noyob, amaliy.



7-mashq. Berilgan soʻzlardan sifatlarni aniqlang. Sodda, qoʻshma, juft, takroriy sifatlarni alohida daftaringizga koʻchiring.

Yaxshi, shirin, goʻzal, darveshsifat, devsifat, devqomat, dilozor, dilorom, dilpora, izzattalab, kafangado, ishchan, devoriy, maqtanchoq, nooʻrin, hiylagar, ozgʻin, sezgir, aql-hushli, ajoyib-gʻaroyib, boy-badavlat, och-nahor, yiroq-yovuq, tanish-notanish, yaxshi-yaxshi, katta-katta, shirin-shirin, burda-burda, yoʻl-yoʻl (otdan koʻchgan), oppoq-oppoq, uzoq-yaqin, xom-pishiq, chappa-rosta, quyuyq-suyuyq,

¹⁹⁵ Alixontoʻra Sogʻuniy. Turkiston qaygʻusi. "Sharq" nashriyoti, Toshkent 2020.

xomkalla, sho'rpehona, kaltafahm, ochofat, maydagap, og'iroyoq, shikastahol, baland, keng, mo'rt, ko'kimtir, sarg'ish.



8-mashq. Berilgan qo'shimchalar asosida sifat so'z turkumini yasang. Mustaqil misollarni daftaringizga yozing.

-boz, -bop, -ag'on, -kor, -m, -ma, -bon, -simon, -gir, -don.



So'z boyligingizni oshiring. Sh. Raxmatullayev «O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati» kitobidan olingan quyidagi so'zlarning ma'nolarini o'qib o'rganing. So'z boyligingizni oshirishda ulardan unumli foydalaning.

Isrofgar. O'rinsiz va ortiqcha sarflaydigan, ayamay sarflab yuboradigan. *Bu xarajat, bu isrofgarchilikka tog' ham chidamaydi.*

Tejamkor. O'rinsiz sarflashdan o'zini tiymoq, ehtiyoj bilan oz-ozdan foydalanmoq. *Pulni tejamoq*¹⁹⁶.



Mantiqiy savolga javob bering.

Shimoldan Janubga qarab elektropoyezd ketmoqda. Shamol Janubdan Shimolga qarab esmoqda. **Savol:** Tutun qaysi tomonga qarab ketadi.



9- mashq. Uyga vazifa. Maktabda va litseyda olgan bilimlaringizni umumlashtiring. Lug'at boyligingizni oshiring. Izohli lug'atdan sifat so'z turkumiga mansub 10 ta so'zni daftaringizga izohi bilan yozing va esda saqlang. Quyidagi savollarga javob bering.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Sifatning leksik xususiyatlari haqida gapiring.
2. Sifatning morfologik xususiyatlari haqida gapiring.
3. Sifatning sintaktik xususiyatlari haqida gapiring.
4. Sifatning grammatik ma'no turlarini aytib bering.

¹⁹⁶Rahmatullayev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. –T.: "O'qituvchi". 1984. 216 b. 95-b

5. Asliy sifat nima?
6. Nisbiy sifat qanday bo‘ladi?
7. Sifatning lug‘aviy ma’no turlari haqida gapiring.
8. Xarakter-xususiyat sifati, holat sifati, rang-tus sifati, shakl- ko‘rinish sifati, hajm-o‘lchov sifati, maza-ta‘m sifati, hid sifati, o‘rin va payt sifati haqida gapiring.
9. Sifat darajalari haqida gapiring.
10. Oddiy, qiyosiy, orttirma, ozaytirma daraja va uning ifodalanishi haqida gapiring.

89- 95-§. SON VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI



Topshiriq

1-topshiriq. Tarix fanidan olgan bilimlaringizni mustahkamlang. O‘zbekiston tarixiga nazar soling. Berilgan rasmda qaysi tarixiy shaxs tasvirlangani haqida fikr yuriting. U haqida nimalarni bilasiz?

Atoqli davlat va siyosat arbobi, Buxoro jadidchiligining faol ishtirokchisi, «Yosh buxoroliklar» partiyasining rahbarlaridan biri. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Nozirlar Kengashi raisi. Buxoroda savdogar oilasida tug‘ilgan. Buxoro madrasasida 2 yil tahsil olgach, 1907-1912-yillarda Moskvada xususiy maktabda o‘qigan. Buxoroga qaytgach, 1912-yildan «Yosh buxoroliklar» partiyasining va 1913-yildan partiya Markaziy Qo‘mitasining a‘zosi bo‘lgan. Otasidan meros qolgan katta boylikni yangi usul maktablari ochishga, «Yosh buxoroliklar» siyosiy faoliyatini moddiy qo‘llab-quvvatlashga sarfladi. 1920-yildan boshlab Toshkentda tuzilgan inqilobchi «Yosh buxoroliklar» partiyasi Turkiston Markaziy byurosi raisi, «Uchqun» gazetasining muharriri (1920-yil aprel-sentabr) bo‘lib ishlagan. 1920-yil 14- sentabrda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati – Xalq Nozirlar Sho‘rosi tuzilib, hukumat boshlig‘i qilib




saylanadi. BXSР tashqi ishlar noziri (1920-22-yillar), harbiy ishlar noziri (1921-24-yillar), ichki ishlar noziri (1922-yil), BXSР Mehnat va mudofaa kengashi raisi (1922-24-yillar), SSSR Harbiy Dengiz ishlari xalq komissarligining O‘zbekiston SSR bo‘yicha rasmiy vakili (1925-yildan) bo‘lib ishlagan. U Germaniya va Yaponiya bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan. U talabalarni xorijga jo‘natib o‘qitishning tashabbuskorlaridan biri bo‘lgan. U davlat arbobi, tarixchi va iqtisodchi olim, publitsist, jurnalist sifatida boy ilmiy meros qoldirgan. Uning «Buxoro inqilobining tarixiga materiallar» (1926), «Buxorodagi revolyutsiya va O‘rta Osiyoning milliy chegaralanishi tarixiga doir» (1932) kitoblari, «BXSРdagi iqtisodiy ahvol» (1924), «Yosh buxoroliklar to‘g‘risida» (1926), «Jadidlar» (1926), «Bosmachilik» (1930) maqolalarida O‘zbekiston tarixining XX asr 1-choragidagi jiddiy muammolar ko‘rsatilgan. U 1937-yil 9- iyulda Moskvada qamoqqa olindi. Unga sovetlarga qarshi «O‘ng trotskiychi blok» faoliyatiga qo‘shilganlik, «Milliy ittihad» tashkiloti faoliyatiga rahbarlik qilganlik, „bosmachilik» harakati va qo‘rboshilarni qo‘llab-quvvatlaganlik, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy va boshqa o‘zbek ziyolilariga g‘amxo‘rlik ko‘rsatganlik kabi ayblar qo‘yildi va otishga hukm qilindi. Hukm Moskva atrofidagi Butovo qatlgohida ijro etilgan. 1965-yil SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi uni aybsiz deb topdi. O‘zbekistonda uning 100 yillik yubileyi nishonlandi (1996).



1-mashq. Berilgan matndagi sonlarni aniqlang. Ularni quyidagi jadvalga joylashtirishni mashq qiling.

T/r	Tartib son	Sanoq son	Dona son	Chama son	Jamlovchi son	Taqsim son	Kasr son



2-mashq. Berilgan matndagi sonlarni aniqlang. Ularning ma‘naviy guruhlarini ko‘rsating.

QOP YO‘QOTDING‘IZMI?

Sultonali mirzo «Qushbegi» mahallasiga kelib, bir darbozaga kirdi. Qorong‘i yo‘lakdan yurib borib, ichki eshikni taqirlatdi. Ichkaridan “Hozir!» degan tovush

eshitilgandan keyin bir necha qadam orqag'a qaytib keldi. Bir ozdan so'ng ichkaridan beqasam choponini yelkasiga xom tashlag'an, mahsisiz oyog'ig'a sag'ri kafsh kiyib ko'ylakchan badanini choponi bilan o'rag'an qirq yoshlar chamaliq bir yigit chiqdi va Sultonali mirzoga salom bergandan so'ng, shoshib choponining yengini kiydi, kelib ko'rishdi.

– Marhamat, taqsir. Bu kishi moltopar xotinni olib, suyagi tinchib qolg'an Xolboy – Gulshanning eri edi. Uyida erta-kech bekor yotib, Gulshanning topib kelganiga qanoat qilar, faqat osh pishirib havli supurar edi.

Sultonali mirzo Gulshanning o'rdag'a ketganganligini eshitib, sillasi qurudi, bir necha vaqt fikrga tolib qoldi.

– O'rdag'a ketkanligini aniq bilasizmi?

– Bundan chiqib bir joyga bormoqchi edi, – dedi Xolboy.

Xolboy biroz o'ylanib soqoli ostini chimchildi.

–Yo'qlab kelgan ekan, men uyda yo'q edim¹⁹⁷.

Nazariy ma'lumot. Son – asosan predmet-hodisa, qisman harakat-holatning aniq miqdori, sanog'i va tartibini bildiruvchi mustaqil so'z turkumi. Son necha?, nechta?, nechanchi?, qancha?, qanchadan?, qanchalab? kabi so'roqlarga javob bo'ladi¹⁹⁸.

Grammatik xususiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Miqdor son – bir, bitta, ikkov.
2. Tartib son – birinchi, 1-uy, XXI asr.

Miqdor son quyidagi turlarga bo'linadi: 1) sanoq; 2) dona(-ta, dona); 3) chama (-tacha, -lab, -larcha); 4) jamlovchi (-ov, -ovlon, -ala); 5) taqsim(-tadan)¹⁹⁹; 6) kasr

¹⁹⁷ A. Qodiriy "Mehrobdan chayon".- T.: "Sharq" 2004. 288b. 205- b

¹⁹⁸ Mengliyev B. , Xoliyorov O' ., Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma. 6-nashr. –T.: "Akademnashr".2018. 512 b. 238-b

¹⁹⁹ Mengliyev B. , Xoliyorov O' ., Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma. 6-nashr. –T.: "Akademnashr".2018. 512 b 239-240-b

(-dan). Morfologik jihatdan son turkumining ma'no turini hosil qiluvchi barcha qo'shimchalar lug'aviy shakl yasovchidir.



Topshiriq

2- topshiriq. Matni o'qing. Tibbiyot faniga oid bilimingizni boyitib boring. Matndagi sonlarni aniqlang. Ularni o'zi bog'langan so'z bilan birga daftaringizga ko'chirib, ma'noviy guruhini yozing.

Antibiotiklar



1928-yilda olim Aleksandr Fleming penitsillin mog'orlari ochiq derazada qoldirgan namunalardan birini patogen staf bakteriyalari bilan yuqtirganligini payqadi. Fleming namunani mikroskop ostida ko'rib chiqdi va mog'or bakteriyalarni o'ldirayotganini payqadi. Flemingning kashfiyotining ahamiyati faqatgina 1940-yilda dunyoda yangi turdagi antibiotiklarni ommaviy ravishda o'rganish boshlanganida aniq bo'ldi. Hozirgi kunda antibiotiklar tibbiyotda keng qo'llaniladi, ular dunyoda sotiladigan barcha dorilarning 15 foizini tashkil qiladi²⁰⁰.

Nazariy ma'lumot. Son, odatda, raqam va so'z bilan yoziladi:

1) raqam bilan: 0, 1, X; 2) nol, bir, o'n.

Sonlar rim va arab raqamlari bilan ifodalanadi.

Ular jadvaldagi kabi yoziladi .


Raqamning so'zdagi ifodasi	Arab	Rim
Bir	1	I
To'qqiz	9	IX
O'n	10	X
To'qson	90	CX
Yuz	100	C
To'rt yuz	400	CD
Besh yuz	500	D
To'qqiz yuz	900	CM
Ming	1000	M

²⁰⁰ Odam.uz saytidan olindi.



Topshiriq

3-topshiriq. Berilgan matndagi tadqiqotchi olim Chezbroning ixtirosini bilib oling. Undagi sonlarni aniqlang. Arab va rim raqamlari bilan ifodalangan sonlar haqida fikr yuriting. Hisob soʻzning qanday maʼno ifodalaganini koʻrsating.



XIX asrning oʻrtasida neft sanoatidagi koʻplab ishchilar neft nasoslarining quvurlari ichida toʻplanib qolayotgan mumli modda – «parafin» ustidan shikoyat qilganliklari kuzatilgan. Bu zararli va keraksiz modda tadqiqotchi Chezbro tomonidan yaqinroq oʻrganilganida neft jelesi yaralarni va kesib olingan joylarni juda tez, yaʼni 1-2 martada aʼlo darajada davolash imkoni bor ekanligi aniqlangan. Keyinchalik, bu jele «vazelin» deb nomlangan. Bu soʻz nemischa «Wasser» (suv) va yunoncha «Elaion» (moy) soʻzlaridan hosil boʻlgan²⁰¹.



3-mashq. Xristofor Kolumb bilan dunyo boʻylab sayohatga chiqing.




Sayohatingiz xususida hisobot matni yarating va unda sonlarni qoʻllang.

Xristofor Kolumb tomonidan Amerika qitʼasining kashf etilishi juda tasodifan sodir boʻlgan. Aslida, Kolumb Hindistonga yaqin yoʻl izlab safarga chiqqan edi²⁰². Biz bu safarda...



4-mashq. Berilgan matni oʻqing. Dunyo moʻjizalariga xayolan sayohat qiling. Undagi sonlarni aniqlang. Sonning maʼnoviy turi va otlashishini koʻrsatib bering.

Afinalik Fidiy yunon xalqi orasida buyuk haykaltarosh sifatida tanilgan edi. Afsuski, bu ustaning birorta ham ulkan



²⁰¹ Odam.uz saytidan olindi.

²⁰² Odam.uz saytidan olindi.

haykallari bizgacha yetib kelmagan. Shuning uchun ham Fidiy san'at mahorati haqida Afina Parfenon ibodatxonasining saqlanib qolgan nusxalari va fragmentlari bo'yicha baho berishimiz mumkin. Fidiy Olimpiya Zevsidan tashqari yana ikkita juda katta haykal (ba'zida ularni ham olam mo'jizalari safiga kiritishgan) yaratgan. Bu Afina Akropolida turuvchi bronzadan yasalgan. Biri Afina Promaxosning (Jangchi), ikkinchisi Parfenon ichida joylashgan xuddi Zevs singari oltin va fil suyagidan yasalgan Afina Partenosning (Qiz) haykallari edi²⁰³.



5-mashq. Berilgan rasmdan foydalanib. «Qalamimni yo'nib bergan ustozimdan qarzim bor» mavzusida matn tuzing. Unda son so'z turkumidan unumli foydalaning. Sonlarning sodda, qo'shma, juft va takroriy turlarini ko'rsating.



6-mashq. Semestr davomida olgan bilimlaringizni mustahkamlang. DTMning test savollarini bajaring. To'g'ri javoblarni daftaringizga yozing.

1. Qaysi javobda ot turkumiga oid ma'nodosh so'zlar qatori berilgan?

A) yer, osmon B) inoq, ahil C) ma'no, mazmun D) chopish, yugurish

2. Qaysi javobda sifat turkumiga oid so'z bilan paronim bo'la oladigan birlik berilgan?

A) azm B) xam C) ahil D) xiyla

3. Qaysi javobda otlashgan sonlar to'ldiruvchi vazifasida kelgan?

A) Beshovining ham fikri bir yerdan chiqdi.

B) To'qqizida bo'lmagan aql to'qsonida ham bo'lmas.

C) Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar.

²⁰³ Bolalar uchun ensiklopediya. Dunyo mo'jizalari. Toshkent: "Davr nashriyoti" 2013.

D) Tayog‘i yo‘g‘on birni urar, so‘zi yo‘g‘on mingni urar.

4. Bunda na g‘am bor, na azob, unda yashash quvonchli, pok muhabbat, bitmas-tuganmas orzu va qudrat bor edi. Ushbu gapda nechta tub mavhum ot bor?

A) 6 ta B) 4 ta C) 1 ta D) 5 ta

5. Tarkibida ot, sifat va fe‘l turkumiga oid yasama so‘zlar ishtirok etgan gapni aniqlang.

A) Ekinlar tomiriga qon yugurdi, so‘lg‘in yaproqlar asta jonlana boshladi.

B) Tongning tarovatli shamoli bir nafasgina go‘daklik yillarini qaytarar emish.

C) U shuni angladiki, cho‘l o‘zlashtirish, cho‘lda ishlash bilimsizga qiyin ekan.

D) Egarining oltin bezaklari quyosh nurida tovlanayotgan bo‘z otni yetaklab keldi.

6. Biz pokiza zotlarning naslimiz, tomirlarimizda ularning pok qoni bor. Ushbu gapda ismlarning munosabat shaklini hosil qiluvchi qo‘shimchalar soni nechta?

A) 8 ta C) 5 ta B) 7 ta D) 6 ta

7. Hayot go‘zal, hayot maroqli, Shuning uchun erka ko‘ngil shod. Ushbu she‘riy parchada qatnashgan sifatlar haqidagi qaysi fikr to‘g‘ri emas?

A) Ot turkumidan yasalgan asliy sifat ishtirok etgan.

B) Tub va yasama sifatlar ishtirok etgan.

C) Aniqlovchi vazifasida qo‘llangan yasama sifat ishtirok etgan.

D) Kesim vazifasini bajargan sifatlar ishtirok etgan.

8. Men ketsam, yomondan yiroq bo‘l ohu. Chunki sen chiroyli, ko‘rkli bir juvon. Ushbu she‘riy parchada qatnashgan sifatlar haqidagi qaysi fikr to‘g‘ri?

A) Asliy va nisbiy yasama sifatlar ishtirok etgan.

B) Tub sifatlar tobe bog‘lanishlarda faqat hokim qism vazifasida qo‘llangan.

C) Tub va yasama asliy sifatlar ishtirok etgan.

D) Ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida qo‘llangan asliy sifat ishtirok etgan.

9. Ajoyib milliy urf-odatlarimiz odamlarni hamjihatlikka, birodarlikka va samimiyatga chorlaydi. Ushbu gapda ishtirok etgan otlarga oid qaysi ma'lumot to'g'ri emas?

- A) Ushbu gapda aniq va mavhum otlar qatnashgan.
- B) Ushbu gapdagi barcha otlar tuzilishiga ko'ra o'zaro bir turga oid hisoblanadi.
- C) Ushbu gapdagi so'z birikmalarida hokim qism vazifasini bajargan ot qatnashgan.
- D) Ushbu gapdagi otlar ega va to'ldiruvchi vazifasini bajara olmagan

10. So'ri oldida chiroyli, xushbo'y, ko'm-ko'k, sariq gullar o'sib yotardi. Mazkur gapdagi sifatlar haqida berilgan qaysi ma'lumot to'g'ri emas?

- A) Otlashgan sifat qatnashgan.
- B) Sifatlar uyushiq aniqlovchi vazifasini bajargan.
- C) Tub va yasama sifatlar qatnashgan.
- D) Sifatlar ma'noviy jihatdan turli guruhga mansub

Nazariy ma'lumot . Son so'z turkumi otlashish (Ikkala o'quvchini taqdirladik – Ikkalasini taqdirladik) va otga ko'chish (Yetti, qirq, yigirma, to'qqiz- to'qqiz – marosim otlari) xususiyatiga ega²⁰⁴.

Hisob so'z bu – sanoq sonning o'lchovini bildiruvchi so'z bilan kelishi. Masalan: dona, gala, guruh, dona, gala, guruh, gramm, guruh, qadam. Bir *qadam* yo'l. Hisob so'zi asosan ot bilan ifodalanadi. Uch *shisha* qatiq.



7-mashq. Hisob so'zining quyidagi ma'noviy guruhlarini yodda saqlang. Bu hisob so'zlarni son bilan qo'llab gaplar tuzing. Tuzgan gapingizni daftaringizga yozing.

- 1) Yakkalab hisoblash uchun:** bosh, dona, nafar; **2) juftlab hisoblash uchun:** juft, par(a); **3) to'dalab hisoblash uchun:** bog'/bog'lam, gala, guruh, hovuch;
- 4) bo'laklab hisoblash uchun:** burda, varaq (bet, sahifa), og'iz (bir og'iz gap);
- 5) aniq o'lchovni bildirish uchun:** gramm, kilogramm, litr, pud, tonna, sentner, misqol, qadoq, botmon ; **6) og'irlikning taxminiy o'lchovni bildirish uchun:**

²⁰⁴ Mengliyev B. , Xoliyorov O' ., Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma. 6-nashr. –T.: “Akademnashr”.2018. 512 b. 239-b.

kosa, piyola, qop (xalta), qoshiq, quti; **7) uzunlik o‘lchovni bildirish uchun:** qadam, qarich, quloch; **8) yosh o‘lchovni bildirish uchun:** yashar, yoshdagi, yoshli; **9) vaqt o‘lchovni bildirish uchun:** asr, yil, kun, kecha-kunduz, oy, hafta, daqiqa, soat, soniya; **10) qiymat o‘lchovni bildirish uchun:** so‘m, tiyin, miri, paqir, dinor, yevro, dollar; **11) ish-harakat o‘lchovni bildirish uchun:** marta/martaba/marotaba, karra, qatra, sidra.



«O‘zbek tilining imlo lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning yozilishini bilib oling. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiling.

E’tiroznoma, dahshat, dimog‘, dudoq, talafot, yumush, yumish²⁰⁵.



U odamzod o‘zi uchun tuzib oladigan qora ro‘yxatda turadi, uning kattasi emas, ba‘zan ko‘zga ko‘rinmaydiganlari xavfliroq. Uning kattasimi, kichigimi har birimizda bor. Mantiqiy o‘ylab javobini toping. **Savol:** U nima?



8-mashq. **Uyga vazifa.** «Maqsad kelajakka poydevormi?» mavzusida esse yozing. Unda shu mavzuni tezis qilib oling. Asosiy qismda 4 ta asoslovchi dalil keltiring. Kirish va xulosa qismida fikringizni hikmatlar va maqollar bilan boyiting. Sonning barcha ma‘noviy turlaridan foydalanishga harakat qiling.

96-104-§. OLMOSHLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI



Topshiriq

1-topshiriq. Berilgan matnni o‘qing. Xalq qahramonlari haqidagi bilimlaringizni boyiting. Barcha mustaqil so‘z turkumlariga ishora qilgan so‘zlarni aniqlang. Ularni daftaringizga alohida ko‘chirib yozing.

Temur Malik

Temur Malik (12-asr oxiri 13-asrning 1yarmi) - Xorazmshoh Muhammad hukmronligi davrida Xo‘jand hokimi, Jaloliddin Manguberding yaqin safdoshi, mo‘g‘ullar istilosiga qarshi kurash olib borgan sarkarda, xalq qahramoni.

²⁰⁵ O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 2013.240b.128-98-b



Temur Malik Sirdaryo o'rtasidagi orolda, suv 2 shoxga bo'linib oqadigan joyda, bir mustahkam qal'a qurdirib qo'ygan edi. Mo'g'ul qo'shini son va qurol-aslaha jihatdan ustun bo'lgani bois ularni mudofaa qilish qiyinlashadi. Natijada, u 1000 kishilik otryadi bilan 1220-yilning aprelda orolga ko'chib o'tadi va barcha tezlikda qal'ani jangga tayyorlashga kirishadi. Bunda shahar va qal'a atrofini dushman halqa qilib o'rab oladi. Manjaniqdan otilgan toshlar orolga yetmagandan so'ng mo'g'ullar xo'jandlik yoshlar va ilgari olingan asirlardan hashar tarzida foydalanishga qaror qiladilar. Shunda taxminan 50 ming hasharchi tevarak-atrofdan tosh, shox-shabba va xashak keltirib daryoga tashlaydi, mo'g'ullarning 20 ming kishilik qo'shini esa jangga kirishadi. Temur Malik usti namat hamda sirkali loy bilan suvalgan, o'q otish uchun darchalari bor kemalar yasatadi. Kunda tongda hamma ikki tomonga 6 tadan kemada suzib kelib, yovga qirg'in keltiradi. Oxir oqibat vaziyat tanglashgach, u orolni tashlab ketishga majbur bo'ladi. U qolgan askarlari va yuklari ortilgan 70 qayiqda Sirdaryoning quyi oqimi bo'ylab suzib ketadi. Barchinlig'kent (Qizilo'rdadan taxminan 50 km janubda bo'lgan) yaqinida mo'g'ullar daryoni to'sib qo'yadilar. Temur Malik qirg'oqqa tushib, dushman bilan jang qiladi. Ularga ko'p talafot berib, yolg'iz o'zi Qizilqum cho'li orqali 1220-yilning yozida Xorazmga yetib keladi. Askar to'plab Jo'jixon qo'shiniga kuchli zarba beradi. Kasba (Yangikent) shahrini mo'g'ullardan ozod qiladi. Ammo, saltanatda yuzaga kelgan mushkul siyosiy vaziyat tufayli Xorazmni tark etadi. Temur Malik 1221-1232-yillar davomida o'zi Sulton Jaloliddin bilan birgalikda mo'g'ullarga qarshi kurash olib boradi. Jaloliddin halokatidan keyin o'z yurtiga qaytadi.²⁰⁶

²⁰⁶ Ad.:Rashidad-Din, Sbornik letopisey, t.1, kniga 2, [Perevod s pers. yaz. O. I. Smimovoy], M.—L.,1952; Bartold V. V., Sochineniya, t.1, M., 1963; Mirzo Ulug'bek, To'rt ulus tarixi, T., 1994. Ko'proq o'rganish Ushbu maqolada O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)ma'lumotlaridan foydalanilgan.



2- topshiriq. Xorazm tarixiga qilingan sayohat sizda qanday taassurot qoldirdi? Yana qanday tarixiy qahramonlarni bilasiz? Quyidagi savollarga javob bering.

1. Berilgan matnda olmoshlarning soni nechta?
2. Olmoshning o‘ziga xos qanday xususiyatlarini bilasiz?
3. Siz olmoshlardagi fonetik hodisalar haqida tushunchaga egamisiz?
4. Matndagi olmoshlar qanday uslubiy vazifa uchun xizmat qilgan?

Nazariy ma’lumot. Olmosh barcha mustaqil so‘zlar, yordamchi so‘zlar, shuning-dek, so‘z birikmasi va gap o‘rnida qo‘llanadi, ularga ishora qiladi yoki so‘rog‘ini bildiradi²⁰⁷. **Ot** o‘rnida: Ukam (ot) keldi - U (olmosh) keldi. **Sifat** o‘rnida: qiziq (sifat) kitob – shunday (olmosh) kitob. **Son** o‘rnida: o‘nta (son) qalam – shuncha (olmosh) qalam. **Fe'l** o‘rnida: o‘qilgan(fe'l) kitob – qaysi (olmosh) kitob . **Ravish** o‘rnida: bugun (ravish) keldi - qachon (olmosh) keldi. **Taqlid** o‘rnida: taq-tuq (taqlid) ovoz –qanday (olmosh) ovoz²⁰⁸. **Bog‘lovchi** o‘rnida: Ammo (bog‘lovchi) zidlik ma’nosini ifodalaydi. – U(olmosh) zidlik ma’nosini ifodalaydi. **So‘z birikmasi o‘rnida:** inshoni yozgach (so‘z birikmasi) – qachon(olmosh)²⁰⁹. **Gap o‘rnida**²¹⁰: Baxtim shuki (olmosh), yurt osmoni tinch (gap).



1-mashq. Qomusiy bilimlaringizni oshirib boring. Quyidagi mikromatnlarni ifodali o‘qing. Unda so‘zlarning talaffuziga alohida e’tibor bering. Olmoshlarni aniqlang. Berilgan mustaqil so‘zlar o‘rnida olmoshlarni nutqni ixcham ifoda qilishning muhim vositasi sifatida to‘g‘ri qo‘llang. Qo‘llangan olmoshlarni daftaringizga yozing.



Superyelim (tsianoakrilat). Qurol nishonga olgichlari uchun shaffof plastik izlash paytida topilgan. Kerakli plastik baribir

^{25,26,27,28}, Mengliyev B., Xoliyorov O‘., Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. 6-nashr. –T.: “Akademnashr”.2018. 512 b.255-B,256-b

topilmagan, ammo unda kashf etilgan yelim yaralarni darhol yopish fazilatiga ega bo'lgani uchun ko'plab hayotlarni qutqarib qolgan²¹¹.



Rezina.1844-yilda ixtirochi Charlz Gudyer tasodifan issiqda yumshamaydigan va sovuqda mo'rt bo'lmaydigan kauchuk yasash retseptini topadi. Bu texnologiya vulkanizatsiya deb nom oladi. Ko'p yillar davomida juda injiq va noqulay material kauchukning sifatini yaxshilashga urinib yurgan Gudyer tasodifan pechkada kauchuk va oltingugurt aralashmasini qizdiradi. Kauchukni vulkanizatsiya qilish jarayonining ochilishi elektrotexnika sanoatining rivojlanishiga turtki bo'ladi, chunki kauchuk mukammal izolyatsion materialdir. Shunday qilib, Gudyer ixtirosi zamonaviy avtomobilning paydo bo'lishiga imkon beradi²¹².



2-mashq. Berilgan matnda qatnashgan olmoshni aniqlang. Ularning gapdagi sintaktik vazifasini ko'rsating.

Har bir xalq o'ziga xos urf-odatlar va qadriyatlar tufayli o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Inglizlarning qaysarligi bilan o'z o'tmishiga sodiq qoladigan hech bir millat yo'q. Ular o'zlarining urf-odatlarini bilan juda faxrlanadilar va ehtiyotkorlik bilan saqlaydilar. Buyuk Britaniya haqida o'ylaganimizda,



odamlar ko'pincha sutli choy ichishganini, baliqlarini, kamin yonida o'tirganlarini yoki boshlarida kamzulli shlyapa kiyganlarini tasavvur qilamiz, ammo Britaniya bundan ham ko'proq. Ba'zi Britaniyadagi urf-odatlardan biri har kuni Bakingem saroyida bo'lib o'tadigan soqchilarni almashtirish, bannerni olib tashlash marosimi qirolichaning rasmiy tug'ilgan kunida bo'lib o'tadi. Bu yuzlab askarlar va mis guruhlarini ishtirokidagi katta rangli chiqishlardir.

²¹¹ Odam.uz saytidan olindi.

²¹² Odam.uz saytidan olindi.



3-mashq. O‘z nutqingizda qo‘llaydigan olmoshlarni sanang. O‘zingiz mustaqil quyidagi ma‘lumotlarga mos olmoshlarni topib daftaringizga yozing. Fikringizni asoslab bering.

1. Olmosh – nutqni ixcham ifoda qilishning muhim vositasi: Qizlar va yigitlar xonaga kirsin – Hamma kirsin. Xonadagi buyumlarni yig‘ishtiring – Bularni yig‘ishtiring.
2. Olmosh qaysi turkumga xos so‘z bilan almasha, shu turkumning morfologik xususiyatlariga ega bo‘ladi.
 - a) Otning morfologik xususiyatlariga egalik: Nargiza aqlli qiz. U aqlli qiz. (U – birlik), (kimlar – ko‘plik);
 - b) Sifatning morfologik xususiyatlariga egalik: daraja – shunaqaroq;
 - c) Sonning morfologik xususiyatlariga egalik: chama – nechtalar.



4-mashq. Berilgan gapdagi olmoshlarni aniqlang. Olmosh bilan qaysi turkumga xos so‘zni almashtirsa, shu turkumning morfologik xususiyatlariga ega bo‘ladi: a) Ot morfologik xususiyatlarga ega birlik – men; b) Sifatning morfologik xususiyatlari: daraja – shunaqaroq; s) Sonning morfologik xususiyatlari: chama – nechtalar.



Inglizlar nonushta qilishda odatda ertalab bekon va tuxum, apelsin murabbo bilan tost, bir piyola don yoki porridge iste‘mol qiladilar. Ular tartibga juda qattiq amal qilishadi.

Xushmuomalalik va aniqlik barcha britaniyaliklarga xos xususiyatdir. Ular tez-tez tabassum bilan «Kechirasiz», «Iltimos» va «Rahmat» deyishadi va har doim o‘z vaqtida kelishga harakat qilishadi.



5-mashq. Maktabda olgan bilimlaringizni mustahkamlang. Quyidagilarni olmoshning ma‘no va grammatik jihatdan turlarini to‘g‘ri ko‘rsating. Unda quyidagi jadvaldan foydalanib, daftaringizga ko‘chiring.

Olmoshning ma‘no va grammatik jihatdan turlari	Mana, ana shu, hech nima, hech qanday, nima, qayer, qanday, allakim, qaysi, allanima, allaqayer qanaqa, kim,
--	--

Kishilik olmoshi	qancha, nechta, hamma, barcha, bari, jami, yalpi, butun, har kim, har nima, har bir, nimadir, qandaydir, qanaqadir, hech bir, hech narsa, hech kim, necha, hech qanaqa, hech qaysi, hech qancha, har qachon, har qayerda, nechanchi, qachon, qayerda, qayerga, qayerdan, qayoqqa, mana bu, anovi, unday, unaqa.
O'zlik olmoshi	
Ko'rsatish olmoshi	
So'roq olmoshi	
Belgilash-jamlash olmoshi	
Bo'lishsizlik olmoshi	
Gumon olmoshi	



6-mashq. Berilgan matni o'qing. Undan qanday xulosa chiqarganingizni daftaringizga qayd etib qo'ying. Olmoshlarni aniqlab ularning ma'noviy turi va gapdagi vazifasini ayting.

Sulaymon alayhissalom bir chumolini ko'rib undan: «Kunda qancha bug'doy yeysan?» – deb so'rabdilar. Chumoli: «Bir dona», – deb javob beribdi...



Sulaymon alayhissalom uning oldiga bir dona bug'doyni qo'yibdi-da, ustidan bir kosani ag'darib: «Kunlik rizqingni men keltirib turaman!..» – debdi.

Ertasiga kelib, kosani olib qarasa, chumoli bir dona bug'doyning yarmini yeb, qolgan yarmini ushlab o'tirganmish!.. Sulaymon alayhissalom chumoliga: «Menga, bir dona bug'doyni bir kunda yeyman, degan eding! Yarmi ortib qolibdi-ku?!» – debdi. Chumoli u zotga qarab: «Rizqim Allohning zimmasida ekan, U zot menga kunlik rizqimni yetkazishni unutmaydi!.. Bunga ishonchim komil. Lekin kunim sizga qolgach, esingizdan chiqib qolsam-chi, degan xavotir bilan yarmini olib qo'ydim²¹³...



3-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Bu matnda insonga xos qaysi nuqson haqida fikr yuritilgan?
2. Siz kimga bergan va'dangizni unutib qo'ygansiz?
3. Sulaymon va chumoli haqida yana qanday hikoyatlarni bilasiz?

²¹³ - Mulohazalashamiz telegram kanali



7-mashq. Matni o‘qing. Matndan qanday ibrat oldingiz? Unda qo‘llangan olmoshlarni aniqlang. Ajratilgan so‘zlarning talaffuzi haqida fikr yuriting.

Ibrat



Kichkinagina qizcha yo‘l bo‘yida o‘tirib pul so‘rardi. Ustidagi kiyimlari yirtiq-yamoq, yuz, qo‘llari kir. U odamlarga yolvorib qo‘l cho‘zarkan, **yonginasidan** yosh, boy, go‘zal ko‘rinishli kishi o‘tdi. Kishi qizchaga bir qiyo boqdi-yu, e‘tiborsiz yo‘lida davom etdi. Uning hashamatli uyida xotini va bolalari, kechki ovqat hamda xotirjam hayot kutardi. Ovqatdan so‘ng birdan uning **xayoliga** o‘sha **tilanchi** qiz keldi. Negadir unga rahmi kela boshladi, g‘arib ko‘rinishini ko‘z oldiga keltirdi-yu, ich-ichidan achindi. Shu tuyg‘ular og‘ushida Allohga yuzlandi:

«Nega bunday ishlar bo‘lishiga izn berasan? Nega shu **jajji** qizga yordam berish uchun hech nima qilmaysan?» Ana shunday o‘kinch so‘zlarni ayta-ayta uyquga ketdi. Ko‘zlari ilinar- ilinmas, tushida **haybatli** bir ovozdan uyg‘onib ketdi: «Aynan shuning uchun ham sen badavlat qilingansan! »

Namuna: Nega bunday ishlar bo‘lishiga izn berasan? Nega – olmosh, sodda olmosh, so‘roq olmoshi, ravish o‘rnida qo‘llangan, sabab holi vazifasida kelgan, fe’lga bog‘langan.



8-mashq. Quyidagi rasmlardan foydalanib kichik matn tuzing. Unda quyidagi olmoshlardan foydalaning. Olmoshlarni jadvalga namunadagidek joylashtiring.



Sodda	Qo‘shma	Juft	Takroriy
Men	har kim	u-bu	kim-kim



«O‘zbek tili izohli frazeologik lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi iboralarning ma‘nolarini o‘rganing. Iboralarning nutq jarayonidagi ta’siri haqida o‘ylab ko‘ring. Ularni eslab qolishga harakat qiling.

Alifni kaltak deya olmaslik. G‘irt savodsiz bo‘lmoq. Hech narsa bilmaslik. Varianti: *alifni tayoq deyolmaslik, alifni tayoq demoq. Yog‘-ey, qanaqa qilib o‘qirdim. Alifni kaltak deya olmayman-ku. (Sh. Toshmatov)*


Daryodan bir tomchi. Qolgan qismiga nisbatan mutlaqo oz. Varianti: **daryodan tomchi.** *Bu aytganlarimiz daryodan bir tomchigina. (Oybek)²¹⁴*



Qo‘qon xonligi davrida mashhur Qo‘qon bozoriga vodiy bo‘ylab turli tomonlardan kishilar to‘planar edi. Qizig‘i bir xil mahsulotni bir xil miqdorda olib kelgan bo‘lsa ham, Sharq tomondan kelgan sotuvchiga 100 tanga, G‘arb tomonidan kelgan sotuvchiga esa 50 tanga soliq solingan. Savol: Nega G‘arb tomondan kelgan sotuvchilarga ikki barobar kam soliq solingan?



9-mashq.Uyga vazifa. Tarixga nigoz tashlang. «Sulton Jaloliddin Manguberdiga maktub» yozing. Xatingizda bugungi kun hayoti, vatanimiz taraqqiyoti haqida o‘z fikrlaringizni ifodalang. Olmoshlardan unumli foydalaning.



²¹⁴ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”.1978. 405 b.26-;70-b

**105-§. FE'L VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI. FE'LLARNING
MA'NOVIY TURLARI HAMDA USLUBIY XOSLANISHI HAQIDA
MA'LUMOT**



Topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi maqollarda qo'llangan fe'llarni aniqlang. Ularning tarkibiy qismlarini namunadagidek yozing.

Namuna: aytilgan-ayt/il/gan, ...

Aytilgan so'z, otilgan o'q.

Har ishni o'z vaqtida qil, har daqiqani baxting kaliti deb bil.

Qo'rqqanga qo'sha ko'rinadi.

Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamas.

Nazariy ma'lumot. Harakat-holat ma'nosini ifodalab, nima qildi (bo'ldi)?, nima qilyapti (bo'lyapti)?, nima qiladi (bo'ladi?) singari so'roqlarga javob bo'luvchi so'z turkumiga fe'l deyiladi.

Masalan: *Talaba ko'p o'qidi (nima qildi?). Mashina o't oldi(nima qildi?).*
Iqboloy bu xabardan xursand bo'ldi (*nima bo'ldi?*).



1-mashq. Quyidagi fe'llarni harakat va holat fe'llariga ajrating.

Yozmoq, tashkillashtirmoq, kulmoq, o'ynamoq, sovimoq, chizmoq, to'xtamoq, ko'rsatmoq, xursand bo'lmoq, fikrlamoq, shubhalanmoq, porlamoq, yugurmoq, hikoya qilmoq, qizarmoq, eshitmoq, tushmoq, his etmoq, kuzatmoq, bajarmoq, bo'yamoq, xabar bermoq, hisoblamoq, uxlamoq, ranjimoq,

Harakat fe'llari	Holat fe'llari



2-mashq. Berilgan fe'llarni fe'lning qaysi ma'no turiga oidligini toping.

Nutqiy faoliyat fe'llari	Aqliy faoliyat fe'llari	Jismoniy faoliyat fe'llari	Holat fe'llari

Duduqlanmoq, isbotlamoq, ruhlanmoq, orzu qilmoq, o'lchamoq, eshitilmoq, toshmoq, urinmoq, qotmoq, o'ylamoq, porlamoq, pichirlamoq, yiqilmoq, jimirlamoq, rejalashtirmoq, qimirlamoq, to'planmoq, qizarmoq, yasharmoq, sug'ormoq, chopmoq, qichqirmoq, gapirmoq, yiqilmoq, gap tashlamoq, fikrlamoq, ag'darmoq, xafa bo'lmoq, g'udranmoq, kechirmoq, suhbatlashmoq.



3-mashq. Matndan fe'llarni aniqlang, ularni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring. Gapdagi sintaktik vazifasini aniqlang.

Podshohlardan birining shahar ko'chalarini aylanib yurish odati bor edi. Aravada ketayotgan podshohning e'tiborini ikki tilanchining ovozi tortdi. Ulardan birinchisi shoh aravasi tomon qo'lini cho'zib, uni madh etib hayqirdi: «Faqat shohim menga baxtimni hadya etadi!».

Podshoh nariroqdagi ikkinchi tilanchi, go'yo bunga qasd qilgandek: «Faqat Alloh marhamatli Zot, faqat Allohdan baxt tilayman!», der edi.

Saroyga qaytgan shoh ikkita non pishirib, ulardan biriga kattagina tilla yombi qo'shishlarini buyurdi. Ertasiga yana shu joydan o'tgan shoh tilla qo'shilgan nonni o'zini maqtagan tilanchiga berishlarini buyurdi. Narigi non esa Allohdan baxt so'ragan gadoyga nasib qildi. Oradan necha vaqtlar o'tib, o'sha joydan o'tgan podshohning ko'zi yana o'sha tilanchiga tushdi. Tilanchi hali-hamon o'sha joyida o'tirib, baqirib-chaqirib odamlardan xayr so'rardi. Podshoh aravasidan tushib tilanchiga yuzlandi va so'radi:

– Nega yana tilanib o'tiribsan? Men senga ichida tilla bo'lgan non bermaganmidim?

Tilanchi hayron bo'ldi:

– Qanaqa oltin haqida so‘zlayapsiz, shohim. Menga bergan noningiz juda og‘ir ekanligidan uni xom gumon qilib, anavi yerda o‘tiradigan tilanchiga 10 chaqaga sotib yubordim.

Ikkinchi tilanchi ko‘rinmasdi. So‘rab-surishtirishni buyurgan shoh, gadoyning xotini tillani topib olgani, ular boyib ketib hozir to‘kin yashayotganini eshitdi. Shoh tilanchiga hech qachon Allohni qo‘yib, boshqaga sig‘inmaslikni, baxt-saodat ham faqat Parvardigordan so‘ralishini aytib saroyiga ravona bo‘ldi²¹⁵.

(Yoqub Umar tarjimasini)

Nazariy ma‘lumot. Fe‘lning bir ma‘noviy guruhiga kiruvchi fe‘llar harakat-holat ma‘nosini qanday ifodalashi bilan bir-biridan farq qiladi. Quyidagi farqlanishlarni kuzatish mumkin:

1. Harakat-holatning kuchli-kuchsizligiga ko‘ra farqlanishi: *jilmaymoq - kulimsiramoq - kulmoq.*

2. Ijobiy va salbiy bahoga ega bo‘lishligiga ko‘ra: *kulmoq - tirjaymoq; so‘zlamog - to‘ng‘illamoq - ming‘irlamoq.*

3. Uslubiy xoslanishiga ko‘ra: *kulmoq (umumiste‘moldagi so‘z) - tabassum qilmoq (badiiy uslubga xos), so‘zlamog (umumiste‘moldagi so‘z) - nutq irod etmoq (badiiy uslubiga xos) kabi.*

Yuqoridagi fe‘llarning har qaysisini o‘z o‘rnida ishlatish nutqning ravonligi, aniqligi va ifodaliligini ta‘minlaydi.



4-mashq. Matnda ajratib ko‘rsatilgan fe‘llarning uslubiy xususiyatini aniqlang. Ajratib ko‘rsatilgan fe‘llarning sinonimlarini toping va matnda qo‘llab, xulosangizni bayon qiling.

Yanguli amirona ishora bilan hammaning ovozini o‘chirdi, so‘ng bamisoli qabila oqsoqoliday o‘z qavmiga yuzlanib, tarixiy **nutq irod etdi**:

²¹⁵ <https://azon.uz/content/views/non-ichidagi-tilla-haqida-rivoyat>

– Bolalar! Men, Yanguli Aleksandridi, sizlar saylagan sardor, sizlarga, Venetsian ko‘chasining hur farzandlariga **murojaat qilaman!** Ro‘parangizda tibilisilik rangpar laqma bilan uning jiyani – vatan va qabila xoini, mishiqli Koka turibdi. Mana bu rangpar kelgindi bizning mehmondo‘stligimiz va muruvvatimizdan **bahramand bo‘lish** o‘rniga – xudo **siylagan** yerimizni, dengizimizni, jamiki daryolarimiz, oltin va kumushlarimiz, o‘tloqlarimizni o‘zining qilib olmoqchi²¹⁶...

(Nodar Dumbadze «Hellados»)



«O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi ma‘nodosh so‘zlarni o‘rganing. Sinonimlar nutqda takroriylikni oldini olganligi uchun ulardan unumli foydalanishga harakat qiling.

FAROSATLI, ZEHNLI, DIDLI, ZAKOVATLI, ZUKKO, ZAKIY, ZOL. Zehn-farosati yaxshi. **Zukko, zakiy** nisbatan eskirgan. **Zakovatli** yozma nutqda uchraydi. **Zol, zakovatli** aql-farosati juda kuchli bo‘lgan, asosan, katta yoshdagi kishilarga nisbatan qo‘llaniladi. *Farhod yosh bolalik vaqtidanoq aqlli, idrokli, zehni, qobiliyatli edi*²¹⁷.

SHIKOYAT, ARZ, DOD, ARZ-DOD. Og‘zaki va yozma tarzda ifodalangan norozilik. *Gap vaqfdor dehqonlardan tayoq yeb kelgan ijarador Nazirboyning shikoyati haqida edi.* (S.Ayniy)²¹⁸



Qadimgi Sparta ayollari erlari qabriga borganda o‘z vafodorliklarini belgisi sifatida bir kichkina idishda hech qayerda sotilmaydigan suyuqlik quyib kelishar ekan. Savol: qanday suyuqlik haqida gap ketmoqda?



5-mashq. Uyga vazifa. Fe’llarning ijobiy va salbiy baholanishiga ko‘ra, harakatning kuchli kuchsizligiga ko‘ra, uslubiy xoslanishiga ko‘ra jadvalni to‘ldiring. Ushbu so‘zlar ishtirokida 100 ta so‘zli matn tuzing.

²¹⁶ <https://saviya.uz/>

²¹⁷ Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”.1963. 264 b. 207-b

²¹⁸ Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”.1963. 264 b. 228-b

Namuna:

Ijobiy	Salbiy
Qaramoq, qiyo boqmoq, nazar tashlamoq	Baqraymoq
Harakatning kuchliligi	Harakatning kuchsizligi
Turtib ketmoq yig‘lamoq	Tegib ketmoq , yig‘lamsiramoq,

Uslubiy xoslanishiga ko‘ra					
Rasmiy	Ilmiy	Badiiy	Ommabop	So‘zlashuv	Betaraf
Qabul qilinsin		Qabul ayla			Qabul qilmoq

106-§. NISBAT SHAKLLARI USLUBIYATI



Topshiriq

1-topshiriq. Kiydi-kiyindi-kiyildi, o‘qidi-o‘qitdi-o‘qishdi-o‘qildi, fe’llarining o‘rtasidagi ma’no farqlarni aniqlang.

Fe’l nisbatlari – fe’ldan anglashilgan harakat-holat bilan shu harakatni yuzaga chiqaruvchi shaxs o‘rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Ya’ni bajaruvchining harakat va holat jarayoniga qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe’l shakllari nisbat shakllari sanaladi.

Masalan, bajardi fe’lida harakatni bajaruvchi shaxs aniq, bajarildi fe’lida noaniq; bajarishdi fe’lida birdan ortiq, bajartirdi fe’lida esa harakat boshqa shaxs vositasida bajarilgani ifodalangan. Nisbat shakllari va ularning ma’nolarini quyidagi jadvalda ko‘ring:

Nisbat qo‘shimchalari		
Aniq nisbat.		
O‘zlik nisbat.		-l(-il), -n (-in)

Majhul nisbat.		-l(-il), -n (-in)
Orttirma nisbat.		-t, -dir (-tir), -giz (-kiz), -qiz, (-g'iz), -gaz (-kaz, -qaz, -g'az), -ir, -ar, -iz; -sat
Birgalik nisbat		-sh, -ish

NISBATLAR SINONIMIYASI

Ba'zan bir nisbat ma'nosi o'rnida boshqa nisbat shakllaridan foydalaniladi. Ya'ni sinonim bo'lib kela oladi.

ANIQ NISBAT – BIRGALIK NISBAT SHAKLLARI SINONIMIYASI

M: *keldilar — kelishdi, kelyaptilar — kelishyapti*

ANIQ NISBAT – MAJHUL NISBAT SHAKLLARI SINONIMIYASI

M: *qildim –qilindi; bajardim–bajarildi; kiring –kirilsin kabi.*

Bunday holat ma'lum uslub-emotsional ma'no talabi bilan ro'y berdi. Ko'pincha keyingi holat **hurmat, kamtarlik ma'nolarini** ifodalaydi.



1-mashq. Berilgan parchani o'qing. Gaplar tarkibida qatnashgan fe'l nisbatlarini jadval asosida ko'chiring.



Non xamirni qizdirib, dimlab yoki qovurib tayyorlanadigan taomdir. Non kamida un va suvdan iborat bo'ladi; ko'pincha osh tuzi va xamirturush ham solinadi. Ba'zan nonga shakar, ziravorlar, mevalar (olma, yong'oq kabi),

sabzavotlar (piyoz, kartoshka kabi) qo‘shiladi. Non turfa mintaqalarda turlicha tayyorlanadi.

Non – qadim-qadimdan ulug‘lanib, insonning kundalik iste‘molida muqaddas, aziz hisoblangan ne‘mat. Turli taomlarga qo‘shib yoki o‘zi yeyiladi. Arxeologik ma‘lumotlarga ko‘ra, boshqoli o‘simliklar donlarini pishirib iste‘mol qilish miloddan avvalgi 10-15 ming yil muqaddam boshlangan deb taxmin qilinadi. Bu davrlarda olov kashf qilingan bo‘lib, donni pishirib yeyishga imkoniyat tug‘ilgan. Dastlab, boshqoq cho‘g‘da dumbul qilinib, so‘ng boshqoq ichida qovurilib, pishgan don uqalanib, iste‘mol qilingan. Nonga «Avesto»da deyarli bir bob bag‘ishlangan, dehqonchilikning eng qimmatbaho mahsuli sifatida ta‘riflangan.

Yorg‘ichoq paydo bo‘lishi bilan donni tosh orasida maydalab yorma holatida iste‘mol qilish o‘rniga g‘alladan un tayyorlash va xamir qorib, qizitilgan tosh ustida yoki qo‘rga ko‘mib non pishirishga o‘tildi. Xamirturush kashf etilishi hamda o‘choq, tandir, tova va boshqa non pishirish vositalarining yaratilishi va takomili bilan tortilgan undan non tayyorlash yangi, hozirgi zamonga qadar davom etib kelayotgan bosqichga ko‘tarildi. Eng muhimi, xamirturush bilan ko‘pchitilgan xamirdan pishirilgan non issiqlikda va o‘z bug‘ida pishadi, pishgan nonda juda ko‘p mayda g‘ovaklar hosil bo‘ladi. Nonning g‘ovakdor bo‘lishi uning organizmda hazm bo‘lishini osonlashtiradi. Bug‘doy unidan tayyorlanadigan nonning kimyoviy tarkibida, asosan, 30-35% oqsil, 60-70% uglevodlar, kletchatka, vitaminlar, mineral tuzlar, shuningdek, temir, kalsiy, fosfor va boshqa moddalar bor.

O‘zbek pazandachiligida tayyorlash texnologiyasiga qarab obi non, gijda non, patir non, shirmoy non turlaridan iborat (ba‘zan lochira non ham alohida texnologik turga kiritiladi;). Obi non (fors.-toj. – suvli non degan ma‘noni bildiradi) tayyorlashda, asosan, xamir bug‘doy uni, xamirturush va tuz qo‘shib oshiriladi. Obi nonda xamirning nisbatan bo‘shroq bo‘lishi, zuvalaning kichikligi (200 g. atrofida) xarakterlidir. Gijda usulida ham xamir bug‘doy uni, xamirturush

va tuz qo‘shib oshiriladi, so‘ngra uzoq iylanadi. Gijda xamir qattiqroq bo‘ladi va non qalin qilib yasaladi²¹⁹.

Aniq nisbat	O‘zlik Nisbat	Majhul nisbat	Orttirma nisbat	Birgalik nisbat
qizdirib dimlab qovurib		Tayyorla/ n /adigan	Osh/ ir /iladi	



2-mashq. Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan nisbat qo‘shimchasini qo‘yib ko‘chiring.

1. O‘zing o‘t...ib ketgan nihol bo‘yingday bo‘ldi,

Novdalari barg chiq...di, tani gulga ko‘m...di. (H.O)

2. Ko‘z yorug‘ jahon bo‘lsa, men uning atrofida go‘yo qo‘l bilan qo‘n...ilgan jonli gullarga o‘xshayman: ko‘zga gard yuq...mayman, chang tush...may, avaylab saqlayman.

3. Baxt har kimning o‘z didi va mezoni bilan bahola...adi.



«O‘zbek tilining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning ma‘nolarini bilib oling. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiling.

Namozshomgul. Shom payti ochiladigan gul. Guli kechqurun ochilib, ertalab yopiladigan ko‘p yillik va bir yillik o‘tsimon o‘simlik va uning oq, sariq yoki qizil gulli turi mavjud. *Yana bosh ko‘targan namozshomgullar. (A.Oripov)*

Riyoziyot. Matematika, matematik fanlar. *Abu Nasr. ..vaqtini riyoziyot, handasa, falakiyot ilmlarini o‘rganishga sarfladi²²⁰.*

²¹⁹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Ochiq_ensiklopediya

²²⁰ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. A.Madvaliyev tahriri ostida. –T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”. 2005-2008. Izohli lug‘at II tom. 1. 16-b 2- 384



Kuril orollarida yashovchi tub aholi juda qadimdan beri eulaxon balig'ini tutib olishsa, juda xursand bo'lar ekan. Bu baliq ingichka va juda yog'li baliq bo'lib, uni quritib olib qo'yishar ekan.

Savol: Ular bu baliqdan nima maqsadda foydalanishlari mumkin?



3-mashq.Uyga vazifa. Fe'ning aniq, majhul, o'zlik, birgalik va orttirma nisbatlarini aniqlang. Nisbat hosil qiluvchi qo'shimchalar ostiga chizing.

Ilm o'rganish bo'yicha o'z fikrlaringizni yozing. Shu kungacha ilm o'rganib qanday yutuqlarga erishdingiz? Kelajakda qanday ishlarni amalga oshirmoqchisiz?

ILM – ENG BUYUK SHARAF

Asalari bilan inson bolasi o'rtasidagi farq haqida hech o'ylab ko'rganmisiz? Yigirma kunlik asalarini guldan gulga qo'nib, asal yig'ayotganini ko'p ko'rgandirsiz. Inson farzandi esa faqatgina ikki yoshdan oyoqqa turadi, gapirishni o'rgana boshlaydi. 6-7 yoshida maktabga boradi. O'qishni, yozishni o'rganadi. Litsey, universitetni tugatguniga qadar ko'p o'qiydi, o'rganadi, intiladi, izlanadi. Chunki yashash uchun hayotni, insonlarni o'rganishga muhtojdir.

(Shaban Do'yan)

NIMAGA MUHTOJMIZ?

Asalari bilan inson bolasi o'rtasidagi farq haqida hech o'ylab ko'rganmisiz? Yigirma kunlik asalarini guldan gulga qo'nib, asal yig'ayotganini ko'p ko'rgandirsiz. Inson farzandi esa faqatgina ikki yoshdan oyoqqa turadi, gapirishni o'rgana boshlaydi. 6-7 yoshida maktabga boradi. O'qishni, yozishni o'rganadi. Litsey, universitetni tugatguniga qadar ko'p o'qiydi, o'rganadi, intiladi, izlanadi. Chunki yashash uchun hayotni, insonlarni o'rganishga muhtojdir. Foyda, zararni bilishga majburdir. Biroq asalari bolasi-chi? U asal yig'ishni o'rganishi uchun na o'qishga, na oliy o'quv yurtini bitirishga ehtiyoji bor. U dunyo hayotiga mukammal holda yuborilgan. Inidan chiqar chiqmas ishini boshlaydi. Biz esa yigirma kun yoki yigirma yil, umr bo'yi o'rganishga muhtojmiz. Shuning uchun beshikdan qabrgacha ilm olishga, o'rganishga buyurilganmiz. Inson qobiliyatini bilim va tajriba bilangina oshiradi.

Bilim ozuqadir. Aql va qalb u bilan oziqlanadi.

Bilim muvaffaqiyat. Bilimsizlik esa magʻlubiyatdir.

Bilim jasoratdir. Bilimli kishi muammolarni jasorat bilan yengadi.

Bilim durbinga oʻxshaydi. Chigal masalalarni u hal etadi. Toʻsiq gʻovlar ustidan uning yordamida oshib oʻtamiz.

Bilim nurdir. Yoʻlimizni u bilan yoritamiz.

Bilimsizlik esa barcha yomonliklarning manbaidir. Bilimsiz inson oʻziga eng katta yomonlikni qilgan boʻladi. Johil kishining tik tura olmaydigan qopdan farqi yoʻq. Saʼdiy bilimsizlikni urush dovuliga oʻxshatadi. Ovozi baland, ichi esa boʻsh. Goʻzal tushunchalar, bilim javharlari bilan toʻldirilmagan zehn sandiq foydasiz va zararli narsalar bilan toʻladi.

Insonning qadri ilm bilan yuksaladi. Ilmli kishi hodisalarga xolis baho beradi, talabchanlik va uddaburonlikni oʻrganadi.

Bilmaslik ayb emas, oʻrganishga intilmaslik aybdir. Ibn Mas'ud inson bilmaganini bilishi ham ilmdir, deydi. Chunki inson bilmaganini bilsa, oʻrganishga intiladi.

Falokatlarning ustidan bilim bilan ustun kelish mumkin. Hoji Bektosh Valiyning ifodasiga koʻra «Bilimsizlik bilan kesilgan yoʻlning oxiri xayrli boʻlmaydi». Gʻalaba qozonish, muvaffaqiyatga erishish, yuksalishni xohlaganlar ilmni mahkam ushlaydilar. Oʻrganish shavqida yonib kuymaganlarga esa «Dunyoni istagan ilm oʻrgansin. Oxiratni istagan ham ilm oʻrgansin», deb buyurgan Paygʻambarimiz sollallohu alayhi vassallam. Bilimning ahamiyatini naqadar ajoyib tushuntirganlar.

Ilm oʻrganish faqat maktabga xos emas. Maktab insonga kalit beradi. U kalit bilan ilm xazinalarini insonning oʻzi ochadi. Nima qilsa, oʻzining gʻayrati bilan amalga oshiradi. Maktabni bitirar- bitirmas kitob daftarni bir burchakka uloqtirish katta xatodir. Holbuki, ilm olishning na yoshi, na vaqti, na joyi bor. Har yoshda, har yerda, hamma vaqt oʻrganiladi, ilm eng katta sarmoyadir, inson har yoshda, har yerda va har vaqt sarmoyasini koʻpaytirishni istaydi. Ilm bilan oʻzingizni

tarbiyalang. Balki muammolarga duch kelarsiz. Ba'zi qiyinchiliklarni boshingizdan o'tkazasiz, ammo unutmang: Har qanday qiymatli narsa osonlik bilan qo'lga kiritilmaydi²²¹.

(«Odamlar orasida» gazetasidan)

107-§. MAYL QO'SHIMCHALARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI



Topshiriq

1-topshiriq. Xabar, buyruq, shart ma'nolarini ifodalovchi fe'llar yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing. Xabar, buyruq, shart ma'nolarini hosil qiluvchi qo'shimchalarning tagiga chizing.

Namuna: Suhbatlashdi, yugur, o'qisa.

Ustoz o'quvchilar bilan insoniy fazilatlar haqida suhbatlashdi.



Topshiriq

2-topshiriq. Quyida berilgan fe'llarni taqqoslang.

1. Bordim, bording, bordi;
2. Boray, borgin, borsin;
3. Borsam, borsang, borsa:
4. Bormoqchiman, bormoqchisan, bormoqchisiz

Nazariy ma'lumot. So'zlovchining fe'ldan anglashilgan harakat-holatiga munosabatini (xabar, buyruq-istak, shart ma'nolarini) bildirgan fe'l shakllariga **mayl shakllari deyiladi**.

Fe'llarning to'rtta mayl shakli mavjud.

№	Mayl turlari	Mayl ko'rsatkichari	Misollar	Ma'nolari
1.	Xabar (ijro) mayli	Ø	<i>Ko'rdim, ko'ryapman, ko'raman, ko'rding, ko'ryapsan, ko'rasan, ko'rdi,</i>	Harakatni ijro qilish-qilinmasligi

²²¹ <https://n.ziyouz.com/>

			<i>ko'ryapti, ko'radi</i>	ni bildiradi
2.	Buyruq-istak mayli	-(a)y, -(a)ylik, -(i)ng, -gin -(i)ngiz, -(i)nglar, -sin(lar)	<i>Yozay, to'qiy, yoz, yozing, yozgin, yozingiz, yozsin, yozsin(lar)</i>	Harakatni bajarishga da'vat etish ma'nosini bildiradi
3.	Shart mayli	-sa	<i>Yozsam, yozsang, yozsa</i>	Shart bo'lgan harakatni ifodalaydi
4.	Maqsad mayli	-moqchi	<i>Yozmoqchiman, yozmoqchisan, yozmoqchi</i>	Harakatni biror maqsadda bajarilishini bildiradi



2-mashq. Berilgan gaplarni ko'chiring, fe'llarning maylini aniqlab, mayl qo'shimchalari tagiga chizing.




Men mashg'ulotlarning har bir daqiqasini yoqtirmasdim. Ammo o'zimga «Bo'shashma, hozir sabr qil va hayotingning qolgan qismini chempiondek o'tkaz»,—dedim.

Bu hayotda hech bir narsa osonlikcha kelmaydi. Oldinga qo'ygan maqsadlaringga erishish uchun ma'lum bir narsalarni qurbon qilishing kerak – kuching va vaqtingni sarflashing zarur. Ba'zida shunday daqiqalar bo'ladiki, barchasiga qo'l siltab orzulardan voz kechging keladi. Shunday daqiqalarda ishni davom ettirsang nimalarga erishishing, bo'sh kelsang, nimalardan quruq qolishingni o'yla.

(Muhammad Ali. «To'qqiz o'git»)



3-mashq. Rasm asosida matn tuzing. Matn 100 ta soʻzdan iborat boʻlsin. Barcha mayllar 4-8 martagacha ishtirok etsin.



«Oʻzbek tili antonimlarining izohli lugʻati» kitobidan olingan quyidagi soʻzlarning maʼnolarini oʻqib oʻrganing. Soʻz boyligingizni oshirishda ulardan unumli foydalaning.

Dalli-gʻulli. Fikrini, niyatini boshqalardan yashirmaydigan, oshkora ish qiladigan.

Dalli-gʻulli odam.

Pismiq. Fikrini, niyatini boshqalardan yashiradigan, zimdan ish bitiradigan.

Pismiq odam²²².



Mantiqiy savol.

Qiziq savol: Teatr aktyorlari bir narsadan juda qoʻrqishadi, hatto tushlariga kirsam oʻngimda teskarisi boʻladi deb oʻzlarini yupatishadi. Chunki u aktyorlik ijrosiga ham salbiy taʼsir oʻtkazadi.

Savol: Teatr aktyorlari nimadan koʻproq qoʻrqishadi?



4-mashq. Uyga vazifa. Matnni diqqat bilan oʻqing. Feʼllar mayllarini aniqlab, jadval asosida koʻchiring.

Saodat aya shu bolasiga toʻlgʻoq tutayotganda oftob charaqlab turardi-yu, yomgʻir sharros quyayotgan edi. Derazadan hovliga qarab turgan doya xotin: «Boʻri bolalayapti», degandi. Shuning uchun ham oʻgʻliga u Boʻrixon deb ism qoʻygandi. Oradan ellik bir yil oʻtib, bu bolani men emas, boʻri tuqqan ekan, degan xayolga bordi.

²²² Rahmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. Oʻzbek tili antonimlarining izohli lugʻati –T.: “Oʻqituvchi”.1980. 232 b.67-b

– Oyi, kiyinasizmi? Abdumalikning mashinasi hozir kelib qoladi. O‘g‘lingiz tayinlab ketgan.

– O‘zing boraver, men shu yerda qolaman, – dedi kampir.

– Axir, akam kechqurun poyezdga chiqadi. Xayrlashmaysizmi?

– O‘zi kelgan, o‘zi ketaveradi. Mashina kelsa, chemodanini tashlab qo‘y. Bu uyga endi qaytib kelmasin, – dedi kampir qat’iy qilib.

– Oyijon-ey, juda qahringiz qattiq-da! Bugun ketadi, qaytib ko‘ramizmi-yo‘qmi, bolam-bo‘tam, deb kuzatib qo‘ya qolsangiz nima qiladi-ya! – dedi zorlanib Qumri.

– Bu bolani men emas, bo‘ri tuqqan.

... Bir marta dadam qani, deb so‘ramadi-ya! Qandoq ota edi-ya. Ko‘chadan mashina ovozi keldi. Qorako‘z o‘qdek otilib chiqib ketdi. Birozdan keyin kampirning nevarasi Abdunabining atrofida gir aylanib kirib keldi.

– Iya, hali ham kiyinmay o‘tiribsizmi? Uyimiz qarindosh-urug‘larga to‘lib ketdi. Dadamning o‘rtoqlari ham kelishgan. Qani, bo‘la qolinglar!

– Men bormayman, - dedi kampir. – Qumri boradi. Chemodan o‘lgurni ola ketinglar.

– Iya, qiziq bo‘ldi-ku! Amakim bugun ketadilar-ku! Kampir indamay uyga kirib ketdi, keyin derazadan boshini chiqarib:

– Sen boraver, bolam. Men bilan o‘tirib qon bo‘lib ketding. Jigarlaring bilan birpas yozilib kelasan, – dedi Qumriga.

Mashina ketdi. Kampir hayhotdek hovlida bir o‘zi qoldi. Uning ko‘ksiga allaqaydan kelib tushgan bir parcha muz kechadan beri erimay, vujud-vujudini qaqshatardi.

(Said Ahmad «Qorako‘z Majnun»)

Xabar mayli	Buyruq mayli	Shart mayli	Maqsad mayli
Tur/ardi			

108-§. SHAXS-SON QO‘SHIMCHALARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI



Topshiriq

1-topshiriq. Gaplarning zarur qo‘shimchalarini qo‘ying. Qo‘shimchalarni tiklashda sizga nima yordam berdi?

1. Hakim bobo har bir niholni parvarish qilar...
2. Shunday o‘ylasa... yanglishasiz, -deb e’tiroz bildir... Abdukarim.
3. Hozir men Toshkentda..., Yodgor o‘z yonimda. Ba’zan Mehrixonlar oilasiga ham borib-kelib tura... .

BIRLIK

KO‘PLIK

I shaxs-son

-m: yozdi-m

-k: yozdi-k

-man: yozgan-man

-miz: yozgan-miz

-ay: yoza-ay

-miz: yoza-miz

II shaxs-son

-(i) ng: yozdi-ng

-(i)nglar: yozdi-ngiz (laring)

-san: yozgan-san

-siz: yozgan-siz

-san: yoza-san

-siz: yoza-siz

III shaxsda

zamon, mayl qo‘shimchalari shaxs ma’nosini ham beradi:

di : yoz-**di** (zamon qo‘shimchasi)

dilar : yoz-**dilar**(yozishdi) (zamon qo‘shimchasi)

gan: yoz-**gan**(zamon qo‘shimchasi)

yoza-gan(lar) (zamon qo‘shimchasi)

-di, yoza-di (shaxs-son shakli)

-di(lar), yoza-di(lar) (shaxs –son shakli)

Nazariy ma’lumot. Ba’zi holatlarda birinchi shaxsni ifodalash uchun ikkinchi shaxs qo‘shimchasi, shuningdek, birlik ma’nosini ifodalash uchun ko‘plik qo‘shimchalari qo‘llanishi mumkin. Bunday holatlar ma’lum uslubiy

maqsadda ro‘y beradi. Masalan: *Yurasan, yurasan, hech masofa kamaymaydi - yuraman, yuraman, hech masofa kamaymaydi.*

Ikkinchi va uchinchi shaxs birlik shakllari o‘rnida ko‘plik shakli qo‘llanilsa, shaxs ko‘pligi emas, balki **shaxsga hurmat ma’nosi ifodalanadi**. Masalan: *Dadam keldilar. Siz juda yoqimli kuyladingiz. So‘zlang (A. Qodiriy).*

II shaxs buyruq mayli qo‘shimchalari o‘rniga III shaxs buyruq mayli qo‘shimchasi ishlatiladi. Masalan, *kiring o‘rniga kirsinlar, o‘tiring o‘rniga o‘tirsinlar*. Bunday holat o‘zidan katta yoki **obro‘li kishilarga nisbatan qo‘llanilib, hurmat ma’nosi** ifodalanadi.



1-mashq. Berilgan gaplarning tushirib qoldirilgan shaxs-son qo‘shimchalarini tiklang va ko‘chirib yozing.

1. Ularga buning hammasini aytib bersa..., ular bu kashfiyotlarni eshitsa, boshlari osmonga yetguday xursand bo‘lisha....
2. Bizda g‘aflatni tark etishga imkonimiz bor, biz o‘zimizdagi kuch-qudratni, aql-idrokni ishga solishi... kerak. Biz o‘z ozodligimizni qo‘lga kiritishga qodir.... Nihoyat, biz chinakam parvozga o‘rgana ola...!
3. – Uddalay.... Chunki sen parvoz ilmini egalladi.... Bir maktabning sabog‘ini oldi..., endi navbatdgisini boshlashing kerak.
4. Bu madadkor dalda umr bo‘yi uning yo‘lini yo‘lchi yulduzday yoritib kel..., ayni damda esa yana yaraqlab qalbiga shavq va ishtiyoq nurini sol.... Ular haq gapni aytish²²³.... («Oqcharloq» Jonatan Livingston (rivoyat-qissa). Richard Bax)



2-mashq. Matni o‘qib test savollariga to‘g‘ri javobni toping.

Farishtalar

Xonadoningizda keksa odam bormi? 1) Baxtli ekan...! Dunyo tashvishlaridan 2) to‘yib ketsa... shularni 3) ziyorat qil...: hayot abadiy emasligini

²²³ www.ziyouz.com kutubxonasi

o‘ylab, 4) taskin topa... . Xonadoningizda go‘dak bormi? Siz ham 5) baxtli ekan..... dunyo tashvishlaridan 6)to‘yib ketsa..., go‘dakni 7) bag‘ringizga bos...: hayot abadiy ekanini o‘ylab, 8) taskin topa.....

1.	2.	3	4	5	6	7	8

1. A) -san B) -siz C) -man D)- ---	4. A) -siz B) -sin C) -miz D) -di	7 A)-sin B)-san C) -ing D) -siz
2. A) -ngiz B) -k C) -miz D) ----	5. A)- --- B)-san C) -siz D) –man	8. A) -siz B) -sin C) -miz D) -di
3 A)-sin B)-san C) -ing D) -siz	6. A) -k B) -ngiz C) -miz D) ----	



«O‘zbek tilining imlo lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning yozilishini bilib oling. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiling.

Sazavor, afzal, ahmoq, taqsimot, istehzoomuz, to‘p-aslaha²²⁴



Mantiqiy savol: Bu ikki aka -uka bir joyda tug‘ilgan. Yosh orasi ham uncha uzoq emas. Akasi 4 yil yashagan, ukasi akasidan 2 yil ko‘proq yashagan.

Savol: Bu g‘alati mashhur aka ukalar nimalar?



3-mashq. Uyga vazifa. Rasm asosida 100 ta so‘zdan iborat bog‘lanishli matn tuzing, shaxs-son qo‘shimchalarining tagiga chizing.

²²⁴O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 2013.240b. 85—425-b



109-110-§. ZAMON QO‘SHIMCHALARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. SHAXS-SON VA ZAMONNING IFODALANISHI



1-topshiriq. Berilgan fe‘llarni farqlang: *keldim, kelyapman, kelaman*



2-topshiriq. Jadval asosida gap tuzing.

Avval...	Ayni damda...	Ertaga...
Kecha...	Hozir...	Keyingi oy...

Tuzgan gaplaringizni vaqt-zamonga ko‘ra tasniflang va ma‘no farqini ayting

Fe‘ldan anglashilgan harakat-holatning uch zamondan birida bajarilish yoki bajarilmasligini bildiradigan shakllarga zamon shakllari, ana shunday shakllar tizimiga zamon kategoriyasi deyiladi.

Zamon turini belgilashda so‘zlanayotgan nutq vaqti (*hozirgi zamon*) asosiy tayanch nuqta bo‘lib hisoblanadi. Ana shunga ko‘ra uch zamonga bo‘linadi.



1-mashq. Quyidagi jadval asosida zamon qo‘shimchalarini aniqlang, to‘g‘ri qatorlarni birlashtiring hamda daftaringizga tartib bilan ko‘chiring.

ZAMONLAR		MISOLLAR
<i>O'tgan zamon</i>		boryapman, boryapti borayotir, borayotib, bormoqda
<i>Hozirgi zamon</i>		boraman, ishlayman, boradi, borajak, borar, borur, borgusi, borgay
<i>Kelasi zamon</i>		borgan boribsan bordi



2-mashq. Matnni o'qing va fe'l zamonlarini va shaxs-son qo'shimchalarini aniqlang.

Farzand – ota-ona ko'rki

Har qanday farzand ma'lum bir muhitda, ma'lum bir oilada dunyoga keladi. Uning kelajakda kim bo'lib yetishishi, albatta, bevosita farzandga beriladigan e'tiqodiy, axloqiy tarbiyaga bog'liqdir. Farzandlarga odob berish, eng avvalo, oiladan boshlanadi. Ma'nan yuksak, go'zal xulqqa ega ota-onalarning farzandlari ham odobli bo'ladi. Bu go'zal xulq, boshqalarning havasini keltiradigan odob-axloq inson ko'rki sanaladi. Go'zal xulq to'g'ri tarbiyaga daxldordir. Ota-ona farzandlarga yaxshi bilan yomonning, halol bilan haromning, ma'rifat bilan jaholatning, saxovat bilan baxillikning farqini aniq tushuntira bilishi va har vaqt ularni ezgulik yo'lga chorlashlari lozim bo'ladi. Darvoqe, ota-onalar farzandlari uchun bu ezgu amallar uchun mezon o'lchovni qayerdan oladi? Bu, albatta, muhim bir savol. Javobi esa musulmonlar uchun juda ham oson. Faqat unga amal qilish qoladi. Bu, birinchi navbatda, Alloh taoloning kitobi Qur'oni Karimda bayon etilgan hukmlar. Odobni to'g'ri shakllantirish uchun eng muhim mezon -

shu. Ikkinchidan, Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam hadislari insonning ma‘nan yuksalishi, ezgulikka intilishi, halolni haromdan farqlay bilishi, inson o‘z hayotining mazmun mohiyatini anglab olishi uchun nihoyatda muhimdir.



3-mashq. Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan zamon qo‘shimchalarini qo‘yib ko‘chiring.

Bayram qanaqa bo‘lishini bilasizmi? Bilmasangiz bilib qo‘ying! Bayram degani shuki, hammamiz yasan...miz. Bu – birinchidan. To‘g‘ri, dadam hammamizga baravar boshoyoq kiyim qilib berolma...di. Lekin hech bo‘lmasa, bittadan ohorlik kiy...miz. Undan keyin oyim, albatta, palov, juda bo‘lmasa, shovla pishir...di. Bu – ikkinchisi. Nihoyat, bayram degani shuki, men onamga ergashib, albatta, tog‘amnikiga bor...man. Tog‘amning men tengi o‘g‘li bor. Maza qilib obaki yeymiz. Iloji bo‘lsa, «Tarzan» kinosiga tush...miz.

Tarzanni bil...sizmi? Xuddi maymundek daraxtdan daraxtga sakra...di. Yo‘lbarsdan ham, arslondan ham qo‘rqma...di. Jo‘raboshimiz aytgan, o‘zi ko‘rgan.

Mana, bugun oyim non yop...ti. Arpa non unchalik oppoqmas. Ammo juda mazali. Ana, non isi kel...ti. Oyim menga atab ataylabdan kulcha yasa.... Kulcha nondan oldin pish...di: kichkina-da! Ana, oyim rapidani qo‘liga kiyib, to‘nkarilgan zambil ustiga chiqdi. Bo‘lmasa tandirning tepasiga bo‘yi yetma...di. O‘sha yerdan turib buyurdi:

– Do‘ppingni och!

Do‘ppimni boshimdan yulib oldim-u tutib tur...m. Shu ondayoq cho‘g‘dek issiq, qip-qizil non do‘ppiga tushdi. Jiyaklari titilib ketgan do‘ppimni changallagancha ko‘chaga yugur...m.

– Hoy, sekinroq, yiqil...san! – deb qoldi oyim chirqillab.

Nega yiqilar ekanman! Orqamdan kuchugim ham yugurgilab qoldi. Bil...di-da, o‘ziniyam ulushi borligini. Ikkalamiz oldinma-ketin chopishib, Shirin

arig‘ining bo‘yiga kel...k. Issiq nonni suvga tashla...m-da, o‘zim pastga qarab chopib ketdim. Gurji kuchugim ham oyog‘imga o‘ralashib yugurdi. Ellik qadamcha yurgandan keyin qoqigullar ochilib yotgan qirg‘oqda kutib o‘tir...m. Ana, bizning non oqib kel...! Tandirdan yangi chiqqan nonni oqizoq qilib yemagan bo‘lsangiz, yeb ko‘ring. Meni aytdi dersiz, maza qil...siz!²²⁵

(«Dunyoning ishlari». O‘tkir Hoshimov)



Topshiriq

3-topshiriq. 2-mashqda oxirgi xat boshi qismi ustida ishlang.

Fe‘llarni aniqlab, ularning shaxs va sonini, harakat yoki holat fe‘li ekanligini, o‘timli, o‘timsizligini alohida jadval asosida yozing.



3-mashq.

Uyga vazifa. «Kecha, bugun, ertaga» mavzusida bog‘lanishli matn tuzing. Matnda fe‘l zamonlaridan unumli foydalaning.

Savol va topshiriqlar

1. Fe‘l zamonlari deb nimaga aytiladi?
2. Fe‘llarning munosabat shakllariga qaysi shakllar kiradi?
3. Fe‘llarning hech qanday qo‘shimchasiz, faqat asos shakli qaysi zamon, qaysi mayl va shaxs-sonda bo‘lishini misollar yordamida izohlang
4. Fe‘llarga 5 ta misol keltiring. Mana shu fe‘llarni zamonlarda tuslab gaplar tuzing.

²²⁵ www.ziyouz.com kutubxonasi

111-112-§. FE'LLARNING YASALISHI, QO'SHIMCHALAR YORDANIDA FE'L YASASH. SO'Z QO'SHISH BILAN FE'L YASALISHI VA ULARNING SINONIMIYASI



Topshiriq

1-topshiriq. –la, -ay, -illa qo'shimchalarini qo'shib fe'l hosil qiling. Qaysi so'z turkumlaridan fe'l yasalganligiga e'tibor bering.



Topshiriq

2-topshiriq. ot+qilmoq, ot+etmoq, ot+bermoq qolip asosida fe'llar hosil qiling. Bunday fe'llar qanday fe'llar deyiladi?



Topshiriq

3-topshiriq. 6-sinfda olgan bilimlaringiz asosida quyidagi savollarga javob bering:

1. Fe'llar qanday usullarda yasaladi?
2. Fe'l yasovchi qo'shimchalarga 8 ta misol keltiring.
3. Ot, sifat, son, taqlid so'z, olmosh, ravish so'zlaridan qo'shimchalar yordamida fe'l yasang.

Nazariy ma'lumot. Fe'llar yasalishi 2 xil amalga oshiriladi:

Affiksatsiya (qo'shimchalar yordamida), so'z qo'shish orqali (kompozitsiya)

Eng ko'p yasovchi qo'shimchalar fe'l so'z turkumi tarkibida. Hamma so'z turkumlaridan so'z yasash mumkin bo'lganligi sababli yasama fe'llar lug'atni boyitadi, ikkinchidan, fe'lning ma'nosi kengayadi. Taqlidiy so'zlardan, -shivirla, taqilla, olmoshlardan-sensira, undovlardan-ohlama, sonlardan-birik, birlash, fe'l yasash bilan turli nutq uslublariga xos bo'lgan badiiylik, ta'siriy hamda tasviriy bo'yash kabi ma'nolar ifodalanadi. Ba'zi yasama fe'llar iboralarga teng kelib, sinonimik qatorlar hosil etadi: gulladi-gulga kirdi, tilak qildi-tiladi.

Barcha yasama fe'llarni uslubga ko'ra, qo'shma fe'llar bilan almashtirish mumkin: tasdiq qildi-tasdiqladi: qo'l qo'ydi-imzoladi; yodga oldi-yodladi; esdan chiqardi-unutdi; otga qamchi bosdi-qamchiladi²²⁶.

²²⁶ G'ani Abdurahmonov, Hasanali Rustamov Ona tili. 1997 y.151-152-b



1-mashq. Matn parchasini o‘qing. Yasama fe’llarni ajratib ko‘chiring. Yasalish bo‘yicha tahlil qiling. **Namuna:** dam olish – qo‘shma fe’l, ot+fe’l.

GILAM PAYPOQ

Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelaman. Kavkaz tomonda ko‘p bo‘ladi. Juba deyishadi, jurabi deyishadi. Oyim xuddi noyob narsaga ega bo‘lgandek, uzundan uzoq duo qiladi. Shundoq mehribon o‘g‘li borligini aytib qo‘shnilarga maqtanadi. Uning oyog‘i kasal. Salqin tushishi bilan shishib ketadi, og‘riydi.

Qo‘ni-qo‘shnilar ahvol so‘rasa, ularniyam, o‘ziniyam yupatadi.

– Ha, endi keksalik-da, o‘rgilay.

Lekin onamning oyoq og‘rig‘i faqat keksalikdan emas. Buni boshqalar bilmasa ham, men bilaman. Yaxshi bilaman.

Bolaligimda ko‘p kasal bo‘lardim: qizamiq, ko‘kyo‘tal, bezgak... Shuning uchun oshxonadagi mixda ko‘k qarg‘aning patidan tortib, gultojixo‘rozgacha ilig‘lik turardi...

Ayniqsa, tomoq og‘rig‘i yomon qiynaydi. Oyog‘im zaxga tegishi bilan tomog‘im og‘rishga tushadi. Oyoq bilan tomoqning nima aloqasi borligini haliyam tushunolmayman...

O‘shanda necha yoshligim esimda yo‘q. Biroq juda kichkina edim. Bir kuni akalarim bilan yaxmalak o‘ynab terlab ketdim. Terlab turib muz yedim. Kechqurun isitma ko‘tarildi.

Quv-quv yo‘talaman. Oyim tomog‘imni achchiqtosh bilan chayib ko‘rdi, bo‘lmadi, turshak qaynatib suvini ichirdi, bo‘lmadi... Oxiri tomog‘im xippa

bo'g'ilib qoldi. Og'riqni sezmayman-u, nafas olishga qiynalaman. Hushimdan keta boshlaganimni es-es bilaman. («Dunyoning ishlari». O'tkir Hoshimov)



2-mashq. Siz o'qigan yoki o'qiyotgan badiiy asardan yasama fe'llar qatnashgan gaplarni ko'chirib yozing.



3-mashq. Quyidagi hikmatning mazmunini o'z fikrlaringiz va dalillar asosida og'zaki so'zlab berishga tayyorlaning. O'z fikrlaringizni bayon qilish uchun reja tuzing va daftaringizga yozib oling.

Ey ko'ngil, ibrat ol, boq har tushgan yaproqqa,

U ham avval ko'kdan boqardi tuproqqa.

(Jaloliddin Rumi)

Hikmatda nechta fe'l mavjud? Tub va yasama fe'llarni alohida ko'chiring.



«O'zbek tili paronimlarining izohli lug'ati» kitobidan olingan quyidagi so'zlarning ma'nolarini o'qib o'rganing. Ularning ma'nolariga e'tibor bering. Paronimlarga oid xatoga yo'l qo'ysangiz, so'z ma'nosiga qanday ta'sir qilishini o'ylab ko'ring.

Oqlik. Oq so'zidan belgi ot. *Qorning oqligi ko'zni qamashtiradi. (A.Qodiriy)*

Oqliq. Sut-qatiq mahsulotlari. *Agar bo'lmasa oqliging, bilinmaydi yo'qliging.*

(maqol)²²⁷



Mantiqiy savol: Futbol fanatlari uchun savol. Italiyada shunday futbol maktablari borki, hujumchilar alohida, yarim himoyachilar alohida, himoyachilar alohida o'qitiladi. Himoyachilar maktabida 1 yil faqat shunday narsa o'rgatiladiki, bu narsani qilolmagan himoyachi boshqa mashg'ulotlarga qo'yilmaydi.


Savol: Nima ularga 1 yil o'rgatiladi?

²²⁷ Ma'rufov A. Paronimlar lug'ati. –T.: "O'qituvchi". 1974. 52 b. 27-b



3-mashq.Uyga vazifa.

- 1.Hikmatlarni diqqat bilan o‘qing.
- 2.Hikmatlarga munosabat bildiring.
- 3.Fe’llar yasalishini aniqlab, jadval asosida ko‘chiring.
4. Siz ham hikmatli so‘zlar qatorini davom ettiring.




Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o‘zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi. (Alisher Navoiy)

Jazolashdan ko‘ra kechirmaklik mardlikdir. Ojiz odam kechirolmaydi. Afv etish kuchlilar fazilatidir. (Gandi)



Erishilgan yutuqlarga mahliyo bo‘lib o‘tirish taraqqiyot yo‘lidagi eng katta g‘ovdir. (Shavkat Mirziyoyev)

Har qanday yutuq turi uchun qat’iyatchalik boshqa biror muhim sifat bor deb o‘ylamayman. (Jon Rokfeller)



Strategiyani ishlab chiqqunga qadar , eng avvalo, biznes iqtisodiyotini tushunish kerak, deb hisoblayman. Agar siz buni noto‘g‘ri tartibda bajarsangiz, muvaffaqiyatsizlikka uchrashingiz mumkin. (Maykl Del)

113-§. YETAKCHI VA KO'MAKCHI FE'LLAR HAQIDA. KO'MAKCHI FE'LLAR VA ULARNING VAZIFALARI



Topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari orasidagi ma'noviy farqni izohlang.

Ishlab chiqdi

Ishlab bo'ldi

Ishlay boshladi

Ishlab yuribdi

Ishlab qo'ydi

Ishlab yotibdi

Ishlab turibdi

Ishlab ko'rdi

«**ishlamoq**» ma'nosini ifodalaydi.

Ko'makchi fe'llar yetakchi fe'lga birikib quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1.HARAKATNING BOSQICHINI BILDIRGAN KO'MAKCHI FE'LLAR

Harakatning boshlanishi: F +-a(y) — *boshlamoq* ==> yoza boshlamoq

yotmoq ==> aytib yotmoq

Harakatning davomlilik: F ++-(i)b — *o'tirmoq* ==> yozib o'tirmoq

turmoq ==> turtib turmoq

yurmoq ==> aytib yurmoq

chiqmoq ==> o'qib chiqmoq

Harakatning tugallanishi: F ++-(i)b — *tugatmoq* ==> o'qib tugatmoq

bo'lmoq ==> o'qib bo'lmoq

2.HARAKAT TARZINI BILDIRGAN KO'MAKCHI FE'LLAR

yubormoq ==> aytib yubormoq


Harakatning tez va oson bajarilishini: F++-(i)b — *qo'ymoq* ==> aytib qo'ymoq

tashlamoq ==> o'qib tashlamoq

Harakatning bajarishga imkon mavjudligi: F +-a(y) — *olmoq* ==> ayta olmoq

Harakatning bajarishga yaqinlik mavjudligi: F +-a – yozmoq ==> yiqila
yozmoq

**KO'MAKCHI FE'LLI SO'Z QO'SHILMASIDA FE'LGA XOS
GRAMMATIK QO'SHIMCHALARNING QO'LLANISHI:**



1-mashq. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmagini qo'shma fe'llardan farqlang.

Ular ishtirokida gaplar tuzing.

O'qib turdi, aytib qoldi, sotib oldi, qarab qolmoq, yura boshladi, so'ray qol, olib qochmoq, chiqib ketdi, yoza berdi, hadya qildi, topa bildi, o'zgara bordi, yoza boshladi, ruxsat berdi, yiqila yozdi, gapira ketdi, ayta ko'rma, olib keldi, unuta oldi, yozib tur.



2-mashq. Gaplarni ko'chiring, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalarining tagiga chizing. Ko'makchi fe'llar qanday ma'noda kelayotganligini aniqlang.

1. Ko'chaga chiqqandan keyingina yig'lab yubordim. (O'. H)
2. Uyga kelib entika-entika hammasini oyimga aytib berdim. Oyim boshimni silagancha, ohista yupatdi. (O'. H)
3. Agar yolg'on gapirsang, seniyam hamma yomon ko'rib qoladi. (O'. H)

4. Student edim. Farishtadek go‘zal, farishtadek pokiza bir qizni sevib qoldim. (O‘. H)

5. Onam bu gapni xuddi: «Qo‘shninikiga chiqib kelaman», degandek ohangda aytdi. Kulib yubordim. (O‘. H)

6. Bilmayman, sakrab turib basharasiga musht tushirdimmi yo ustimga egilganida urib yubordimmi... (O‘. H)

7. Har gal bir xil so‘z yozib berardim: «Birinchi o‘qituvchim — onamga!» (O‘. H)



«O‘zbek tili izohli frazeologik lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi iboralarning ma‘nolarini o‘rganing. Iboralarning nutq jarayonidagi ta‘hiri haqida o‘ylab ko‘ring. Ularni eslab qolishga harakat qiling.

Zabtiga olmoq. Juda kuchayib ketmoq. *Bo‘ron tobora zabtiga olardi.*

O‘xshashligi: **avjiga minmoq.**

Izzat-nafsiga tegmoq. Kamsitadigan gap-so‘z qilmoq. Varianti: **tegib ketmoq;** o‘xshashi: **nafsi olindi.** *Uning mag‘rurligi Ra‘noning izzat-nafsiga tegardi. (O. Yoqubov)²²⁸*



Tarixdan savol: Aholini ro‘yxatga olish qadimgi Misrdan boshlangan. Ular eramizdan avvalgi 3,5 ming yil avval bu ishni amalga oshirganlar.



Savol: Aholini ro‘yxatga olishdan maqsad nima bo‘lgan?

Uyga vazifa. 3-mashq. «Ta‘lim maskanlari» mavzusida ko‘makchi fe‘llar ishtirokida matn tuzing.

²²⁸ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”.1978. 405 b. 105-109-b O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. A.Madvaliyev tahriri ostida. –T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”. 2005-2008.

114-§. Tog‘ay Murodning «Ot kishnagan oqshom» asaridan olingan parchada zamon va shaxs-son shakllarining ifodalanishi, uslubiy vazifalari haqida bahs yuritish. Yozuvchining ifoda uslubini tahlil qilish. Asar tiliga munosabat bildirish




Topshiriq

1-topshiriq. O‘qing. Tog‘ay Murodning «Ot kishnagan oqshom» asaridan olingan parchada zamon va shaxs-son shakllarining ifodalanishiga e‘tibor bering, fe‘llarni alohida ko‘chirib yozing. **Namuna:** qo‘l yugurtir/di/m



Birodarlar, o‘rgilik, ko‘rgilik! Bir erta uyg‘onib, kallamga qo‘l yugurtirdim. Sochlarim orasida yara-chaqalar uch berdi. Parvoyim falak bo‘ldi, yura berdim. Onamga-da aytmadim.

Chaqalar kun sayin bolaladi. Katta-katta bo‘ldi. Qo‘tir bo‘lib qichidi.



Shunda, qishlog‘imiz do‘xtiriga bordim. Do‘xtir fu, deya aftini burishtirdi. Yurchidagi kalxonaga olib jo‘nadi. Yo‘lda mashinadan tashlab qochdim. Ushlab kelib, yana mashinaga bosdi. Kalxonada... Uh, aytgili yo‘q. Do‘xtir degani berahm ekan. Onamni ko‘rdim, birodarlar, onamni... Bari kalga qaytadan jingala soch bitdi. Mening kallam yaltirab qoldi. Bitta-da soch bitmadi! Do‘xtirlar ajablandi, kamdan kam uchraydigan voqea, dedi. Xo‘rligimdan yig‘lab-yig‘lab uyga keldim. Onamiz tap-taqir kallamni ushlab-ushlab ko‘rdi. Ich-ichidan kuydi. Aytib-aytib yig‘ladi.

– Kambag‘alni tuyaning ustida it qopadi, degani shu-da, - dedi.

Katta telpak sotib oldim. Qishin-yozin quloqlaringacha bostirib kiyib yurdim. Maktabda-da telpagimni olmadim. Matematika muallimimiz oyog‘ini tirab talab etdi:

– Bosh kiyimingni olmasang, dars o‘tmayman!- dedi.

Old qatorda o‘tirgan sinf oqsoqolimiz muallimga bir nimalar dedi. Ammo muallim o‘z so‘zida turdi:

– O‘quvchi darsda yalangbosh o‘tirishi lozim! Qoida shunday!

Telpagimni kallamga bosib ushladim.

– O‘quvchi Qurbonov, senga aytyapman!

Miq etmadim. Muallimimiz telpagimni boshimdan yulib oldi. Derazadan tashqariga otib yubordi. Sinfimiz bolalar kulgisidan zirillab ketdi. Bolalar kallamni oftobga mengzab qiyqirdi:

– Ura-a-a, kun chiqdi!

Kallamni qo‘llarim bilan yashirdim, ho‘ngrab yig‘ladim. Siyohdonni olib, muallimning yuziga otdim. Tegmadi. Keyin, tashqari otildim. Maktabdan qochib ketdim. Yana qaytib maktabga oyog‘imni bosmadim. Direktor bilan sinf rahbarimiz kelib tavallo qildi. Onamiz aldab-avradi. Baribir maktabga bormadim. Beshinchi sinf kalam bilan qoldim.



Parchada zamon va shaxs-son shakllarining uslubiy vazifalari haqida bahs yuriting.



2-topshiriq. Tog‘ay Murodning «Ot kishnagan oqshom» asaridan berilgan parchalarni o‘qing, ifoda uslubini tahlil qiling. Asar tiliga munosabat bildiring.

Uloq yerdan qimirlamadi.

Shunda bakovul zotni oshirdi.

– Chavandozlar-ov, eshitmadim demanglar, ustiga yana bir go‘sam serka qo‘yildi! Chavandozlar chuh-chuh, deya otlarini uloqqa chorladi. Sag‘rilariga tars-tars qamchilar urdi.

Otlar pishqirdi, otlar kishnadi.

Nihoyat, uloq yerdan ko‘tarildi. To‘da asta-asta jonlandi. Otlar qulog‘i lik-lik etdi.

To‘da pastga siljidi.

Bakovul jar soldi.

– Uloq ko‘tarildi, uloq ko‘tarildi!

To‘da birdan jonlandi. Otlar yoppasiga chopdi. Dupur-dupur-dupur... otlar uloq

tevaragida chopdi. Bor e'tiborlari uloqda bo'ldi.

– Uloq ketdi! Uloq Burnoch bilan Samanda borayapti!
Nimaga Burnoch ot deymiz! Boisi, burnoch ot peshonasida qashqasi, burni uchida olasi bo'ladi. Butlari-da ola bo'ladi. Burnoch otning xili ko'p bo'ladi. Ko'k Burnoch, qora burnoch, to'riq Burnoch, jiyron burnoch! Saman ot bo'lsa,



sariq, yollari, dumlari qora bo'ladi. Yol-quyruq'i oqlari-da bo'ladi.

Burnoch bilan Saman quloqlarini quyon quloqlari misol chimirib chopdi, zinkiyib chopdi. Uloq oralarida shalvirab bordi. Uloqning bir buti Burnochda, bir buti Samanda bo'ldi. Chavandozlar o'z taraflariga chalg'ayib, tortishib bordi. Tevaragida o'nlab qo'llar uloqqa uzaldi, ammo yetolmadi. Yetganlari uloqni yulib ololmadi. Otlar Burnoch bilan Samanni o'rab chopdi, dupur-dupur-dupur...

– Uloq Burnoch bilan Samanda borayapti! Uloq Samanga o'tdi, uloq Samanda! Bos! Darhaqiqat, Saman chavandozi epchillik bilan uloqni taqimiga bosdi. O'ng tarafiga qiyshaydi. Jilovni o'ngga burdi. Saman yo'lini o'ngdan soldi. Chavandozlar talashish foydasizligini bildi. Birin-birin orqada qoldi.

– Halo-o-ol! Samanniki halol! Tashla, Saman, tashla! E barakalla-e! Saman, kel, haqingni ol!

Saman uloqni yerga tashladi. Bakovulga qarab yurdi. Chavandozlar yerga tushgan uloqqa qarab yurdi. Yana uloqqa yopirildi. Uloq bu gal maydagi yana bir to'riqda ketdi. Birodarlar, to'riq ot malla bo'ladi. Bo'yni xuddi ko'zoynakli ilon misol gajak-gajak bo'ladi!

Matn asosida quyidagi savollarga javob bering.

1. Ziyodulla chavandoz nega kal bo'lib qoldi?
2. Kambag'alni tuyaning ustida it qopadi. Ushbu maqol qaysi qahramonga tegishli?
3. O'qituvchi Ziyodullaning bosh kiyimini olib tashqariga otishi va Ziyodullaning maktabga kelmay qo'yishi haqida o'z munosabatingizni bildiring.

Berilgan gaplarni mos ravishda (A-E) to‘g‘ri yakunlang.

Diqqat! Berilgan javoblardan (A-E) 2 tasi ortiqcha.


1. Burnoch ot	A) ... sariq, yollari, dumlari qora bo‘ladi. Yol-quyrug‘i oqlari-da bo‘ladi.
2. Saman ot	B) ... juda chavondozi, ammo odamga el bo‘lmaydi
3. To‘riq ot ...	C) ... peshonasida qashqasi, burni uchida olasi bo‘ladi.
	D) ... malla bo‘ladi. Bo‘yni xuddi ko‘zoynakli ilon misol gajak-gajak bo‘ladi
	E) ... bo‘ynida oqi bo‘ladi, eng yaxshi ot.



«O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi ma‘nodosh so‘zlarni o‘rganing. Sinonimlar nutqda takroriylikning oldini olganligi uchun ulardan unumli foydalanishga harakat qiling.

QO‘NMOQ, O‘TIRMOQ, TUSHMOQ, INMOQ. Havoda harakatini yo‘qotib, biror sathda qaror topmoq. *Yerga qo‘nish.*

O‘RALMOQ, BURKANMOQ. Yotgan holda ustini biror narsa bilan yopmoq. Burkanmoq ma‘nosi kuchliroq ma‘no ifodalaydi. *G‘am qo‘rquv titrog‘i bilan ezilgan Gulnor ko‘rpaga o‘ralib o‘yladi: «Nega kecha qochmadim?»²²⁹*



Adabiyot ixlosmandlari uchun mantiqiy savol. Alisher Navoiy shunday falsafiy fikrlar bitganlar:

«Halol va pok yashab komillikka erishmoq uchun yigitlik chog‘ida harakat qilish zarur. Zero, payti kelib o‘zing qo‘ygan nuqtalarga xomush termulib xotiralarga berilishingga to‘g‘ri keladi».

Savol: o‘zing qo‘ygan nuqtalar deb nimaga ishora qilingan?



3-mashq. Uyga vazifa. Tog‘ay Murodning ixtiyoriy asaridan parcha o‘qing va ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasi ishtirok etgan o‘rinlarni daftaringizga ko‘chirib yozing.

²²⁹ Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”.1963. 264 b. 206-b

115-§. Inkor shakllari. Bo‘lishsizlik shakli, yo‘q, emas so‘zlari, inkor yordamchisi, ohang orqali inkor qilish. Ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasiga inkor shaklining qo‘shilishi.



Topshiriq 1-topshiriq. Quyidagi fe‘llarning bo‘lishsizlik shaklini hosil qiling.

Tomosha qildi, o‘qidi, yoqtirgan.



Topshiriq 2-topshiriq: Quyidagi fe‘llarning ma’nosini izohlang va ular ishtirokida gap tuzing.

Aytib qo‘ydi---

Aytib qo‘ymadi---

Aytmay qo‘ydi---

Aytmay qo‘ymaydi---

Nazariy ma’lumot. Fe‘l asosidan ifodalangan harakatning ro‘y berish yoki bermasligini bildirgan shakllarga bo‘lishli-bo‘lishsizlik shakllari, shunday shakllar sistemasiga bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyasi deyiladi²³⁰.

Bo‘lishsizlik ma’nosi maxsus shakllarga ega. Bo‘lishlilik ma’nosi esa, aksincha, bunday shakllarga ega emas.

Masalan, *keldi – bo‘lishli; kelgan emas, kelgan (i) yo‘q – bo‘lishsiz*. Bo‘lishsiz fe‘llarning shaxs-son qo‘shimchalari bilan o‘zgarishi o‘ziga xos xususiyatga ega.

Bo‘lishsizlik ma’nosi *emas* yordamida ifodalanganda shaxs-son qo‘shimchasi undan so‘ng, *yo‘q* yordamida ifodalanganda esa oldin qo‘llaniladi. Qiyoslang: Ayrim shaxs-son qo‘shimchalari *yo‘q* dan so‘ng qo‘shiladi.

Masalan, *borganim yo‘q* o‘rniga *borgan yo‘qman, borganing yo‘q* o‘rniga *borgan yo‘qsan*.

Bo‘lishsizlikning yuqoridagi uchta shakli (*-ma, emas, yo‘q*) o‘rtasida ham ma’lum ma’no farqlanishi bor. Sifatdoshning *-gan* shakli uch xil bo‘lishsizlik shakliga

²³⁰ Hozirgi o‘zbek adabiy tili. A. NURMONOV, N. MAHMUDOV, A. SOBIROV, Sh. YUSUPOVA. T.2013

ega: **1. *Borganim yo‘q*** – fe’ldan anglashilgan harakatning oddiy inkori («borish kerak edi, lekin bormadi») ma’nosini bildirmoqda. **2. *Borgan emasman*** – umuman borilmaganlikni ifodalamoqda. **3. *Bormaganman*** – qat’iy inkorni anglatmoqda.

Kelib ketdi, yozib qo‘ydi singari yetakchi va ko‘makchi fe’l qolipidagi fe’llarda bo‘lishsizlik qo‘shimchalari ikki qismning bittasiga (yo yetakchi qismga, yo ko‘makchi qismga) yoki har ikki qismga qo‘shilib kelib, turli ma’nolarni ifodalaydi.

1. Fe’lning yetakchi qismi bo‘lishsiz shaklni oladi:

O‘qib qo‘ydi ***O‘qimay qo‘ydi***

2. Fe’lning ko‘makchi qismi bo‘lishsiz shaklni oladi:

O‘qib qo‘ydi ***O‘qib qo‘ymadi***

3. Fe’lning har ikki qismi bo‘lishsiz shaklga ega bo‘ladi:

O‘qib qo‘ydi ***O‘qimay qo‘ymadi***

Birinchi holatda bo‘lishsiz shakl davomiy bo‘lishsizlik ma’nosini, ikkinchi holatda bir martalik harakat inkorini, uchinchi holatda esa tasdiq ma’nosini ifodalaydi.²³¹



1-mashq. Berilgan gaplarni ko‘chiring, bo‘lishsizlik shakllarining tagiga chizing.

1. Hamqishloqlari uning umri davomida biron marta ham yolg‘on gapirganini eslay olishmas ekan. (A. Tilavov)
2. Kishining qadr-qimmati uning bo‘yi va husni bilan o‘lchanmaydi. (A.T)
3. O‘sha mamlakatning podshohi kasal bo‘lib hech narsa yemay qo‘yibdi. (A. Tilavov)
4. Odamlarning ziyoniga berilgan maslahat hech qachon egasiga yaxshilik keltirgan emas. (A. Tilavov)
5. Bilmagan narsam haqida gapirmayman. (A. Tilavov)
6. Befarqlik tufayli ko‘pchilikka ziyon tegmay qolmaydi.

^{231 231} Hozirgi o‘zbek adabiy tili. A. NURMONOV, N. MAHMUDOV, A. SOBIROV, Sh. YUSUPOVA. T.2013



2-mashq. –*ma*, yo‘q, emas, na..na, yordamida bo‘lishsiz fe‘llar hosil qiling va «Ekologik muommalarni bartaraf etaylik» mavzusida matn tuzing.



«O‘zbek tilining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning ma‘nolarini bilib oling. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiling.

Oqchorloq. Baliq va hasharotlar bilan tirikchilik qiladigan, suv bilan bog‘liq qush; baliqchi. *Oqchorloqlar yo‘l-yo‘lakay kemamizga hamroh bo‘lishdi. («Yoshlik»)*

Nimchilik. Yaxshi rivojlanmagan, o‘smagan; zaif, nimjon, majmag‘il. – *Sizga nima bo‘ldi o‘zi, sam-sariq nimchilik-ku...(R.Fayziy)²³²*



Mantiqiy savol: Eng birinchi uning yorug‘ligi ko‘rinadi, so‘ng ovozi eshitiladi, so‘ng shamolini his qilasiz, ana undan keyingina o‘zi kirib keladi.

Savol: Gap nima haqida ketmoqda?



Uyga vazifa. 3-mashq. Berilgan matnni o‘qing va xulosangizni yozing. Matndagi bo‘lishsiz fe‘llarni ajratib ko‘chiring.

²³² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. A.Madvaliyev tahriri ostida. –T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”. 2005-2008. Izohli lug‘at II tom. 1. 178-b 2- 40

Ilm boshi

Qadim zamonda uchta sarkarda oralarida kim kuchliroq ekanini sinab koʻrmoqchi boʻlibdi. Buning uchun ular shogirdlarini chaqirishibdi. Har bir sarkarda shogirdlariga navbat bilan ustoziga toshlar otib turishini buyuribdi. Birinchi sarkarda uchib kelgan toshlarni ustalik bilan qaytaribdi. Ikkinchi sarkarda ustalik bilan toshlarga chap beribdi. Uchinchi sarkardaga esa birorta ham shogirdi tosh otmabdi.

Xulosa: Ey farzand, bilginki, ilmning boshi odob va axloqdir. Ular boʻlmagan joyda hech qanday ilm-u hunar naf bermaydi²³³.

(Abdumurod Tilavov. Tarbiya kitobi. T.2015)

116-§. Matnda ifodalangan inkor shakllarini aniqlash. Matndan anglashilgan fikrga munosabat bildirish.«Mening fikrim boshqacha» mavzusida yuqoridagi matnga raddiya yozish



Topshiriq

1-topshiriq. Matnda ifodalangan inkor shakllarini aniqlang.

Bugunning gapi...

- Hol - ahvolimni soʻramasa, men ham undan soʻramayman!
- Koʻrgani kelmasa, men ham uning ziyoratiga bormayman!
- Meni tabriklamasa, men ham uni xursand boʻlishi uchun tabriklamayman!
- Hurmatimni joyiga qoʻymasa, men ham uni hurmat qilib boʻlibman!
- Menga ahamiyat bermasa, men ham unga qaramayman!
- Meni qoʻllab-quvvatlamaganligini hech qachon unutmayman!
- Oʻzi shuni xohladi. Koʻproq meni tanqid qilsin. Endi na yordam beraman, na ahvolidan xabar olaman!

Bu fikrlar shu darajada ildiz otib ketdiki, yaqin yor – doʻstlar tugul qarindosh – urugʻlar orasini ham sovutib yubordi.

²³³ Abdumurod Tilavov. Tarbiya kitobi. T.2015

1. Matndan anglashilgan fikrga munosabat bildiring.
2. Siz bunday fikrga qo‘shilasizmi?
3. Siz ham shunday o‘ylaysizmi?

Mening fikrim boshqacha

Siz bunday fikrga bormang! Hamma yomon bo‘lsa, siz yaxshi bo‘ling.

Allohning roziligi uchun bugun ko‘pdan beri xabar olmagan do‘stingiz, yaqinlaringizdan ahvol so‘rang! Oddiy shirin so‘z bilan savoblarga erishing! Sizdan hol-ahvol so‘ramagandir, ammo xayoli sizdadir! Ko‘rgani kelishga vaqt topa olmayotgandir. Tabriklamagan bo‘lsa, sharoiti yo‘qdir, imkoni kamdir. Shirin so‘zi ham yo‘qmi deysizmi? Balki quruq tabriklashga uyalgandir. Hurmatingizni nega joyiga qo‘ymas ekan? Bunchalik izzattalab bo‘lmang! Sizga shunaqa tuyulgandir. Sizga ahamiyat bermaganligiga sabab bordir. Balki sizni payqamay qolgandir, balki tashvish bilan yurgandir. Tanqid kelajak mevasi deyishadi, sizga yaxshi bo‘lishini xohlagandir. Sizga xushomad qilib aybingizni bekitsa, boshqalar oldida o‘z xatolaringiz bilan qoqilishingiz mumkin edi. Tanqid orqali o‘zingizga talabni kuchaytirasiz, buning nimasi yomon?! Yaqinlarimiz, do‘stlarimizdan osongina xafa bo‘lavermaylik! Aybsiz do‘st qidirgan do‘stsiz qolar. Dono xalqimiz juda to‘g‘ri aytgan! Boshqalardan kutayotgan mehr, iltifot va e‘tiborni siz yaqinlaringizga bera olyapsizmi?

O‘ylab ko‘ring, xulosa chiqarishga shoshilmang!



«O‘zbek tilining imlo lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning yozilishini bilib oling. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiling.

Ko‘pkarrali, ma‘raka, tole, xohlamoq, mone, tala-to‘palon²³⁴



Mantiqiy savol: Mashhur sayyoh Jeyms Kuk Taiti va Yangi Zelandiya orollariga ikkinchi bor tashrif buyurganida o‘zi bilan qo‘y va cho‘chqalar olib

²³⁴ O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 2013.240b.224-;390-b

boradi. 2 ta maqsadi bor edi: birinchisi orolliklar turmush farovonligini oshirish, ikkinchisini siz o‘ylab ko‘ring.



Uyga vazifa. 1-mashq. Berilgan parchani diqqat bilan o‘qing. Matn tarkibidan bo‘lishsiz fe’llarni aniqlang va alohida ko‘chirib tahlil qiling.

Majididdin o‘z ustoziga sadoqat bilan xizmat qilar, sadoqatda unga tenglashadigan murid topilmas ekan. Shu sadoqati tufayli ustozining beqiyos mehrini qozonib, shu mehr tufayli ishi rivoj topib borarkan, uning shon-shuhrati chor-atrofga yoyila boshlabdi.

To‘satdan dushmanlar Xorazm mulkiga bostirib kirib, Gurganjni qamal qilibdi. Qamal uzoq davom etibdi. Dushman qancha urinmasin, shaharni ololmabdi. Shunda dushman Amudaryodagi bandni buzib, shaharni suvsiz qoldiribdi.

Bir kuni Shayx Kubro Majididdindan tahorat uchun suv keltirishni so‘rabdi. Majididdin qarasa, xonaqohda suv qolmagan ekan. Chor-atrofnı izlab ham suv topolmabdi. Ammo ustozining so‘zini mudom bajarishga ko‘nikkan shogird suvsiz qaytishni istamabdi. Shu sababdan u ustoziga aytmay, devor oshib Amudaryo tomonga jo‘nabdi. Ammo yog‘iyilar uni daryo sohilida tutib olib, boshini tanasidan judo qilibdilar.

Tahoratga suv olib kelish uchun ketgan Majididdinni kutgan Shayx Kubro bu holdan bexabar shogirdini chaqiribdi. Bir chaqiribdi, darak yo‘q emish. Ikki chaqiribdi, darak yo‘q emish. Nihoyat bezovtalanib: «Hoy Majididdin, o‘likmisan-tirikmisan, qayda bo‘lma, qay holda bo‘lma, tezroq yetib kel!» – deb chorlabdi. Bu chorlovni eshitgan Majididdin o‘rnidan turib, bir qo‘lida kesilgan boshini, ikkinchi qo‘lida suv to‘la ko‘zani ko‘tarib ustozı huzuriga yetib kelgan ekan.

Bu g‘aroyib rivoyat Shayx Kubro azamati haqidagina emas, shogirdning ustoziga bo‘lgan e’tiqodi haqida hamdir²³⁵.


²³⁵ Xurshid Davron. Shahidlar shohi yoxud Najmiddin Kubro tushlari. Ma’rifiy qissa <https://kh-davron.uz/>

117-121§. RAVISHLARNING MA'NO TURLARI. TUB VA YASAMA RAVISHLAR, ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI



Topshiriq 1-topshiriq. Quyidagi jadvalni moslashtiring.

bugun, kecha, hozir		qayerda? qayerdan?		miqdor
olisda, yaqinda, pastda		qanday?		holat
sekin, tez, arang, zo'rg'a		qachon?		sabab
oz, ko'p, ancha (sal)		nima uchun?		payt
atay, qasddan		qancha?		sabab
noiloj, ilojsizlikdan		nimaga?		o'rin



Topshiriq 2-topshiriq. Jadvalda berilgan ravishlar asosida gap tuzing.

Nazariy ma'lumot. Harakat – holatning bajarilish yoki bajarilmaslik tarzi, payti, o'zni, daraja-miqdori va maqsad-sababi kabi belgilarini bildiruvchi va qanday? qachon? qayer(-ga, -da, -dan)? qancha? nega? singari so'roqlarga javob bo'lib, o'zgarmaslik (kelishik, ko'plik, egalik) xususiyatiga ega bo'lgan mustaqil so'z turkumiga ravish deyiladi.

	Ravishlarning ma'no turlari	Ma'nosi va qoidasi	So'rog'i	Misollar
1.	Holat ravishi	Harakatning qay tarzda bajarilishini bildirgan ravishlar	qanday? qanaqa? qay holda?	qo'qqisdan, bexosdan, sekin, tez (-da, -dan), yayov, piyoda, darhol

2.	Payt ravishi	Harakatning bajarilish va bajarilmaslik paytini bildirgan ravishlar	qachon? qachongacha? qachondan?	bugun, kecha, avval, hozir, dastlab, endi, doim, erta-indin, yaqinda
3.	O‘rin ravishi	Harakatning bajarilish va bajarilmaslik o‘rnini bildirgan ravishlar	qayer? qayerda? qayerdan? qayerga?	oldinda, olisda, uzoqdan, yaqindan, yuqoriga, pastga, olg‘a.
4.	Miqdor-daraja ravishi	Harakatning miqdor-darajasini bildirgan ravishlar	qancha? qanchacha?	ancha, picha, sal-pal, kam, ko‘p, oz, xiyol
5.	Maqsad ravishi	Harakatning bajarilish va bajarilmaslik maqsadini bildirgan ravishlar	nimaga? nega?	atay, ataylab, qasddan, jo‘rttaga
6.	Sabab ravishi	Harakatning bajarilish va bajarilmaslik sababini bildirgan ravishlar	nimaga? nima uchun? nima sababdan?	noiloj, noilojlikdan, ilojsizlikdan

Eslatma: Ost, ust, old - ot so‘z turkumiga xos so‘zlar. Oldida so‘zi ham ravish, ham vazifadosh ko‘makchi bo‘la oladi.



1-mashq. Quyidagi maqollarda ishlatilgan ravishlarning ma‘no turini aniqlang.

Bugungi ishni ertaga qo‘yma.

Har yerni qilma orzu, har yerda bor tosh-u tarozi.

Ilm o‘rganishning erta-kechi yo‘q.

Ko‘p o‘yla, oz so‘zla.

Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur.

Sihat tilasang, ko‘p yema.

Avval o‘yla, keyin so‘yla.



2-mashq. Ravishlarning ma'no turlari ishtirokida hikoya matnini davom ettiring.

Mening hikoyam...

Ertalab barvaqt uyg'ondim. Bugungi rejalarimni qayta esimga olib, ...



3-mashq. Berilgan gaplar tarkibidan ravishlarni aniqlang va jadvalga joylashtiring.

Ravish	Tub	Sodda yasama	Qo'shma	Ma'no turi
yillab		yil/lab		Miqdor-daraja

1. To'satdan eshik ochildi va onam shoshib kirib keldi.
2. Mardona askarlarimiz bor ekan biz xotirjam yashaymiz.
3. Kech kuz. Quyosh charaqlab tursa-da, sal sovuqqotdim.
4. Nozima ayyorona jilmaygancha, sekin qadam tashlab yonimdan o'tib ketdi.
5. Orqasidan ukasining to'xtovsiz chaqirib yugurganini eshitmasdan, Akrom uzoqlab borardi.
6. Bobo nabirasiga o'git berish uchun gapni uzoqdan boshladi.
7. Xonamga to'satdan kapalak uchib kirib qolsa deng, quvonganimdan unga uzoq termilib xayol surib ketibman.
8. Yillab kutib turasiz



4-mashq. Navoiy hikmatini o'qing. Matn tarkibidan ravishlarni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.

Agar bir ko'ngilda til nayzasining jarohati bordir, faqat yaxshi so'z va shirin til unga malham va rohatdir. Muloyim so'z - vahshiylarni ulfatga aylantiradi; sehrgar - ohang bilan afsun o'qib, ilonni inidan chiqaradi.

Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz. Ko'p bemaza so'zlaydigan ezma - kechalari tong otguncha tinmay huradigan itga o'xshaydi. Tili yomon odam - xalq ko'nglini

jarohatlaydi, o‘z boshiga ham ofat yetkazadi. Nodonning vahshiylarcha baqirmog‘i – eshakning bemahal hangramog‘i. Xushsuxan odam yumshoqlik bilan do‘stona so‘z aytadi; ko‘ngilga tushishi mumkin bo‘lgan yuz g‘am - uning so‘zi bilan daf bo‘ladi. So‘zda har qanday yaxshilikning imkoni bor, shuning uchun ham aytadilarki: «Nafasning joni bor...»

O‘zi xunuk, gapi bema’ni, ovozi yoqimsiz odam qurbaqaga o‘xshaydi. Baxt bag‘ishlovchi toza ruh manbayi ham til; yomonliklar keltiruvchi nafs yulduzining chiqar joyi ham til. Tilini tiyolgan odam - donishmand oqil; so‘zga erk bergan odam – beandisha va pastkash. Til shirin va yoqimli bo‘lsa yaxshi; til bilan dil bir bo‘lsa, yana yaxshi. Til bilan dil – insondagi eng yaxshi a‘zoldir. Bo‘stonda gulsafsar, gulg‘uncha va rayhonlar eng yoqimli gullardir.

Odam - tili bilan boshqa hayvonlardan imtiyozlidir. Uning tili orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi. Til – shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma’qul bo‘lib chiqsa – tilning ofatidir.



5-mashq. Matn asosida quyidagi savollarga javob bering.

1. Til orqali jarohatlangan ko‘ngilning malhami nima?
2. Nega «nafasning joni bor...» deyiladi?
3. Tilning ofati nima?



6-mashq. Berilgan gaplarni mos ravishda (A-E) to‘g‘ri yakunlang.

Diqqat! Berilgan javoblardan (A-E) 1 tasi ortiqcha.

1. Ko‘p, bemaza so‘zlaydigan ezma....	A) ... qurbaqaga o‘xshaydi
2. Xunuk, gapi bema’ni, ovozi yoqimsiz odam....	B) ... kechalari tong otguncha tinmay huradigan itga o‘xshaydi
3. Nodonning vahshiylarcha baqirmog‘i –..	C) ... eshakning bemahal hangramog‘i
4. Tilini tiyolgan odam-donishmand oqil	D) xalq ko‘nglini jarohatlaydi, o‘z boshiga ham ofat yetkazadi
	E) ... donishmand oqil



7-mashq. Ravish yasovchi qo‘shimchalar -cha, -lab, -larcha, -siz, -in yordamida ravishlar yasang .

Har, hech, bir soʻzlari yordamida qoʻshma ravishlar hosil qiling.



«Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati» kitobidan olingan quyidagi shakldosh soʻzlarning maʼnolarini oʻqib oʻrganing. Oʻz nutqingizda ulardan toʻgʻri foydalaning

Kech I. Ot. Kechki payt, kechqurun. *Erta-yu kech.*

Kech II. Ravish. Belgilangan vaqtdan ancha keyin. *Nega kech kelding?*

Kech III. Feʼl. Birin-ketin oʻtmoq. *Boshidan kechgan voqealar*²³⁶.



Mantiqiy savol: XIII asrda bu narsaga ehtiyoj sezila boshlagan. XII-XIII asrlarda universitetlarning koʻpayganligini bunga sabab sifatida keltirish mumkin. Oʻsha vaqtgacha uni hech kim bilmagan. **Savol:** U nima?



Uyga vazifa. 7-mashq. Motivatsiya ruhidagi quyidagi hikmatlarni oʻqing, mushohada qiling. Gaplar tarkibida ishtirok etgan ravishlarni tahlil qiling . Oʻzingiz ham tarkibida ravishlar ishtirok etgan motivatsiya beruvchi hikmatlarga misollar keltiring.

1. Har doim koʻzingizni ochib yuring. Kuzating. Chunki Siz koʻradigan har qanday narsa Sizni ruhlantirishi mumkin. (Grace Coddington) 2. Ogʻriqni vaqtincha karaxt qilib qoʻyish oxirida baribir his qiladigan haqiqiy ogʻrigʻingizni kuchaytiradi. (Albus Dumbledore) 3. Siz koʻproq suv quyadigan joyda maysa yashilroq boʻlib oʻsadi. (Neil Barringham) 4. Baʼzan gʻalaba qozonasiz, baʼzan esa saboq olasiz. (John Maxwell) 5. Muammolar sizni ortga tortsa, orzular esa olgʻa yetaklashi kerak. (Duglas Everett)

Savol va topshiriqlar:

1. Ravish deb nimaga aytiladi?
2. Ravishlarning qanday maʼno turlari bor?
3. Ravishlarning yasalishini misollar bilan tushuntiring.

²³⁶ Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati. –T.: “Oʻqituvchi”. 1984. 216 b. 77-b

4. Ravish yasovchi *-cha, -lab, -larcha* qo‘shimchalari omonimligini asoslang (minglab-yillab, yuzlarcha-faqirlarcha, yigitcha-yigitcha (-dek))

**122-§. OLMOSH, RAVISH VA FE'L SO'Z TURKUMI BO'YICHA
TESTLAR BILAN ISHLASH**

1-variant

1. Qaysi qatordagi gapda belgilash olmoshi ishtirok etmagan?

- A) Dildora hali yosh bo‘lsa ham, aqli butun.
- B) Dunyoning shodligi yig‘ilsa, butun
Do‘stlar diydoridan bo‘lolmas ustun.
- C) Barcha shodlik senga bo‘lsin,
Bor sitam, zorlik menga...
- D) Har kim o‘z quvonch ham orzularini bildirib turarkan.

2. Fe'ning qaysi shakli kelasi zamoni gumon,taxmin yo'li bilan ifodalaydi?

- A) -a B) -y C) -(a)r D) -moqchi

3. Qaysi qatordagi gapda olmosh gapning o‘rnida qo‘llangan?

- A) Kitobni ko‘p o‘qisangiz , undan ko‘p hikmat topasiz.
- B) Niyatim shuki, hamma o‘qishga kirsin.
- C) Bu yerlar sherlar makoni.
- D) Men ham shuncha ko‘tarishni orzu qilaman.

4. Qaysi javobda holat ravishi qatnashgan?

- A) Yo‘lda ikkita chol sekin gaplashib kelishayotgandi.
- B) U jo‘rttaga dugonasining jig‘iga tega boshladi.
- C) Hushiga kelgan bemor qiynalib gapirardi.
- D) Sardor o‘ylanib turgan do‘stiga yaqinlashdi.

5. Qaysi javobda miqdor-daraja ravishi qatnashgan?

- A) G‘afurjon tashqariga chiqib boydan ketishga izn so‘radi.

12. Qaysi gapda ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasi mavjud emas?

- A) Mix bolg‘adan qutulaman deb, taxtaga kirib ketdi.
- B) U boshlagan ishni chala tashlab qo‘ya olmas edi.
- C) Oshna, oy botib, yulduzlar birin-ketin so‘na boshladi.
- D) Hozir dolzarb payt, barcha yeng shimarib ishlamoqda.

13. Qaysi gapda birgalik nisbatidagi yasama fe‘l qatnashgan?

- A) Otasining Dostonni ishlashga majbur etish uchun qilgan harakatlari natija bermadi.
- B) Ish safari bilan ketgan Davron aka va Sodiq aka kecha Toshkentga kelishdi.
- C) Hakim bobo har bir niholni parvarish qilardi.
- D) Keyin yana ular doimgidek men haqimda gapirishdi.

14. Qaysi javobda yasama holat ravishi bilan ifodalangan hol qatnashgan?

- A) Chol va kampir amallab uyga yetib olishibdi.
- B) U o‘z xatti-harakati va fidokorona mehnati bilan xalqqa tanilgan.
- C) Do‘stona yig‘inlar ham munosabatlarni mustahkamlab turuvchi vositalardan biridir.
- D) U barcha qiyinchiliklarni mardlarcha yengib o‘tdi.

15. Toza. Ushbu ravishning ma‘no turini aniqlang.

- A) Holat ravishi B) Miqdor-daraja ravishi
- C) Maqsad ravishi D) O‘rin ravishi

2-variant

1. Qaysi gapda kesim vazifasida kelgan ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasi qatnashgan?

- A) O‘yin-kulgi, askiya yarim kechagacha cho‘zilib ketdi.
- B) So‘zga chiqqan Sodiqjon domla shogirdi haqida faxrlanib gapirardilar.
- C) El suygan xonanda o‘zgacha qiyofada televideniyada chiqar edi.
- D) Uyiga javob beraylik, o‘n besh-yigirma kunga borib kelsin.

2. U gilolar ostiga qo'yilgan panjaralari ko'k bo'yoq bilan sirlangan katta yog'och karavotda yonboshlab o'tirar edi. Ushbu gapda qatnashgan fe'llarga oid to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

- A) Ushbu gapda fe'l vazifa shakllarining faqat bir turi qatnashgan.
- B) Ushbu gapda o'timli va o'timsiz fe'llar qatnashgan.
- C) Ushbu gapda fe'l nisbatlarining ikki turi qatnashgan.
- D) Ushbu gapdagi barcha fe'llar sodda yasama fe'llar sanaladi.

3. Qaysi javobda o'zi ishora qilgan so'z bilan o'zaro bir xil gap bo'lagi vazifasini bajargan olmosh qatnashgan?

- A) Vatan sajdagoh kabi muqaddas sanaladi. Uni hamisha asrab-avaylaymiz.
- B) Do'stimdan juda minnatdorman: undan irodali bo'lishni o'rgandim.
- C) Kitoblar – insoniyatning eng bebaho ma'naviy mulki. Ulardan hamisha foydalanishimiz mumkin.
- D) Yigitning lablari pir-pir uchar edi, u qo'rquvdan atrofga alanglar edi.

4. Qaysi javobdagi olmoshlar haqida berilgan ma'lumot to'g'ri emas?

- A) Ko'rsatish olmoshlariga egalik va jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalari qo'shilganda tovush orttirilishi kuzatiladi.
- B) So'roq olmoshlariga alla- yoki -dir qo'shimchasini qo'shish yo'li bilan hosil qilingan olmoshlar bo'lishsizlik olmoshlari hisoblanadi.
- C) To'pdan ajratilgan yoki jamlab ko'rsatilgan shaxs, narsa, belgi, harakat-holatlarni ifodalaydigan olmoshlar belgilash olmoshlari sanaladi.
- D) Uch shaxsdan biriga ishora qiluvchi olmoshlar kishilik olmoshlari hisoblanadi. Ayrim kishilik olmoshlariga -ni, -ning, -niki qo'shimchalari qo'shilganda tovush tushishi kuzatiladi.

5. Qaysi javobda ravish qatnashgan?

- A) So'nggi pushaymon – o'zingga dushman.
- B) Itning akillashidan cho'chib uyg'onib ketdim.
- C) Mana mavsum ham oxirlab qoldi. Mashina terimi tugay deb turibdi.
- D) Ular hozircha kovlab kirolmabdilar, lekin allaqancha yerni o'yib yuboribdilar.

6. Qaysi javobda fe'l nisbatlarining barcha turida qo'llana oladigan fe'llar qatori berilgan?

- A) ko'rmoq, qaytmoq, chaqirmoq B) bo'yamoq, kiymoq, osmoq
C) yuvmoq, quvonmoq, uxlamoq D) shovullamoq, kiymoq, aytmoq

7. Qaysi javobda miqdor-daraja ravishi qatnashgan?

- A) Keyin bozorga olib boribdi. B) Halima ta'tilda ham ko'p o'qishni kanda qilmadi.
C) Uzoqdan bir ayol kela boshlabdi. D) Bir kishi uni to'xtovsiz chaqirib kelyapti.

8. Oldingi gap, gapdagi biron-bir so'z, so'z birikmasi o'rnida qo'llanib, unga ishora qiluvchi yoki biror so'zni aniqlab keluvchi olmoshlar qanday olmoshlar hisoblanadi?

- A) kishilik olmoshlari B) ko'rsatish olmoshlari
C) o'zlik olmoshlari D) so'roq olmoshlari

9. Shunchaki sevilmoq – baxtiqarolik.
To'la tole uchun bu kemtik, bu kam.
Mening qalbim shunday sevgiga molik:
Bir charsillab yonay, so'ngra so'nsam ham.

Ushbu she'riy parchada qatnashgan majhul nisbatdagi fe'l qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?

- A) aniqlovchi B) kesim C) hol D) ega

10. Majhul nisbatdagi fe'l qatnashgan gapni aniqlang.

- A) Yo'l bo'yidagi rang-barang gullar qiyg'os ochilgan edi.
B) Qizcha erkalani onasining bo'yniga osildi.
C) Kitobxonlarga esdalik uchun sovg'alar berildi.
D) Shoir anchagacha uxlay olmay, ezgin xayollar girdobida qiynaldi.

11. Qaysi qatordagi gap tarkibida olmosh turkumiga oid so'z ishtirok etgan?

- A) Chaqirdim, hech kelmading. B) Do'stlar, hech kim meningdek yoridan ayrilmasin.
C) Oltin ko'milgan joyni hech topa olmadim. D) Ish haqida hech o'ylab ko'rganmisiz

12. Qaysi javobda yasama holat fe'li berilgan?

- A) tishlamoq B) so'lmoq C) ko'karmoq D) gapirmoq

13. Abdushukur bu yerdan tezda chiqib ketish payiga tushdi.



Ushbu gapda ajratib ko'rsatilgan ravishning ma'no turini aniqlang.

A) holat ravishi B) payt ravishi C) o'rin ravishi D) miqdor-daraja ravishi

14. Tarkibida sifatdan yasalgan sodda yasama ravish qatnashgan gapni aniqlang.

A) Yarim tunda ko'zi ilingan ayol tong saharlab junjikib uyg'onib ketdi, osmon oqarib kelardi.

B) U sevinchini ichiga sig'dirolmay hamma bilan qadrdonlarcha ko'risha boshladi.

C) Onaxon Mutribni pinhoniyl bir mehr bilan suyadi, unga hamisha qalban intiladi.

D) G'ulomjon keyingi vaqtlarida tanholikni yoqtiradigan bo'lib qoldi.

15. Shunchaki sevilmoq – baxtiqarolik.

To'la tole uchun bu kemtik, bu kam. Mening qalxim shunday sevgiga molik:

Bir charsillab yonay, so'ngra so'nsam ham. **Ushbu she'riy parchada qatnashgan yasama fe'l qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?**

A) kesim B) ega C) hol D) aniqlovchi

123-§. YORDAMCHI SO'Z TURKUMLARI. YORDAMCHI SO'Z TURKUMLRINING VAZIFASI



1-topshiriq. 7-sinfda olgan bilimlaringiz asosida quyidagi savollarga javob bering.

1. Tildagi so'zlar qanday belgi-xususiyatlariga ko'ra mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga ajratiladi?

2. Mustaqil so'z turkumlariga xos xususiyatlarni ayting.

3. Yordamchi so'z turkumlariga xos xususiyatlarni ayting.



2-topshiriq. Quyidagi so'zlardan yordamchi so'zlarni ajrating. Ularni izohlang.

Afsuski, menimcha, xuddi, garchi, faqat, kecha, ofarin, atigi, aslo, barakalla, balki, siz, ular, garchand, xolos, yolg'iz, kechasi, aqlli, tezda, albatta, qarab, tufayli, ostida, minglab, qaraganda, orqali, ya'ni, mabodo.



3-topshiriq. Quyidagi matndagi so'zlarni mustaqil va yordamchi so'zlarga

ajrating va yordamchi soʻzlarning qanday vazifa bajarayotganligini izohlang.

Yigʻlab turing



Texnologiya asrida xilma-xil xabar va informatsiyalar tufayli diydemiz qotib boʻshatishlar yoʻq. Yigʻlashning foydalari haqida qisqacha:

- koʻz yosh organizmdan toksinlarni qoʻshib olib chiqib ketadi. Koʻz orqali ajralayotgan suyuqlik koʻzdagi bakteriyalarni oʻldiradi va tozalaydi;
- yigʻlaganda parasimpatik nerv faollashadi, yurak sekinlashadi va stressdan nafaqat miya, balki organizm ham qutuladi;
- hech boʻlmasa bir haftada bir marta yigʻlab turgan inson psixologik stresslarga chidamliroq hisoblanadi;

Yaponiyada maxsus yigʻlash seminarlari tashkil etilgan boʻlib, odamlar u yerga pulga kirishadi va yengillab chiqishadi.

Ayniqsa, erkaklar yillar davomida jiddiy sabab boʻlmasa, yigʻlashmaydi va yigʻilgan stress tufayli yurak qon tomir kasalliklariga koʻproq chalinishadi.

(Doktor Akramov)

Nazariy maʼlumot. Leksik maʼnosini yoʻqotib, grammatik maʼno ifodalashga oʻtgan, maʼlum soʻroqqa javob boʻlmaydigan soʻzlar yordamchi soʻzlar deb yuritiladi. Yordamchi soʻzlarga koʻmakchi, bogʻlovchi va yuklamalar mansubdir. Yordamchi soʻzlar mustaqil soʻzlar bilan qoʻshimchalar oraligʻida turgan grammatik vositalardir²³⁷. Masalan: Darhaqiqat, **agar** voqealarning kechishini diqqat **bilan** kuzatsak, hatto Abu Yusuf **bilan** Zuhra begi ogʻa **ham** uning niyatidan xabardorligini tushunib yetamiz²³⁸. Ushbu gapdagi ajratib koʻrsatigan soʻzlar yordamchilardir. Ulardan **agar** – ergashtiruvchi bogʻlovchi, 1-**bilan** koʻmakchi, 2-si **bogʻlovchi**, ham – **yuklama**.

Yordamchi soʻzlar mustaqil soʻzlarni, qoʻshma gap tarkibidagi sodda gaplarni tobe-hokim va teng munosabatda bogʻlashga, ular orasidagi turli maʼnolarni

²³⁷ Jamoa. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. 1,2,3-kitoblar.–T.: “ILM ZIYO”, 2015

²³⁸ Ona tili va adabiyot. 2019-yil. Test topshiriqlari toʻplami.–Toshkent.: Davr Press, 2019.

ifodalashga, o‘zi qo‘shilgan so‘z va gaplarga qo‘shimcha ma’no yuklashga xizmat qiladi.



Topshiriq

4-topshiriq. Quyidagi matnni o‘qing, undan yordamchi so‘zlarni aniqlab, vazifasini tushuntiring.

Saxiy

Bir vaqtlar juda boy va qo‘li ochiq Hotam ismli kishi yashab o‘tgan bo‘lib, uning minglab chorva hayvonlari keng yaylovlarni to‘ldirgan edi. O‘z mol-mulkini o‘zgalar bilan baham ko‘rishni yoqtiradigan bu kishining Tuman laqabli uchqur qora oti bor edi. Tuman shu qadar noyob ot ediki, hamma joyda uning shamoldek yelib yurishi va burgut kabi parvozining dong‘i ketgan edi. Hotam bu otini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylar, uni hech narsaga alishmas edi. Kunlarning birida



Hotamning saxiyligi va otining go‘zalligi sultonning qulog‘iga borib yetdi. Shunda sulton bosh vaziriga: «Men Hotamni sinab ko‘rmoqchiman. Undan sevimli oti Tumanni so‘rab ko‘raylik-chi, nima qilar ekan?» – dedi. Ertasi kuni sultonning odamlari yo‘lga tushdilar. Ular Hotamning qishlog‘iga yomg‘irli kechada kirib borishdi

va uning uyida mehmon bo‘ldilar. Hotam mehmonlarni hayajon bilan kutib oldi. Uning buyrug‘i bilan dasturxon tuzaldi. Kaboblar yeyildi. Mehmonlar ohorli va chiroyli to‘shaklarda uxladilar. Ertasi kuni ertalab sultonning odamlari nima uchun kelganliklarini aytganda, Hotam chuqur qayg‘uga botdi. Va ularga shunday dedi: «O, kelgan vaqtingizdayoq sultonning buyrug‘ini aytganingizda edi! Ot go‘shini yaxshi ko‘rishingizni bilaman. Kecha tunda kelganingizda ob-havo yomon bo‘lganligi sababli sizlarga kabob tayyorlash uchun Tumandan boshqa hayvonni topa olmadik²³⁹».

Hotamning saxiyligi ikki dona echki so‘rab kelganga ko‘p ehson qilgan payg‘ambarimizning saxiyliklariga o‘xshaydi. Nabiyimiz sollallohu alayhi va

²³⁹ «Farzand tarbiyasi» kanalidan.

sallam saxiylik nima ekanligini qanday ham chiroyli tushuntirib berganlar: «Saxiy kishi Allohga, odamlarga, jannatga yaqin va do‘zaxdan yiroqdir» (Termiziy, «Birr» 40)

Nazariy ma’lumot. *Ko‘makchilar* bir mustaqil so‘zni boshqa mustaqil so‘zga tobelantirib bog‘laydi va so‘z birikmasi hosil qiladi.

Bog‘lovchilar gap bo‘laklari va gaplarni teng va tobe-hokim munosabatda bo‘g‘laydi.

Yuklamalar esa so‘z va gaplarga qo‘shimcha ma’nolar yuklaydi.



5-topshiriq. Quyidagi yordamchi so‘zlarni ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalarga ajratib, yuqorida keltirilgan nazariy ma’lumot asosida misollar yozing.

Ammo, singari, *-yu, -ki*, tomon, negaki, bilan, xolos, toki, goh... goh, atigi, faqatgina, bordi-yu, yoki, ichida, qaraganda, hatto, hamda, ham, ham...ham, uzra.



«O‘zbek tilining imlo lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning yozilishini bilib oling. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiling.

Rayhongul, suiiste‘mol, novvos, simpozium, xattot, xalacho‘p²⁴⁰



Mantiqiy savol: Hindistonda sigirni muqaddas jonzot deb ehtirom ko‘rsatishadi. Ular masofani o‘lchashda ham sigirdan foydalanishar ekan.

Savol: Hindlar masofani o‘lchashda sigirdan qanday qilib foydalanishi mumkin?



Uyga vazifa. Quyidagi matnni o‘qing va o‘zingizga tegishli xulosa chiqaring. Matn tarkibidan yordamchi so‘zlarni aniqlab, vazifasini tushuntiring.

Kimnidir koyidi chekkani uchun.

Tortib olib qo‘ydi gugurtini ham.

Mashq daftarlarin yig‘di-da, so‘ngra

Bir-bir sanab ko‘rdi. Yetti daftar kam.

²⁴⁰ O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 2013.240b.347-;447-b.

«Har gal shunday ahvol. Uyalmaisizmi?
 Kelasiz o‘qishmas, qilish uchun sayr.
 Bu safar ham ikki qo‘ymay turaman,
 Ertaga qolganlar topshirsinar. Xayr».
 Qish kuni – bir tutam. Qoraygandi qosh.
 Ikkilandi. O‘tmak kerak, axir, qirdan.
 Eri ham kelmadi olib ketishga
 «Ko‘ngli sovidimi...» – vahm etdi birdan.
 Hamkasb dugonasi qistovga tutib,
 «Tunab keting, – dedi . – Kech bo‘lib qoldi»
 Ko‘nmadi. Qo‘ltiqlab mashq daftarlarni
 Uyga yolg‘iz o‘zi yayov yo‘l oldi.
 Ovul tugab, endi qirga chiqqanda
 Oqshom quyuq edi, atrof sim-siyoh.
 Yo‘ldan qaytmoqchi ham bo‘ldi bir o‘yi.
 «O‘g‘lim xastalanib qoldimikan yo...»
 Yuragini battar vahima bosdi,
 Qamradi tundan ham battar bir qo‘rquv.
 O‘nqirmi, cho‘nqirmi, o‘rmi, qir demay
 Yana ketaverdi, ketaverdi u.
 Mudhish bir sharpani ilg‘adi nogoh,
 Razm solsa qashqir. Qilardi ta‘qib,
 Esladi yirtqichning qo‘rqishin o‘tdan,
 Iziga bir daftar tashladi yoqib.
 Qashqir to‘xtab qoldi. So‘ng – yana, yana,
 Muallima omon topgan bu olov,
 Yirtqichga berardi ilojsiz sabr.
 Yo‘lovchi – yoqardi, qashqir – to‘xtardi,
 Tin olardi ikkov har daftarda bir.
 Yo‘l uzoq, tun qaro, qashqir esa och,

Och yirtqich bilarmi nadir sadoqat.
Uyga yaqin qolgan vaqtda tugadi
Muallimda daftar, qashqirda – toqat.
Uvvos fig‘on tutdi qishloqni tongda,
Zamin aza ochdi, zamon yig‘ladi.
Daftar topshirmagan yetti o‘quvchi
Hammadan ham yomon yig‘ladi.
No‘noq nazmim uchun afv et, xalqim,
Na olim, na fozil, na so‘z piriman.
O‘z vaqtida daftar topshira olmay
Qolgan bolalarning biriman.
Men yaxshi bilaman, tumor qilmaydi
Yozgan she‘rlarimni oshiqlar.
Men yaxshi bilaman, qo‘shiqlarim jo‘n,
Bilaman, bular bir oddiy mashqlar.
Lekin... ketmakdasan kelajak sari
Tap tortmay qismatning dasht, qirlaridan.
O‘zimcha asragim keladi seni
Yovuzlik, xiyonat qashqirlaridan.
Men mashq bajaraman, yozaman har kun
Daraklar, so‘roqlar, xitoblarimni.
... Sen yo‘l bo‘yi yoqib tashlab ketaver
Qashqirlar qo‘rqquvchi kitoblarimni.²⁴¹

(Matnazar Abdulhakim)

²⁴¹ “Falsafiy asarlar” kanalidan.

124-127-§. KO'MAKCHILAR VA ULARNING VAZIFASI



1-topshiriq. *Uchun, sari, tomon, tufayli, sayin, kabi, ostida* yordamchi soʻzlarning vazifasini misollar yordamida tushuntiring.



2-topshiriq. Berilgan gapdan koʻmakchilarni aniqlab, qanday vazifa bajarayotganligini aniqlang.

Oʻz Vatanini himoya qilish uchun mardona kurashgan bu jasur oʻgʻlonlar haqida faxrlanib gapiramiz²⁴².

Nazariy maʼlumot. Soʻzlarning oʻzaro grammatik va mazmuniy munosabatini ifodalash uchun ishlatiladigan yordamchi soʻzlarga koʻmakchilar deyiladi²⁴³. Masalan: Kitob bilan doʻstlashgan insondan yomonlik chiqmaydi²⁴⁴ gapida **bilan** koʻmakchisi kitob ot soʻz turkumini doʻstlashgan sifatdoshiga tobe bogʻlab, ular orasidagi vosita munosabatini roʻyobga chiqargan.

Koʻmakchilar morfologik jihatdan oʻzgarmaydi, yaʼni turlanmaydi. Shuningdek, ular yasalmaydi. Ayrim kelishikdagi soʻzlarni boshqaradi²⁴⁵.

Koʻmakchilar quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Bir mustaqil soʻz (ot, olmosh, harakat nomi va sifatdosh)ni boshqa bir mustaqil soʻzga tobelantirib bogʻlaydi, yaʼni soʻz birikmasi hosil qilishda ishtirok etadi. Masalan, qunt **bilan** oʻqimoq, sen **tufayli** kechikmoq, ishlash **uchun** ketmoq, kechikkani **tufayli** jazolanmoq.
2. Mustaqil soʻzlar orasidagi turli mazmuniy munosabatlar (sabab, maqsad, payt, vosita kabi) ni ifodalaydi. Masalan, oʻqish **uchun** kelmoq – **maqsad**.
3. Mustaqil soʻzlarni gap boʻlagi sifatida shakllantiradi. Masalan, Salimjon **qoʻrqoqligi tufayli** koʻp pand yeydi.

²⁴² Ona tili va adabiyot. 2019-yil. Test topshiriqlari toʻplami. – Toshkent.: Davr Press, 2019.

²⁴³ Jamoa. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. 1,2,3-kitoblar. – T.: “ILM ZIYO”, 2015

²⁴⁴ Ona tili va adabiyot. 2019-yil. Test topshiriqlari toʻplami. – Toshkent.: Davr Press, 2019

²⁴⁵ Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Sh. Shoabdurahmonov va boshq. Toshkent.: “Oʻqituvchi”, 1980-y.



3 **-topshiriq.** Quyidagi matnni o'qing, undan ko'makchilarni aniqlab, qanday vazifa bajarayotganligini izohlang.

VAFO



Bir kuni xo'jayini Luqmonga achchiq tarvuz berdi. Luqmon shunday ishtaha bilan, shunday xursandchilik bilan uni yer ediki, ko'rganlarning ham ishtahasi ochilib ketar edi. Xo'jayini bir tishlam yeyishi bilan og'zi olovdek yondi, bo'g'zi lovulladi, tili kuydi. Bir muddat o'zini yo'qotdi.

Keyin: «Azizim, bunday zaharni qanday qilib rohatlanib yeding, bunday qahrni qanday qilib lutf sanading? Bu qanday sabr? Nega buncha sabr qilding? Joningda qasding bormi? Nega hech narsa demading, nega? «Biroz sabr qiling, hozir yeya olmayman», demading? » – dedi. Luqmonning javobi shunday bo'ldi: «Sening ne'matlar bag'ishlagan g'o'lingdan shunchalar ko'p rizq yedimki, xijolatdan ikki bukildim. Qo'ling bilan bergan narsani, ey ma'rifat sohibi, «Bu achchiq» deyishga uyaldim. Chunki tanamning har a'zosi sening ne'matlaringdan bahramand bo'ldi. Men sening tuzog'ingga, doningga asir edim, shugina achchiqqa chiday olmay faryod qilsam, tanamning barcha a'zolari yakson bo'lsin! Shakarlar ehson qilgan qo'lingning lazzati tarvuzdagi achchiqlikni qoldirarmidi?»²⁴⁶».



5-topshiriq. Quyidagi gaplarda ko'makchilar o'zi qo'shilgan mustaqil so'zlarni qanday gap bo'laklari sifatida shakllantirgan?

1. Yaxshi kitob muallifning odamzod uchun atalgan tortig'idir.
2. Ilm va dinning mashhur kishilari o'z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. (A. Temur)
3. «Ey farzand, ilm olmoqning fazilatlarini ko'pdirkim, ilm orqali hayoting farog'atda, yurish-turishing hurmatda bo'lur». (A. Samarqandiy)
4. Sabrli bo'lish kabi fazilatlarni o'zingizda mujassam eting.
5. Imonli kishi aql-zakovat sohibi bo'lish bilan birga insoniy, ijtimoiy muammolarni hal etishda faol

²⁴⁶ www.ziyouz.com kutubxonasi.Jaloliddin Rumiy.

ishtirok etadi. 6. Insof va insofli bo‘lish singari tushunchalar ayrim diyonatsiz odamlar uchun qadr-qimmatsiz bo‘lib qolgandek bo‘lib ko‘rinadi. 7. Vaqt o‘tgan sari odam yaxshilik, ezgulik kabi umr ishlariga tashna bo‘lib yashaydi. 8. Xudbin odam adolat yuzasidan emas, shaxsiy manfaatlari, injiqligi va xudbinligidan kelib chiqib harakat qiladi²⁴⁷. (O‘. Mahkamov)



«O‘zbek tili paronimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning ma‘nolarini o‘qib o‘rganing. Ularning ma‘nolariga e‘tibor bering. Paronimlarga oid xatoga yo‘l qo‘ysangiz, so‘z ma‘nosiga qanday ta‘sir qilishini o‘ylab ko‘ring.

Xurma. Odatda sut-qatiq solinadigan mo‘ndisimon sopol idish. *Xurmada tayyorlangan qatiq.*

Xurmo. Janubiy mamalakatlarda doim yashil bo‘lib tepasida uzun barg chiqarib o‘sadigan daraxt va uning jiydadan kattaroq, mag‘zi shirin hosili. *Xurmo mevasida 67 foizga qadar a‘lo sifatli qand moddasi bo‘lib, yengil hazm bo‘ladi²⁴⁸.*



Mantiqiy savol: Matematik topishmoq: pastda turgan bir g‘oz osmonda uchib ketayotgan g‘ozlarga qarab «Hooy yuz g‘ozlar, meni ham olib ketinglar!» – debdi. Shunda osmondagi g‘ozlar «Biz 100 ta emasmiz, bizga bizcha, bizning yarmimizcha, yarmimizni yarmicha keyin sen qo‘shilsang 100 ta bo‘lamiz» – deyishibdi. Osmondagi g‘ozlar nechta?



Uyga vazifa. Quyidagi rasm asosida kichik matn yarating, unda ko‘makchilardan unumli foydalaning.

KITOBIM – OFTOBIM.



²⁴⁷ Jamoa. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1,2,3-kitoblar.–T.: “ILM ZIYO”, 2015

²⁴⁸ Ma‘rufov A. Paronimlar lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 1974. 52 b. 44-b

128-§. KO'MAKCHILAR VA KELISHIKLAR MA'NODOSHLIGI



1-topshiriq. Quyidagi gapda qaysi kelishik shakllari bor? Ular gapda qanday vazifani bajaryapti?

Bolalaringizni tarbiya qilmang, chunki ular baribir o'zingizga o'xshashadi. Yaxshisi, o'zingizni tarbiya qiling. (Ingliz maqoli)



2-topshiriq. Quyidagi gapdagi ko'makchilarni aniqlang. Ular gapda qanday vazifani bajaryapti?

Yosh kitobxon «O'tkan kunlar» romani haqida zavq bilan gapira boshladi.



3-topshiriq. Quyidagi savolga javob bering. Kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar ma'nodoshlik hosil qiladimi? Fikringizni misollar yordamida asoslang.



4-topshiriq. Quyidagi so'z birikmalaridagi grammatik shakllarni boshqa grammatik shakllar bilan almashtirsa bo'ladimi? Agar almashtirib bo'lsa, ular orasida qanday farqni sezdingiz?

Onasini o'ylamoq, onasi uchun olmoq, tinchlik haqida o'ylamoq, poyezd bilan kelmoq.

Nazariy ma'lumot. Ko'makchilar bir mustaqil so'zni ikkinchi mustaqil so'zga tobelantirib bog'laganligi uchun kelishik qo'shimchalari bilan bir xil vazifa bajaradi, shuning uchun sof ko'makchilarni ko'p hollarda kelishik qo'shimchalari bilan almashtirish mumkin bo'ladi. Masalan: Bolalar bog'chasiga hadya qildim. Bolalar bog'chasi uchun hadya qildim. Mehnatsevarligidan xalq o'rtasida obro'-e'tibor topdi. Mehnatsevarligi uchun xalq o'rtasida obro' - e'tibor topdi.

Dalaga ketdi – dala tomon ketdi.

Kelishik qo'shimchalari bilan ko'makchilar o'rtasida mazmuniy umumiylik bo'lsagina, biri o'rnida ikkinchisi kela oladi. Birinchi gapda har ikkisida atash ma'nosi, ikkinchi gapda sabab ma'nosi, uchinchisida yo'nalish

ma'nosi mavjud. Ana shu umumiy ma'no ularning o'zaro almashinuviga imkon beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, mazkur umumiy ma'noni qanday ifodalashda kelishik bilan ko'makchi ma'lum darajada bir-biridan farqlanadi. Kelishik qo'shimchasi orqali ifodalangan ma'no aniq, ko'makchi orqali ifodalangan ma'no esa umumiyroq, noaniqroq bo'ladi. Ayniqsa bu farq yo'nalish ma'nosini bildirishda aniq seziladi. Solishtiring: Samarqandga ketdi – Samarqand tomon(ga) ketdi.²⁴⁹



5-topshiriq. Berilgan gaplardagi ko'makchilarni kelishiklar bilan almashtirib ko'chiring²⁵⁰. Ma'noda qanday o'zgarish borligini ayting.

1. Zarina so'zlar, sakkiz o'g'il o'rtasida yolg'iz qiz bo'lgani uchun erkakshoda bo'lib o'sgandi, hech narsadan tap tortmay so'zlayverardi ham. Gap orasida menga qarata: «Sen o'lgur menga bugundan boshlab ikki tomonlama yaqin bo'lib qolding», deb yubordi. 2. Sizning sog'ligingiz, sizning baxtingiz uchun gapirsak, arziydi. 3. Mening ko'nglim sezgan edi, shu sababli tushlikni chala-chulpa qilib, uy tomon yugurgan edim. 4. Palataga kirib borganim sari meni vahima bosardi. 5. Siz go'daklardek pishillab uxlargingiz, tim qora va quyuc sochlaringiz oppoq yostiq ustida yoyilib yotardi. 6. Voqealar tizimidan sal ilgari lab ketdim, shekilli, bu haqda maktubimning keyingi sahifalaridan birida alohida to'xtab o'tarman. 7. Kasbim sharofati bilan baribir qaysi jumlangiz yolg'on ekanini gapingiz ohangidan bilib olaman. 8. Ona urug'im haqida boshqa narsani bilmayman, bilganim shuki, onamlar Siz kabi bo'lishni xush ko'radilar. (A. Ibrohimov)

Nazariy ma'lumot. Ko'makchilar quyidagi kelishik shakllari bilan ma'nodoshlik hosila qiladi:

1. Fikr mavzusi ma'nosini ifodalashda tushum kelishigi shakli bilan:

Onasini o'ylamoq – onasi haqida o'ylamoq.

²⁴⁹ Jamoa. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1,2,3-kitoblar.–T.: "ILM ZIYO", 2015

²⁵⁰ Jamoa. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1,2,3-kitoblar.–T.: "ILM ZIYO", 2015

2. Atalganlik ma'nosini ifodalashda jo'nalish kelishigi shakli bilan uchun ko'makchisi: Ustoziga olmoq – ustoz uchun olmoq.

3. Vosita ma'nosini ifodalashda o'rin-payt kelishigi shakli bilan bilan ko'makchisi, chiqish kelishigi shakli bilan orqali ko'makchisi: Qalamda yozmoq – qalam bilan yozmoq, ko'priktan o'tmoq – ko'prik orqali o'tmoq.

4. Sabab ma'nosini ifodalashda chiqish kelishigi shakli uchun ko'makchisi bilan: o'qimaganligidan uyalmoq – o'qimaganligi uchun uyalmoq.

5. Yo'nalish ma'nosini ifodalashda jo'nalish kelishigi shakli bilan tomon, sari ko'makchilari: Uyga ketmoq – uy tomon ketmoq, kanalga ketmoq-kanal sari ketmoq.



«O'zbek tilining imlo lug'ati» kitobidan olingan quyidagi so'zlarning yozilishini bilib oling. O'z nutqingizda ulardan to'g'ri foydalanishga harakat qiling.

Kanakunjut, hazil-mazax, hazil-huzul, nufuz, nufus, jizzaki²⁵¹



Sevimli shoir Erkin Vohidov ularni shunday ta'riflagan:

Ularda reja bor, ish bor, g'ayrat bor,

Ular hordiq kun qilmaslar talab.

Dushanba boshlari og'rimas nahot?

Kechikib kelmaslar ishga ertalab!

Savol: O'zbekiston qahramoni Erkin Vohidov

ular deganda nimani ta'riflagan?



Uyga vazifa. Berilgan rasmlar asosida gaplar tuzing, unda kelishik shakllari va ko'makchilar ma'nodoshligiga e'tibor qarating.

²⁵¹ O'zbek tilining imlo lug'ati. –T.: "O'qituvchi". 2013.240b.197-;190-b



129-§. SOF VA VAZIFADOSH KO'MAKCHILAR


DUNYO BO'YLAB SAYOHAT



Topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi matndan ko'makchilarni aniqlang va 7-sinfda olgan bilimlaringiz asosida ularni sof va vazifadosh ko'makchilarga ajrating.

Diqqatingizni yig'a olmayapsiz, fikrlaringiz tarqoqmi? Hozir o'yladingizki, kitobni o'qib turib diqqatli inson bo'lib qolaman deb. Yo'q, aslo kitobda bir muayyan reja yo'q. Ya'ni aytmoqchimanki, bundan keyin buni qilasiz, bundan keyin buning oxiriga diqqatli bo'lasiz, degan narsa yo'q. Aksincha, yozuvchi uni o'quvchining o'zi-o'ziga mos keladigan uslubni tanlashi uchun juda ko'p yozuvchilar, tadbirkorlar, o'z ishida katta yutuqqa erishgan odamlarning diqqatini jamlashdagi usullarini keltirib o'tgan. Yozuvchi o'z xulosasini ham qo'shib aytib ketadi. Sizga manfaatli bo'ladi degan umiddaman²⁵².



Topshiriq

2-topshiriq. Quyidagi savolga javob bering. Ko'makchilar nima uchun sof va vazifadosh ko'makchilarga bo'linadi?

Nazariy ma'lumot. Ko'makchilar mohiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1) sof ko'makchilar; 2) ko'makchi vazifasidagi so'zlar.

Sof ko'makchilar faqat ko'makchi vazifasini bajaruvchi ko'makchilar bo'lib, **uchun, kabi, singari, sari, sayin, qadar, bilan, haqida, uzra, tufayli**

²⁵² "Kitoblar haqida fikrlar" kanalidan

soʻzlardan iborat. Masalan: Gʻayrat bilan mindi otning beliga (F.Yoʻldosh.) gapidagi bilan koʻmakchisi sof koʻmakchi boʻlib, u bundan boshqa turkum vazifasini oʻtamaydi. Bulardan tashqari, **avval, keyin, soʻng, ilgari, burun** kabi ravish turkumidagi; **egalik va kelishik** qoʻshimchasini olgan **yon, old, ost, ust, ich, tepa, oʻrta, orqa, tag** kabi ot turkumidagi; **qaraganda** sifat-doshi; **qarab, boʻylab** kabi ravishdoshlar ham koʻmakchi vazifasini bajarib keladi. Bunday soʻzlar esa koʻmakchi vazifasidagi soʻzlar deb qaraladi. Masalan: Kitob stolning ustida turardi gapidagi ustida soʻzi ot turkumiga oid boʻlib, u oʻrin holi vazifasida qoʻllangan, joy maʼnosini ifoda etgan. Ammo Men ish ustida oʻtirdim gapidagi ustida soʻzi esa koʻmakchi vazifasidagi otdir. Chunki u oʻrin ifoda etmagan, balki ish soʻzi bilan birga ravish holi vazifasini oʻtagan. Koʻrinadiki, koʻmakchi vazifasidagi soʻzlar mustaqil maʼno bermasligi bilan oʻziga xosdir²⁵³.



Topshiriq

3-topshiriq. Berilgan matndagi koʻmakchilarni aniqlab, ularni sof va vazifadosh koʻmakchilarga ajrating.

TOSHBAQA VA QARGʻA



Qadim zamonlarda, koʻp yillardan buyon qalin toʻqayzorda doʻst boʻlib, birgalashib koʻp sinovli, yaxshi va yomon kunlarni boshdan oʻtkazgan ikki doʻst Toshbaqa va Qargʻa boʻlgan ekan. Ular ancha qarib, Toshbaqaning kosalari battar qattiqlashib, ogʻirlashganidan yanada sekin yuradigan, Qargʻaning rangi yanada qorayib ketib, ozgina uchsa horib

²⁵³ Mirtojiev. Hozirgi oʻzbek tili. Toshkent. “Oʻqituvchi”, 1992-yil.

qoladigan bo‘libdi. Ular hatto yemish topishga ham qiynalib, ochlikda qiynalgan kunlari ham bo‘lar ekan.

Shunday kunlarning birida, Qarg‘a do‘sti Toshbaqaga debdi:

– Do‘stim, mana necha yildirki, bizlar birga shu to‘qayzorda kun kechiramiz. Yaxshi yomon kunlarimiz bo‘lgan, dunyoda shu bir orzum bor... Xafa bo‘lmasang, shuni senga aytsam.

– Qanaqa orzu ekan, Qarg‘avoy?! - qiziqib so‘rabdi Toshbaqa.

Qarg‘a ozgina xijolat bo‘lgandek bir-ikki yo‘talib so‘zida davom etibdi:

– To‘qayzor chetidagi jarlikdan seni pastga uloqtirsam-u, keyin uchib borib, sening go‘shtingdan mazza qilib tanavvul qilsam, bu dunyodan armonsiz ketardim. Axir, sen ham qarib qolding, mana necha kundirki yemish topolmay xor-u zorsan, baribir abadiy yashamaysan-ku, do‘stim, – debdi uyalmasdan.

Buni eshitgan Toshbaqa do‘stim deb yurgan Qarg‘adan juda xafa bo‘libdi. Lekin buni Qarg‘aga sezdirmadibdi. – Mayli, Qarg‘avoy, sen aytgancha ham bo‘laqolsin. Faqat mening ham bir orzum bor.

– Huvuv anavi baland tog‘ni ko‘ryapsanmi ? Ana o‘sha tog‘ning cho‘qqisiga chiqishni bir umr orzu qilganman. Ana shu tog‘ga chiqsam, armonim yo‘q edi. Keyin o‘lsam ham, mayli, – debdi Toshbaqa.

Buni eshitgan Qarg‘a:

– Unda vaqtni paysalga solmaylik, ketdik bo‘lmasa, – deb Toshbaqaga yo‘l ko‘rsatibdi. Bechora Toshbaqa yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham, mo‘l yuribdi. Qiyinchiliklar bilan, zo‘rg‘a toshlardan sirpanib, dumalab, yiqilib, nihoyat, tog‘ning cho‘qqisiga chiqibdi. U tog‘ cho‘qqisidan atrofga qarar ekan, bir umrlik orzusiga yetganidan judayam baxtiyor ekan. Shu payt qayerdandir Tog‘ burguti paydo bo‘libdi-yu, Toshbaqani o‘tkir tirnoqlari bilan qisib, osmonga ko‘taribdi. Burgut o‘ljasini yanada yuqoriga ko‘tarib ucha boshlabdi.

Buni ko‘rgan Qarg‘a:

– Ehh, ahmoq Toshbaqa! Tinchgina seni jarlikka uloqtirib yesam bo‘lmasmidi! Tog‘ cho‘qqisiga chiqib nima naf ko‘rding! Ana Burgutga o‘lja bo‘lib o‘tiribsan, – deb yuqoriga qarab baqiribdi.

– Nomard do‘stning qo‘lida jarlikka qulab, qora qushga yem bo‘lguncha, tog‘ cho‘qqisidan turib, qushlar shohi burgutning panjasidan o‘lim topishni afzal bildim. Bilsang, jarlikka qulab o‘lishdan ko‘ra, cho‘qqini zabt etib o‘lish qanchalar zavqli!!! – deb Toshbaqa pastda zo‘rg‘a unga qarab qanot silkib turgan qari Qarg‘aga yuqoridan mag‘rur so‘zlabdi.

Bu suhbatni eshitgan Burgut esa, Toshbaqani osmondan pastga uloqtirish fikridan voz kechibdi. Uni so‘lim, yam-yashil o‘tloqli vodiya olib borib qo‘yibdi. U yerda Toshbaqa do‘stlar orttirib yangi hayot boshlabdi.

(Tozagul Jumanova)



4-topshiriq. Quyidagi test topshirig‘ini bajaring.

1. Sof ko‘makchilar berilgan qatorni toping.

- A) Sari, sayin, so‘ng, boshida B) Singari, misoli, haqida, bo‘ylab
C) Tomon, boshida, uchun, orqali D)Uzra, tufayli, haqida, qadar

2. Vazifadosh ko‘makchilar berilgan qatorni toping.

- A) Ost, ro‘para, bilan, kabi B) Tomon, orqa, qosh, atab
C) Avvalo, qadar, bo‘ylab, deb D)So‘ng, qarab, orqali, sari

3. Sof ko‘makchilar qo‘llangan gapni toping.

- A) Barchasidan qovun soz, paykar uzra dumalar.
B) Gap futbol o‘yin ustida ketardi.
C)Gapirishdan avval yaxshilab o‘ylash lozim.
D)Muxbirimiz telefon orqali xabar berdi.

4. Qaysi qatorda vazifadosh ko‘makchi otlashgan so‘zdan keyin qo‘llangan?

- A) Insonning fe‘l-atvoriga qarab unga baho berishadi.
B) Yomonlarning qoshida yalinish yaxshilarning ishi emas.

C) To‘ydan keyin nog‘ora chalmoq – nodonlar ishi.

D) Bitmas-tuganmas bilimning tagida mashaqqat yotadi.



«O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi ma‘nodosh so‘zlarni o‘rganing. Sinonimlar nutqda takroriylikning oldini olganligi uchun ulardan unumli foydalanishga harakat qiling.

UMUMIY, MUSHTARAK. Barchasiga birdek xos, barchasi uchun bir xil aloqador. **Mushtarak** nisbatan eskirgan, asosan yozma nutqda qo‘llanadi.

Niyatimiz mushtarak. (Shuhrat)

TA’NA, YOZG‘IRIQ, MALOMAT. Kamsitish ifodasi. Kamsituvchi, baho, ayblash. *Siddiqjon bu kabi ta’nalarni ko‘p eshitgan, lekin sira gap qaytarmagan edi. (M.Ismoiliy)²⁵⁴*



Qiziqarli boshqotirma. Ikkita bir xil stakan. Ularning birida sut, ikkinchisida kofe. Ularning miqdori bir xil. Birinchi stakandan bir qoshiq sut olib ikkinchi stakanga solindi va aralashtirildi, keyin ikkinchi stakandagi sut aralashgan kofedan bir qoshiq olib sut solingan stakanga quyildi va aralashtirildi.

Savol: Sutda kofe ko‘pmi, kofeda sut?



Uyga vazifa. 1-mashq. A.Oripov qalamiga mansub ushbu she’rni o‘qing, undagi ko‘makchilarni aniqlab, sof va vazifadosh ko‘makchilarga ajrating.

IMTIHON

Sen Vatan haqida berma ko‘p savol,

Lof urma Vatanning muhabbati deb.

Uni mansab kabi aylama xayol,

Yoxud ma‘ruzangga emasdir u zeb.

Vatan tanangdagi jondir, qondir bu,

Vatanni sevmqlik imtihondir bu.

²⁵⁴ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 1984. 216 b.202-;0188-b

Bu ulug‘ sevgida ilohiylik bor,
Vatanni chin farzand faromush etmas.
Menga o‘z tuyg‘umni o‘rgatma zinhor,
Inchunin, kibrning bozori o‘tmas.
Rost gapni yolg‘ondan farqlar ondir bu,
Vatanni sevmqlik imtihondir bu.

Asl qahramon kim yorug‘ dunyoda?
G‘oyasin ta‘maga almashmagan zot.
Chug‘urchuq ko‘paysa haddan ziyoda,
Burgut bo‘lib yashash oliy mukofot.
Qul ham yurtin sevsa shohdir, xondir bu,
Vatanni sevmqlik imtihondir bu.

Garchi ko‘hna zamin umum makondir,
Insonning har joyda yonsin chirog‘i.
Mo‘jaz bo‘lsa hamki, kulbang oshyondir,
Ona dargohidek uning quchog‘i.
Sen uchun poyonsiz kahkashondir bu,
Vatanni sevmqlik imtihondir bu.

Azal musofirdir dunyoda odam,
Ruhim garchi sobit, muallaq tanim.
Bir umr qo‘yningda muqim tursam ham,
Sog‘inib yashadim seni, Vatanim.
Mehr bir, nafrat ham bir tomondir bu,
Vatanni sevmqlik imtihondir bu.

Mayli suymasinlar meni g‘animlar,
Yo‘limni to‘ssinlar raqiblar hatto.

Vatan har qayda ham mayoqdek imlar,
 G'ururim yuksalar samogacha to.
 Hech kimga berguvsiz dovrug', shondir bu,
 Vatanni sevmuqlik imtihondir bu.

130-131-§. BOG'LOVCHILAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI



Topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi yordamchi so'zlarning bog'lovchi ekanligini misollar yordamida izohlang.

Va, hamda, bilan, ham, ham-ham, *-u, -yu, -da*; ammo, lekin, biroq, balki, *-u, -yu, -da*; yoki, yoxud, yoinki, goh-goh, dam-dam, ba'zan-ba'zan, bir-bir; na-na.



Topshiriq

2-topshiriq. Quyidagi yordamchi so'zlar bog'lovchilarning vazifasiga ko'ra qaysi turiga mansub? Ularning vazifasi nimadan iborat? Fikringizni misollar bilan izohlab bering.

Agar, agarda, mabodo, garchi, garchand, bordiyu, mabodo, ya'ni, toki, negaki, chunki, go'yo, xuddi.



Topshiriq

3-topshiriq. Quyidagi matndagi bog'lovchilarni aniqlab, ularni vazifasiga ko'ra turlarga ajrating.

YOVOYI ECHKILAR VA CHO'PON

Bir cho'pon echkilarini har kuni yaylovga haydar va kechqurun ularni yana



qo'rasiga qaytarib kelardi. Mana, u echkilarini qo'raga qaytargani o'tloqqa bordi. Qarasa, bir gala yovvoyi tog' echkilarini uning echkilarini bilan o'tlab yurganmish. Cho'pon ularni ham o'z echkilariga qo'shib qo'raga haydab kiritibdi. Ertasi kuni havo

aynib, jala quya boshlabdi, shu bois u jonivorlarni qo'radan chiqarmay, shu yerda

boqa boshlabdi. Qizig'i shundaki, u o'zining echkilariga nomiga bir siqim-bir siqimdan xashak solsa, begona echkilar oldiga, ularni qo'lga o'rgatish niyatida, pichan va yemni uyib tashlabdi. Lekin ertasi kuni havo yurishib ketib, u barcha echkilarni o'tloqqa haydab chiqqanida, yovvoyi echkilar tog' tomon shataloq otib chopib ketibdilar. Bu holni ko'rgan cho'pon ta'na qilib, ularga debdi: «Eh noshukur maxluqlar, axir men sizlarni yaxshilab boqdim, parvarish qildim-ku, nega mendan qochib ketyapsizlar?» Shunda yovvoyi echkilar orqalariga o'girilib cho'ponga debdilar: «Biz senikiga kechagina kelgandik, sen bizni o'zingning qadrdon echkilaringdan afzal ko'rib rosa siylading. Bundan chiqdiki, agar senikiga yana yangi echkilar kelgudek bo'lsa, bizni nazardan qoldirib, ularni e'zozlar ekansan-da? Mana shuning uchun ham o'zimizni sendan ehtiyot qilmoqdamiz».

Masal deydiki, o'ziga yangi do'st orttirganida eski qadrdon do'stlarini mensimay qo'yadigan odam bilan do'st tutinmaslik kerak, zero, unday odam har gal yangi do'st topganida eskilaridan yuz o'giraveradi.

(Ezop)

Nazariy ma'lumot: Biriktiruvchi bog'lovchi sifatida oddiy so'zlashuv uslubida ko'proq **bilan** (minan) ko'makchisi ishlatiladi. **Va, ham, hamda** yordamchilari esa **yozma nutq uslublari** uchun xoslangan.

Zidlov bog'lovchisi sifatida so'zlashuv uslubi uchun **ammo, lekin** bog'lovchilarining birikkan holida **ammo-lekin** (ammolek) shakli ko'proq ishlatiladi. **Lekin** bog'lovchisining **lek, vale (valekin)** shakllari ham **badiiy uslub** uchun xoslangan.

Ayiruv bog'lovchilaridan yoxud, yoinki yozma nutq uslubi (publitsistik, badiiy uslub) dagina qo'llaniladi.

Aniqlov bog'lovchilari faqat **yozma nutq uslubida** qo'llaniladi.

Sabab bog'lovchilaridan chunki ko'proq yozma nutq uslubida qo'llaniladi.

Shart bog'lovchilaridan garchi yozma nutq uslubi uchun xoslangan.

Chog'ishtiruv bog'lovchilaridan xuddi uslubiy betaraf, **go'yo** yozma nutq uchun xoslangan.



Topshiriq

4-topshiriq. Abdulla Oripov qalamiga mansub ushbu she'ni o'qing, undan bog'lovchilarni aniqlab, uslubiy vazifasini ayting.

QIZIQISH

Agar yoqmay qolsang,
Ters bo'lsa dunyo,
Sug'urib o'tirmas biror tishingni.
Tayyor ishtahangni bo'g'ib mutlaqo,
Yo'qotar taomga qiziqishingni.

Tag'in sen ko'ziga ko'rinsang yomon,
Tortib olmasa ham amal, ishingni.
Bormaydigan qilar idorang tomon,
O'chirar hafsalang, qiziqishingni.

Maydalashib yurmas dunyo yuz bursa,
To'kin ham qilgaydir yozing-qishingni.
Va lekin loqaydsan gullar qulf ura,
So'ndirar borliqqa qiziqishingni.

Bir kuni zerikar o'zi kajraftor,
Unutar kelajak va o'tmishingni.
Unga o'yin kerak, o'yinchoq darkor,
Yana tiriltirar qiziqishingni.



Topshiriq

5-topshiriq. Ikkinchi topshiriqda berilgan bog'lovchilar ishtirokida rasmiy nutqqa xos matn yarating va bo'g'lovchilarning uslubiyati xususida fikr yuriting.



«O‘zbek tilining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning ma‘nolarini bilib oling. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiling.

Sarkor. Ishboshi, boshqaruvchi, nazoratchi. Ma‘lum bir ish yoki sohani boshqargan lavozimli kishi. *Bir ko‘rayin Go‘ro‘g‘li sarkorini. («Ravshan»)*

Tarnov. Suv oqadigan, o‘tadigan quvir. Yomg‘ir, qor suvlari oqib tushishi uchun tom chetlariga o‘rnatilgan yog‘och va tunukadan quvur yo ariqcha shaklida yasalgan moslama. *Tunuka tarnov²⁵⁵.*



Yuliy Sezar g‘animlar o‘qiy olmasligi uchun maxfiy maktublarini maxsus shrift bilan yozar edi. Mana maxsus shriftida yozilgan so‘zga namuna: nblubd. Shriftni tushunganlar bu so‘zni **maktab** deb o‘qishgan. Namunaga diqqat bilan qarab aytingchi, maxfiy shriftning qoidasi nima edi?



Uyga vazifa. Erkin Vohidov ijodidan bog‘lovchilarni aniqlab, badiiy uslubga xos xususiyatlarini aniqlab keling.



132-133-§. YUKLAMALARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI



Topshiriq

1-topshiriq. –*chi* yuklamasini qatnashtirib gaplar tuzing. Unda bu yuklama qanday qo‘shimcha ma‘nolar yuklayotganiga alohida e‘tibor qarating.



Topshiriq

2-topshiriq. –*u, yu, -da, ham..., ham, -mi* yordamchi so‘zlarini qatnashtirib, gaplar tuzing. Ularning qaysi birida yuklama, qaysi birida bog‘lovchi vazifasini bajarayotganligiga alohida e‘tibor qarating.



Topshiriq

3-topshiriq. Quyidagi she‘rni o‘qib, yuklamarni aniqlang va vazifasini tushuntiring.

²⁵⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. A.Madvaliyev tahriri ostida. –T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”. 2005-2008. Izohli lug‘at II tom. 1. 451-b 2- 684

Idrokim boricha yashadim faqat,
Fahm etdim dunyoni baimkon, qat-qat.
Yolg'iz bir jumboqqa aqlim yetmadi:
Qaydan tug'iladi, bilmadim, hasad. (A.Oripov)

Nazariy ma'lumot: Ayrim so'z yoki gapga qo'shimcha ma'no berish uchun qo'llanadigan yordamchi so'zlar yuklamalar deb ataladi. Yuklamalar tuzilishiga ko'ra ikki xil: qo'shimcha - yuklama (qo'shimcha holiga kelib qolgan yuklamalar) va so'z-yuklama (ayrim so'z holdagi yuklamalar²⁵⁶).



4-topshiriq. Berilgan yuklamalarni imlo qoidasiga muvofiq yozing.

-mi, -oq, -chi, -ku, -dir, -gina(-kina, -qina), -e, -ey, -yey, -ku, -a, -ya, -u, -yu, -da.



5-topshiriq. «Sen yetim emassan» she'ridan olingan quyidagi parchani o'qing va yuklamalarning uslubiy vazifasi xususida to'xtaling.

...Onang xo'rlandimi,
Otang o'ldimi,
Sen yetim qoldingmi,
Qayg'urma, qo'zim,
Ko'zim usti,
Minnating boshimga durra.
Ota-onasining
Tayini ham yo'q,
Sut ko'r qilgur, haromi
Gitler oqpadar
Farzandning qadrini
Qayerdan bilsin?
Bir qo'ng'iz mo'ylovli,



²⁵⁶ Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sh.Shoabdurahmonov va boshq.Toshkent.: "O'qituvchi", 1980-y.

Baroq soch mal'un,
 Jigarrang bir mundir
 Istagi uchun,
 Nahotki yerimiz
 Chappa aylanib,
 Nahotki daryolar
 Oqar teskari,
 Nahotki odamlar
 Kezar darbadar?!
 Axir, juda yaqin
 Qonli intiqom,
 Alhazar, alhazar,
 Ko'pirar tomirlarda qon,
 Va portlar hademay
 Bu o'tli vulqon...



6-topshiriq. *Faqat, axir, atigi, g'irt, hatto, xolos, ham* yuklamalari ishtirokida gaplar tuzing va ularning qanday qo'shimcha ma'nolar yuklayotganiga e'tibor qarating.



«O'zbek tilining imlo lug'ati» kitobidan olingan quyidagi so'zlarning yozilishini bilib oling. O'z nutqingizda ulardan to'g'ri foydalanishga harakat qiling.

Ulgurtmoq, halqum, haytovur, hayhaylamoq, hayhot, halak, vatanparvarlik ²⁵⁷



Bir podsho u bilan suhbatga kelgan kishilarni taxt oldidagi sherning ochiq og'ziga qarab gapirishni talab qilgan.

Savol: Mantiqiy o'ylab ayting-chi, shoh nega shunday yo'l tutgan?



Uyga vazifa. Yuklamalar ishtirokida ritorik so'roq gaplar hosil qiling.

²⁵⁷ O'zbek tilining imlo lug'ati. –T.: "O'qituvchi". 2013.240b.428-;440-b

134-135-§. ALOHIDA SO‘ZLAR. UNDOV SO‘ZLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI



Topshiriq

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Unda o‘zbek xalqining urf-odatlaridan qay biri yoritilgan? O‘zbek xalqining yana qanday urf-odatlarini bilasiz?

Bir mahal otin xola (Sepkilli xolaning qo‘li egriligidan shikoyat qilgan, biz bilan folbinnikiga borgan xuddi o‘sha semiz otin xola) oq shol-ro‘mol yopingan, atlas ko‘ylagi ustidan oldiga uqa tutilgan nimcha kiygan kelinchakni yetaklab ostonaga olib chiqdi. Parda orqasidan kelinning yuzi yaxshi ko‘rinmas edi. Biroq yaqinroqda turgan notanish xotinning ko‘zi o‘tkir ekan.

- Vuy, muncha chiroyli!– dedi qattiq shivirlab.
- Bir qoshiq suv bilan yutgudek-a!
- Baxti bor ekan, sariq mashakni! – dedi boshqasi unga javoban.

Otin xola bir tomoq qirib oldi-da, ovozi boricha baqirdi:

- Assalomu alaykum, kelin salo-o-om!

Kelinchak ohista bosh egdi. Hovlidagilar chekka-chekkadan ma’qullab javob qilishdi:

- Baraka topsin!
- Rahmat.
- Qo‘shgani bilan qo‘sha qarisin.

Otin xola yana bir marta tomoq qirib, ovozini sozlab oldi-da, boyagidan ham balandroq hayqirdi:

- Assalomu alaykum, kelin salo-o-o-m!

(«Dunyoning ishlari». O‘.Hoshimov)



Topshiriq

2- topshiriq. Matnda qo‘llangan undov so‘zlarni ajratib yozing. Ular qanday ma’no ifodalayotganligini ayting.

Nazariy ma'lumot. His-hayajon, buyruq-xitob, haydash-chaqirish ma'nolarini ifodalaydigan so'zlarga undov so'zlar deyiladi²⁵⁸.

O'ziga xosligi:

- Undovlar boshqa so'z turkumlari singari leksik ma'noga emas, u tuyg'u va his-hayajonni bevosita ifodalaydi.
- Undov so'zlar gap bo'lagi vazifasida qo'llanmaydi va gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydi. Chunki undov ma'lum ohang bilan aytilmasa, u his-tuyg'uni ifodalay olmaydi.
- Undovlar fonetik shakllanishi, morfologik butunligi, ekspressivligi va maxsus ohangi bilan, kelishik, egalik, shaxs, zamon kabi grammatik ma'nolarni anglatmasligi bilan boshqa so'z turkumlaridan farq qiladi²⁵⁹.

Eslatma: Undov so'zlarning ba'zilarini otlashish xususiyatiga ega. Otlashgan undov so'zlar gapda biror bo'lak vazifasida kela oladi. Masalan: **Ohi** olamni tutdi.

Kampirning **voy-dodiga** odam to'plandi. Harbiylarning **urasi** eshitildi.

Ohangning turlicha bo'lishiga qarab undovlar xilma-xil his-tuyg'uni anglatadi.

Undovlar ma'nolariga qarab quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. His-hayajon bildiruvchi undovlar.
2. Buyruq-xitob undovlari.
3. Nutqiy odat undovlari.



1-mashq. Quyidagi undov so'zlarni uch ustunga bo'lib daftaringizga ko'chiring.

Oh, kish, barakalla, ey, uh, assalomu alaykum, mah-mah, ofarin, chuh, salom, tr-r-r, uf, bay-bay, o'hho', xayr, ehe, rahmat, ohho, beh-beh, obbo, voy-ey, pisht, qurey-qurey, tu-tu, bah-bah, qulluq, iya, oho.

His-hayajon bildiruvchi undovlar	Buyruq-xitob undovlari	Nutqiy odat undovlari

²⁵⁸ A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. "ILM-ZIYO". 2013. 410-bet.

²⁵⁹ U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. "O'ZBEKISTON" 1992. 391-bet.



2-mashq. Gap tarkibidagi undov soʻzlarni toping. Qoʻllanishiga koʻra guruhlarga ajratib daftaringizga yozishni mashq qiling.

1. Men yetim oʻsganman, oh, u yetimlik... Voy, bechora jonim, desam arziydi. (Gʻ.Gʻ.) 2. Bay-bay, zap choy boʻlibdi-da... (A.Q.) 3. – Voy-boʻ, ariqda suv yoʻqmi, qizim, – deb Shermat oʻrnidan irgʻib turdi. (O.) 4. Uh, endi qaysi yuzim bilan oʻsha uyga boraman.(S.Z.) 5. Obbo, qizim-e! Doʻppimni oʻzim tikdim degin! 6. – Hormang endi, otam, – dedi ayol, qotma uzun qoʻllari bilan Elmurodning yelkalaridan silab. (P.T.) 7. E! Bu xumpar menga shama qilyaptimi? 8. Aravakashlar «hay-hay», «chup-chup» deya shovqin bilan koʻchani boshga koʻtarar edilar. (O.)



Topshiriq

3-topshiriq. Gaplar tarkibidagi undov soʻzlar qaysi nutq uslublarida ishlatilganligini aniqlang. Undov soʻzlarni qaysi nutq uslublarida qoʻllab boʻlmaydi deb oʻylaysiz?

1.– «Oy kabi yuzlar, kulib boqishlar, choʻchib qochishlar... Uff» (A.Qod.)
2. Marhabo, ey samovotning oltin elchisi! Necha beling shuncha bukik, charchab qoldingmi? Oh azizim, ming-ming yillar yiroq yoʻllardan yurgan yoʻlchi tolib qolsa, taajjub emas! (M.Sh.) 3. – Voy-boʻ-oʻ, yonib ketibsiz-ku, choʻmilib chiq qoling, dedi mehribonlik bilan. (Oʻ.U.) 4. E, qandingni ur, azamat, oʻzimizda bor edi-ku, ovora boʻpsan-da. (Sh.R.) 5. – Balli, mana endi oʻzingizga keldingiz. Mana bu yigit kishining ishi! (O.) 6. Ajabo, oʻshanda umrning eng qorongʻi damlariday tuyulgan, endi bilsa hayotining eng betakror, eng maʼsud onlari boʻlgan oʻsha kunlar qachon oʻtib ketdi? (O.Y.) 7. – E, tejalmay oʻlsin. Dunyoga odam ikki marta keladimi? (S.A.)

Nazariy maʼlumot. Baʼzan kishilarning undov soʻzlar orqali ifodalagan his-hayajonini, buyruq-xitobini tasvirlash uchun undov soʻzlarga demoq, solmoq, urmoq, tortmoq singari feʼllar qoʻshilib keladi va qoʻshma feʼllar hosil boʻladi: *voy demoq, dod solmoq, oh urmoq, oh tortmoq, pisht demoq* kabi²⁶⁰.

²⁶⁰ A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh Yusupova. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T “ILM-ZIYO”.2013.410-bet.



«O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi shakldosh so‘zlarning ma‘nolarini o‘qib o‘rganing. O‘z nutqingizdan ulardan to‘g‘ri foydalaning.

Mushak I. Ot. Odam yoki hayvon tanasidagi qisqarish xususiyatiga ega to‘qimalar. *Yelka mushagi.*

Mushak II. Ot. Yonganida turli rang bilan yorug‘lik sohib jilolanadigan buyum. *Madaniyat va istirohat bog‘ida mushak otilyapdi.*

Mushak III. Sifat. Bo‘yi qisqa, uchi to‘mtoq. *Mushak sabzi*²⁶¹.



Nurotada bu narsa juda ham ko‘p. Bu narsaga quyidagicha nomlar ham qo‘yilgan: Mastak, Zuli, Zulfiqor, Mozor, Begli, Tayla, Maston.

Savol: Nurotadagi bu nomlar nimani bildiradi?



2-mashq. Uyga vazifa. Suratdagi qahramon yurtimiz bayrog‘ini baland ko‘tarishining sababini izohlang. Uni olqishlash uchun undov so‘zlardan o‘rinli foydalanib matn yarating.



²⁶¹ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 1984. 216 b. 89-b.

136-137-§. TAQLID SO‘ZLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI



Topshiriq

1-topshiriq. Gaplarni o‘qing. Taqlid so‘zlarni toping. Maktabda olgan bilimingizga tayanib ular haqida ma’lumot bering.

1. Darhaqiqat, o‘rik bu yil misli ko‘rilmagan darajada sergul bo‘ldi, katta-kichik novdalar shig‘il-shig‘il gullarga ko‘milib, endigina kurtakdan chiqqan nimjon yaproqlarni ham yashirgan edi. (Sh.R.) 2. Tanga yoqadigan erta bahor shabadasi g‘ir-g‘ir esib, odam ko‘ngliga allaqanday tuyg‘ular soladi. (S.A.) 3. Yo‘lakning oxirida, milt-milt yongan shu‘la ko‘rindi. (O.Y.) 4. Qizlar sekin shivirlashib piq-piq kulib qo‘yardilar. (O.)

Nazariy ma’lumot. Tabiatda insondan tashqari juda ko‘plab tirik jonzotlar yashaydi. Ularda ham o‘ziga xos nutq apparati mavjud. Mana shu nutq apparati yordamida ular turli-tuman ovoz chiqaradilar. Itlarning vovullashi, mushukning miyovlashi, tovuqning qaqolashi hech birimizga yot emas. Bundan tashqari, tevarak atrofimizda beadad voqea va hodisalar sodir bo‘lib turadi: narsalar bir-biriga tegadi, uriladi. Natijada har xil ovozlar hosil bo‘ladi. Inson o‘z faoliyati davomida mana shu ovozlar taqlid qilishga urinadi. Tilshunoslikda bunday ovozlar taqlid so‘zlar atamasi bilan yuritiladi²⁶². Taqlid so‘zlar ikkiga bo‘linadi: a) tovushga taqlid so‘zlar: *taraq, gumbur-gumbur, shov-shuv, duv-duv, qars-qars, tap, sharaq, shalop, shitir-shitir* va hokazo... b) obrazga yoki holatga taqlid so‘zlar: *lip-lip, jimir-jimir, yalt-yult, lapang-lapang, dik-dik* kabi.

Taqlid so‘zlar egalik va kelishik qo‘shimchalarini oladi, turlanadi, gapda ot bajargan vazifalarda keladi²⁶³. Masalan: *Shamolda barglarning shitir-shitiri eshitiladi.*

Daryoning shov-shuvidan quloqlarimiz bitib qolayozdi.

^{262,92} A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T “ILM-ZIYO”. 2013. 411-, 412-bet.



1-mashq. Taqlid soʻzlarni maʼno va tuzilish jihatdan turlarga ajrating. Ularning yozilishiga eʼtibor bering.

Taqir-tuqur, qars-qurs, gup, taka-tum-tak, gʻir-gʻir, miyov-miyov, lip-lip, yalt-yult, lapang-lapang, gumbur, shov-shuv, dir-dir, dagʻ-dagʻ, pish-pish, taq-tuq, quyey-qurey, milt-milt, taraq-turuq, gʻuj-gʻuj, hil-hil, shart-shurt, jarang-jurung, guv.



2-mashq. Gaplarni daftaringizga koʻchiring. Taqlid soʻzlarni toping, qanday gap boʻlagi vazifasini bajarayotganligini aniqlang.

1. Charx yonida ertadan qora kechgacha oʻtirib ip yigirishga charx gʻuv-gʻuvidan quloqlarini bitirishga majbur qilgan kuch, balki bolalariga boʻlgan oʻsha mehr-u muhabbatidir. (M.I.) 2. Atrofda piqir-piqir kulgi boshlandi. (A.Q.) 3. Ular toʻrtta edi; undan bundan gangur-gungur gaplashib, birovi telpak, birovi jiyak, birovi gardish tikish bilan mashgʻul. (O.) 4. Unga jovdirab boqqan Dildorning koʻzlaridan duv-duv yosh oqardi. (S. A.) 5. Dukur-dukur oyoq tovushlari yaqinlashib, qulf-kalitlarning sharaq-shuruq ovozi eshitildi. (O.Y.) 6. – Qoyil qildingiz! – dedi koʻzi jiq-jiq yoshlanib. (Oʻ.U.) Javob oʻrniga eshik zulfinlarining sharaq-shurugʻi eshitildi. (O.Y.)

Nazariy maʼlumot. Taqlid soʻzlarning barchasidan feʼl yasaladi: *shov+ulla, gumbur+la+moq, dupir+la+moq, qars+illa+moq, yalt+ira+moq, guldur+a+moq* kabi.

Taqlid soʻzlar qoʻshma shaklda boʻlmaydi. Ular *etmoq, demoq, qilmoq* yordamchi feʼli bilan birikib, qoʻshma feʼl hosil qiladi: *dik etmoq, shir etmoq, moʻoʻ demoq, tiqir qilmoq, gʻiz etmoq kabi*²⁶⁴.



Topshiriq

2-topshiriq. Gaplarni oʻqing. Taqlid soʻzlar ishtirok etgan gaplarni aniqlang.

²⁶⁴ A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh Yusupova. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T “ILM-ZIYO”. 2013. 412-bet

1. Gursullab yiqildi kekxa qayrag'och... 2. Dam o'tmay sharros yong'ir quyib berdi. 3. Zalni gulduros qarsak ovozi tutib ketdi. 4. Robiya yuzini qo'llari bilan to'sib yum-yum yig'lay boshladi. 5. Soy suvlari shildirab oqadi. 6. Tashqaridan «miyov» degan ovoz eshitildi. 7. Tulkinning lip etib o'tib ketganini sezmay qoldik. 8. Orqa tomondan nimadir tars etdi. 9. Qushlar par etib osmonga ko'tarildi. 10. Saroy qop-qorong'i tinch uyquda ammo, bu tinchlikni saroy otxonasidagi otlarning kurt-kurt xashak chaynashlari va atrofdagi xo'rozlarning qichqirishlarigina buzardilar.



Topshiriq

3-topshiriq. Gaplarni o'qing. Taqlid so'zlar qaysi so'z turkumlarining yasalishi uchun asos bo'lganligini izohlang.

1. Xonadagi devor soat tinimsiz chiqillaydi. 2. O'tirganlar qarsak chalib, xonandani olqishlardilar. 3. Birdan osmonni quyruq bulut qopladi-da, momaqaldiraq gulguradi. 4. Suvning yuzi quyoshda miltillab ko'rina boshladi. 5. Qizlarning shodon qahqahasi xonani shodlikka to'ldirib yubordi.



«O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati» kitobidan olingan quyidagi so'zlarning ma'nolarini o'qib o'rganing. So'z boyligingizni oshirishda ulardan unumli foydalaning.

OLQAMOQ – QARG'AMOQ

Olqamoq. Kimgadir baxt-saodat, salomatlik, ezguliklar tilamoq. *Kampirlar olqab, peshonasidan o'pdi.*

Qarg'amoq. Kimgadir azob-uqubat, o'lim, xor-zorlik tilamoq. *Butun alamzadaligi bilan ularni qarg'adi*²⁶⁵.



Matematik boshqotirma. Qirg'oqqa ikki yosh bola va bir katta odam kelishdi. Ular daryoning u betiga o'tishlari kerak. Qirg'oqda bitta qayiq bo'lib u ikki yosh bolani yoki bir odamni ko'tara oladi xolos. Ular o'ylab ko'rib buning yechimini topishdi. Siz ham yechim izlab ko'ring.

²⁶⁵ Rahmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati.

–T.: "O'qituvchi".1980. 232 b.145-b



3-mashq. Uyga vazifa. Rasm asosida matn tuzing. Tovushga va holatga taqlidni ifodalovchi soʻzlardan ham foydalaning.



138-139-§. MODAL SOʻZLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI



Topshiriq

1-topshiriq. Gaplarni oʻqing, ularning mazmunidagi farqni toping.

1. Yangilik eskilik ustidan tantana qiladi. **Shubhasiz**, yangilik eskilik ustidan tantana qiladi. 2. Shayboniy otasi Budoq Sulton bilan onasi Qoʻzibegimdan yoshligida yetim qolib, ukasi bilan birga bobosi Abulxayrxon qoʻlida tarbiya topgan. **Darhaqiqat**, Shayboniy otasi Budoq Sulton bilan onasi Qoʻzibegimdan yoshligida yetim qolib, ukasi bilan birga bobosi Abulxayrxon qoʻlida tarbiya topgan.

Nazariy maʼlumot. Soʻzlovchining oʻz fikriga boʻlgan munosabatini bildiradigan soʻzlar modal soʻzlar deb ataladi²⁶⁶. Bunday soʻzlar boshqa soʻzlardan vergul bilan ajratiladi. Modal soʻzlarning gapdagi oʻrni erkin. Modal soʻzlar quyidagi maʼnolarni ifodalaydi:

1. **Ishonch munosabati:** shubhasiz, shaksiz, soʻzsiz, albatta, tabiiy, oʻz-oʻzidan, toʻgʻri, hoynahoy, aslida, darvoqe, rostdan.
2. **Tasdiq munosabati:** darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatda.
3. **Gumon munosabati:** shekilli, chamasi, chogʻi, ehtimol, balki, aftidan.
4. **Fikrning tartibi:** avvalo, avvalambor, qolaversa.
5. **Fikrning dalillanishi:** masalan, jumladan.

²⁶⁶ A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh Yusupova. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T "ILM-ZIYO".2013.414-bet.

6. **Xulosa:** xullas, demak, nihoyat, xullas kalom, umuman.

7. **Afsuslanish:** afsus, attang, esiz.

8. **Quvonch:** xayriyat.

Eslatma: Binobarin, holbuki, bor, yo‘q, vaholangki kabilar ham modal so‘zlardir.



Topshiriq

2-topshiriq. Yod olgan she‘rlaringizni eslang. Modal so‘zlar ishtirok etgan misralarni daftaringizga yozib, qanday ma‘no ifodalayotganligi

haqida fikr bildiring.

Namuna: Sizlarni keldi, deb eshitgan kuni –

O‘zing to‘qib ketgan katta savatda

To‘latib shaftoli uzib chiqaman,

G‘alaba kunlari yaqin, **albatta.** (G‘afur G‘ulom)

Nazariy ma‘lumot. Modal so‘zlar ham kelib chiqishi jihatidan ikkiga bo‘linadi:

1) sof modal so‘zlar modal ma‘no ifodalash uchungina xizmat qiladigan so‘zlardir: haqiqatan, afsuski, albatta, xullas, masalan, shekilli, avvalambor, avvalo, darhaqiqat²⁶⁷;

2) vazifadosh modal so‘zlar boshqa turkumlardan o‘tgan modal so‘zlardir: aftidan, mazmuni, ehtimol, taxminan, yaxshi(ki), to‘g‘ri, umuman, so‘zsiz, shubhasiz, tabiiy, balki, chamasi.

Modal so‘zlar gap tarkibida ko‘pincha kirish so‘z bo‘lib keladi²⁶⁸.



2-mashq. Gapdagi modal so‘zlarni toping. Ularni ikki guruhga: sof va vazifadoshga bo‘lib, daftaringizga ko‘chiring. Fikringizni isbotlab bering.

1. Darhaqiqat, men izlagan inson siz bo‘lib chiqdingiz. 2. Nihoyat, bugun men juda xursand bo‘ldim. 3. Nachora, hayotda kurashib yashayman-da. 4. Ehtimol, men o‘zim sababchidirman. 5. Chamasi, bu voqea sizga qiziq tuyulsa kerak. 6. Binobarin, bu naql ko‘p serhikmat naqldur. 7. Agar yaxshiliging seni xursand qilib, yomonliging xafa qilsa, demak, sen mo‘min ekansan.

^{267,97} A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T “ILM-ZIYO”. 2013. 414-bet



3-mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning turkumini aniqlang. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini o'rniga qo'yib gaplarni ko'chiring.

1. Ertaga yomg'ir yog'ish **ehtimoli** bor. 2. **Ehtimol** bu onasidan yagona merosdir.

3. **Shubhasiz** yangilik eskilik ustidan tantana qiladi. 4. Sizning a'lo o'qishingiz **shubhasiz**. 5. Yo'q **chamamda** onalarning biz tushunmaydigan, bizning o'lchovimizga sig'maydigan o'z olami borgan o'xshaydi. 6. Avval **chamalab**, keyin to'pni tepmaydimi?



«O'zbek tilining imlo lug'ati» kitobidan olingan quyidagi so'zlarning yozilishini bilib oling. O'z nutqingizda ulardan to'g'ri foydalanishga harakat qiling.

Muxtasar, zo'g'im, jamuljam, hallamoq, habash, ko'zbo'yamachilik²⁶⁹.



Mantiqiy savol: Yunon faylasufi Diogen «Agar bo'ysunmas, to'polonchi qulim bo'lsa uni jazolab Kolizeyga olib borib o'tirmasdim»,– degan.

Savol: Faylasuf to'polonchi **qul hovurini bosib olish uchun qayerga jo'natishni aytgan bo'lishi mumkin?**



4-mashq. Uyga vazifa. Matni diqqat bilan o'qing. Qomusiy bilimlaringizni boyiting. Matn asosida tuzilgan testlarni yeching.

Qutb yulduzi

Qadimda dengizchilar yoki sahrodagi karvonlar yulduzlarning joylashishiga qarab yo'lni aniqlashgan. Yulduzlarni o'rganib, ularning xaritasini chizib beradigan kishilarni esa munajjim deb atashgan. Bilasizmi, yulduzlarning ham "yulduz"i, ya'ni mashhurlari bo'ladi. Shubhasiz, Qutb yulduzi – ana shundaylardan biri. Chunki u o'tgan davrlar mobaynida ko'plab adashganlarga yo'l ko'rsatib, o'z manzillariga eson-omon yetib olishlarida ko'makchi bo'lgan.

²⁶⁹ O'zbek tilining imlo lug'ati. –T.: "O'qituvchi". 2013.240b. 263-;226-b

Qutb yulduzi osmondagi eng yorqin yulduzlardan biri bo'lgani uchun uni topib olish qiyin emas. Olimlarning aytishicha, kunlar, oylar, ba'zan yillar o'tishi bilan yulduzlarning samodagi o'rni o'zgarib turar ekan. Faqatgina Qutb yulduzi o'z joyidan hech qachon jilmaydi, doim osmonning shimoliy qismida yaraqlab turadi. Shunday o'ziga xos xususiyati tufayli sayyohlar Qutb yulduziga qarab shimol, janub, sharq va g'arbni aniqlay olishgan.

Qutb yulduzi Katta ayiq yulduzi turkumiga kiradi. U Quyoshdan 120 marta katta bo'lib, o'n ming marta kuchliroq nur taratadi. Odamlarga yo'l ko'rsatib turgani uchun «Yo'lchi yulduz» deb ham atashgan. Juda olisda bo'lgani bois ushbu yulduz nurlari Yergacha 472-yilda yetib keladi.

1. Yulduzlarni o'rganib, uning xaritasini chizib beruvchilarni qadimda qanday atashgan? A) munaqqid B) mudarris C) folbin D) munajjim.

2. Qutb yulduzining qaysi xususiyati tufayli sayyohlar dunyoning 4 tomonini aniqlay olishgan?

A) eng yorqin yulduz bo'lgani uchun

B) odamlarga yo'l ko'rsatib turgani uchun

C) juda olisda bo'lgani uchun

D) joyi o'zgarmay, osmonning shimolida turgani uchun.

3. Qutb yulduzi yulduzlarning «yulduz»i hisoblanadi, chunki u ...

A) adashganlarga yo'l ko'rsatadi B) eng yorqin va go'zal yulduz hisoblanadi

C) quyoshdanham katta D) qutbda joylashgan

4. Matnda ifodalangan modal so'zning ma'nodoshini toping.

A) avvalo B) darhaqiqat C) albatta D) demak

5. Dengizchilar Qutb yulduziga qarab shimol, janub, sharq va g'arbni aniqlay olishgan. Ushbu ma'lumot...

A) to'g'ri B) noto'g'ri

140-141-§. UNDOV, TAQLID VA MODAL SO‘ZLARDAN NUTQDA TO‘G‘RI FOYDALANISH USTIDA ISHLASH



Topshiriq

1-topshiriq. So‘zlarni undov, taqlid, modal so‘zlar guruhiga ajrating. Shitir-shitir, hay-hay, attang, milt-milt, oho, ur-re-e-e, mo‘lt-mo‘lt, tss, chuh, oh, g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir, ey, pish-pish, iye, yal-yal, shekilli, jaz, o, jiz, avvalo, haqiqatan, ship, taq, hey, masalan, do‘q, afsus, qars, xullas, so‘zsiz.



Topshiriq

2-topshiriq. Rasmda qanday urf-odat tasvirlangan? Rasm mazmuniga mos nutqiy odat undovlarini qo‘llab suhbat uyushtiring.



Topshiriq

3-topshiriq. Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanidan olingan parchani o‘qing. **Undov** so‘zlarni toping, qanday ma’no ifodalash uchun qo‘llanganligini ayting.

...Aravakash u yog‘dan turib:

– **Ha, barakalla**, bor ekansizlar-ku! O‘rtaga olinglar ashulachini! – degandan keyingina Zebining tillari qaldiradi:

– Gaplashib ketaylik. Shunday qorong‘ida!..

– Jin urarmidi? – dedi bittasi.

– Yaxshi emas, shunday zim-ziyo qorong‘ida... Gaplashib ketaylik... Shirin-shirin gaplardan...

Aravakash uning so‘zini ilib oldi:

– Shirin-shirin gap o‘rniga shirin-shirin ashuladan bo‘lsin, opa. Ta’rifingizni eshitib, jigarlarimiz laxta-laxta qon bo‘lib ketgan...

Salti tegishdi:

– **Voy, tovva-e!** Laxta-laxta qon bo‘lganmi? Jabr bo‘lgan ekan...

...Zebi chinakam ranjigan edi. Yig‘lamsirashga yaqin bir ovoz bilan Saltiga:

– Munaqa qilishingizni bilsam, kelmas edim... – dedi.

Qizlar ishning bu tomonga aylanganiga hayron bo‘lishib jim qoldilar.

Aravakash:

– **Ey, tovba! Ey, tovba!** – deb o‘z-o‘ziga so‘zlanib, otni qattiq-qattiq besh-olti qamchiladi.

...Salti darrov qizlarga tomon burildi:

– **Qani**, qizlar, o‘zimiz «yor-yor» boshlaymiz!

– **Ha, balli!** – dedi aravakash.

Qizlardan javob kutib o‘tirmasdanoq Salti o‘zi boshlab yubordi.

«Uzun-uzun arg‘amchi-yo... Qizlar qo‘shilishdi: ...Halinchakka, Chakan ko‘ynak yarashar Kelinchakka. Chakan ko‘ynak yengiga Tut qoqaylik...»



1-mashq. Gaplarni o‘qing. Taqlid va modal so‘zlar ishtirok etgan gaplarni daftaringizga ko‘chiring.

1. Odamga andisha kerak, lekin undan ilgariroq insof kerak. (A. Q.) 2. Namoz g‘azabi oshib, dag‘-dag‘ qaltiray boshladi. (P.Q.) 3. Darvoqe, Anvarga ko‘p mehnatim singgan. (A. Qod.) 4. Qo‘shiqning oxiri olqishlarga ko‘milib ketdi. (N. A.) 5. Rustam samolyotini ko‘tarib, hovlining u boshidan bu boshiga g‘uv-g‘uvlab yugura boshladi. 6. Farida bu rangni Narimon yaxshi ko‘radi deb tanlagan emas edi, albatta. (P. Q.) 7. Qiziq, inson umri shunaqa tez o‘tarkanmi? 8. Eng gullagan yoshlik chog‘imda, Sen ochilding ko‘ngil bog‘imda. (H. O.) 9. Uning Vohid

Mirobidov haqidagi gaplari ham qiziq. (O. Y.) 10. Uzoqdan bolalarning qiy-chuvi eshitildi.



«O‘zbek tili izohli frazeologik lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi iboralarning ma’nolarini o‘rganing. Iboralarning nutq jarayonidagi ta’siri haqida o‘ylab ko‘ring. Ularni eslab qolishga harakat qiling.

Yulduzni benarvon uradigan. Har qanday ishni abjirlik bilan bajaradigan.

(salbiy) *Yulduzni benarvon uradigan yigitlar o‘shalar.* (S.Abduqahhor)

Suyak-suyagiga o‘tib ketmoq. Jismiga chuqur ta’sir qilmoq. O‘xshashi: **jon-jonidan o‘tib ketmoq.** *Qarilik qursin. Salgina sovuq, suyak-suyagimdan o‘tib ketdi.* (S.Zunnunova)²⁷⁰



Qiziqarli savol: Uning o‘rnida Sulaymon orollarida odamning bosh suyagi, Santa Krus orollarida qush patlaridan yasalgan 10 metrlik tasma, Tinch okeanidagi ba’zi orollarda 100 yil oldin diametri 4 metrlik bo‘lgan toshlar ishlatilgan.


Savol: Uning o‘rnida biz hozir nima ishlatamiz?



2-mashq. Uyga vazifa. «Kalila va Dimna» asaridan olingan mazkur hikoyani o‘qing. Unda qo‘llangan modal so‘z, undov va taqlid so‘zlarni aniqlab, ostiga chizing. Yaxshilik qilish haqida siz qanday fikrdasiz?

Ilon va suvoriy

Sichqon dedi: – Karvonlar yoqib ketgan gulxanning uchqunini shamol uchirib, dashtga o‘t tushib ketgan edi. Tuya mingan bir kishi o‘sha yerdan o‘ta turib, olovlar o‘rtasida bir ilonning to‘lg‘anib yotganini ko‘rdi. U o‘t balosidan qutula olmay, zaharli ko‘zlaridan qon yosh to‘kib, suvoriyga yalinib dedi: – Marhamat qilib, meni bu do‘zaxdan qutqar, savob bo‘ladi.



²⁷⁰ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”.1978. 405 b. 267-;216-b

Suvoriy rahmdil kishi edi. U ilonning zorini eshitib, bechoraga yuragi achidi, ilon garchi odamzodga dushman bo'lsa ham hozir qiyin ahvolda qolibdi, uni bu balodan qutqarsam, savob bo'lar, deb o'yladi. U to'rvaga-sini nayza uchiga bog'lab ilon tomonga uzatdi. Ilon sevinib to'rvaga kirdi.

Suvoriy birozdan keyin to'rvani ochib, ilonga dedi: – Bor, eson-omon qutulganingga shukur qilib uyingga ket, bundan buyon hech kimga ozor berma. Ilon dedi:

– Ey yigit, bu so'zlaringni qo'y, men seni va tuyangni chaqib, zahrimni solmay ketolmayman.

Suvoriy dedi: –Axir senga yaxshilik qildim, seni olovdan qutqardim, gunohim shumi? Ilon dedi: – Ha, sen yaxshilik qilding, ammo o'rinsiz yaxshilik qilding. Bilasanki, zararli maxluqlar avlodidanman, boshqa narsani mendan kutish mumkin emas. Nima uchun meni qutqarding? O'ldirmoq lozim edi, sen esa odamzod dushmaniga rahm qilding. Yaxshilikka yomonlik mening kasbimdir. Yomonlarga yaxshilik qilish yaxshilarga yomonlik qilish demakdir. Endi men seni zaharlasam, bu ishim senga tanbeh, o'zgalarga ibrat bo'ladi.

Suvoriy dedi: – Ey noinsof, yaxshilikka yomonlik qaysi mazhabda bor?

Ilon dedi: – Odamzod mazhabida bor. Men sening ijozating bilan o'z matolaringizni o'zlaringizga sotmoqchi va o'z kosangizda o'zingizga zahar ichirmoqchiman. Tezroq javob qil, avval o'zingni chaqaymi yo tuyangni?

Suvoriy dedi: – Meni ham chaqma, tuyani ham.

Ilon dedi: – Nega endi! O'zlaringiz ham yaxshilikka yomonlik qilasizlar-ku!

Suvoriy ilonning bu gapini inkor qildi va dedi: – Bu da'voga guvoh kerak. Shu orada bir sigir ko'rinib qoldi.

Ilon dedi: – Ey sigir, yaxshilikning jazosi nimadir?

Sigir dedi: – Odamzod mazhabida yaxshilikning jazosi yomonlikdir. Men necha yildan beri ularnikida turaman. Har yili bola tug'ar va uylarini sut bilan qaymoqqa to'latar edim. Hozir boladan, sutdan qoldim, qaridim, o'tlab semirsin deb meni dalaga haydab qo'ydilar. Kecha egam kelib u yoq – bu yog'imni ushlab, biroz

semirganimni ko‘rib, qassobga sotdi. Mana, bugun so‘yishga olib ketayotirlar. Yaxshiligimning jazosi shu bo‘ldi.

Ilon dedi: – Ey yigit, eshitdingmi?

Suvoriy dedi: – Eshitdim, ammo bir guvohning shohidligi yetishmaydi. Yana bir guvoh kerak.

Ilon atrofga qarab, bir daraxtni ko‘rib, yoniga keldi. Ilon so‘radi:–Ey daraxt, yaxshilikning mukofoti nima?

Daraxt dedi: – Odamzod mazhabida, yaxshilikning mukofoti yomonlik, foydaning jazosi ziyondir. Dalil shuki, men bu dashtda ko‘kargan birdan bir daraxtman, odamlar issiqda horib-charchab kelib, soyamda dam olishadi. Nafaslarini rostlab olishgach, yuqoriga qarab, «anavi shox arraga dasta bo‘ladi, anavisi teshabop ekan», deb shoxlarimni kesib yoki arralab oladilar. Mendan foyda ko‘rsalar ham menga azobni ravo ko‘radilar.

Ilon dedi: – Ikki guvoh bo‘ldi. [Endi tan ber](#), seni chaqay.

Suvoriy dedi: –Jon juda shirin narsa. Yana bir kishi guvohlik bersa, uzrga o‘rin qolmaydi.

Ittifoqo o‘sha yerdan bir tulki o‘tib qoldi. Bularni ko‘rib to‘xtadi-da, so‘zlariga quloq soldi, keyin savolni kutmasdanoq: «Yaxshilikning jazosi yomonlikdir, – dedi, keyin suvoriyga qarab,– sen bu ilonga nima yaxshilik qilib eding?» – deb so‘rab qoldi.

Suvoriy bo‘lgan gapni aytib berdi.

Tulki dedi: – Sen o‘zing aqlli odamga o‘xshaysan-ku, lekin nega yolg‘on gapirasan?

Ilon dedi: – Rostini aytyapti, bu odam meni to‘rvaga solib, olovdan chiqardi.

Tulki hayron bo‘lib so‘radi: – Bu so‘zga qanday qilib ishonsa bo‘ladi, axir shunday katta ilon bu kichik to‘rvaga sig‘ishi mumkinmi?

Ilon dedi: – Agar ishonmasang, to‘rvaga kirib ko‘rsatay, shubhaga o‘rin qolmasin.

Suvoriy to‘rva o‘g‘zini ochdi, ilon to‘rvaga kirib kulcha bo‘lib oldi.

Tulki dedi: – Ey yigit, dushmaning bandga tushdi, paytni qo‘ldan berma. Suvoriy to‘rva og‘zini mahkam bog‘lab yerga bir urdi, ilon majaq-majaq bo‘lib ketdi.

Qissadan hissa shuki, aqlli odam ehtiyotni qo‘ldan bermaydi, dushman yalinib - yolvorganda ham g‘ururlanib ketmaydi va uning so‘zlariga ishonmaydi.

142-143-§. MORFOLOGIYA BO‘YICHA YAKUNIY TEST TEST O‘TKAZISH

Test topshiriqlari ustida ishleng.

1-VARIANT

1. Qaysi javobdagi barcha so‘zlar o‘zaro sinonim bo‘lgan yasama fe‘llar hisoblanadi?
A) tortiq, sovg‘a, tuhfa B) qah-qah otmoq, hiringlamoq, kulmoq
C) yugurmoq, chopmoq, yelmoq D) shivirlamoq, so‘zlamok, gapirmok
2. Qaysi javobdagi yasama so‘zning asosi jarangli undosh va unlidan iborat ?
A) tushirtirmok B) changimok C) oqimtir D) davolamok
3. Qaysi javobda shakldoshiga ega bo‘lgan asosdan yasalgan yasama so‘z berilgan?
A) tushirtirmok B) changimok C) oqimtir D) davolamok
4. Bunda na g‘am bor, na azob, unda yashash quvonchi, pok muhabbat, bitmas-tuganmas orzu va qudrat bor edi. Ushbu gapda nechta tub mavhum ot bor?
A) 6 ta B) 4 ta C) 1 ta D) 5 ta
5. Berilganlardan qaysilari sof ko‘makchi hisoblanadi? 1) singari; 2) bilan; 3) ammo; 4) uzra; 5) keyin; 6) xayriyat; 7) qadar.
A) 1, 3, 6, 7 B) 2, 4, 5, 6 C) 1, 2, 4, 7 D) 2, 3, 5, 7

6. Quyida berilganlardan qaysilari modal soʻz hisoblanadi?
 1) xullas; 2) faqat; 3) darhaqiqat; 4) xayriyat; 5) chunki; 6) biroq.
 A) 2, 3, 6 B) 3, 4, 5, 6 C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 4, 5
7. Qaysi javobda faqat teng boglovchilar berilgan?
 A) bir ... bir, va, toki, yaʼni B) lekin, yoki, goh...goh, hamda
 C) chunki, ammo, hamda, na ... na D) bilan, yo ... yo, na ... na, agar
8. Qaysi javobda oʻzlik nisbatidagi feʼllar berilgan?
 A) jimirlamoq, silkinmoq B) koʻrinmoq, kiyinmoq
 C) taralmoq, yiqitmoq D) oʻylanmoq, sargʻaymoq
9. Qaysi javobda yasama holat feʼli berilgan?
 A) tishlamoq B) soʻlmoq C) koʻkarmoq D) gapirmoq
10. Qaysi javobda ravish qatnashgan?
 A) Soʻnggi pushaymon – oʻzingga dushman.
 B) Itning akillashidan choʻchib uygʻonib ketdim.
 C) Mana mavsum ham oxirlab qoldi. Mashina terimi tugay deb turibdi.
 D) Ular hozircha kovlab kirolmabdilar, lekin allaqancha yerni oʻyib yuboribdilar.
11. Qaysi javobda soʻroq olmoshi qatnashgan?
 A) Toshkentning qayeriga qaramang, hashamatli binolar qad rostlamoqda.
 B) Tong otmoqda. Qishloq allaqachon uygʻongan.
 C) Quruq gapning oʻzi hech qachon loʻnda dalil boʻla olmaydi.
 D) Nazira opa yuzlarida qandaydir tabassum bilan qutini tita boshladi.
12. –in qoʻ shimchasi bilan yasalgan sifat berilgan qatorni toping.
 A) tiqin, yigʻin B) chirkin, yogʻ in C) toʻkin, erkin D) keskin, otashin
13. Quyidagi qaysi sifatlar sodda sifatlar sanaladi?
 1. katta 2. chiroyli 3. ishyoqmas 4. shishasimon 5. koʻkimtir
 A) 1,2,3 B) faqat 1 C) 1,2,3,4,5 D) 1,2,4,5
14. Quyida berilgan sheʼrda nechta ot turkumiga mansub soʻz qoʻllangan?
 Oʻzbekiston - goʻzal diyor,
 Saodatga mehnati yor,
 Oʻzgacha bir hikmati bor,

Halollikka aytar alyor.

A) 8 ta B) 7 ta C) 6 ta D) 5 ta

15. Soʻzlarning grammatik maʼnolarini ifodalovchi grammatik shakllar tilshunoslikning qaysi boʻlimida oʻrganiladi?

A) morfologiyada B) leksikologiyada C) sintaksisda D) fonetikada

16. Qaysi javobda holat ravishlari berilgan?

A) yugurib, harsillab, shoshib B) arang, mardlarcha, jim

C) dir-dir, kuyinib, yumshoq D) olgʻa, qiynalib, koʻp

17. Qaysi qatorda ravish yasovchi qoʻshimchalar mavjud?

A) -cha, -lab, -larcha, -ona. B) -li, -ser, -dor, -siz.

C) -gich, -don, -oq. D) -soz, -boz, -vchi.

18. Quyida berilgan sheʼrda nechta sifat turkumiga mansub soʻz qoʻllangan?

Oʻzbekiston – goʻzal diyor,

Saodatga mehnati yor,

Oʻzgacha bir hikmati bor,

Halollikka aytar alyor.

A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta

19. Olmoshlarning qaysi turida qoʻshma olmoshlar bir turdagi olmoshlardan tashkil topgan?

A) belgilash B) soʻroq C) koʻrsatish D) kishilik

20. Uchala shaxs birlik, koʻplikdagi olmoshlarga sinonim boʻlgan olmoshlarni toping. A) koʻrsatish B) soʻroq C) kishilik D) oʻzlik

21. Quyidagi qaysi sifatlar qoʻshma sifatlar sanaladi?

1. katta 2. chiroyli 3. ishyoqmas 4. shishasimon 5. koʻkintir

A) 1,2,3 B) faqat 3 C) 1,2,3,4,5 D) 1,2,4,5

22. Sifatlarni aniqlang. 1) kechki; 2) doimiy; 3) mafkuraviy; 4) dastlabki; 5) turtki; 6) oʻyinchoq; 7) erinchoq.

A) 1, 3, 4, 6, 7 B) 1, 2, 3, 4, 5, 7 C) 1, 2, 3, 4, 7 D) 3, 7

23. Tinglovchiga ishora qiluvchi shaxs olmoshlarini belgilang.

A) men, biz B) sen, siz C) u, ular D) kamina, faqir

24. Qaysi qo‘shimcha so‘zlarga zamon qo‘shimchalaridan keyin qo‘shilishi mumkin?

- A) faqat shaxs-son B) shaxs-son, bo‘lishsizlik
C) shaxs-son, nisbat D) shaxs-son, mayl

25. Chidamliligidan so‘zida so‘zga yangi ma’no beruvchi nechta morfema bor? A) 1ta C) 3ta B) 2ta D) 4ta

2-VARIANT.

1. Qaysi gapda sodda yasama holat ravishi ishtirok etgan?

- A) Dushman bilan tortishayotganingizda ham mardlarcha fikr bildiring.
B) Ular asta-sekin ko‘zdan olib borishardi, biz esa ularni kuzatib qoldik.
C) Olmaxon yerdan ko‘ra daraxtda yanada tezroq yuguradi.
D) Kentik oy cho‘qqilar orasidan mo‘ralaydi, Jamila esa oyga termilib zavqlanardi.

2. Barcha shodlik senga bo‘lsin, bor sitam, zorlik menga,
Barcha dildorlik senga-yu, barcha xushtorlik menga.

Ushbu gapda olmoshning nechta ma’no turiga oid so‘zlar qatnashgan?

- A) 5 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta

3. Unsin qarshisiga yugurib chiqqan Zumrad bilan quchoqlashib ko‘risha ketdi.
Ushbu gapda nechta ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasi qatnashgan?

- A) 2 ta B) 4 ta C) 1 ta D) 3 ta

4. Qaysi gapda vazifadosh biriktiruv bog‘lovchisi qatnashgan?

- A) Cho‘lquvarlarni na issiq, na suvsizlik yenga oladi.
B) Shundan so‘ng ishlarim yurishib ketdi ham yerim yonimga qoldi.
C) Qish kirib keldi-yu, kunlar sovimadi.
D) Shuni bilginki, haromning kasri yo farzandga, yo davlatga urar.

5. Bunda na g‘am bor, na azob, unda yashash quvonchi, pok muhabbat, bitmas-tuganmas orzu va qudrat bor edi.

Ushbu gapda nechta yasama mavhum ot bor?

- A) 6 ta B) 4 ta C) 1 ta D) 5 ta

6. Qaysi javobda miqdor-daraja ravishi qatnashgan?

- A) G‘afurjon tashqariga chiqib boydan ketishga izn so‘radi.

- B) U raisga muammoni yotig‘i bilan tushuntirdi.
- C) Bo‘ying sal cho‘zilsin, duradgorga shogirdlikka beraman.
- D) Bugun bir qop somon, o‘n-o‘n beshta xoda olib kelindi.
7. Qaysi gapda olmoshning ma‘nosiga ko‘ra to‘rt turi qatnashgan?
- A) Sen shuni hech qachon yodingdan chiqarmaki, yillar o‘tgan sari er-xotin oltin va gavharga aylanib boradi.
- B) Har qaysi millatning o‘ziga xos ma‘naviyatini yuksaltirishda oilaning o‘rni va ta‘siri beqiyosdir.
- C) Har birimiz o‘z ustimizda doimo ishlab, butun jamiyatimiz uchun foydali ishlar qilishimiz darkor.
- D) Hamma gapdan, hatto mening hayotimdan ham xabardor bo‘lgan mana bu yigit kim?
8. Qaysi gapda quvonch ma‘nosini bildirgan modal so‘z ishtirok etgan?
- A) Xayriyat, odamlarimizga insof va diyonat qaytib kelmoqda.
- B) Xullas, biz ulug‘ ajdodlarning davomchilarimiz.
- C) Ehtimol, ertaga o‘ziga isitib berish uchun shunday deyayotgandir.
- D) Haqiqatan ham, ko‘rshapalaklar qushlar bilan hayvonlar o‘rtasidagi jonivorlardir.
9. Hayot go‘zal, hayot maroqli,
Shuning uchun erka ko‘ngil shod.
Ushbu she‘riy parchada qatnashgan sifatlar haqidagi qaysi fikr to‘g‘ri?
- A) Asliy va nisbiy yasama sifatlar ishtirok etgan.
- B) Tub sifatlar tobe bog‘lanishlarda faqat hokim qism vazifasida qo‘llangan.
- C) Tub va yasama asliy sifatlar ishtirok etgan.
- D) Ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida qo‘llangan nisbiy sifat ishtirok etgan.
10. So‘ri oldida chiroyli, xushbo‘y, ko‘m-ko‘k, sariq gullar o‘sib yotardi.
Mazkur gapdagi sifatlar haqida berilgan qaysi ma‘lumot to‘g‘ri emas?
- A) Otlashgan sifat qatnashgan. B) Sifatlar uyushiq aniqlovchi vazifasini bajargan.
- C) Tub va yasama sifatlar qatnashgan. D) Sifatlar ma‘noviy jihatdan uch turga oid.

11. Qaysi javobdagi gapda aniqlovchi vazifasida kelgan tovushga taqlidni bildirgan soʻz qoʻllangan?

- A) Namozning gʻazabi oshib, dagʻ-dagʻ qaltiray boshladi.
- B) Yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda gʻoʻngʻir-gʻoʻngʻir ovozdan uygʻonib ketdim.
- C) Kimdir ertalabdan darvozani taq-taq urardi.
- D) Shoikrom onasining barmoqlari tars-tars yorilib ketganini endi payqadi.

12. Hosildan boʻshagan kuzgi dalalarda ishlash maroqli.

Ushbu gapdagi yasama soʻzlar haqida berilgan qaysi maʼlumot toʻgʻri emas?

- A) Feʼl yasovchi qoʻshimchani otga qoʻshilishi kuzatiladi.
- B) Yasama sifat 2 oʻrinda qatnashgan.
- C) Sifat yasovchi qoʻshimchalarning otlarga qoʻshilishi kuzatiladi.
- D) Yasama feʼl faqat bir oʻrinda qatnashgan.

13. Uyni qiya ochiq eshigi oldida turgan bolakay sekingina ichkariga kirdi.

Ushbu gap haqidagi qaysi maʼlumot toʻgʻri emas?

- A) Gapda asosi oʻz shakldoshi bilan turli turkumga oid boʻla oladigan kesim vazifasidagi feʼl qatnashgan.
- B) Gapda asosi feʼl bilan shakldosh boʻla oladigan ega vazifasidagi ot qatnashgan.
- C) Gapda asosi feʼl bilan shakldosh boʻla oladigan qaratqich aniqlovchi vazifasidagi ot qatnashgan.
- D) Gapda asosi ot bilan shakldosh boʻla oladigan sifatdash qatnashgan.

14. Sifat + ot koʻrinishidagi qoʻshma sifatlar berilgan qatorni aniqlang.

- A) toshbagʻir, kulrang B) kamhosil, kamqon
- C) tezoqar, jigarrang D) balandparvoz, sofdil

15. Asliy sifatlar berilgan qatorni aniqlang.

- A) baland, goʻzal B) koʻchma, sheryurak C) devoriy, devqomat D) derazali, qishki

16. Ajoyib milliy urf-odatlarimiz odamlarni hamjihatlikka, birodarlikka va samimiyatga chorlaydi.

Ushbu gapda ishtirok etgan otlarga oid qaysi maʼlumot toʻgʻri emas?

- A) Ushbu gapda aniq va mavhum otlar qatnashgan.
- B) Ushbu gapdagi barcha otlar tuzilishiga koʻra oʻzaro bir turga oid hisoblanadi.

C) Ushbu gapdagi soʻz birikmalarida hokim qism vazifasini bajargan ot qatnashgan.

D) Ushbu gapdagi otlar ega va toʻldiruvchi vazifasini bajargan.

17. Qaysi qatorda toʻdalab, guruhlab koʻrsatuvchi hisob soʻzlari berilgan?

A) burda, para, dasta B) bogʻ, quchoq, dasta C) gala, tilim, ogʻiz D) hovuch, nafar, karch

18. Qaysi olmoshlar ham juft holda, ham takror holda ishlatilishi mumkin?

A) soʻroq, kishilik, oʻzlik olmoshlari B) barcha olmoshlar
C) koʻrsatish olmoshlari D) kishilik va koʻrsatish olmoshlari

19. Darhaqiqat, agar voqealarning kechishini diqqat bilan kuzatsak, hatto Abu Yusuf bilan Zuhrabegi ogʻa ham uning niyatidan xabardorligini tushunib yetamiz.

Ushbu gapdagi mustaqil soʻz turkumlariga mansub boʻlmagan soʻzlarning turkumini aniqlang. 1) koʻmakchi; 2) bogʻlovchi; 3) yuklama; 4) undov soʻz; 5) taqlid soʻz; 6) modal soʻz.

A) 2, 3, 5 B) 3, 4, 6 C) 1, 4, 5, 6 D) 1, 2, 3, 6

20. Qaysi maqolda ikki oʻrinda shaxs oti qoʻllangan?

A) Mehmon otangdan ulugʻ. B) Arslon izidan qaytmas, yigit – soʻzidan.
C) Zar qadrini zargar biladi. D) Kattaga hurmatda boʻl, kichikka izzatda boʻl.

21. Biroz yurishgandan soʻng mulozimlar shoirning qabristonga yaqinlashganda otdan tushishi sababini soʻrabdilar. Ushbu gapda qatnashgan feʻllar haqidagi toʻgʻri maʼlumotni aniqlang.

A) Gapdagi barcha feʻllar oʻtimsiz feʻllar sanaladi.

B) Gapda feʻl nisbatlarining ikki turi qatnashgan.

C) Gapdagi barcha feʻllar tub feʻllar sanaladi.

D) Gapda feʻl vazifa shakllarining ikki turi qatnashgan.

22. Ham ot, ham sifat yasovchi omonim qoʻshimchalani toping.

A) -qi, -gi, -kash, -boz, -iy, -viy B) -gi, -ki, -qi, -in, -ma, -lik

C) -li, -simon, -dosh, -gʻich, -q D) -dor, -choq, -in, -kash, -chan, -siz

23. Otlashgan son berilgan qatorni aniqlang?

A) Beshta qiz salqin hovlida chir-chir aylanib koptok oʻynar edi.

B) Ular ancha gaplashib turgandan keyin, biri qishloq tomonga ketdi, ikkinchisi orqaga qaytdi.

C) Bir kilogramm paxta tolasidan o'n ikki metr chit metr batist tayyorlash mumkin

D) Alisher Navoiy XV asrda yashab ijod etgan.

24. Quyida berilgan qaysi fe'llarning asosida ifodalangan o'timli-o'timsizlik ma'nosi nisbat qo'shimchasi ta'sirida o'zgargan?

1) ko'rsatmoq; 2) ajratmoq; 3) qiynalmoq; 4) o'qitmoq; 5) tomizmoq; 6) supurishmoq

A) 2, 3, 5 B) 2, 3, 4, 5 C) 1, 4, 5, 6 D) 1, 4, 6

25. Songa xos bo'lmagan xususiyat qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

A) otlashadi B) egalik qo'shimchalarini oladi C) yasaladi D) turlanadi

144-§. MUSTAHKAMLASH DARSII



Topshiriq

1-topshiriq. A.Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanidan olingan quyidagi parchani o'qing. Matn tarkibida qo'llangan lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan so'zlarni topib, so'z turkumini aniqlang. Ostiga chizilgan so'zlarning ma'nosini «O'zbek tilining izohli lug'ati»dan aniqlab o'rganing.



Musulmonqulning aholi ustiga bo'lg'an jabr-u zulmi haddan tashqari oshib ketdi. Uning istibdodi o'zga shaharlarga uncha sezilmasa ham, ammo markaz – Qo'qon odamlarini juda to'yirdi. Uning o'z kayficha oyda emas, haftada solib turg'an soliqlari fuqaroning terisini shilsa, arzimagan sabablar bilan qora chopon beklarini ostirib, kestirib turishi xosni (xavosni) ham esankiratdi. Otig'ag'ina xon bo'lib o'lturg'uchi Xudoyor ham ostirish, kestirish va yorlaqash o'z ixtiyorida bo'lg'an Musulmonqul maydondan olinmagan fursatda o'zining qo'g'irchoqsifat yuraberishini tushundi. Ko'bdan beri unga yuragida kek saqlab kelib, ammo ne tariqada najotga chiqishini bilmadi. Chunki ul

suyanadirgʻan Qoʻqon beklarini «mana» deganlari Musulmonqul va kishilari (qipchoqlar) tomonidan osilib kesilganlar, qolgʻanlari tovush chiqarishgʻa majolsiz edilar. Atrof shahar va qishloq beklari ham aksar qipchoqlardan, yaʼni Musulmonqulning oʻz odamlaridan, ulardan bir ish kutish yana mumkin emas.



Topshiriq

2-topshiriq. Rasmda tasvirlangan kasb turlari boʻyicha shaxs otlari yasab, feʼning vazifa shakllari yordamida soʻz birikmasi yoki gaplar tuzin



Topshiriq

3-topshiriq. *Rahmat , barakalla, tashakkur, balki, ura, kabi, jimir-jimir, oh-oh, zero, madomiki, ehtimol, axir, agar, negaki, orqali, holbuki, qadar, uzra, shilq, yangligʻ kabi soʻzlarni turkumlarga ajrating hamda misollar bilan bilan daftaringizga yozing.*



Topshiriq

4-topshiriq. Sheʼni ifodali oʻqing, quyida berilgan topshiriqlarni bajaring.

Sen boʻlmasang, tan boʻlar-u dil boʻlmagay,
Sahro boʻlar dunyolar ham, gul boʻlmagay,
Taraqqiyot sari milcha yoʻl boʻlmagay.
Kelajakka chorlaguvchi yangroq ovoz,
Mukarramsan, muhtaramsan, aziz ustoz!

Men tug‘ildim, yashamoqni o‘rgatding – sen,
 Men yashadim, yashamoqni o‘rgatding – sen
 Yashnab qadam tashlamoqni o‘rgatding – sen.
 Yo‘llaringga umrim bo‘lsin gul-poyonoz,
 Mukarramsan, muhtaramsan, aziz ustoz!

(Ra‘no Fayzullayeva)

1. She‘rning 1-bandida qaysi so‘z turkumlari borligini aniqlang.
2. Lug‘aviy ma‘noga ega bo‘lmagan so‘zlarni daftaringizga ko‘chirib yozing;
3. Ostiga chizilgan so‘zni morfemik tahlil qiling.
4. Matnda qo‘llangan sifatlar va ularning ma‘no turlarini aniqlang, daftaringizga yozing.



1-mashq. Tog‘ay Murod qalamiga mansub «**Yulduzlar mangu yonadi**» asaridan audioparcha tinglang. Siz tinglagan matndan bir gapni daftaringizga yozing va uni morfologik tahlil qiling.

Namuna: «Xalq nimasi bilan xalq? O‘zining urf-odatlarini bilan xalq. Ko‘p odamlar milliyligimizni o‘ziniki qilib olmoqda..»

Morfologik tahlil namunasi:


T/r	So‘zlar	So‘z turkumi	Ma‘no guruhi	Asos	So‘z yasovchi qo‘shimcha	Shakl yasovchi qo‘shimcha	
						Lug‘aviy	Sitaktik
1.	xalq	ot	turdosh ot, birlik son, to‘da ot	xalq	-	-	-

2.	nimasi	olmosh	so‘roq olmoshi	nima	-	-	-si egalik qo‘shimchasi, 3-shaxs , birlik son
----	--------	--------	-------------------	------	---	---	--



«O‘zbek tilining imlo lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning yozilishini bilib oling. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiling.

Ohangdor, xatti-harakat, halqa, xomtok, halloslamoq, nisholdafurush²⁷¹



Tarix bo‘yicha savol: Buyuk sarkarda Iskandar Zulqarnaynning qo‘shinlari orasida maxsus 700 kishilik saralangan jangchilari bor edi. Ularning bir xislati tufayli raqib qo‘shinlari ular bilan jang qilishga qiynalishar edi.

Savol: Saralangan jangchilarning qanday xislati bor edi?



2-mashq. Uyga vazifa. Bilimingizni mustahkamlang. Savollarga javob bering.

1. So‘z turkumlarini tasniflang.
2. So‘zlarning lug‘aviy va grammatik ma’nolari haqida ma’lumot bering.
3. Grammatik shakl deganda nimani tushunasiz?
4. Yordamchi so‘z turkumlari va ularning vazifalari haqida ma’lumot bering.
5. Alohida guruh so‘zlari qaysilar?
6. Turlanish nima? Turlanish xususiyatiga ega so‘z turkumlari qaysilar ?
7. Ravish haqida ma’lumot bering.
8. Yasalish xususiyatiga ega bo‘lgan so‘z turkumlari qaysilar?
9. Undov so‘zlar va ularning xususiyatlarini tushuntiring.
10. Taqlid so‘zlar ma’nosiga ko‘ra qanday guruhlarga bo‘linadi?
11. Modal so‘zlar haqida nimalarni bilasiz?
12. Ismlar va ularning mustaqil so‘z turkumlaridan farqini tushuntiring.

²⁷¹ O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 2013.240b. 280-;273-b

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 1984. 216 b. 152-b
2. Mengliyev B. , Xoliyorov O‘. , Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. 6-nashr. –T.: Akademi-nashr”.2018.
3. Odam.uz sayti
4. A.Qodiriy "Mehrobdan chayon".- T.: "Sharq" 2004.
5. 239 Bolalar uchun ensiklopediya. Dunyo mo‘jizalari. Toshkent: "Davr nashriyoti" 2013
6. 241 O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 2013.
7. Ad.:Rashidad-Din, Sbornik letopisey, t.1, kniga 2, [Perevod s pers. yaz. O. I. Smirnovoy], M.—L.,1952; Bartold V. V., Sochineniya, t.1, M.,
8. Mirzo Ulug‘bek, To‘rt ulus tarixi, T., 1994.
9. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000- 2005)
- 10.Mulohazalashamiz telegram kanali
- 11.<https://azon.uz/content/views/non-ichidagi-tilla-haqida-rivoyat>
- 12.Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”.1963.
- 13.<https://saviya.uz/>
- 14.https://uz.wikipedia.org/wiki/Ochiq_ensiklopediya
- 15.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. A.Madvaliyev tahriri ostida. –T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”. 2005-2008. Izohli lug‘at II tom
- 16.<https://n.ziyouz.com/>
17. www.ziyouz.com kutubxonasi
- 18.G‘ani Abdurahmonov, Hasanali Rustamov Ona tili. 1997 y
- 19.264 Ma‘rufov A. Paronimlar lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 1974.
- 20.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. A.Madvaliyev tahriri ostida. –T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”. 2005-2008.

21. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”. 2005-2008.
22. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. A. NURMONOV, N. MAHMUDOV, A. SOBIROV, Sh. YUSUPOVA. T.2013
23. Xurshid Davron. Shahidlar shohi yoxud Najmiddin Kubro tushlari. Ma’rifiy qissa <https://kh-davron.uz/>
24. Ona tili va adabiyot. 2019-yil. Test topshiriqlari to‘plami.–Toshkent.: Davr Press,2019.
25. “Farzand tarbiyasi” kanalidan.
26. “Falsafiy asarlar” kanalidan.
27. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sh. Shoabdurahmonov va boshq. Toshkent.: “O‘qituvchi”, 1980-y.
28. Ma’rufov A. Paronimlar lug’ati. –T.: “O‘qituvchi”. 1974.
29. Mirtojiev. Hozirgi o‘zbek tili. Toshkent. “O‘qituvchi”, 1992-yil.

Mundarija

1-§. Milliy til taraqqiyoti.....	3
2-§. Adabiy tilning og'zaki va yozma ko'rinishi.....	7
3-§. O'zbek adabiy tilining taraqqiyoti.....	14
4-§. O'zbek tiliga davlat maqomining berilishi.. O'zbek tilining o'tmishi, buguni, ertangi kuni.....	19
5-§. O'zbek tilining tovush tizimi..Unli tovushlarning talaffuzi va imlosi.....	22
6-§. Undosh tovushlarning talaffuzi va imlosi.....	27
7-§. Undosh tovushlarning talaffuzi va imlosi (amaliy).....	30
8-§.Tovush o'zgarishlari.....	35
9-§. Bo'g'in va uning turlari.....	37
10-§. Urg'u va uning turlari.....	41
11-§. O'zbek yozuvlari tarixi.....	45
12-§. O'zbek alifbosi.....	51
13-§. IV BO'LIM. Orfografiya.. Talaffuz me'yorlari.Og'zaki nutqqa xos tovush o'zgarishlari.....	55
14 – §. Ohang va uning nutqdagi ahamiyati.....	60
15-§. V BO'LIM. Imlo. O'zbek tilining imlo qoidalari. Yozuv tamoyillari...	63
16-§. Yozuv tamoyillari.....	67
17-§. Lotin yozuviga asoslangan yangi imlo qoidalari. Unli va undohlar imlosi.....	71
18-§. Asos va qo'shimchalar imlosi.....	75
19-§. Chiziqcha bilan yozish.....	80
20-§. Ajratib yozish.....	83
21-§. Qo'shib yozish.....	87
22- §. Bosh harflar imlosi. Ko'chirib yozish.....	91
23- §. O'zbek tilining imlo qoidalari yuzasidan amaliy ish.....	95
24-§. VI BO'LIM. Leksikologiya. Leksik birliklar. O'zbek tili leksikasining rivojlanishi va boyish manbalari.....	97

25 –§. Leksikologiya. Leksik birliklar. O‘zbek tili leksikasining rivojlanishi va boyish manbalri (amaliy)	102
26–§. O‘z va ko‘chma ma’no. Bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar.....	105
27–§. Ko‘chma ma’nolar va ularning turlari. Metafora va uning uslubiyati....	109
28–§. Metonimiya va uning uslubiyati. (amaliy).....	115
29–§. Sinekdoxa, vazifadoshlik va ularning uslubiyati.....	120
30–§. Omonim, sinonim va ularning uslubiy xususiyatlari.....	124
31– §. Omonim, sinonim va ularning uslubiy xususiyatlari.(amaliy).....	129
32- §. Antonimlar, paronim va ularning uslubiy xususiyatlari.....	136
33- §. §. Antonimlar, paronim va ularning uslubiy xususiyatlari (amaliy).....	141
34–§. Evfemizm va disfemizmlar.....	145
35-36–§. Yakuniy nazorat.....	149
37–§. Eskirgan so‘zlar va yangi paydo bolgan so‘zlar.....	152
38–§. Terminologiya (Atama va atamashunoslik).....	155
39–§. Frazologiya (iboralar) uslubiyati.....	157
40–§. O‘zbek leksikografiyasi. Qomusiy va filologik lug‘atlar.....	165
41–§. Izohli lug‘at, tarjima lug‘at va ulardan foydalanish.....	169
42–§. Imlo va etimologok lug‘atdan foydalanish.....	173
43–§. Lug‘atlar ustida ishlash.....	177
44-45–§. So‘z tarkibi. Qo‘shimchalarning vazifasiga ko‘ra turlari.....	181
46–§. Lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar.....	187
47–§. Lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar yuzasidan amaliy ish.....	191
48–§. Qo‘shimchalarda shakldoshlik	194
49–§. Qo‘shimchalarda ma’nodoshlik	196
50–§. Qo‘shimchalarda zid ma’nolilik	201
51–§. So‘z yasalishi. So‘z yasalish tuzilishi. So‘z yasash usullari	203
52–§. Ot, sifat so‘z turkumlarining yasalishi	206
53–§.Matndan yasama so‘zlarni aniqlash. So‘z yasash jarayonida ro‘y beradigan o‘zgarishlar.....	209

54–§. Fe’l, ravish so‘z turkumlarining yasalishi.....	213
44-45-§. So‘z tarkibi. Qo‘shimchalarning vazifasiga ko‘ra turlari.....	181
55–§. Matnda yasama so‘zlarni aniqlash.....	215
56–57–§. Uslubiyat. nutq uslublari. so‘zlashuv uslubi.....	219
58–§. Rasmiy uslub.....	228
59–§. Ilmiy uslub.....	233
60 –§. Ilmiy uslub matni ustida ishlash.....	236
61–§. Publitsistik uslub.....	238
62-63-§. Badiiy uslub. badiiy uslub matni ustida ishlash.....	242
XI BO‘LIM. 64-65-§. Ish qog‘ozlari. Hujjat turlari. tushuntirish xati, tarjimayi hol.....	247
66 –§. Tabriknoma, e’lon, taklifnoma.....	252
67–§. Ariza, tavsifnoma, tavsiyanoma.....	256
55–§. Matnda yasama so‘zlarni aniqlash.....	215
68 –§. Rasmiy hujjat matni ustida ishlash.....	263
69–§. Ish qog‘ozlari: Tilxat, dalolatnoma, ishonchnoma.....	266
70–§. Ish qog‘ozlari: shartnoma va buyruq.....	270
71-72–§. Oraliq nazorat. Yakuniy nazorat.....	276
81-88-§. Sifat va uning uslubiyati	284
89- 95-§. Son va uning uslubiy xususiyatlari	290
96-104-§. Olmoshlarning uslubiyati.....	298
105-§. Fe’l va uning uslubiy xususiyatlari. Fe’llarning ma’noviy turlari hamda uslubiy xoslanishi haqida ma’lumot.....	306
106-§. Nisbat shakllari uslubiyati.....	310
107-§. Mayl qo‘shimchalarining uslubiy xususiyatlari.....	316
108-§. Shaxs-son qo‘shimchalarining uslubiy xususiyatlari.....	319
109-110-§. Zamon qo‘shimchalarining uslubiy xususiyatlari. Shaxs-son va zamonning ifodalanishi.....	323
111-112-§. Fe’llarning yasalishi, qo‘shimchalar yordamida fe’l yasash.	

Soʻz qoʻshish bilan feʼl yasalishi va ularning sinonimiyasi.....	327
113-§. Yetakchi va koʻmakchi feʼllar haqida. Koʻmakchi feʼllar va ularning vazifalari.....	331
114-§. Togʻay Murodning «Ot kishnagan oqshom» asaridan olingan parchada zamon va shaxs-son shakllarining ifodalanishi, uslubiy vazifalari haqida bahs yuritish. Yozuvchining ifoda uslubini tahlil qilish. Asar tiliga munosabat bildirish.....	334
115-§. Inkor shakllari. Boʻlishsizlik shakli, yoʻq, emas soʻzlari, inkor yordamchisi, ohang orqali inkor qilish. Koʻmakchi feʼlli soʻz qoʻshilmasiga inkor shaklining qoʻshilishi.....	338
116-§. Matnda ifodalangan inkor shakllarini aniqlash. Matndan anglashilgan fikrga munosabat bildirish.«Mening fikrim boshqacha» mavzusida yuqoridagi matnga raddiya yozish.....	341
117-121§. Ravishlarning maʼno turlari: tub va yasama ravishlar, ularning uslubiy xususiyatlari.....	344
123-§. Yordamchi soʻz turkumlari. Yordamchi soʻz turkumlarining vazifasi...	354
124-127-§. Koʻmakchilar va ularning vazifasi.....	360
128-§. Koʻmakchilar va kelishiklar maʼnodoshligi.....	363
129-§. Sof va vazifadosh koʻmakchilar.....	366
130-131-§. Bogʻlovchilar va ularning uslubiy xususiyatlari.....	372
132-133-§. Yuklamalarning uslubiy xususiyatlari.....	375
134-135-§. Alohida soʻzlar. Undov soʻzlar va ularning uslubiy xususiyatlari	378
136-137-§. Taqlid soʻzlar va ularning uslubiy xususiyatlari.....	382
138-139-§. Modal soʻzlar va ularning uslubiy xususiyatlari.....	385
140-141-§. Undov, taqlid va modal soʻzlardan nutqda toʻgʻri foydalanish ustida ishlash.....	390
142-143-§. Morfologiya boʻyicha yakuniy test oʻtkazish.....	394
144-§. Mustahkamlash darsi.....	401

N. S. Sulaymonova, O. S. Usmanova, T. X. Xoljurayev, F. X. Namozova,
M. Yu. Karimova, S. R. Botirova, S. Y. Gazibekova

ONA TILI

Akademik litseylarning ona tiliga chuqurlashtirib o‘qitiladigan
ta’lim yo‘nalishlari 1- bosqich o‘quvchilari uchun darslik

Muharrir: Usmanova Osiyo

Texnik muharrir: Abdusattarov Inomjon

Kompyuterda sahifalovchi: Alixonov Ismoil

Toshkent – 2023